

FALSAFA



998.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

FALSAFA

To'ldirilgan ikkinchi nashri

*Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun
o'quv qo'llanma*


Mazkur o'quv qo'llanma akademik
rahbarligida tayyorlangan.

Erkin Yusupovich Yusupov ilmiv

Qo'llanma akademiklar **E. Yu. Yusupov**, **S. Sh. Shermuhamedov**, falsafa fanlari doktorlari, professorlar **A. T. Ayupov**, **I. R. Rahimov** **A. M. Jalolov**, **B. To'rayev**, **S. Mamashokirov**, **F. Ismoilov**, filologiya fanlari doktori **N. Komilov**, falsafa fanlari nomzodlari, dotsentla **Sh. Azizov**, **A. Hojiboyev**, **A. O'tamurodov**, **A. Ochigliyev**, **B. Iskandarov** **A. Zohidov**, **X. P. To'xtayev**, **N. M. Musayev**, **A. Nasriddinov**, **O'. Yusupov** hammuallisligida yozilgan.

Mas'ul muharrir: **S. MAMASHOKIROV** — falsafa fanlari doktori professor.

Taqribachilar: **B. ALIYEV** — falsafa fanlari doktori, professor;
I. SAIFNAZAROV — falsafa fanlari doktori, professor.



F **0301010000—177**
353(04)—2004 Qat'iy buyurtma — 2005·

ISBN 5—645—04278—6

© „O'qituvchi“ NMIU, 2005



KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach yaratilgan shartsharoitlar, mavjud ehtiyojlar va imkoniyatlar falsafa faniga milliy ma'naviyatni o'zida aks ettirgan umuminsoniy qadriyat sifatida yondashish, jamiyat tarixida shakllangan muqobil falsafiy ta'limotlarni bir-biri bilan uzviy bog'langan hodisa sifatida qarashni taqozo etmoqda.

Barcha falsafiy ta'limotlar milliy, mintaqaviy jihatlarga ega bo'lsa ham, olamni bilish, fan va amaliyot yutuqlarini ilmiy umumlashtirishning bir-biri bilan bog'langan turli yo'llari va usullaridir. Tabiat, jamiyat, inson va uning ma'naviyati tahlili tarixida ularning o'ziga xos o'rni va ahamiyati bor. Shu sababli materializm va idealizmni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish, ularni progressiv va reaksiyon sinflarning mafkurasini sifatida ta'riflab: birini ijobiy, ikkinchisini salbiy deb baholash ilmiy tafakkur mezonlariga ziddir. Falsafa aniq tarixiy davrlarda, sharoitlarda muayyan darajada rivojlangan, yaxlit fan hisoblanadi.

Falsafa inson bilimlarining oddiy yig'indisi emas, balki ularni aqliy umumlashtirish asosida shakllangan, ilmiy, axloqiy asoslangan umumiylar xulosalar tizimidir. Inson falsafiy tafakkur orqali o'z mohiyatini, borliqdagi o'rnni biladi, avlodlar qoldirgan meros, o'z davrining amaliy, ilmiy yutuqlarini umumlashtirib, olamni bir-biri bilan bog'langan, taraqqiyotda bo'lgan jarayon sifatida anglaydi, istiqbol rejalarini belgilaydi. **Falsafa — tafakkur madaniyati, borliq haqidagi bilimlarning insoniy ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy taraqqiyoti tarixinining umumlashgan ifodasıdir.**

Falsafa insoniyat tarixida amalga oshirilgan boy tajribani yaxlit o'rganib, umumlashtirib, ularning ijobiy, salbiy jihatlarini tahlil etib, keljakni oldindan ko'rishga imkon beradigan, kishilarning yangi sharoitlardagi faoliyatiga asos bo'ladigan umumiylar xulosalar tizimini yuzaga keltiradi. Falsafada o'tmish tahliliga katta e'tibor berilsa ham, asosiy maqsad — jamiyatning, insonning istiqboli bilan bog'liq bo'lgan muammolarni o'rganishdir. Shu jihatdan jamiyatning tarixi va keljagini yoritishga qaratilgan barcha ijobiy ijtimoiy, siyosiy g'oyalar, jumladan milliy g'oyalar ham, o'ziga xos falsafiy umumlashmalar, xulosalardir.

Falsafaga yangicha yondashish uning inson ijtimoiy, ma'naviy kamolotidagi o'rni va ahamiyatini ko'rsata bilishni ham taqozo etadi. Bu fan faqat faylasuflargagina emas, barcha sog'lom fikrlovchi, aqli insonlarga xos tafakkur usulidir. Falsafani bilmaydiganlar ham, hatto uni inkor etuvchilar ham, o'z hayoti va aqliy salohiyatida falsafiy fikrlash ehtiyoji doirasidan chiqib keta olmaydilar. Jamiyatda, jamoa ichida yashash, faoliyat ko'rsatish ehtiyojlari, imkoniyatlari, hayot quvonchlari va tashvishlari bizni hamma vaqt falsafiy fikrlar girdobiga tortadi.

Falsafaning ilmiy umumlashmalar qilish sohasidagi imkoniyatlari boshqa birorta fanda yo'q. Falsafani fan sifatida o'rganish: inson o'z hayoti va aqliy faoliyatida, fikrlash jarayonida o'tgan ajdodlar yaratgan meros, qadriyatlar, an'analar, fikrlash usullariga, mukammal g'oyalarga tayanishiga imkon beradi. Falsafani yoshlarga o'rgatish esa ularni erkin, ijodiy fikrlab, hayot saboqlaridan, olgan bilimlaridan mustaqil xulosalar chiqarishga o'rgatishdir.

Hozir Tabiatshunoslik, Jamiyatshunoslik fanlari tez rivojlanib bormoqda. Turli fanlar, ularning tarmoqlari soni o'n besh mingdan ortdi. Lekin, bu jarayon falsafaning ahamiyatini aslo kamsitayotgani yo'q. Fan rivojlangani sari turli sohalarda qo'lga kiritilayotgan kashfiyotlarni bir-biri bilan bog'lash, umumlashtirish, yakuniy xulosalar chiqarishga ham ehtiyoj ortib bormoqda. Fanlarning qudrati ular har biri alohida bo'lishida emas, balki bir-biri bilan bog'lanib, rivojlanishidadir. Har bir fanning predmeti alohida bo'lsa ham, ular o'rganayotgan muammolar yaxlit borliqning bir-biri bilan uzviy bog'langan, birining mohiyatini ikkinchisisiz bilib bo'lmaydigan sohalardir. Falsafa esa, olamning biror sohasini alohida olib o'rganmaydi, balki turli fanlarda qo'lga kiritilgan kashfiyotlarni bir-biri bilan bog'lab umumasl tiradi, ilmiy, axloqiy qadriyatlarga tayanib, yakuniy metodologik xu'solar chiqaradi. Hozirgi kunda turli fanlar o'rganayotgan muam.nolar bir-biridan nihoyatda olisdir. Ular hozirga qadar inson tomonidan kashf etilgan tabiat va jamiyatning barcha muammolarini o'z ichiga oladi. Bunday sharoitda bir-biridan olis bo'lgan muammolarni o'rganayotgan olimlar bir-birini falsafiy umumlashmalar orqali anglaydilar.

Falsafaga yangicha yondashish – ko'p asrlik tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan, inson aql-zakovatining yetuk mahsuli bo'lgan falsafiy meros va qadriyatlarni chuqr, xolisona o'rganish,

ularni davrimizning dolzARB muammolari bilan bog'lab rivojlantirish, mustaqil O'zbekiston tadrijiy taraqqiyotining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy muammolarini yaxlit tahlil qilish, kishilarning yangi dunyoqarashini shakllantirishdir.

Zero, Prezidentimiz I. Karimov „Fidokor“ gazetasi muxbir savollariga bergen javoblarida, haqli ravishda etiroz bildirib: „...va biz mamlakatimizda ijtimoiy fanlarning rivoji zamon talablaridan ortda qolayotganini tan olishga majburmiz. Bu borada xato va kamchiliklarni zudlik bilan bartaraf etish choralarini ko'rishimiz lozim“¹ — degan edi.

Yangi falsafa, **birinchidan**, barcha falsafiy ta'limotlarni bir-biri bilan bog'lab o'rGANISHI; **ikkinchidan**, turli xil dunyoqarashlar va fikrlar xilma-xilligiga, hurfikrlilikka asoslanishi; **uchinchidan**, milliy zaminga, umuminsoniy qadriyatlarga tayanishi; **to'rtinchidan**, mustaqillik muammolari tahlilini o'zining asosiy maqsadlaridan biri, deb bilishi, sinfiylik va partiyaviylikni hamda aqidaparastlikni butunlay rad etishi bilan markscha falsafadan tubdan farq qilishi lozim.

Har bir davrning ma'naviy kamoloti darajasi uning falsafiy g'oyalari, qadriyatlari tizimida o'zining aniq ifodasini topgan va topmoqda. Falsafiy qadriyatlar davlatlar, xalqlar va millatlar o'rtasidagi o'zaro do'stlik, hamkorlik, hamjihatlik, birlik va totuvlikni ta'minlashga, komil inson shaxsini tarbiyalashga, mustaqillikni yanada mustahkamlashga, yoshlarimizda yangicha, erkin, ijodiy tafakkur salohiyatining shakllanishiga, fan va madaniyat taraqqiyotiga ilmiy - metodologik zamin bo'lmog'i kerak. Bu vazifalarni minglab yillar davomida shakllangan, milliy, hududiy, diniy chegaralar bilan cheklanmagan, hayot sinovlaridan muvafiqiyatli o'tib sayqallangan umuminsoniy falsafiy qadriyatlarga, hozirgi taraqqiyot kun tartibiga qo'yan dolzARB muammolarni falsafiy umumlashtirishga tayanib bajarish mumkin.

Falsafa yoshlarning yangi dunyoqarashining shakllanishida, ilmiy, ijodiy tafakkur salohiyati rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Bu esa, jamiyat taraqqiyoti ma'naviy omillari mustahkamlanishining asosiy shartlaridandir.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov ijtimoiy fanlarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati ustida alohida to'xtab,

¹ I. A. Karimov. Milliy istiqlol mafkurasi — xalq etiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T., „O'zbekiston“, 2000, 26- bet.

quyidagi fikrlarni aytgan edi: „**Fanning vazifasi kelajagimizning shakli-shamoyilini yaratib berish, ertangi kunimizning yo‘nalishlarini, tabiiy qonuniyatlarini, uning qanday bo‘lishini ko‘rsatib berishdan iborat, deb tushunaman. Odamlarga mustaqillikning afzalligini, mustaqil bo‘limgan millatning kelajagi yo‘qligini, bu tabiiy bir qonuniyat ekanini isbotlab, tushuntirib berish kerak. Fan jamiyat taraqqiyotini olg‘a siljituvchi kuch, vosita bo‘lmog‘i lozim**“.¹ Bu fikrlar falsafa fani uchun ham metodologik ahamiyatga ega. Islom Karimov O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi chaqiriq o‘n to‘rtinchı sessiyasida so‘zlagan nutqida XXI asrda mamlakatimiz va xalqimiz oldida turgan asosiy vazifalar ustida to‘xtab, quyidagi fikrlarni aytdi: „**Biz farzandlarimizning barkamol ruhiy dunyosi uchun, ularning ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk, jismoniy sog‘lom bo‘lishi uchun doimo qayg‘urishimiz, kurashmog‘imiz zarur**“².

„Falsafa“ fanini o‘qitishda milliy istiqlol g‘oyasining mohiyati, ijtimoiy - gnoseologik ildizlari, jamiyat taraqqiyoti va inson ma’naviy kamoloti uchun bo‘lgan ahamiyatini chuqur yoritishning imkoniyati kattadir. Milliy istiqlol g‘oyasi tarixiy tajribani umumlashtirish asosida istiqlol sari komil ishonch bilan borish yo‘lining nazariy asoslarini ko‘rsatib beradi. Bu g‘oyaning *ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot*³ barpo etish bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy maqsadlari kishilarimizning ongiga ma’rifiy, mafkuraviy tadbirlar orqali singdiriladi. Prezidentimiz Islom Karimov ko‘rsatib o‘tganidek, „...jamiatimiz, mamlakatimiz o‘z oldiga qo‘yan ezgu muddao va vazifalarni aniq-ravshan belgilab olmasdan turib, millatimizning asriy an‘ana va urf - odatlarini, o‘zligimizning asosiy xususiyatlarini mujassam etadigan milliy mafkurani shakllantirish mumkin emas“⁴.

¹ **I. A. Karimov.** Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T., „Sharq“, 1998, 25- bet.

² **I. A. Karimov.** O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., „O‘zbekiston“, 1999, 24- bet.

³ **I. A. Karimov.** Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., „O‘zbekiston“, 2000, 51- bet.

⁴ **I. A. Karimov.** Milliy istiqlol mafkurasi — xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. Asarlar, 8- jild. T., „O‘zbekiston“, 2000, 495- bet.

Shubhasizki, bu muhim vazifani bajarish falsafa fanini ijodiy rivojlantirish, uni oliv o'quv yurtlarida o'qitishni yaxshilash, davrimizning talab va ehtiyojlariga mos keladigan yangi darsliklar, o'quv qo'llanmalari yaratish bilan ham bog'liq. Zero, falsafa inson dunyoqarashi shakllanishiga ijobiy ta'sir etadigan ma'naviy omillardan biri, uning ilmiy-nazariy asosi bo'lmog'i zarur.

Falsafaning yuqorida bayon qilingan mohiyati va ahamiyatidan kelib chiqqan holda ushbu o'quv qo'llanma oliv, o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalari uchun yozildi. Qo'llanmaning nashr etilishi, unda o'rtaga qo'yilgan mavzularning muhokama qilinishi falsafa fanini o'qitishda yana ham takomilashgan rejalarни tuzishga imkon beradi. Ushbu o'quv qo'llanmani yaratishda O'zbekiston Milliy universiteti fakultetlararo falsafa kafedrasи a'zolari, O'zbek milliy qadriyatlarи ilmiy tadqiqot markazi jamoasi, Respublika Fanlar akademiyasi Falsafa va huquq instituti xodimlari va boshqa oliv o'quv yurtlarida ishlaydigan olimlar ishtirok etishdi.



Falsafa, falsafiy tafakkur to‘g‘risida so‘z ketganda uning ikki jihatini e‘tiborga olmoq kerak. Falsafa, bir tomondan, o‘z mohiyatini anglab, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-madaniy munosabatlar ichida yashayotgan, ma’lum bilimlarni o‘rganib, ulardan hayotiy yo‘llanma bo‘ladigan yangi umumiylar xulosalar qilishga intilayotgan barcha sog‘lom fikrli kishilarga xos bo‘lgan tafakkur salohiyatidir. Inson hayot saboqlarini anglab, olgan bilimlari, orttirgan tajribasi yakunlarini muayyan e‘tiqod, manfaatlar, qadriyatlarga tayanib qilgan xulosalari ham falsafiy umumlashmalar hisoblanadi.

Bu o‘rinda O‘rta asrda yashagan buyuk arab faylasufi Al Kindiyning quyidagi fikrlari ustida to‘xtab o‘tmoq joizdir. Bir kuni shogirdlari Al Kindiydan, ustoz, ba’zi odamlar falsafa kerak emas deydiilar, ularga qanday javob berish kerak, deb so‘ragan ekanlar. Al Kindiy ularga, kimki falsafa kerak emas desa, unga, nima uchun kerak emas, deb savol beringlar. Shunda muxoliflaringiz juda ko‘p dalillarni keltirib, ularni bir-biri bilan bog‘lab, umumlashtirib, sizga javob berishga harakat qiladilar, shuning o‘zi falsafadir, degan ekan. Al Kindiyning, „***Falsafaning dushmanlari ham falsafaga muhtojdirlar***“, degan teran fikrida ham xuddi shu ma’no bor.

Inson borki, u falsafani fan sifatida o‘rganmagan bo‘lsa ham, albatta, o‘yaydi, fikrlaydi, o‘tgan avlodlardan qolgan merosni, o‘z bilimlarini, jamiyatdagi vaziyatni muayyan e‘tiqod, manfaat, bilim va qadriyatlarga tayanib qiyosiy tahlil etadi, ularni umumlashtirib, istiqlol bilan bog‘liq bo‘lgan xulosalar qilishga intiladi. Inson o‘z o‘tmishini o‘ylab, qilgan ishlarini, jamiyatda bo‘lgan va bo‘layotgan jarayonlarni muayyan vaziyatlar, qadriyatlar, g‘oyalar, maskuralar bilan bog‘lab xursand bo‘lishi, achinishi, qayg‘urishi, afsuslanishi ham hayotdagi yutuqlari, mag‘lubiyatlari, yo‘l qo‘ygan xatolarini vijdon va iymon mezonlari asosida falsafiy tahlil etishining natijasidir. Bu ham ruhiy tahlil falsafasidir.

Inson o‘z mohiyatini, jamiyatdagi burchi, mas’uliyati, manfaatlarini o‘ylaganida ham, falsafiy fikrlar girdobida bo‘ladi. Din ham olamni falsafiy tahlil etishning o‘ziga xos yo‘lidir. Xalq

maqollari, donolarning hikmatli fikrlari, hadislardagi axloqiy, huquqiy o'gitlar minglab yillar davomida shakllangan hayot tajribasi saboqlarini umumlashtirishdan kelib chiqqan falsafiy xulosalardir. Ko'pni ko'rgan keksalarning yoshlarga qilgan nasihatlari ham o'ziga xos falsafiy o'gitlardir. Bunday xulosalar bir-biriga mos kelishi yoki butunlay qarama-qarshi bo'lishi esa, insonning tafakkuriga ta'sir etayotgan e'tiqodlar, g'oyalar, mafkuralar, manfaatlar, qadriyatlarning mohiyati, aqliy, ilmiy, axloqiy salohiyatining darajasi bilan belgilanadi.

Ikkinchi tomonidan — falsafa eng qadimgi fandir. Bu fan insoniyatning hayot saboqlari asosida shakllangan barcha bilimlarni umumlashtirib, olamni yaxlit anglashga, u bilan muayyan munosabatlarga kirishishiga imkon beradigan: metodologik, gnoseologik, aksiologik, ijtimoiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan nazariy qarashlar, ilmiy kategoriyalar, qonunlar tizimini o'z ichiga oladi. Falsafani fan sifatida o'rganish esa, jamiyat a'zolariga insoniyatning tafakkuri va madaniyati, bilimi rivojlanishi jarayonida minglab yillar davomida shakllangan ilmiy, nazariy, axloqiy meros va qadriyatlarga tayanib fikrlash, ma'naviy kamol topishga, jamiyat ijtimoiy rivojlanishi istiqbolini oldindan ko'ra bilishga imkon beradi.

Falsafa fan sifatida insonning mohiyatini anglashi, bilimlari, hayotiy tajribasi yakunlarini bir-biri bilan bog'lab, umumlashtirib olamni yaxlit tushunishiga, hayotiy yo'llanma bo'ladigan teran xulosalar qilishiga imkon beradigan nazariy bilimlar, kategoriyalar, qonunlar tizimini o'z ichiga oladi.

Har bir fan ma'lum bir sohalar bo'yicha bilim beradi. Lekin, hozirgi fanlarning birortasi ham borliqning mohiyatini yaxlit anglashga imkon bermaydi. Tabiatshunoslik, jamiyatshunoslik, ruhshunoslik fanlari rivojlangani sari olamning umumiy manzurasini bir-biri bilan bog'langan holda yaxlit tushunishga, yangi falsafiy xulosalar qilishga ehtiyoj kuchayib boraveradi. Bu jarayonda falsafaning o'zi ham mustaqil rivojlanib, borliqning umumiy mohiyatini bilish borasidagi ahamiyati kengayadi. Bu bilan aniq fanlarning bir-biri bilan bog'lanib rivojlanishiga sharoit yaratiladi.

Falsafani fan sifatida bilgan, o'rgangan odamlarning fikrlash doirasi va imkoniyati bu fanni bilmaganlarning xulosalariga nisbatan to'g'riroq va teranroq bo'ladi. Shu sababli ham barcha davrlarda yashagan olimlar o'z faoliyatida falsafiy bilimlarni o'rganishga harakat qilganlar, shu yo'l bilan barcha fanlar qatori, falsafaning ham rivojlanishiga imkon yaratganlar. Fan va amaliyot qancha tez

va keng ko‘lamda rivojlanib borsa, ularni bir-biri bilan bog‘lab umumlashtirish, shu asosda olamning yaxlit manzarasini bilishga intilish ham kuchayib boradi. Arastuning „**falsafa — bilish manfaati yo‘lidagi bilishdir**“, degan fikrida ham xuddi shu ma’no bor.

Shu sababli falsafa fan sifatida minglab yillar davomida inson ma’naviy kamoloti, yetukligi darajasining belgisi, insonparvarlik, adolatparvarlik, bilimga va haqiqatga tashnalik bilan bog‘langan tafakkur madaniyatining ko‘rinishi sifatida rivojlanib kelmoqda.

Jamiyatda hamma zamonlarda yetuk bilimli, axloq-odobli, insoniyat erishgan ilmiy, amaliy yutuqlarni aqliy umumlashtirib, ulardan istiqbol yo‘lini ko‘rsata oladigan teran xulosalar chiqarish imkoniga ega bo‘lgan kishilar **faylasuflar** deb atalgan. Faylasuflik ilmiy, ma’naviy kamolotning belgisi hisoblangan. Faylasuf degan nom shaxsning ma’naviy yetukligini, jamiyatdagi katta obro‘-e’tiborini ham ifodalagan. Mashhur nemis faylasufi Hegelning, „falsafa tafakkurda qamrab olingan davrdir“, degan teran fikri ham shuni nazarda tutgan.

Falsafiy bilimlar qandaydir mavhum aqidalar, shiorlar, avtoritar ko‘rsatmalar emas. Falsafa fan sifatida insonga o‘z mohiyatini, jamiyatdagi o‘rnini, maqsad va manfaatlarini chuqur anglashiga, mustaqil, erkin fikrlab, haqiqatni bilishiga, hayot saboqlarini, barcha bilimlarini ma’lum ilmiy, axloqiy qadriyatlar asosida umumlashtirib, borliq, uning shakllari haqida yaxlit xulosalar qilishiga imkon beradigan bilim sohasidir.

Jamiyat tarixida falsafa faniga xayrixohlar ham, dushmanlar ham bo‘lgan. Bu fan xayrixohlari uni inson ma’naviy kamolotining cho‘qqisi, bilimlarning qaymog‘i deb qaraganlar. Mashhur Rim mutafakkiri Sitseron: „**Falsafani sevmaslik — tuqqan onani sevmastikdir**“, degan edi. Falsafaning mohiyatini, inson ma’naviyati tizimidagi o‘rnini bilmagan, uni qandaydir qotib qolgan aqidalar tizimidan iborat, deb tushungan, tafakkur madaniyati past bo‘lgan kishilargina bu fanning inson ma’naviy kamoloti, jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyatini inkor etishi mumkin.

Jamiyat hayotida insonparvarlik, adolatparvarlik, haqiqatparvarlik qadriyatlari hukmron bo‘lgan davrlarda falsafa faniga hurmat va e’tibor ham kuchli bo‘lgan. Jamiyatda jaholat, xurofat, adolatsizlik, zo‘ravonlik, avtoritarizm, shaxsiy va guruhiy diktatura kuchaygan davrlarda esa, mustaqil falsafiy qarashlar rivoji cheklangan, zamonaning mustaqil, erkin fikrlovchi mutafakkirlari quvg‘in ostiga olingan. Tarixdan buyuk yunon faylasufi Anak-

sagorning o‘limga mahkum etilgani, Pifagor o‘z g‘oyalari uchun kurashib, mamlakatdan qochib ketib, boshqa yurtlarda ochlikdan o‘lgani, Suqrot ham o‘limga mahkum etilgach, zahar ichib halok bo‘lgani, Empedokl ta’qib va tazyiqlarga bardosh bera olmay o‘zini Etna vulqoniga tashlagani, Demokrit o‘lim jazosidan qutulish uchun boshqa yurtlarga qochib ketgani ma’lum. Arastu o‘lim hukmidan qutulish uchun Afinadan boshqa yurtlarga qochib ketib, musofirlikda, ochlikda vafot etgan. Mashhur faylasuf Sufiy Mansur Xalloj, mutafakkur shoir Boborahim Mashrab erkin fikrlari uchun dorga osilgan. Nemis faylasufi Feyyerbax umrining oxirini sarson-sargardonlikda o‘tkazgan. Bunday dalillarni keyingi tarixiy davrlardan olingan misollar asosida ham ko‘rish mumkin.

Ilg‘or faylasuflar har doimadolat, haqiqat uchun kurashib kelganlar. Lekin, ma’lum davrlar va sharoitlarda jamiyat va jamoat faylasuflar o‘rtaga qo‘ygan teran fikrlarni o‘z vaqtida anglash, ularga tayanish ehtiyoji va imkoniga ega bo‘lmashliklari ham mumkin. Jamiyat bu teran fikrlarning mohiyati va ahamiyatini anglab yetgan vaqtarda esa, ularning mualliflari hayotdan ko‘z yumgan bo‘ldi. Shu sababli aqidaparastlik, maddohlik girdobiga tushmagan faylasuflar ko‘pincha vafot etganidan keyin obro‘, e’tibor topgan.

Falsafa o‘zining butun tarixi davomida ziddiyatli va mashaqqatli rivojlanish yo‘llaridan o‘tdi. Bu davr ichida bu fanning mohiyati, ahamiyati, bahs mavzusi masalasi ham katta munozaralarga sabab bo‘ldi. Shu sababli falsafani o‘rganishni uning *mohiyatini*, *bahs mavzusi* hamda *dunyoqarash tizimidagi o‘rnini bilishdan* boshlash kerak.

Xo‘s, falsafaning inson dunyoqarashi tizimidagi o‘rni qanday, u o‘rganayotgan masalalar tizimiga nimalar kiradi?

1-§. „Dunyoqarash“ tushunchasi, uning mohiyati

Dunyoqarash—inson o‘zini va dunyonи zaruriy ravishda anglashi, tushunishi, bilishi va baholashi natijasida yuzaga kelgan xulosalari, bilimlari asosida shakllangan turli mazmun va darajadagi umumlashmalar tizimidir. Dunyoqarashni murakkab ijtimoiy hodisa sifatida, bir-biridan nisbatan mustaqil tarzda, quyidagicha izohlash mumkin: 1) dunyoqarash — dunyoning inson ongidagi o‘ziga xos in’ikosi bo‘lib, insonning o‘z-o‘zini va dunyonи anglashi shaklidir; 2) dunyoqarash — insonning o‘ziga

va uni qurshab turgan borliqqa bo‘lgan munosabatlarini ifodalaydigan muayyan ko‘nikmalar, malakalari, bilimlari hamda dunyoni amaliy va nazariy o‘zlashtirishidir; 3) dunyoqarash — insонning o‘ziga, tabiat va jamiyatga munosabati asosida yotgan e’tiqodidir; 4) dunyoqarash — o‘tgan avlodlar qoldirgan ilmiy, madaniy, nazariy merosni hozirgi davrdagi amaliy tajriba yakunlari bilan bog‘lab umumlashtirishdir; 5) dunyoqarash — insон o‘z hayoti, faoliyatida tayanishi lozim bo‘lgan yo‘llanmadir.

Dunyoqarash ijtimoiy-tarixiy xarakterga ega. Bu jihatdan: har bir davrning, har bir avlodning, har bir ijtimoiy guruhning o‘ziga xos dunyoqarashi mavjud. Shu asoslarda aytish mumkinki, dunyoqarash odamlarga kun tartibida turgan yangi muammolarga ma’lum e’tiqodga tayanib ijodiy yondashish, fan va jamiyat istiqbollarini oldindan ko‘rish imkonini beradi.

Dunyoqarashning tarkibiga borliqning hissiy va aqliy in’ikosi sifatida hosil bo‘lgan sezgi, idrok va tasavvurlardan tortib, nazariy tafakkurda mantiqiy jihatdan qayta ishlanib hosil bo‘lgan: mifologik, diniy, falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, badiiy va ilmiy bilimlar, nuqtayi nazarlar, ishonch va e’tiqodlar kiradi. Dunyoqarash, shu bilan birga, kishilarning kundalik turmushidagi oddiy hayotiy-amaliy malaka va ko‘nikmalarini, ularning bilish va baholashga oid yo‘l-yo‘riqlari, ishonch va e’tiqodlari, niyat va maqsadlarini, eng yuksak orzu va umidlarini, xullas, amaliy va ilmiy bilimlarining jamini, shuningdek, kishilardagi xurofiy, afsonaviy, g‘ayri ilmiy nuqtayi nazarlarni, salbiy, reaksiyon qarashlarni ham o‘z ichiga oladi. Dunyoqarash — yuqoridagi sanab o‘tilganlarning oddiy yig‘indisi bo‘lmay, balki ularning mantiqiy birligidir. Dunyoqarash tarkibiga kirgan bu unsurlarning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi bilan birga, uning yaxlit tizimida bir butunlikni hosil qiladi va umumiy mazmunni ifodalaydi.

Har bir kishi hayotiy faoliyati jarayonida ulg‘ayib borishi bilan muayyan dunyoqarashi ham shakllanib, tarkib topa boshlaydi. Uning ma’lum bir barqaror shaklga kelishi bilan insон shaxs sifatida shakllana boshlaydi.

Dunyoqarash o‘ziga xos vorislik va davomiylikka ega. Tarixning har bir davrida yashagan avlodlar dunyoqarashini o‘rganib, ularning ijobiy tomonlarini o‘zlashtirib olish juda muhimdir. Zero, c‘tgan avlodlar tomonidan yaratilgan dunyoqarashlar merosi yangi avlod dunyoqarashining shakllanishida ma’naviy zamin vazifasini bajaradi.

Jamiyat rivojlanib borishi bilan insonning amaliy va nazariy bilish faoliyati, xullas, dunyoqarashi ham takomillashib boradi. Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, uning dunyoqarashi, ya’ni dunyoni yuzaki, sodda, cheklangan tushunishdan boshlab, o’zining mifologik, diniy va falsafiy bosqichlariga tomon rivojlanib borganligining guvohi bo’lamiz.

Jamiyat taraqqiyoti bilan insonning amaliy va nazariy bilish faoliyati rivojlanib borib, dunyoqarashning yangi-yangi tarixiy shakllari paydo bo’ladi. Bunda dunyoqarash oddiy, kundalik ongdan tortib, mifologik, diniy va falsafiy dunyoqarashlarga tomon rivojlanib boradi. Bu dunyoqarashning quyidagi shakllari tadrijida o’z ifodasini topadi.

a) Mifologik (afsonaviy) dunyoqarash

Mifologik dunyoqarash ijtimoiy taraqqiyotning boshlang‘ich bosqichlariga xos bo’lib, dunyoni tushunishning o’ziga xos oddiy usuli, ya’ni voqelikning xayoliy in’ikosi sifatida, asosan qadimgi davr kishilari uchun xosdir. Bu dunyoqarash o’z ifodasini qadimgi davrlarda yaratilgan rivoyat va afsonalarda topgan. Bu rivoyat va afsonalar ijtimoiy taraqqiyotning dastlabki davrlarida paydo bo’lib, ularda afsonaviy qahramonlar, yovuz kuchlarning obrazlari tasvirlangan. Qadimgi kishilar bu afsona va rivoyatlarda tabiat va jamiyatning turli hodisa va voqealarini umumlashtirib, xayoliy shakllarda tasvirlaganlar. Bu bilan ularga bo’lgan munosabatlarini bildirganlar va olam haqidagi qarash va tasavvurlarini tartibga tushirishga harakat qilganlar.

Mifologik dunyoqarashning xususiyati shuki, unda hamma narsa va hodisalar bir-birining ishtirokchisi sifatida tasvirlanadi. Buning natijasida bir xil buyumlarning sifatlarini ikkinchi xil buyumlarga bemalol ko’chirish mumkin bo’ladi. Mifologik dunyoqarashda tabiat kuchlari jonli vujudlar ko’rinishida tasvirlanadi. Mifologiyada bir xil narsalarning xossalari ikkinchi xil narsalarga bemalol ko’chirilganligi sababli, u xayolotga keng yo’l ochib beradi. Natijada, unda tasvirlangan obrazlar qahramonliklar qilishi va jasoratlar ko’rsatishi mumkin bo’ladi.

Bu dunyoqarashda aql-idrok holati muayyan emotSIONAL, hissiy, nafis, majoziy holatlarda ifodalanganligi tufayli, insonni qurshab turgan dunyodagi narsa va hodisalar, insoniy sifatlar va xususiyatlardan kelib chiqib baholanadi va tushuntiriladi.

Mifologik dunyoqarashdan, uning yangi tarixiy shakli — diniy dunyoqarash kelib chiqadi.

b) Diniy dunyoqarash

Diniy dunyoqarash — olamdagи voqeа va hodisa sabablarini, insonning orzu - umidlarini ilohiy kuchlar, oldindan belgilangan qismat, taqdir bilan bog'lab tushunishdir.

Mifologik dunyoqarashda barcha hodisa va voqealarning sababi afsonaviy kuchiar hisoblansa, diniy dunyoqarashda ularning o'rmini turli dinlarga xos bo'lган Xudolar va ilohiy qudratlar oladi. Diniy dunyoqarash insonning o'zini va olam mohiyatini bilishidagi o'ziga xos bir yo'l, bir bosqichdir.

Diniy dunyoqarashning muhim jihatlarini: diniy tuyg'u, diniy aqidalarga ishonish, sig'inish, diniy e'tiqod va shu kabilar tashkil qiladi.

Diniy dunyoqarashning boshlang'ich unsuri — diniy tuyg'udir. **Diniy tuyg'u — kishilarning tabarruk va aziz, deb tasavvur qilinadigan mavjudotlarga, muqaddaslashtirilgan buyumlar, shaxslar, joylarga, bir-birlariga, o'z-o'ziga, shuningdek, ilohiy mazmunda talqin etilgan tabiat va jamiyat hodisalariga munosabatlarda paydo bo'ladigan hissiyotdir.** Diniy tuyg'u tug'ma bo'lmaydi, u kishi yoki kishilar yashaydigan ijtimoiy va ruhiy shart-sharoitlar asosida vujudga keladi. Diniy tuyg'u kishidagi his-hayajon, kechinma, ruhiy holat bilan bog'liq bo'ladi. Kishilarning turli hissiyotlari: qo'rqish, dahshatga tushish, shodligi, zavqlanishi, umidi va umidsizligi, muvaffaqiyat va mag'lubiyat kabi holatlar ularning diniy tasavvurlari va tushunchalari, diniy g'oyalari va qarashlari bilan qo'shilib, ma'lum ma'no va mazmun kasb etgandan keyingina diniy tuyg'uga aylanadi.

Diniy dunyoqarashning ikkinchi elementi, bu — diniy aqidalardir. **Diniy aqidalar o'z mazmuni bilan dunyo va undagi voqeа-hodisalarni ilohiy e'tiqod asosida tushunish bilan bog'langan tasavvurlar va tushunchalardir.** Ular Ollohnning yagonaligi, farishtalarning mavjudligi, diniy kitoblarining muqaddasligi, Payg'ambarlarga ishonish lozimligi, oxiratning borligi, taqdirning ilohiyligi, o'lgandan keyin qayta (qiyomat kuni) tirilish mumkinligidir.

Diniy dunyoqarashning navbatdagi elementi, bu — biron buyumga, narsaga, hayvon yoki daraxtga, kishiga yoki, nihoyat, Xudoga sig'inishdir. Sig'inish sodda va murakkab bo'lishi mumkin. Sig'inishning sodda ko'rinishi — kishilarning kundalik hayotida ilohiy kuchlarga toat-ibodat qilishidir. Sig'inish diniy tasavvurlar va g'oyalarni ifoda etuvchi, ilohiy kuchlarga, ilohiy mavjudotlarga

qaratilgan, yakka yoki jamoa bo'lib bajariladigan ramziy xatti-harakatdir. Masalan: ta'zim qilish, tiz cho'kish, sajda qilish, bosh egish, qo'l qovushtirish, cho'qinish, toat-ibodat qilishlar sig'inishning sodda ko'rinishlaridir. Namoz o'qish, Qur'on tilovati, qurbanlik va xudoysi qilish, diniy bayramlarni nishonlash — sig'inishning murakkab shakllaridir. Sig'inish bilan kishida ilohiy kuchlarga e'tiqodning ruhiy ehtiyoji qondiriladi.

Diniy dunyoqarashda Xudodan qo'rqish, uning g'azabidan, jazosidan saqlanish muhim o'rinni tutadi. Xudodan qo'rqish — diniy aqidalarni, diniy prinsiplar va qarashlarni buzganligi uchun Tanho va Haq Taolo — Yaratuvchi — Xudoning gunohkor insonni jazolashiga ishonish bilan bog'liq his-tuyg'udir. Diniy ta'limotlarda aytilishicha, diniy aqidalarga, tamoyillarga zarracha bo'lsa-da, xilof ish qilish, Xudoga shak keltirish insonga oxiratda do'zax azobini beradi. Bu ham dunyoviy muammolarga o'ziga xos yondashishning bir usulidir. Xullas, diniy dunyoqarash o'zining inson hayoti bilan chambarchas bog'liqligi, insonning his-tuyg'u, quvonch va tashvishlariga, ishonch va umidlariga bevosita aloqadorligi, e'tiqodga ustun darajada e'tiborni qaratish bilan dunyoqarashning boshqa tiplaridan ajralib turadi.

d) Falsafiy dunyoqarash

Dunyoqarashning navbatdagi shakli — falsafiy dunyoqarashdir. **Falsafiy dunyoqarash — dunyonи, borliqni aqliy jihatdan mantiqiy, izchil, umumlashtirib tushuntiruvchi nazariy qarashlar tizimidir.** U diniy dunyoqarashdan farqli ravishda, insonning aqliy — intellektual faoliyatiga asosiy e'tibor beradi. Shu sababli falsafiy dunyoqarashga har doim hurfikrlilik, fikriy teranlik, mantiqiy asos kabi xususiyatlar xosdir. Falsafiy dunyoqarash — aslida mantiqiy tahlil va umumlashtirishlar, mantiqiy muhokamalar va xulosa chiqarishlar, mantiqiy isbotlar va raddiyalar asosida nazariy fikr yuritishlar orqali dunyonи, borliqni tushunish, tushuntirish, baholash va izohlashdir. Falsafiy dunyoqarash ko'r-ko'rona e'tiqodlar, xayoliy obrazlar to'g'risidagi tasavvurlar va tushunchalarga emas, balki insonning borliqqa munosabati to'g'risidagi erkin, tanqidiy va, ayni vaqtda, umumiyligi mushohadalariga, nazariy umumlashmalariga asoslanadi.

Falsafiy dunyoqarashda inson tabiatning bir qismi sifatidagina emas, balki alohida o'ziga xos borliq sifatida qaraladi. Falsafiy dunyoqarashda „tashqi“ va „ichki“ dunyolar, „tabiiy borliq“, „insoniy borliq“lar bir-biridan farq qilinadi. Insonni qurshagan

hodisalar dunyosi, ya'ni „tashqi“ dunyo, insonning ongiga ta'si qiladi, unda aks etib, inson „ichki“ — ma'naviy dunyosini tashkil etadi. Bu „tashqi“ va „ichki“ dunyojar o'zaro bir-birilari bilan bog'liq, lekin bir-birlaridan farq qiladi. Ular o'rtasidagi muhibbatlar falsafiy dunyoqarash mazmunini tashkil qiladi. Xillas, dunyoqarashlar tizimida falsafiy dunyoqarash eng rivojlangan, ma'lum darajada mukammal dunyoqarash hisoblanadi. Zero, bir butun borliqning turli ko'rinishlari: tabiat, jamiyat, inson, uning ongi, moddiy va ma'naviylikni o'zida nazariy jihatdan umumlashtirib aks ettiruvchi umumiyl tushunchalar tizimi falsafiy dunyoqarashni tashkil etadi va uning ko'lamini belgilab beradi. Falsafiy dunyoqarash boshqa dunyoqarashlarning muhim, umumiyl tomonlarini o'z ichiga oladi.

Xususan, uning shakllanishi va rivojlanishiga afsonaviy (asotiriyl) va diniy dunyoqarashlarning ta'sirini inkor etib bo'lmaydi.

Falsafiy dunyoqarashning shakllanishi va rivojlanishi falsafa fanining paydo bo'lishi bilan uzviy bog'liq holda yuz beradi. Zotan, falsafiy qarashlar va tasavvurlar falsafiy dunyoqarashning asosini tashkil etadi.

2-§. Falsafaning „bahs“ mavzusi, mohiyati va muammolari

„Falsafaning „bahs“ mavzusi nima, u qanday muammolarni o'z ichiga oladi“, degan savollarga o'tgan uch ming yil davomida hammaga ma'qul bo'ladigan yagona javob topilgan emas. Bu savollarga har bir tarixiy davrda berilgan javoblar inson bilimlarining o'sha davrdagi darajasi va imkoniyatlari chegarasida bo'lgan.


Qadimgi Xitoyda Konfutsiy, birinchilardan bo'lib, falsafaning „bahs“ mavzusi masalasini ancha mukammal yoritib berdi. Konfutsiy yashagan davrda falsafa kishilarning borliq haqidagi barcha bilimlarini o'z ichiga olgan edi. Bu bilimlar tizimida inson, uning mohiyati, hayoti masalasi asosiy o'rin olgan. Konfutsiyning „bilish — insonni bilishdir“, fikri qadimgi Xitoy falsafasining bosh mavzusini ifodalaydi. Uning: „Inson o'z mohiyatini axloqiy fazilatlar va ma'naviyat asosida namoyon etadigan jonzotdir“; „agar axloq zaiflashsa, insonda tabiiy ehtiyojlar ta'siri kuchayadi, unda odamlar jamoasini hayvonlar podasidan ajratib bo'lmay qoladi“; „Inson har ishida, xatti-harakatida, har so'zida boshqalar oldidagi burchi va mas'uliyatini bilishi — axloqdir“; „dunyonni odam jannat

qiladi“; „agar yerdagi hayot yomon bo‘lsa, inson osmonga emas, qalbiga murojaat qilishi kerak“; „axloqli odam o‘ziga ravo ko‘rgan narsani boshqalarga ham ravo ko‘radi“; „komil inson hammaga bir xil munosabatda bo‘ladi, odamlardan yaxshi fazilatlarni o‘rganadi, yaxshilikka intiladi, hammani teng ko‘radi, biror xatoga yo‘l qo‘ysa, avval o‘zini ayblaydi“, degan fikrlari qadimgi Xitoy falsafasi asosida yotgan ma’naviy qadriyatlaridir. Konfutsiy millat, mamlakat taraqqiyoti negizida yotgan uch asosiy ma’naviy omilni, ya’ni Xitoy xalqi milliy g‘oyasining asoslarini ham yaratib berdi. Bu — „o‘tmishga hurmat, mustahkam oila, odamlar o‘rtasida mehr-muruvvat, rahm-shafqat“, degan fikrlardir. Bular jamiyat hayoti va taraqqiyotini mukammal anglashga imkon beradigan falsafiy g‘oyalardir.

Buddachilik falsafasida ham hammaga yaxshilik qilish, nafratga, g‘azabga berilmaslik, shafqatsizlik, adolatsizliklarga yo‘l qo‘ymaslik — inson hayotining asosiy mohiyati sifatida qaraladi.. Xalq maqollarida ifodalangan: „Achchiq savol berib, shirin javob kutma“; „birovga kesak otsang, u senga tosh otadi“; „yomonni yaxshi qilgan ham til, yaxshini yomon qilgan ham til“; „ko‘rpangga qarab oyoq uzat“, degan so‘zlar, donolarning hikmatlari, diniy g‘oyalarda (masalan, Hadislarda) aytilgan: „Kim yaxshilikka boshlasa, uni ustoz deb bil“; „yaxshi odam yaxshilik qilishi bilan yaxshi“; „o‘zingga ravo ko‘rganni boshqalarga ham ravo ko‘r“; „amirning sovg‘a olishi harom, qozining pora olishi esa dindan chiqishdir“ kabi fikrlar inson hayoti, insoniy munosabatlarning ko‘p yillik tajribasini o‘rganish va umumlashtirishdan kelib chiqqan falsafiy xulosalardir. Bular o‘tgan davrlar sabog‘igina bo‘lib qolmay, balki inson ma’naviy kamoloti, jamiyat taraqqiyotini belgilab beradigan ma’naviy omillar hamdir. Bu maqollar, hikmatlarda hayot haqiqati, uning saboqlari o‘zining chuqur falsafiy ifodasini topgani uchun hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qtgani yo‘q.

Sharq she’riyatida ham hayot voqelegi saboqlarini o‘rganish va insonparvarlik qadriyatları asosida umumlashtirishdan kelib chiqqan, kishilar o‘z hayotiy maqsad va manfaatlarini oqilona amalga oshirishiga imkon beradigan teran falsafiy g‘oyalari katta o‘rin olgan. Firdavsiy, Xusrav Dehlaviy, Bedil, Navoiy, Jomiy, Bobur, Mashrab, Furqat, Muqimiy she’rlarini o‘qigan odamlar ulardagi ajoyib qofiyalar jarangdorligiga e’tibor beribgina qolmay, har bir misrada ifodalangan teran falsafiy fikrlardan ibrat oladilar, o‘ylaydilar, mulohaqa citadilar.

AT



Alisher Navoiyning: „Odami ersang demagil odami,
Oningkim yo‘q erur xalq g‘amidin g‘ami“.

Muqimiyning: „Charxi kajraftorning bir shevasidan dog‘man,
Ayshni nodon surib, kulfatni dono tortadur“.

Ushbu misralarda asrlar davomida insonlar faoliyatiga ta’sir etib kelgan falsafiy g‘oyalar o‘z aksini topgan.

Demak, falsafa ma’naviyatli inson hayoti va aqliy salohiyatining ajralmas tarkibiy qismidir. „Qari bilganni pari bilmas“, degan hikmatli so‘zda ham keksa odamlar hayotda ko‘p narsa ko‘rgani uchun chuqur falsafiy xulosalar qilish imkoniga ega ekani ko‘rsatilgan.

Falsafa Sharqda „hikmat“ so‘zi bilan ifodalanib, bu — dono, hayotiy, ibratli fikrlar, ilmiy umumlashmalar, degan ma’noni anglatadi. Shu ma’noda olib qaraganimizda, falsafaning asosida insoniyatning amaliy faoliyati, fan, madaniyat rivoji natijalariga tayanib borliqni yaxlit, mukammal bilishga, yangicha, mustaqil fikrlaydigan inson shaxsini tarbiyalashga intilish yotgan.

Yunonlar ham, dastavval, „falsafa“, „faylasuf“ so‘zlarini bir fanga emas, balki teran fikrlarga, chuqur tafakkur salohiyatiga ega bo‘lgan dono odamlarga nisbatan qo‘llaganlar. Bu davrda falsafaning o‘zi ham aniq bir fan sifatida shakllanmagan edi.

Qadimgi yunon faylasuflaridan biri Pifagor „donolik“ so‘zini birinchi marta Xudoga nisbatan qo‘llagan. Uning fikricha, donolik Xudoning xususiyatidir. Odamlar esa, donolikni sevish fazilatiga ega.

Aflatun bu masalaga kengroq yondashib, „filosofiya“ so‘zini borliq haqidagi yaxlit, umumiylar bilimlarni ifodalash uchun qo‘llagan. Arastu bo‘lsa, falsafani borliq haqidagi umumiylar tahlili sifatida ifodalagan. U borliq haqidagi bilimlarning umumiylar prinsiplarini, ya’ni kategoriyalarini yaratishga, konkret fanlar bergan bilimlarni falsafiy kategoriyalardan farqlashga harakat qildi. Shundan keyin falsafa boshqa fanlardan farq qiluvchi, borliq haqida yaxlit bilimlar hosil qiluvchi mustaqil fan sifatida qarala boshlandi.

Qadimgi Yunonistonda dono mutafakkirlar o‘rtasidagi falsafiy bahs, munozaralar Afinadagi Akadem degan Xudoning nomiga qo‘yilgan bog‘da bo‘lib turgan. Olamni bilishning tajribaga asoslangan usullari hali shakllanmagani sababli, olimlar bir-biriga qarama-qarshi fikrlar, muammolarni qo‘yib, shular ustida bahs uyush-tirganlar. Bahs natijasida muhokama etilgan qarama-qarshi

fikrlarning biri inkor etilib, ikkinchisi tasdiqlanmagan, balki shu ikki fikrning ijobiy, tan olingen, mantiqiy isbotlangan tomonlari bir-biri bilan qo'shilib, yangi xulosaga kelingan. Bahs yo'li bilan haqiqatni izlash, har qanday muxolif fikrlar, qarashlarga nisbatan bag'rikenglik asosida munosabatda bo'lish, falsafiy bahslar madaniyati mezonining asosiy shartlaridan biri hisoblangan.

Qadimgi Yunonistonda falsafaning bahs mavzusiga munosabat har doim bir xil bo'Imagan. Xususan, So'qrotgacha bo'lgan yunon faylasuflari dunyo va uning tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan muammolarga katta e'tibor bergenlar, borliqning umumiy moddiy asosi, atomlar haqidagi ta'limotlar xuddi shu davrlarda yuzaga keldi.

So'qrot va yunon so'fiylari insonning mohiyati masalasi tahlilini falsafaning asosiy mavzusi sifatida qaratdilar. Aflatun va Arastu bo'lsa, falsafiy bilimlar, ularning borliqni izohlashga qaratilgan muammolarini bir-biri bilan bog'lab qarashgan. Shu asosda tabiat, jamiyat, inson tahlili bilan bog'liq bo'lgan muammolarni yaxlit o'rganuvchi falsafiy ta'limotlar kelib chiqdi. Aflatunning fikricha, falsafa — insonning o'zini, borliqni bir-biri bilan bog'lab, yaxlit anglashidir.

Ellinizm davri vakillari — **Epikur**, **Pirron** insonning axloqi, erkinligi, muammolari tahliliga asosiy diqqatni qaratdilar. Shundan keyin falsafaning bahs mavzusi muammolari doirasiga inson mohiyati va ehtiyojlari bilan bog'langan borliq va yo'qlik, materiya va uning shakllari, inson ongli faoliyati, erki, irodasi bilan bog'liq bo'lgan insoniy munosabat masalalari kirib keldi.

O'rta asrlarga kelib, Yevropada falsafa borliq, inson, insoniy munosabatlar masalasini dunyoviy jihatdan o'rganishdan ancha uzoqlashib ketdi. 1500-yil davomida Yevropa faylasuflari asosan Xristian dini aqidalarini nazariy asoslash bilan shug'ullandilar. Bu davrda inson hayoti, jamiyat muammolarini dunyoviy jihatdan o'rganish, deyarli e'tibordan chetda qolib ketdi. Falsafada patristika, sxolastika yo'nalishlari rivojlandi. „Pater“ — ota degan so'zdir. Ota esa — cherkov va ruhoniylar bo'lgan. Ular falsafaning mohiyati va bahs mavzusini belgilab bergenlar. Sxolastika tarafдорлари din va fan munosabati masalasini biroz boshqacharoq shaklda o'rtaga qo'ygan bo'lsalar ham, falsafani xristianchilik aqidalari hukmronligi doirasidan olib chiqsa olmadilar.

Sharq mamlakatlarida o'rta asrlar falsafa rivojlanishi borasida buyuk burilish davri bo'ldi. Sharq falsafasining al Farg'oniy, al Xorazmiy, al Kindiy, ar-Roziy, G'azzoliy, Forobiy, Beruniy,

Ibn Sino, Aziziddin Nasafiy singari buyuk daholari bu fanning mohiyati va muammolari tizimini, maqomini belgilashga katta hissa qo'shdilar.

Islom dinida insonparvarlik masalalari ustuvor bo'lgani sababli, musulmon falsafasining yuzaga kelishi ham falsafiy ta'limotlar **bir-birini boyitishi asosida rivojlanishiga imkon yaratib berdi**. Islom falsafasi, o'rta asrlardagi xristian falsafasidan farqli o'laroq, diniy va dunyoviy bilimlarning **bir-biri bilan bog'liq ravishda rivojlanishini e'tirof etgan edi**. VIII — XII asrlarda O'rta Osiyoda tabiatshunoslik, jamiyatshunoslik fanlari tez rivojlanib borganini ham shu bilan izohlash mumkin.

Sharq mutafakkirlari falsafaning mohiyati, bahs mavzusi masalasini ham chuqur asoslab berdilar. Bu o'rinda Forobiyning falsafa va uning mohiyati, o'rganadigan mavzusi haqida: „Mavjudot haqida bilim qo'lga kiritilsa, shu haqida ta'lim berilsa, mavjudotdan bo'lgan narsaning zoti bilinsa, narsaning ma'nosi tushunilsa, ishonchli dalil, hujjatlar asosida shu narsa haqida miyada bir turli ishonch va tasavvur paydo bo'lsa, mana shu ma'lumotga doir fanni falsafa deymiz...“ degan fikrlarida falsafaning mohiyati va bahs mavzusiga dunyoviy yondashishning namunasini ko'ramiz.

Forobiyning fikricha, falsafa muayyan narsalar va hodisalar ni emas, balki ular haqidagi bilimlarni umumlashtirish bilan shug'ullanadi. Bu jarayonni u uch bosqichga bo'ladi. Birinchi bosqich — narsalar, hodisalar haqida bilim hosil bo'lishi, ikkinchi bosqich — shu bilimlar inson miyasida umumlashtirilishi, uchinchi bosqich — shu umumlashmalar asosida „miyada bir turli ishonch va tasavvur“, ya'ni umumiylar xulosalar shakllanishidir. Forobiy falsafiy umumlashmalar asosida ma'naviy qadriyatlar yotishini, o'z xalqining ra'yini va axloqini egallagan kishilargina falsafani rivojlantirish va targ'ib etish imkoniga ega bo'lishini ham asoslab berdi. Bu — butun insoniyat tarixida falsafaga berilgan eng mukammal ta'riflardan biridir.

Sharq falsafasi siyosiy kurash va ehtiroslardan olis bo'lib, insonparvarlik qadriyatları bilan chuqur bog'langani sababli, uning g'oyalari uzoq vaqtlar davomida jamiyatning ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotiga muntazam faol ta'sir etib keldi.

Yevropada falsafaning mohiyati va bahs mavzusini o'rganishga nisbatan yangicha munosabat XIV—XVI asrlarda, ya'ni Uyg'onish davrida shakllandı. Asosiy e'tibor qadimgi falsafani o'rganishga, uning yangi davr uchun bo'lgan ahamiyatini ko'rsatishga qaratildi.

Bu davrdagi falsafiy ta'limotlarda xristianchilik aqidalarining o'rniini yangi dunyoviy qadriyatlar egallay boshladi. Xristian ruhoniyalarining falsafa ustidan bo'lgan hukmronligini tanqid qiluvchi ta'limotlar ham kelib chiqdi. Inson muammosini dunyoviy tahlil etish falsafiy ta'limotlarning asosiy mavzusi sifatida qarala boshlandi.

Uyg'onish davri mutafakkirlaridan **Mishel Montye** (1533—1593-yillar): „Falsafa insonni xayrli ishlarga, insoncha yashab, o'lishga o'rgatadi“, — degan fikrni o'rtaga qo'ydi.

Uyg'onish davridan keyingi falsafiy ta'limotlar tizimida inson va tabiat muammosi birinchi o'ringa chiqdi. Inson tabiatning muhim tarkibiy qismi sifatida qarala boshlandi. Din muammolari ikkinchi o'ringa qo'yilib, unda fan, siyosat va axloqdan ajratib qarash ustuvorlashdi.

Albatta, bu fikrlar din muammolari mutafakkirlarining e'tiboridan butunlay chetda qolib ketdi, degan ma'noni bildirmaydi. Eng asosiy gap — diniy aqidalar falsafiy ta'limotlarning asosiy mavzusi bo'lmay qolganligi va tabiatshunoslik fanlarining borliq to'g'risida haqiqiy ilmiy bilim beruvchi manba sifatida qaralishidadir.

Shu davrlarda ijtimoiy-siyosiy masalalarni dunyoviy jihatdan tahlil etuvchi T. Mor, T. Kompanellaning ta'limotlari yuzaga keldi. Falsafiy tadqiqotlar mavzusi dunyoviy muammolar bilan bog'-lanib, asta-sekin „osmondan“ yerga tusha boshladi. Uyg'onish davri faylasuflari, hatto fan kashfiyotlari, barcha ilmiy yangiliklarga nisbatan ham „sog'lom shubha“ asosida yondashish lozimligini ko'rsatdilar. Ular fan yutuqlarini o'zgarmas aqida emas, balki jarayon sifatida qarash masalasini o'rtaga qo'ydilar. „Sog'lom shubha“ falsafiy tafakkurning asosiy belgisi sifatida qaror topdi.

Yangi davrda (XVII—XVIII asrlarda) tabiiyot fanlari rivojlanishi natijasida sezgilar bergen ma'lumotlarning olamni bilishdagi o'rnini bo'rttirib ko'rsatish hollari kuchaydi. Faylasuflar Arastuning: „Inson aqlida sezgilar bergen ma'lumotdan boshqa hech narsa yo'q“, degan fikrini asos qilib oldilar. Falsafaning mohiyatini bunday izohlovchi mutafakkirlar qatoriga F. Bekon, D. Yum, J. Berkli, T. Gobbs va boshqalar kiradi. Bunday ta'limotlar falsafada *empirizm* deb ataladi.

XVIII asrdagi fransuz ma'rifatchilari falsafani jamiyatda ro'y berayotgan siyosiy qarashlar bilan bog'lab, undan feodal tuzumiga qarshi kurashda keng foydalandilar. Shu asosda ular **tabiiy huquq va ijtimoiy shartnoma** kabi muammolarning falsafiy tahliliga asosiy e'tibor berdilar. Bu davrga kelib iqtisod, siyosat, huquq, madaniyat

masalalari ham falsafiy ta'limotlar mavzusida katta o'rin ola boshladi. Xususan, falsafiy ta'limotlarda (J. J. Russo, D. Didro, Gelvetsiy, P. Golax) inson yashashi va olamda o'z o'rnini egallashiga a'os bo'ladigan tabiiy huquqqa egaligi, davlat esa odamlar o'rtasicagi ijtimoiy shartnoma asosida tuzilgan tashkilot, degan masala alohida o'rin ola boshladi. Bundan siyosiy xulosa qilgan fransuz ma'rifatchilar qirolni ijtimoiy shartnoma shartlarini buzishda ayblab, uning hokimiyatini zo'rlik bilan ag'darish masalasini kun tartibiga qo'ydilar. Bu — falsafa siyosat bilan tobora ko'proq bog'lanib borayotganining belgilaridan biri edi.

XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida falsafaning bahs mavzusigina emas, balki o'zi ham taddiqot obyektiga aylandi. Nemis mumtoz falsafasining vakillari (I. Kant, Fixte, Shelling, Gegel, Feyyerbax) falsafaning o'zini ham falsafiy tahlil etish masalasini o'rtaga qo'ydilar. Borliq va tafakkur o'rtasidagi munosabatlarni tahliliqa asosiy e'tibor berila boshlandi. Kantning „Sof aql tanqidi“, „Amaliy aql tanqidi“ nomli asarlari falsafiy tafakkurning ichki mohiyatini tahlil etishga yo'naltirilgan edi.

Falsafani siyosiylashtirishni K. Marks va F. Engels nihoyasiga yetkazdilar. Ular falsafani tabiat, jamiyat, inson tafakkurining eng umumiy qonunlari haqidagi fan, deb ta'riflash bilan o'zları yaratgan ta'limotni kapitalizmga qarshi murosasiz kurash olib borayotgan proletariat qo'lidagi g'oyaviy qurol sifatida ta'rifladilar. Bu g'oyaga tayangan proletariat kapitalizmni kuch bilan ag'darib, o'z diktaturasini o'rnatishi kerak edi. Xullas, falsafani murosasiz siyosiy kurashlar bilan bog'lash, odamlarni qarama-qarshi guruhlarga bo'lib, ular o'rtasidagi munosabatlarni keskinlashtirish, bu — fanning yetuk axloq va insonparvarlik bilan bog'langan qadriyatlariga butunlay zid edi.

Yevropada XVIII asrda boshlangan texnogen sivilizatsiya ham falsafaning mohiyati, bahs mavzusini tushunishga ta'sir etdi. Ya'ni, fan va texnika taraqqiyotida katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Lekin inson, uning hayoti, ma'naviyati, manfaatlari butunlay soyada qolib ketdi. XX asrga kelib, inson aqli va qo'li bilan yaratilgan kashfiyotlar uning istiqbolini, bu yorug' olamda yashashi masalasini ham xavf-xatar ostida qoldirdi. Insonning insondan, jamiyatdan, tabiatdan begonalashuvi kuchaydi, ma'naviy buhronlar tobora keng ko'lama avj ola boshladi, milliy, diniy, ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar kuchaydi, turli xavfli kasalliklar keng tarqala boshladi, nashavandlik, alkogolizm,

fohishabozlk, uyushgan jinoyatchilik, korrupsiya misli ko‘ril-magan darajada keskinlashib ketdi, antropogen xarakterdagi ekologik fojialar avj oldi.

Umuman, XIX, XX asrda G‘arb falsafasi taraqqiyotiga, uning muammolarini belgilashga ta’sir etgan omillar qatoriga:

1) falsafaning muammolari va bahs mavzusiga siyosiy andazalar asosida yondashish natijasida turli falsafiy qarashlarning keskin qutblanishi;

2) butun insoniyatning faoliyati va aqliy salohiyatini borliqni o‘zgartirishga qaratilgan jarayon, deb tushunish;

3) tabiatni inson manfaati, faoliyati uchun kerak bo‘lgan bir resurs sifatida qarash;

4) falsafa mavzuini tor siyosiy, sinfiy kurashlar manfaati nuqtayi nazaridan baholash;

5) yangilik yaratishning har qanday shaklini qadriyat sifatida e’tirof etish;

6) jamiyatdagi ziddiyatlar kuchayishi natijasida insonlar begonalashuvi, individualizm va egoizm kuchayishini falsafiy asoslash va oqlashga urinish kabi xususiyatlarni kiritish mumkin.

Bular falsafiy ta’limotlar doirasida umuminsoniy qadriyatlar, insonparvarlik g‘oyalardan chekinish boshlanganini ko‘rsatadi. Falsafa siyosat, tor guruhiy manfaatlar talqini bilan cheklanib qolgani sababli, ayrim ta’limotlar tezda tarix sahnasidan tushib, o‘rniga yangilari kelib chiqdi.

Bunday sharoitda inson, insoniyatning mohiyati, istiqboli, tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar tizimini yangicha falsafiy tahlil etish zaruriyati yuzaga keldi. Butun dunyoda insonparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan Sharq falsafasi an‘analariga qaytish hollari kuchaydi. Bu yo‘l — insonni yorug‘ olamdag‘i eng buyuk qadriyat, deb bilish, borliq muammolariga uning oqilona manfaatlarini e’tiborga olib, umuminsoniy qadriyatlarga tayanib yondashish kuchayib borayotganining belgisi edi.

Demak, **butun insoniyat tarixi davomida ko‘pchilik faylasuflar inson, uning mohiyati, manfaatlari, borliqqa munosabati muammosini falsafaning bosh masalasi sifatida qarab kelganlar. Falsafaning bahs mavzusi esa, inson mohiyatini bilish, uning kundalik amaliyoti, fan, texnika taraqqiyoti natijasida erishgan bilimlarini bir-biri bilan bog‘lash, muayyan qadriyatlarga tayanib umumlashtirish, borliqni yaxlit tushunishga imkon yaratishdir.**

Falsafa boshqa fanlar singari borliqning aniq yoki kichik sohasini o'rganmaydi, balki barcha fanlarning yutuqlarini nazariy umumlashtirib, bir tizimga keltirib, borliqning umumiy mohiyatini, qonunlarini ochadi. **Umuman, falsafa bilimlar haqidagi bilimdir, fanlar ichidagi fandir, muayyan an'ana va qadriyatlarga tayangan tafakkur madaniyatidir.**

Dastavval, falsafa kishilarning borliq haqidagi barcha bilimlarini o'z ichiga olgan. Falsafadan ayrim bilim sohalari ajralib chiqish (differensiatsiya) jarayoni uzoq davom etdi. Dastlab, falsafadan matematika, geometriya, astronomiya (miloddan ilgarigi II—I asrlarda va yangi eraning I—II asrlarida), keyinchalik geologiya, geodeziya, tibbiyot, farmakologiya (X—XIV asrlarda), mexanika (XV—XVI asrlarda), fizika, kimyo, biologiya, fiziologiya (XVI—XVIII asrlarga kelib), yana biroz keyinroq esa, gumanitar va ijtimoiy fanlar (XVIII—XIX asrlar davomida) ajralib chiqishi jarayoni yuz berdi. Falsafadan ajralib chiqqan aniq fanlar o'zlarining dastlabki bosqichlarida asosan dalillar toplash, ularni tartibga solish va umumlashtirish, ma'lum turlarga, guruhlarga ajratish bilan shug'ullanadi. Boshqacha aytganda tabiat, inson va jamiyat muammolarining har bir sohasini alohida-alohida, boshqa sohalar bilan bog'lanmagan holda o'rganadilar.

XVII—XVIII asrlarda falsafaning bahs mavzusi dunyoning turli tomonlarini alohida-alohida o'rganayotgan aniq fanlar o'rtasidagi aloqadorlik va bog'lanishlarni o'rganish, ularning istiqbolini belgilaydigan metodologik yo'llanmalar yaratishdan iborat, deb qarala boshlandi. Bu davr faylasuflari barcha aniq fanlarni yana qaytadan guruh-guruh qilib birlashtirib (integratsiyalashtirib), inson bilimlarining hammasini o'zida qamrovchi falsafiy qarashlar tizimlarini tuza boshladilar. Natijada, falsafaga fanlar qomusi sifatida qarala boshlanadi. Bunga Gegelning falsafiy sistemasi — tabiat falsafasi, tarix falsafasi, ruh falsafasi, huquq falsafasi va logikasi (mantiq)ni misol qilib keltirishimiz mumkin. Lekin tabiat, jamiyat, inson va uning tafakkuriga oid bilimlar hali yetarli emasdi, shuningdek, ular o'rtasidagi aloqadorlik va bog'lanishlar ham to'liq ochilmagan edi.

Inson bilimlarida chala joylar ko'p bo'lgan bir vaqtida, falsafaning „fanlar fani“ga da'da'vogarlik qilishga haqi bor edi. Chunki, falsafa bu davrda insoniyat bilimlaridagi bu chala joylarni mantiqiy mulohazalar yo'li bilan to'ldira boshladi. Bu davr faylasuflari shu yo'l bilan dunyoning turli sohalari o'rtasidagi aloqa va bog'lanishlar,

materiyaning tuzilishi va xossalari haqida hayratomuz farazlarni o'rtaga tashlay boshlagan edilar. Masalan, faylasuflardan I. Kant falsafaning bahs mavzusi va u o'rganishi lozim bo'lgan muam-molarni birinchi bo'lib, to'g'ri ta'riflashga uringan edi. Uning kosmologik nazariyasi bu davrda fan taraqqiyotiga katta imkoniyat yaratgan metodologik asos bo'lib qoldi. Shu bilan birga, bu davr falsafasida, keyinchalik ilmiy ravishda tasdiqlangan, genial gumanolr fanlar taraqqiyotiga to'sqinlik qilgan ko'pgina uydirmalar ham bo'lgan.

XIX asr oxiri, XX asr o'rtalarida aniq fanlar sohalarida buyuk ilmiy kashfiyotlar qilindi, tabiat, inson va jamiyat o'zaro aloqadorligining yangi tomonlari ochildi. Fanlarning minglab yangi sohalari, yo'nalishlari yuzaga kelishi, inson bilimlarini falsafiy umumlashtirish ehtiyojini kuchaytirdi. Bu esa falsafaning o'zi uchun ham, boshqa barcha aniq fanlar uchun ham, ijobiy ahamiyatga ega edi.

Demak, falsafa insoniyat tarixiy taraqqiyoti davomida yaratilgan ma'naviy madaniyatning bir qismi bo'lib, insonning o'zi va borliq to'g'risidagi bir butun bilimlar tizimidan iboratdir. O'z mohiyati va mazmuniga ko'ra, falsafiy bilimlar milliy ma'naviyatlarni ham o'zida mujassamlashtirgan umuminsoniy ma'naviy qadriyatlar tizimiga kiradi.

3-§. Falsafaning jamiyat hayoti, inson ma'naviy kamoloti, fan taraqqiyotidagi roli

Barcha zamonlarda ham faylasuflar o'z davrining yetuk allomalari bo'lgan. Qadimgi yunon mutafakkirlari jamiyatni faylasuflar boshqarishi kerak, degan fikrni o'rtaga qo'yganlar. Faylasuflar chuqur, keng qamrovli tafakkur salohiyatiga ega bo'lishi, ma'naviy-axloqiy yetukligi, insonparvarlik, adolat mezonlariga tayanib haqiqatni izlashi, jamiyat istiqbolini boshqalardan ko'ra ko'proq bashorat qilish imkoniyatiga egaligi shunday fikrlarga asos bo'lgan. Beruniy ham jamiyatni to'g'ri, adolatli boshqarishning asosiy mezonlari ustida to'xtab: „Tabiatan boshqaruvgaga moyil bo'lgan hokim o'z fikri va qarorlarida qat'iy bo'lsin, o'z ishlarini amalga oshirishda faylasuflarning fikrlariga amal qilishi kerak“, degan edi.

Tarixda jamiyatni adolatli yo'l bilan boshqarishga harakat qil-gan hukmdorlar yetuk faylasuflarni o'zlarining ustozi deb bilgan, o'z faoliyatlarida ularning maslahatlariga amal qilganlar. Buyuk

Iskandar Arastuni o‘zining ustozи deb bilgan. Amir Temur ham o‘z davrining yetuk mutafakkirlari: Toybodiyy, Shamsiddin Kulolni o‘ziga ustoz deb bilgan, har qanday murakkab muammolarni hal etishda ularning maslahatlariga amal qilgan. U hatto vafotidan oldin o‘z piri-ustozи Mir Sayyid Barakaning oyoq tomoniga dafn etishni vasiyat qilgan. Sohibqiron davlatni boshqarishda ustozи Abu Bakr Toybodiyning maslahati bilan quyidagi to‘rt qoidaga amal qilgan: 1) kengash; 2) mashvarat-u maslahat; 3) qat’iy qaror, tadbirkorlik va hushyorlik; 4) ehtiyyotkorlik.

Temuriy shahzodalar ham o‘z faoliyatida Naqshbandiya tariqatiga mansub bo‘lgan mashhur so‘fiylar ta‘limoti, yo‘l-yo‘riqlariga amal qilganlar. XV asrning taniqli mutafakkiri Xo‘ja Ahror Valiy ko‘plab temuriyzodalarga ustoz bo‘lgan. Unga hurmat shu qadar kuchli bo‘lganki, Xo‘ja Ahror Samarqandga kelganda, temuriy shahzodalar uning otini jilovidan ushlab, piyoda yetaklab yurganlar.

Aksincha, podshohlarning faylasuflardan uzoqlashuvি jamiyatni tanazzulga, davlatni parokandalikka olib kelgan. Masalan, Husayn Boyqaroning Navoiydek yetuk mutafakkir allomani saroyidan Astrobodga badarg‘a qilib, atrofini uzoqnи ko‘ra olmaydigan, xushomadgo‘y, mansabparastlar bilan o‘rab olishi, davlat inqirozining asosiy sabablaridan biri bo‘lgan.

O‘rta asrlarga kelib, G‘arb va Sharq davlatlarida qo‘lida cheklanmagan hokimiyatni to‘plab olgan, bilganicha ish qilishga o‘rganib qolgan hukmdorlar faylasuflarning g‘oyalari, pand-u nasihatlariga muhtoj bo‘lmay qoldilar, atrofini xushomadgo‘y maddohlar, ko‘ngil xushligi uchun ushlab turiladigan masxarabozlar bilan o‘rab oldilar. Bu esa, jamiyatda ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy buhronlar kuchayishiga, davlatlarning yemirilishiga olib keldi.

Falsafada inson ijtimoiy munosabatlarning subyektigina emas, balki bu yorug‘ olamdagи asosiy qadriyat sifatida qaraladi.

Yunon faylasufi Plutarx: „Inson barcha narsalarning me’yoridir“, degan fikrni shu ma’noda aytgan, har qanday tarixiy davrdagi faylasuflarga xos umumiy jihat shundan iboratki, ular borliqdagi barcha narsa va hodisalarga baho bergenida, insoniy manfaatlar va qadriyatlarga asoslanganlar. Suqrot insonning buyuk qadriyatligi masalasini, uning yetuk axloq, ma’naviyat sohibi ekanligi bilan bog‘lab ko‘rsatishga harakat qilgan edi.

Sharq falsafasida ham inson buyuk qadriyat sifatida qaralgan. Buni **Umar Xayyom**ning quyidagi ruboysiда yaqqol ko‘rish mumkin:

„Dunyoning tilagi, samari ham biz,
Aqil ko‘zih qorasi — javhari ham biz.
To ‘garak shahonni uzuk deb bilsak,
Shaksiz uning ko‘zi-gavhari ham biz“.

Insonning falsafada eng buyuk qadriyat sifatida qaralishi — uning ma’naviyat sohibi bo‘lishi bilan belgilanadi. Zero, ma’naviyat sohibi bo‘lish — insonni borliqdagi barcha jonzotlardan ajratib turuvchi asosiy xususiyatdir.

Falsafa insonni buyuk qadriyat sifatida qarash bilangina cheklanmay, uning ma’naviy fazilatlarini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Faylasuflar yuksak axloqiy fazilatlarni asarlarida ifodalabgina qolmay, o‘zlarining yetuk ma’naviyati bilan ham boshqalarni tarbiyalashi lozim. Forobiy aytganidek: „Faylasufning xulq-atvori, axloqi ham o‘z kasbiga loyiq bo‘lishi kerak. Faylasuf bo‘lgan odam o‘z axloqi va xislatlari bilan shu shartlarga javob bera olsa, o‘rganishga, boshqalarga o‘rgatishga kirishishi mumkin“. Forobiyning bu fikri uning quyidagi so‘zlarida ham o‘z ifodasini topgan: „Falsafani o‘rganishdan avval o‘zingizni xirs-havaslardan shunday tozalangki, Sizda maishat, shahvoniyat kabi noto‘g‘ri tuyg‘ular emas, balki kamolotga bo‘lgan xirs-havas qolsin. Bunga xulq-axloqni so‘zda emas, balki amalda takomillashtirish orqali erishish mumkin“.

Falsafani bilish, teran xulosalar qilish — insonning ma’naviy kamoloti bilan bog‘liqligi ustida to‘xtab, O‘rta asrdagi buyuk Sharq mutafakkirlaridan biri **Roziy Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo (865—925)** shunday degan edi: „Kimki falsafani o‘rganish bilan mashg‘ul bo‘lsa, unga katta e‘tibor berayotgan bo‘lsa, u haqiqatni bilishga loyiqidir. Haqiqatan ham, kishining ruhi bu dunyoning razolat va zulmatlaridan musaffo bo‘lishiga va inson farog‘atga yetishishiga faqat falsafani o‘rganish orgali erishish mumkin“. Mashhur fransuz ma’rifatparvar faylasufi **J.J. Russo** ham „odamni faylasuf qilishdan oldin uni inson sifatida tarbiyalash lozim“, degan edi.

Yuqorida aytilganlardan shunday xulosa kelib chiqadiki, falsafa jamiyatdagi ma’naviyat rivoji darajasini ko‘rsatish bilangina cheklanmay, inson ma’naviy kamolotini yuksaltirishga ham bevosita ta’sir etadi. Falsafani o‘rganish natijasida kishilarda insonparvarlik, adolatparvarlik, haqiqatparvarlik, boshqalarga achinish, qayg‘urish singari ma’naviy fazilatlar shakllanadi. Falsafaning inson, jamiyat taraqqiyotida tobora kattaroq ahamiyat kasb etib borishi ham shu bilan belgilanadi.

Insonni, uning ma’naviy olamini bosh mavzu sifatida qarash falsafaning insonparvarlik bilan bog’langan qadriyatlarini shakllantiradi. Insonparvarlik — barcha muammolarga umuminsoniyat manfaati, qadri-qimmatidan kelib chiqib yondashishdir. „Dunyoda insondan buyuk qadriyat yo‘q, uning manfaatlari yo‘lida xizmat qilish esa, bu yorug’ olamdag‘i eng muqaddas ishdir“, degan fikrda Sharq falsafasining asosiy g‘oyasi ifodasini topgan. Naqshbandiyya g‘oyalarida ham odamlarga yaxshilik qilish, yetim-yesirlarga, beva-bechoralarga mehr-muruvvatli, rahm-shafqatli bo‘lish eng savobli ish, deb ta’rif-langan.

Sharq falsafasida katta o‘rin olgan insonparvarlik qadriyatları Umar Xayyomning quyidagi ruboisiida ham o‘z ifodasini topgan:

„*Bir g‘arib ko‘nglini qila olsang shod,
Yaxshidir yer yuzin qilgandan obod.
Lutfingla bir dilni qul qila olsang,
Afzaldir yuz qulni qilgandan ozod*“.

Bu g‘oya Alisher Navoiyning quyidagi misralarida ham aniq ko‘zga tashlanadi:

„*Kimki bir ko‘ngli siniqning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim ka’ba vayron bo‘lsa, obod aylagay*.“

Demak, bir g‘arib, nochor, muhtoj kishiga yordam berish, uning ko‘nglini ko‘tarish savobliligi jihatidan vayron bo‘igan ka‘bani tiklash bilan barobardir.

Falsafaning jamiyat hayoti va taraqqiyoti uchun ahamiyatli tomonlaridan yana biri — adolatparvarlikdir.

✓ Inson bu yorug’ olamga bir marta keladi. Shu sababli inson qadri-qimmatini ulug‘lash, manfaatlarini, huquqlarini himoya qilish ham jamiyat taraqqiyoti masalalariga falsafiy qadriyatlardan kelib chiqib oqilona, odilona yondashishning asosiy shartlaridan biridir. Jamiyatda inson haqqi-huquqlarini himoya qilishga qaratilgan ko‘plab qonunlar mavjud. Asosiy gap — ularning borligida emas, balki qanday va qay darajada amalga oshirilayotganidadir. Demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini ham ijtimoiy adolat mezonlari to‘la tantana qilayotgan mamlakatdagina barpo etish mumkin.

Falsafiy tafakkur muttasil haqiqatni izlash, jamiyat hayotidagi barcha jarayonlarni, fan yutuqlari natijasida qo‘lga kiritilgan yangiliklarni mutlaqlashtirmaslikdir.

Faylasuflar jamiyat hayotidagi har bir tartibot tizimiga, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy munosabatlarning shakllariga, ilmiy kashfiyotlarga „Bu nima uchun shunday?“, „Bundan yaxshiroq bo‘lishi mumkin emasmi?“, degan savollar asosida yondashadi. Jamiyat hayoti va taraqqiyotida, fanlar sohasida bunday savollar qo‘yilmagan zamonlar bo‘Imagan. Bu savollarga javob insoniyat taraqqiyotining yangi yo‘llari, shakllari, imkoniyatlarini izlashni taqozo qiladi. Zero, ularga javob topishga qaratilgan amaliy jarayonlar jamiyat, fan-teknika taraqqiyoti, inson ma’naviy kamolotining asosiy sabablaridandir.

Faylasuflarning mustaqil, ijodiy fikrlashlari, ya’ni fikr erkinligi ham bu fanning jamiyat taraqqiyotiga ta’sirini kuchaytiradigan sabablardandir.

Muammoni aniqroq tushunish uchun XIX asrda yashagan rus faylasufi Speranskiyning quyidagi fikrlarini keltirish mumkin: „*Rossiyadagi erkin kishilarni uch guruhga bo‘lish mumkin. Bular — daydilar, qashshoqlar va faylasuflardir*“ . Bu o‘xshatish qo‘polroq bo‘lsa ham, unda ma’lum haqiqat bor. Daydining erkinligi shundaki, uning uyi, joyi yo‘q, qayerda boshpana bo‘lsa, u o‘scha yerda bemalol yashayberadi. Qashshoq uchun esa, qayerda qorni to‘ysa, o‘scha joy jannatmakon bo‘lib ko‘rinadi. Faylasufning erkinligi — fikr erkinligidir, ijodiy o‘ylash mustaqilligidir.

Haqiqiy faylasuflar barcha zamonlarda ham o‘zлари yashayotgan davrlardagi turg‘un aqidalar, avtoritar ko‘rsatmalar, siyosiy andaзalar chegarasidan chiqib, erkin, mustaqil o‘ylashga, fikrlashga harakat qilganlar. Fikr qaramligi, tafakkur qulligi barcha davrlarda ham falsafa taraqqiyoti yo‘lidagi asosiy g‘ov bo‘lgan. Erkin fikrlash — inson o‘z iyemoni, e’tiqodiga tayanib, aqidaparastlik, siyosiy mutelik iskanjalaridan qutulib, mustaqil o‘ylashi, fikrlashi, keng qamrovli, xolis umumiylar xulosalar qila bilishidir. Faqat erkin, mustaqil tafakkurgina jamiyat hayotida bo‘lgan, bo‘layotgan hodisalarni bir-biri bilan bog‘lab, umumlashtirib, ertangi kunni oldindan ko‘rishga imkon beradigan xulosalar qilishga yo‘l ochadi. Jamiyat taraqqiyoti, inson ma’naviy kamolotiga zamin yaratib beradigan teran falsafiy g‘oyalar faqat shu yo‘l bilan yuzaga kelishi mumkin.

Aqidaparastlik, avtoritar qarashlar, siyosiy andazalar ta’siri ostida qolib ketgan faylasuflar ilg‘or g‘oyalarni yaratish imkoniga ega emaslar. Ularning fikrlari, xulosalari konkret bir davrda ko‘klarga ko‘tarib maqtalsa ham, vaqt o‘tishi bilan butunlay ahamiyatini

yo‘qotadi. Erkin fikrlash imkoniga ega bo‘Imagan kishi haqiqiy faylasuf bo‘la olmaydi. Erkin o‘ylash, fikrlash imkoni bo‘Imagan jamiyatda falsafa fan sifatida rivojlana olmaydi. Shuning uchun ham qadimgi dunyoning buyuk faylasuflaridan biri Seneka: „*Inson haqiqiy erkin bo‘lishi uchun falsafaga qul bo‘lishi kerak*“, degan xulosaga kelgan edi.

Darhaqiqat, jahon tarixidagi barcha yirik faylasuflar — siyosiy g‘oyalar iskanjasini yorib chiqib, mustaqil, ijodiy xulosalar qilgan, yangi ta‘limotlar yaratgan kishilardir.

Falsafiy tafakkurning jamiyat hayoti muammolari tahlili uchun ahamiyatli bo‘lgan tomonlaridan biri — e’tiqodiy bag‘rikenglikdir.

Konfutsiyning fikricha, bag‘rikenglik barcha ijobiy insoniy fazilatlarni o‘z ichiga olgan asosiy ma’naviy fazilatdir. Falsafada barcha davrlarda ham turli qarashlar, nuqtayi nazarlar o‘rtasida bahs-munozaralar bo‘lgan. Bu esa, har qanday muxolif fikrga sabr-toqat, hurmat bilan qarashga olib keluvchi e’tiqodiy bag‘rikenglikni keltirib chiqargan. O‘z e’tiqodiga sodiq bo‘lgan olim boshqalarning fikriga ham ma’lum e’tibor bilan munosabatda bo‘lgan. Har holda yetuk inson bilganidan ko‘ra bißmagani ko‘proq ekanini sezadi, boshqalarning fikridan ham biror narsani o‘rganishga harakat qiladi.

Jamiyat taraqqiyoti istiqqboli muammolari keng ko‘lamda o‘rtaga qo‘yilayotgan hozirgi davrda, e’tiqodiy bag‘rikenglikning ahamiyati katta. Taraqqiyot istiqqbolini bir odamning ko‘rsatmasiga emas, balki ko‘pchilikning fikriga tayanib hal etish mumkin.

Har bir yangi, ijobiy falsafiy fikr, umumlashma konkret davrning ijtimoiy, ma’naviy imkoniyatlari chegarasidan chiqib bir qadam olg‘a bosishdir.

Xuddi shu ma’noda falsafa insoniyat bosib o‘tgan, o‘tayotgan davr saboqlarini o‘rganib, umumlashtirib, ertangi kunni ko‘ra bilishga, istiqbol bilan bog‘liq bo‘lgan vazifalarni hal etishga hozirdanoq kirishishga imkon beradi. Islom Karimov asoslagan bozor munosabatlariga o‘tish, O‘zbekistonda demokratik islohotlarni amalga oshirishning tamoyillari respublika ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy hayotida yuz berayotgan, bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarni falsafiy tahlil etish natijasidir. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan, jamiyat ma’naviyatini yuksaltirish bilan bog‘liq bo‘lgan tadbirlar, amalga oshirilayotgan

kadrlar siyosati ham hozirgi davr sharoitlarini, imkoniyatlarini xolisona, erkin, mustaqil tahlil etishdan kelib chiqqan falsafiy xu'osalarni amalga oshirish yo'llidagi tadbirdardir. Xususan, milliy g'oya va istiqlol mafkurasining shakllanishi haqidagi nazariy xulosalari jamiyat taraqqiyoti, inson ma'naviy kamoloti masalalarini chuqur falsafiy tahlil etish natijasidir.

G'oya — jamiyat, millat bosib o'tgan tarixiy yo'l saboqlarini o'rganish, umumlashtirish asosida shakllanadi. Bu o'rinda tarix saboqlarini umumlashtirish orqali istiqbolga borish yo'llarini yoritish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu sababli ham har bir progressiv (ilg'or) g'oya mohiyati va maqsadi jihatidan ertangi kunga qaratilgan bo'ladi. Jumladan, milliy g'oya muayyan etnik guruhning tarixiy ildizlarini, o'ziga xosligini, maqsad va manfaatlarini teran anglab, kelajakka ongli, uyushgan holda borish yo'llarini ko'rsatib beruvchi hayotiy ehtiyojlar bilan taqozolangan, ilmiy asoslangan qarashlar tizimidir. Mafkura esa, shu g'oyalarda belgilangan maqsadlar, vazifalarni kishilarga tushuntirish, iymon va e'tiqodiga singdirish, ularning faoliyatiga yo'nalish berishga qaratilgan ma'rifiy tadbirlar tizimidir. Umuman insoniyat, jamiyat, millat, davlat taraqqiyotini uning asosida yotgan g'oyalalar va mafkuralarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. G'oya va mafkura ham, birinchi navbatda, jamiyat hayoti va taraqqiyotiga ta'sir etadigan falsafiy muammolar tizimiga kiradi.

Falsafa ijtimoiy vogelik bilan bog'liq holda jamiyatga, uning ijtimoiy borlig'iga doimo faol ta'sir qilib, yangi g'oyalarni nazariy jihatdan shakllantirib boradi. U ijtimoiy ongning nazariy shakli sifatida o'z qoidalarini aqliy, intellektual jihatdan asoslashi bilan jamiyat hayotida alohida o'rincutadi.

Falsafaning jamiyat hayotidagi vazifasi yuqorida aytilganlar bilan cheklanmaydi. Uning asosiy vazifasi jamiyatda bajaradigan funksiyalarida yanada aniqroq namoyon bo'ladi. Falsafaning bunday funksiyalari quyidagilardir: 1) dunyoqarashlik funksiyasi; 2) metodologik funksiya; 3) gnoseologik funksiya; 4) ijtimoiy funksiyalari; 5) aksiologik funksiya va h.k.

Falsafa inson tafakkuri, bilimlariga oid eng umumiy tushunchalar sistemasi bilan ish ko'radi. Bular ichida eng muhimlari — inson, borliq, materiya, jamiyat, sababiy bog'lanishlar, harakat, o'sish, o'zgarish, rivojlanish, ong, tafakkur, xossa, munosabat, sabab va oqibat, tasodif va zaruriyat, butun va bo'lak, element va

struktura va boshqalardir. Falsafaning bu kategoriyalari dunyodagi narsa va hodisalarining mohiyatini, eng umumiy tomonlarini, bog'lanish va aloqadorliklarini in'ikos ettiradi. Falsafa, shu bilan birga, bilish jarayonining eng umumiy, universal prinsiplarini ham ishlab chiqadi. Falsafa o'zining kategoriyalari tizimi va universal prinsiplarini dunyoni bir butun holda olib, uning eng umumiy tomonlarini axloq mezonlari, an'ana va qadriyatlarga tayanib o'rghanish asosida hosil qiladi. Falsafaning metodologik ahamiyati ana shunday prinsiplar, umumlashmalar tizimida namoyon bo'ladi. Borliqning turli tomonlarini o'rghanuvchi alohida fanlar o'zlar erishgan yutuqlarni izohlashda, ulardan umumiy xulosalar chiqarishda falsafiy-metodologik umumlashmalardan foydalanishga muhtoj bo'ladilar. Aniq fanlar o'z tadqiqotida hech qachon bunday umumiy xulosalar qilolmaydilar. Aniq fanlar rivojlangani sari falsafiy - metodologik umumlashmalarning ahamiyati ham ortib boradi.

Ba'zan shunday bo'ladiki, aniq fanlar o'z rivojlanishi jarayonida murakkab muammolarga duch keladilar. Ular bu murakkab muammolarni falsafiy umumlashmalarsiz hal qila olmaydilar. Bunday paytlarda falsafa ularga ma'lum yo'l-yo'riq topishda, bu qiyinchiliklarni yengishda yordamga keladi. Bunday hollarda ham falsafaning metodologik funksiyasi namoyon bo'ladi.

Falsafaning gnoseologik funksiyasi quyidagichadir. Falsafa dunyoni bilish muammosini o'rGANAR ekan, o'zining umumiy metodlarini ishlab chiqib, inson bilishining bir butun umumiy nazariyasini yaratadi. Shu asosda inson bilish faoliyatining paydo bo'lishi, uning rivojlanish tendensiyalari va eng umumiy qonunlarini o'chib beradi. Falsafa inson amaliy tajribasida hosil bo'lgan bilimlarning haqiqatligini tekshiruvchi mezonlarni ham tadqiq etadi.

Falsafa inson oldiga, avvalo, o'zini anglash va so'ngra borliqni o'rghanish masalasini qo'yadi. Dunyoni bilish asosida insonning o'zi ham o'zgarib, so'ng dunyoni oqilona o'zgartirishi mumkinligini nazariy jihatdan anglab, amaliy faoliyatida falsafiy umumlashmalarga tayanadi.

Falsafa ijtimoiy sohalar — jamiyat, iqtisodiyot, davlat, siyosat, huquq, axloq, san'at, din va fan tahlili bilan ham chambarchas bog'liq. Bu sohadagi falsafiy muammolarning asosiy mohiyati — inson, uning o'ziga, borliqqa munosabatini ko'rsatib berishdan iborat. Bunda falsafa, birinchidan, insonni dunyoni bilishning

subyekti sifatida, ikkinchidan, universal obyekt sifatida o'rganadi. Uchinchidan, falsafa ayni shu subyektning obyektga munosabatini o'rganadi. Bunda falsafaning vazifikasi obyektlar dunyosi bilan subyektlarni birlashtiruvchi umumiylikni topishga qaratilgan bo'ladi. Va nihoyat, falsafa subyektning dunyoni bilishida tayanch bo'ladigan nazariy, umumiyligi prinsiplarni asoslab beradi.

Falsafa inson ijtimoiy-tarixiy tajribasining hamma shakllarini, ya'ni biluvchanlik, amaliy o'zgartuvchanlik va o'zlashtirish faoliyatlarini muvofiqlashtirish vazifalarini ham bajaradi. Ularning bir butun holda, muayyan tizim sifatida tushunilishi ijtimoiy hayot rivojining muhim shartidir. Masalan, olib borilayotgan siyosat to'g'ri bo'lishi uchun u fan, axloq va huquq normalaridan kelib chiqishi lozim. Huquqiy jihatdan ta'minlanmagan, ilmiy jihatdan asoslanmagan, gumanistik axloq normalaridan kelib chiqmagan, xalqlarning milliy, diniy jihatdan o'ziga xosligini e'tirof etmaydigan siyosatning istiqboli bo'lmaydi, u pirovard oqibatda inqirozga mahkum bo'ladi. Jamiyat taraqqiyotining tarixiy tajribasini hozirgi kundagi imkoniyatlari, zaruriyatlarini bilish asosida, uning istiqbolini aniqlash ham falsafaning ijtimoiy funksiyasidir. Jamiyat hayotining hozirgi sharoitida falsafaning aksiologik funksiyasi ham ko'proq ahamiyat kasb etmoqda.

Falsafa inson hayotining mohiyatini, yashashining asosiy mazmunini, turmushdagi qadr-qimmati va jamiyatda tutgan o'rnni gumanistik qadriyatlar, progressiv ijtimoiy ideallar nuqtayi nazaridan tushuntiradi. Falsafiy xulosalar insonparvarlik g'oyalari bilan uyg'unlashgandagina, qadriyat darajasiga ko'tariladi. Insoniyat boshiga xavf solayotgan jahon termoyadro urushi, ekstremizm va terrorchilik xavfi ehtimoli kuchaygan, ekologik vaziyat buzilib ketgan, energiya resurslari tugayotgan, jamiyatda iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy tangliklar keskinlashgan sharoitda buning ahamiyati kattadir. Barcha muammolarga tarix saboqlari va insoniyatning istiqboli masalalarini e'tiborga olib, axloqiy qadriyatlarga tayanib yondashish ham falsafiy tafakkurning ifodasidir. Falsafaning aksiologik funksiyasi shunda namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy hodisalarini dialektik tushunish falsafaning funksiyalari o'zgarmas deb qarashga barham beradi. Hatto, „inson va tabiat“, „odam va olam“, „inson va jamiyat“ kabi falsafiy muammolar ham o'zgarib, rivojlanib boruvchi jarayon sifatida qaraladigan bo'ldi.

Falsafa insonning ijtimoiy mohiyatini ochib berish bilan birga, uning tabiatga munosabatini, jamiyatning tabiat bilan chambarchas bog‘liqligini ham asoslab beradi. Inson tabiatga uni o‘ziga bo‘ysundirish, ustidan hukmronlik qilish maqsadidagina munosabatda bo‘lmashdan, kelajakni o‘ylab, oqilona yondashishi lozim. Chunki, tabiat inson uchun faqat moddiy boyliklar manbayi bo‘lib qolmay, balki uning ma’naviy ehtiyoji, ruhiy olami, hissiyot dunyosini qondiradigan sarchashma hamdir. Tabiatni anglash tufayli inson o‘zini bu yorug‘ olamning oliv ne’mati ekanligiga ishonch hosil qiladi, tabiat oldidagi o‘z mas’uliyatini ham teranroq anglaydi. Bu ishonch unda ma’naviy boy, ruhan pok bo‘lish ehtiyojini tug‘diradi.

Falsafani o‘rganish kishilarda faqat nazariy fikr yuritish qobiliyatining shakllantirib qolmay, balki ularning keng fikr doirasiga ega bo‘lishi, axloqiy jihatdan kamol topib, yuksak saviyali bo‘lishga ham olib kelgan. Falsafaning bu tarbiyaviy funksiyasi mustaqil O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi sharoitida yanada ravshanroq o‘z ifodasini topmoqda. Islom Karimov O‘zbekiston Milliy axborot agentligi muxbirining savollariga (1999-yil iyun oyida) bergan javoblarida quyidagi fikrlarni aytgan edi: „*Hozirgi eng muhim, eng dolzarb vazifamiz — jamiyatimiz a‘zolarini, avvalambor voyaga yetib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirish, ularning qalbida milliy g‘oya, milliy mafkura, o‘z Vataniga mehr-sadoqat tuyg‘usini uyg‘otish, o‘zligini anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iborat*“.

Falsafa kishilarni yuksak g‘oyaviylik, mustahkam e’tiqodlilik ruhida tarbiyalashda, ularda ilmiy dunyoqarashni qaror toptirishda muhim rol o‘ynaydi. Falsafani o‘rganish va uni egallash kishilarga jamiyatda sodir bo‘ladigan real jarayonlarni, voqeа-hodisalarни chuqur bilish, ularni ilmiy tahlil qilish, xolis baholash, to‘g‘ri umumlashtirib, hayotiy xulosalar chiqarish uchun juda katta ahamiyatga ega.

Falsafa yosh avlodni porloq turmush uchun kurashuvchi, o‘z istiqbollarini to‘g‘ri belgilovchi qilib tarbiyalashga ko‘maklashevchi ta’sirchan tarbiyaviy vositadir. U yoshlarda ongli faoliyatni, tashabbuskorlikni, intizomni, insonparvarlik va haqiqiy vatanparvarlikni shakllantiradi, e’tiqodiga nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Falsafani chuqur o‘rganish kishilar ijtimoiy taraqqiyot yo‘nalishini tushunishi va uning istiqbolini ko‘ra bilishi, hozirgi kunda mamlakatimizda sodir bo‘layotgan murakkab o‘tish jarayonining mohiyatini anglab olishlariga imkon beradi. Falsafa yoshlarda faqat o‘z millatiga hurmatnigina emas, balki inson-parvarlik, millatparvarlik, baynalmilalchilik e’tiqodini ham tarbiyalaydi, barcha xalqlar va millatlarga nisbatan qardoshlik tuyg‘ularini shakllantirishga yordam beradi.

Demak, falsafa tor professionalizmga, fikriy mahdudlikka barham beradi, u kishiga keng ko‘lamli mushohada yuritishga imkon yaratib, fikriy sayozlik, yengil-yelpi muhokamalardan saqlab, keng va chuqur aqliy xulosalar qilishga o‘rgatadi. Uni chuqur o‘rganish insonda falsafiy tafakkur madaniyatining shakllanishiga olib keladi.



Falsafiy ta'limotlar tarixi davomida: inson va uning mohiyati, borliqqa munosabati, borliq haqidagi umumiy bilimlarning shakllanishi va rivojlanishiga oid bo'lgan turli ta'limotlar yuzaga keldi. Bu ta'limotlarda insonning mohiyati va borliqqa munosabati masalasi o'sha davrdagi nazariy fikrlar, dunyoqarashlar asosida tahlil etildi. Ayrim falsafiy ta'limotlar tarix sahnasidan tushib, o'rniغا yangilari shakllandi. Lekin, inson o'zini qiziqtirgan falsafiy muammolarga hanuz to'la javob topa olgani yo'q. Biror muammo falsafiy chuqur tahlil etilsa, o'rniغا ko'plab yangilari kun tartibiga qo'yila boshladи. Shu asosida o'rganiladigan falsafiy muammolar doirasi ham tobora kengayib, murakkablashib bordi. Umar Hayyom yozganidek:

„Azal sirin bilolmasmiz, na sen-u, na men,
Bu jumboq, hal etolmasmiz, na sen-u, na men.
Parda orqasidadir bu g'uvurimiz,
Parda ketar-u, qolmasmiz, na sen-u, na men“.

Tarixda, men o'zimni qiziqtirgan barcha savollarga to'liq javob topdim, degan dono mutafakkir bo'lgan emas. Donolarning donoligi — bilganidan ko'ra, bilmagani ko'pligini anglashidir. Tarixda falsafa rivojiga hissa qo'shgan buyuk allomalar ham umrining oxirida, men hech narsa bilmay dunyodan o'tib ketmoqdaman, deb armon bilan hayotdan ko'z yumganlar. Ular hayot vaqtida „parda orqasida“ bo'lib ko'ringan sirlar keyin ochilgan. Lekin buni ko'rish ularga nasib etmagan. Shu sababli insoniyat tarixida yuzaga kelgan har bir yangi ta'limot haqiqatni bilish yo'lidagi kichik bir pog'onadir. Bu yo'lidagi falsafiy bilimlar rivojining har bir pog'onasi xoh idealistik bo'lsin, xoh materialistik bo'lsin, inson ma'naviyati taraqqiyotida o'ziga xos o'rni va ahamiyati bor.

Borliq bepoyon, insonlarning bilishi ma'lum tarixiy davrlardagi sharoitlar, imkoniyatlar bilan cheklanganligi sababli „azal sirlarini“ bilish yo'lidagi intilishlar ham turli shakllarda davom etaberadi. Inson olamni qancha chuqur bilsa, bu bilimlarni falsafiy tahlil etish zaruriyati ham shuncha ortib boradi. Bu esa, falsafiy

fikrlar rivojlanishi imkoniyati va zaruriyati cheksiz ekanini ko'r-satadi. Hech qanday falsafiy ta'limotni inson tafakkuri taraqqiyotining so'nggi chegarasi deb bo'lmaydi.

Shu fikrga tayangan holda falsafiy ta'limotlarning shu kungacha bo'lgan taraqqiyoti masalasiga bir nazar tashlaylik.

1-§. Qadimgi Hindiston, Xitoy va Yunonistondagi falsafiy ta'limotlar

Ilk falsafiy fikrlar qadimgi Hindiston, Xitoy, O'rta Osiyo va Yunonistonda kelib chiqqan.

Qadimgi Hindistondagi falsafiy maktablar asosan ikki turkumga bo'lingan. Biri — Vedalardan kelib chiqqan va unga suyanuvchi maktablar; ikkinchisi — Vedalarni tan olmaydigan, ularni rad etuvchi maktablardir. Vedalarni tan oluvchi va ularga suyanuvchi maktablarga vedanta, mimansa, sankxyan, nyaya va vaysheshika maktablari kiradi. Vedalarni tan olmaydigan falsafiy maktablarga jaynizm, buddizm va chorvaka maktablari kiradi.

Ularning ayrimlari bilan tanishib chiqaylik.

Vedalar ta'limotini talqin etuvchi dastlabki diniy - falsafiy maktablardan biri **mimansa** va **vedantadir**. Bu ikkala maktab ham Vedalarni muqaddas kitoblar deb biladi va kishilardan hayotda ularga to'la amal qilishni talab qiladi. Biroq, ularda diniy qarashlar bilan bir qatorda sof falsafiy masalalar ham ko'tarilgan.

Vedanta maktabi namoyandalari jon bilan Xudoning o'zaro munosabati masalasiga e'tibor qaratadilar.

Vedanta maktabi falsafiy ta'limotini ishlab chiqishda **Badarayana** degan faylasuf katta xizmat qilgan. Bu maktab vakillari jon va Xudoning o'zaro munosabati masalasida ikkiga bo'lingan. **Madxva** tarafdarlari Xudo va jon tamoman mustaqil narsalardir deb o'rgatsa, **Sharkata** tarafdarlari bunga teskarri fikrni, ya'ni Xudo va jon birdir, degan qarashni ilgari surganlar.

Vedalarni sharhlash va undagi aqidalarni falsafiy jihatdan asoslashda sankxya maktabi alohida o'rin tutadi. Bu maktabning asoschisi **Kapiladir**. U taxminan miloddan avvalgi 600-yillarda yashagan. *Sankhya* maktabi ikki boshlang'ichni — moddiy va ruhiy asoslarni e'tirof etadi. Sankxya maktabining ta'limotiga ko'ra, biz yashab turgan dunyodagi hamma narsalar moddiyidir. Biroq, moddiylik bilan bir qatorda, dunyoning ruhiy asosi ham bor. Sankxya maktabi bu ruhiy asosni *Prakxriti*, deb ataydi. Prakxriti dunyodagi hamma narsaning asosi, u abadiydir.

Ikkinci turkumga kiruvchi maktablar ichida jaynizm va chorvaka falsafasi diqqatga sazovordir.

Jaynizm falsafiy maktabining asoschisi **Vardxamanadir**. U miloddan avvalgi VI asrda yashagan bo'lib, G'olib-Jina degan taxallus bilan mashhur bo'lgan. Uning izdoshlari jaynichilar, deb atalganlar.

Jaynichilar borliqni ikkiga: *tirik* va *notirik* dunyoga bo'ladilar. Notirik tabiatga ular moddiylikni kiritadilar. Moddiy narsalarning hammasi bo'linmas, mayda zarrachalardan tashkil topgan, deb hisoblaganlar, notirik tabiatga makon, vaqt, harakat kabilarni kiritganlar.

Tirik tabiatga, jaynichilar fikricha, jon kiradi. Jonning asosiy xususiyati onglilik — turli jonlarda turlicha darajada bo'ladi. Jon o'z tabiatiga ko'ra mukammal narsa bo'lib, uning imkoniyatlari cheksizdir. Biroq, jon tana bilan bog'langan. U ehtiroslar, xohishistaklar doirasiga tushib qolgan. Bu esa, uning imkoniyatlarini cheklab qo'ygan. Shuning uchun haqiqiy bilim jonni soflanib, tanadan xalos bo'lishiga yordam qilishi kerak. Buddachilik falsafasining asosiy g'oyasi shudir.

Qadimgi hind falsafasida chorvaka maktabi alohida o'rin tutadi. Chorvaka falsafasi miloddan avvalgi VI asrlarda kelib chiqqan. Chorvaka falsafasi namoyandalarining ko'rsatishicha, olam moddiyidir. Moddiy dunyo esa to'rt unsur — suv, havo, tuproq va o'tdan tashkil topgan. Organik tabiat va, shu jumladan, inson ham ana shu moddiy unsurlarning birikmasidan iborat. Insonning o'ziga xos xususiyati shundaki, u avvalo aqli mavjudotdir. Chorvaka ta'limoticha, inson o'z aqli va sezgi a'zolari yordamida tashqi dunyodagi narsa va hodisalarni bilishga qodirdir.

Qadimgi Xitoy ham turli ijtimoiy-falsafiy fikrlar dastlab vujudga kelgan va taraqqiy etgan mamlakatlardan biri edi.

Qadimgi Xitoyda ijtimoiy-falsafiy fikr miloddan avvalgi VII asrda vujudga kela boshlagan. Qadimgi Xitoydagagi ijtimoiy-falsafiy fikr tarixida Konfutsiyning (eragacha 551—479-yillar) qarashlari alohida o'rin tutadi. U ijtimoiy-falsafiy fikrlarning rivojiga katta hissa qo'shgan, ya'ni qadimiy yodgorliklardan hisoblangan „Qo'shiqlar kitobi“, „Bahor va kuz“ kabi kitoblarni tuzishda qatnashgan. Konfutsiyning o'zi „Aforizmlar“i bilan mashhurdir, ya'ni falsafiy qarashlarida axloq masalalari markaziy o'rin tutadi. Yaratuvchi ilohiy kuchni tan olgan Konfutsiy: „Kishilarning hayoti taqdirga bog'liq, boylik va ulug'lik esa Iloh tomonidan beriladi“, deb uqtiradi.

Konfutsiy qarashlarida **Li** degan tushuncha alohida ahamiyat kasb etadi. Li — **tartib, qoida** degan ma’noni anglatadi. Li bo‘lmasa jamiyat ravnaq topmaydi. Tartib, qonun-qoida har qanday jamiyat rivojining omilidir.

Keyinchalik, qadimgi Xitoyda konfutsiychilar ta’limotiga qo’shilmagan moistlar maktabi vujudga keladi. Bu maktabning asoschisi — miloddan avvalgi 479—400-yillarda yashagan Motszi (Mo Di) dir. Uning fikricha, inson o‘z hayoti davomida Ilohiy kuch belgilagan qoidalarga mos holda yashashi kerak. Ularga amal qilgan kishini Iloh baxtiyor qiladi, amal qilmaganlarni jazolaydi. Shunisi diqqatga sazovorki, Motszi urushlarni qoralaydi, davlatlar o’rtasidagi tinch-totuvlikni qo’llab-quvvatlaydi.

Qadimgi Xitoydagagi yirik falsafiy maktablardan biri daoizm maktabi edi. Dao — qonun, yo‘l degan ma’noni bildiradi. Daoizm maktabining asoschisi Laotszi (miloddan avvalgi VI asr). Laotszi va uning shogirdlari olamning moddiyligini, dunyo tabiiy qonuniyat — **дао** asosida to’xtovsiz harakat va o‘zgarishda ekanligini qayd etdilar. Daoistlar qadimgi Xitoy falsafasida birinchi bo‘lib, moddiy dunyodagi hamma narsalar qarama-qarshilikdan iboratligini e’tirof etdilar. Daoistlar moddiy dunyoni bilish mumkinligini, bilish sezgilardan boshlanib, tafakkur bilan yakunlanishini ko‘rsatib berishga harakat qildilar. Ular bilishdan maqsad — olamning mohiyatini, ya’ni daoni bilish deb ta’kidladilar.

2 Qadimgi falsafiy fikrlar taraqqiy etgan mamlakatlardan biri Yunoniston edi.

Qadimgi yunon falsafiy fikri dastlab Kichik Osiyo g‘arbidagi Ioniya orolida vujudga keldi va rivojlandi. Milet Ioniya dengizi qirg‘og‘ida joylashgan yirik shahar bo‘lib, Yunoniston bilan Eron, Misr, Vaviloniya va Qora dengiz bo‘yidagi mamlakatlar o’rtasidagi savdo va madaniy aloqalarning markazi edi. Milet falsafiy maktabining asoschiları — **Fales, Anaksimandr** va **Anaksimen**lardir. Milet maktabiga mansub faylasuflar uchun sodda dunyoqarash xos bo‘lib, borliq haqidagi ta’limotida yaqqol o‘z ifodasini topdi.

Yuqorida nomlari tilga olingan **Milet** maktabining namoyandalari borliq asosiga muayyan bir moddiy unsurni qo‘yadilar. Masalan, Fales — suvni, Anaksimandr — apeyronni (cheksiz, chegarasiz moddiy narsa), Anaksimen esa — havoni olamdagagi barcha narsalar mana shu moddiy unsurlarning turlicha holatidir, deb tushuntirganlar. Shunisi ahamiyatliki, ular olamning moddiyligini va manguligini ham e’tirof etganlar.

Bu qarashlar keyinchalik **Geraklit** tomonidan rivojlantirilgan. U Kichik Osiyoning Efes shahrida dunyoga kelgan (miloddan oldingi 530—470-yillar), Geraklit Milet maktabi namoyondalaridan farqli o'laroq, olamdag'i barcha narsa va hodisalarning asosi — o't (olov) deb ta'kidladi. Olamdag'i narsa va hodisalarning cheksizligiga, turli-tumanligiga, Geraklitning fikricha, boshlang'ich o'tning mangu harakati va o'zgarishi sababchidir. Biroq, uning falsafasidagi eng qimmatli fikr — harakat, taraqqiyot haqidagi g'oya hisoblanadi.

Geraklitning fikricha, olam doimiy harakat jarayonidan iborat. Olamda doimiy o'zgarmas biron narsa yo'q, undagi hamma narsa o'sib, o'zgarib boradi. Olamdag'i bunday doimiy jarayonni Geraklit daryodagi suv oqimiga o'xshatadi. Uning fikricha, oqib turgan daryoga ikki marta tushib bo'lmaydi. Ikkinci marta tushganda, oldingi suvlari allaqachon oqib ketgan bo'ladi. Bu esa, dialektika haqidagi dastlabki g'oyalardir. Olam dialektikasi to'g'risidagi bu tasavvur Geraklit tomonidan to'g'ri ifoda etilgan bo'lib, u hamma narsa bor va shu vaqtning o'zida yo'q, chunki hamma narsa oqib turadi, hamma narsa o'zgarib boradi, hamma narsa doim vujudga keladi va yo'qolib ketadi, degan qarashdan kelib chiqadi.

Mana shu davrda atomistik ta'limot ham vujudga keldi. Qadimgi Yunonistondagi atomistik ta'limotning asoschilarini Levkipp va Demokrit hisoblanadi. Masalan, Demokrit olamning asosi atomlar (mayda, bo'linmas, moddiy zarrachalar) va bo'shliq-dan iborat, turli-tuman narsa va hodisalar shu atomlarning turlicha qo'shilishidan tashkil topgan, deb ta'kidlaydi.

Demokrit atomistik va deterministik g'oyalarini o'zining kosmogonik nazariyasiga ham tatbiq etdi. Atomlar o'zlarining fazodagi tartibsiz harakatlari jarayonida, bir tomonidan, o'zaro to'qnashib, bir-birini parchalab boradi. Ikkinci tomonidan, bir-biriga qo'shilib, tuproq, suv, havo, o'tdan quyun shaklida harakatlanuvchi ko'p dunyolarni vujudga keltiradi. Demokritning kosmogonik ta'limoti (ayniqsa, Yer va unda hayotning paydo bo'lishi masalasida) garchi sodda bo'lsa-da, katta ilmiy ahamiyatga ega edi.

Qadimgi Yunonistonda ruhni, g'oyani olamning asosi sifatida talqin etuvchi falsafiy qarashlar ham vujudga kelib, rivojlanib bordi. Bunday falsafiy qarashlarning asoschilarini Pifagor, Suqrot, Aflatundir.

Qadimgi Yunonistonda bunday dunyoqarashni rivojlantirib, uni dastlab muayyan tizim holiga keltirishga harakat qilgan faylasuf Aflatun edi. Aflatunning falsafiy qarashilarini, asosan, uning

„Bazm“, „Teetet“, „Fedon“ nomli dialoglarida, siyosiy qarashlari esa, „Davlat“ va „Qonunlar“ nomli asarlarida bayon etilgan.

Aflatun ta’limoticha, olamda „g‘oyalar dunyosi“ birlamchi bo‘lib, hodisalar dunyosi esa, uning mahsuli, soyasidir. „G‘oyalar dunyosi“ zamon va makonga bog‘liq bo‘lmay, mangu, harakatsiz, o‘zgarmasdir, u — haqiqiy dunyodir. Dunyodagi narsa va hodisalar zamon va makonga bog‘liq bo‘lib, o‘tkinchi tabiatga ega. Chunki, ular vujudga keladi va yo‘qoladi. Aflatun nuqtayi nazaricha, „g‘oyalar dunyosi“da eng oliv g‘oya — yaxshilik va baxt g‘oyasi — Xudodir. Boshqa g‘oyalarning hammasi u bilan bog‘liq.

Aflatunning bilish nazariyasida ham muhim tomonlar bor. Uning ta’limoticha, „g‘oyalar dunyosi“ aqliy bilish obyektidir. Moddiy dunyo, narsalar to‘g‘risidagi tasavvurlarimiz esa, hissiy bilish orqali paydo bo‘ladi. Aflatunning fikricha, hissiy bilish haqiqat emas. Moddiy narsalarning boshlang‘ich asosi, mohiyati bo‘lgan „g‘oyalar dunyosi“ni faqat sof tafakkur orqali bilish mumkin.

Aflatun Qadimgi yunon falsafasining eng yirik namoyondasi hisoblanadi. Uning ta’limoti o‘rta asrda va, ayniqsa, hozirgi zamon falsafasidagi turli oqimlarning nazariy asosi bo‘lib kelmoqda. Aflatun falsafiy qarashlarini, xususan „g‘oyalar“ nazariyasini birinchi bo‘lib tanqid qilgan uning vatandoshi, falsafa rivojiga katta hissa qo‘shgan mutafakkir **Arastudir** (miloddan oldingi 384—322-yillar). U setmahsul faylasuf bo‘lib, ayrim asarlari bizning davrimizgacha ham yetib kelgan. Arastuning yirik asarlari „Metafizika“ (yoki „Birinchi falsafa“), „Fizika“, „Jon to‘g‘risida“, „Analitika“, „Kategoriylar“, „Siyosat“, „Ritorika“ va boshqa lardir.

Shunisi diqqatga sazovorki, Arastu Aflatun ta’limotini tanqid qilish bilan birga, umuman unga qarshi chiqa boshladidi. Uningcha, moddiy olam abadiy va obyektiv xarakterga ega bo‘lib, hech qanday Aflatun „g‘oya“ siga muhtoj emas. Tabiat esa, moddiy asosga ega bo‘lgan narsalar yig‘indisidan iborat, u har doim harakatda va o‘zgarishdadil. Arastuning bilish nazariyasi ham muhim ahamiyatga ega. Arastu Aflatunning bilish nazariyasini rad etib, moddiy dunyo bilishning predmeti va sezgilarimizning obyektiv manbayi ekanligini nazariy asoslab berishga harakat qildi.

Arastuning va umuman qadimgi yunon faylasuflarining jamiyat va inson haqidagi qarashlari o‘sha davrdagi hukmron ijtimoiy munosabatlarga bog‘liq edi. Ular jamiyatga nisbatan bo‘lgan

qarashlarida quldorlik tuzumini mustahkamlashga urinadilar. Yunon faylasuflarining ta'limoticha, jamiyatning qul va qul egalariga bo'linishi, quldorlarning hukmronligi va qullarning qulligi tabiiy holatdir. Qullar boshdan qul bo'lib tug'ilganlar, shuning uchun ham ular jismoniy jihatdan baquvvat, jismoniy mehnatga qobiliyatlidirlar. Qullar o'z tabiatlariga ko'ra, axloqiy fazilatlardan mahrum va yaxshilikka uquvsiz kimsalardir. Axloqiy fazilatlar, yaxshi faoliyat faqat erkin kishilarga — qul egalariga xosdir.

Qadimgi yunon falsafasining bu cheklangan tomonini hisobga olmaganda, ijtimoiy fikr taraqqiyotida yangi bosqich bo'ldi.

2-§. Qadimgi Turon, Turkistonda ilk diniy-falsafiy ta'limotlarning vujudga kelishi va rivojlanishi

Qadimgi Turon zaminida dastlabki diniy-falsafiy qarashlar miloddan oldingi VIII—V asrlardayoq shakllana boshlangani ma'lum.

Miloddan avvalgi VI asrdan to milodning III asrigacha bu yerda zardushtiylik va u bilan bog'liq bo'lgan dualistik dunyo-qarash tarqalgan edi. Zardushtiylik faqat din bo'lib qolmay, balki o'sha davrning hukmron mafkurasi, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-falsafiy qarashlarining mushtaraklashgan ifodasi edi.

Zardushtiylikning nazariy asosi bundan 2800 yil oldin yozilgan „**Avesto**“ adabiy yodgorligining mazmuniga kirgan diniy-falsafiy g'oyalardir.

„Avesto“da qadimgi kishilarning inson, ijtimoiy munosabatlар, tabiat va uni bilish yo'llari haqidagi tasavvurlari umumiylar tarzda ifoda etilgan.

Zardushtiylikning jamiyat tarixi to'g'risidagi g'oyalari Tavrot va Qur'onidagi tasavvurlarga juda yaqin bo'lib, unda tasvirlangan birinchi odam — Ilmadir. Boshqa odamlar undan tarqalgan. Ilmaning hukmronlik davri oltin davr hisoblanadi. U davrda odamlar o'lim nimaligini bilmagan. Xudo — Axura Mazda abadiy bahorni yaratgan. Natijada, odamlar baxtli va farovon yashadilar. Lekin bir paytga kelib, odamlar gunoh ish qilib qo'yadilar, ya'ni taqiqlangan molning go'shtini yeydilar. Shunda Axra Manyu („Axriman“) — yovuzlik Xudosining qahri kelib, odamlarga qor va sovuqni yuborgan. Ilma odamlar va mollarni sovuqdan saqlab qolish uchun uy qurib, unga barcha tirik narsalardan bir juftdan joylashtirgan. Shundan keyin tarixning *birinchi davri* — oltin davri tugab, *ikkinci davri* — yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash

davri boshlanadi. *Uchinchi davr* — insoniyatning kelajagi davridir. Bu davrda qadimgi odamlarning baxt-saodat, adolatli jamiyat haqidagi orzu-umidlari ushaladi. Yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurashda Xudo Axura Mazda g'olib chiqib, baxtli hayot saltanati qaror topadi, o'lganlar tirladi, gunohkorlar jazolanadi.

Zardushtiylikda o'sha davrning huquqiy va axloqiy qarashlari ham o'z ifodasini topgan. Zardushtiylikning axloqiy majmuasida mehnatsevarlik, adolat, halollik, yaxshilik asosiy o'rinni egallaydi. „Avesto“da ibridoiy davrdan feodal davrgacha bo'lgan axloqiy qoidalar o'z aksini topgan. Zardushtiylikning axloqiy asosini uch narsa — *ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal* tashkil etadi.

Yaxshi fikr Axura Mazda Xudosining hislati (ramzi), yomon fikr esa — Axra Manyu Xudosining xislati hisoblanadi. Zardushtiylik jamiyatda odamlar tinch yashashi, bir-biriga samimiy munosabatda bo'lishi, bir-biriga yordam qilishi g'oyalari tarafdoi bo'lib, shafqatsizlik, zo'ravonlik, shuhratparastlik, hasad qilish, tuhmat, jahlg'a yo'l qo'yish, va'daga vafosizlik kabi illatlarni qoralaydi.

Zardushtiylikda insoniy burch faqat axloqiy yo'l-yo'riqlarni o'zlashtirishdan iborat bo'libgina qolmasdan, balki oilaviy turmush, yaxshi yor va farzand to'g'risida ham o'ylash ekanligi ta'kidlanadi. Umuman, zardushtiylikda oilaviy burch va farzand tarbiyasi masalasi alohida o'rin tutadi.

Zardushtiylikda O'rta va Yaqin Sharqdagi huquqiy qarashlar ham o'z ifodasini topgan. Qadim zamonalardan beri kishilarning jamiyatdagi munosabatlarini tartibga solib turuvchi urfodatlar va axloqiy qoidalar mavjud bo'lgan. Zardushtiylikda ular Axura Mazda Xodosi nomidan ilohiy qonun darajasiga ko'tariladi. „Avesto“da huquqiy qoidalar tartibli tarzda ifoda qilingan bo'lmasa ham, o'sha davrning huquqiy munosabatlaridan kelib chiqqan va ularni to'g'ri aks ettirgan.

Shakllangan va rivoj topgan qadimgi Sharq jamiyatasi asoslari milodning II—III asrlariga kelib asta-sekin yemirila boshlaydi. Uning zaminida feodal munosabatlar rivoj topadi. Bu jarayonning murakkab va ziddiyatli kechishi o'sha davrlardagi falsafiy qarashlarda ham aks etdi. Shuning oqibatida zardushtiylikdan yangi oqim — moniychilik kelib chiqadi. Bu ta'limotning asoschisi, Moniy degan kishi bo'lib, u 216—217-yillarda tug'ilgan va 276-yilda Jundishopur shahrida qatl etilgan.

Moniy ta'limoticha, olamda nur dunyosi — yaxshilik va zulmat dunyosi — yovuzlik mavjud. Ular o'rtasida abadiy kurash boradi. Lekin, pirovard natijada yaxshilik tantana qilishi, inson

o‘z xulqi va butun hayoti bilan yorug‘likning zulmat bilan kurashishiga yordam berishi va yaxshilikning tantanasi uchun xizmat qilishi kerak.

Moniy ta’limoti quldorlik davlatiga, shuningdek, hukmron dinga qarshi qaratilganligi uchun, uning tarafdorlari hukmron siyosiy kuchlar va din ulamolari tomonidan qattiq quvg‘inga duchor bo‘ldilar.

V asrning oxiri va VI asrning boshlarida O‘rta Osiyo va Eronda kuchayib borayotgan zulmga qarshi **Mazdak** boshchiligidagi xalq ko‘zg‘aloni ko‘tarildi. Bu harakat ayovsiz ravishda bostirildi. Mazdakning o‘zi esa, dahriylikda ayblandi.

Mazdakchilar mafkurasi jamoa yerlarini bosib olishga qaratilgan harakatni va dehqonlarning qaramligiga qarshi kurashishni himoya qilishga qaratilgan edi. Mazdak ta’limoti zardushtiylikdagi yorug‘lik va jaholat, yaxshilik va yovuzlik kurashining dualistik aqidalaridan kelib chiqadigan falsafiy qarashlarga asoslanar edi. Lekin, mazdakchilikda sof falsafiy va diniy masalalar katta o‘rin tutmaydi. Unda ijtimoiy masalalar birinchi o‘rinda turadi.

Mazdak ta’limoticha, asosiy yovuzlik — boylikka hirs qo‘yish va kambag‘allikdir. Bular g‘arazgo‘ylik, bir-birini ko‘rolmaslik, qasos olishning sabablaridir. Ijtimoiy adolatsizlikga qarshi kurash, hasadgo‘ylik, bir-birini ko‘ra olmaslik, qasos olishni bartaraf etish, haqiqiy insoniy munosabatlarni vujudga keltirishning yo‘li — Xudoga toat-ibodat qilishdir.

Miloddan avvalgi II va I asrlarda Turon zaminida buddizm ham keng tarqalgan. Turkistonning Marv, Balx, Termiz, Sig‘nok, Quva, Koson, Samarcand, Buxoro kabi shahar va viloyatlarida ham buddachilik ta’limoti aqida va marosimlarini ishlab chiqishda, ularni boshqa Sharq mamlakatlarida targ‘ib etishda alohida o‘rin tutgan markazlar bo‘lgan.

Miloddan avvalgi I asr va milodning IV—V asrlari orasida O‘rta Osiyo, Turon-Eron, Shimoliy Hindiston, Kavkazning Osiyo etaklaridan „Saddi chin“ gacha bo‘lgan hududni o‘z ichiga olgan Kushonshohlar sultanati Maxayana buddachiliginı o‘zining g‘oyaviy e’tiqodi, mafkurasi, deb e’lon qilgan edi. Sharq mamlakatlari tarixiga oid ilmiy adabiyotlarda Hindistonda miloddan avvalgi VII—VI asrlarda buddachilikning xinayana nomli oqimi keng tarqalgan edi. Xinayananing bosh g‘oyasi — faqat juda kibor, mu’tabar tabaqaga mansub buddaviy aziz-avliyolargina „Nirvana“ saodatiga (ya’ni, „mutlaq mas’udlik, ezgulik-jannatiylik holati“) erisha oladi. Shu sababli bu ta’limot Hindistonning o‘zida ham keng tomir ota olmadи.

Manbalarning xabarlariga qaraganda, kushonlar sultanatining asoschisi, buyuk shohanshohi Kanishka Kadpis tomonidan Panjobning Jalandxar shahrida chaqirilgan buddachilarining umumjahon Jome yig'inida „*Maxayana — hamma uchun birdek ulug' yo'l*“, davlat dini va mafkurasi, deb e'lon qilingan (miloddan avv. 78-yil). Kanishka uchun kushonlar sultanatini birlashtiruvchi diniy mafkura va, ayni paytda, diniy e'tiqod erkinligi siyosatini yurgizish hayot-mamot masalasi edi. Chunki, kushonlar sultanatiga kirgan xalqlar buddaviy e'tiqoddan tashqari qadimgi turkiy Tangri e'tiqodiga, zardushtiylik va boshqa ko'plab diniy e'tiqodlarga sig'inar edilar. Bu xalqlarni birlashtirish uchun, ularning e'tiqodlarini o'zida omixta qilgan, diniy ehtiyoji va manfaatlarini qondira oladigan, uning evaziga kushonshohlar sultanatiga xayrixohligini qozontiruvchi rasmiy mafkura zarur edi. Shuning uchun Maxayana ta'limotida buddachilikning aqidaviy a'nanalariga, marosimchiligi va ijtimoiy asosiga jiddiy o'zgarishlar kiritildi.

Xususan, „Nirvana“ga shu dunyoning o'zida ham erishish mumkin. Nirvanaga faqat nufuzli, ilohiylik va muqaddaslik iqtidori sohiblari — budda avliyolarigina emas, balki ma'naviy-ruhiy poklanish, tozalanish yo'liga kirgan, komillikni oliy va ezgu maqsad qilib olgan barcha odamzod erishishi mumkin.

Buddachilikning Maxayana shakli kushonshohlarning rasmiy davlat dini, deb e'lon etilgandan so'ng Kanishka, Vima Kadpis, keyingi kushonshohlar uni amalda rivojlantirishlari, boshqa xalqlar o'rtasida keng yoyishlari uchun sultanatning Balx, Marv, Termiz, Samarcand, Buxoro, Shosh-Iloq, Turkiston, Sayram, Quva, Koson, O'sh, O'zgand, Qoshg'ar va boshqa shaharlarda ko'pdan-ko'p ibodatxonalar qurildi, buddachilikka oid kitoblar tarqatildi.

Maxayana buddachiligining diniy-falsafiy ta'limoti asosida to'rtta qoida yotadi. Bular quyidagilar: dunyoda qiynalish, azob-uqubat mavjud; har qanday qiynalishning sababi bor; qiynalishdan qutulish mumkin; qiynalishdan qutulishga olib chiquvchi yo'l bor.

Qiynalish deganda buddachilik nafaqat insonni, balki barcha tirik mavjudotning paydo bo'lishidan yo'qolishigacha bo'lgan jarayonni tushunadi. Biroq, buddachilik ta'limotiga ko'ra, inson hayotda qiyinchilikdan qutulishi mumkin. Qutulish deganda buddachilik insonni o'z istaklaridan voz kechishini, shu bilan birga, to'la xotirjamlik, osoyishtalik, mutlaq mas'udlik (Nirvana) holatiga erishishni tushunadi.

Shunday qilib, miloddan ancha oldin O'rtalik Osiyoda diniy, ijtimoiy-falsafiy qarashlarning dastlabki kurtaklari vujudga keldi. Bu ijtimoiy-falsafiy fikrlar diniy ruhda bo'lsa ham, o'sha davr kishilarining olam, inson, uning huquqi va axloqi haqidagi qarashlarini o'zida aks ettirdi.

3-§. O'rta asr Islom falsafasidagi asosiy oqimlar

VIII asrning o'rtalari va IX asr boshlariga kelib Islom falsafasida turli muxolif yo'nalishlarning paydo bo'lishi, ularga qarshi kurashish ehtiyoji hamda mo'tadil Islom dini asoslarini himoya qilish zaruriyati „Kalom“ ta'limotini (Ilohiyotni) yuzaga keltirdi.

„Kalom“ **Muhammad Payg'ambaf**,^{ss.s.} asoslagan Islom dini ta'limotining bir yo'nalishi sifatida vujudga keldi. „Kalom“ ta'limoti tarafdarlari **mutakallimchilar**, deb ataldi. Mutakallimchilarning qarashlari bo'yicha, „Qur'on“ Olloh tomonidan osmondan tayyor holda tushirilgan muqaddas kitob bo'lib, Ollohnинг so'zidir. Dunyo Olloh tomonidan yaratilgan sanoqsiz atomlar yig'indisidan iborat. Ular Olloh xohishiga ko'ra bo'shlida harakat qiladi, o'zaro bir-biri bilan qo'shiladi, paydo bo'ladi yoki yo'qlikka aylanadi. Dunyoda tanho, azaliy va abadiy mavjud, buyuk yaratuvchi quvvat — Ollohnинг o'zi va uning xohishidir. Mutakallimchilar insonning dunyonи bilish qobiliyatini inkor qiladilar. Uni ojiz banda, deb ta'riflaydilar.

Mutakallimchilar ta'limotiga qarshi bo'lgan mutafakkirlar **mu'tazilachilar** deb ataladi. Mu'tazila (arabcha — **ajralib chiqqanlar**, **uzoqlashganlar** degani) ilk islom falsafasidagi ilohiyotchi oqimlardan biri bo'lib, VIII asr o'rtalarida mutakallimchilardan ajralib chiqqan oqimdir.

Mu'tazila ta'limoticha, inson o'z faoliyatida erkendir. U hech qanday „taqdiri azal“ga bog'liq bo'lishi mumkin emas. Mu'tazilachilar antik falsafa va mantiq usullari hamda tushunchalarini ilohiyotga tatbiq etib, islom aqidalaridagi mistikani inkor etishga uringanlar. Ular „Qur'on“ va Sunna ta'limotini aql-idrokka mos talqin etish g'oyasini ilgari surib, islomga ratsionalistik elementlarni kiritishga harakat qilganlar. Mu'tazila g'oyalari insonning iroda erkinligini e'tirof etib, fatalizmni inkor etishga asoslangan diniy-falsafiy ta'limotdir. Hullas, IX asrning boshlariga kelganda islom ortodoksal (yunoncha — **ortodoks**, o'zbekcha — **to'g'ri fikr** degani) va ratsional ilohiyotining bu oqimlari vakillari qadimgi Yunoniston va Rim mutafakkirlarining tabiiy-ilmiy va falsafiy merosi bilan keng tanishishlari natijasida, O'rta asr arab falsafasining paydo bo'lishiga asos soladilar.

O'sha davrda yashagan, ijod etgan mutafakkirlardan biri **Yequb ibn Isoq al-Kindiy** (800—879-yillar) falsafiy qarashlari o'z davrining eng ilg'or oqim sifatida tanilgan va Mu'tazila ta'lomit bilan uzviy bog'liq holda yuzaga kelgan.

Arab falsafasi mutaxassislarning fikricha, garchand musulmon Sharqida juda ko'p yirik mutafakkirlar o'tgan bo'lsa ham, „faylasuf“ degan nomga faqat al-Kindiy musharraf bo'lgan, xolos.

Al-Kindiy falsafa bilan fan o'rtasidagi tortishuvni falsafa foydasiga hal qiladi. U falsafa fanining zarurligini isbot qilishga urinib, uni borliqni bilishning muhim quroli, hatto falsafaning dushmanlari ham falsafaga muhtojdirlar, deb uqtiradi. Al-Kindiy falsafaning zarurligini uqtiribgina qolmay, uning vazifasi nimadan iborat, inson o'z aqli, idroki bilan narsa va hodisalarning asl mohiyatini bilishga qodirmi, degan savollarga ham javob berishga harakat qiladi. „Falsafa, — deydi u, —narsa va hodisalarning mohiyatini, asosiy sabablarini tekshiradi, no'malum haqiqatning sababini topish orqaligina, uning mohiyatini bilish mumkin“.

Al-Kindiyning fikricha, olam to'g'risidagi butun haqiqatni bir mutafakkirning o'zi to'liq tushunib, egallab yetolmaydi. Haqiqat necha-necha asrlar davomida, qanchadan-qancha mutafakkirlar tomonidan to'planib kelingan bilimlar majmuasidan iborat. Bir odamning umri qancha uzun, aqli teran, ilmiy izlanishlari chuqur bo'lmasin, ko'p mehnat qilmasin, baribir, olam to'g'risidagi bor haqiqatning hammasini to'liq anglab yetolmaydi. „Buning uchun, — deydi u, — yuzlab, minglab yillar, necha-necha avlodlarning matonatli izlanishlari, o'tkir fikrlari zarur bo'ladi. Shu tufayli biz biroz bo'lsa-da, haqiqatni bizga bildirib ketgan o'tmishdoshlarimiz, ota-bobolarimizdan minnatdor bo'lmos'imiz lozim“, — degan xulosaga kelgan.

Al-Kindiy o'z qarashlarida, olam markazida Yer turadi, u esa osmon gumbazi bilan o'ralgan, deydi. U dunyonи ikki olamga — Yerdagi va falakdagи olamlarga bo'ladi. Inson yashaydigan Yerdagi olam o'zgarish — rivojlanish, chirish va o'lish kabi xususiyatlarga ega. Falakdagи olam esa, o'zining o'zgarmasligi, rivojlanmasligi, chirimasligi va o'lmasligi bilan farq qiladi. Al-Kindiy olamning vujudga kelishida va harakatlanishida unga turtki bergen birinchi sabab deb Ollohoi tushunadi. Uning fikricha, Olloh azaliy, abadiy, yakka-yu yagonadir, butun koinotdagi umumiyl tartibotning o'rnatuvchisidir.

Al-Kindiyning arab falsafasida sharq aristotelchiligi paydo bo'lishidagi roli g'oyat kattadir. U Arastu falsafasini juda yaxshi bilgan va, hatto uning ba'zi bir g'oyalariga tanqidiy yondashgan. U Arastuning 10 ta kategoriyasi o'rniga o'zining 5 ta parasubstansiyasini (materiya, shakl, harakat, makon va zamонни) ilgari surgan. Uning nuqtayi nazaricha, tabiatdagi barcha narsalar materiyadan tashkil topgan. Materiya esa to'rt unsur: *olov*, *suv*, *havo* va *tuproq*dan iboratdir. Materiya doimiy harakatda, harakat esa narsalarning bir turdan ikkinchi turga o'tishidan iborat. Bu, o'z navbatida, o'zgarish-larga olib keladi. Harakatni u olti turga bo'ladi: 1) paydo bo'lish; 2) yo'q bo'lish; 3) uzayish; 4) qisqarish; 5) o'zgarish va nihoyat, 6) siljish. Vaqt harakatning sekin va tezligidan iborat bo'lib, u o'tgan zamon va kelgusi zamонни bog'laydi. Materiya shaklga ham ega. Faqat shakliy tafovut materiyani (xayulo) makon atributi ekanligini ham e'tirof etadi. Makon deb, jismni o'z ichiga oladigan, jismdan tashqaridagi sathga aytamiz. Makon bilan uni to'ldirib turadigan narsa bir-biriga bog'liq. Agar makon bo'lsa, uni to'ldiruvchi biron narsa bo'lishi kerak va aksincha, degan xulosaga kelgan.

Al-Kindiyning falsafiy qarashlarida dunyonи ilmiy bilishning uch bosqichi haqidagi ta'limoti ham muhim o'rinn tutadi. Bunda bilishning birinchi bosqichi mantiq va matematika yordamida yuzaga kelsa, tabiatshunoslik bilimlari orqali inson bilishning ikkinchi bosqichiga ko'tariladi. Inson bilishning uchinchi bosqichiga esa, metafizika (falsafa) orqali ko'tariladi. U o'zidan oldin o'tgan olimlar va zamondoshlarining qarashlarini umumlashtirib, tanqidiy ravishda qayta ishlab chiqqan, qadimgi faylasuflar, xususan, yunon falsafasining durdonalari bilan butun kelgusi avlodlarni bahramand qila organ qomusiy mutafakkirdir.

O'rta asr Sharq falsafasining Al-Kindiydan keyingi yana bir yirik vakili **ar-Roziydir** (864—925-yillar). Uning to'liq nomi Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo ar-Roziydir. U tibbiyat, kimyo, botanika, astronomiya, matematika, mantiq va falsafaga oid ilmlarni chuqur egallab, Sharqning buyuk ensiklopedist olimi, tabib va mutafakkiri bo'lib yetishdi.

Roziyning falsafiy qarashlari ham Eron, Arab, Hind, Xitoy, Turon zaminidagi diniy-falsafiy sistemalari hamda qadimgi yunon falsafiy ta'limotlari asosida shakllandi. Roziyning ilmiy tadqiqotlari tajriba va kuzatishlarga asoslangan bo'lib, u o'z davrining dogmatik qarashlaridan xolidir. Roziy o'zining original falsafiy qarashlari bilan zamondoshlaridan ancha oldinga ketib, qator ilg'or g'oyalarni ilgari suradi.

Roziy o‘z falsafiy qarashlarida Arastuning izidan borgan o‘z o‘tmishdoshi Al-Kindiyga nisbatan butunlay mustaqil yo‘l tutdi. Uning falsafiy ta’limotiga ko‘ra, real dunyo beshta azaliy boshlang‘ich: materiya (xayulo), makon, zamon, jon (an-nafas) va Xudo (bori)dan iboratdir. Roziy Xudoni azaliy sabablardan faqat biri deb biladi. U dunyoning vujudga kelishida boshqa azaliy sabablar qanday rol o‘ynasa, Xudo ham shunday rol o‘ynaydi, deb hisoblagan. Shu sababli u Xudoni dunyoni yaratuvchi emas, balki boshqaruvchi kuch, deb tasavvur qiladi. Ko‘rinib turibdiki, Roziy borliqning abadiyligi, uning makon va zamondagi cheksizligi, dunyo hech kim tomonidan yaratilmaganligi, harakat esa narsalarning ajralmas xususiyati ekanini, harakatning manbayi narsalarning ichidaligini ko‘rsatadi.

Roziy kishilarni ilm-fan va ma’rifatni egallahsga chaqiradi, baxtli hayotga erishish ilm-fanni egallahsh orqali ro‘yobga chiqadi, deb tushuntiradi. „Biz uchun eng sharaflı bo‘lgan narsa, — deydi u, — faqat jismoniy lazzatlarga intilish emas, balki ilm va ma’rifat o‘ttirish va haqiqatga erishishdir“. Uning ta’limoticha, inson hayotining mohiyati baxtli tur mushga erishishdir. Shuning uchun har bir kishi baxtli hayot uchun kurashishi kerak. Bu kurash ikki yo‘ldan iborat. Birinchisi — hayotning hamma moddiy ne’matlaridan foydalangan holda ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish; ikkinchisi — eng oliv axloqiy holga erishishdir. Eng baxtli odam boshqalarga ko‘p foyda keltirgan kishidir. Uningcha, eng oliv axloqiy yetuklik kishilarning bir-biriga nisbatan adolatli munosabatda bo‘lishi, bir-birini ochiq ko‘ngillilik va hushmuomalalilik, rahmdillik bilan qabul qilish, yordam berishidir. Boshqalarni baxtsiz qilish yo‘li bilan baxtli bo‘lish mumkin emas.

Roziy hatto Islom dini aqidalarini tanqid qiluvchi ikki asar ham yozgan. Bular: „Naqd aladyon“ („Dinlardagi ziddiyat“) va „Hiyal almutanabbiyyin“ („Soxta payg‘ambarlar nayrangi“)dir. Bu asarlarning bizgacha faqat ayrim qismlarigina yetib kelgan.

Roziy o‘z qarashlarida o‘scha davr uchun eng ilg‘or va qimmatli bo‘lgan — xalqlarning o‘zaro tengligi, kishilarning dinga, e’tiqodga nisbatan erkinligi haqidagi fikrlarni ham ilgari suradi.

O‘rta asr musulmon falsafasi rivojlanishiga katta hissa qo‘sghan olimlardan biri **Abu Hamid Muhammad ibn Muhammad al-Gazzoliydir** (1058—1111-yillar). G‘azzoliy mashhur islom ilohiyotchisi. Kalom falsafasining yirik vakilidir.

Abu Hamid G'azzoliy islomiy ilmlarning turli sohalarini dunyoviy ilmlarga qo'shib chuqur egallaydi. U nimani o'rgansa, shu sohani to'ldirishga, rivojlantirishga harakat qilib, har bir o'rgangan narsasini islom tarozisiga qo'yib, o'lchab ko'rish asosida baholashga harakat qiladi. Oqibatda, islomning turli sohalariga oid yuzdan ortiq asarlar yaratadi. U fikx ilmiga oid „Bosit“, „Vajid“ va „Kosit“, „Kalom“ ta'limotiga doir „Tavhid ul A'qoid“, „Ar-Risolat-ul-Qudsiya“, „Al-iqtisod-u fil-e'tiqod“, „Ijmoi-ul-Avvom an Ilm-ul-Kalom“ kabi asarlarni yozgan.

G'azzoliyni jahonga mashhur qilgan va dunyo tan olgan faylasuflar qatoriga qo'shgan asarlari — mu'tazilachilar, botiniylar (ular ko'proq aqlga tayanganlar)ning yo'ldan ozganini asoslashga va islomni zaiflashtirishlariga qarshi yozgan „Fadoix al-Botiniya“, „Al-Qismoi-al-Mustaqim“, „Hujjatul-Haq“, „Mufasiul-Xilof“ va „Ad-Diras al-Marqum“ nomli kitoblaridir.

Abu Hamid G'azzoliy jahon faylasuflari, xususan, yunon faylasuflari asarlari bilan ham tanishib chiqqan. U Forobiy va Ibn Sinolarning Platon va Arastuning falsafasi ta'sirida qolganliklarini, ularga ergashganliklarini tanqid qilib, „Taxofut-ul-filosifa“ („Faylasuflarga qarshi“) asarini yozgan. Bu asarida u Islomni, Qur'oni insoniyatning aqliy bilimlari mezonlari bilan o'lchab bo'imasligini ta'kidlaydi. Insoniyatning aqliy bilimlarini Qur'on nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish lozimligiga e'tiborni qaratadi. Agar shunday qilinmasa, Islomni yanglish tushunish davom etaveradi, biz buning oldini olishimiz kerak, deydi u.

G'azzoliy o'z ta'limotida Islom falsafasi nuqtayi nazaridan kelib chiqib, kishilar haqiqatni tanish uchun avval Olloho ni tanishi kerakligini, aks holda ular his-tuyg'uda ham, aqliy bilimlarda ham adashishlari mumkin, deydi. Xillas, G'azzoliy o'zining asarlarida islom ilohiyoti tizimini ishlab chiqib, uni falsafiy jihatdan asoslab beradi. U islomning eng yirik nazariyotchisi hisoblanadi.

G'azzoliy islom ilohiyotiga oid falsafiy qarashlariga qarshi chiqqan faylasuf — **Ibn Rushddir** (1126—1198-yillar).

Ibn Rushd Arastuning falsafiy qarashlarini davom ettirdi va, shu asosda, o'ziga xos falsafiy tizimni yaratdi. U o'z qarashlarida Xudoning mavjudligini e'tirof etsa-da, dunyoni Xudo yaratmagan, uning ibtidosi ham, intihosi ham yo'q, deydi. Uning fikricha, materiya benihoyat abadiy va azaliy bo'lib, moddiy dunyoda faqat zaruriyat hukm suradi, Xudo ham shu zaruriyatga bo'ysunadi.

Ibn Rushd ortodoksal „Kalom“ ta’limotining inson o‘lgandan keyin, tirlishi, oxiratning mavjudligi, „U dunyo“ to‘g‘risidagi qarashlarni butunlay rad qiladi, jon tana bilan chambarchas bog‘liq, undan ajralmasdir, deydi. Uningcha, jon individual holda o‘lmasdir, bir butun holda olganda, insoniyat ham o‘lmasdir, uning aqli, ya’ni umumiyligini aql o‘lmas va abadiydir, inson aqli haqiqatni bilihga qodirdir.

Ibn Rushd „ikki haqiqat“ to‘g‘risidagi ta’limotni ham yaratdi. Bu ta’limotda aytilishicha, ilmiy-falsafiy fikr erishgan haqiqat — haqiqiy bilim, diniy ta’limotlar mavjud haqiqatlarga mos kelmasligi ham mumkin.

Ibn Rushd o‘zining Abu Hamid Muhammad G‘azzoliy asari — „Taxofut al-falosifa“ („Faylasuflarni rad etish“) ga qarshi yozgan „Taxofut-ut-taxofut“ („Faylasuflarni rad etishni rad etish“) asarida G‘azzoliy ta’limotini qattiq tanqid qiladi. U, kishi oliy kamolotga faqat zikr-u sano orgali emas, balki ilmiy-falsafiy bilimlarni egallash orgali erishadi, deb ta’lim beradi. Ibn Rushdnинг bu ta’limoti O‘rtacha asrdagi Yaqin va O‘rtacha Sharq mamlakatlariда, keyinchalik esa, Uyg‘onish davri Yevropa mamlakatlariда falsafiy qarashlar rivojlanishida katta rol o‘ynaydi. U O‘rtacha asr hufirkrligining eng yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan.

Kalom va Mu’tazila g‘oyalari O‘rtacha Osiyo mutafakkirlarining falsafiy qarashlarida ham o‘z ifodasini topadi.

X asrda yashagan Turkistonlik olimlar Abul-Qosim Samarqandiy va Abu Mansur as-Samarqandiy bergan ma’lumotlarga ko‘ra, *Mu’tazila g‘oyalari* Samarqand, Buxoro madrasalarida ham keng tarqalgan, ular bilan Kalom falsafasi tarafdozlari o‘rtasida katta munozaralar olib borilgan. Ray shahrining qozikaloni Qozi Abdujabbor mu’tazila falsafasi tarafdozlariiga boshchilik qilgan. U har qanday bilimni mantiqiy dalillar asosida himoya qilish zarurligini ko‘rsatgan. Shu bilan birga, u islom aqidalari, shariat talab va taqiqalariga ko‘r-ko‘rona rioya qilish mumkin emasligini ham ko‘rsatgan.

Xorazmlik olimlar Abu Mudar binni Jarir-al-Dabbiy al-Isfahoni, Abul-Qosim ibn Umar az-Zamaxshariy, Imom Tojiddin Muhammad Abdu-ul-Karim ash-Shahristoniylar *Mu’tazila ta’limotini* ochiqdan-ochiq himoya qilib, falsafada ratsionalistik yo‘nalishni ancha yuksak bosqichga ko‘tardilar. O‘z zamoning eng yirik, obro‘-e’tiborli olimlaridan biri bo‘lgan Abu Mudar Urganchda kuchli mu’tazila maktabini tashkil etgan. Uning

shogirdi bo‘lgan Zamaxshariy qattiq ta’qil va tazyiqlarga qaramay, mu’tazila e’tiqodidan yuz o‘girmagan, mustaqil aqliy mulohazalar haqiqatni bilishning asosiy sharti ekanini ko‘rsatgan, ratsionalizm — aqliy bilimlarni, mantiqiy dalillarni ko‘r-ko‘rona e’tiqoddan ustun qo‘ygan.

Abdulkarim ash-Shahristoni esa, falsafiy oqimlarga bag‘ishlangan mashhur asari „al-Milal va an-Nihol“da o‘z qarashlarini asoslashda xolislik, ratsionalizmga rioya qilgan holda, falsafa bilan din o‘rtasidagi o‘ziga xoslik va umumiyl tomonlarni ham ko‘rsatib bera olgan. U Ibn Sino falsafasini ham aqidaparastlikka berilmay, kofirlikda ayblamay, xolis tahlil etishga harakat qildi. Umuman, mu’tazila g‘oyalarni Islom dinidagi fundamentalizmga qarshi kurashning birinchi bosqichi, deb qarash mumkin.

Turkiston zaminida Kalom falsafasi — mutakalimchilar ta’limoti ham rivojlandi. Kalom falsafasi rivojiga moturudiya mazhabi tarqalishiga asos solgan olimlardan biri — **Abu Mansur Ansoriy al-Xanafiy al-Mutakallim al-Moturudiy as-Samarqandiy** (853—944-yillar) katta hissa qo‘shdi.

Moturudiy o‘z asarlarida Kalom falsafasining ko‘p tomonlariga yangicha talqin berdi. Lekin bu talqin mohiyatiy bo‘lmay, balki Kalom usullarini qo‘llashdagi tartibot va amaliyotga doir edi.

Kalom falsafasi rivoji Imom ul-A’zam Abu Hanifaning nomi bilan ham bog‘liq. Lekin Imom ul-A’zam Kalom falsafasiga ratsionalistik g‘oyalarni olib kirishga, ko‘plab aqidalarni aql ko‘zi bilan tahlil etishga harakat qildi. U, inson o‘z xatti-harakatlarida sohibixtiyordir, ya’ni iroda erkinligiga ega va o‘z aqliga tayanib, irodasiga ko‘ra, xayrli va sharr (yomon) ishlarni qilishga rag‘bat ko‘rsatadi, deydi.

Kalom falsafasi va mu’tazila tarafdarlari o‘rtasidagi kurash Turkistonda X va XI asrlardan keyin ham ijtimoiy-falsafiy fikrlar rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi va ilmiy taddiqotlar, mulohazalar borasida ratsionalizm tobora kengroq o‘rin olishiga sabab bo‘ldi.

§ 4–§. VIII—XII asrlarda O‘rta Osiyoda fan va falsafaning rivojlanishi

VII asrning boshlarida O‘rta Osiyonidagi arablar bosib olib, ular o‘zlarini istilo qilgan xalqlar o‘rtasida yangi din — Islom dinini joriy qildilar. O‘rta Osiyo hududida arab istilolaridan oldin Sug‘d, Xorazm, Farg‘ona, Ustrushana, Chag‘oniyon o‘lkalari Sharq bilan G‘arbni, Janub bilan Shimolni bog‘lovchi „Ipak yo‘li“ning markazlaridan bo‘lib, ular madaniy jihatdan ancha rivojlangan edi.

VIII asrning oxiri va IX asrning boshlariga kelganda Arab xalifaligining markazi Bag'dodda madaniy-ma'naviy hayat yuksalib, unda ilm-fan kuchli rivojlana bosholaydi. Bu shaharda tashkil topgan „Dorul-hikma“ — „Donolar uyi“da yahudiy, xristian va islam olimlari o'rtaosida hamkorlik ishlari, xususan, qadimgi Sharq mutafakkirlari, yunon va Rim olimlarining asarlari arab tiliga tarjima qilinib, ularga sharhlar yozila boshlanadi. Bu ishlar, ayniqsa, xalifa Xorun ar-Rashid davrida, keyin o'g'li Abdulloh al-Ma'mun xalifaligi davrida avj oldi.

Al-Ma'mun otasi davrida xalifalikning O'rta Osiyodagi vakili sifatida Marvda noib bo'ladi. U otasi vafotidan so'ng xalifa bo'lgach, barcha musulmon o'lkalaridan, shu jumladan, O'rta Osiyodan ham olim-u ulamolarni Bag'dodga jalb qilib, ilm-fan, madaniyat va ma'naviyatni rivojlantirishga katta e'tibor bergan. Uning taklifi bilan Bag'dodga O'rta Osiyodan ko'plab taniqli olimlar kелишган. Bag'dodda bu davrda O'rta Osiyodan kelgan vatandoshlarimiz — Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Marvaziy, Marvrudiy, Javhariy kabi buyuk olimlar faoliyat ko'rsatib, ular jahon ilm-fani, madaniyati va falsafasining rivojiga katta hissa qo'shishdi.

IX asr oxirlariga kelib, O'rta Osiyo hududlarida Arab halifaligining ta'siri susayib, mahalliy xalqlar mustaqillikka erishdilar. Mustaqillikka erishgan bu hududlarda bir necha davlatlar paydo bo'ladi. Bu mustaqil davlatlar — Somoniylar, Xorazmshohlar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Qoraxoniylar davlatlari bo'lib, ular o'rtaosida o'zaro cavdo-sotiq, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy munosabatlar rivojlandi. Bu mustaqil davlatlar boshqa musulmon o'lkalari, davlatlari bilan o'zaro yaxshi diplomatik aloqalar o'matishlari tufayli, O'rta Osiyodan ko'plab yoshlar Bag'dod, Basra, Qehira va Dalmashq kabi shaharlarga, Sharqning esa, juda ko'p o'lkalaridan Buxoro, Samarqand, Marv shaharlari madrasalariga o'qishiga ketib, ilm olishdi. Natijada bu davrda O'rta Osiyo xalqlaridan jahonga mashhur buyuk mutafakkirlar, olimlar, san'atkorlar, shoirlar yetishib chiqishdi. Ayni shu davrda O'rta Osiyoda jahonga mashhur islamshunos — hadisshunos olimlar: imom Ismoil al-Buxoriy, Iso at-Termiziyy, ensiklopedik allomalar Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, mashhur Islom fikhshunosi Marg'ioniyy, mashhur filolog olimlar az-Zamahshariy, Mahmud Qoshg'ariylar yashab, ijod etishgan. Bu davr badiiy adabiyoti sohasida ham arab, fors va turk tillarida ijod qilgan shoirlar Abu Mansur az-Solibiy, Rudakiy, Daqiqiy, Yusuf Xos Hojiblar o'z asarlari bilan dunyo madaniyatida o'chmas iz qoldirdilar.

IX asr oxiri, X asrning boshlarida Xorazmda ilm-fan, madaniyat va san'at kuchli rivojlandi. Bunda Xorazmshohlarning avlodlaridan bo'lgan shoh Ma'mun boshchiligidagi, O'rta Osiyoda birinchi akademiya — Ma'mun akademiyasi tashkil topib, unga Abu Rayhon Beruniy boshchilik qilgan. Shu davrning buyuk olimlari, xususan Abu Ali ibn Sino ham akademiyaga jalb qilingan.

Bunday yuksalish mahalliy xalqlarning arablar zulmidan qutulishi, mustaqil davlatlar vujudga kelishi, milliy madaniyatlar qayta tiklanishi, boshqa musulmon Sharqi o'lkalari bilan aloqalar yaxshi yo'lga qo'yilishi tufayli sodir bo'ldi. O'rta Osiyo xalqlari hayotidagi bu madaniy yuksalish — *buyuk uyg'onish davri* ham edi.

VIII—XII asrlarda insoniyat sivilizatsiyasiga o'zining munosib hissasini qo'shgan O'rta Osiyoning buyuk mutafakkirlaridan biri — Muhammad Muso Al-Xorazmiy (783—850-yillar) bo'lgan.

U algebra fanining asoschisi hisoblanadi. „Algebra“ so'zi esa, uning „Al-kitob al-müxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobila“ asarining nomidan olingan „al-jabr“ning lotincha yozilishidir. Uning arifmetikaga oid risolasida bayon etilgan, hozir foydalani layotgan o'nlilik qatorlar tizimi hind raqamlariga asoslangan bo'lib, keyinchalik butun Yevropaga va dunyoga tarqaldi.

Al-Xorazmiyning geografiyaga oid asari ham keyingi davrda shu sohada bir qancha asarlarning yaratilishiga zamin bo'ldi. Uning astronomiyaga oid „Zij“ asari Sharqda ham, Yevropada ham astronomik bilimlarning rivojlanishiga yo'l ochib berdi. Al-Xorazmiyning tabiatshunoslikka oid 20 dan ortiq asarlari bo'lib, ulardan bizgacha faqat 10 tasi yetib kelgan.

Xorazmiyning algebraga oid „Al-kitob al-müxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala“ risolasi uch qismidan iborat bo'lib, birinchi qismi oxiridagi kichik bir bo'lim — savdo muomalasiga, ikkinchi qism — algebraik usullar qo'llangan o'lhashlarga, uchinchi qism — vasiyatlarga bag'ishlangan.

Al-Xorazmiyning eng yirik asari astronomiyaga oid „Zij“idir. Bu asar 37 bob, 116 ta jadvaldan iborat bo'lib, uning dastlabki 5 bobi xronologiyaga bag'ishlangan. Ularda „to'fon“, „iskandar“, „safar“ va xristian eralariga oid yil, asr sanalarini hijriy sanaga ko'chirish qoidalari berilgan.

Al-Xorazmiyning bu asari butun Sharq va Yevropa tabiatshunoslik bilimlarining taraqqiysiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Hatto, keyingi davr geografik kashfiyotlarining jarayonida ham muhim rol o'ynadi.

Al-Xorazmiyning „Yer surati haqida kitob“ i juda ham muhim ahamiyatga ega. Kitobda boshlang‘ich meridian sifatida Arin (hozir Hindistondagi Ujayn) shahridan o‘tgan meridian tanlangan. Unda yerdagi shaharlar, tog‘lar, dengizlar, orollar va daryolardagi 2402 ta geografik joylarning koordinatalari keltirilgan. Bu shaharlar, daryolar, tog‘lar, orollar va boshqa joylar iqlimlar bo‘yicha taqsimlangan. U o‘z geografiyasini iqlimlar nazariyasiga asoslanib, birinchi marta to‘liq bayon etgan. Hozir keng qo‘llanilayotgan „algoritm“ so‘zi ham al-Xorazmiyning nomidan olingan.

IX—XII asrlarda yashab ijod etgan buyuk mutasakkirlarning ikkinchisi — Ahmad ibn Muhammad al-Farg‘oniy (798—865-yillar)dir.

Ahmad Al-Farg‘oniy o‘rta asrlarda yashagan O‘rta Osiyolik olimlar orasida buyuk astronom, matematik, geograf sifatida salmoqli o‘rinni egallaydi. U Farg‘onaning Qubo (hozirgi Quva) shahrida tug‘ilib-o‘sib, o‘zining dastlabki ma’lumotini shu yerda oladi. So‘ng o‘z bilimlarini oshirish, o‘qish va o‘rganish uchun o‘sha davrning ilmiy markazlaridan bo‘lgan Bag‘dodga kelib, „Baytul-Hikma“ („Hikmatlar uyi“)da ustozlardan saboq olib, o‘zi ham ilmiy tadqiqotlar olib bordi. U „Baytul-Hikma“ olimlari bilan hamkorlikda turli ilmiy asarlarni hind, fors va yunon tillaridan arab tiliga tarjimalar qiladi.

Ahmad Farg‘oniy Bag‘dodda „Baytul-Hikma“ ning yetakchi olimlaridan biri sifatida tanilib, shu yerda yashab, ijod etadi. Uning 8 asari bizga ma’lum bo‘lib, ularning hammasi astronomiyaga oiddir. Uning asarlari XII asrdayoq Yevropada lotin tiliga tarjima qilinib, muallifining nomi lotinchalashtirilib „Alfraganus“ deb atalgan. Uning astronomiyaga oid asari XIII asrda boshqa Yevropa tillariga ham tarjima qilinadi va hozir ham universitetlarda astronomiyadan asosiy darslik sifatida foydalaniлади.

Al-Farg‘oniyning astronomiyaga qo‘shgan hissasi — osmon sferalari yoritqichlari va Yerning graduslarini birinchi marta o‘lchab, aniqlab berishi bo‘ladi. Bu asar olam tuzilishini ilmiy tasavvur etishning muhim asosi bo‘ldi. Al-Farg‘oniyning yozishicha, osmon manzarasini gavdalantirib beradigan ikkita „belbog“ bor, ular — osmon ekvatori va Quyosh ekliptikasidir. Osmon ekvatori Yer ekvatorining davomi bo‘lib, bir tekislikda yotadi. Quyosh ekliptikasi esa, Quyoshning Yer atrofida (aslida Yerning Quyosh atrofida, tevaragida) harakati natijasida hosil bo‘lgan trayektoriyadir. Osmon ekvatori bilan Quyosh ekliptikasi

tekisliklari o'zaro doimiy burchakni hosil qiladi. Bu burchak 23 daraja-yu, 35 minutdir. Bu o'lchov o'z davri uchun g'oyat aniq edi.

Al-Farg'oniy Yer radiusi yoyining bir darajasi uzunligini topib, uni 36,0 ga ko'paytirib, 40 ming 800 km tashkil qilishini aniqlaydi. Bu Yer meridianining uzunligi edi. Yer meridianining hozirgi zamon ilmiy asboblari va usullari bilan o'lchangan uzunligi, ya'ni „Yer belbog'i“ 40 ming 8 km ni tashkil qiladi. Shundan kelib chiqsak, Al-Farg'oniyning o'lchovi o'z davri uchun juda katta aniqlik edi.

Al-Farg'oniy dunyo xalqlarining yil hisoblari kalendarlari muammosi bilan ham shug'ullanadi. U hind, yunon, Eron, Suriya, O'rta Osiyo xalqlari yaratgan barcha kalendarlarni taqqoslab, o'rganib chiqadi. Al-Farg'oniyning bu boradagi kashfiyoti keyingi davr astronomik-matematik nazariyalarining barchasiga asos bo'lib xizmat qildi. Al-Farg'oniy Yer ekvatorida Quyosh ikki marta — bahorgi va kuzgi teng kunliklarida zenitda bo'lishini, osmon qutblari gorizont tekisligida yotishini, qutblarda kecha qishga, kunduz yozga 6 oydan bo'linishlarini ham ko'rsatib bergan.

O'rta Osiyo xalqlarining O'rta asrlar davri falsafiy fikrining rivojlanishida Abu Nasr ibn Muhammad Al-Forobiy faxrli o'rincutadi.

U Sirdaryo bo'yidagi Forob shahrida, turk lashkarboshisi oilasida tug'iladi va dastlabki bilimini Shosh, Samarcand va Buxoroda oladi. So'ngra, Forobiy o'z bilimini davom ettirish uchun Bag'dodga boradi. Natijada, o'z davrining yirik olimi va buyuk faylasufi bo'lib yetishdi. Forobiy Bag'dodda yashab, ijod qilgan, umrining so'nggi yillarini Xalab va Damashqda o'tkazib, shu yerda vafot etadi.

Al-Forobiy 160 dan ortiq asar yozgan bo'lib, bizga ularning bir qismigina yetib kelgan. **Al-Forobiy asarlarini ularning mazmunlariga qarab, quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:**

1. Falsafaning umumiy masalalariga oid asarlar: „Substansiya haqida so'z“, „Masalalar manbayi“, „Qonunlar haqida kitob“ va shu kabilar.

2. Inson bilimining tabiatiga doir asarlar: „Yoshlarning aqli haqida kitob“, „Kattalarning aqli haqida so'z“, „Mantiq haqida katta qisqartma kitob“, „Isbot kitobi“, „Sillogizm shartlari kitobi“ va shu kabilar.

3. Falsafa va tabiatshunoslik fanlari tasnifi, mazmuni va mundarijasи haqidagi asarlar: „Ilmlarning kelib chiqishi va ta'rifi haqida kitob“, „Falsafa“ tushunchasining ma'nosи haqida so'z“, „Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerakligi haqida kitob“, „Falsafaga izohlar“ va boshqalar.

4. Moddaning miqdori, hajmi ya fazoviy jarayonlarni o'rganishga oid asarlar: „*Hajm va miqdon haqida so'z*“, „*Fazo geometriyasiga kirish haqida qisqartma kitob*“ va boshqalar.

5. Modda xossalari va turlari, hayvon va inson organizmining xususiyatlarini o'rganuvchi asarlar: „*Fizika usullari haqida kitob*“, „*Hayvon a'zolari haqida so'z*“, „*Inson a'zolari haqida risola*“ va shu kabilar.

6. Tilshunoslik, she'riyat, notiqlik va xattotlik haqidagi asarlar: „*She'r va qofiyalar haqida so'z*“, „*Ritorika haqida kitob*“, „*Lug'atlar haqida kitob*“, „*Xattotlik haqida kitob*“ va boshqalar.

7. Ijtimoiy-siyosiy hayat, davlatni boshqarish, axloq, huquq va tarbiyaga oid asarlar: „*Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola*“, „*Shaharni boshqarish*“, „*Urush va tinch turmush haqida kitob*“, „*Fazilatli xalqlar*“, „*Fozil shahar aholisi*“ va boshqalar.

Forobiyning falsafiy qarashlari asosini, dunyoning tuzilishi haqidagi panteistik ta'limoti tashkil qiladi. Bu ta'limotga ko'ra, butun mavjudod, borliq, emanatsiya asosida yagona boshlang'ichdan bosqichma-bosqich vujudga kelgan. Bu 6 bosqichdan iborat bo'lib, ular o'zaro sababiyat orqali bog'langan.

Forobiy inson, uning bilishi, ilm-fan va aql haqida ham o'zining falsafiy qarashlarini ilgari surgan. Garchi u insonni „aqli hayvon“ desa ham, aqli inson haqida shunday deb yozadi: „*Aqli deb shunday kishilarga aytildikni, ular fazilatli, o'tkir mulohazalni, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni ixtiro etishda zo'r iste'dodga ega, yomon ishlardan o'zini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydiilar. Yomon ishlarni o'ylab topish uchun zehn, idrokka ega bo'lganlarni aqli deb bo'lmaydi, ularni ayyor, muttaham, aldoqchi degan nomlar bilan atamoq lozim*“.

Forobiy, botliqni inson bila olishini qayd qilib, insonning bilishini, uning ruhiy qobiliyatlarini inson miyasi boshqaradi, barcha ruhiy „quvvatlar“, jumladan bilish qobiliyati ham unga bog'liq, deydi. U o'zining „Ilm va san'atning fazilatlari“ risolasida insonning tabiatni bilishi cheksizligini, bilim bilmaslikdan — bilishga, sababiyatni bilishdan — oqibatni bilishga, aksidensiyalardan, ya'ni sifatlardan — substansiyanı, mohiyatni bilishga qarab, ilmnинг borgan sari chuqurlashib borishini aytadi. Forobiy inson bilish jarayonini ikki bosqichga bo'lib, bu bosqichlarning o'zaro bog'liqligini, aqliy bilish hissiy bilishsiz yuzaga kelmasligini alohida ta'kidlaydi.

Forobiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari ham muhim ahamiyatga ega. U o'rta asrlarda birinchi bo'lib, jamiyatning kelib chiqishi, uning maqsad va vazifalari haqida izchil ta'limot yaratdi. Forobiyning bu ta'limoti uning „Fozil shahar aholisining maslagi“, „Davlat arbobining hikmatlari“, „Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola“ asarlarida o'zining ifodasini topgan.

Forobiy shaharni ijtimoiy uyushishning yetuk shakli, insoniyat kamolotga erishuvining muhim vositasi deb hisoblaydi. U insonlami o'zaro hamkorlikka, xalqlarni o'zaro do'stlikka, tinchlikka cha-qirib, dunyoda yagona insonlar jamiyatini tuzishni, inson qadr-qimmatini kamsituvchi jamiyatni qoralab, inson qadr-qimmatini ulug'lovchi jamiyatni orzu qiladi. U o'zining „Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola“ asarida: „davlatning vazifasi — insonlarni baxt-saodatga olib borishdir, bu esa ilm va yaxshi axloq yordamida qo'lga kiritiladi“, deb yozadi.

Forobiy o'z falsafiy qarashlarida insonni ulug'lab: „odamlarni birlashtirib turuvchi ibrido — insoniylikdir, shu tufayli odamlar odamzod turkumiga oid bo'lganligi uchun ham o'zaro tinchlikda yashamoqlari lozim“, deb ko'rsatgan edi.

Xullas, Forobiy falsafiy qarashlariga yakun yasab, shuni qayd qilish lozimki, uning falsafiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlari o'zidan keyingi mutafakkirlar, xususan, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino qarashlarining shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o'ynadi.

O'rta asr sharqining, xususan, O'rta Osiyo Uyg'onish davrining qomusiy olimlaridan yana biri Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniy (972—1048-yillar)dir.

Beruniy qadimiy Xorazmning poytaxti bo'lgan Kot shahrida tug'ilib o'sdi va shu yerda bilim oldi. U ona tilidan tashqari arab, so'g'd, fors, suriyoniy, yunon, qadimiy yahudiy til, keyinroq sanskrit va hind tillarini o'rgangan. Beruniy o'z davridagi deyarli hamma ilm sohalarini egallaydi va ularga oid ko'plab asarlar yozdi. Natijada, u o'zidan keyingi avlodlarga katta va boy ilmiy meros — 160 dan ortiq asarlar, tarjimalar, yozishmalar qoldirdi. Beruniyning bizgacha, yetib kelgan asarlaridan: „Asor al-boqiya“, „Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar“, „Hindiston“, „Geodeziya“; „Kitobi Saydana“, „Geografiya“, „Qonuni Ma'sudi“, „Mineralogiya“, „Kitobi tavxim“, „Dorivor o'simliklar haqida kitob“ va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Uning „O'tmisht avlodlardan qolgan yodgorliklar“, asarida muallif yozma manbalar, xalq

og'zaki ijodi namunalari asosida xorazmliklar, sug'diyalar, eroniylar va arablarning Islom dinigacha bo'lgan e'tiqodlari to'g'risida, ularning astronomik, matematik va geografik tushunchalari haqida juda qimmatli tarixiy ma'lumotlar bergen.

Beruniy „Hindiston“ asarida Hindistonning iqlimi, geografik tuzilishi, xalqlari, ularning urf-odatlari, ilm-fani, adabiyoti va san'ati, falsafasi, diniy qarashlarini bayon qilib berdi va bu asari bilan juda katta shuhrat qozondi.

Beruniy astronomiyaga oid bir-qancha original asarlar yaratib, ularda Osmon yoritqichlarining harakatlari ustida olib borgan kuzatishlarini bayon qildi va o'z o'tmishdoshlari Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy qarashlarini rivojlantirdi. Beruniy „Geodeziya“, „Kitobi Saydana“ („Farmakognoziya“), „Geografiya“ asarlarida topografiya, farmakognoziya, jug'rofiya, meteorologiya sohalarida olib borgan tadqiqotlarini umumlashtirib, bayon qilib bergen.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Beruniy asarlarida, uning tabiiy, ilmiy qarashlari bilan bog'liq chuqur ijtimoiy-falsafiy mulohazalar, umumlashmalar ham o'z ifodasini topgan. U Forobiy falsafiy ta'limotiga asoslanib, Olloohni hamma narsaning birinchi sababi, hamma narsaning yaratuvchisi ekanligini e'tirof qildi. Lekin, Beruniy shu birinchi sababdan kelib chiqqan hamma narsaning rivojlanish va o'zgarishi sababini tabiat bilan bog'laydi. Uning ta'limoticha, tabiatda hamma narsa tabiiy qonunlar asosida yaratiladi. Tabiat o'zining tabiiy kuchiga ega bo'lib, shu kuch ta'sirida to'xtovsiz harakat, o'zgarish, o'sish, rivojlanish, vujudga kelish, yemirilish, halok bo'lishi jarayonlari sodir bo'ladi.

Beruniy o'z falsafiy qarashlarida deizmga yaqin pozitsiyada turgan. U moddiy dunyoning abadiyligi haqida gapiradi. Beruniyning fikricha, dastavval Xudo va boshlang'ich modda, ya'ni materiyadan boshqa hech narsa bo'lmagan. Borliq — abadiy, u o'zgarish va taraqqiyotdadir. Materiya muayyanlik libosiga burkanadi. Faollik, harakat tamomila materiyaga tegishli, u ruhni modda bilan bog'laydi va uning turli shakllarga kirishini ko'rsatib o'tadi.

Beruniy yunon faylasuflari Levkipp va Demokrit qarashlariga qo'shilib, atomistik ta'limotni tan oladi, lekin ulardan farqli o'laroq, borliqda bo'shliqning mavjudligini inkor etadi. U atomlar sifat jihatdan o'zgarish xususiyatiga ega, degan fikrni bildiradi. Beruniyning nuqtayi nazaricha, makon va zamon borliqning muhim xususiyatlaridir.

Beruniyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan. U insonni eng sharaflı borlıq sıfatida tushuntiradi. Inson faqat o'zi uchun yashamasligi, insonlar bir-birlariga yordam berishlari kerakligini ta'kidlaydi. Uniñgeha, insonlar o'rtasidagi tafovut ko'proq tashqi jihatdan mavjud bo'lib, ular ichki tuzilishi va tashkil topishi jihatdan umumiylizka ega. Lekin, inson maymunga o'xshasa ham, ular o'rtasida tub farqlar mavjud.

U „Hindiston“ asarida insonlarning Tillari turlicha ekanligi to'g'risida to'xtalar ekan: „*tillarning turlicha bo'lishiga sabab — odamlarning guruhlarga ajralib ketishi, bir-birlaridan uzoqda yashashlaridir*“, deydi.

Beruniy mamlakat raynaqi, el-yurt farovonligini ilm-fan taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq: „Har bir olim o'z muhokamasida amaliyatga asoslanishi, o'z tadqiqotida aniq maqsadga ega bo'lishi, tinimsiz mehnat qilishi, xatolarni qidirib tuzatishi, yuzakichilikka qarshi kurash olib borishi lozim“, deb yozgan edi. Beruniy mamlakatda xalqlar do'st, inoq, totuv bo'lib yashashi uchun kurashib, insoniyatga qirg'in keltiruvchi urushlarni qattiq qoralaydi va kishilarni tinchlikka chorlaydi.

IX—XII asrlar musulmon sharqi, xususan O'rta Osiyo xalqlari tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy fikrlarining rivojiga o'zining buyuk hissasini qo'shgan qomusiy olimlardan yana biri Abu Ali ibn Abdulloh ibn Sino (980—1037-yillar)dir.

Abu Ali ibn Sino Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilib, so'ng Buxoroda o'qib ulg'aydi. Bu yerda u turli ustozlardan ta'lim olib, o'z davri ilmlari: matematika, mantiq, astronomiya, huquq-shunoslik, fizika, kimyo, falsafa kabi dunyoviy ilmlarni chuqur o'rgandi. Ayniqsa, u tibbiyot ilmini katta qiziqish bilan egallaydi. Tabobat saboqlari unga shu qadar kuchli ta'sir qiladiki, 16 yoshga kirganda bu soha ilmlarini nazarini o'zlashtirish bilan cheklanmay, balki amaliy tibbiyot bilan shug'ullanib, tabiblik ham qila boshlaydi. Abu Ali ibn Sino 18 yoshga to'lganda juda ko'p ilm sohalarini egallagan va bu sohalarga oid asarlari yaratma boshtagan.

Abu Ali ibn Sino o'z davrining barcha ilg'or ta'limotlarini, xususan: qadimgi Hind, Yunon, Turon, niyoyat o'rta asr arab uyg'onish davri, O'rta Osiyo ilmiy merosi bilan chuqur tanishib, ularni o'z dunyoqarashi asosida umumlashtirgan. U o'zidan oldin o'tgan Sharq olimlari Al-Xorazmiy, Al-Kindiy, Ar-Roziy, Forobiylar asarlari bilan birga, qadimgi yunon olimlari: Galen, Gippokrat, Evklid, Arximed, Pifagor, Porfiriy, Platon, Aristotel

asarlarini ham chuuqur o'rganadi. Ayniqsa, Forobiyning asarlari, uning falsafiy va ijtimoiy qarashlariga katta ta'sir ko'rsatdi. Natijada; Abu Ali ibn Sino tibbiyat, falsafa, qator tabiiy-ilmiy fanlar, ijtimoiy-gumanitar bilimlar sohalarida falsafiy mazmundagi ko'plab asarlar muallifi, mashhur qomusiy olim bo'lib yetishdi.

U 450 dan ortiq asarlar yozgan. Lekin, bizga ulardan faqat 100 ga yaqini yetib kelgan. Abu Ali ibn Sino o'zining bu asarlari bilan o'rta asr Sharqi, xususan, O'rta Osiyo xalqlari falsafiy, tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy fikrlar tarixiga buyuk hissa qo'shishi bilan o'z davrida butun Sharqda „**Shayx-ur-rais**“ („Olimlar boshligi“) degan nom oladi.

Ibn Sinoning falsafiy qarashlarida tabiiy-ilmiy g'oyalarning ustunligi ko'zga tashlanadi. Buni uning „al-Qonun fit tibb“ asarida ham yaqqol ko'rish mumkin. Masalan, unda inson tanasini boshqarib turuvchi tabiat qonunlari, inson organizmi bilan tabiiy muhit aloqasi, inson va tabiatning o'zaro munosabati masalalari o'z ifodasini topganligining guvohi bo'lamiz.

Ibn Sinoning falsafiy qarashlari, asosan uning „Ash shifo“ asarida uch katta yo'nalish — *metafizika, fizika va mantiqda* o'zining yorqin ifodasini topgan. Bu sohalarga tayanib, metafizika: ilohiyot, vujud va mavjudot, dunyoning boshlanishi, tuzilishi va tarkibi haqidagi muammolarni o'rganadi. Fizika sohasi — tabiatshunoslik masalalarini, jism, modda, ularning tuzilishi va tarkibini o'rganish bilan bog'liq muammolarni o'z ichiga oladi. Mantiq bo'lsa — bilish metodi, to'g'ri fikrlashni, aqliy bilish shakllarini o'rganadi.

Ibn Sino bu asarlarida umumiyl falsafiy masalalarni ikki yo'nalishga bo'ladi. Ular: 1) nazariy; 2) amaliy masalalardan iborat bo'lib, o'z navbatida, har biri qator ilm sohalarini o'z ichiga oladi.

O'zining vujud, mavjudot, borliq haqidagi ontologik ta'limotida vujudni ikkiga — vujudi vojib, ya'ni zaruriy vujud hamda vujudi mumkinga ajratadi. Bunda vujudi vojib, hamma mavjud narsalarning boshlang'ich — birinchi sababi, ya'ni Tangridir. Vujudi mumkin esa, shu vujudi vojibdan kelib chiquvchi boshqa barcha borliqdagi narsalardir. Uning vujudi vojib haqidagi fikrlari mavjudot shakllarining o'zaro bog'lanishlari, ularning hammasi dastlabki zaruriy vujuddan kelib chiqishi haqidagi ematsiya ta'limoti „Kitob-Ash shifo“, „Kitob al-najot“, „Donishnom“ asarlarining metafizika bo'limlarida har tomonlama bayon etib berilgan.

Ibn Sinoning bu qarashlari panteistik xarakterga ega bo'lib, o'rta asr Sharq mutafakkirlari falsafiy qarashlarining ko'pchiligidagi xos bo'lgan ilg'or ta'limot hisoblanadi.

Ibn Sino falsafiy bilimlarni ikki qismga ajratadi. Ularning birinchisi — *nazariy falsafa*; ikkinchisi — *amaliy falsafadir*. Nazariy falsafa — metafizika (buni u oliv fan deydi), matematika (buni u o'rta fan deydi) va tabiat haqidagi fanlar (buni u quyi fan deydi) dan iborat. Amaliy falsafa — siyosat, huquq, iqtisodiyot, axloqshunoslikni o'z ichiga oladi.

Ibn Sinoning fikricha, ijtimoiy-siyosiy masalalarni, davlat, jamiyatning tuzilishi, vazifalarini, jamoani, ijtimoiy uyushma-larning faoliyatini boshqarish, insonning xulq-atvori, odatlari, axloqiy mezonlari va huquqiy tartib-qoidalarni amaliy falsafa o'rganadi. *Shundan kelib chiqib, u amaliy falsafani uch qismga bo'ladi*. Bular: *axloqshunoslik; iqtisodiyot; siyosatdir*. Axloqshunoslik — inson shaxsiyati fazilatlarini, axloqiy me'yorlar va qoidalarni; iqtisodiyot — oila, uning talablarini, vazifa va faoliyatini boshqarish va ta'minlab turish uchun zarur bo'lgan masalalarni; siyosat — davlatni idora qilish va boshqarish, hukumat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish masalalarini o'rganadi.

Ibn Sinoning jamiyat to'g'risidagi qarashlari ham diqqatga sazovordir. U jamiyatda kishilar o'zaro bir-biriga yordam berishlari asosida yashashi kerak, deydi. Ibn Sino jamiyat kishilarning o'zaro kelishuvlari asosida qabul qilinadigan adolatli qonunlar yordamida boshqarilishi lozimligini, jamiyat a'zolarining hammasi bu qonunlarga itoat etishlari zarurligini ta'kidlaydi.

Xullas, VIII—XII asrlarda O'rta Osiyoda yashab, ijod etgan, mintaqada ilk uyg'onish davrini tayyorlagan buyuk qomusiy bilimlar sohiblari al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, al-Forobiy, al-Beruniy va Ibn Sinolar o'zlarining tabiatshunoslik, falsafa sohalariga oid ilmiy asarlari bilan Sharq va G'arb ilm-fani va falsafiy bilimlarining keyingi taraqqiyotiga barakali ta'sir ko'rsatib, insoniyat madaniyati va ma'rifati taraqqiyotiga bebahohissa ko'shdilar.

Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek: „*Biz boshqalarni kamsitish niyatidan yiroqmiz. Ammo bugungi ayrim sultanatlar ahli qabila-qabila bo'lib yashagan zamonlarda bizning muborak zaminimizda ilm-u fan barq urib yashnagani, tabiiy ilmlar, xususan, tibbiyot, matematika, astronomiya kabi fanlar madrasalarda*

o'qitilgani, ilmiy akademiyalar tashkil etilib, Mag'rib-u Mashriqqa nom taratganini eslasak va bundan har qancha gururlansak arziydi¹⁴.

5-§. Tasavvuf va uning falsafiy mohiyati

Sharq musulmon dunyosi xalqlari ma'naviyatiga, inson, jamiyat rivojlanishi muammolarini hurfikrlilik, insonparvarlik nuqtayi nazaridan talqin etishga ta'sir ko'rsatib kelgan falsafiy, diniy-orifiy ta'limotlardan biri — *tasavvufdir*.

Tasavvufning kelib chiqishi xalifa Usmon va, ayniqsa, Ummoviya xalifaligi davrida, diniy amrlarni ado etishni har qanday dunyoviy ishlardan ustun qo'ygan, e'tiborli kishilarning VIII—IX asrlarda avj olgan boylikka ruju qo'yish, maishatga berilish, dabdabali bezaklar, xazina toplashga intilishga qarshi norozilik harakati bilan bog'liq edi. Ular orasida hadis to'plovchi muhaddislar, ilgaridan qashshoq bo'lib, uy-joy, mol-mulkiga e'tibor qilmagan sahabalar ham bor edi. Ularning bir qismi dinni himoya qilib, ochiq kurashga otlangan bo'lsalar, ikkinchi qismi esa, qanoat va zuhudni (undan „zohid“ so'zi kelib chiqqan) asosiy maqsad qilib, saroy ahli, sarvatdorlar, boylar axloqiga qarshi norozilik belgisi sifatida tarki dunyochilik g'oyasini targ'ib etib, surunkali toat-ibodat bilan shug'ullanganlar.

Zohidlar uzlat va taqvoni pesh etgan bo'lishlariga qaramay, ishq va irfondan (ilohiy ma'rifat)dan bexabar edilar. Ular falsafiy mushohadakorlik, ajz-u irodat bilan ma'naviy-axloqiy kamolot sari intilish, valiylik, karomat, mo'jizalar/ko'rsatish kabi xislatlarga ega emasdilar. Zohidlarning niyati ibodat bilan oxirat maxfiratini qozonish. Qur'onda va'da qilingan jannatning huzur-halovatiga yetishish edi. Bulardan farqli o'laroq, jannat umidida toat-ibodat qilish ham ta'maning bir ko'rinishi, deb hisoblagan kishilar bor ediki, ular uchun na bu dunyodan va na oxiratdan ta'ma bo'lmasligi kerak. Yagona istak — Xudoning diydoriga yetishishdir.

Bunday odamlarning fe'l-atvori, yurish-turishi, odatdan tashqari so'zları va ishlari, ulardan ba'zilarining g'oyibdan bashorat beruvchi karomatla¹⁵, sirli mo'jizalari atrofdagilarni hayratga solgan. Ularni *ahlullox, avliyo hol, ahli botin, arbobi tariqat, darvesh, qalandar, faqir*, degan nomlar bilan atashganlar. Bu toifaga nisbatan

¹⁴ I. A. Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Asarlar, 2-jild. T. „O'zbekiston“, 1996, 219—220-betlar.

ko‘proq „so‘fiy“ nomi qo‘llanilgan, chunki ushbu so‘zning ma’nosi keng bo‘lib, boshqa tushuncha va atamalarni o‘z ichiga sig‘dirgan.

„So‘fiy“ so‘zidan „tasavvuf“, „mutaassuf“, „mutasavvuf“ so‘zлari hosil bo‘lgan. „Mutaassuf“ so‘zi so‘fiylarga o‘xshab, ularga taqlid qilib yuradigan, ammo asl maqsadi amal-mansab, mol-mulkka intilishdan iborat bo‘lgan kishilarga nisbatan qo‘llanilgan. Mutaassuflar tariqat va haqiqatda muayyan manzillarni egallagan, biroq so‘fiy darajasiga ko‘tarila olmagan kishilardir. Qalbida so‘fiyona g‘oyalarga moyil, tasavvufni e’tiqod-maslak qilib olgan, lekin tariqat amaliyotini o‘tmagan, rasman so‘fiy bo‘lmagan odamlar esa, mutaassavuflar deyilgan.

Tasavvuf, bir tomondan, din va shariat, ikkinchi tomondan, falsafa, ya’ni hikmat ilmi bilan bog‘liq holda rivojlanib kelgan o‘ziga xos ta’limotdir. Ammo, so‘fiylar o‘zlarini har doim faylasuflarga va Kalom ahli (shariat ilmi ulamolari)ga qarama-qarshi qo‘yib kelganlar. Chunki, Kalom ahli Qur‘on oyatlari, Payg‘ambар hadislarini zohiran o‘rganish, olam yaratilishi va tuzilishini aynan diniy tasavvurlar asosida tushuntirishdan nariga o‘tmas, Islomni ham, iymonni ham aql bilan qabul qilish va ahkomlarning rasm-rusumlari, odatlarini mustahkam saqlash uchun kurashganlar. Shu bois so‘fiylar ahli kalomni „muqallidlar“, ya’ni o‘tganlarga taqlid qiluvchilar, quruq aqidaparastlar, deb ataganlar.

Faylasuflar (chunonchi, Forobiy, Ibn Sino, Al Kindiy, Ibn Rushd kabi) esa, yunon donishmandlari Aflatun, Arastu va boshqalarning tajriba va kuzatuv, mantiqiy tahlil va umumlashmalar orqali tabiat, inson va jamiyatni tadqiq etish yo‘lidan borganlar. Shundan ko‘rinadiki, ahli hikmatda aqliy-mantiqiy bilim, tajriba o‘tkazish, bilim yig‘ish yetakchilik qiladi. Faylasuflar Xudoni ham shu yo‘sinda o‘rganib, uni sababi avval, birinchi turki beruvchi yoki javhar deb ta’riflaganlar. Garchi, Aflatun va uning izdoshlari ta’limotlarida Xudo mutlaq ruh deb, inson va olamda ham ruh birlamchi asos ekanligi tan olinsa-da, biroq bunda ruhni „obyektiv borliq“ sifatida, boshqa asos sifatida qarash ko‘zga tashlanadi.

Falsafada odamni tabiiy taraqqiyotning oliy ko‘rinishi. Parvardigorni esa, eng mukammal va mo‘tabar xilqat deb qarash ham mavjud. Forobiy va Ibn Sino asarlarida bu fikr ko‘p uchraydi. Qur‘oni Karimda ham „Valokad Karramno bani odama“ (Odam bolalarini mukammal qilib yaratdik) deb, inson ulug‘lanadi va farishtalar unga sajda qilishi ko‘rsatiladi. Tasavvuf ham inson haqidagi bu qarashlarni qabul qilgan.

Tasavvufda insonning ikki asos — jism va ruhdan iboratligi, inson jismida to'rt unsur: suv, olov, havo, tuproq xususiyatlari jamlangani qayd etiladi. Tasavvuf tarafdarlarining fikricha, inson o'z ruhi bilan farishtalarga, jismi bilan esa, tabiatga, ya'ni hayvonlarga borib taqaladi. Biroq, bu masalalar tasavvufda o'zga maqsad, o'ziga xos yo'l bilan talqin qilinadi. Bu o'ziga xoslik quyidagilardan iborat.

Birinchidan, bu dunyoga antropotsentrizm nuqtayi nazaridan qarashda ko'rindi. Ya'ni, bu yo'l insonni „olam mehvari“ deb bilish, olamdagи barcha harakat, voqeа-hodisalar, o'zgarish-yangilanishlarni inson orqali mushohada etish va tushuntirishdir. Jaloliddin Rumiyning ko'rsatishicha, tabiatdagи jamiki ichki ziddiyat va rivojlanish, o'sish-ulg'ayish, ruhning mo'jizalari insonda ham bor. Olamni va odamni yaratgan Parvardigorning javhari, ismlari, qudrati va mohiyatini anglash ham inson ruhi xususiyatlarini o'rganish va anglash bilan amalga oshadi.

Ikkinchidan, Parvardigor qudrati, mo'jizalari, g'ayb olamini faqat aql bilan bilib bo'lmaydi. Tasavvufning bilish nazariyasi bo'lgan irfon ilmini irratsionalizm, yoxud mistika deb, ta'riflash to'g'ri emas. Tasavvufda irratsional (vajdiy) bilish yetakchilik qiladi, lekin aql butunlay inkor etilmaydi. Biroq, so'fiylar fikricha, aql dunyoviy bilimlarga yaraydi, g'ayb ilmini idrok etishga aql ojizdir. G'ayb ilmi, Xudovand olamidagi behad-behudud ilmlarni so'fiy alohida hissiy-vajdiy tafakkur, qalbga tushgan karomat nuri bilan anglab idrok etadi. Shu bois tasavvufda ayni shu bilim ilohiy nur shaklida tasavvur qilinadi.

Tasavvufning **uchinchi tomoni** — aqliy taraqqiyot bor bilimlarni egallash bilan qanoatlanmasdan ruhni chiniqtirib, qalbni musaffolash orqali cheksiz kamolotga intilish, o'z-o'zini takomillashtirish, yangi-yangi maqomlar, martabalarni egallab borishdir. Bu esa, faqat nazariy tayyorgarlik, ta'lim-tahsil bilan bo'lmaydi. Buning uchun muayyan ruhiy-ma'niy yo'l — tariqatni bosib o'tish, ya'ni qattiq va qat'iy cheklanish, turli lazzatlardan voz kechish lozim. Shunday qilinmasa, ruh, tana, nafs ustidan, tabiatdan g'olib bo'lolmaydi. Inson Mutlaq ruh holatiga yaqinlashish, uning vasliga yetishish uchun ham shunday qilishi kerak.

Shunday qilib, tasavvufda komillik sari intilish, farishta xususiyatini kasb eta borish va undan-da o'zib ketish yo'llari, qoidalari keng targ'ib qilinadi. Buning amaliy odobi, rasm-u rusumi, axloqiy tamoyillari ishlab chiqilib, bular **tariqat**, degan tushunchada jamlanadi.

Tariqat, ijtimoiy hodisa sifatida, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilgan. Tariqat asosida tasavvufning yaxshi, ideal jamiyat haqidagi qarashlari vujudga kelgan. Masalan, Jomiyining „Hirotnomai Iskandariy“ va Navoiyning „Saddi Iskandariy“ dostonlarida solih kishilar jamiyati haqida gap boradi. Tasavvuf bunday jamiyatga zo‘rlik, inqilob yo‘li bilan emas, har bir insonni axloqiy tarbiyalash orqali yetish mumkin deb hisoblagan.

Insonning mutlaq haqiqat, adolat va poklikka erishish istaklari ham tasavvufda mujassam bo‘lgan. Bu ehtiyoj, orzu kuchli zavq va ishtiyoqni, o‘zini unutishga va behudchilikka olib borgan Ishqni (Xudoga bo‘lgan ishq nazarda tutilmoxda) keltirib chiqaradi.

Tasavvufning **to‘rtinchi** xususiyati — Ilohiy ishq orqali poklanishdir. Pok Parvardigor — ideal, uning olami esa, mutlaq poklik olami sifatida tasvirlanadi. Shuning uchun inson ham batamom pok bo‘lgandagina bu olamga erisha oladi. Pok bo‘lish uchun esa, qalbga shu poklik timsoli — ulug‘ Tangriga behudud va ado bo‘lmas muhabbat bo‘lishi kerak. Bu muhabbat mavjud bir tuyg‘u emas, balki Iloh yaratgan moddiy olamdagи go‘zallikka — Ilohnинг kamoli va jamoli aks etgan narsalar va uning gultoji — insonga muhabbat orqali boradi. Shu tariqa, tasavvufda dunyoviylik bilan ilohiylik o‘zaro bog‘lanadi. Shunisi ham borki, ilohiy muhabbat — irfoniy tuyg‘u, ya’ni bilish, anglash, g‘oyaga, ma’rifatga aylanish zavqidан boshqa narsa emas. So‘fiy muhabbat otashida yonib, go‘yo moddiylikdan qutulib, yaxlit bir g‘oya — bir ma’rifat parchasiga aylanadi.

Shunday qilib, tasavvufga shu nuqtayi nazardan ta’rif bermoqchi bo‘lsak, unda: „*Tasavvuf ishq otashida tug‘ilgan tug‘yonli tafakkurdir*“, degan xulosa hosil bo‘ladi. Demak, bunda ham insonni olam mehvari deb qarash namoyan bo‘lmoqda. Zero, ishqiy tafakkur suratdan mohiyatga qarab borish, ruhning noma'lum jilolari, manzaralarini kashf etishga yetaklaydi. Hozirgi G‘arb falsafasida mavjud bo‘lgan psixologik bilimlarda (psixoanaliz, parapsixologiya, ekzistensializm) ko‘p jihatlari bilan orif so‘fiylar — Najmiddin Kubro, Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy, Ibn Arabiy, Bahovuddin Naqshband va boshqalar o‘rtaga qo‘ygan fikrlarning ta’siri yaqqol sezilib turadi.

Beshinchidan, tasavvufdagi ontologiya, ya’ni olam haqidagi qarashlar ham „irfoniy muhabbat“ tushunchasi bilan bog‘liqdır. Tasavvufda keng tarqalgan „Vahdatul vujud“ ta’limotini olib ko‘raylik. Bu ta’limotga binoan, Xudovand olamlarini o‘z jamoli

va kamolini namoyish etish uchun yaratgan. Ya’ni, U o‘z husnini tomosha qilish uchun O‘ziga ko‘zgu yaratdikim, bu bizni o‘ragan moddiy olamdir. Ammo bu ko‘zguning javhari — inson qalbidir. Boshqacha qilib aytganda, Parvardigor inson qalbida o‘zini ko‘radi. Demak, olam — muhabbat mahsuli, inson — Xudoning eng sevgan mahluqidir. Shunday ekan, muhabbat, intilish ikki tomonlamadir. Biz Xudoga intilamiz va Xudo bizga tavajjuh etadi, oshiq va ma’shuq tushunchalari bir-biri bilan almashib, qorishib ketadi.

Albatta, buni oddiy so‘z bilan tushuntirish qiyin. Buni shariat ahli ham qabul qilmaydi. Chunki, olamni va Xudoni bunday poetik ma’noda tasavvur etish insonning abadiy hayotdan umidvor qalbining sog‘inchи va armoni, tasavvuridir. Tasavvuf ta’limotlarida ko‘rsatilishicha, Parvardigor avval jabarut (buyuklik) olamini, keyin malakut (farishtalar) olamini, keyin mulk (moddiy) olamini, keyin inson olamini yaratgan. Ko‘ngil (ruh) shu olamlarni sayr etib, insonga nuzul etadi va yana shu olamlar bo‘ylab uruj etadi (ko‘tariladi). Oqibatda Ruhning begonalashuvi va yana birlashuvidan bir doira yakun topadi. Bu doira Kubro olamini **Sug‘ro** — inson bilan bog‘laydi. Olami Sug‘roda Kubrodagi jami xususiyatlar mavjud. Bu ham olamga antropotsentristik qarash natijasidir. **Ibn Arabiy** nomi bilan bog‘langan „Vahdatul vujud“ ta’limoti shu g‘oyalarga tayanadi.

„Vahdatul vujud“ ta’limotining ikkinchi qismi — *tajalliy* nazariyasidir. Bu nazariyaga ko‘ra, butun odam zoti azaliy nurning porlashidan mavjudlik topadi. Harakat va bog‘lanishlar, uyg‘unlashish va farqlanishlar, hayot jilolari shunday. Inson buni idrok etsa, o‘z Rabbini tezroq taniydi.

„Vahdat-ush shuhut“ tarafdorlari esa, „vahdatul vujud“ ta’limotini isloh qilib, uni yana ham insonga yaqinlashtirib talqin etadilar. Ya’ni: olam vujudining yagonaligini emas, balki olam yagonaligini mushohada etishni bиринчи o‘ringa olib chiqadi. Parvardigor inson qalbida aks etib, o‘zidan shohidlik beradi yoki o‘zini-o‘zi mushohada etadi. Inson qancha kamolga erishsa, poklanib, ilohiyashib borsa, unda ilohiylik sifatlari ko‘payib boraveradi va, oxir oqibatda, u **Mansur Xalloj** kabi „Anal haq“ (Men Haqman) deyishga haqli bo‘la oladi.

Tasavvufdagи o‘z-o‘zini takomillashtirish g‘oyasi, axloqiy yuksalish, ezgulik, xayr, himmat haqidagi qarashlar butun musulmon olamiga keng tarqalib, katta ijtimoiy hodisaga aylangan edi. Darveshlar, so‘fiylar, shayxlar, valiysifat ruhoniylarni xalq

juda hurmat qilgan, ularga e'tiqod qo'yish orqali Tangri taolo qudratini chuqurroq his qilgan. Amaliy turmushda odamlar shu darveshlar kabi qanoatli, halol bo'lishga intilishgan, nafsiyi tiygan. Shuning uchun ham tasavvufga ta'rif berganda, juda ko'p shayxlar uni: shaytoniy nafsiyi tiyish va rahmoniy xislatlar kasb etish ilmi, deb ko'rsatganlar.

Shuni aytish kerakki, agar tasavvufning negizida chin inson-parvarlik g'oyasi, xalqning adolat haqidagi orzulari yotmaganda, bunchalik keng tarqalmas, ommaviylashib, ijod ahli qalbidan o'rinn olmas, bu qadar qaynoq va jozibali she'riyat yaratilishiga turtki bo'lmas edi.

Biroq, yana bir narsani ta'kidlash muhim: tasavvufning doirasi keng, yo'naliishlari ko'pdirlari. Hamma so'fiylarni falsafaga daxldor, deb bo'limganidek, barcha so'fiyona g'oyalarda teran falsafiy ma'no borligini ham inkor etib bo'lmaydi.

„Tasavvufning „falsafalashish“ davri hisoblangan X—XIV asrlarda bir qator mutafakkir — orif so'fiylar yetishib chiqdiki, biz ularning falsafiy muammolarga katta e'tibor bergenini ko'ramiz. Chunonchi, Ibn al-Arabiyy, Ahmad Yassaviy, Najmuddin Kubro, Aziziddin Nasafiy, Yahyo Suxravardiy, Ibn Saboin, Abdurazzoq Korshoni, Abdulkarim Jiliy, Mahmud Shabistariy, Jaloliddin Rumi, Farididdin Attor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Abduqodir Bedil shunday mutafakkirlardir. Bularning ijodida olam va odam haqida o'ylar, erk va ixtiyor, surat va ma'no, aql va ruh, vaqt va zamon, inson ziynati xususida ko'plab yangi falsafiy qarashlar bayon etilgan. Bular falsafani ham, ilohiyshunoslikni ham butunlay yangi pog'onaga ko'tardilar. Ularning ta'limotida insoniy ma'rifat, insoniy kechinmalar tasviri va tahlili jamiyat hayoti muammolari bilan bog'liq holda olib borildi, komil inson xislatlari, mezonlari batafsil ishlab chiqildi.

Bu mutafakkirlar o'z qarashlari bilan Ibn Sino, Ibn Rushd, Umar Xayyomga yaqinlashib bordilar, ya'ni irfoniy tasavvufni rivojlantirdilar. Bunday so'fiyona g'oyalari Ibn Sino tomonidan ham iliq qarshi olingen edi. Ibn Sino irfoniy bilish yo'lini inkor etgan emas, aksincha „Xayy ibn Yakzon“, „At tayr“, „Salamon va Absol“ nomli asarlarida ramzlar orqali so'fiyona ma'rifatga erishish yo'llarini tasvirlaydi. „Risola fil ishqii“ asarida esa, muhabbatni aynan irfoniy mazmunda talqin etgan.

Umar Xayyom ruboilari ichida ham biz Abdusaid Abulxayr Kirmoniy, Xo'ja Hofiz ruboilari kabi so'fiyona g'oyalari katta o'rinn olganini ko'ramiz. Shuning uchun sof ratsionalizm tarafidori

bo'lgan olimlar ham tasavvufning orifona yo'nalishini inson ma'naviy kamolotining o'ziga xos bir yo'li, deb tushunganini ko'ramiz. Umuman, O'rta Osiyo xalqlari ijtimoiy fikri taraqqiyotida falsafiy tafakkur bilan badiiy tafakkur uzviy bog'liq ravishda rivojlangani kabi, aqliy (ratsional) va vajdiy (irratsional) bilimlarni egallash birga rivojlangan.

Shu bois, so'fiy shoiri yoki olimi deb nom chiqargan kishilar ning asarlarida dunyoviy bilimlar, hikmat va donishmandlikning butun bir xazinasini ko'rish mumkin. Masalan, **Jaloliddin Rumi**ning asarlarida qanchadan-qancha teran falsafiy g'oyalalar bor. Ularda g'oyat keng qamrovli insoniy muammolar tilga olinib, hanuz o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Eron olimi Muhammad Taqi Ja'fariy o'zining „Mavlavi va Sharq-u G'arb mакtablaridagi dunyo-qarashlar“ kitobida yetarli dalillarga tayanib ko'rsatishicha, Rumiyning „Masnaviy ma'naviy“ nomli olti daftardan iborat asari butun bir falsafiy qomusdir. Unda nafaqat Sharq ruhiyat falsafasi, irfoniy ilmlar qaymog'i aks etgan, balki keyinchalik G'arbiy Yevropada kashf etilgan qarashlar tizimining datslabki ildizlarini ham ko'rsa bo'ladi. Chunonchi, Rumiy birinchi bo'lib, olamning zarradan koinotga qadar o'zaro bog'liqligi, aloqadorligi, bir-biri bilan tortilib turishi, dialektik taraqqiyoti (oddiydan murakkab sari rivojlanish, hamma yerda ziddiyat va qarama-qarshiliklar birligining mavjudligi) haqida fikrlar bayon etgan edi. Bu fikrlar bir necha asrdan keyin Hegel tomonidan rivojlantirildi.

Rumiyning so'fiyona qarashlarida ichki intizomi, fikrning paydo bo'lishi va yo'qolishi, tasavvur va tafakkur, xayol va borliqning ongga, ongning borliqqa ta'siri, inson mavjudligini aniqlaydigan belgilar, insonning aldanishi, yolg'on tasavvurlar va chin bilim, tajriba va tahlil, juzv va kull, konkretlilik va mavhumlik, Haq sifatlari va odam kabi yuzlab masalalar ustida bahs yuritiladi. Bular so'fiylik g'oyalari o'z mohiyati e'tibori bilan teran falsafiy, diniy-orifiy qarashlar tizimi bo'lganini ko'rsatadi.

O'rta Osiyoda so'fiylik g'oyalari asosi uch yo'nalishda rivojlandi. Bular — **Kubroviya, Yassaviya, Naqshbandiya** tariqatlaridir.

Yassaviya tariqati islom g'oyalari endigina qabul qilayotgan turkiy qavmlar ichida shuhrat qozondi. Xoja Ahmadning asosiy maqsadi — odamlar diliga muhabbatni singdirish, muruvvat va rahmdillik, yetimparvarlik, halollik g'oyalari yoyish edi. Tasavvuf g'oyalari Yassaviyda izchil ravishda shariat g'oyalari bilan omixta holda targ'ib qilingan. Ilohiy ishq mavzysi ham Payg'ambarga qaynoq muhabbat orqali ifodalanadi. Ahmad Yassaviy so'fiyona

g'oyalarni sodda tilda, ammo ehtirosli, ifodali qilib tushuntirgan. Uning tarbiya usuli — zikr, chilla va karomat ko'rsatish hamda bevosita odamlar qalbiga ta'sir etish edi. Yassaviy jaxriya zikr, ya'ni Olloh sifatlari va nomlari, kalomlarini baralla ovoz chiqarib aytish, jo'rovoz bo'lib zikrga tushishni joriy etadi.

Xoja Ahmad Yassaviy ulug' karomatli inson bo'lgan, ko'p murid tarbiyalagan, turkiy xalqlarning shayxul mashoyixi (shayxlar shayxi) unvoniga musharrraf bo'lgan zotdir. U tasavvuf taraqqiyotiga katta ta'sir o'tkazdi, xususan Haq va haqiqatga da'vat etuvchi so'zlari, fano va baqo haqidagi, iloh vasli va diyordini qo'msab yozgan ash'ori, poklikni tarannum etuvchi hikmatlari xalq ommasi yuragidan chuqur joy olib keldi.

Najmuddin Kubro nufuzi baland shayxlardan bo'lgan. U kishining xonaqohida doimiy ravishda 400—450 murid yashab qolgan. Kubro shogirdlari ichida sof sun'iy masxablilari ham, shialar ham bor edi. Kubro masxabga e'tibor qilmas edilar. Shu kabi tarbiya usulida ham xilma-xillikka: zikr tushish, muroqaba, mushohada (tafakkuriy karomat), chilla o'tirishga ahamiyat berilgan. Shayx o'zining „Usul ash'ari“ (O'n usul) nomli risolasida tariqatga kiradigan shogird uchun quyidagi maqomni tavsiya etadi: 1) tavba; 2) zuhd (parhez); 3) tavakkul (Xudoga tayanish); 4) qanoat; 5) uzlat; 6) mulozamat zikr (doimiy ravishda Olloh nomlarini qalbda takrorlab turish); 7) tavajjuh (qalb yuzini doimiy Ollohga burish); 8) sabr; 9) muroqaba (idrokiy tafakkur); 10) rizo.

U ruhiy-ma'naviy kamolotga alohida ahamiyat bergen. Bilim asosida, dunyoni anglash orqali Ollohni anglashni o'rgatgan. Aqliy va vajdiy (intuitiv) bilish usuli omixtaligi, uning qarashlari, ta'lilmotida ham seziladi.

Najmuddin Kubro mard va jasur inson edi. U mo'g'illarga qarshi jang qilib, vatan ozodligi yo'lida shahid bo'ldi. Shuning o'zi ham Kubroviya tariqatida tasavvuf va javonmardlik (futuvvat) birga zuhur etganini ko'ramiz. Kubroviya tariqati Osiyo, Afrika, Yevropa mamlakatlariga keng tarqalgan. Kubroviyadan bir qancha shoxobchalar ajralib chiqqanligi ham, bu tariqatning rivojlanişidan darak beradi.

O'rta Osiyo, Eron, Turkiya, Pokiston, Hindiston kabi mamlakatlarda keng tarqalgan, eng nufuzli tariqat sifatida hozir ham amal qilib turgan tariqat — **Naqshbandiya tariqatidir**. Naqshbandiy ta'llimotining asosini „xilvat dar anjuman“ (jamoat ichida xilvat qurish) tamoyili tashkil etdi. U kishining tarbiya usuli, zikr tartibi,

shogirdlariga munosabati ham shu tamoyilga qurilgan. Ya'ni, bu yo'l — uzlatga chekinmasdan, odamlar ichida yurish va, ayni vaqtida, *Ollohoi dilda saqlash; shariat va tariqatni birga olib borish; o'z-o'zini doimiy ravishda nazorat qilib turish; ulug'larning mazoratini ziyorat qilish; xokisor bo'lish, manmanlik, xudbinlikni tark etish; faqirlilik orqali ilohiy ulug'likka erishishdir*. Chunki, Ollohnинг o'zi hamma narsaning egasi va, ayni vaqtida, hech narsaga muhtoj emas.

Inson ham qanoat bilan narsalarga emas, balki Ollohg'a muhtoj bo'lib yashab, ehtiyojsizlik darajasiga ko'tarilmog'i lozim. Valiylik yo'li ana shu. Shunday odam nazarida shoh-u gado barobardir. Bahovuddin Naqshband suhbatni tarbiyaning asosi deb bilganlar, xuʃiya zikr (botiniy zikr)ni joriy etdilar. Bu esa, Naqshbandiya tariqatini Yassaviyadan farqlantiradi. Chunki, qalb osoyishtaligi uchun, hunar bilan, mehnat bilan shug'ullangan odam uchun bu muhim edi.

Bu tamoyillar Naqshbandiyani islom ahli orasida mashhur etdi. Bahovuddin Naqshbanddan keyin Muhammad Porso, Alouddin Attor, Sa'diddin Qashg'ariy, Xo'ja Ubaydulloh Ahror Valiy, Xojagi Kosoniy bu tariqatni rivojlantirdilar. Naqshbandiya bizning ma'naviyatimiz tarixida chuqur iz qoldirgan. Temuriylar, shayboniyalar bu tariqatga kirib, uni davlat mafkurasiga aylantirdilar. Natijada, Naqshbandiya adabiyotga, falsafaga kirib bordi, hatto siyosiy hayotga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Shunday qilib, tasavvuf bizning tariximizda qudratli bir mafkura sifatida odamlarni Haq yo'liga boshlash, to'g'rilik, yaxshilikni himoya qilishga yordam berdi; adabiyot, falsafa rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

6-§. XIV—XVI asrlarda Amir Temur va Temuriylar davri falsafasi

Bir yuz ellik yildan ortiq davom etgan mo'g'il mustamla-kachiligi XIV asrning 70-yillariga kelib sohibqiron **Amir Temur** boshchiligidagi mustaqillik uchun olib borilgan kurashlar tufayli barham topdi. Qadimiy Turon va Turkistonda Amir Temur boshchiligidagi davlat — qudratli va buyuk imperiya vujudga keldi. Amir Temur faqat Movarounnahrninggina hukmdori bo'lib qolmasdan, u Oltin O'rda, Eron, Hindiston, Kavkaz orti, Kichik Osiyo, Qora dengiz sohillari, Suriya va Misr kabi juda katta va keng hududni o'z ichiga olgan buyuk imperiyani tashkil qildi.

Amir Temur tufayli O'rta Osiyo xalqlarining milliy mustaqillikka erishuvi, nafaqat Movarounnahrning o'zida, balki shu mintaqadagi boshqa mamlakatlarning ham ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida tub o'zgarishlarga olib keldi. Amir Temur, nafaqat Movarounnahr xalqlarini mo'g'il mustamlakachiligidan xolos qildi, balki, shu bilan birga, o'zi istilo qilgan mamlakatlarda feodal parokandalikka ham barham berib, butun mamlakatda nisbatan tinchlik va osoyishtalikni, tartib-intizomni qaror topdirdi. Bu narsa, o'z navbatida, mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotining keng rivoj topishiga olib keldi. Amir Temur davlati tasarrufiga kirgan shaharlarda qayta tiklash, ta'mirlash ishlari, yangi binolar barpo etish avj oldirildi, ularda hunarmandchilik, shaharlar atrofida bog'-rog'lar, qishloq joylarida esa, irrigatsiya ishlari keng yo'lga qo'yilib, ekin maydonlari kengaytirildi, dehqonchilik ishlari yaxshilana bordi. Tashlandiq, xarobazor yerlar obod qilina boshlandi, Ayniqsa, shaharlar qurish gurkirab rivojlandi, ularda esa ilm-fan, madaniyat va san'at gulladi. Amir Temur imperiyasini poytaxti bo'lmish Samarqand g'oyat obod va ko'rakam shaharga, ya'ni shoir madh qilganday, „*yer yuzining sayqali*“ga aylandi.

XV asrning boshlariga kelganda, Samarqandda falakiyot va riyoziyot fanlari kuchli taraqqiy etdi. **Mirzo Ulug'bek** asos solgan falakiyot maktabi va u qurdirgan rasadxona o'sha davrda tabiiy-ilmiy bilimlar taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi.

Nihoyat, bu davrda falsafa va mantiq ilmlari bilan shug'ullangan yirik olimlar paydo bo'lib, bu sohalarga oid maxsus risolalar ham yaratiladi. Bunga misol qilib Sa'diddin Taftazoniy va Mir Sayid Jurjoniy yaratgan asarlarni ko'rsatish mumkin. Mirzo Ulug'bek asos solgan falakiyot maktabi vakillari: Mansur Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, G'iyyosiddin Jamshid va boshqalar esa, tabiatshunoslikning falsafiy masalalariga oid o'zlarining qimmatli fikrlarini ilgari surishadi.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur va temuriylar davri O'rta Osiyo xalqlari hayotida yuzaga kelgan Uyg'onish davrining qayta tiklanishi va uning yangi cho'qqisiga ko'tarilish bo'ldi. Bu davr madaniyati va ilm-fani jahon madaniyati va ilm-faniga ulkan hissa bo'lib, uning yutuqlari jahon sivilizatsiyasining keyingi rivojlanishiga zamin bo'lib xizmat qildi.

Amir Temurning Vatanimiz tarixidagi o'rni haqida Prezidentimiz I. Karimov shunday degan edi: „*Xalqimiz tarixida insoniy kamoloti va ijtimoiy faoliyati bilan dovrug' qozongan, millatimiz*

faxri bo‘lmish ulug‘ zotlar benihoya ko‘p. Ammo ular qatorida yulduzlar aro quyoshday charaqlab turgan bir buyuk zot borki, u Vatanimiz kechmishi, buguni va ertasida behad yuksak o‘rin tutadi. Ul muhtaram inson sohibqiron Amir Temur hazratlaridir¹.

Amir Temur va temuriylar davri falsafiy tafakkurida o‘chmas iz qoldirgan mutafakkirlardan biri — alloma Sa‘diddin Taftazoniy (1322—1392-yillar)dir.

U hozirgi Ashgabad yaqinidagi Niso shahri atrofida joylashgan Taftazon qishlog‘ida tug‘iladi. Taftazoniy yoshlidan ilohiyot sohasiga oid bilimlarni, arab tilini, nutq san’ati va mantiq ilmini chuqur egallaydi. Unga o‘scha davrning mashhur olimlari bo‘lgan Aziziddin Ijij va Qutbiddin Roziy-at-Taxtoniylar ustozlik qilishadi. Taftazoniy 1340—1372-yillar davomida G‘ijduvon, Jom, Turkiston, Hirot va Mavarounnahrning boshqa shaharlari madrasalarida dars berib, yirik olim sifatida shuhrat qozonadi. Amir Temur hokimiyatni qo‘lga olib, Samarqandni o‘ziga poytaxt qilgach, Taftazoniy Samarqandga taklif qilinadi hamda umrining oxirigacha saroyda yashab, ijod qiladi va 1392-yil 12-avgustda vafot etgan.

Taftazoniy o‘z falsafiy qarashlarida tabiat hodisalari o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlariga ko‘proq e’tibor beradi. U tabiatdagi sabab-oqibatlarni tadqiq qilib, ularning xilma-xil turlarini ajratib ko‘rsatadi. Sabab — bu shunday narsaki, narsaning vujudga kelishi unga bog‘liqdir, deydi u. Uningcha, sabab ichki va tashqi ko‘rinishlarga ega. Agar sababning muayyan belgilari oqibatga o‘tsa, ichki sabab, agar o‘tmasa, bunday sabablar tashqi sabablar bo‘ladi.

Taftazoniy falsafiy qarashlaridagi diqqatga sazovor masalalardan yana biri bu — insonga xos qazo va qadr hamda iroda erkinligi masalalaridir. U o‘zining „Taxzib al-mantiq va al-Kalom“ asarida insonning xulq-atvoridagi iroda erkinligi masalasiga keng to‘xtaladi. Taftazoniyning fikricha, Xudo o‘z bandalariga ikki yo‘lni „taklif“ etadi: birinchisi — sharafli, xayrli ishlarni qilish va makruh ishlarni qilmaslik; ikkinchisi — nomatlub ishlar qilib, gunohga botish va qilgan gunohlari uchun jazo tortish. Bunda qaysi yo‘lni tanlash esa, insonning o‘z irodasiga bog‘liqdir. Mutafakkirning fikricha, Xudo tomonidan insonlarga ko‘proq yaxshi, xayrli, matlub ishlarni qilish buyuriladi. Yomon xulq-atvorli kishilar o‘z yomonliklaridan

¹ **I. A. Karimov.** Yangicha fikrlash va ishlash — davr talabi. Asarlar, 5-jild. T., „O‘zbekiston“, 1997, 181—182-betlar.

qaytmasa, Xudo ularni jazolaydi. Bu jazodan qo'rqqan kishilar o'zlarining yomon xulq-atvorlaridan voz kechishi, qutulishlari lozim. Bu esa, yana ularning irodalariga bog'liqdir.

Taftazoniy o'z bilish nazariyasida Ibn Sino (Ibn Sino narsa va hodisalar haqidagi hosil qilingan ma'lumotlarni bilim, deb hisoblaydi)dan farq qilib, narsa va hodisalar haqidagi erishgan ma'lumotlarni insonning his-tuyg'u va bilimlari o'rtasidagi vosita bo'luvchi bosqich, deb tushunadi. Uning qarashicha, inson bilish jarayoni uch shartni taqozo etadi:

1. His-tuyg'u a'zolari va ashylarning o'zaro ta'siri.
2. Bu ta'sirning inson ruhiyatini tomonidan qabul qilinishi.
3. Aqliy bilish¹.

Taftazoniy fikricha, his-tuyg'u a'zolariga ashylolar va hodisalar ta'sir etib, tashqi hissiyotni paydo qiladi, tashqi his-tuyg'u hissiyot asosida so'ng ichki his-tuyg'u paydo bo'ladi. Bu his-tuyg'ular va hissiyotlardan, ularning shakllaridan bilim shakllanadi. Bunda hissiyot ashylolar va hodisalardan, ularning zaruriy sifatlari va aloqalari bilan birlgilikda, faqat tashqi qiyofalarinigina qabul qilib oladi. Shu sababli Taftazoniyning fikricha, hissiy tasavvurga ega bo'lish uchun ashyo yoki narsaning o'zi bo'lishi shartdir. Lekin, aqliy bilish uchun moddiy asoslar (ashyo yoki buyum)dan ancha uzoqlashgan holda hissiy bilimlarga tayanib, ulardan yuqori ko'tarilish kerak, aqliy bilish ana shu yuqoriroq bosqichda hosil bo'ladi. Uning qarashicha, aqliy bilishning shakllari **tassavvurot** va **tasdiqotlardir**. Aqlning quroli ashyo va buyumlarni aks ettiruvchi tushunchalardir. U tushunchalarni ta'riflar ekan, o'z oldiga: tushunchalar qanday kelib chiqadi va shakllanadi, degan savolni qo'yib, unga shunday javob beradi: aqlning tahliliy-xulosaviy qobiliyati (uningcha: tahilot) va shuuriy iste'dodi (uningcha: mavhumot) tushunchalarning shakllanishi uchun asosiy yo'ldir. Uning yozishicha: „*Faqat tahilot va mavhumot vositasidagina ashylar haqida bilish mumkin*“².

Xullas, Taftazoniyning falsafiy qarashlari Yaqin va O'rta Sharq xalqlari o'rta asr ijtimoiy-falsafiy tafakkurida ilg'or o'rin tutgan, qadimgi yunon faylasuflari fikrlari bilan hamohangligini ko'rsatadi. Ammo, Taftazoniy antik davr falsafiy qarashlari bilan cheklanib kolmay, o'z qarashlarini Sharq uyg'onish davri yuksalishlariga tayanib rivojlantiradi, ularni yangi g'oyalar bilan boyitadi.

¹ O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. T., „O'zbekiston“, 1995, 133—134-betlar.

² Yuqorida keltirilgan asar, 135-bet.

Taftazoniyning falsafiy qarashlari o‘z ilmiy qimmatini hozir ham yo‘qotgan emas. Lekin, uning merosi bizda yetarli o‘rganilmagan, uni chuqur ilmiy o‘rganish, shubhasiz falsafiy tafakkurimizni yanada boyitishga olib keladi.

Amir Temur va temuriylar davri falsafiy qarashlarini o‘rganishda e‘tiborga loyiq mutafakkirlarning yana biri — bu **Mir Sayid Sharif Jurjoni** (1339—1413-yillar)dir.

Asli ismi Ali binni Muhammad binni Ali Husayni Jurjoniy Eronning Gurgan viloyati markazi Astrobod shahri yaqinidagi Tag‘u qishlog‘ida tug‘iladi. U yoshligida o‘sha davr Sharqda mavjud bo‘lgan barcha fanlar bilan shug‘ullanadi. Ayniqsa, islom falsafasi bo‘lgan Kalom, mantiq, tabiatshunoslikka doir barcha bilim sohalarini qunt bilan o‘rganib, keyinchalik ularning har biriga oid katta ilmiy asarlar yozib qoldiradi.

Jurjoniy 1387-yili Amir Temur tomonidan Sheroz fath etilishi bilan, u yerdagi bir qancha olimlar qatorida, Samarqandga taklif etiladi va bu yerda 20 yil samarali ijod qilib, sohibqiron vafotidan keyin Sherozga qaytib kelib, 1413-yilda vafot etgan.

Jurjoniyning bizgacha „*Borliq haqida risola*“ va „*Dunyoni aks ettiruvchi ko‘zgu*“ deb nomlangan falsafiy asarlari yetib kelgan. Shuningdek, uning Ar-Roziy at-Taxtoniyning „*Shamsiya*“ asariga „Kotibiy Kazviniyning „*Hikmatulayn*“ („Hikmatlar birligi“) asariga yozgan sharhlar ham ilmiy-falsafiy qimmatga egadir.

Jurjoniyning falsafiy qarashlari, o‘zidan oldin o‘tgan salaflarinkida bo‘lganidek, o‘rta asrlardagi butun falsafiy masalalarni, chunonchi: borliq haqidagi ta’limotni, koinot jumboqlarini, modda va uning shakllari, jonsiz va jonli tabiatning xususiyatlari, jismoniy va ruhiy tomonlar munosabatlari, bilish muammolari va shular kabi masalalarni o‘z ichiga oladi. U o‘z asarlarida koinot, inson va aqlni qamrab oluvchi borliqning umumiy manzarasini yaratishga harakat qiladi. Bunda Jurjoniya xos narsa, borliq manzarasini bosqichma-bosqich tartibda tushuntirishga harakat qilishdan iborat. U o‘zining besh bobdan iborat bo‘lgan — „*Dunyoni aks ettiruvchi ko‘zgu*“ asarining birinchi bobini „vojibul-vujud“ va „mumkinul-vujud“ ning mavjudligi masalasini asoslashga bag‘ishlaydi. U bunda: „Yo‘q bo‘lishi mumkin bo‘limgan, bor bo‘lishi esa zarur bo‘lgan narsani „vojibul-vujud“, deb atadi. Borligi ham, yo‘qligi ham zarur bo‘limgan narsani esa „mumkinul-vujud“, deb atadi¹.

¹ O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan, 138-bet.

Jurjoniyning qarashicha, bu o'rindagi „vojibul-vujud“ — Xudodir. „Mumkinul-vujud“ esa — moddiy olamdir. U borliqning birinchi sababi sifatida „vojibul-vujud“ni, ya'ni Xudoning borlig'ini tan oladi. Uning fikricha, „mumkinul-vujud“ o'zining bor bo'lishi uchun qandaydir biror bir sababga ehtiyoj sezadi. U biror bir narsa tufayli, ya'ni birinchi sabab tufayli „vojibul-vujud“ darajasiga ko'tariladi¹.

Jurjoni, borliqdagi hech bir hodisa sababsiz kelib chiqmaydi, deb ta'kidlaydi. Uningcha, hamma mavjud narsalardagi butun harakat va o'zgarishlar faqat makon va zamondagina ro'y beradi. U butun borliqni bir-biriga qonuniy ravishda bog'langan bo'laklardan iborat, yagona bir butunni tashkil etgan butunlik sifatida ta'riflaydi. Jurjoniyning fikricha, moddiy dunyoni tashkil etgan narsalar asosida to'rt unsur: *olov, havo, suv va tuproq* yotadi. U turli ko'rinishdan iborat boshqa jismlar, ya'ni metallar, o'simliklar va hayvonlar esa, yuqorida aytilgan to'rt unsurning bir-birlari bilan qo'shilishi (natijasi) hosilasi sifatida kelib chiqqandir², deydi. To'rt unsur esa, doimo harakatda, o'zgaruvchan bo'lib, biri ikkinchisiga aylanib qolishi mumkin. Masalan, havo — suvga, suv — tuproqqa va hokazo.

Umuman, Jurjoniy falsafiy qarashlarida moddiyunchalik g'oyalari ustun bo'lib, uning dunyoqarashi dialektikdir. Uning fikricha, moddiylikdan holi bo'lgan bo'sh joy yo'q. Bu haqda: Samoviy gumbaz buyuk doiradir. U barcha jismlarni qamrab olgan bo'lib, moddiy dunyoni chegaralab turadi. Ammo u bo'shliq emas, chunki uni moddadan tashqarida bo'lgan tushuncha yoki biror o'Ichov bilan tushuntirib bo'lmaydi.

Bundan tashqari, bir-biri bilan o'zaro yopishib, ayni vaqtida boshqa jism bilan ham bog'lanib turmagan narsaning o'zi bo'lishi mumkin emas, har bir atrofdagi dunyo, o'zi o'rab turgan narsaga teng turishi zarur va birga joylashishi lozim, chunki bo'shliqning bo'lishi mumkin emas. Mana shunday jismlar, unsurlar, samoviy doiralar, butun sayyoralar va moddiy bo'lakchalarning tarkibiy majmuasi — olam, deb atalishini yozgan edi³.

Jurjoniy mantiq ilmiga ham juda katta hissa qo'shdi. Uning bilish nazariyasi va mantiqqa doir bir necha asarlari bo'lib, mantiq ilmining falsafa va boshqa fanlar bilan munosabati, uning

¹ O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan, 138-bet.

² Yuqorida keltirilgan asar, 138—139-betlar.

³ Yuqorida keltirilgan asar, 139-bet.

huquqshunoslik, tilshunoslik va ilohiyot sohasida amaliy-tatbiqiy masalalar yoritib berilgan. Jurjoniyning bu xizmatlari tufayli mantiq ilmiga islom aqidalariga xos bo‘limgan „begona ta’limot“, deb g‘araz bilan qarash barham topdi va shu davrdan boshlab, madrasalarda mantiq ilmini o‘qitish huquqshunoslik va tilshunoslik fanlari bilan bog‘liq holda olib boriladigan bo‘ldi.

Amir Temur va temuriylar davrida tabiiy-ilmiy va ijtimoiy fikrlarning rivojlanishida Mirzo Ulug‘bek va uning maktabi vakillarining tarixiy-ilmiy va falsafiy qarashlari muhim o‘rin tutadi.

Amir Temurning nabirasi Mirzo Ulug‘bek faqat oddiy hukmdor bo‘lib qolmasdan, balki buyuk olim bo‘lgan. Asli ismi **Muhammad Tarag‘ay Mirzo Ulug‘bek** (1394—1449-yillar) temuriylar xonadonining suyukli farzandi sifatida yoshligidanoq saroy muhitida saroy a‘yonlari, olimlar, shoirlar ta’siri, ta‘lim va tarbiyasida ulg‘aygan. Mirzo Ulug‘bek o‘z davrida saroydagi eng yirik olimlar: Mavlono Ahmad, Qozizoda Rumiy va boshqalardan saboq oladi. U qadimgi yunon mutafakkirlari va IX—XII asarlarda yetishib chiqqan, yaqin va o‘rta Sharq hamda O‘rta Osiyo olimlarining asarlarini qunt bilan o‘rgangan. Mirzo Ulug‘bek, ayniqsa, tabiatshunoslik fanlarini — matematika, geometriya, geografiya, kimyo, astronomiyaga oid bilimlarni chuqur egallaydi. Natijada, yigirma yoshlarida o‘z davrining yirik olimlaridan biri bo‘lib yetishdi.

Mirzo Ulug‘bek 1411-yilda Movarounnahr va Turkistonning hokimi qilib tayinlangan. U hokimlik qilgan davrlarda, mamlakat tashqi va ichki mudofaasini mustahkamlash bilan bir qatorda, Samarqand, G‘ijduvon, Buxoro shaharlarida ko‘plab madrasalar, masjidlar, turli ilm o‘choqlari qurdirib, ilm-fanning rivojlanishiga katta e’tibor berdi. 1425—1428-yillarda Mirzo Ulug‘bek Samarcandda, keyinchalik uning nomini jahonga mashhur qilgan rasadxona — observatoriyanı qurdirib, o‘zining falakiyot maktabini yaratdi va bu maktabiga o‘z zamonining buyuk olimlarini jaib qilib, ularga o‘zi boshchilik qilgan holda, ilmiy tadqiqotlar olib bordi. U o‘zining butun qobiliyati va iqtidorini, salohiyatini hukmdorlikdan ko‘ra ilmiy faoliyatga ko‘proq qaratadi. Natijada, 1428—1438-yillar davomida o‘z ustozlari va shogirdlari bilan hamkorlikda olib borgan ilmiy kuzatishlarining yakuni sifatida, uning shox asari — „*Ziji jadidi Ko‘ragoniy*“ maydonga keldi.

Mirzo Ulug‘bekning bundan tashqari, yana „Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola“, „Risolai Ulug‘bek“ kabi astronomiyaga oid, „Tarixi ulus arba‘a“ („To‘rt ulus tarixi“), uning muxtasari „Shajara-i atrok“, tarixga oid hamda bir necha musiqaga oid asarlari ham mayjud.

Mirzo Ulug‘bekning „Ziji jadidi Ko‘ragoniy“ asari: kirish (nazariy qism) va to‘rtta katta bo‘limlardan iborat bo‘lib, *birinchi bo‘limi*, „Tarix, ya’ni xronologiyaning ma’rifati“ deb atalib, uning o‘zi yetti bobni o‘z ichiga oladi. Bu boblarda islomda qo‘llaniladigan asosiy era — hijriy era bilan sur’yoniy — yunon erasi, ularda keltirilgan sanalar boshqa „jaloliy“, xitoy va uyg‘ur, hind-forsiy eralari bilan solishtirilib, ulardagi mashhur kunlar haqida bahs yuritiladi. Bu bo‘limda, shu bilan birga, turkiy muchal yillari haqida ham keng fikr yuritiladi.

Ikkinci bo‘lim, „Vaqtlar va ularga taalluqli narsalar“ deb atalib, unda asosan, matematika va sferik astronomiya masalalari yoritilgan. Bunda olim ekleptikaning osmon ekvatoriga og‘ish burchagining aniq miqdorini topganligi — u 23 daraja 30 daqiqa, 17 soniya ekanligini yozadi. Bu miqdor o‘rta asrlar davri uchun nihoyatda aniq o‘lchangan miqdor edi.

Asarning *uchinchchi bo‘limi* 13 bobdan iborat bo‘lib, ularda faqat astronomiya masalalari. Quyosh, Oy va boshqa besh sayyoraning harakatlari, „turgan yulduzlar“ ning uzunlama va kenglama holatlari yoritiladi. Muallifning bu bo‘limda keltirgan yulduzlar jadvallari o‘z davri uchun eng nodir va mukammal jadvallar bo‘lgan.

Nihoyat, „Ziji jadidi Ko‘ragoniy“ning oxirgi — to‘rtinchchi bo‘limi, asosan, ikki bobdan iborat bo‘lib, u ilmi nujum — astronomiyaga bag‘ishlangan. Mirzo Ulug‘bekning bu asari, o‘z davridagi eng mukammal astronomik asar sifatida zamondosh olimlarning diqqat-e’tiborini o‘ziga jalb qiladi va ular ijodiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Uning qo‘lyozmalari tez orada Yaqin va O‘rta Sharq, Xitoy va Hindiston olimlari qo‘llariga ham yetib bordi.

Ulug‘bek vafotidan keyin Istambulga borib yashagan va ijod qilgan shogirdi **Ali Qushchi** tufayli, XVI asr o‘rtalarida bu asar Yevropa olimlari tomonidan lotin, ingliz, fransuz va nemis tillariga tarjima qilinib, nashr etildi.

Aloviddin Ali ibn Muhammad Qushchi (XV asr boshi — 1474-yil) Mirzo Ulug‘bek hali hayot vaqtlaridayoq, yirik olim sifatida tanilgan edi.

Uning tabiiy-ilmiy fanlar, xususan, matematika va astronomiya fanlarini rivojlantirishga qo‘sghan hissasi beqiyosdir. Ali Qushchining astronomiya, matematika va falsafa sohalariga oid yozib qoldirgan asarlarining umumiy soni 25 dan ortiqdir.

Ayniqsa, Ali Qushchining „*Astronomik risola*“si g‘oyat qimmatlidir. Uning mazkur asari muqaddima va uch bobdan iboratdir. Asarning muqaddihsasi ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi

qismida handasa (geometriya) ilmining asosiy tushunchalari: nuqta, chiziq, sath, to'g'ri va egri chiziqlar, parallel chiziqlar, doira kabi tushunchalarning ma'nolari va ta'riflari beriladi. Ikkinci qismida esa, tabiatshunoslikka oid boshlang'ich bilimlar bayon etilib, tabiatdagi hamma narsalar sodda va murakkab, osmon jismlari va yer jiismlariga bo'linadi. Osmon jismlari — yulduzlar olami ham yer jiismlari ham to'rt unsur (suv, o't, havo va tuproq)dan paydo bo'lgan, deb ta'riflanadi. Har bir narsa va jism oddiy va murakkab qismlarga bo'linadi, ular bir doirada oddiy, boshqa doirada murakkab holda sodir bo'ladilar. Ular doimo harakatda, o'zaro ziddiyatdadirlar... Ali Qushchining yuqoridagi bayonida juda chuqur falsafiy fikrlar ifodalangan. Bu o'rinda, mavjud dunyo moddiy narsalardan tuzilgan bo'lib, ular oddiy va murakkab holdadir, ularning o'zlarida qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar va o'zaro birga bo'lishi namoyondir, deyilgan.

Xullas, tabiatshunos olim sifatida Ali Qushchi ham moddiy dunyoning insonga, inson ongiga bog'liq bo'Imagan holda mavjudligini, koinotning undagi yulduzlar, sayyoralar, Quyosh, Oy va Yerning o'zaro aloqada, o'z qonunlari asosida, o'z markazi va Quyosh atrofida harakat qilishi, ularning markazi Quyosh ekanligini Yevropa olimlaridan 150—200 yil oldin o'z ilmiy kuzatishlari asosida isbotlab, yozib qoldirgan edi.

O'rta Osiyo xalqlarining XIV—XVI asrlar tarixidan sharafli o'rinni egallagan buyuk siymo Alisher Navoiy (1441—1501-yillar) dir.

Alisher Navoiy temuriylar davrining murakkab sharoitida, jamiyatda ziddiyatlar avj olgan, temuriyzodalarning hokimiyat uchun kurashlari kuchaygan davrda yashadi va ijod qildi. U o'z davridagi yaqin va o'rta Sharq, O'rta Osiyo xalqlari adabiyoti, tarixi, ilm-fani, madaniyati, antik davr yunon, o'rta asr arab, eron, O'rta Osiyo mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy, diniy va dunyoqiy bilimlarini, tasavvuf ta'limotini chuqur va mukammal egallagan. Bu narsa uning ijtimoiy-falsafiy qarashlari shakllanishiga, shubhasiz, katta ta'sir ko'rsatdi.

Alisher Navoiyning falsafiy dunyoqarashi vahdati-vujud, ya'ni borliqning birligi ta'limotiga asoslanadi. Uningcha, borliq — bu Xudodir, Xudo mutlaq borliqdir. U atrofdagi narsa va hodisalarda namoyan bo'ladi va mohiyatiga ko'ra yakka-yu yagona, lekin tabiatda o'zini zuhur etadi. Navoiyning fikricha, mavjud narsalarning hammasi mutlaq borliq — Xudonning zohid sifatlari, ko'finishidir.

Mutlaq borliq — Xudo abadiy, boqiy va hamma narsaning yaratuvchisidir, boshqa barcha mavjudotlar o'tkinchi, vaqtinchadir. Yaratuvchi o'zining qudratli qalami bilan butun olamni aniq bir reja ostida bunyod qilgan. Avvalo, to'qqiz falakni aylanuvchi qilib yaratdi va buning sirini tushunishda idrokni ojiz qildi. Ko'kni tun va kunga bog'lab, uni Quyosh va yulduzlar bilan bezadi. Unda Oy go'yo osmon tirnog'iga o'xhash bo'lib, yangi Oy esa, tirnog'ining bir bo'lagini eslatadi¹.

Alisher Navoiyning borliq haqidagi qarashlari islom diniy ta'limotidan farq qiladi. Chunki, Alisher Navoiyning fikricha, Xudo butun borliqning yagona asosidir; avval boshda yolg'iz Xudoning o'zi bo'lgan, undan bo'lak hech kimsa, hech narsa bo'lman, Xudo hadsiz kuch-qudratga va cheksiz imkoniyatlarga ega bo'lgan, so'ngra esa bu kuch-qudrat va imkoniyatlarini namoyon qilib, butun borliqni — tabiatni, insonni yaratgan. Bu o'rinda shuni ko'ramizki, Alisher Navoiy bir tomondan, borliqni, uning shakllarini e'tirof etadi, ikkinchi tomondan, uni ilohiyashtiradi. Shu bilan birga, u butun borliqni moddiy va ma'naviy borliqdan iborat, deb bilib, moddiy borliqning asosi to'rt unsur: suv, tuproq, o't (olov) va havodan iborat, deb tushunadi. Lekin, borliq dastlab, mutlaq borliq — Xudo sifatida makon va zamonga ega bo'lmay, uning avvali ham, oxiri yo'q, bor va mavjud bo'lgan, deydi.

Alisher Navoiy borliqni yana mutlaq va nisbiy borliqlarga ajratadi. Mutlaq borliqning zamoni va makoni yo'q, deydi. Nisbiy borliq esa, makon va zamonga ega, u o'tkinchi, avvali va oxiri bor, shu tufayli, u azaliy va abadiy bo'lolmaydi. Uning fikricha, nisbiy borliq mutlaq borliqqa qaramdir. Nisbiy borliq mutlaq borliqning harakati natijasida bor bo'lishi va yo'q bo'lishining mutlaq borliqqa hech bir ta'siri yo'q. Bir butun koinot ham mutlaq borliqning o'zgarishi natijasida vujudga kelgan. Shu tufayli, koinotda barcha narsa va hodisalar mutlaq borliqning zuhuroti, uning turli-tuman ko'rinishlaridan iboratdir. Koinotdagi barcha narsa va hodisalar, mavjudotlar esa, zamon va makonda cheklangan, ular muayyan zamon va makonda mavjud bo'ladi.

Koinotdagi har bir narsa va hodisa yo'qdan bor bo'lgan emas, ular bor (mavjud) bo'lishdan avval mutlaq borliqda **mumkinot** holatida bo'lgan. Mumkinot, Alisher Navoiy fikricha, o'zaro zid

¹ Alisher Navoiy. Lisonut-tayr (Nasriy bayoni), T., 1984, 11-bet.

yoki bir-biridan farq qiluvchi vujudlarning birlik holatidir. Mumkinotni tashkil qilgan o'zaro zid yoki farqli vujudlar 'bir-biridan ajralsa, orada paydo bo'lgan farq tufayli ular zuhur qiladi va ma'lum ko'rinishga ega bo'ladi. Agar zuhur qilingan farqli vujudlar birlashsa, ularning sifatlari yashirin holatga o'tadi va avvalgi alohida ko'rinishlarini yo'qotadi. Demak, mutlaq borliqning o'zida zid va farqli jihatlari bo'lib, bu jihatlar, farqli sifatlar bir-biridan ajralgan mutlaq borliqning yaratuvchilik ijodi sifatida amalgalashadi. Farqli sifatlar bir-biriga qo'shilganda esa, ular yagona farqli holatga kelib, adog'i (borni yo'q qilish) yuzaga keladi. Lekin, bunda borning yo'q bo'lishi va yo'qning bor bo'lishi ham nisbiy, ya'ni borliqning sifati zohir holatidan botinga o'tishdan iborat bo'ladi, ammo u zot jihatidan yo'q bo'lmaydi.

Alisher Navoiy koinotdagi eng yetuk vujud — *mavjudot* deb, insonni hisoblaydi. Uningcha, inson butun tirik mavjudotning gultojisidir. Shuning uchun uning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida inson muammosi salmoqli va yetakchi o'rinni egallagan. Alisher Navoiy fikricha, Xudoning olamni yaratishdan bosh maqsadi ham insondir. Inson butun borliqning ko'rki va shrafidir.

Alisher Navoiy fikricha, insonning latif va sharifligining boisi shundaki, insonda ilohiyotning butun ko'rki va kuch-qudrati, sir-u sinoati hammadan ko'ra to'laroq va mukammalroq mujassamlashgandir. „*Bu taqdir bila andoq tahqiq bo'ldim — kim, haq subhonomoxu va taolo maxluqotda ba'ni odamdin sharifroqdir va bimakroqdir xalq qilmaydur. Nevchunki, ma'rifatuloh ganjining zamini va mahrami uldur*“, deb yozadi o'zining „Nasayimul muhabbat“ asarida¹.

U insonni bioijtimoiy mavjudot sifatida olib, inson o'z hayotini o'zi uchun ham, butun jamiyat uchun ham foydali bo'lgan ishlarga bag'ishlashi, buning uchun u, avvalo, kasb-hunar o'rganishi, ma'rifatli, fazilatli va xushhulq bo'lishi kerak, deydi. Uning inson haqidagi mana shunday ijtimoiy fikrlari negizida farovonlik, osoyishtalik va baxtiyorlik hukm surgan jamiyat va odil shoh g'oyalari vujudga kelgan.

Alisher Navoiy „Hamsa“ asarining beshinchchi dostoni „Saddi Iskandariy“da o'zining ijtimoiy, siyosiy va falsafiy qarashlarini shoh Iskandar siymosi orqali yoritib berishga harakat qiladi. U shoh Iskandar siymosida ideal shoh qiyofasini gavdalantirib, unga o'zi

¹ Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar, 15-jild, 66-bet.

orzu qilgan *xalqparvar*, *yurtparvar*, *dono*, *odil hukmdor* libosini kiydiradi. Buning asosiy sababi shuki, Alisher Navoiy yashagan davrda Temuriylar davlati parchalanib, temuriy shahzodalar o'rtasida o'zaro hokimiyat, toj-u taxt uchun urushlar, avj olib, mamlakat va xalqni xarob qila boshlagan, natijada, odamlar og'ir ahvolga tushib qolayotgan edi. Bu ahvolni ko'rgan ilg'or fikr egalari mamlakatni, xalqni bu azob-uqubatlar va kulfatlardan qutqazish uchun biron-bir yo'l izlashayotgan edilar. Alisher Navoiy o'z davrining ilg'or kishisi sifatida, odamlarning baxtiyor yashashi uchun mamlakat tinch, osuda, osoyishta bo'lishi, uni boshqaruvchi shoh odil, insofli, adolatli, elparvar, yurtparvar bo'lishini xohlaydi. Uning fikricha, mamlakatning tinchligi, xalqning osoyishtaligi, ma'rifikatning jaholat ustidan g'alaba qozonishi uchun Iskandar kabi dono, aqli shoh bo'lishi, u jamiyatdagi bema'ni urushlarga qarshi kurashib, mamlakatda tinchlik o'rnatishi, osoyishtalikni ta'minlab, insonlar orzu-istagini yuzaga chiqarishi kerak.

Alisher Navoiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari haqida so'z ketganda, shuni ham e'tiborga olish lozimki, u tasavvufning XV asrda O'rta Osiyoda keng tarqalgan Naqshbandiya tariqatini e'tirof etib, bu tariqatning asoschisi Bahovuddin Naqshbandi o'z asarlarida ulug'laydi. U tasavvufning nazariy masalalari haqida fikr yuritib, ba'zi salbiy aqida va odatlarini tanqid qiladi, xususan, tasavvufdagagi zohidlikka qarshi kurashib, o'z asarlarida riyokor, hiylaga zohidlarni ayovsiz fosh etadi.

Tasavvufda ma'naviy yetuklikka erishish oliy maqsad hisoblanadi, unda ma'naviy yetuklikka erishgan shaxs — orif kishi sanaladi. Buning uchun u o'zidagi nuqson va illatlarni bartaraf etishi, ya'ni johillikdan ma'rifikatga, yomonlikdan yaxshilikka o'tishi lozim bo'ladi. Alisher Navoiyning bu qarashlari, uning komil inson ta'limoti bilan chambarchas bog'liqdir.

Alisher Navoiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari shu bilan birga, insonning dunyoni bilishi haqidagi fikrlari ham muhim ahamiyatga ega, ya'ni falsafaning bilish nazariyasiga o'zining munosib hissasini qo'shgan.

Uning fikricha, insonning bilishdan asosiy maqsadi — borliqni, tabiatni, insonning o'zini o'rganib, anglab, yomonlikni yo'qotish, yaxshilikni ko'paytirishdir. Insonning borliqni to'g'ri bilishi, uning dunyoda baxtli, farovon hayotini ta'min etishi — bilishning asosiy vazifasidir. Alisher Navoiy inson bilishini sezgilar,

his etishdan boshlanishi, bunda sezgi a'zolari muhim rol o'ynaydi, lekin sezgi a'zolari orqali olingan ma'lumotlar hali tartibga tushmagan va yuzaki bo'lishi, ularni hofiza (miya)da tafakkur orqali tartibga solinishi, tahlil qilinishi, taqqoslanishi va jamlanishi, so'ng fikrda ifodalanishi haqida gapiradi.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur va temuriylar davri O'rta Osiyo xalqlari tafakkuri tarixida o'ziga xos bir bosqichni tashkil etgan. Biroq, „*Ota-bobolarimiz shuhratining soyasiga mahliyo bo'lib yuradigan davrlar endi o'tdi. Bugun jahon bizdan o'z so'zimizni aytishimizni, o'z tafakkurimizni namoyan etishimizni talab qilmoqda. Boshqa xalqlar, boshqa millatlar bizga yotsirab — bepisand qaramasligi, balki bizni e'tirof etishi, bizni ehtirom etishi kerak. Biz ana shu yuksak munosabat va hurmatga loyiq bo'lishimiz darkor*“¹.

4 7-§. Yevropada O'rta asr, Uyg'onish davri va yangi davr falsafasi

O'rta asrning asosiy xususiyati shundan iborat ediki, bu davrda G'arbiy Yevropada xristian dini asta-sekin hukmron mafkuraga, dunyoqarashga aylanib bordi. Din bilimning barcha sohalarini, shu jumladan, falsafani ham o'ziga bo'ysundiradi. Pyotr Domiani iborasi bilan aytganda, falsafa „ilohiyat xizmatchisi“ga aylanib qoldi. Bu falsafa — „*szkolastik* (sxolastika — lotincha so'z bo'lib, „*maktab*“ degan ma'noni anglatadi) *falsafa*“, degan nomni oldi.

XIV va XVI asrlar G'arbiy Yevropa tarixida Uyg'onish davri hisoblanadi. Bu davrda, dastlab Italiyada, so'ngra Yevropadagi boshqa mamlakatlarda feodalizm bag'rida kapitalistik ishlab chiqaruvchi kuchlar rivoji tabiatshunoslik ilmi va falsafaning taraqqiyotiga olib keldi. Bu davrda astronomiya, matematika, mexanika, fizika, jug'rofiya, fiziologiya sohasida olib borilgan ilmiy izlanishlar yanada kuchaydi. Tabiat bilimlarning yagona manbayi va taraqqiyotining asosi bo'lib qoldi. Bularning hammasi inson aqlini o'rta asr sxolastikasidan ozod qilishni, uning e'tiborini tabiiy-ilmiy bilishning muammolariga qaratishni talab qildi. Ana shunday sharoitda o'rta asr sxolastikasini inkor etuvchi, insonning aql-zakovatini ulug'lovchi falsafiy qarashlar vujudga kela boshladi. Bunday qarashlarning dastlabki ifodachisi sifatida Nikolay

¹ I. A. Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni — xalq, millatni — millat qilishga xizmat qilsin. T., 1999, 99-bet.

Kuzanskiyning (1401—1461-yillar) ta’limotini ko‘rsatish o‘rnlidir. U bir qator ilg‘or falsafiy g‘oyalari bilan ko‘zga ko‘rindi. Avvalambor, uning „borliq“ haqidagi ta’limoti diqqatga sazovordir.

Sxolastik falsafa namoyandalari „borliq“ deganda Xudoni tushungan bo‘lsa, N. Kuzanskiy borliqdagi barcha narsani tushunadi. „Borliq — hamma narsadir“, deydi u. N. Kuzanskiyning bu fikri o‘z mohiyati bilan panteistik tabiatga ega bo‘lib, diniy-sxolastik ta’limotga zid edi.

N. Kuzinskiy ilgari surgan g‘oyalalar **Nikolay Kopernik** va **Galileo Galileyning** qarashlariga ta’sir ko‘rsatdi. Xususan, N. Kuzanskiyning „bepoyonlik“, „cheksizlik“ haqidagi g‘oyalari Kopernik tomonidan gelotsentrik g‘oyani asoslashda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Uning hamma narsaning birligi haqidagi panteistik g‘oyasi Jordano Brunoning panteistik falsafasini keltirib chiqardi.

Shunday qilib, Uyg‘onish davrining asosiy xususiyatlari: tabiiyot fanlarining yanada rivojlanishi, falsafaning sxolastikadan voz kechib, tabiatga yaqinlashishi, adabiyot va san’atda inson-parvarlik g‘oyalaring kuchayishi bilan belgilanadi.

Ma’lumki, XVII asr oxiri va XVIII asrda bir talay G‘arbiy Yevropa mamlakatlari, xususan, Gollandiya, Angliya, Fransiya kapitalistik taraqqiyot yo‘liga o‘tdi. Kapitalistik taraqqiyot tajribaviy bilimlarga ehtiyojni yanada oshirib yubordi. Bu esa, moddiy olamdagi narsa va hodisalarni chuqur o‘rganish, tabiat qonunlarini bilish zaruriyatini tug‘dirdi. Shunday sharoitda falsafa insonning amaliy hayoti va faoliyati uchun zarur bo‘lgan obyektiv haqiqatni ochib beruvchi fan deb qarala boshlandi.

Ana shu olijanob ishga bel bog‘lagan faylasuflardan biri **Frensis Bekon** (1561—1626-yillar) bo‘ldi. U falsafaning asosiy masalasi bilishning yangi ilmiy uslubini yaratishdir, deb chiqdi. Shu munosabat bilan Bekon fanning predmeti va vazifasini qayta ko‘rib chiqib, ilmiy bilishning maqsadi — insoniyatga foyda keltirishdir. Shundagina, u o‘z vazifasini oqlaydi. Barcha fanlarning vazifasi — insonning tabiat ustidan hukmronligini mumkin qadar ko‘proq ta’minlashdir, deydi mutafakkir. „Bilim — bu kuchdir“, shiori ham F. Bekonga mansubdir.

Agar Bekon ilmiy bilishning tajribaga asoslangan induktiv uslubini ishlab chiqib, fanga katta hissa qo‘sghan bo‘lsa, uning zamondoshi fransuz mutafakkiri **Rene Dekart** (1596—1650-yillar) esa, aksincha, ilmiy bilishning deduktiv uslubiga o‘z e’tiborini qaratdi. Dekart dunyoni bilishda birinchi o‘ringa aqlni qo‘yadi. Buni

uning, „men fikrlar ekanman, men mavjudman“, degan mashhur so‘zлari tasdiqlaydi. Dekart fikricha, falsafaning birinchi masalasi — ishonchli bilimga olib boradigan uslub masalasidir. Uni ishlab chiqishni Dekart o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yadi. Dekart ishlab chiqqan ilmiy bilishning deduktiv uslubi analitik yoki ratsionalistik deb ham ataladi.

Dekartning deduktiv uslubi quyidagilarni talab etadi: 1) haqiqat deb faqat aql nuqtayi nazaridan aniq-ravshan va shubhasiz bo‘lgan xulosalarni qabul qilish; 2) har bir murakkab muammlarni tarkibiy qismlarga bo‘lib o‘rganish; 3) bilish jarayonida ma’lum va isbot qilingan bilimdan noma’lum va isbot qilinmaganiga borish; 4) tadqiqotda mantiqiy halqalaridan birortasini ham tushirib qoldirmaslikdir.

Dekart bilishning bu uslubini qo‘llash kishilarga katta imkoniyatlar yaratib berishiga hech shubha qilmadi. Biroq, Dekartning aql kuchiga tayangan deduktiv bilish uslubi, uning „*tug‘ma g‘oyalalar*“ ni tan olishga olib keldi. Bu tajriba orqali olingen g‘oyalarni, balki odam tug‘ilishi bilan uning miyasida oldindan bo‘lgan g‘oyalardir. Unga Xudo g‘oyasi, sonlar va shakllar g‘oyasi, shuningdek, ayrim umumiylar tushunchalar kiradi. Dekart ularni umumiylar va zaruriy bilimning sharti sifatida qaragan. Bu esa, uning ilmiy-deduktiv bilish uslubiga raxna solib turgan.

Gollandiyalik faylasuf **Barrux Spinoza** (1632—1977-yillar) Dekart dualizmiga materialistik monizmni qarshi qo‘yadi, ya’ni ruhiylik va moddiylikni yagona bir substansiya sifatida talqin etadi. U, ongimizdan tashqarida, obyektiv ravishda mavjud bo‘lgan, sababi — o‘ziga o‘zi sababchi bo‘lgan yagona moddiy substansiyani e’tirof etadi. Biroq, Spinozaning substansiya haqidagi bu fikri panteistik tabiatga ega. Chunki, u Xudoni moddiy dunyoga qorishtirib yuboradi va tabiatni „*o‘zini o‘zi yaratuvchi*“ Xudo, deb ataydi.

Shu davrning yirik mutafakkirlaridan biri **Gotfrid Vilhelm Leybnis** (1646—1716-yillar)dir. U substansiyalarning ko‘p xilligi haqidagi ta’limotini o‘rtaga qo‘yadi. Leybnisning fikricha, substansiyalar juda xilma-xildir. Ularni Leybnis monadalar, deb ataydi. Leybnis ta’limoticha, monadalar oddiy bo‘lib, ular qismlarga bo‘linmaydi. Bu bilan Leybnis monadalar moddiylik xususiyatiga ega emasligini, shuning uchun unga ko‘lamlik yot ekanligini ta’kidlaydi. Faqat moddiy narsalargina ko‘lamlikka ega bo‘lib, bo‘laklarga bo‘linadi. Shuning uchun ko‘lamlik emas, balki faoliyat monadalarning xususiyatidir. Faoliyat nima, degan savolga

Leybnis, ko'lamlilik bilan izohlab bo'lmaydigan tasavvur, idrok, intilishga o'xhash ruhiy narsadir, deydi. Uni Leybnis substansiya-larning asosiy xususiyati deb ataydi.

Yangi davr falsafasida XVIII asr fransuz mutafakkirlarining qarashlari alohida diqqatga sazovordir. XVIII asr fransuz falsafa-sining asosiy vakillari **P.Golbax** (1723—1789-yillar), **D.Didro** (1713—1784-yillar), **K.Gelvetsiy** (1715—1771-yillar), **J.Lametri** (1709—1751-yillar) hisoblanadi. Ularning ta'limoticha, hamma narsalar — materiyadir. Materiya mayda molekula va atom zar-rachalaridan tashkil topgan. Atomlar esa, materiyaning bir xildagi bo'linmas, mayda zarrachalaridan iboratdir.

XVIII asr fransuz faylasuflarining yutuqlaridan biri shuk'i, ular harakatni materiyaning ajralmas xususiyati, deb ta'kidladilar. Biroq, harakatni tushunishda mexanistik darajadan yuqori ko'ta-tila olmadilar. Harakat, ularning fikricha, predmet yoki hodisalar-ning fazoda oddiy o'rinn almashuvidan iboratdir.

Fransuz faylasuflari dunyoni bilish mumkinmi, savoliga ham ijobjiy javob berdilar. Ular o'zlarining bilish nazariyalarida **J.Lokkning** *sensualistik*¹ g'oyalariga suyandilar. Ular bilish sezishdan iboratdir, sezishning manbayi esa, obyektiv reallikdir, deb uqtirdilar.

Fransuz faylasuflari ijtimoiy hodisalarni tushunishda ham bir qator yangi g'oyalarni yoqlab chiqdilar. Jumladan, ularning fikricha, kishi ijtimoiy muhitning mahsuli, ijtimoiy muhit qanday bo'lsa, kishi ham shunday bo'ladi. Ular insonning manfaati, baxti, erki masalalariga ham katta e'tibor qaratdilar. Fransuz faylasuflarining fikricha, baxtga intilish kishi xulq-atvorining tabiiy asosidir. Bo'lajak jamiyatning asosiy vazifasi — hamma kishilarni adolatli ravishda baxt huquqi bilan ta'minlashdir.

Fransuz faylasuflari o'z davrlari uchun ilg'or bo'lgan „ijtimoiy shartnoma“ nazariyalarini ilgari surdilar. Bu nazariya davlat va jamiyatning kelib chiqish sababini tabiiy zaruriyat asosida tushuntiradi.

Falsafiy fikr taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan, turli oqimlarga mansub bo'lgan nemis klassik falsafasining vakillari **I.Kant**, **G.Hegel** va **L.Feyyerbax** hisoblanadi.

¹ *Sensualizm* — lotincha so'zdan olingan bo'lib, *sezgi*, *his ma'nosini* bildiradi. Bilish nazariyasida o'ziga xos yo'naliш bo'lib, *sezgilarimizni* bilimlarimizning birdan-bir manbayi deb qaraydi.

Nemis klassik falsafasining asoschisi **Immanuil Kant** o‘z zamonining dolzarb nazariy muammolari bilan shug‘ullangan olimdir. Kant dialektika g‘oyalarini qayta tiklagan mutafakkirdir. Kant faqat falsafaga emas, balki, umuman, fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shti. Xususan, Quyosh sistemasi katta gaz tumanligidan kelib chiqqanligi to‘g‘risidagi gipotezasi hozirgi paytgacha falakiyot fanidagi fundamental muqobil ilmiy g‘oyalardan biri hisoblanadi. Kant o‘z zamonidagi tabiatshunoslikning prinsiplarini faqat koinotning tuzilishiga emas, balki uning tarixiga, ya’ni kelib chiqishi va rivojlanishiga tatbiq etishga ham urindi. Bu uning „*Osmo nning umumiyl tabiiy tarixi va mexanika nazariyası*“ kitobida o‘zining yaqqol ifodasini topdi.

Kant fikricha, falsafating borliq, axloq va din kabi masalalari bilan shug‘ullanishdan avval, insonning bilish imkoniyatlari va uning chegaralarini aniqlab olish lozim. Shundan kelib chiqqan holda, Kant insonni o‘rab turgan tashqi dunyodagi narsalarni ikkiga bo‘ladi. Biri o‘z-o‘zicha mayjud bo‘lgan narsalar dunyosi, ikkinchisi bizning sezgilarimiz aks ettirgan narsalar, hodisalardir. Kant ta’limoticha, biz dunyoni qanday mayjud bo‘lsa, shundayligicha bila olmaymiz, balki uning ifodalananishini bilamiz, xolos. Kishilar „*narsa o‘zida*“ ning mohiyatini bila olmaydi, ular hodisalarnigina biladi. Kant fikricha, hodisalar dunyosi tartibsiz, u hech qanday qonuniyat va zaruriyatga bo‘ysunmaydi. Inson bilish jarayonida hodisalar dunyosiga tartib kiritadi, uni ma’lum bir vaqt va makon bilan bog‘lab o‘rganadi.

Nemis klassik falsafasining eng yirik vakili **Georg Vilhelm Hegel** edi. Hegel ta’limoticha, barcha mayjud narsalarning asosida „*mutlaq g‘oya*“ ning (u mutlaq ruh ham deb ataladi) rivoji yotadi. Dastlabki paytda mutlaq g‘oya „*sof borliq*“ sifatida mayjud bo‘ladi. Keyinchalik u rivojlanib, mazmun jihatdan biridan biri boy bo‘lgan tushunchalarni vujudga keltiradi. Mutlaq g‘oya o‘zining butun mazmunini ifoda etmaguncha rivojlanib boraveradi. Mana shu rivojlanish jarayonida mutlaq g‘oya tabiatni keltirib chiqaradi va moddiy narsalar tarzida namoyan bo‘ladi. Mutlaq g‘oyaning tabiat tarzida ko‘rinishidan avval, mexanik hodisalar vujudga keladi, keyin kimyoviy birikmalar va nihoyat, inson, jamiyat paydo bo‘ladi. Shundan keyin mutlaq g‘oya o‘zi uchun begona bo‘lgan moddiy qobiqdan chiqib, yana o‘zining avvalgi shaklida, ya’ni kishilarning ongi, tafakkuri shaklida yashaydi. Inson ongi rivojlangani sari g‘oya tobora moddiylikdan qutulib boradi. Pirovard natijada, mutlaq g‘oya

o‘zining oldingi holatiga qaytadi. Endi u „*sof borliq*“ holatida emas, balki o‘zining butun mazmunini ifoda etgan va „*anglangan borliq*“ sifatida ko‘rinadi.

Hegel o‘z falsafiy tizimini (sistemasini) yaratib, mutlaq g‘oya o‘zining boy mazmunini moddiy olam — tabiat va jamiyat sifatida ifoda etishini ko‘rsatar ekan, avvalo, dunyo uzluksiz taraqqiyotda ekanligini qayd etadi. Ikkinchidan, mutlaq g‘oyaning taraqqiyot jarayonini ochib berar ekan, mana shu jarayon qarama-qarshi tomonlarning kurashi orqali sodir bo‘lishini, bunda bir tushuncha ikkinchi tushuncha tomonidan inkor etilishini, o‘tilgan bosqich yanada yuqori darajada takrorlanishini ko‘rsatib beradi. Albatta, Hegel har doim ham o‘z dialektik tamoyillarini izchil ifoda eta olmadi. Bu, ayniqsa, Hegel dialektikani moddiy olamga qo‘llaganida yaqqol ko‘rinadi. Shunga qaramay, dialektik tafakkur uslubini va uning asosiy qonunlarini tadqiq etish bilan Hegel falsafiy fikr taraqqiyotiga bebafo hissa qo‘shdi.

Nemis klassik falsafasining so‘nggi vakili **Lyudvig Feyyerbaxdir**. U falsafadagi boshqa yo‘nalishga — materialistik yo‘nalishga mansubdir. Feyyerbax Hegelning mutlaq g‘oyasiga keskin qarshi chiqdi. U Hegelning mutlaq g‘oyasi inson miyasidan yilib olingan va tabiatdan tashqari kuchga aylantirilgan inson aqlidan o‘zga narsa emasligini qayd etdi. *Hegel falsafasi*, Feyyerbax fikricha, *din bilan uzviy bog‘liqdir*. U tafakkur insondan tashqarida, unga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjud bo‘lishi mumkin emas, chunki u moddiy narsa, inson miyasi faoliyati bilan bog‘liq, deb bilgan.

Hegeldan farqli o‘laroq, Feyyerbax dunyoning asosiga tabiatni va insonni qo‘yadi. Shu bilan Feyyerbax ta’limoti antropologik tabiatini namoyon qiladi. *Yangi falsafa insonni, shu jumladan, tabiatni falsafaning birdan-bir universal va oliy predmetiga aylantiradi*, deydi Feyyerbax¹.

Antropologik prinsipga sodiq bo‘lgan Feyyerbax borliq va tafakkur masalasini hal qilishda inson tabiatning bir qismi bo‘lishi bilan birga, u avvalambor, ijtimoiy mavjudot, tarixiy taraqqiyotning mevasi ekanligini, insonning onggi ijtimoiy munosabatlar bilan, hayot sharoiti bilan belgilanishini unutib qo‘ydi.

¹ *Qarang: L. Feyyerbax. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. 1-jildi. M., 1955, 202-bet.*

Bu Feyyerbax falsafasining cheklangan tomonlaridan biridir. Feyyerbaxning eng katta kamchiligi shuki, u Hegel falsafasini tanqid qilar ekan, uning dialektikasini ko'ra olmadi. Lekin shunga qaramay, Feyyerbax ta'limoti falsafaning keyingi taraqqiyotiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi.

8-§. Turkistonda XIX asr oxiri, XX asr boshlarida ijtimoiy-falsafiy, ma'rifiy fikrlarning rivojlanishi

Turkiston xalqlarining boy ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy, ma'naviy-madaniy taraqqiyotida XIX asrning ikkinchi yarmi, XX asr birinchi choragidagi davr o'zining nihoyatda sermazmunliligi, g'oyaviy-nazariy va mafkuraviy harakat shakllarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bu holat ijtimoiy taraqqiyotning o'ziga xos yo'nalishi edi. Ayni chog'da, Turkiston xalqlari chor Rossiyasining mustamlaka zulmidan qutulish, milliy davlatchiligini qurish, o'z milliy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotiga yo'l ochishga qat'iy kirishgan edilar. Bu jarayonlarning yetakchi kuchi — milliy savdo va sanoat burjuaziysi hisoblanib, u juda katta qiyinchiliklar bilan bo'lsa-da, xalqimizning tub iqtisodiy-siyosiy va ma'naviy manfaatlарини himoya qiladigan nazariy asos — jadidlar ma'rifatchiligini shakllantirib, uni har tomonlama qo'llab-quvvatlagan edi.

Jadidlar ma'rifatchiligining falsafiy-nazariy zaminlari an'naviy islom, shariat, tasavvufdan tortib, zamonaviy Yevropa pozitivist falsafa usullariga ham asoslanishidan iborat bo'ldi. Shuningdek, mustaqillik mafkurasing eng ezgu g'oya va qadriyatlar nuqtayi nazaridan, umuminsoniy orzular, ijtimoiy adolat va tenglik jamiyatiga qarab borish yuzasidan jadidlarning tutgan ijtimoiy-siyosiy mavqeyi doimo ham bir xil bo'lavermagan.

Jadidlarning eng izchil milliy va demokratik mavqeyida bo'lganlari (Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon va boshq.) kommunistik aqidalarini qat'iy inkor etish yo'lida turganlar. Masalan, muftiy **Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon** kabi jadidchilik salaflarida milliy mustaqillik va umumbashariy demokratik qadriyatlar uchun kurashish juda izchil, faol yo'nalishda borgan. Shuning uchun ular fojiaviy taqdir topishgan. Ularni Rossiya mustamlakachilari ham, Buxoro Amiri ham, bolsheviklar ham, o'rta asrchi mustabid — zo'ravonlik kuchlari ham bir xilda shiddat bilan qatag'on qilganlar.

„Ulug' Turkiston“ (1917-yil 12-iyun)da e'lon qilingan „Bayoni haqiqat“ maqolasida **Behbudiy:** „*Bilmoq kerakki, haq olinur, berilmaydur. Har bir millat va mamlakat xalqi o'zining*

huquqi, dini va siyosatini harakat, madaniyat ilá boshqalardan oladi... Biz musulmonlar, xususan Turkiston musulmonlari istaymizki, hech bir kishi bizning din va millatimizga zulm va tahdid qilmasun va bizni ham boshqalarga tahdid qilmoqqa fikr va niyatimiz yo‘q. Zotan, dinimiz-da munga monedir“, deb yozgan edi.

Abdurauf Fitrat esa o‘zining „Sayyohi hind“, „Rahbari najot“ kabi asarlarida (Istambul — 1913, 1915) milliy istiqlol Yevropacha ma’rifat, ilm-fan, texnika taraqqiyoti, demokratik huquqiy erkinliklar, inson sha’nini yuksak tutish, muhofaza qilish kafolatlari orqali qo‘lga kiritilishini Dasturiy tarzda har tomonlama asoslab bergen. Abdurauf Fitrat zamонавиylashish, milliy lashish va demokratlashish borasida ishtirokiyunchilarga xos bir tomonlamalik va insoniyat sha’niga qarshi yo‘nalishni chetlab o‘ta olgan.

Abdulhamid Sulaymon Cho‘lpon ham o‘zining barcha nasriy va nazmiy merosida, xususan „Kecha va kunduz“ romanida, „Do‘xtur Muhammadyor“ kabi hikoyalarida yevropalashgan, mutaraqqiy turkistonlik ziyoli, ishbilarmon va istiqlolchi timsolini yaratgan. Cho‘lponning Turkiston madhidagi she’rlari keyinchalik turkistonlik istiqlolchilar sharqiysi (marshi)ga aylanib ketganligining sababi ham unda ifodalangan hayotbaxsh falsafa, millat va Vatanga muhabbat, uni mutaraqqiy mamlakatlar qatorida ko‘rish orzu-armonlari ifodalanganligi edi. Ayni ana shu jadidchiligidan rahnamolari Behbudiy, Munavvar Qori, Fitrat, Cho‘lpon kabi siymolar mahalliy xalqlarning mustamlakachilik, imperializm va o‘rta asrchilikka qarshi kurashi jarayonida an’anaviy musulmon birligi — bir qavm, bir umma — musulmon millati o‘rniga hozirgi zamонавиy ma’nodagi „millat“, „millatlar“ tushunchalarini, milliy davlatchilik, iqtisod, pul, milliy til, madaniyat va an’anani rivojlantirish kabi Turkiston milliy mustaqillik mafkurasingning ustuvor g‘oya va qadriyatlarini ilgari surgan edilar. Ular asoslab bergen ana shu g‘oya va ustuvor qadriyatlar „Turkiston Muxtoriyati“ hukumati, Buxoro va Xiva Xalq jumhuriyatları, „Alash-O‘rda“ hukumatları ichki va tashqi siyosati asosida yotar edi. Qolaversa, keyinchalik „bosmachilar“ deb atalib ketgan Mujohidlarimiz olib borgan milliy-ozodlik kurashining bosh maqsadi — Turkistonne birlashtirish, milliy davlatchiligidan qurish, tilimiz, dinimiz, madaniyat va an’analarimizni muhofaza qilgan holda zamонавиy demokratik millatlarning yo‘liga tushib olish edi.

XX asrning I choragida shakllanib kelayotgan milliy savdo va sanoat burjuaziyasi mafkurachilari bo‘lmish jadidlarning „Usuli qadimchilar“ga qarshi kurashi, ma’rifatchiligi, mafkurasi Turkis-

tondag'i ijtimoiy-falsafiy tafakkur, siyosiy fikr taraqqiyotida chuqur iz qoldirgan. Agar o'sha davr va shart-sharoitning halokatliligi hisobga olinsa, jadid rahnamolarimizning vafqulodda dovyuraklik, zukkolik va iqtidor, salohiyat sohiblari bo'lganliklarini ko'rish mumkin.

Turkiston jadidchiligining tadrijoti (evolutsiya)ni ham nazardan soqit qilmaslik kerak. 1914-yilgacha jadidlar asosan maktab, ta'lim-tarbiya islohoti, ma'rifatchilik muammolarini ko'tarib chiqqan bo'lsalar, 1905 va 1907-yillardagi o'ris inqiloblari, 1908 va 1909-yillardagi Eron, Afg'oniston, Turkiya, arab-musulmon dunyosidagi aksilimperialistik milliy-ozodlik jarayonlari. Yevropadagi demokratlashish tomonga tashlanayotgan jiddiy qadamlar ta'sirida Turkiston uchun „Milliy Muxtoriyat“ idora usuli va demokratik taraqqiyot yo'li — „Majlis mashvarat“ (Parlament) yo'li talablarini ilgari sura boshladilar. Ayni chog'da, Munavvar Qori, Behbudiy, Fitrat, Z.V.To'g'onlar bu muammoni nazariy asoslab berdilar. Bu boradagi yangi g'oyalarni „Turkiston Muxtoriyati“, Buxoro va Hiva Xalq jumhuriyatlari yetakchilari M.Tinishboyev, M.Cho'qay o'g'li, Jumhurra'is Usmonxo'ja va Jumhurrais Hoji Pahlavon Niyoz Hoji amalga oshirishga uringanlar. Jadidlar o'sha davrdagi Osiyo, balki Yevropa ijtimoiy-falsafiy va huquqiy fikri yutuqlari darajasida turib, Turkiston uchun demokratik va, ayni paytda, tub milliy manfaatlardan kelib chiquvchi mustaqil taraqqiyot yo'lini ko'rsata olganlar.

XX asr boshlari jadidchilik harakati Turkistonda, Buxoro va Xivada yana keng ko'lamda rivojlandi. Jadidchilik harakati asosan quyidagi bosqichlardan o'tdi:

I. 1885—1895-yillarda Ismoilbey G'aspirali rahbarligida, noshirligida „Tarjumon“ gazetasining tarqalishi munosabati bilan Qo'qonda yangi jadid usulidagi maktablar tuzish harakatlari boshlanib, ular asta-sekin rus-tuzem maktablari bilan raqobatlasha boshladi.

II. Ismoilbey G'aspiralining Turkistonga tashrifi, Buxoro amiri bilan uchrashish va jadid usulidagi maktablar tashkil etishi oqibatida 1893—1895-yillardan 1901—1905-yillar ichida usuli jadid maktablarini tashkil etish ommaviy tus oldi, deb aytish mumkin. Eng mashhur jadid maktablaridan Buxoroda — Jo'raboy; Samarqandda — Abdulqodir Shakuriy, Sayidrasul Aziziy, Abduvohid Munzim, Mulla Qilich; Toshkentda — Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy; Qo'qonda — Hamza; Namanganda — Ishoqxon Ibrat, So'fizoda va boshqa jadid ma'rifatchilari ochgan maktablarni ko'rsatish mumkin.

Bu davrda jadid ma'rifatchiligi, maktabdorligining bosh yo'nalishi asosan yangi usulda tezkor ta'lim-tarbiya berish, savod chiqarish, xalqni ma'rifatli qilish, ziyo tarqatish yo'li bilan xurofotlar, qoloqlik va o'rtasidagi asrchilik bilan kurashishdan iborat bo'ldi.

III. 1905-yildan 1914-yilgacha bo'lgan davrda jadidchilik endi maktabdorlikdan kengroq — gazetchilik — matbaani yo'lga qo'yish, ilm-fan, madaniyat, adabiyotni milliy lashtirish doirasiga chiqib oldi. Fuqarolarning milliy manfaatlarini chor Rossiyasi qonunchiligi chegarasida bo'lsa-da ta'minlanishi zarurligi, saylov tizimida faol ishtirok etish, savdo-sotiq, tijorat, umuman, ishlab chiqarishda milliy manfaatlarni himoya qilish yetakchi da'vatga aylana boshladi. Jadid matbuoti, adabiyoti va teatr-u san'ati ana shu yo'nalishda juda faollandi, katta ijtimoiy-siyosiy ta'sir kuchiga ega bo'ldi. Ayni mana shu davrda keyinchalik siyosiy partiyalar, uyushmalarga aylanib ketgan kambag'al bolalarga yordam xayriya jamiyatlari, ularni ilg'or mamlakatlarga borib o'qishiga yordam bera oladigan turli jamg'armalar, yashirin to'garaklar tuzila boshlandi.

IV bosqichda jadidlarning harakatlari siyosiy harakat, partiya tuzish, milliy matbuotni yanada jangovar qilish bilan xarakterlanadi. Endi asosiy shior yoki g'oya — „Turkiston Muxtoriyati“ talabi ilgari surildi. Muxtoriyatga erishish yo'llari quyidagicha bo'lishi mumkin edi: a) Rossiyanadan to'la ajralib chiqish; b) Rossiya davlatidagi konstitutsiyaviy federatsiya tarkibida „Milliy-hududiy Muxtoriyat“ga ega bo'lish; d) Rossiyaning unitar federatsiyasi tarkibida faqat milliy, ma'naviy-diniy muxtoriyatga ega bo'lish, ya'ni islom, shariati talablari, an'analari, urf-odatlari va marosimlariga rioyat, qilinishi talabi bilan cheklanish.

Bu davr 1914—1918-yillarni o'z ichiga olib, „Sho'roi islomiya“, „Sho'roi ulamo“, „Mirvaj-ul-islom“, „Miftoh-ul-islom“, „Miftoh-ul-ma'orif“, „Ravnaq-ul-islom“, „Ittifoq-ul-muslimin“, „Turon“, „Izchilar to'dasi“, „Temur to'dasi“, „Erk sotsialistik partiyasi“, „Jadid taraqqiyatparvarlar partiyasi“, „Birlik“ uyushmasi, „Chig'atoy gurungi“ kabi firqa, jamiyat va uyushmalar tuzilgan. Faqat Toshkent shahrining o'zida 200 dan ortiqroq shunday tashkilotlar mavjud edi. Shu jihatdan mana shu davrni jadidchilik harakati va mafkurasingning eng yuqori taraqqiyot bosqichi, deb aytish mumkin. Bu davr „Turkiston Muxtoriyati“ni tugatish, jadidlar va alasho'rdachilarni qatag'on qilish, TASSR e'lon qilinishi bilan yakunlanadi.

V bosqich — 1918-yil fevralidan — 1924-yilgacha, ya’ni Turkiston bo’linib, parchalanib tashlanguncha bo’lgan davrni o’z ichiga oladi. Bu davr jadidlar bolsheviklarning zo’ravonligiga qaramay, bir tomonidan, sho’ro hukumati va communistlar firqasi bo‘g’inlariga kirib olish, ikkinchidan esa, „Chig’atoy gurungi“ uyushmasini tuzish orqali butun ta’lim-tarbiya, maorif va madaniyat ishlarini o’z qo’llariga olishga intilishi bilan xarakterlanadi. Bolsheviklar jadidchilik mafkurasi g’oya va qadriyatlari uchun kurashuvchilarini jismonan yo‘q qilish yo‘liga o’tgach, milliy-ozodlik kurashining yorqin sahifalarini tashkil etgan, tarixda „bosmachilik“, deb nomlangan qurolli milliy ozodlik kurashi boshlandi. O’z-o’zidan tushunarliki, o’sha yillarda kuchlar nisbati mutlaqo teng emas edi.

VI bosqich — 1924-yildan keyin „milliy jumhuriyatlar“ doirasida bo‘lib, bu davrda jadidchilik g’oyalari hali o’lмаган, ular maktab-maorif va matbaachilik ham jurnalistikada ancha-muncha faol bo‘lsalar-da, lekin ularni zimdan ta’qib qilish boshlangan edi. Aniqrog‘i, bu davrda jadidlar faoliyatining nihoyasi ko‘rinib qolgan edi. Shunga qaramay, jadidlar yashirin tarzda bo‘lsa-da, „Chig’atoy gurungi“ aqidalari, usul va vositalaridan kelib chiqib, milliy ongi o’stirish sohasida, ayniqsa, o’zbek tili va adabiyoti sohasida, alifbo masalalarida katta faoliik ko‘rsatdilar. Xuddi o’sha davr jadidlari orasidan **Abdulla Qodiriy, Oybek, G’afur G’ulom, Abdulla Qahhor, Usmon Nosir, Amin Umariy, Ziyo Said, Yetim Bobojon, Mannon Uyg’ur** va boshqa siymolar yetishib chiqdi. Bu davr — 1931-yilda Ibrohim Laqay Qo’rboshining shahid ketishidan keyin o’z nihoyasiga yetdi.

VII bosqich — 1931-yildan 1937—1938-yilgacha bo’lgan davrni, „oqovalari“ bilan hisoblaganda, 50-yillar o’rtalaridagi ta’qib va surgunlar davrini o’z ichiga oladi. Bu davrda Munavvar Qoridan boshlab, Fayzulla Xo’jayev, Akmal Ikromov, Usmon Nosir va boshqa sanoqsiz millat fidoyilari qatag‘on qurbanlari bo‘lishdi.

Turkistondagi millatparvarlar F.Xo’jayev, T.Risqulov, A.Ikromov, S.Hojanova ham milliy mustaqillik bilan bog‘liq bo’lgan ilg‘or g’oyalarni o’rtaga qo‘ydilar. Ularning merosi, ijtimoiy-siyosiy faoliyati Turkistonda yuksalayotgan Milliy Uyg‘onish jarayoni bilan bevosita bog‘liqdir.

T.Risqulov, S.Hojanova va A.Ikromovlar Turkiston xalqlarining milliy birligi iqtisodiy va ma’naviy, siyosiy, diniy hayotning barcha jabhalari o’zaro chambarchas bog‘liqligi orqali ro‘yobga chiqishini ko‘rsatganlar.

T.Risqulov, Zakiy Validiy To'g'on bilan birga Lenin boshchiligidagi bolsheviklar mustabid tuzumining Turkistonda ham sinfiy kurash g'avg'osini avj oldirish, qutqlashga urinishlariga qarshi chiqdi. Ular Lenin, Stalin boshchiligidagi siyosiy rahbariyat musulmon xalqlarining haq-huquqlarini poymol etayotgani, ularga nisbatan shovinizm siyosatini davom ettirayotganligini tanqid qildilar¹. T.Risqulov Turkistondagi I O'lka musulmon tashkilotlari konferensiyasida so'zga chiqib (1919-yil 24—30-may), „Hozirgi moment“ masalasi yuzasidan nutq so'zlar ekan. „Sharqqa nisbatan G'arbiy Yevropa kapitalizmidagidan farq qiluvchi milliy-ozodlik uchun kurash siyosati olib borilishi“ lozimligini ko'rsatib o'tdi². Masalaning bu tarzda qo'yilishi o'sha davr uchun muhim tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan edi.

T. Risqulov va uning safdoshlari milliy-ozodlik uchun kurash g'oyasini chuqurlashtirib, Turkistonni parchalab yuborish mumkin emasligini ko'rsatib, bu yerdagi xalqlarning milliy, diniy, til va an'anaviy umumiyligi asosida Turkiston konfederativ demokratik respublikasini tuzish g'oyasini ilgari surganlar. Shu maqsadda, T.Risqulov Turkiston avtonom respublikasi o'rniغا „Turk Respublikasi“, kommunistik partiyasi o'rniغا „Turkiy xalqlar kommunistik partiyasi“ tuzish haqida taklif kiritgān³.

T.Risqulov bu g'oyalarni Turkiston kompartiyasi III—IV s'ezdлari, 5-lka musulmonlari konferensiyalari (V) rezolutsiyalari sifatiда qabul qilinishiga erishgan. Bu g'oyalar Stalin tavsiyasi bilan keyinchalik shaxsan Lenin tomonidan bekor qilingan. T.Risqulov mahalliy xalqlarning milliy manfaatlarini hisobga olib, Turkiston avtonom respublikasi Konstitutsiyasiga ham o'zgartirishlar kiritgan. T.Risqulov o'sha davr shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda Turkiston chegaralarini Rossiya qo'shnulari himoya qilishi zarurligini

¹ Prof. Z.V.To'g'on, 1920-yil sentabr va 1923-yil fevralda V.I.Lenin nomiga (nusxalari I.V.Stalin, L.D.Trotskiy, A.I.Rikov va boshqalarga) yuborilgan xat. Qarang: A.Zohidov „Ozodlikka muhabbat, yoxud Zakiy Validiy To'g'onning achchiq haqiqatlari“. „Fan va turmush“ jurnalı, 1991, 8-son, 22—25-betlar.

² Qarang: Речь тов. Т.Рыскулова. Комиссия по изучению революционного движения в Туркестане. Т., Туркгосизд., 1922. С. 10.

³ Qarang: Коммунистическая партия Туркестана. В революционных съездах и конференциях. Г., „O'zbekiston“, 1988, 65—67-betlar.

e'tirof etgan bo'lsa ham, o'lkada milliy armiya tuzish. Rossiyadan kelgan harbiy qismlar Turkistondan chiqib ketishi zarurligi haqidagi talablarni ham ilgari surgan edi.

T.Risqulov va uning maslakdoshlari mahalliy turkiy xalqlarning tili Davlat tili maqomini olishi lozimligi haqidagi taklifni ham ilgari surganlar va buni Turkiston Konstitutsiyasiga kiritganlar.

Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-falsafiy fikri quyidagi yo'nalishlarda bo'lgan:

a) mavhum ma'rifatchilik, kuzatuvchanlik, karaxtlik va maddohlikdan uyg'onib, faollasha boshladi, hayotga aloqador mazmun, mohiyat va yo'nalish kasb etdi;

b) ijtimoiy-falsafiy fikri o'z milliy davlatchiligidan tiklash, til, an'anaviy birligimizni saqlab qolish, tilimizni yuksak ilm-fan, falsafa va nafis san'at tiliga aylantirish, zamonaviy va demokratik taraqqiyot yo'liga tushib olishga intildi;

d) ta'lim-tarbiyada yangi yo'llarni izlash, ilg'or ta'lim usulli maktablarni joriy etish orqali xalqning savodxonligi darajasini ko'tarish, milliy ongini uyg'otishga ko'maklashish zarurligi tushunildi;

e) mazkur g'oya, maqsad va ustuvor vazifalarning nazariy jihatini ko'rsatib bera oladigan yetuk Turkiston milliy mustaqillik mafkurasini yuksak falsafiy darajada asoslab berildi va u xalq ongini birlashtiruvchi, irodasini tarbiyalovchi safarbar kuchga aylandi.

9-§. Hozirgi davrning asosiy falsafiy ta'limotlari (XX—XXI asrlar)

Ma'lumki, XX asr insoniyat tarixi solnomasiga misli ko'rilmagan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy o'zgarishlar asri sifatida kirib keldi. Bunga tabiat, jamiyat va inson tafakkurining deyarli barcha jabhalarida erishilgan muhim yutuqlar sabab bo'ldi. XX asr oxiriga kelib an'anaviy (klassik) tafakkur uslubi o'rniga noan'anaviy (noklassik) tafakkur uslubi shakllanadi. Bular tabiiyki, insoniyat ma'naviy hayotida aks etib, chuqur iz ham qoldirdi, kishilarni yangicha, keng ko'lamli falsafiy mushohada qilishga undadi.

XX asr falsafasining asosiy ko'rinishlari masalasiga kelsak, bular, quyidagi oqimlardan iboratdir: hayot falsafasi, ruhiy tahlil, falsafasi, pragmatizm, maxizm, ekzistensializm, nezpozitivizm, neotomizm va hokazolar. Bu yerda, albatta, fenomenologiya, tanqidiy ratsionalizm, germenevtika, falsafiy arthroplogiya va shu

kabi falsafiy oqimlarni ham eslatib o'tish lozim. Postpozitivizm, neokantchilik, neogegelchilik kabi falsafiy oqimlar esa, u yoki bu darajada o'z klassik ko'rinishlarini yangi davrga moslashishining ifodasidir. Shuning uchun yuqorida sanab o'tilgan turlicha yangi falsafiy qarashlarni XX asr falsafasining asosiy oqimlariga kiritish maqsadga muvofiqdir.

Mumtoz falsafa inson aqli, uning imkoniyatlariga suyangan holda aqliy bilishga ko'proq ishongan bo'lsa, XX asr faylasuflaridan anchagina qismi ko'proq ruhiyatning noratsional (noaqliy) unsurlari — instinkt, iroda va anglanmagan ruhiy faoliyat muammolari tahliliga ko'proq e'tibor bera boshladilar.

Bunday ta'limotlardan biri — „Hayot falsafasidir“.

Bu oqim XIX asr oxirida Germaniya va Fransiyada vujudga kelgan. Uning asoschilaridan biri nemis faylasufi **Fridrix Nitsshedir** (1844—1900-yillar). U inson haqidagi an'anaviy qarashlarni tahlil qilib, ularga baho berar ekan, odam bolasida maxluqlik va xoliqlik birlashib ketganini yozadi va o'zining behad qudratli falsafiy tafakkurini odamni maxluqlikdan qutqarib, xoliqlik maqomiga ko'tarishga qaratdi.

„Hayot falsafasi“ni yana bir vakili fransuz faylasufi **Anri Bergson**dir (1859—1941-yillar). U hayotni kosmologik tarzda tushunadi. Materiya hayotiy tushunchasiz qotib qolgan narsadir, hayot unga jon kiritadi, demak hayot olamning ma'naviy o'zgarishidan iborat, deydi. Intuitsiya, hisiy kechinmalar uning asosiy shakllari bo'lib, his-tuyg'u va shu asosida yuzaga keladigan cheksiz ruhiy holatlar har qanday falsafiy qarashning asosidir. Uning fikricha, ana shu ruhiy hislatlarning yig'indisi haqiqiy reallikni yuzaga keltiradi va falsafaning mazmunini tashkil etadi.

„Hayot falsafasi“ning yana bir vakili **Shpengler** (1880—1930-yillar) hayotni madaniy-tarixiy soha sifatida qaraydi. U o'zining „Yevropaning halokati“ asarida tarixiy taraqqiyotni qonuniy rivojlanib boruvchi jarayon deb tushuntiradi. Uningcha, tarixning rivojlanishi evolutsion tarzda bo'lib, uning umumiyo yo'li bir butun madaniy-tarixiy jarayondan iborat. Tarix — rivojlanuvchi jonli organizm sifatida uch bosqichni — yoshlik, yetuklik va halokat bosqichlarini o'z ichiga oladi.

G'arbda XX asrda keng tarqalgan ta'limotlardan biri — ruhiy tahlil falsafasidir. Bu yo'naliш tarafdori bo'lgan faylasuflarning ko'rsatishicha, ongsizlik inson tabiatini bilishning bosh va muhim omilidir. Ruhiy tahlil falsafasining asoschisi Z.Freyd ongsizlikni

onglilikka qaraganda keng va chuqur deb ta'riflaydi. U inson hayotiy faoliyatining muhim tomonlaridan biri — ongsizlikni belgilovchi omil — jinsiy mayldir, deb hisoblaydi. Freyd fikricha, jinsiy mayllik inson ruhiyatiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishning sababigina bo'lmay, balki madaniyatning oliy shakliga ham, jumladan, badiiy adabiyot, inson ijtimoiy qadriyatlariga ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Freyd inson ruhiy dunyosining modelini yaratgan. Uningcha, bu model uch qismdan iborat bo'lib, uning asosini „U“ (ongsizlik) tashkil etadi. Undan keyingi qism esa „Men“ (ong)ni, undan keyingi qism — „Men“dan yuqori — super „Men“ni tashkil etadi.

Inson ichki ruhiy dunyosi, ana shu uchlikdan tashkil topar ekan, Freyd ongsizlikni chopqir otga. „Men“ni — onglilikni esa, chavandozga o'xshatadi. Otni mingan chavandoz uni turli tomonga yo'naltirishi mumkin, turli maqsadlar bilan xohlagan tomonga bura oladi. Biroq kuch-quvvat, energiya manbayi chavandozda emas, balki otda bo'lib, u butun yumushni bajaradi. Shunga asoslanib, u kuch-quvvatning manbayini ongsizlikdadir, deb ko'rsatadi.

Ruhiy tahlil falsafasi mana shu „ruhiy energiya“ tushunchasi orqali inson borlig'ini o'rganib chiqadi. Mana shu asosda inson hayoti davom etadi, ruhiyati turli-tuman faoliyatda bo'ladi. Bu falsafa ruhiy energiyaning manbayi ongsizlik ekanini ko'rsatibgina qolmasdan, uning borlig'i, namoyon bo'lishi haqidagi ta'limotni ham olg'a suradi.

Ruhiy tahlil falsafasi inson borlig'ini o'ziga xos ilmiy asosda tekshiradi. Bu falsafa tarafdorlari uchun, garchi ular tashqi dunyo mayjudligini tan olsalar-da, tekshirish obyekti — insonning o'z borlig'i, „kichik dunyosi“ bo'lib, shu dunyo orqali inson o'zini anglaydi va dunyonи bilib boradi. Demak, boshqa dunyo insonning tabiatini bilish vositasi deb qaraladi. Biroq, inson ruhiyati umumhayot qonuniyatlariga, inson borlig'i qonuniyatlariga bo'ysunadi. Freyd inson ruhiyatining o'zgarishiga tashqi olamning ta'sirini tan oladi. Biroq, uni mutlaqlashtirmaydi hamda birdan bir sababchisi deb ham qaramaydi.

Freyd inson borlig'ini tahlil qilar ekan, ongning borliqqa munosabatiga anqlik kiritadi. Inson borliqqa o'z ongi bilangina emas, balki boshqa ruhiy holatlari bilan ham munosabatda bo'lishini ta'kidlaydi. Freyd ta'biricha, „ong“ tushunchasi bilan „ruhiyat“ tushunchasi aynan bir xil emas. Inson ruhiyati to'g'risida so'z borganda, dastavval ongsizlik haqida, uning ijod qilish va dunyonи bilish jarayonidagi ahamiyati to'g'risida gapirish kerak, deydi.

Ruhiy tahlil falsafasi insonning fikrlashida erkin muloqotda bo‘lish usulini maydonga tashlaydi. Bunda insonning erkin fikrashi, o‘z hissiyotini erkin namoyan qilishi, uning salomatligi uchungina emas, balki ijod qilishining ham asosiy omili ekanligini ko‘rsatadi. Biroq, haqiqiy erkinlik boshqalar hayotiga zarar keltirish instinktidan farq qilishi lozim. Shuning uchun inson o‘z hayotida yaxshilik qilish, vijdonli bo‘lish, yaratish, ijod qilish erkinligi bilan buzish, yomonlik qilish, o‘ldirish, yo‘q qilish erkinligini farq qilishi kerak. Bularning birinchisi — insoniy fazilatlardir, ikkinchisi esa hayvonot olamidan qolgan xususiyatlardir, deb ko‘rsatadi ruhiy tahlil falsafa tarafdorlari. Chindan ham, hozirgi davrda falsafada inson muammosi asosiy mavzu bo‘lib turgan bir paytda, ruhiy tahlil falsafasining inson borlig‘i to‘g‘risidagi ta’limoti ma’lum amaliy ahamiyatga ega.

Ruhiy tahlil falsafasi telepatiya, ekstrasens, parapsixologiya sohalariga juda katta qiziqish uyg‘otadi. Lekin, bu hodisalar mexanizmi to‘la tushuntirib berilmagani sababli, ba’zan mistik-irratsional qarashlarning ham jonlanishiga sabab bo‘ldi.

Freyd va uning izdoshlari asarlaridagi ongsizlik konsepsiyasiga baho berar ekanmiz, shuni ta’kidlash lozimki, ongsizlik muammo-sining qo‘yilishining o‘zi uning katta xizmatidir. Inson, uning mavjudligi masalasi ongsizlik va onglilik nisbati tariqasida qo‘yilish bu muammoni falsafiy talqin qilishda yangilik edi. Ammo Freydda ongsizlikning rolini mutlaqlashtirish ham ko‘zga tashlanib turadi. Shuning uchun ruhiy tahlil falsafasining keyingi vakillari Freyddagi birtomonlilikni tuzatib, onglilik rolini to‘g‘ri tushuntirish va shaxs rivojida ijtimoiy omillarning rolini ham tan olishga harakat qildilar.

XX asr boshlariida rivojlangan falsafiy oqimlardan yana biri pragmatizmdir.

Pragmatizm yunoncha *pragmatos* so‘zidan olingan bo‘lib „ish“, „xatti-harakat“ ma’nosini anglatadi. Pragmatizmning asoschisi yirik amerika mutafakkiri **Charlz Sanders Pirs** hisoblanadi. Pragmatizm g‘oyalari Pirsdan so‘ng uning vatandoshlari **U.Jeyms, J.Dyui**, shuningdek, Buyuk Britaniyada **F.K.S.Shiller** tomonidan ham rivojlantirilgan.

Pragmatizm uchun xarakterli tomon shundaki, bu oqim ilmiy bilishda tajribaga katta e’tibor beradilar. Darhaqiqat, voqelikni bilishda tajriba katta ahamiyatga ega. Biroq, tajribani amalga oshirish yo‘llari, usullari ham muhimdir. Tajriba ko‘r-ko‘rona tarzda olib borilishi yoki ma’lum aniq dalilga asoslanishi kerakmi? Bu — muhim

ahamiyatga egadir. Dyui qarashlarida bu masala ochiq qoladi. U tajriba natijasining „foydale“ tomoniga e'tiborni qaratadi. Dyui qarashlarining ijobiy tomoni shundaki, u demokratik tarzda, ya'ni har qanday shaxsning obro'isisiz, yoxud qandaydir tajribagacha bo'lgan uydirma tushuncha va usullarni ishlatmasdan, tajribani hayotning barcha sohalariga dadillik bilan tatbiq etishga, uning yangi qirralarini ochishga da'vat qiladi.

„Pragmatizm“, asl ma'noda, foydale faoliyatga undovchi, „foydag“ qanday qilib erishish yo'llari va usullari haqida mulohaza yurituvchi ta'limotdir. „Foya“ tushunchasi pragmatizmda „tajriba“ yoki „amaliyot“ tushunchasi bilan aynanlashtiriladi.

Pragmatizm AQSH ijtimoiy-madaniy muhitining mevasi bo'lib, uning iqtisodiy, ma'naviy ehtiyojlariga xizmat qiladi va manfaatlarini ifodalaydi.

Pragmatizm, ma'lum darajada, erkin bozor iqtisodiyotining falsafasi hamdir. U biznes jumladan, har qanday „foydale“ faoliyatni tashkil etish uchun qulay bo'lgan metodologik quroq sifatida Amerika ishbilarmonlari, menedjerlari, siyosatdonlari va davlat arboblari o'rtaida keng yoyilgan.

XX asrda keng tarqalgan falsafiy ta'limotlardan yana biri — ekzistensializmdir.

Ekzistensializm lotincha „ekzistensiya“ yoki inglizcha „ekzistense“ so'zidan olingan bo'lib, „mavjudlik“, „mavjud bo'lmoq“, degan ma'noni anglatadi. Ekzistensializmning vatanı dastlab Rossiya bo'lgan (Berdyyayev, Shestov). Biroq, birinchi jahon urushidan so'ng ekzistensializm Germaniyada birmuncha keng rivojlandi. Bunda **Xaydegger**, **Yaspers** va **Buber** kabi yirik nemis faylasuflarining hissasi katta bo'ldi. Ekzistensializm XX asr ma'naviy hayotining ehtiyojlariga javob sifatida yuzaga keldi va rivojlandi. Aytish kerakki, XX asrda sodir bo'lgan tushkunlik ham, parokandalik ham, ko'tarilish va texnologik taraqqiyot natijalari ham, ekzistensializm falsafasida ko'zgudek aks etdi.

Ekzistensializm ta'limotining o'zagini „mavjudlik“ yoki „mavjud bo'lmoq“ kategoriysi tashkil etadi. „Ekzistensiya“, deganda ekzistensalist faylasuflar kishining har lahzada hayot va o'lim bo'sag'a-sida kechadigan ichki kechinmalari yoki „borliqda mavjudlik“ jarayonini tushunishadi. „Borliq“ ekzistensialistlar fikricha, na „obyekt“ga, na „subyekt“ga bo'linuvchi, bevosita idrok etiluvchi narsadir.

An'anaviy falsafadan farqli o'laroq, ekzistensiya qiluvchi mutafakkir voqelikka subyektiv tarzda qarashi, ya'ni voqelik — faqat uning individual mavjudligi va emotsiyal (ehtirosiy) hayoti

orqali qanday aks etsa, unga xuddi shundayligicha qarash kerak, deb tan oladi. Shunga ko'ra, ular borliq deganda subyektning o'z mavjudligini his etishni tushunadilar.

G'arb adabiyotida ekzistensializmni erkinlik falsafasi, deb yuritadilar. Insonda haqiqiy erkinlik tahlikada, tashvishda, yolg'izlikda namoyan bo'ladi. Tahlika, yolg'izlik, mas'uliyat ongimizning sifatini tashkil qiladi, chunki bu sifat sof va oddiy erkinlikning o'zidir (Sartr), inson yolg'izlikda o'zligini anglaydi.

Xullas, ekzistensialistlar fikricha, kishi o'zining „ekzisten-siyasini“ (mavjudligini) chuqur ma'naviy ziddiyat, ruhiy tush-kunlik holatidagina anglay oladi. Ekzistensianing bu xususiyatini, ular zamон orqali ifodalab, unga cheklanganlik xosligini ta'kid-lashadi, ya'ni „o'lim“ mavjudlikning so'nggi nuqtasi yoki chegarasi, deb e'lon qilinadi.

Jan-Pol Sartr hayotining keyingi davrida tinchlik, urush xavfini yo'qotish, xalqlar o'rtasida yaxshi munosabatlar o'rnatilishi uchun kurashdi.

XX asr falsafasida diniy oqimlar ham salmoqli mavqega ega bo'lgan. Ulardan biri — neotomizmdir.

Neotomizm XIII asr italyan faylasufi Foma (Tomos) Akvinskiyning (1225—1274-yillar) falsafiy-diniy ta'limoti bo'lgan tomizmni XX asr voqeligidagi tiklashga urinuvchi falsafiy oqimdir.

Neotomizmning ma'naviy va siyosiy homiysi Rim katolik cherkovi va uning markaziy hokimiyyati Vatikan hisoblanadi. Rim papasi Lev XIII 1879-yili neotomizmni Rim katolik cherkovining rasmiy masifikasi, deb e'lon qildi.

Neotomizm ta'limotiga ko'ra, ilm va diniy e'tiqod birlikda bo'ladi. Diniy e'tiqod va ilmiy bilimlar bir-birlari bilan to'g'ri birlashtirilsa, ular bir-biriga zid kelmaydigina emas, balki bir-birlarini to'ldiradi ham. Din va ilm aslida bir maqsadga olib boruvchi ikki yo'ldir. Mazkur maqsad tarzida neotomistlar Xudoni bilishni, uni tanishni nazarda tutishadi. E'tiqodning manbayi, neotomistlar fikricha, Xudoning amridir. Inson aqliy bilishining manbayi esa, uning tafakkuridir. Agar barcha dunyoviy narsalarning, jumladan insonning „yaratuvchisi“ Xudo bo'lsa, demak, uning tafakkuri ham Olloham tomonidan hadya etilgan. Shuning uchun inson aql-zakovatining yagona maqsadi — Xudoning marhamatini anglash, uni bilishdir. Falsafa ham bundan mustasno emas. Falsafa va dinning o'zaro munosabati xususida neotomistlar „falsafa — ilohiyotning xizmatkoridir“, deb

ta'kidlashadi. Bundan ko'rinish turibdiki, neotomistlar falsafani din bilan bog'lashga urinadilar, uni ilohiyotga xizmat qildirmoqchi bo'ladilar.

Neotomistlar moddiy reallik bilan bir qatorda, ruhiy reallikni ham tan olish lozimligini talab qilishadi. Neotomistlar fan va dinni bir-biriga moslashtirar ekanlar, xristianlikning faqat katolik mazhabi prinsiplarinigina asos qilib olishadi. Neotomistlar ilmiy bilishning chegarasi bor, deb aytishadi. Ularning fikricha, ilmiy bilishning mazkur chegarasi tabiatdagi narsa va hodisalar olamidir. Ilmiy bilish uchun diniy aqidalar tabiatini qorong'idir. Chunki, diniy aqidalar inson aqliy bilimidan yuqoridir. Shuning uchun aqliy bilish diniy e'tiqodga nisbatan quyi bosqichdir.

XX asrda keng tarqalgan falsafiy ta'limotlardan yana biri — neopozitivizmdir.

↗ **Neopozitivizm**, ya'ni yangi pozitivizm, XX asr falsafasining g'arb mamlakatlarida eng keng ommalashgan va ilmiy-ma'naviy muhitda katta ta'sir kuchiga va mavqeiga ega bo'lgan falsafiy oqimdir.

Neopozitivizmning g'oyaviy otasi ko'zga ko'ringan Avstraliyalik mantiqshunos va fizik olim **Moris Shlik** (1892—1936-yillar) hisoblanadi.

Neopozitivizmning falsafiy ta'limoti mohiyatiga kelsak, u asosan uch ko'rinishda namoyan bo'ladi. Birinchi ko'rinish — „mantiqiy pozitivizm“ nomi bilan mashhur bo'lib, „Vena to'garagi“ ning ilk shakllanishi davrlari bilan bog'liqdir. „Mantiqiy pozitivizm“ ning ma'nosi shundaki, neopozitivistlar XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllana boshlagan yangi fan sohalari — matematik mantiq, semiotika va boshqa formal fan sohalariga ortiqcha baho berishadi. Ularning fikr yuritishining mantiqi quyidagicha: agar inson bilishi tafakkur asosida sodir bo'lsa, demak, u tushunchalardan fikrlash vositasi tarzida foydalanadi. Tushunchalar esa, narsalarning timsollari, belgilaridir. Bilihsning asosiy maqsadi — mazkur timsollarning ma'nosini aniqlashdan iboratdir. Neopozitivizm namoyandalari R.Karnap va G.Reyzenbaxlarning ko'rsatishicha, tafakkur kishi tajribasiga ijodiy erkinlik bag'ishlaydi. Buning natijasida tafakkur olamda mavjud bo'Imagan narsalar haqida ham tushuncha yaratishi mumkin. Bu bilan ular ayrim deduktiv fanlar, jumladan, matematikaning ijodiy imkoniyatlari katta baho berib yuborishadi.

„Mantiqiy pozitivizm“ ning asosiy gnoseologik xatosi shundan iboratki, ular matematika va mantiq fanlari ishlataladigan simvol va

belgilarni kishining hissiy tajribasidan butunlay ajratib qarashadi. Har bir belgi, simvol ostida insonning hissiy-mantiqiy faoliyatini (amaliyot) yotganini anglashmaydi.

Ular matematika va mantiq fanlarini falsafa fanidan ustun qo'yishga intiladilar, ya'ni falsafa abstrakt tushunchalar asosida emas, balki ilmiy bilish, tushuncha va simvollarning mantiqiy taxlili bilan shug'ullanmog'i kerak, deb da'vo qilishadi. Shunday qilib, „mantiqiy“ pozitivistlar falsafaning dunyoqarash va metodologik vazifalarini inkor etishibgina qolmay, umuman falsafani mantiq va matematikaga „qurban“ qilishadi.

Neopozitivizmning ijobiy tomonlari ham e'tiborga sazovordir. Bu, birinchi galda, ulardagi hurfikrlilik, ilmiy bilishning yangi tomonlarini qidirishga urinishlarida, an'anaviy metodlardan chetga chiqishga harakat qilishlarida ko'rindi. Neopozitivizm tarafdarlarining bunday urinislari zoye ketmadni. G'arb ilmida bunday metodologiya ta'sirida kibernetika, genetika, semiotika, axborot nazariyasi, bionika kabi turli fan tarmoqlari vujudga keldi. Mantiqiy pozitivizm, lingvistik tahlil falsafasi avtomatika, telemexanika va kompyutersozlikka katta hissa qo'shdi, bashariyat oldida inson aqliy faoliyatini modellashtirish va formallashtirish mumkinligi haqidagi muammolarni keltirib chiqardi hamda ularni hal etish yo'llarini ko'rsatishga yordam berdi.

XX asr falsafiy ta'limotlarida Germenevtika deb nomlangan yo'nalish ham shakllandi.

„Germenevtika“ yunoncha so'z bo'lib, „izohlayman“, „tushuntiraman“, degan ma'noni beradi. Germenevtika afsonaviy yunon Xudosi Germes nomidan olingandir. Rivoyatlarga ko'ra, Xudo bilan osiy bandalar o'rtasidagi muloqotni amalga oshiruvchi, Xudo irodasini odamlarga yetkazuvchi maxsus kishilar bo'lgan emish. O'sha davrlarda kohinlar aynan shunday „talqin qiluvchi“ vazifani bajarishgan. Oddiy kishilar tushunmaydigan yozuvlarni (masalan, Tavrot va h.k.) ma'nosini izohlovchi kishi „germenevist“ hisoblangan.

Hozirgi zamon falsafiy germenevtikasining rivojlanishi va XX asrning yetakchi falsafiy ta'limotlaridan biriga aylanishining tub gnoseologik sababi, texnikaning juda katta yutuqlarini mantiqiy talqin qilish muammolari bilan bog'liqdir. XX asrga kelib, inson tafakkuri makrojismlarni bilishdan mikrojismlarni ham bilish bosqichiga o'tdi. Fan mantiqi va metodologiyasi o'zgardi, yangicha me'yor, ideal va andaza (paradigma)larga ehtiyoj sezildi. Kishi

ongining voqelikni in'ikos ettirishi bilan bog'liq bo'lgan bu jaryonda ilmiy ramz va belgilarning ma'nosи (semantikasi), ularga insonning munosabati (pragmatika) masalasi tobora ilmiy bilish sohasida keskin qilib qo'yila boshlandi. Ikkinci tomondan, davrimizning navqiron fani — kibernetikaning taraqqiyoti qator lingvistik, mantiqiy, mexanik, psixologik, texnik va axloqiy muammolarni ham keltirib chiqardi. Inson axloqiy faoliyatini modellashtirish, inson miyasi vazifasining texnikaviy andazasini yaratish, mashina bilan inson muloqotini tashkil etish muammolari shular jumlasidandir.

Germenevtika shu ma'noda XX asr ilmiy va texnikaviy taraqqiyotida tasodifiy hodisa bo'lmay, mazkur taraqqiyot taqozosidan kelib chiqqan.

XX asrning 80 va 90-yillari G'arb falsafasi haqida gapirganda, bu davrning, ya'ni shu kunlarning yetakchi ijtimoiy ta'limotlari ustida ham to'xtash lozim bo'ladi. Yaqin kunlargacha yirik G'arb sotsiologlari U.Rostou, A.Toynbi, J.Bell, G.Markuze, O.Xaksli, J.Oruel va A.Tofflerning nazariyalari g'ayriilmiylikda ayblanib kelinar edi. Ko'plab mamlakatlarning mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tishi, ularda G'arb texnologiyasigagina emas, balki uning ma'naviy yutuqlariga ham qiziqish uyg'otdi. G'arb va Sharq mamlakatlari, xalqlari o'rtaida yaqinlashuv boshlandi. U.Rostouning 60-yillarda mashhur bo'lgan „konvergensiya“, ya'ni kapitalizm va sotsializmning ba'zi tomonlarini bir-biriga qo'shish mumkinligi haqidagi nazariyasi ma'lum darajada isbotlana boshladi.

Aytish kerakki, G'arb falsafasi umuminsoniy falsafiy merosning faqat bir tomonidir. Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining XX asr Falsafasi biz uchun hali ochilmagan qo'riq hisoblanadi.

XIX asrning II yarmida boshlangan mustamlakachilik istibdodiga qarshi qaratilgan milliy ozodlik urushlari, o'rta asr qoloqligiga barham berish, ma'rifat va taraqqiyot uchun kurash XX asr Sharq falsafasida¹ o'zining quyidagi o'ziga xos ifodasini topdi:

¹ „XX asr Sharq falsafasi“ tushunchasi juda keng jug'rofisiy mintaqaga xalqlarining xilma-xil falsafiy ta'limotlari, oqimlari va muammolarini o'z ichiga olishi va buning muxtasar bayoni murakkabliklar tug'dirishi sababli biz Turkiston, O'rta Osiyo mintaqasi uchun an'anaviy yaqin bo'lgan XX asr falsafasining ba'zi jihatlari, vakillari va ta'limotlarinigina yoritamiz, xolos.

1. Ilk bor o'rta asr qoloqligining butun ijtimoiy va ma'raviy halokatli oqibatlari ustida jiddiy o'ylash, ana shu qoloqlik iskanjaidan qutulish yo'llari, vositalarini qidirish, diniy, milliy ozodlik, shaxs, xotin-qizlar erkinliklari muammolarini o'rtaga qo'yish, bos'ilanib ketgan va avj olib borayotgan milliy ozodlik kurashining nazarasi va amaliy, siyosiy strategiyasi va taktikasi masalalarini ishlab chiqish juda keng ko'lamdag'i Milliy uyg'onishga olib keldi.

Bu Dukchi Eshon („Ibrat-ul-G'ofoliy“ asari), Ismoilbey G'aspirali, Munavvar Qori, A.Fitrat, Z.V.To'g'on, Tu'rur Risqulov kabi siymolarimiz faoliyati, dunyoqarashi va merosining o'zagini tashkil etdi.

2. Milliy ozodlik uchun kurash yo'llarini qidirish arab-musulmon sivilizatsiyasini dinamik quvvatlari, salohiyati, zamon va yangi shart-sharoitlarga moslasha olish qobiliyatlarini qaytadan jonlantirish, harakatga keltirish — Islom, Shariat asoslariga qaytish, ya'ni diniy-madaniy Reformatsiya¹ — Islohotlar yo'lining taklif etilishiga olib keldi.

Bu islom, shariatdagi mudroq holga tushib qolgan muttasil yanglish, mazhabiy kurashlarni, oxir oqibatda esa, „Ittihodi islomiy“, keyinchalik Panarabizm oqimlari vujudga kelishiga olib keldi. Bu tendensiya Buxoroda: Domla Ikromcha, Behbudiy, Shakuriy, Mu'lla Qilich va boshqa siymolarimiz merosi, faoliyatida o'z ifodasini topdi.

3. Milliy ozodlikka erishishning²: 1) „Yevropacha yo'li“; 2) „Izchil milliy ozodlik uchun kurash yo'li“ hozirgi zamon taraqqiyotiga erishishning asosiy yo'llari sifatida taklif etildi. Ayni qaralayotgan davrda, birinchi bor arab-musulmon jamiyatida, ayniqsa, turkiy dunyoda an'anaviy musulmon „Umma“, „Qavm“, „Millat“ tushuncha istilohlari o'rniga, hozirgi zamon ma'nosidagi kishilarning tarixiy etnik uyushmasi shakli bo'lmish „Millat“, „Turkiy millatlar“, „Arab millati“, „Eron millati“ va shu kabi istilohlar qo'llanila boshladi va ular obyektiv tarixiy-ijtimoiy birliklarning shakllanish jarayonlarining in'ikosi edi. Mazkur jarayonlar butun XX asr davomida arab-musulmon Sharqi falsafasi taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatdi, uning bir qator o'ziga xosliklarini shakllantirdi.

^{1,2} G'arb „Reformatsiyasi“ va Sharqdagi „Islohotchilik“ aynan bir narsa emas.

XX asr Sharq falsafasi o‘z taraqqiyotida quyidagi tadrijotni — asosiy bosqichlarni bosib o‘tdi:

1. *XIX asr oxiridan XX asrning 20-yillarigacha bo‘lgan davr* — milliy ozodlik kurashi avj olishi va keng yoyilish davridir. Bu davrning eng yorqin siymolari Sayyid Ahmadxon, Muhammad Iqbol, O.Tair, al-Afg‘oniy, Muhammad Abdu, Ismoilbey G‘aspirali, Domla Ikromcha, Behbudiy, Mirzo Siroj Buxoriy, Munavvar Qori, Fitrat, Ziyo Go‘kalp, Muso Jug‘ulloh Qozoniy va boshqalar edilar.

2. *XX asrning 20-yillaridan to 40—50-yillar*. Bu davrda milliy ozodlik kuchlari milliy mustaqillikni qo‘lga kiritish, milliy davlatchilik qurish, zamonaviy taraqqiyot yo‘liga o‘tish vazifalarini amalda hal qilish pallasiga kirgan edilar. Bu davrning eng yorqin siymolari — mutafakkirlari Mustafo Kamol Ota Turk, Ziyo Go‘kalp, Alixon To‘ra Sog‘uniy, Mustafo Cho‘qayev, Usmon Xo‘ja, Xoja Pahlavonniyoz, Alixon Bukeyxonov, Mirsayyid Sultongaliyev, Z.V.To‘g‘on, Bekir Cho‘lponzoda, Omonulla Hon, Fayzulla Xo‘jayev, Turor Risqulov, Rashid Rido, Toqiy Eroniy, Mahmudbek Torziy, A.K.Ozod va boshqalar edilar.

3. *XX asrning 60—70-yillaridan to 90-yillarigacha bo‘lgan davrda* arab-musulmon Sharqi, sho‘rolar mintaqasini istisno qilganda, qiyinchilik bilan bo‘lsa-da, hozirgi zamon taraqqiyoti uchun iqtisodiy-texnik, siyosiy-huquqiy, ilmiy-ma’naviy va texnologik zaminni yarata boshladilar. Bu davrning eng yorqin mutafakkirlari, siyosiy rahnamolari: Jamol Abdul Nosir, Masodiq, Sukarno, Anvar Sadat, Muhammad va Sayyid Qutb, Turgut O‘zol va boshqalar edilar.

4. *XX asrning 90-yillaridan keyingi davrda* arab-musulmon dunyosi, turkiy olam, nisbatan rivojlangan davlatlar va mintaqalar — Turkiya, Pokiston, Saudiya Arabiston, Quvayt, Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi mamlakatlari jadal taraqqiyot yo‘liga kira boshlagan bo‘lsalar, sho‘rolar istibdodi ostida qolgan mintaqalar davlatlari — Ozarbayjon, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Tojikiston — milliy mustaqillikni qo‘lga kiritish, mustahkamlash, milliy davlatchilikni vujudga keltirish, zamonaviy taraqqiyot yo‘liga chiqib olish va huquqiy, demokratik jamiyat qurish, jahon sivilizatsiyasiga tabiiy-tadrijiy kirib borishdan iborat „Milliy uyg‘onish“ jarayonlarini boshidan kechirmoqdalar.

Bu davrda arab-musulmon Sharq falsafasi Indoneziya, Malayziya, Singapur, Filippin kabi mamlakatlarda yuksak texnologik taraqqiyot sur'ati va sifatiga mos keluvchi G'arbg'a xos aqliy bilish usullari, texnologik tafakkurga zo'r berish va Sharqqa xos tadrijiy taraqqiyot va e'tiqodiy bag'rikenglikni o'zida jo qilayotgan (sintez) zamonaviy falsafa qaror topa boshladi.

Ayni paytda Misr, Suriya, Iroq, Liviya, Yaman, Falastin, Jazoir, Livan, Sudan, Efiopiya, Eron, Afg'oniston kabi musulmon mamlakatlarida 60—80-yillardagi „Islom sotsializmi“ vasvasalaridan so'ng, asl arab-musulmon falsafasi o'zaniga qaytish ro'y bermoqda.

Sobiq sho'rolar hududidagi yangi „Milliy Uyg'onish“ falsafasi g'oya, maqsad, qadriyat nishonalari Milliy Respublikalar Prezidentlari I.A.Karimov, M.Shaymiyev, N.Nazarboyev, A.Akayev va boshqa siyosiy arboblar tomonidan ilgari surilmoqda. Mustaqillikning nazariy va amaliy muammolari bo'yicha Islom Karimov oldinga surgan g'oyalar ijtimoiy-falsafiy taraqqiyotga qo'shilgan muhim hissadir. Bunda ham asosiy qadriyat sifatida Sharq falsafasi an'analari e'tiqodiy bag'rikenglik va zamonaviy taraqqiyot prinsiplari bilan uyg'un bo'lishi zarurligi haqidagi asosiy g'oyalar ilgari surilmoqda.

XX asr Sharq falsafasi sobiq mustamlaka mamlakatlarda ro'y bergen va berayotgan milliy uyg'onish, milliy tiklanish jarayonining nazariy asosiga aylandi.



III BO'LIM BORLIQNING FALSAFIY TAHLILI

Inson aqlli, o'ylovchi, fikrllovchi, fa'ol mavjudot sifatida paydo bo'lgan dastlabki davrlardan boshlab, tabiat qo'ynida yashaydi, u bilan turli shakl va darajalarda munosabatda bo'ladi. Qadimgi yunonlar aytganidek, odamlar bu munosabatlar jarayonida yeyish, ichish, kiyinish bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlarini qondiribgina qolmay, tabiatda, inson ruhiyatida, jamiyatda bo'layotgan hodisalar, voqealar, jarayonlardan hayratlanadi, ajablanadi, ba'zan quvonadi, ba'zan dahshatga, ba'zan tashvishga tushadi. Shu sababli hamma davrlarda ham odamlarni borliq, olam, hayat o'zi nima, turli-tuman narsalar va hodisalarning asosida nima yotadi, ular o'rtaida umumiylit, bog'lanishlar bormi, kabi savollar qiziqtirib kelgan, bu savollarga javob izlashgan. Bu ham inson ijtimoiy, ma'naviy kamolotining asosiy sabablaridan biri bo'lgan.

Bu o'rinda Umar Hayyomning quyidagi falsafiy misralarini keltirish mumkin:

*,Biz kelib ketuvchi to'garak jahon,
Na boshi ma'lum-u, na so'nggi ayon,
Hech kim tushuntirib bera olmadi,
Biz qaydan keldig-u, ketamiz qayon“.*

Bu misralar bundan to'qqiz asr muqaddam yozilgan edi. Odamlar shu vaqtga qadar yuqoridagi savollarga to'liq, mukammal javob topa olgani yo'q, topishi ham mumkin emas. Olam bepoyon, mohiyati murakkab, o'zgarishlar, rivojlanish imkoniyati cheksiz bo'lGANI sababli, bu savollarga javob izlash abadiy davom etaveradi. Bu savollarga har bir davrda berilgan javob muammoni o'rganishga so'nggi nuqta qo'ymaydi, balki uning yangi va yangi jihatlarini kun tartibiga qo'ya beradi. Olam cheksiz, mohiyati murakkab bo'lishi bilan birga, insonning ehtiyoji, bilish imkoniyati ham cheksiz-chegarasizdir.

Endi insoniyat borliqning mohiyatini aqliy tahlil yo'li bilan bilishi borasida qo'lga kiritgan ayrim fikrlar, falsafiy xulosalar ustida to'xtab o'tamiz.

1-§. Borliq muammosining falsafiy mazmuni. Borliq kategoriyasi

Falsafa o'rganadigan qaysi bir masalani olmaylik, u borliq muammosi bilan bog'liq ekanligini ko'ramiz.

Xo'sh, borliq o'zi nima? Nima uchun „borliq“ tushunchasi falsafa paydo bo'lganidan beri faylasuflar e'tiborini o'ziga jalb qilib keladi? Bu savollarga javob berish uchun biz borliqning inson va insonlar hayoti bilan bog'liq real ildizlarini yoritishimiz lozim.

Ma'lumki, qadim-qadim davrlardan beri kishilar o'zlarini qurshab turgan tabiat va jamiyat, inson va umuman, insoniyat haqida, xususan, o'zlati haqida ham o'ylay boshlaganlar. Ular tabiatda turli-tuman o'zgarishlarni kuzatganlar. Bu narsalar, jarayonlar ularning ko'z o'ngida obyektiv reallik sifatida gavdlangan, ya'ni: ular bor, mavjud, lekin vaqt o'tishi bilan yo'q bo'ladi, mavjud bo'lmay qoladi, aksincha ba'zi yo'q narsalar paydo bo'ladi. Shular asosida kishilarda borliq va yo'qlik haqida qarashlar vujudga kelgan.

Dunyoning mavjudligi, ya'ni borlig'i to'g'risida bahs yuritgan faylasuflar bu masalaga turlicha yondashganlar: ularning ba'zilari, dunyo avval ham bo'lgan, hozir ham mavjud, bundan keyin ham mavjud bo'ladi, deyishsa, boshqalari, dunyo avval mavjud bo'limgan, u Xudo yoki ruh tomonidan yaratilgan, dunyodagi hamma narsalarni, xususan, insonni ham, Xudo yoki ruh yaratgan, shundan buyon ular mavjud, deyishgan. Uchinchi toifa mutafakkirlar esa, dunyo yaralishiga Xudo faqat sababchi bo'lgan, xolos, u shundan buyon o'zi mavjud, o'zi rivojlanadi, degan qarashni ilgari surishgan.

Dunyoning abadiyligi yoki o'tkinchiligi, uning makon va zamonda cheklangan yoki cheksizligi to'g'risidagi qarashlar insoniyat tarixida dastlab afsonalar va diniy qarashlarda, keyinchalik falsafa va boshqa fanlarda ifodalanib, muhokama qilinib keltingan. Bu muhokamalarning hammasi, pirovard oqibatda borliq muammosiga borib taqalaverган. Ularning mantiqiy xulosasi shuki, dunyo doimiy, abadiydir. Ammo shu abadiy dunyodagi barcha narsalar, turli-tuman jonsiz va jonli organizmlar, insonlar va ularning faoliyati hatto, bir butun jamiyat ham shubhasiz, vaqtincha, o'tkinchidir. Demak, borliq abadiy, ammo undagi barcha narsalar o'zgarishda va rivojlanishda: bir holatdan ikkinchi holatga, bir turdan ikkinchi turga o'tishda. Ular bordan yo'q, yo'qdan bor bo'lmaydi.

Borliq muammosining butun ildizi, ma’nosi va mazmuni shundaki, bir butunlik sifatidagi borliqning doimiy mavjudligi va uni tashkil etgan narsalarning: tabiat, insonlar, jamiyat va ular faoliyatlarining o’tinchiligi ziddiyatli birlikni tashkil qiladi. Bundan shu narsa ma’lum bo’ladiki, borliq muammosini falsafada o’rganish dunyo „*hozir, shu yerda mavjud*“, degan qarashdan boshlanib, bu qarashlar bir butun dunyoning cheksiz va doimiy mavjudligi, undagi narsa va hodisalarning, shu jumladan, insonlarning ham, vaqtinchaligi va o’tinchiligi to‘g‘risidagi qarashlarga tomon rivojlanib borgan. Bu — borliq to‘g‘risidagi falsafiy muammoning birinchi tomonidir.

Borliq muammosining falsafiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, dunyo bir butun, abadiy mavjud, lekin uni tashkil etgan narsalar o‘z mavjudligi jihatidan har xil, o’tinchidir. Bir butunlik sifatidagi dunyo undagi mavjud narsalardan ajralmasdir. Bir jihatdan, bir butun dunyo bilan uni tashkil qilgan narsalar, hodisalar va mavjudotlar o‘rtasida farq bo‘lsa, ikkinchi jihatdan, dunyo o‘zini tashkil qilgan narsalar, mavjudotlar bilan ajralmas birlikdagi butunlikni hosil qiladi. Bundan borliq va dunyoning birligi masalasi bilan bog‘liq falsafiy muammoning ikkinchi tomoni kelib chiqadi. Dunyoning haqiqiy birligi uning, moddiyiligi va mohiyatidadir.

„Borliq“ tushunchasi moddiylikdan tashqari, ma’naviylikni ham o‘z ichiga oladi. Bu jihatdan inson ongi, barcha ongli va ongsiz faoliyatlar, ma’naviy-ruhiy hodisalar, „borliq“ tushunchasi tarkibiga kiradi. Chunki, ong anglangan borliqdan boshqa narsa emas. Bu borliq to‘g‘risidagi falsafiy muammoning uchinchi tomonini tashkil etadi.

Demak, borliq keng ma’noda eng umumiyligi tushuncha sifatida bir butun dunyo va undagi narsa va hodisalardan tortib, inson hayoti, ongi, kishilar faoliyatining barcha obyektiv va subyektiv sharoitlari, hatto jamiyatda sodir bo‘layotgan butun jarayonlarni, realliklarni o‘z ichiga oladi. „Borliq“ tushunchasi, falsafiy jihatdan, keng ma’noda bir butun reallik sifatida tushuniladi. Shu sababli unga, yuqorida aytilganlardan tashqari, inson hali bilib, o‘zlashtirib ulgurmagan narsalar, tabiat hodisalar, tabiat boyliklaridan foydalanib, insoniyat yaratgan barcha narsa va hodisalar, jarayonlar, kishilarning ijtimoiy hayotlari, fikrlari, g‘oyalari, qarashlari, yashaydigan joylar, mehnat qiladigan korxonalar, o‘qiydigan va ishlaydigan tashkilotlar, xullas, jamiyatdagi barcha ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, ma’naviy munosabatlar kiradi.

Binobarin, har bir kishining hayot faoliyati uning o‘zi uchun ham, atrofdagi kishilar uchun ham ma’lum reallik hisoblanadi. Shu bilan birga, har bir kishi o‘z tanasi, o‘z ruhiga, o‘z o‘tmishi, buguni va kelajagiga boshqa kishilarga, umuman butun jamiyatga ma’lum reallik sifatida munosabatda bo‘ladi.

Umuman, borliq muammosini falsafiy tadqiq etish kishilarning ma’naviy-axloqiy, siyosiy, huquqiy, diniy va shu kabi amaliy faoliyatlariga va nazariy bilimlariga asoslanadi. Bu „borliq“ kategoriyasi va u bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan „mavjudlik“, „reallik“ va boshqa shu kabi bir qator falsafiy kategoriyalar yordamida o‘rganiladi. Falsafa „borliq“ tushunchasini eng umumiylashtirish uchun sifatida o‘ziga boshlang‘ich kategoriya sifatida qabul qiladi.

Demak, falsafada „borliq“ kategoriyasi dunyo, tabiat, inson, jamiyat, inson ongi, uning individuallashgan va moddiylashgan ko‘rinishlarining shunchaki mavjudligini emas, balki ulardagidan umumiylashtirish uchun boshqa shu kabi bir qator falsafiy kategoriyalar yordamida o‘rganiladi. Umumiy aloqadorlik, bir-birini taqozo etish — borliqdagi narsalar, hodisalar birligi va yaxlitligining asosiy belgilaridandir.

„Borliq“ tushunchasi falsafiy kategoriya sifatida, bilishning yuqori bosqichi — abstrakt tafakkurgagini xos. Inson-fikrlash jarayonida bu tushuncha orqali dunyodagi alohida narsalar, ularning konkret belgilari va xossalari haqida emas, balki dunyodagi barcha narsalar, voqealar va hodisalar, jarayonlar o‘rtasidagi eng umumiylashtirish uchun sifatida qabul qiladi.

Falsafiy adabiyotlarda borliq haqidagi ta’limot ontologiya, deb ataladi.

2-§. Falsafada substansiya muammosi

Substansiya. Substansiya (lotincha — substantina — mohiyat; falsafada narsalarning mohiyati) deyilganda falsafada dastlabki vaqtarda borliq, tabiat, jamiyat, inson va bir butun dunyoda barcha narsa hamda hodisalarning asosini tashkil etadigan moddiy yoki ruhiy birlamchi narsa tushunilgan.

Ayrim faylasuflar substansiya, deb butun mavjudlikning asosi bo‘lgan mutlaq g‘oyani, ruhni yoki subyekt ongi va shu kabilarni tushunishadi. Masalan, qadimgi davr materialist faylasuflar moddalarning biron turini dunyoning asosida yotuvchi substansiya, deb tushunganlar. Qadimgi yunon mutafakkirlaridan Pifagor sonlarni, Platon esa, g‘oyani, g‘oyalarni substansiya deb qaraydi. Nemis klassik falsafasining vakili I.Kant substansiya „shunday bir

doimiy narsaki, faqat unga nisbatangina hamma vaqtli hodisa-larni aniqlash mumkin“ deydi. I.Kant fikricha, substansiya — tajriba ma'lumotlarini sintezlashtiruvchi tafakkurning aprior shaklidir.

Hegel esa „mutlaq g'oya“, „mutlaq ruh“ni substansiya deb qarab, uni narsalarning muhim, o'zgaruvchan, rivojlanuvchi tomonlarining yaxlitligi, „mutlaq g'oyaning rivojlanish jarayonida muhim bosqich“, „har qanday haqiqiy taraqqiyotning negizi“, deb ta'riflaydi. Hegelda substansiya, ayni bir vaqtida, ham rivojlanuvchi g'oya — ibtido, ham subyekt, ya'ni o'z-o'zini tug'diruvchi asos va shu rivojlanishning momenti sifatida qaraladi.

Faylasuflarning yagona asos to'g'risidagi qarashlari monizm (yunoncha — monos, yakka, bir degani) — dunyoning asosi bitta, deyuvchi ta'limotini keltirib chiqargan.

Faylasuflar orasida dunyoning asosini bir narsa emas, balki ikki narsa: ham g'oya (ruh), ham materiya tashkil qiladi, deyuvchilar ham mavjud bo'lgan. Bunday qarash *dualizm* (dualizm (lotincha — dua, ikki degani) — dunyo asosida ikki narsa, ham materiya, ham g'oya yoki ruh yotadi, deyuvchi ta'limot), deb ataladi.

Substansiya muammosini hal qilishda monistik va dualistik qarashlardan farqli o'laroq, pluralistik qarashlar ham mavjud.

Pluralizm (lotincha — plural ko'plik degani) — dunyoning asosida ko'p narsalar yotadi, deyuvchi ta'limot nuqtayi nazaricha, dunyoning asosini yakka bir narsa emas, balki ko'p narsalar tashkil qiladi. Dunyodagi butun mavjudotlar yagona bir ibtidoga ega bo'lmagan ko'pdan-ko'p, har xil asoslardan tashkil topgandir.

Ilmiy-falsafiy ta'limotlar va hozirgi zamon fanlari erishgan ma'lumotlarga ko'ra, moddiy borliq, doimiy harakatda bo'lgan materianing turli shakldagi ko'rinishidir.

Materiya — dunyoning moddiy birligini ifodalovchi falsafiy kategoriyadir.

3-§. Materiya va uning mavjudlik shakllari

Moddiy olamning asosida yotuvchi umumiyligi mohiyatni axtarish falsafada materiya haqidagi tasavvurlarning rivojlanishiga sabab bo'ldi. „Materiya“ „moddiy unsur“ga, „atomar“ga, „pramateriya“ga nisbatan ham kengroq, umumiyoq bo'lib, borliqning obyektiv real shaklini ifodalovchi, eng umumiyligi tushunchadir.

Haqiqatan ham, „materiya“ tushunchasi abstraksiya, fikrning mahsulidir, chunki, olamda „umuman materiya“ yo‘q, balki materiyaning konkret obyektlar ko‘rinishlari mavjud. Aniqroq qilib aytganda, materiya, hamma vaqt konkret obyektlar ko‘rinishida uchraydi.

Materiyaning uchta muhim falsafiy jihatni bor. Bular: *birinchidan*, „materiya“ tushunchasi falsafiy kategoriya ekanligi, *ikkinchidan*, bu kategoriya obyektiv reallikni, moddiy voqelikni ifoda etishi, *uchinchidan*, materiyani bilish mumkinligining ta’kidlanishidir. Materiyaning bu falsafiy tushunchasi materiyaning muayyan ko‘rinishlarini, uning tuzilishi va xossalari o‘rganishda metodologik ahamiyat kasb etadi.

Materiya o‘zining mavjudligini behisob xossalari, xususiyatlari orqali namoyish qiladi. Turli xil fanlar bu xususiyatlarni tadqiq etadi. Materiyaning eng umumiy xossa va xususiyatlarini falsafa fani o‘rganadi. Buning uchun esa, atrofimizni o‘rab turgan moddiy obyektlarning tuzilishi va xossalari bilishimiz kerak bo‘ladi.

a) Moddiy obyektlarning tuzilishi.

Hozirgi zamon fanlarining xulosalariga ko‘ra, atrofimizdagi har qanday jism molekulalardan tashkil topgan, molekulalar esa, atomlardan tashkil topgan. Atomlar murakkab shakldagi o‘zak neytron, pozitron, ya’ni yadro va elektron qobiqlardan tashkil topgan. Vodorod atomining yadrosi bitta protondan tashkil topgan. Murakkabroq atomlarning yadrosi esa, bir qancha proton va neytronlardan tashkil topadi. Proton va neytronlar esa kvarklar va ularni tutashtirib, bir-biriga bog‘lab turuvchi gleyonlardan (*glyuon* lotincha *glutinis* — „Yelim“ so‘zidan olingan bo‘lib, yelimlovchi ma’nosini anglatadi) tashkil topgandir. Proton va neytronlar nuklonlar (lotincha *yadro* — o‘zak) hisoblanadi, nuklonlar va gi peronlar (yunoncha ustida, yuqori)dan tashqari, barionlar va adrionlar (yunoncha *adros* — og‘ir)dan iborat bo‘ladi. Bular og‘ir zarrachalar sifatida kuchli o‘zaro ta’sirlar maydonida bo‘lib, adronlar (yunoncha *adron* — kuchli) gruppasiga mansubdir.

Anorganik va organik moddalar bir-biridan molekulalarining tuzilishi, o‘zaro joylashish tartibi, tizimi bilan farq qiladi. Jonli organizmlar esa, murakkab shakldagi organik moddalardan tashkil topgan bo‘ladi. Jonli organizmlarning tarkibi hujayra va hujayra sistemalaridan iboratdir. Yer kurrasini qurshab turuvchi biosferani bir butun jonli vujudli sistema, deb olish mumkin. U mikro-

organizmlar, o'simliklar, hayvonlar va insonlardan tashkil topgan bo'lib, bu mavjudotlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorliklar majmuasi biosferaning tirikligini ta'minlaydi.

Jonsiz tabiat haqida gapirilganda avvalo, Koinot va undagi osmon jismlari — tumanliklar nazarda tutiladi. Yer va uning tabiiy yo'ldoshi Oy birgalikda Quyosh atrofini bir yilda to'liq bir marta aylanib chiqadi. Quyosh biosferaning muhim hayotiy manbayi sifatida uni yorug'lik, issiqlik va elektromagnit nurlari bilan ta'minlaydi. Yer o'qining o'z orbitasiga nisbatan og'ma joylashganligi Yerdagi fasllarning almashishiga va unda turli xil iqlim mintaqalari ning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Demak, Yerdagi barcha hayotiy jarayonlar Yer, Quyosh sistemasi, Oy va boshqa kosmik tizimlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar bilan bog'langandir.

Quyoshning atrofida Yerdan tashqari yana boshqa sayyoralar, ularning yo'ldoshlari, asteroidlar, kichik planetalar, meteoritlar va kometalar harakatlanib turadi. Bularning hammasi birgalikda Quyosh sistemasini tashkil etadi. Quyosh va boshqa yulduzlar sistemasi millionlab yulduzlarni o'z ichiga oluvchi Galaktika (Somon Yo'li) tarkibiga kiradi. U diskimon shaklda bo'lib, o'rtacha diametri 94,6 mln yorug'lik yiliga teng. Galaktikamizga 30 tacha galaktikani birlashtiruvchi galaktikalar kiradi. Galaktikalar to'pi esa, ularning bir butun majmuasini tashkil qiladi. O'ta katta galaktikalar majmuasi o'ziga 10 mingdan ziyod galaktikani birlashtiradi. O'ta katta majmualar esa, Koinotning yanada umumiyoq bo'lgan boshqa birikmalariga kiradi. Bularning hammasi birgalikda Koinotning tarkibiy elementlari hisoblanadi.

Bu sistemalar tabiiy-ilmiy fanlar tomonidan tadqiq etiladi. Falsafa fani bunday sistemalarni falsafiy jihatdan umumlashtirib, materianing sifatiy va miqdoriy ko'rinish shakllarini, struktura darajalarini bir-biridan farqlaydi.

b) Materianing struktura darajalari.

Materiya tuzilishining farqlariga asoslanib, uning tuzilishi darajalarini ikkiga: 1) miqyosli struktura darajalari va 2) tashkiliy struktura darajalariga ajratish mumkin.

Materiya masshtab o'chovi, miqyosi bilan farq qiluvchi uchta darajaga bo'linadi. Ular: mikrodunyo, makrodunyo va megadunyodir. **Mikrodunyo atom masshtabidagi kichik dunyo bo'lib, unga atom strukturasidan tortib, elementar zarrachalar, atom yadrosi: kvarklar, kernlar va boshqa kichik o'chovli strukturalar kiradi.** Bu dun-

yoning yaxlitligini va turg'unligini ikkita asosiy kuch: kuchli va kuchsiz yadroviy o'zaro ta'sirlar saqlab turadi. Kuchli o'zaro ta'sirlar atom yadrosining strukturaviy birligini saqlab tursa, kuchsiz o'zaro ta'sirlar esa, atom strukturasining yaxlitligini ta'minlaydi. Molekulalarning tuzilishidan tortib, to Yer kurrasining yaxlitligini ta'minlashgacha bo'lgan vazifalar uchun xizmat qiluvchi kuch elektromagnit o'zaro ta'sirlardir. Bu kuch tufayli molekulalari birikmalar va Yerdagi barcha hayotiy jarayonlarni o'ziga qamrab olgan makrodunyo o'zining mavjudligini, strukturaviy birligini saqlaydi. Agar bu kuch bo'lmasganda, Quyosh nurlari Yerga yetib kelmagan, yorug'lik hodisalari sodir bo'lmasgani, molekulalar parchalanib ketgan, ya'ni, Yerda hech bir hayotiy jarayon sodir bo'lmas edi.

Yer, Oy va boshqa sayyoralar Quyosh atrofida harakatlanadi. Bu sayyoralar Quyoshning tortish kuchi ushlab turganligi uchun ham shunday harakatda bo'ladi. Quyosh sistemasining va umuman, butun Koinotning strukturaviy yaxlitligi gravitatsion o'zaro ta'sirlar tufayli saqlanadi. **Gravitatsion o'zaro ta'sirlar birlashtirib turgan dunyo megadunyo deyiladi.**

Bu uchala dunyo bir-biri bilan chambarchas bog'langan bo'lib, ular bir-birlariga almashinishlari ham mumkin, ya'ni mikrodunyo makro va megadunyoga, megadunyo esa makro va mikrodunyoga aylanishi mumkin.

Materiya rivojlangan sari, uning tashkiliy tuzilishi ham o'zgarib boradi. Tashkiliy struktura darajalariga ko'ra, materiyani anorganik materiya, organik materiya va ijtimoiy materiya (jamiyat)ga ajratamiz. Ular bir-birlaridan sistema elementlari o'rtasidagi aloqadorliklarning xilma-xilligi, uyushganligi, nisbiy mustaqilligi va faolligi darajalari bilan farq qiladi. Anorganik materiya yoki jonsiz tabiatda fizik va kimyoviy aloqadorliklar hukmronlik qiladi, shu tufayli jonsiz tabiatdagi qonuniyatlar shu fanlar doirasida cheklangan bo'lib, bu — materiya nisbatan sust va tashkiliy uyushganligi jihatdan quyi darajada, faolligi kuchsiz bo'ladi. Jonli tabiatda, ya'ni organik dunyoda esa, biologik aloqadorliklar ham qatnashganligi sababli, uning uyushganlik darajasi yuqoriroq, faolroq va tuzilishi murakkabroq bo'ladi. Ijtimoiy darajada esa, yuqorida aytilgan aloqadorliklardan tashqari, jamiyatga xos bo'lgan ijtimoiy aloqadorliklar ham qatnashadi va bunday materiya tuzilishi o'ta murakkab bo'lib, materiya bu darajada o'ta uyushganligini, nisbiy mustaqilligini va oliy darajadagi faolligini namoyish qiladi. Bu

materiyaning struktura elementi bo‘lgan har bir inson shu jamiyatga xos bo‘lgan barcha aloqadorliklarni o‘zida aks ettiradi va u barcha ijtimoiy munosabatlar va aloqadorliklarda ongli ravishda harakat qiladi.

Materiyaning tashkiliy-struktura darajalari ham bir-biri bilan uzviy aloqadorlikda bo‘ladi va ularning biri ikkinchisidan kelib chiqadi. Odatda, kamroq aloqadorliklarga ega bo‘lgan sistema unga nisbatan ko‘proq aloqadorliklarga ega bo‘lgan sistemaga qaraganda soddaror va tashkiliy jihatdan tarqoqroq va passivroq (sustroq) bo‘ladi.

Materiya tashkiliy-struktura darajalarining, balki, hali biz bilmagan yanada murakkabroq turlari ham bordir, lekin ular haqida bizda hozircha ma’lumot yo‘q, chunki bunday dunyolar hozirgi, bizning mavjud tushunchalarimiz doirasiga sig‘maydi. Xullas, materiyaning tashkiliy struktura darajalari bir-biridan aloqadorliklarining soni va sifati jihatidan, energiya va axborot almashish xususiyati bilan, faolligi va uyushganligi darajasi bilan farq qiladi.

d) Harakat.

Materiyaning asosiy yashash usuli, mavjudlik shakli — harakatdir, chunki materiyaning har qanday ko‘rinishining yaxlitligi harakat tufayli saqlanadi. Agar harakat bo‘lmaganda edi, har qanday jismning tarkibiy qismlarini tutashtirib turuvchi o‘zaro ta’sir kuchlari ham bo‘lmagan bo‘lar edi, natijada, hech bir narsaning butunligi, yaxlitligi, tartibi saqlanmasdi. Biz, atrofimizdagи narsalarni harakat tufayli, ya’ni ularga yorug‘lik nurlari urilib, bizning ko‘zimizga tushganligi uchun ko‘ramiz. Harakat, ya’ni havo tebranishlari quloqlarimizga tovush to‘lqinlarini yetkazadi va biz eshitamiz. Harakat tufayli atomlar va molekulalarda o‘zgarishlar sodir bo‘ladi, o‘simliklarda moddalar almashinadi, energiya va axborot uzatiladi, hayvonot olami va inson muhit bilan aloqada bo‘ladi, jamiyat rivojlanadi. Harakat tufayli Quyosh nurlari Yerga yetib keladi, daryolarda suv oqadi, o‘simliklar o‘sadi, fasllar almashinadi. Quyosh sistemasi, galaktikamiz va butun Koinotdagи hayotiy jarayonlar davom etadi.

Harakat, bir tomondan, moddiy jismlarni tashkil etuvchi elementlar va turli jismlar o‘rtasidagi aloqadorliklarning natijasi bo‘lsa, boshqa tomondan esa, ularda ro‘y beruvchi o‘zgarishlar sifatida sodir bo‘ladi.

Harakatning bir-biridan farq qiluvchi bir qancha shakllari mavjuddir. Harakat shakllarini turkumlash falsafada muhimdir. *Faylasuflar harakat shakllarini turkumlashda quyidagi qoidalarga tayanadilar:* 1) harakat shakllari bir-biri bilan sifat jihatdan farq qilib, ularning har biri materianing tashkiliy tuzilish darajalarining muayyan bosqichida namoyon bo‘ladi; 2) harakat shakllari bir-biri bilan kelib chiqish jihatidan (genetik jihatdan), ketma-ket bog‘langandir, ya’ni harakatning murakkabroq shakllari uning nisbatan soddarroq shakllaridan kelib chiqqandir; 3) harakatning yuqori shakllari tarkibida quyi darajadagi harakat shakllari qatnashadi, ya’ni harakatning quyi shakllari, uning yuqori shakllariga ham mansubdir, ammo harakatning yuqori shakli o‘zidan quyi shakldagi harakatga mansub emasdir. Shu qoidalarga tayangan holda, harakatning bir necha shaklini ajratib ko‘rsatish mumkin. Ular quyidagilardir:

- 1) mexanik harakat (jismlarning fazodagi siljishi);
- 2) fizik harakat (issiqlik, yorug‘lik, elektr, magnitizm);
- 3) kimyoiy harakat (kimyoiy birikish va parchalanish, agregat holatlarning bir-biriga o‘tishi);
- 4) biologik harakat (organik hayot);
- 5) ijtimoiy harakat.

Harakat fazo va vaqt bilan uzviy bog‘langandir.

e) Fazo va vaqt.

Fazo va vaqt — materianing asosiy yashash shakllari bo‘lib, obyektiv **reallikdagi jismlar** va ularni tashkil etuvchi elementlarning o‘zaro joylashish tartibi, ko‘lami hamda ular bilan bog‘liq bo‘lgan hodisalarning davomiyligi, ketma-ketligi tartiblarini aks ettiradi. Harakatlanuvchi materiya fazo va vaqtida o‘zining turli shakllarini namoyish qila oladi.

Bu yerda fazo — materianing tuzilish tartibi, ko‘lamin, olamdagи narsalarning o‘zaro joylashish vaziyatini ifodalasa, vaqt — jarayonlarning davomiyligini, hodisalarning ketma-ketligi tartibini ifodalaydi. Agar butun obyektiv reallik „lahzalar“ va „bo‘linmas“ o‘lchamlarning birligidan iborat bo‘lsa, ular shu birlikning kichik ulushi bo‘lishi mumkin. Fazo va vaqtga quyidagicha ta’rif berish mumkin: **Fazo — vaqtning muayyan lahzasida olamni tashkil etuvchi nuqtalarning o‘zaro joylashish tartibi, ko‘lami, vaziyatlari o‘lchamidir. Vaqt — fazoning muayyan nuqtasida ro‘y beruvchi hodisalar ketma-ketligi, tartibi va davomiyligi o‘lchamidir.**

Olam haqidagi ilmiy bilimlarning rivojlanishi bilan real fazo va vaqt haqidagi tasavvurlar ham, konseptual modellar ham rivojlanib, takomillashib boradi.

Fazo va vaqtning mavjud hisob sistemalarda va materiyaning barcha struktura darajalarida bir xilda namoyon bo‘luvchi xususiyatlari eng umumiy xususiyatlar deyiladi. Bunday xususiyatlarga fazo va vaqtning obyekтивлиги, моддийлігі, cheksizligi, materiyaning atributi sifatidagi absolutligi, harakat va materiyaga nisbatan namoyon bo‘luvchi nisbiyligi, ya’ni turli hisob sistemalarda turlicha qiymatlarga egaligi kiradi.

Bulardan tashqari, fazo va vaqtning turli hisob sistemalarida turlicha namoyon bo‘ladigan, miqdoriy kattaliklar bilan, ya’ni muayyan o‘lhash asboblari, soat yoki lineykalar yordamida o‘lhash mumkin bo‘lgan, tashqi aloqadorliklarda ko‘zga tashlanadigan, o‘zgaruvchan va nisbiy xarakterdagи xususiyatlari borki, ularni miqdoriy yoki metrik xususiyatlar, deb atashadi.

Bu xususiyatlар materiyaning turli tashkiliy-struktura va masshtab-struktura darajalarida turlicha namoyon bo‘ladi. Ular fazo va vaqt bilan bog‘liq bo‘lgan moddiy aloqadorliklarning miqdoriy belgilarini ifodalaydi. Metrik xususiyatlarning o‘zgarishi materiya sifatining o‘zgarishiga jiddiy ta’sir qilmaydi.

Fazo va vaqtning yana shunday xususiyatlari ham borki, ular barcha hisob sistemalarida, materiyaning barcha struktura darajalarida mikrodunyoda ham, jamiyatda ham, bir xilda saqlanadi. Ular fazo va vaqtning tub sifatiy jihatlarini ifodalovchi fundamental xususiyatlar hisoblanadi. Bunday xususiyatlarni topologik xususiyatlar deyishadi. Topologik xususiyatlar moddiy aloqadorliklarning ichki, tub sifatiy jihatlarini ifodalaydi. Topologik xususiyatlarning o‘zgarishi bilan moddiy obyektlarning tuzilishida tub sifatiy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Quyidagi xususiyatlar fazoning topologik xususiyatlari hisoblanadi: uzlusizlik va uzluklilik, o‘lchamlik, bog‘langanlik, kompaktlik, tartiblanganlik, chegarasizlik. Vaqtning topologik xususiyatlariga esa: uzlusizlik, orqaga qaytmaslik, bir o‘lchovlik, chiziqli tartiblanganlik va bog‘langanlik kiradi.

Fazo va vaqt materiya strukturasidagi o‘zaro aloqadorliklar majmuasini aks ettirar ekan, bu aloqadorliklarning turli xil ko‘rinishlari, turli xil shakldagi harakat va unga bog‘liq bo‘lgan fazo — vaqt shakllari vujudga kelishiga sabab bo‘ladi. Biz yuqorida faqat fizik fazo va fizik vaqt haqida to‘xtaldik. Tadqiqotchilar molekular

aloqadorliklar majmuasi bilan bog‘langan kimyoviy fazo va vaqt, ijtimoiy aloqadorliklar strukturasini ifoda etuvchi — ijtimoiy fazo va vaqt shakllari haqida ham ilmiy izlanishlar olib bormoqda.

Xullas, fazo va vaqt olamdagи aloqadorliklar majmuasini ifoda etadi. Ular harakat, materiya va moddiy o‘zaro ta’sirlar bilan chambarchas bog‘langan. Olamdagи barcha o‘zgarishlar, narsalarning shakli va ko‘rinishlari fazo va vaqt strukturasi bilan bog‘langandir. Materiyaga hayotbaxsh atribut — harakat bo‘lsa, fazo va vaqt unga shakl baxsh etadi, uni shakllantiradi, rivojlantiradi, ravnaq toptiradi.

4-§. Borliqdagi narsa va hodisalarining o‘zaro bog‘liqligi, rivojlanishi

Borliqdagi umumiy bog‘lanish, harakat va rivojlanishni o‘rganish falsafiy umumlashmalar uchun katta ahamiyatga ega. Busiz taraqqiyotning mohiyatini, umumiy yo‘nalishini, istiqbolalarini bilib bo‘lmaydi. Olamning birligi uning moddiyligi bilangina emas, balki barcha narsalar va hodisalarining o‘zaro bog‘liqligi bilan ham belgilanadi.

Harakat, taraqqiyot, umumiy bog‘lanish va aloqadorlik to‘g‘risidagi falsafiy ta‘limotlar ham falsafa fani bilan birga paydo bo‘lgan. Bu muammolar tahlili falsafada „dialektika“ tushunchasi orqali ifodalangan. Bu tushuncha falsafa tarixida turli davrlarda turli ma’nolarni ifodalab kelgan. Dialektika dastlabki davrlarda o‘zaro bahs, munozara olib boruvchi mutafakkirlarning muhokamalaridagi qarama-qarshi, zid fikrlarning to‘qnashuvi va shular asosida haqiqatni aniqlash ma’nosini ifodalagan. Antik davr mutafakkirlarining ma’lumotiga ko‘ra, munozarada ishtirok etuvchilar, o‘z muhokamalarida bir-birlariga muqobil savollarni berib, bu savollarga har tomonlama yondashib, ulardagi bir tomonlamaliklarni bartaraf qilishga uringanlar. Bunda, ular, o‘z muhokamalarida har xil nuqtayi nazarlarni hisobga olgan holda, ilmiy, nazariy, axloqiy, siyosiy, huquqiy va shu kabi voqeа-hodisalar to‘g‘risida o‘z qarashlarini ishlab chiqqanlar. Ular shundan kelib chiqib, dialektika deganda o‘zaro bahslashuv san’atini, munozara asosida haqiqatga erishish usulini tushunganlar.

Dialektikaga munozara san’ati sifatida qarash o‘rtा asrlarda yashagan O‘rtа Osiyo mutafakkirlariga ham xos bo‘lib, hatto bu narsa Uyg‘onish davrlarida ham davom etgan. Bu davr mutafakkirlarida ham — dialektika savol-javob san’ati sifatida

o‘zgacha fikrlarni rad qilish usuli bo‘lib xizmat qiladi. Bunga misol qilib G.Galileyning „*Dunyoning ikki sistemasi to‘g‘risidagi bahs*“ asarini ko‘rsatish mumkin. Umuman, „dialektika“ tushunchasining paydo bo‘lishi, o‘zining dastlabki davrlardagi tor ma’noni ifodalashiga qaramasdan, o‘scha davrlardan to bizning kunlarimizgacha qo‘llanib kelingan sermazmun falsafiy suhbat usulining paydo bo‘lishida muhim rol o‘ynadi va insoniyat madaniyatining rivojlanishiga katta hissa bo‘lib qo‘shildi.

Asrlar davomida to‘planib borgan dialektik munozara madaniyati murakkab muammolarni muhokama qilish, ulardagi turli qarama-qarshi nuqtayi nazarlarni ochish, aniqlash va tushunish mahoratining qaror topishi inkor qilib bo‘lmash ahamiyat kasb etdi. Bora-bora dialektika qarama-qarshi nuqtayi nazarlar, ular o‘rtasidagi ziddiyatlarni ochish usuli sifatida qaraladigan bo‘ldi. Shunday qilib, sekin-asta inson ijodiy tafakkuri o‘z tabiat bilan dialektik ekanligi haqidagi tasavvur paydo bo‘ldi.

Lekin, ma’lum vaqt o‘tishi bilan dialektika faqat kishilarning o‘zaro munozaralarigagina xos emasligi ma’lum bo‘la bordi. Oqibatda, dialektika faqat inson fikrlash jarayonigagina xos bo‘lmashdan, balki u tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarga ham xos, deb qarala boshlandi. Ayniqsa, bu qarash borliq shakllari va turlari o‘rtasidagi bog‘lanish va aloqadorliklarning, ular doim o‘zgarib, rivojlanib, bir holatdan ikkinchi holatga o‘tib turishlarning aniqlanishi bilan yanada rivojlandi. Natijada, „dialektika“ tushunchasi insonni, uni qurshab turgan dunyoni bilish va izohlashning umumiyligi usuli ma’nosini ifodalay boshlaydi. Vaqt o‘tishi bilan „dialektika“ tushunchasi hamma narsalar: xoh katta, xoh kichik bo‘lishiga qaramasdan, o‘zining oldingi xususiyatlarini o‘zgartirib, ilgari ega bo‘lidan yangi xususiyatlar hosil qilib borishlarini ham ifodalay boshlashi ma’lum bo‘ladi. Shu asosda, asta-sekin, dunyoni dialektik tushunish, borliq va bilishga dialektik qarash qaror topa boshlaydi.

Dunyoning o‘zgaruvchanligi to‘g‘risidagi dastlabki fikrlar qadimgi Xitoy, Hindiston hamda Yunonistonning falsafiy ta’limotlarida ham ilgari surildi. Qadimgi davr faylasuflari, garchi hali harakatning turli ko‘rinishlari va xillari to‘g‘risida ilmiy dalillarga ega bo‘lishmasa ham, borliqning umumiyligi o‘zgaruvchi xarakteri haqida o‘z davrlari uchun yangi fikrlarni ilgari surishdi.

Kishilar dastlabki vaqtlardan boshlab, o‘z tajribalarida narsa, hodisalardagi o‘zgaruvchan xossalari bilan birga, ularda ma’lum barqaror, o‘zgarmas xususiyatlar ham mavjudligini anglay

boshlaganlar. Natijada, dunyodagi narsa va hodisalarning ham o'zgaruvchan, ham barqaror o'zgarmas xossalari haqidagi qarashlar kelib chiqdi. Haqiqatan ham, narsa va hodisalar ma'lum vaqt ichida har qancha o'zgarsa ham, ayni vaqtida ularning ma'lum tomonlari o'zgarmay qolaveradi. Xullas, bunday qarashlar to'plana borib, narsa va hodisalarning qarama-qarshi tomonlari, ular o'rtasidagi ziddiyatlar haqidagi qarashlar tufayli, falsafada rivojlanish g'oyasi kelib chiqadi. Kishilar dunyodagi narsa va hodisalarda yuz beradigan turli xil o'zgarishlarni anglay borib, dunyoning uzlusiz harakatda, o'zgarish va rivojlanishda ekanligini tushuna boshlaganlar. Ular, shu bilan birga, tabiat va jamiyat voqeahodisalarida juda ko'p davriy, takrorlanuvchi holatlarni ham bila borganlar. Masalan, yil fasllari, kun bilan tunning almashishi va shular kabi. Lekin, dastlabki davrlarda mutafakkirlar rivojlanishni butunlay yangi narsaning, yuqori bosqichning paydo bo'lishi, deb tushunish darajasiga ko'tarila olmaganlar.

Rivojlanish g'oyasini bir butun dunyo taraqqiyoti bilan bog'lab tushunishda muhim qadamni birinchi bo'lib fransuz faylasufi Rene Dekart qo'yadi. U, dunyoni Xudo yaratayotib, unga dastlabki turtkini kiritgan va uni harakatga keltirgan, deydi. XVIII asr fransuz ma'rifatparvarlari **Volter** va **Russo** inqilobiy qayta qurishni o'z ichiga olgan tarixiy rivojlanish g'oyasini ilgari surishadi. Ularning izdoshi **Kondorse** esa, jamiyatning ilgarilama harakati, uzlusiz taraqqiyot to'g'risidagi ta'limotini yaratadi. Bu mutafakkirlar o'z qarashlarida g'oyaviy omillar jamiyatni harakatga keltiruvchi, rivojlantiruvchi asosiy kuchlardir, degan fikrni ilgari suradilar.

Nihoyat, rivojlanish to'g'risidagi har xil qarashlarning sintezi sifatida bir butun taraqqiyot nazariyasi nemis klassik falsafasida paydo bo'ldi. Bu falsafaning asoschilaridan biri **I.Kant** rivojlanish g'oyasini quyosh sistemasi va barcha yulduzlar dunyosini izohlashga tatbiq etib, uni hatto insonning ijtimoiy, xususan axloqiy rivojlanishiga ham joriy etishga urindi. Kantning shogirdi **Gerder** esa, rivojlanish g'oyasini butun xalqlarning tarixiga va insoniyat madaniyati taraqqiyotiga birinchi bo'lib tatbiq etadi. Bu davrga kelib, „dialektik“a tushunchasi rivojlanish g'oyasini ifodalay boshlaydi.

Dialektikani rivojlanish haqidagi har taraflama, mazmun jihatdan boy va chuqur ta'limot sifatida birinchi marta nemis klassik falsafasining buyuk vakili Hegel ishlab chiqdi. Hegelning xizmati shu bo'ldiki, u birinchi bo'lib, butun tabiiy, tarixiy va ma'naviy

dunyoni bir jarayon shaklida, ya’ni uzlusiz harakat qilib, o’zgarib, qaytadan tuzilib, taraqqiy qilib turadigan holda ko’rsatdi va bu bilan taraqqiyotning ichki bog‘lanishini ochib berishga urindi. Natijada, insoniyat tarixi insoniyatning taraqqiyoti jarayoni sifatida maydonga chiqdi va endilikda tafakkurning vazifasi, uning izchil bosqichlarini kuzatib borish va zohiriylasodiflar orasida ichki qonuniyatlarini isbot etishdan iborat bo‘lib qoldi. Bu g‘oyalar Hegeldan olti asr avval O’rta Osiyolik olim **Aziziddin Nasafiy** tomonidan to‘la asoslab berilgan edi.

Hegelning taraqqiyot to‘g‘risidagi bu qarashi, dialektika haqida falsafiy ta’limotni yanada boyitdi. Hegel birinchi bo‘lib, dialektikaning barcha kategoriyalari va qonunlarini ta’riflab bergan.

Keyingi davrlarda fan va amaliyot rivoji natijasida dialektikada tabiat, jamiyat va tafakkur taraqqiyotining, ulardagi aloqadorlik va bog‘lanishlarning eng umumiy qonunlari haqidagi ta’limot sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shuningdek, fan, voqelikdagi narsa va hodisalarning fikriy in’ikoslari o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi prinsiplar o‘z maqomiga ega. Borliqni doimo o‘zgarish va rivojlanishda, ichki ziddiyatlar taqozosini bilan yuz beradigan, „o‘z harakati“da, deb qaraydigan bilish nazariyasi, har tomonlama boy, ziddiyatlarga to‘la tarixiy taraqqiyot haqidagi ta’limot sifatida maydonga chiqdi.

Dialektika bir butun borliqning eng umumiy aloqadorligi, o‘zgarishi va taraqqiyoti to‘g‘risidagi ta’limot sifatida, ham moddiy dunyoga, ham uning in’ikosi bo‘lgan inson bilish jarayoniga xosdir. Shunga ko‘ra, dialektika o‘z ichiga obyektiv va subyektiv dialektikani oladi. Bunda **moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning aloqadorlik va bog‘lanishlari, ularning harakati, o‘zgarish va rivojlanishlari obyektiv dialektikani tashkil etadi**. **Moddiy dunyoning inson miyasidagi in’ikosiga xos bo‘lgan bilish jarayonining dialektikasi subyektiv dialektika — obyektiv dialektikaning kishilar miyasidagi in’ikosidir**. Demak, obyektiv dialektika — bu narsalar, buyumlar dialektikasidir; subyektiv dialektika esa, obyektiv dialektikaning inson ongidagi in’ikosi, ya’ni tafakkur dialektikasidir.

Dialektika, avvalo, umumiy aloqadorlik va bog‘lanishlar haqidagi ta’limotdir. Borliqdagi barcha narsa va hodisalarni umumiy aloqadorlikda va o‘zaro bog‘lanishda olib qarash — borliq haqida dialektik fikr yuritishdir. Haqiqatan ham, borliqdagi hamma narsalar, hodisa va jarayonlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ular umumiy aloqadorlikda bir-birlariga ta’sir va aks ta’sir qilib turadilar, bir-birlarini taqozo qiladilar.

Dialektikaning o'zaro aloqadorlik prinsipi yalpi, umumiy xarakterga ega bo'lib: birinchidan, bu aloqadorlik bir butun borliqqa, ya'ni tabiat, jamiyat, inson, inson tafakkuri va bilishiga xosdir; ikkinchidan, bu aloqadorlik borliqning hamma ko'rinishlariga oid barcha narsa va hodisalarni, ularga xos hamma holatlarni, bir butun bilish jarayonini, xullas, moddiy va ma'naviy olamning hamma bog'lanishlarini o'z ichiga oladi.

Dunyoda boshqa narsalar, hodisalar va jarayonlar bilan tabiiy aloqadorlikda bo'limgan hech bir narsa, hodisa yo'q. Lekin biz o'z bilish jarayonimizda biron narsa yoki hodisani o'rganar ekanmiz, dastlab uni boshqa narsalar yoki hodisalarning umumiy bog'lanishlaridan ajratamiz. Natijada uning o'ziga xos tomonlari va xususiyatlarini ochib berish uchun boshqa narsalar va hodisalar bilan bo'lgan hamma aloqa va bog'lanishlarini, aloqadorliklarini aniqlab, bilib boramiz.

Narsa va hodisalarni bilish uchun, ularning barcha tomonlarini, aloqalarini va bog'lanishlarini birga olib o'rganmoq lozim. Biz, garchi, bunga hech qachon to'la-to'kis erisha olmasak ham, lekin har tomonlama o'rganish talabi bizni xatolardan, noto'g'ri xulosa chiqarishlardan saqlab qoladi. Shu asosdagina biz bu narsa yoki hodisaning bir butun tabiatini va mohiyatini to'g'ri bilib olishga erishamiz.

Borliqning muayyan sohalariga oid bu aloqadorliklarni turli fanlar o'rganadi. Bunda har bir fan o'z sohasidagi aloqadorliklar zanjirida o'rganilgan halqalarga tayangan holda hali ma'lum bo'limgan yangi jihatlarni ochib boradi. Bu jarayonda borliqni o'rganishning konkret sohalari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikning yangi bir turini o'rganuvchi yangi oraliq fanlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Masalan, biofizika, biokimyo, fizik kimyo, geofizika, matematik lingvistika, matematik mantiq va boshqalar shular jumlasidandir.

Borliqning ichki bog'lanishlari, rivojlanishining mohiyatini tushunishda sinergetikaning ham o'ziga xos o'rni va ahamiyati bor.

Sinergetikaning lug'aviy ma'nosi — birga ta'sir qilish, bir butun harakatda turli imkoniyatlar va energiya ko'rinishlarining birga-birga ta'sir ko'rsatishini bildiradi.

Sinergetika borliqning avval yetarli o'rganilmagan real munosabatlarini falsafiy tahlil qiluvchi yo'nalish sifatida paydo bo'ldi. Sinergetika dialektika qonunlarini taraqqiyotning yagona, universal qonunlari, deb hisoblamaydi. Sinergetikaning bosh tamoyili — uzluksizlik (evolutsiya), bosqichma-bosqich rivojlanish (koevolutsiya), muvozanatsizlik, beqarorlikning barqaror sifat kashf etishi kabi qonuniyatlarini sharhlab berishdan iborat.

Sinergetika asoschilaridan biri Prigojin fikricha, vaqtning, bir sistemaning evolutsion yo‘nalishi tashqaridan berilmay, balki fizik-kimyoviy elementlar darajasida o‘ziga xos ichki jarayon sifatida shakllanadi, o‘z-o‘zidan rivojlanish tasodiflar va beqarorlik asosida sodir bo‘ladi.

Sinergetikaning vazifasi, dastavval fizikaviy, kimyoviy, biologik hodisalarda, keyinchalik esa iqtisodiy, texnikaviy, ijtimoiy jarayonlardagi o‘z-o‘zini tashkil qilish, o‘z-o‘zini boshqarish, xaos (tartibsizlik) kabi holatlarning yo‘nalishini, qonuniyatlarini bilishga qaratilgan.

Bugungi kunda, sinergetika tarafdarlarining fikricha, dialektika ta’kidlagan evolutsiyasiz inqilob, inqilobsiz uzlusiz rivojlanish bo‘lmaydi, degan qarash eskirib qoldi. Chunki, evolutsiya borliqning umumiy qonuni sifatida, nafaqat insonlar bilan insonlar o‘rtasida, balki inson bilan tabiat o‘rtasidagi birlik, mushtaraklik, hamkorlikni ham ifodalaydi.

XX asr fani va tajribasi ijtimoiy-siyosiy inqilob jamiyat taraqqiyotining yagona yo‘li emasligini va eng xatarli yo‘l ekanini isbotladi. Bu yo‘l buzish, o‘ldirish, yo‘q qilishni nazariy jihatdan oqlaydi. Hayot uzlusiz tadrijiy taraqqiyot yo‘li, jamiyat rivojlanishi eskini buzmasdan, urush-o‘ldirishlarsiz ham amalga oshishi mumkin bo‘lgan jarayon ekanligini ko‘rsatdi. Shu ma’noda Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi so‘zлari juda ibratlidir: „*Katta sakrashlar, tubdan vayron qilish yo‘li bilan emas, balki bir bosqichdan ikkinchi bosqichga ketma-ket o‘tish, ya’ni evolutsiya tarzda ilgarilab borishni o‘zimiz uchun qat’yan tanlab oldik*“.

Bu katta metodologik ahamiyatga ega bo‘lgan fikrdir.

Sinergetika taraqqiyot jarayonida beqaror holat bilan barqaror holat, muvozanatsizlik bilan muvozanat o‘rtasidagi qonuniyatga tayanadi. Shu vaqtga qadar „beqarorlik“ tushunchasi salbiy ma’noda ishlatalilib kelingan va uning asl mohiyatiga e’tibor berilmagan. Bugungi fan esa, beqarorlikni borliqning muhim tomoni deb hisoblaydi.

Ma’lumki, barqarorlik — qonuniyat va sababiyat natijasidir. Uni oldindan bilish, boshqarish mumkin. Beqarorlikning mohiyatini tushunish uchun esa, unga teran va sinchkov nazar tashlash kerak. Beqarorlik — hodisalarning sababiy bog‘lanishlarining yangi imkoniyatidir.

Barqarorlik — determinlashgan dunyoni insonning to‘liq nazorat etishi va boshqarishiga imkon beradi. Agar dunyo beqarorligi sabablarini oldindan bilish mumkin emasligini, undagi

o'zgarishlar natijasi biz kutganimizdek bo'lmasligini anglasak, unga ehtiyotkorlik bilan, avaylab munosabatda bo'lishga majbur bo'lamiz.

Sinergetika — „beqarorlik“ tushunchasi va xaos — „tartibsizlik“ kategoriyasini falsafiy tahlil etadi. Har qanday jamiyat eski tizimdan yangi tizimga o'tar ekan, dastavval beqarorlik, xaos yuz beradi. Bu holatni o'zgarish jarayonida oldindan bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, mikrosotsial hodisalarda xaos — tartibsizlik, beqarorlik muhim ijobjiy o'rinn tutsa, makrosotsial hodisalarda, u buzuvchilik vazifasini bajaradi. Shuning uchun bunday sharoitda davlat tartib-intizom, qonun ustuvorligini talab qilsa, erkin bozor tartibsizlik, ya'ni narx-navoning erkinlashuvini taqozo etadi.

Sinergetika borliqdagi rivojlanishning ichki mohiyati, yo'nalishini bilish va boshqarish uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan yangi falsafiy uslubni ifodalovchi g'oyadir. Sinergetika dialektikani inkor etmaydi, balki uni to'ldiradi. Bizning borliqni to'laroq, chuqurroq tushunishimizga imkon beradi.

Umuman, borliq bepoyon aloqadorliklar va bog'lanishlar majmuyidir. *Dialektikada bunday aloqadorliklarning uch turi mavjud:* 1) universal; 2) strukturaviy; 3) deterministik aloqadorliklar. Bu jihat bilan dialektika konkret fanlardan farq qiladi.

Dialektika o'rganadigan borliqning bu eng umumiylar aloqadorliklari va bog'lanishlari falsafada ma'lum tushunchalar tizimida ifodalanadi. Ular falsafa tarixida dialektika kategoriyalari, deb ataladi.

5-§. Borliqdagi bog'lanish va aloqadorlikni ifodalovchi falsafiy kategoriyalar

a) Yakkalik, xususiylik va umumiylar.

Yakkalik, xususiylik va umumiylar borliqdagi narsa va hodisalarning har biriga xos alohida, ma'lum guruhiiga xos maxsus va hammasiga xos umumiylar tomonlari, xususiyatlari hamda ular o'rtasidagi bog'lanish va aloqadorlikni ifodalaydi.

Alohida narsa va hodisagagina xos bo'lib, bu narsa va hodisani boshqa narsa va hodisadan farq qiluvchi, takrorlanmaydigan, individual belgi va xususiyatlarni birligi yakkalik deyiladi. Yakkalik alohida narsa va hodisalarni ham, ulardagisi alohida tomon, belgi va xossalarni ham aks ettiradi.

Ko'pchilik narsa va hodisalarga (yoki ularning turlariga hamda tomonlariga) xos bo'lgan, o'zaro o'xshash, bir xil, takrorlanuvchi belgi va xususiyatlarni birligini aks ettiruvchi tushuncha umumiylar

deb ataladi. Umumiylit borliqdagi ko‘pchilik narsa va hodisalarga (yoki ularning tomonlariga) xos bo‘lgan umumiylit belgi va xususiyatlarning fikriy in’ikosidir. Umumiylit bir sinf yoki bir turga kirgan narsa va hodisalarning hammasiga oid belgi yoki xususiyatni ifodalaydi. Chunki, borliqda har bir narsa va hodisa boshqa narsa va hodisalar bilan, albatta, biror umumiylit tomonga, xossaga, belgi va xususiyatga egadir.

Narsa va hodisalarga xos maxsus tomonlar, xususiyatlar birligi „xususiylik“ kategoriyasida ifodalanadi. „Xususiylik“ kategoriyasi narsa va hodisalardagi alohidalik va umumiylit kabi tomonlar o‘rtasidagi alohidalikka nisbatan umumiylit, umumiylitkka nisbatan alohida bo‘lgan tomonlar, belgilar, xususiyatlar va aloqadorliklarni ifodalaydi.

Bir butun borliqdagi hamma narsa va hodisalarga xos bo‘lgan tomonlar, belgi va xususiyatlar eng umumiylitdir. Eng umumiylit hajm jihatdan boshqa kengaytirib bo‘lmaydigan universal tushunchadir. Masalan: *Axmad* → *odam* → *tirik mayjudot, nihoyat* → → *materiya* → *borliq*. „Borliq“ tushunchasi bu yerda eng umumiylitdir.

Yakkalik, xususiylik va umumiylit bir-biri bilan o‘zaro dialektik munosabatda bo‘ladi. Binobarin, yakkalik bilan umumiylit xususiylik orqali bog‘langan bo‘lib, ular o‘zaro aloqadorlikdadir. Xususiylik yakkaliklardan tashkil topib, umumiylitni alohidalik bilan bog‘laydi, umumiylit esa, yakkaliklardan ajralgan holda bo‘lmaydi, balki yakkaliklarning umumiylit xususiyatlari, belgilari, tomonlari, bog‘lanishlari shaklida har bir yakkalikning o‘zida mavjud bo‘ladi. Demak, har bir konkret narsa va hodisa yakkalik, xususiylik va umumiylitning birligidan iboratdir.

Yakkalik, xususiylik va umumiylit dialektikasi shundan iboratki, ma’lum sharoitda yakkalik xususiylikka, xususiylik umumiylitka va aksincha, ular bir-biriga o‘tishi mumkin. Obyektiv olamda har qanday yangilik dastlab yakkalik sifatida paydo bo‘lib, so‘ngra u o‘sib, rivojlanib xususiylik va umumiylit xarakterini kasb etadi.

Lekin, bundan har qanday yakkalik xususiylikka, xususiylik esa umumiylitka o‘taverar ekan, degan fikr yuritmaslik kerak. Bunday bo‘lishi uchun har bir yakkalik, xususiylik va umumiylit taraqqiyotning asosiy tendensiyasiga mos kelishi shart. Yakkalik, xususiylik va umumiylitlarning o‘zaro bog‘lanishlarini dialektik nuqtayi nazardan tushunish obyektiv voqelikni to‘g‘ri bilish uchun juda muhimdir. Chunki, insonning borliqni bilishi ham

yakkalikdan xususiylikka va undan umumiylitka borishdan iboratdir. Bu umumiylitni biz narsa va hodisalarni ularda ifodalanuvchi yakkaliklar va xususiyliklarni bilish orqali anglab yetamiz.

b) Mohiyat va hodisa.

Mohiyat — narsa va hodisalarning ichki eng muhim o'zaro bog'lanishlari, shu bog'lanishlarning qonuniy aloqadorliklarini ifodalaydi. Hodisa esa shu narsa va jarayonlarni tashkil etuvchi tomonlar, xususiyatlar va bog'lanishlarning namoyon bo'lish shakli — mohiyatning ifodalanishidir. Masalan, hamma tirik mavjudotlarning mohiyati, ulardag'i modda almashuv jarayoni bo'lmasa, tiriklik jarayoni — hayot ham bo'lmaydi. Modda almashish jarayoni butun hayot jarayonining assosiy mohiyatini tashkil etadi. Lekin, bu modda almashuv jarayoni har bir tirik organizmda juda xilma-xil ko'rinishlarda sodir bo'ladi. Bu ko'rinishlar — hodisalardir..

Mohiyat va hodisa o'zaro umumiylar va o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Bu xususiyatlar quyidagilardan iboratdir:

1. Mohiyat — ichki aloqalarni, hodisa esa tashqi aloqalarni ifodalaydi. Masalan, inson daraxtning shitirlashini, qushlarning sayrashini eshitadi. Bu hodisalarning sababi turlicha bo'lsa-da, ularning mohiyati bittadir, ya'ni havo zarralarining tebranishidir. Biroq, inson buni birdan payqay olmaydi. Dastlab, u hodisa sifatida yuz bergen narsani fahmlaydi, so'ng uning mohiyatini bila boshlaydi.

Mohiyat — narsalarning ichki aloqadorligi bo'lgani sababli, u chuqur tahlil qilish va izlanish natijasida, amaliyot jarayonida bilib boriladi. Hodisa esa aksincha, hissiy organlar orqali bevosita idrok etiladi. U hissiy organlarimizga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etib, u yoki bu sezgi va idroklarimizni hosil qiladi.

2. Mohiyat bilan hodisa o'zaro birlikda bo'lishi bilan, ular bir-biriga qarama-qarshi ham, shu sababli ular hech vaqt bir-biriga aynan mos kelmaydi. Ularning qarama-qarshiligi borliqdagi narsalarning o'z tabiatidan kelib chiqadi. Mohiyat hodisada yashirin bo'ladi va uni bevosita hissiy organlar orqali bilish mumkin emas. Hodisa — narsalarning namoyon bo'lish shakli sifatida mohiyat bilan hech vaqt mos kelmaydi. Agar narsalarning namoyon bo'lish shakli bo'lgan hodisa mohiyat bilan bevosita mos kelganda edi u holda har qanday fan ortiqcha bir narsa bo'lib qolgan bo'lur edi. Fanning vazifasi — borliqning ko'pdan-ko'p hodisalari, ularning tashqi tomonlari va belgilari ostida yashirinib yotgan, ularning asosini tashkil qiladigan mohiyatlarni izlab topishdan iborat.

3. Mohiyat nisbatan doimiyligi va barqarorligi bilan hodisadan farq qiladi. Mohiyat va hodisa munosabatini daryoning yuzidagi ko‘piklar va uning ostidagi suvning tez oqimiga o‘xshatish mumkin. Bundagi daryo suvi harakatining yuzidagi ko‘piklar hodisa bo‘lsa, ularning ostidagi suvning tez oqimlari mohiyatdir. Lekin uning ustidagi ko‘piklar ham mohiyatning o‘ziga xos ifodasidir.

4. Mohiyatning nisbiy doimiyligi va barqarorligini, hodisaning o‘zgaruvchanligini mutlaqlashtirmaslik lozim. Chunki, mohiyat ham, hodisa ham o‘zgarib boradi. Lekin, mohiyat hodisaga nisbatan sekin o‘zgaradi, u ma’lum barqarorlikka ega.

Mohiyat va hodisa o‘zaro umumiyligi tomonlarga ega. Masalan: a) har qanday mohiyat hodisada namoyon bo‘ladi, ya’ni hodisa mohiyatning u yoki bu holda ko‘rinishidir; b) mohiyat va hodisa obyektiv xarakterga ega bo‘lib, ular inson ongiga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjuddir; d) mohiyat ham, hodisa ham doimo o‘zgarishda va rivojlanishda bo‘ladi. Biroq, mohiyat va hodisa ziddiyatlari xarakterga ega bo‘lishi bilan birga, mohiyatning o‘zi ham ziddiyatlidir. Dialektika buyumlarning mohiyatidagi shu ziddiyatlarni o‘rganadi.

Mohiyat va hodisa bog‘lanishlarini har tomonlama o‘rganish fan va amaliyotda ham muhim o‘rin tutadi. Bunda hodisani mohiyatdan ajrata bilish muhim ahamiyatga ega. Mohiyatni hodisadan ajrata bilmaslik, nazariya va amaliyotda jiddiy xatolarga olib keladi.

d) Butun va qism.

Ma’lumki, borliqdagi har bir narsa, hodisa, jarayon bizning ko‘z oldimizda bir butun, yaxlitlik sifatida gavdalanadi, ular qismlardan, bo‘laklardan komponentlardan, elementlardan iboratligini ko‘ramiz. Bu qismlar bo‘laklar, komponentlar, elementlar o‘zaro muayyan qonuniyatlar orqali birikib, ma’lum tuzilishdagi bir butun narsani, hodisa yoki jarayonni tashkil qiladilar. Bu narsa va hodisalarning ma’lum bir guruhi o‘zaro birikib, biron-bir sistemani hosil qiladi. Bu esa ma’lum strukturaga ega bo‘lib, muayyan elementlardan iborat bo‘ladi. Bundagi butun, qism, sistema, struktura, elementlar o‘zaro dialektik birlikda, bog‘lanish va aloqadorlikda mavjud bo‘ladi.

Xo‘sh, butun va qism deb nimaga aytildi?

Butun — o‘zaro dialektik aloqadorlikda bo‘lgan qismlar, bo‘laklar, tomonlar, elementlar, komponentlarning uzviy birligidan iborat bo‘lgan alohida narsa, hodisa, jarayondir. Masalan, bizni o‘rab turgan olam bir butundir.

Qism esa, shu butunni tashkil qilgan uning tarkibidagi ma'lum bo'lak, komponent, elementdir. Masalan, bir butun olamning bir qismi tabiatdir.

Borliqdagi narsa va hodisalarga xos bo'lgan butun va qismlarning o'zaro qonuniyatli aloqadorligi „Butun va qism“ kategoriyalarda aks etadi va ifodalanadi. Olamdagи har bir predmet (hodisa, buyum, jarayon) ana shu butun va qismlarning dialektik birligidan iborat. Masalan, leksikologiyaga oid „ishchilar“ so'zini olsak. Bu so'z: „ish“, „chi“, „lar“ kabi ma'noli qismlardan iborat. Bu qismlar o'zaro birikib, bir butun „ishchilar“ so'zini hosil qiladi.

Butun va qism o'zaro dialektik aloqadorlikdadir. Butunning umumiyl tabiatini uni tashkil qiluvchi qismlarning umumiyl xususiyatlaridan kelib chiqib, butun tarkibidagi har bir qism butunning o'ziga xos xususiyatini, ma'lum darajada ifodalaydi. Lekin, butunni tashkil qilgan bu qismlar butun tarkibida har biri alohida-alohida emas, balki butunning bo'laklari sifatida ko'rindi. Unda butunga xos ma'lum xususiyat qismlarga ham xos bo'lishi mumkin. Shuningdek, butun tarkibidagi qismlar butun bilan umumiyl birlikka ega bo'lishidan tashqari ular bilan o'zaro ziddiyatda, qarama-qarshilikda bo'lishi ham mumkin. Butunsiz qismlar, qismlarsiz butun yo'q va bo'lishi ham mumkin emas, ular faqat o'zaro aloqadorlikda, birlikda, birqalikda, bir-birini taqozo qilgan holda mavjud bo'ladi. Bunda butunni tashkil qiluvchi qismlar ham o'zaro bir-birlari bilan ta'sir va aks ta'sir qilib turishadi. Butun va qismlarning bu o'zaro ta'sir va aks ta'sir qilib turishlari natijasida butun va qismlarning o'zgarishi va rivojlanishi sodir bo'ladi. Bundan tashqari, har bir butun va qismlar obyektiv reallikdagi boshqa butunlik va qismlar bilan ham muayyan aloqadorlikda va bog'lanishda bo'ladi.

Butun bilan qism aloqadorligining uch tipini farq qilish mumkin:

1. Butunning biror qismi uning tarkibidan chiqarib tashlansa, yoki bu qism yana qaytadan butun tarkibiga kiritilsa, bunda butun sifat jihatdan o'zgarmaydi.

2. Butunning qismlaridan biri butun tarkibidan chiqarilishi yoki bu qism qayta butun tarkibiga kiritilishi bilan butun butunlay yoki qisman o'zgaradi.

3. Butunning qismlari o'zgarishi bilan butun ham yoki butunning o'zgarishi bilan uning qismlari ham o'zgaradi.

„Butun“ va „qism“ kategoriyalari inson tomonidan borliqni bilish va o'zlashtirishning ma'lum shakllari sifatida dunyoning birligi muammosini ilmiy hal qilishda muhim rol o'ynagan.

e) Sistema, struktura va element.

Borliqdagi narsa va hodisalar sistema, struktura va element aloqadorligiga ham ega bo'ladi. Chunki ular ma'lum sistemalar tarzida mayjud bo'lib, o'z tuzilishi va tarkibiga ko'ra, muayyan strukturaga ega hamda qator elementlardan tashkil topgan bo'ladi.

Sistema — borliqdagi o'zaro bog'liq, muayyan tartibdagi bir-biriga ta'sir va aks ta'sir qilib turuvchi narsalar, hodisalar va jarayonlarning qonuniyatli birligidir.

Struktura esa shu sistemanini tashkil etgan narsalar, hodisalar va jarayonlarning tartibi, tuzilishi, tarkibi, joylashishi va ifodalishidir. Struktura har bir narsa yoki hodisaning, har bir sistemaning ajralmas tub xususiyati bo'lib, u muayyan elementlardan tashkil topadi.

Element sistema strukturasini tashkil qilgan nisbiy mustaqillikka ega bo'lgan tuzilmadir. Har bir sistema o'z strukturasiga ko'ra, bir qancha o'zaro chambarchas bog'liq va aloqadorlikda bo'lgan elementlardan iborat bo'ladi.

„Sistema“, „struktura“ va „element“ kategoriyalari narsa va hodisalarga xos bo'lgan ana shu moddiy sistemalar, strukturalar va elementlarning aqliy in'ikoslardir.

Odatda, har bir sistema o'zining tuzilishiga ko'ra, alohida sistemachalarga ajralishi, nisbiy mustaqil elementlarga bo'linishi, ularning o'zaro uzviy bog'liqligi, bir butunlikni tashkil etishi kabi xususiyatlarga egadir. Bunda sistemalar iyerarxiyasi shundaki, doimo bir qancha sistemalar birikib, yangi, hajm jihatidan kengroq sistemanini hosil qila boradi. Bu holat yanada yuqorilashib borib, natijada, bir-biriga kiruvchi, bir-biri bilan bog'liq, biriga nisbatan ikkinchisi kengroq bo'lib boradigan sistemalarning yuqori birligi — bir butun borliqni qaror toptiradi.

Umuman, har bir sistemaning tashkil topishi va mavjud bo'lishida uning strukturasi muhim rol o'ynaydi. Ayni shu struktura sistemadagi o'zaro ta'sir va aks ta'sir qiluvchi moddiy tarkiblarni elementlarga aylantiradi.

Dialektika uchun „sistema“, „struktura“ va „element“ kategoriyalarining o'zaro aloqadorligini, bir-biriga o'tishlarini va har biriga xos alohida xususiyatlarini ko'rsatish, ularning o'zaro umumiyligi va bir-biridan farqlarini aniqlash, ayniqsa, muhimdir.

Struktura narsa va hodisalardagi, ulardan tashkil topgan sistemalardagi o'zaro bog'liq quyidagi uch ma'noni ifodalaydi:

1. Struktura narsa yoki hodisaning bir xil yoki har xil jinsliligini, uning muayyan, nisbiy mustaqil qismlarga, elementlarga, komponentlarga bo'linishini ifodalaydi.

2. Struktura narsa yoki hodisani tashkil etuvchi qismlar, bo'laklar, komponentlar va elementlarning o'zaro bir-biriga ta'sir va aks ta'sirlarini, ular o'rtasidagi aloqadorlik va bog'lanishlarni, bu bog'lanishlarga oid qonuniyatlarni ifodalaydi.

3. Struktura, nihoyat, narsa yoki hodisaning qanday elementlardan tashkil topganligidan qat'iy nazar, bu elementlarning organik birligini, ularning yaxlitligi va bir butunligini ifodalaydi. Shuning uchun strukturani bilish: birinchidan, uning elementlarini aniqlash; ikkinchidan, mazkur elementlarning o'zaro aloqadorliklarini aniqlash; nihoyat, uchinchidan, bu elementlar bir butunligining o'ziga xos tabiatini tushunib olishdir.

Demak, „struktura“ kategoriyasi butun bir sistemani tashkil etuvchi elementlar aloqadorligining o'ziga xos usullarini va butunlik doirasidagi elementlarning o'zaro munosabatlarni ifodalaydi. Bunda har bir element strukturaning nisbiy mustaqil komponenti bo'lishi bilan birga, o'zaro muayyan qonuniyatlar asosida birlashib, bir butun sistemani vujudga keltiradi.

Keyingi vaqtarda, tabiatshunoslik va ijtimoiy fanlar sohalarida tadqiqot obyektini chuqurroq o'rganish maqsadida „sistemali yondashish“, „strukturaviy analiz“ usullari ishlab chiqildi. Bu usullarning qo'llanilishi, ularning samarador va istiqbolli ekanligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, „sistemali yondashish“ usuli o'zining umumiyligi, o'rganilayotgan predmet va hodisalardagi barcha aloqadorlik va bog'lanishlarni hisobga olishi bilan dialektik usullarning tarkibiy qismini tashkil etadi.

f) **Mazmun va shakl.**

Mazmun va shakl ham kishilarning borliqni bilishida katta rol o'ynaydi.

Xo'sh, mazmun va shakl nima?

Mazmun — narsa yoki hodisani aynan shu narsa yoki shu hodisa sifatida ifodalovchi jarayonlar, muhim elementlar o'zgarishlarining majmuyidan iborat.

Shakl — mazmunning mavjudlik usulini, uning strukturasini, ya'ni tuzilishini ifodalovchi, narsa va hodisalarning ichki va tashqi tomonlarining birligidan iborat. Mazmunni tashkil etuvchi xususiyatlar, ziddiyatlar, elementlar shaksiz ifodalanmaganidek,

ularning mavjudlik usuli, strukturası, tuzilishi ham mazmunsız namoyon bo‘la olmaydi. Demak, mazmun va shakl muayyan bir narsa yoki hodisaning bir-biri bilan dialektik aloqador bo‘lgan ikki tomonidir.

Obyektiv olamda narsa va hodisaga oid bo‘lmagan sof mazmun ham, sof shakl ham yo‘q. Aksincha, faqat muayyan mazmun va shakl birligiga ega bo‘lgan narsalar va hodisalargina mavjuddir. Bunda hamisha muayyan mazmun, muayyan shaklda ifodalaniб, muayyan shakl muayyan mazmunga ega bo‘ladi.

Borliqdagi har bir narsa va hodisa mazmun va shakl birligi tufayligina mayjud bo‘lsa-da, ular shu birlikni vujudga keltirishda turlicha rol o‘ynaydi. Shakl esa, aksincha, mazmunni ifodalaydi. Qisqa qilib aytganda, mazmun shaklni belgilaydi.

g) Sabab va oqibat.

Narsa va hodisalar o‘zlarining paydo bo‘lishlari, shakllanish va rivojlanishlarida bir-birlari bilan aloqadorlikda va sababiy bog‘lanishlarda bo‘lishib, ularning biri sabab, ikkinchisi shu sabab tufayli kelib chiqqan oqibat bo‘ladi. Ularning o‘zaro bunday aloqadorligi sababiy bog‘lanish deyiladi. Bu sababiy bog‘lanishda har bir narsa yoki hodisa ikkinchi bir narsa yoki hodisani vujudga keltiradi.

Xo‘sh, sabab va oqibat nima?

Bir hodisadan oldin kelib, uni vujudga keltirgan hodisa yoki hodisalar guruhi sabab deb ataladi. Sababning bevosita yoki bavosita ta’siri bilan yuz beradigan hodisa oqibat deyiladi. Masalan, qo‘llarimizni bir-biriga ishqalaganimizda qo‘llarimiz qiziydi. Bu yerda ikki hodisa: ishqalanish va issiqlikning guvohi bo‘lib turibmiz. Lekin, bunda ishqalanish issiqliknini keltirib chiqarmoqda, ya’ni ishqalanish issiqlikning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Demak, ishqalanish — *sabab*, issiqlik — *oqibat* bo‘lmoqda.

Odatda, borliqdagi har bir hodisaning paydo bo‘lishida, rivojlanishida o‘z sababi bo‘ladi va, ayni vaqtida, muayyan oqibatni namoyon qiladi. O‘z navbatida, bu oqibat boshqa hodisalarning kelib chiqishi va rivojlanishiga sabab bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ayrim hodisalarni tushunmoq uchun biz ularni umumiy aloqadorlikdan ayirib olishimiz hamda alohida-alohida tekshirishimiz lozim. Bunday holda bir-biri bilan almaschinib turuvchi harakatlardan biri sabab tarzida, boshqasi oqibat tarzida ko‘z oldimizda namoyon bo‘ladi.

Sabab bilan oqibatning o‘zaro aloqadorligi sababiyat deb ataladi. Tabiat va jamiyatdagi sabab-oqibat bog‘lanishlarning kishilar fikridagi ifodasi „sababiyat“ kategoriyasining paydo bo‘lishiga olib kelgan. **Sababiyat hodisalar o‘rtasidagi shunday ichki aloqadorlikki, bunda har doim bir hodisa mavjud bo‘lar ekan, uning ketidan muqarrar ravishda ikkinchisi sodir bo‘ladi.**

Sababiyat borliqda umumiy, har tomonlama xarakterga ega. Sababsiz oqibatlar yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas, hamma narsaning o‘z sababi bor. „Shamol bo‘lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi“, deydi xalqimiz. Aniqroq qilib aytganda, kishilarda bir hodisa boshqa hodisaga sabab bo‘ladi, degan tasavvur ularning amaliyoti asosida kelib chiqqan.

Sabab va oqibat vaqt jihatdan ketma-ket kelib, bunda sabab oqibatdan oldin, oqibat sababdan keyin keladi, ya’ni sabab oqibatni keltirib chiqaradi. Lekin, borliqda ketma-ket keluvchi har qanday predmetlar va hodisalar bir-birlari bilan sababiy bog‘lanishda bo‘lavermaydi. Masalan, qishdan so‘ng bahor, bahordan so‘ng yoz, yozdan so‘ng kuzning kelishi sabab va oqibat bog‘lanishi emas, ular bir-birlarini keltirib chiqarishmaydi. Bu hodisalarning ro‘y berishi Yerning Quyosh atrofida o‘z holatini o‘zgartirgan holda aylanishi sababli sodir bo‘ladi.

Odatda, sababni bahonadan ham farq qilish lozim. Bahona bevosita oqibatdan oldin sodir bo‘ladigan biror hodisa yoki voqeа bo‘lib, u o‘z mohiyati bilan oqibat sifatida ro‘y bergen hodisaning haqiqiy va asosiy sababi bo‘la olmaydi. Bunda bahona sababning oqibatini keltirib chiqarishda turtki bo‘lishi, oqibatning sodir bo‘lish jarayonini tezlatuvchi omil rolini o‘ynashi mumkin. Masalan, bunga Rossiya Federatsiyasida 1991-yil 19—21-avgustdagи davlat to‘ntarishi qilishga uringan Favqulodda davlat komitetining faoliyatini misol qilib keltirish mumkin. Bu o‘rinda sobiq Ittifoq yemirilishi, uning o‘rniga yangi mustaqil davlatlar paydo bo‘lishining sababları butunlay boshqa narsalar edi.

Borliqdagi sababiy bog‘lanishlarning murakkab zanjirida zaruriy va tasodifiy aloqadorliklar ham muhim rol o‘ynaydi.

Bunday aloqadorliklarni „zaruriyat“ va „tasodif“ kategoriyalari ifodalaydi.

h) Zaruriyat va tasodif.

Narsa va hodisalarning mohiyatidan, ularning ichki, muhim bog‘lanishlaridan, muayyan sharoitda kelib chiqishi, qat’iy ravishda muqarrar bo‘lgan voqeа yoki hodisa zaruriyat deb ataladi. Narsa

va hodisalarning mohiyati bilan bog‘liq bo‘lmas, tashqi ta’sir va ikkinchi darajali omillar bilan bog‘liq holda, muayyan sharoitda aynan shu holatda yuz berishi ham, yuz bermasligi ham mumkin bo‘lgan hodisa yoki voqeа tasodif deyiladi.

Zaruriyat va tasodif o‘zaro bog‘liq bo‘lgan, biri ikkinchisisiz mavjud bo‘lmaydigan, borliqdagi narsa va hodisalarning o‘zgarishiga, rivojlanishiga oid aloqadorlikning ikki tomonidir. Ular bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq va, ayni vaqtida, bir-biridan farq ham qiladi. Bu farq, avvalo, ularning o‘ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. *Zaruriyatning bunday o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilar:* 1) zaruriyatning sababi o‘zida bo‘ladi, u mazkur narsa yoki hodisaning ichki tabiatidan kelib chiqadi va mohiyat bilan bog‘liq; 2) zaruriyat narsa va hodisaning muhim, takrorlanib turadigan ichki aloqadorliklarining natijasidir; 3) zaruriyat — narsa va hodisaning oldingi o‘zgarish va rivojlanishlari orqali qonuniy taylorlangan bo‘ladi; 4) zaruriyat muqarrarlik xususiyatiga ega bo‘lib, albatta yuz beradi; 5) zaruriyat umumiy xarakterga ega; 6) nihoyat, zaruriyat doimo qonuniyat bilan bog‘liq bo‘ladi.

Tasodif zaruriyatdan farqli o‘laroq, muayyan sharoitda aynan kutilgan tarzda ham, boshqacha tarzda ham yuz berishi mumkin. Tasodif, ayni vaqtida narsa yoki hodisaning mohiyatidan kelib chiqmaydi, u beqaror va vaqtinchadir. Ammo tasodif ham sababsiz yuz bermaydi. Uning sababi, odatda, narsa yoki hodisaning o‘zida bo‘lmay, balki undan tashqarida — tashqi shart-sharoitlarda bo‘ladi. *Tasodif ham o‘ziga xos quyidagi xususiyatlar bilan xarakterlanadi:* 1) tasodifning sababi o‘zida emas, balki boshqa narsa va hodisadadir, u ichki sabab asosida emas, tashqi sabablardan kelib chiqadi; 2) tasodif borliqdagi nomuhim bog‘lanishlardan kelib chiqadi; 3) u narsa yoki hodisaning butun rivojlanish davomida emas, balki turli jarayonlarning ta’sirida sodir bo‘ladi; 4) tasodif narsa va hodisalar rivojlanishining yo‘nalishini belgilab bermaydi, shunga ko‘ra u muqarrar emas; 5) tasodif umumiy emas balki individual xarakterga ega; 6) tasodif, nihoyat, qonun bilan bog‘liq emas.

Umuman, zaruriyat va tasodif borliqdagi narsalar, hodisalar aloqadorligining turli shakllari sifatida mavjud bo‘lib, ular obyektivdir, ya’ni ularning mavjudligi va amal qilishi inson xohishiga, irodasiga bog‘liq emas.

Borliqdagi narsa va hodisalarning hozir qanday ekanligi, kela-jakda qanday bo‘lishini biz „imkoniyat“ va „voqelik“ kategoriyalarisiz tushuna olmaymiz.

i) Imkoniyat va voqelik.

Imkoniyat va voqelik narsa va hodisalarning o‘zgarishi, rivojlanishi jarayonidagi ikki davrni, holatni, ularning o‘zaro munosabatini ifodalovchi kategoriyalardir.

Voqelik — hozir real mavjud bo‘lib turgan narsa va hodisalardir. Lekin, bu hodisalar rivojlanish jarayonida hozirgi holatda bo‘lmay, balki dastlab imkoniyat holatida bo‘lib, ular o‘zlarining ma’lum kelib chiqish davriga, vaqtiga, tarixiga ega. Voqelik paydo bo‘lishidan oldin imkoniyat shaklida mavjud bo‘ladi.

Imkoniyat — bu voqelikning kurtak holdagi ko‘rinishidir, u yuzaga chiqmagan voqelikdir. Shu bilan birga, imkoniyat voqelikni keltirib chiqaruvchi, rivojlanishning obyektiv va subyektiv shart-sharoitlari tarzida ham namoyon bo‘ladi. Ya’ni, imkoniyat obyektiv qonuniyatlardan kelib chiqadi, lekin ular turli subyektlar tomonidan yaratilishi ham mumkin.

„Imkoniyat“ va „voqelik“ kategoriyalarini, ularning o‘zaro dialektikasini chuqur bilib olish, kishilarning amaliy faoliyatida, ilmiy-tekshirish ishlarida katta ahamiyatga ega.

„Imkoniyat“ va „voqelik“ kategoriyalarining mazmuni ongdan tashqaridagi obyektiv olamdan olinadi. Bu kategoriylar bir butun moddiy yoki ruhiy jarayonning ikki tomonini aks ettiruvchi o‘zaro dialektik munosabatdadirlar. Shuning uchun imkoniyat va voqelikni bir-biridan farq qilish lozim, chunki ularni aralashtirib yuborish nazariyaning rolini inkor etishga, insonning tabiat va jamiyatni o‘zgartiruvchi faoliyatini tushunmaslikka, amaliyotning ahamiyatini yo‘qqa chiqarishga, yo‘q narsani bor, deb bilishga, yangining kurash jarayonida eski ustidan g‘alaba qilishini ko‘rmaslikka olib keladi.

Jamiyatdagi imkoniyatlar yangi — endi vujudga kelayotgan, rivojlanayotgan va eski — umrini tugatayotgan real kuchlar sifatida progressiv va konservativ bo‘lishi mumkin.

Eskilikni ifodalovchi imkoniyat, rivojlanish jarayonida voqe-likka aylanib qolishi ham mumkin, lekin bu harakatning ichki qonuniyatidan, uning tub xarakteridan kelib chiqmaydi. Shuning uchun eskilikni ifodalovchi imkoniyatning voqe bo‘lishi vaqtinchadir.

Imkoniyat voqelikka birdan aylanmaydi. U eski voqelik ichida, avvalo, kurtak shaklida mavjud bo‘lib, so‘ng rivojlanib borib, tobora reallasha boradi va ma’lum davrda, ma’lum shart-sharoit tufayli voqelikka aylanadi. Imkoniyat reallasha borgan sari uning mavjud

eski voqelik bilan kurashi ham keskinlashib boradi. Shunga ko'ra, imkoniyatni **formal, abstrakt va real imkoniyatlarga** ajratib o'r ganiladi. Quruq, fikriy izchillik jihatidangina to'g'ri bo'lgan, lekin real asosga ega bo'lman imkoniyat formal imkoniyatdir. Formal imkoniyat obyektiv rivojlanish qonuniyatlaridan kelib chiqmaydi. Shuning uchun ham, u hech qachon voqelikka aylanmaydi.

Amalga oshishi uchun hali shart-sharoitlar to'liq yetilmagan, lekin amalga oshishi qonuniy bo'lgan, narsa va hodisaning o'zgarish va rivojlanish mantiqidan kelib chiquvchi imkoniyat abstrakt imkoniyat deyiladi. Abstrakt imkoniyat rivojlanish jarayonida ma'lum obyektiv va subyektiv shart-sharoitlar yetilganda real imkoniyatga aylanadi.

Real imkoniyat — rivojlanishning asosiy tendensiyasini ifodalovchi hozirgi sharoitda uning ichki mohiyatidan kelib chiquvchi imkoniyatdir. Real imkoniyat konkret, ayni vaqtida amalga oshishi mumkin bo'lgan imkoniyatdir.

Ijtimoiy taraqqiyotda imkoniyatning voqelikka aylanishida obyektiv shart-sharoit hal qiluvchi rol o'ynaydi. Obyektiv shart-sharoitlar — inson ongidan tashqarida mavjud bo'lgan shart-sharoitlardir. Biroq, jamiyatdagi real imkoniyatlarni voqelikka aylantirishda ongli faoliyatning roli ham g'oyat kattadir. Buning ma'nosi shuki, jamiyat imkoniyatlarining voqelikka aylanishida subyektiv omil muhim ahamiyatga ega. Subyektiv omil — bu xalq ommasi, uning ongliligi va faol amaliy faoliyatidan iborat hodisa.

Umuman, dialektikada yuqorida deterministik aloqadorliklarni ifodalarydigan kategoriyalar o'zaro bir-birlari bilangina emas, balki boshqa barcha kategoriyalar bilan ham chambarchas bog'liqlikda o'r ganishni talab qiladi.

6-§. Borliqdagi harakat va rivojlanishning mohiyati, asosiy qonunlari

Bizni qurshab turgan barcha narsa va hodisalar: galaktikalardan tortib yulduzlargacha, yulduzlardan tortib Yer va Quyoshgacha, Yerning o'zidan tortib undagi turli-tuman moddalar, o'simliklar va hayvonot dunyosigacha, kishilik jamiyatidan tortib to inson va uning tafakkurigacha — hamma-hammasi doimo harakat, o'zgarish va rivojlanishdadir. Butun borliqda sodir bo'ladigan harakat, o'zgarish va rivojlanish umumiylar xarakterga ega. Kundalik hayotda „harakat“ deganda, odatda, narsa va hodisalarning oddiy

o‘rin almashuvi tushuniladi. Bunda „o‘zgarish“ tushunchasi hajm jihatdan „harakat“ tushunchasiga kiradi. Chunki, har qanday harakat o‘zgarish emas. O‘zgarish — narsa va hodisalarning bir holatdan ikkinchi holatga, bir ko‘rinishdan boshqa ko‘rinishga o‘tishidir. Biroq, har qanday o‘zgarish rivojlanish bo‘lmasa ham, o‘z ichiga rivojlanishni ham oladi.

Rivojlanish — progressdan iborat o‘zgarish bo‘lib, keng ma’noda quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga qarab ilgarilab boruvchi harakatdir.

Umuman, biz „rivojlanish“ atamasini juda ko‘p ishlatalamiz, u bizga tushunarlidek tuyuladi. Aslida esa, bu tushuncha ifodalagan jarayon, biz o‘ylagandek, unchalik sodda emas. „Rivojlanish“ tushunchasi ko‘p hollarda olg‘a qarab borishning sinonimi sifatida „progress“ tushunchasiga tenglashtiriladi. Bugungi kunda insoniyat jamiyatining rivojlanishi, unda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar rivojlanishning murakkab jarayon ekanligidan dalolat bermoqda.

Maxsus fanlar sohalariga oid bunday rivojlanishning nazarialiari, ularning umumiy jihatlari falsafaning taraqqiyot nazariyasida ifodalanadi. Falsafaning taraqqiyot nazariyasi esa, butun borliqning harakati, o‘zgarishi va rivojlanish qonunlari va prinsiplarini o‘z ichiga olgan ta’limotdir. Taraqqiyot nazariyasi borliqdagi harakat, o‘zgarish, o‘sish va rivojlanishning bosqichlari, sabablari va asosiy yo‘nalishini bir-biri bilan bog‘langan jarayon sifatida o‘rganadi.

Borliqning rivojlanishi miqdor va sifat o‘zgarishlarining, qarama-qarshiliklar kurashi va birligi, inkorni inkorlar asosida amalga oshadi. Bunda miqdor va sifat o‘zgarishlari taraqqiyotning dastlabki bosqichlaridir.

a) Miqdor va sifat o‘zgarishlari birligi.

Bizni qurshab turgan narsa va hodisalarni o‘rganar ekanmiz, ularni bir-biridan farq qildiruvchi narsalar: *sifat*, *miqdor* va *me’yor* ekanini ko‘ramiz.

Sifat deb, narsa va hodisalarga nisbiy barqarorlik bag‘ishlaydigan, ularning ichki muayyanligini ta’minlaydigan, bir narsa va hodisani ikkinchi narsa va hodisadan farq qildiradigan barcha muhim belgi va xususiyatlar birligiga aytildi.

Ma’lumki, tabiat va jamiyat juda ko‘p xilma-xil narsalar, voqeа va hodisalarning birligidan tashkil topgan. Ularning bunday xilma-xilligi narsa va hodisalar o‘rtasidagi sifatiy tafovutlarning ifodasidir. Masalan, noorganik tabiat bilan organik tabiat sifat

jihatdan bir-biridan farq qiladi. Organik tabiat o‘z atrofidagi muhit bilan uzlusiz modda almashinib turadi. Noorganik tabiatda bunday modda almashinish bo‘lmaydi.

Sifat bir narsani ikkinchi bir narsadan ajratibgina qolmasdan, balki uning boshqa narsalar bilan bog‘liqligini ham ko‘rsatadi. Shuning uchun muayyan sifatga ega bo‘lgan narsa va hodisalarni bir-biridan ajratib, bir tomonlama o‘rganish bilan chegaralanmay, balki ularni bir-biri bilan bog‘laydigan umumiy xususiyatlari asosida ham o‘rganish zarur. Agar organik tabiatdagi tirik organizmning atrof-muhit bilan modda almashinishi to‘xtab qolsa, bu organizm halok bo‘ladi, o‘zining tiriklik sifatini yo‘qotadi, chunki tirik organizmning tirikligi, undagi hayotning mohiyati — modda almashinuvidan iborat.

Narsa va hodisalarning sifati, ularning xususiyatlari orqali namoyon bo‘ladi. Har bir narsa yoki hodisa ko‘pgina xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlardan bir qanchasi birikib, shu narsa yoki hodisaning muayyan sifatini tashkil qiladi. Narsa va hodisalarda xususiyatlar ko‘p bo‘lib, ularning muhim, nisbiy turg‘unlarigina sifatni tashkil etadi. Sifat narsa va hodisaning mohiyati bilan bog‘liq bo‘ladi.

Narsa va hodisalar nomuhim xususiyatlarini yo‘qotishlari yoki yangidan hosil qilishlari natijasida muayyan sifatlarini o‘zgartirmaydilar. Agar bu narsa va hodisalar o‘zlarining muhim xususiyatlarini yo‘qotsa yoki o‘zgartirsalar, ular yangi sifatga o‘tadilar. Masalan, benzin uchun rang muhim xususiyat emas. Benzin rangini yo‘qotgani yoki boshqa rangga kirgani bilan u boshqa suyuqlikka aylanmaydi. Tez yonuvchanlik esa, benzinning muhim xususiyatidir. Benzin o‘zining bu xususiyatini biror sabab bilan yo‘qotsa, u dvigatel uchun boshqa kimyoviy moddaga aylangan bo‘ladi.

Borliqdagi narsa va hodisalar bir-biridan nafaqat sifatlari bilan, balki miqdorlari bilan ham farqlanadilar. Ularning sifatlari doimo miqdorlari bilan birga mavjuddir.

Narsa va hodisalardagi son, hajm, daraja kabi tomonlarning muayyanligi miqdor deb ataladi.

Narsa va hodisalarda miqdor turlicha ifodalanadi. Ularda miqdor bir holatda son tariqasida, ikkinchi holatda o‘lchov darajasi tariqasida, uchinchi holatda esa narsa va hodisalarning makondagi o‘zaro munosabati (uzunligi, kengligi, balandligi) tariqasida ifodalanadi.

Ijtimoiy hodisalarda ham sifat va miqdor birlikda bo'ladi. Masalan, bir ijtimoiy tuzum ikkinchi ijtimoiy tuzumdan ishlab chiqaruvchi kuchlarining taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlarining xarakteri sifat jihatidan farq qilishi bilan birga, ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, unumli mehnatda band odamlarning soni, milliy daromadning miqdori, uning jamiyat a'zolariga taqsimlanishi (miqdor) va shu kabilar bilan farq qiladi.

Har bir narsa va hodisa muayyan miqdor va sifat birligidan iborat me'yorga ham ega bo'ladi. **Me'yor — narsa va hodisalarning miqdor va sifat birligini qamrab oluvchi chegaradir.** Boshqacha qilib aytganda, sifat bilan miqdorning birligi me'yor deyiladi. Me'yor — narsa va hodisalarning shunday muayyanligiki, uning buzilishi narsa yoki hodisa sifati o'zgarishiga, boshqa sifatga o'tishiga, ya'ni boshqa narsa va hodisaga aylanishiga olib keladi.

Narsa va hodisalar o'z mavjudligining ma'lum davrlarida sifat va miqdor birligini, ya'ni oldingi sifatlarini saqlaydilar. Bu davrda ularda faqat muhim bo'limgan miqdor o'zgarishlari sodir bo'ladi. Biroq, bu jarayon vaqtinchadir. Taraqqiyotning ma'lum bosqichida miqdor o'zgarishlari shunday darajaga yetadiki, endi yangi miqdor o'zgarishlari mumkin bo'lmay qolishi tufayli, zaruran sifat o'zgarishlariga o'tadi. Bunda narsaning eski sifat chegarasi buzilishi natijasida uning oldingi me'yori ham o'zgaradi, ya'ni yangi sifat va miqdorga ega bo'lgan yangi me'yordagi narsa vujudga keladi.

Borliqdagi narsa va hodisalarda barcha o'zgarishlar: rivojlanish, taraqqiyot miqdor va sifat o'zgarishlari natijasida sodir bo'ladi. Bunda miqdor o'zgarishlari sifat o'zgarishlariga o'tgani kabi, sifat o'zgarishlari ham miqdor o'zgarishlariga o'tadi. Rivojlanish jarayonidagi bir-biridan farq qiluvchi bu ikki xil sifat va miqdor o'zgarishlari uzluksizlik va uzelishning birligi sifatida namoyon bo'ladi. **Uzluksizlik** — narsa va hodisalar rivojlanishidagi miqdor o'zgarishlarini o'z ichiga oladi. Uzluksiz rivojlanish davrida narsa va hodisalarda ichki o'zgarishlar yuz bersa-da, bular shu narsa yoki hodisa mohiyatini butunlay o'zgartirib yubormaydi. Bunda narsa yoki hodisa o'zining oldingi sifatini saqlab qoladi. Uzilish esa, shu narsa va hodisalar rivojlanishida endi yangi miqdor o'zgarishlari mumkin bo'lmay qolgan bir paytda yuz beradigan sifat o'zgarishlarini ifodalaydi. **Uzilish** — bu o'zgarish va rivojlanish jarayonida narsa yoki hodisaning bir sifat muayyanligidan ikkinchi sifat muayyanligiga o'tishi demakdir. O'zgarish va rivojlanishda miqdorning sifatga o'tishi, eski sifatning yangi sifatga aylanish jarayoni falsafada **uzluksizlikning uzilishi** deyiladi.

Bir sifatdan ikkinchi sifatga o'tish jarayoni falsafada **sakrash** deb ataladi. Sakrash bordaniga, to'satdan bo'ladigan holatgina emas, balki yangi sifat elementlari ko'payishi orqali yuz beradigan tadrijiy jarayon hamdir.

Sakrashlar o'z xarakteriga ko'ra tabiat va jamiyatda xilma-xil bo'lib, ular bir-birlaridan farq qiladilar. Masalan, tabiatdagi sakrashlar, ya'ni eski sifatdan yangi sifatga o'tishlar insonning irodasiga bog'liq bo'limgan holda, tabiiy-tarixiy jarayonning oqibati sifatida yuz beradi. Ijtimoiy hayotdagi sakrashlar esa tabiatdagi sakrashlardan farq qilib, ular kishilar tomonidan obyektiv zaru-riyatlarni anglash natijasida tayyorlanadi va amalga oshiriladi. Jamiyat taraqqiyotidagi sakrashlar tadrijiy rivojlanishlar orqali amalga oshiriladi. Sakrashlar inson tafakkuri taraqqiyotiga, uning bilimlar tizimining rivojlanib borishiga ham xosdir. Ilm-fan sohasida sekin-asta to'planib borgan dalillar, ma'lumotlar va bilimlar asosida inson o'z aql-idroki bilan butunlay yangi ixtiro va kashfiyotlar qiladi. Bu ham, asosan, tadrijiy yo'l bilan amalga oshadi.

Miqdor va sifat o'zgarishlarining bir-biriga o'tishini bilish amaliy faoliyat uchun ham katta ahamiyatga ega. Masalan, respublikamiz mustaqillikka erishgach, mamlakatimiz oldida turgan barcha murakkab vazifalar asta-sekin tadrijiy yo'l bilan hal etilmoqda. I.A.Karimov ko'rsatib o'tganidek, „...soxta inqilobiy sakrashlarsiz, fojiali oqibatlarsiz va kuchli ijtimoiy larzalarsiz, evolutsion yo'l bilan normal, madaniyatli taraqqiyotga o'tish — tanlab olingan yo'lning asosiy mazmuni va mohiyatidir“¹.

O'zbekiston haqiqiy demokratik va rivojlangan davlatga aylanishi, ya'ni, yangi sifatga ega bo'lishi uchun juda ko'p iqtisodiy, siyosiy va ma'rifiy islohotlarni amalga oshirish kerak. Taraqqiyotning tadrijiy yo'li — O'zbekistonni jahondagi rivojlangan davlatlar darajasiga olib chiqishning muhim shartlaridandir.

Endi, rivojlanishning sababi nima, degan masalani ko'rib chiqamiz.

b) Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi.

Borliqdagi har bir narsa yoki hodisa qarama-qarshi tomonlarning birligidan iborat bo'ladi. Ana shu bir-birini taqozo etuvchi va o'zaro bir-birini inkor qiluvchi tomonlar o'rtasidagi munosabat

¹ **I.A. Karimov.** O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T., „O'zbekiston“, 1992, 10-bet.

ziddiyat deb ataladi. Xuddi shu ziddiyat, qarama-qarshi tomonlar o'rtasidagi kurash, rivojlanishning sababi, uning manbayi hisoblanadi.

Buni tushunib olish uchun „ayniyat“, „tafovut“, „ziddiyat“, „qarama-qarshilik“ kabi tushunchalarining o'zaro munosabatlarini bilish lozim.

Narsa va hodisalardagi o'zaro o'xshash tomonlar birligi **ayniyat** deyiladi. **Ayniylik** — narsa va hodisalarning tomonlari va xususiyatlarining birga mayjudligini ifodalaydi. Har bir narsa yoki hodisada ayniylik bilan birga tafovut ham mayjud bo'ladi. **Tafovut** — narsa va hodisalar tomonlarining har birining farq qiluvchi jihatlarining ifodalanishidir. Tafovutlarning rivojlanishi ziddiyatning kelib chiqishiga olib keladi. Tafovutlar o'rtasidagi ziddiyatlar kuchayib qarama-qarshiliklarga aylanadi.

Falsafada qarama-qarshilik deb borliqdagi narsa, hodisa va jarayonlarning bir-birini istisno qiladigan, shu bilan birga, bir-birini taqozo etuvchi tomonlari, tamoyillari va kuchlarining o'zaro munosabatlari tushuniladi. Umuman, qarama-qarshiliklarni, ular orasidagi ziddiyatlarni o'rganish harakat, o'sish, o'zgarish, rivojlanishning sabablarini bilishda muhim ahamiyatga ega.

Har qanday narsa va hodisalarning o'zgarishi, rivojlanishi ulardagi mayjud ziddiyatlar birligi va kurashi natijasida yuz beradi. Ziddiyatlar rivojlanib, keskinlashgan holatida hal qilinmasa, konfliktga aylanishi mumkin. Ziddiyatlarning hal qilinishi o'zgarish va rivojlanishga, eski narsa yoki hodisa o'rniga yangi narsa va hodisa paydo bo'lishiga olib keladi. Organik, noorganik olam, ijtimoiy hodisalardagi o'z-o'zini boshqarish, tashkil etish imkoniyatlari ham muayyan ziddiyatlar yuzaga kelishi bilan bog'liq.

Ziddiyatlar juda xilma-xildir. Ular narsa va hodisalarning harakati va rivojlanishida turlicha rol o'ynaydi hamda har xil vazifani bajaradi. Ular, odatda, ichki va tashqi, asosiy va asosiy bo'Imagan antagonistik va noantagonistik ziddiyatlarga bo'lib o'rganiladi.

Ichki ziddiyat — narsa va hodisalarning o'z ichidagi qarama-qarshi tomonlar, kuchlar o'rtasidagi ziddiyatlardir. Tashqi ziddiyat esa, bir-biridan nisbatan mustaqil narsalar va hodisalar o'rtasidagi ziddiyatlardir.

Ichki va tashqi ziddiyatlarni bunday bo'lish nisbiy xarakterga ega. Chunki, bir munosabatda ichki ziddiyat, boshqa munosabatda tashqi ziddiyat bo'lishi mumkin. Masalan, turli tuzumdag'i davlatlararo ziddiyat tashqi ziddiyat, ammo kishilik jamiyati miqyosida olinsa, ular ichki ziddiyatlardir.

Rivojlanish jarayonida ichki va tashqi ziddiyatlar bir xil rol o'ynamaydi. Rivojlanishning mohiyatini asosan ichki ziddiyat belgilaydi. Tashqi ziddiyatlar rivojlanishga bilvosita, ya'ni ichki ziddiyatlar orqali ijobjiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Narsa va hodisalarning mohiyatini, ularning kelib chiqish va rivojlanish qonuniyatlarini belgilab beradigan ziddiyat asosiy ziddiyat deyiladi. Asosiy ziddiyat taraqqiyotda hal qiluvchi rol o'ynaydi va boshqa barcha ziddiyatlarga ta'sir ko'rsatadi. Asosiy bo'lman ziddiyatlar esa narsa va hodisalarning ma'lum bir taraqqiyot bosqichida mavjud bo'lib, ularning mohiyatini belgilamaydigan, rivojlanishini o'zgartirish kuchiga ega bo'lman ziddiyatlar bo'lib, ta'siri konkret vaqtga va sharoitga bog'liqdir.

Ziddiyatlarning qaysi biri asosiy va asosiy emasligini aniqlash rivojlanishning sabablarini to'g'ri belgilashning yo'lidir. Asosiy ziddiyatni mavjud ziddiyatlar orasidan topish uchun ziddiyatlarni vujudga keltirgan sharoitni, vaziyatni, bundagi qarama-qarshi tomonlarni va ular birligidan tashkil topgan narsaning mohiyatini, har bir ziddiyatning shu mohiyatga bo'lgan munosabatini aniqlash lozim. Asosiy ziddiyatlarni aniqlash esa, ijtimoiy amaliyot natijalarini tafakkur orqali analiz va sintez qilish natijasida amalgalashadi.

Asosiy ziddiyatlar bir nechta bo'lganda, ular orasida albatta biri **bosh ziddiyatni** tashkil qiladi. Bosh ziddiyat deb, rivojlanishning u yoki bu bosqichi mohiyatini belgilab, asosiy ziddiyatlar tarkibida muhim o'rinni tutadigan, ularga nisbatan taraqqiyot jarayonida belgilovchi rol o'ynaydigan ziddiyatga aytildi. Ijtimoiy taraqqiyotda bosh ziddiyatni to'g'ri aniqlash, mamlakat taraqqiyotini to'g'ri belgilab olishda muhim ahamiyatga ega.

Jamiyat hayotiga xos ziddiyatlarni tahlil qilganda, yana antagonistik va noantagonistik ziddiyatlarni ham farq qilish zarur. Antagonistik ziddiyatlar jamiyatdagi manfaatlari bir-biriga tubdan zid bo'lgan kuchlar, ijtimoiy guruhlar va tabaqalar o'rtasidagi ziddiyatlardir. Noantagonistik ziddiyatlar jamiyatdagi manfaatlari bir-biriga mos keladigan yoki manfaatlarini o'zaro kelishtirish mumkin bo'lgan ijtimoiy guruhlar va tabaqalar o'rtasidagi ziddiyatlardir. Antagonistik ziddiyatlar konfliktlarga olib kelishi ham mumkin. Bunday holda, ular bir tomonning mag'lubiyati va ikkinchi tomonning g'alabasi bilan hal qilinadi. Umuman, hamma ziddiyatlarni o'z vaqtida hal qilib borish zarur, aks holda ularning keskinlashib borishi kutilmagan oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Jamiyat hayotidagi ziddiyatlar xilma-xil shakl va usullar bilan bartaraf etilishi mumkin: ulardan ba'zilari eskining yemirilib borishi va yangining qaror topib borishi asosida hal qilinib borilsa, boshqalari ayni shu ziddiyatlarni tashkil qilgan qarama-qarshi tomonlarni o'zaro kelishtirish, murosa-yu madoraga keltirish, bir-birlari bilan o'zaro siyosiy muzokaralar olib borish, bitimlar tuzish, hamjihatlik va hamkorlikka erishish yo'llari bilan bartaraf etilishi va shu asosda taraqqiyotni ta'minlashi mumkin.

Hozirgi davrda **murosa (konsensus) usuli** jamiyat taraqqiyotida muhim rol o'ynamoqda. Ayniqsa, uzoq muddatlar davomida bir-biriga qarama-qarshi bo'lib kelgan davlatlar, jamiyatdagi qarama-qarshi tomonlar, kuchlar, ijtimoiy guruhlar, harakatlar va partiylar o'rtasidagi ziddiyatlarni jamiyatning umumiy manfaatlaridan kelib chiqib hal qilishda bu usul juda qo'l kelmoqda. Bu usul jahon xalqlarining milliy totuvlikka, o'zaro hamkorlikka, hamjihatlik va birlikka, barqarorlikka erishishida ham muhim ahamiyatga ega bo'lmoxda. Konsensus usuli o'zaro tinch yo'l bilan olib borilayotgan muzokaralar, muloqotlar, referendumlar, xalqaro huquq normalari asosida ma'lum bir bitimga kelishuvlar, demokratik tamoyillar asosida eng muhim hujjatlar qabul qilish orqali olib borilmoqda.

Har bir sohadagi ziddiyatlarning o'ziga xos hal bo'lish shakllari mavjud. Tabiatdagi ziddiyatlar, odatda, stixiyali — o'z-o'zicha paydo bo'lib, rivojlanib, so'ng o'zlariga xos qonuniyatlar asosida hal etiladi. Jamiyatda esa, ziddiyatlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va hal qilinishi kishilar tomonidan amalga oshiriladi.

Umuman olganda, harakat, o'zgarish va rivojlanish jarayonida turli-tuman ziddiyatlar paydo bo'lishi, ular turlicha hal qilinishi mumkin. Bu bilan ziddiyatlar butunlay tugamaydi. Eskilari o'rniya yangilari paydo bo'lib, ular ham ma'lum vaqtidan so'ng eskirib, o'rnnini yana yangilari olib, shu asosda rivojlanish cheksiz davom etaveradi.

Ziddiyatlar kurashi asosida amalga oshadigan rivojlanish asosan progressiv yo'nalishda boradi. Buning sababi — *vorislik, davomiylilikdir*.

d) Taraqqiyotda vorislik va davomiylilik (inkorni inkor).

Taraqqiyot vorislik va davomiylilik, inkorni inkor etish yo'li bilan amalga oshib boradi. Bu muammoni o'rganishni „inkor“ tushunchasi nimani ifodalashini aniqlab olishdan boshlash lozim.

Borliqning hamma sohasida doimo eski, umri tugayotgan narsa va hodisalarning barham topishi, yangi narsa va hodisalarning vujudga kelish jarayoni sodir bo'lib turadi. Bundagi eskinining yangi bilan almashinishi inkor deb ataladi.

„Inkor“ tushunchasi kundalik ongda „yo'q“ so'zi bilan qo'shilib ketadi. Inkor qilmoq „yo'q“ demakdir, biror narsani rad etmoqdir. Lekin, dialektikada inkor kundalik ongda ishlatiladigan bunday tushunchadan farq qiladi. Dialektik inkor — yangining eski bilan oddiy o'rinni almashuvi bo'lmasdan, balki yangi eskinining bag'rida vujudga kelib, undagi sog'lom tomonlardan foydalanib qaror topishidir.

Dialektik inkor, ayni bir vaqtida „yo'q“ deyish bilan „ha“ deb, ya'ni inkor etish bilan birga tasdiqlashni ham o'z ichiga oladi. U barcha narsani butunlay rad etuvchi nigilik qarashdan xoli bo'lib, bir paytda sodir bo'ladigan yemirilish bilan yaralishni, xullas, narsa-hodisalarning yo'qolishi va paydo bo'lishini bog'lab, ilgarilab rivojlanish holatini ifodalaydi. Bu dialektik inkorning muhim jihatini tashkil qiladi.

Dialektik inkorning muhim ikki jihat mavjud: birinchisi — eskinining o'rniga yangining kelishi tabiiy-tarixiy jarayon bo'lganligi uchun taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi; ikkinchisi — yangining eski bilan vorisiy bog'liq ekanligini ham ifodalaydi.

Dialektikaning bu ta'limoti ikki marta takrorlanuvchi inkor bilan ifodalanishi moddiy olamdag'i narsa va hodisalarning doimiy ravishda o'zgarib, bir holatdan ikkinchi holatga o'tib borishi va oqibatda, rivojlanish uzluksiz ekanligidan kelib chiqadi. Har bir mavjud bo'lgan narsa va hodisa o'zigacha bo'lgan sifat va miqdor inkor etilishining mahsuli, shu bilan birga, ana shu narsa va hodisalarning o'zi ham sharoitning o'zgarishi, vaqtning o'tishi bilan inkor etilishga mahkumdir. Demak, har bir narsa va hodisaning o'zgarishi va rivojlanishi hamisha ikki va undan ko'proq inkor etishlar bilan amalga oshadi. Inkorni inkor ana shu inkorlarning sodir bo'lishi bilan rivojlanishning davom etishini ifodalaydi. Bundagi bitta inkor narsa va hodisalardagi o'zgarish va rivojlanishning bir momentini tashkil etsa, „inkorni inkor“ atamasi ularning muayyan zanjirini ifodalaydi.

Inkorni inkorning amal qilishi tufayli taraqqiyot to'g'ri chiziq shaklida emas, balki ko'p chiziqli doira shaklida ham bo'ladi, uning oxirgi nuqtasi boshlang'ich nuqtaga yaqinlashadi. Lekin, bu

yaqinlashuv uning oxirgi nuqta bilan butkul tutashishi bo'lmasdan, balki yuqori bosqichda sodir bo'lishi sababli, taraqqiyot spiral shaklga ega bo'ladi. Bu spiralning har bir yangi o'rami oldingi o'ramiga nisbatan kengroq, yuqoriroq bosqichda yuzaga kelgan bo'ladi. Ana shu ma'noda dialektik nazariyada „spiralsimon taraqqiyot“ atamasi ishlatiladi.

Dialektik inkorga ko'ra, taraqqiyotning „spiralsimon“ xarakteri o'zining quyidagi uch jihatiga ega: *birinchidan*, inkorni inkorda, dastavval, narsa va hodisalar abadiy o'zgarmasdan qola olmasligi, davrning o'tishi bilan har bir narsa va hodisa o'zgarishi, bu o'tishda yangining paydo bo'lish mexanizmini ohib beradi. Buni **destruksiya** deyiladi. *Ikkinchidan*, u yemirilayotgan (inkor etilayotgan) narsa bilan paydo bo'layotgan yangi narsa o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni, ularning bir-biriga bo'lgan munosabatini ohib beradi. Buni **kummulatsiya** deyiladi. *Uchinchidan*, inkor etila-yotgan narsa oldin erishgan yutuqlarni, uning rivojlanishga qodir bo'lgan ba'zi belgi va xususiyatlarini saqlab qolish, ulardan foydalanish asosida yuz beradi. Buni **konstruksiya** deb yuritiladi. Shu asosda o'zgarish, rivojlanish sodir bo'ladi. Bundan inkorni inkorning muhim belgisi, ya'ni narsa va hodisalarning ilgarilab rivojlanishi, yangilikning yengilmasligi mantiqan o'z-o'zidan kelib chiqadi.

Xullas, inkorni inkor jarayonida oddiydan murakkablikka, quyidan yuqoriga qarab ilgarilab boruvchi rivojlanish sodir bo'ladi. Shuning uchun inkorni inkor jarayonining xarakterli xususiyatlardan biri — uni orqaga qaytarib bo'lmasligidir. Buning sababi shundaki, har bir yangi bosqich ilgarigi bosqichlarning butun boyligini o'zida sintezlashtirib, taraqqiyotning yanada yuqoriroq shakllari uchun zamin yaratadi. Bu sintez „inkorni inkor“ deyiladi. Inkorni inkor tufayli, har bir paydo bo'lgan yangilik shuning uchun sintez deyiladiki, unda eskinining rivojlanishga qodir bo'lgan tomonlari saqlanib qolib, yangida paydo bo'lgan tomonlar bilan uzviy birikkan bo'ladi va shu asosda rivojlanishning navbatdagi bosqichini ta'minlaydi. Xuddi shu yo'l bilan taraqqiyotning yo'nalishi belgilanadi.

Yuqorida aytilgan, bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan uch jarayonning birligi hozirgi kunda O'zbekistonning mustaqilligini mustahkamlash va rivojlantirishda o'z ifodasini topmoqda. Biz uchun hozir jamiyatimizda eskirgan ijtimoiy munosabatlarni, iloji boricha, dialektik izchillik va ziyraklik bilan

o‘z vaqtida bartaraf etish, yangi paydo bo‘layotgan bozor iqtisodiyotiga oid munosabatlarni o‘z vaqtida payqay olish, ularni rivojlantirish yutuqlarimizning ko‘payishiga keng imkoniyatlar ochib beradi. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan va xalqimiz keng qo‘llab-quvvatlayotgan bozor munosabatlari jamiyatimizdagi xo‘jasizlik, shahar va qishloqlarda mehnatning hamma sohalarida boshqarishning buyruqbozlik usullari, jamiyatga zarar yetkazuvchi ekologik va ma’naviy buzulishlarning tugatilishiga olib keladi.

Shunday qilib, borliq va bilishga xos miqdor ham sifat o‘zgarishlari, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, inkor va inkorni inkorlar benihoya davom etaveradi. Bu abadiy davom etadigan jarayonda dialektikaning barcha tamoyillari birgalikda amal qiladi. Bunda hech bir narsa yoki hodisa abadiy — o‘zgarmasdan qola olmasligi, ammo ular o‘rtasida vorisiy aloqalar va bog‘lanishlar mavjudligini ifodalaydi.



I. Tabiiy borliq — falsafiy tahlil obyekti sifatida

Tabiat — borliqning muğammal, murakkab, obyektiv qonunlariiga ega bo'lgan qismidir. Tabiat o'z qo'ynida yashayotgan insonni hayratlantiradi, ilhomlantiradi, uning yashashi, ijtimoiy, ma'naviy kamol topishi uchun zarur bo'lgan ma'lum imkoniyatlar manbayidir. Inson va jamiyatning hayoti, taraqqiyoti istiqbollarini bu imkoniyatlardan ajratib tasavvur qilib bo'lmaydi.

Tabiatdagi murakkab, voqealar, hodisalar, jarayonlar inson faoliyatiga bog'liq bo'lmagan qonunlar asosida amalga oshadi. Inson bu qonunlarni biladi, o'z faoliyatida ularga tayanadi. Insonning tabiat bilan bo'lgan munosabatlari ham shu qonunlar, imkoniyatlar doirasida bo'ladi. Inson tabiat ustidan hukmronlik qilishga intilib, tabiatning ichki qonunlarini, undagi muvozanatni buzishi halokatli oqibatlarga olib keladi. Bunga insoniyat tarixining hozirgi bosqichidagi ekologik tanglikni misol qilib keltirish mumkin. Umuman, tabiatda ortiqcha narsa, hodisa yo'q. Undagi har bir narsaning tabiat ichki muvozanat tizimida o'z o'rni va ahamiyati bor. Shuning uchun ham tabiat bir butun, yaxlit borliq sifatida qaraladi.

Olimlar tabiatni ulkan, murakkab kitobga o'xshatadilar. Bu „Kitob“ni qancha ko'p o'qisak, borliqni yaratgan, ma'lum reja asosida boshqarayotgan qudratli bir kuch borligiga ishonch hosil qilamiz. Ba'zilar bu kuchni Xudo deb tushunadilar, ba'zilar esa tabiatning ichki qonunları deb hisoblaydilar. Mutafakkirlar tabiatdagı go'zallikni va hunuklikni, kamolot va falokatni, beqarorlik va barqarorlikni bir-biri bilan bog'langan jarayonlar deb qaraydilar, ularning mohiyati, sabablari va imkoniyatlarini bilishga intiladilar.

*„Tabiat tartibin yaratib Olloh,
Ne uchun chilparchin etadi. Ey voh!
Yaxshi bo'lsa, nega parchalar uni,
Yomon bo'lganda-chi, ayt, kimda gunoh?“*

Bu misralar, yuqorida aytilganidek, insoniyat doim o'rtaga qo'ygan, bundan keyin ham o'rtaga qo'yadigan savollardan biridir.

Xo'sh, tabiatning falsafiy tahlili nimalarni o'z ichiga oladi?

1- §. „Tabiat“ tushunchasi. Tabiatni falsafiy tushunishning tarixiy taraqqiyot jarayonida o‘zgarib borishi

„Tabiat“ tushunchasi falsafiy jihatdan keng ma’noga ega. Biz „tabiat“ deganda benihoyat xilma-xil ko‘rinishlarga ega bo‘lgan, insonni qurshab turgan moddiy olamni, bir butun moddiy borliqni tushunamiz. U moddiy borliq sifatida koinotdagi uzoq yulduzlardan kelayotgan nurlardan tortib galaktikalargacha, bir-birlariga o‘tib, aylanib turadigan mikrozarralardan makro olamdagagi ulkan narsalargacha, Yer, yerdagi quruqlik, dengizlar, okeanlargacha, butun hasharotlar, suvo‘tlari, o‘simliklar va hayvonot dunyosiyu, hatto inson tanasini ham o‘z ichiga oladi.

• Tabiatni juda ko‘p fanlar o‘rganadi. Xususan, tabiatshunoslik fanlari tabiatdagi barcha narsa va hodisalarning o‘zlariga xos xususiyatlari, tabiati va mohiyatini, ulardagi o‘zgarish va rivojlanish qonunlarini o‘rganadi. Bu fanlar erishgan yutuqlar asosida bizning tabiat haqidagi tasavvurlarimiz kengayib, boyib boradi.

• Falsafa esa, shu fanlar yutuqlariga tayangan holda tabiatni bir butun holda olib o‘rganadi va tushuntiradi. Bu jihatdan tabiatni turli-tuman ko‘rinishlar va shakllarda mavjud bo‘ladigan materiya, deyish mumkin. Bu — tabiatni keng ma’noda falsafiy tushunishdir. Biroq, biz „tabiat“ tushunchasini bir qadar torroq ma’noda ishlatib, „tabiat“ deganda inson va insoniyat mavjudligi uchun zaruriy bo‘lgan barcha tabiiy shart-sharoitlar va omillarni hamda ularni qurshagan muhitni tushunamiz. Shu ma’noda, odatda „tabiat“ tushunchasini inson va insoniyat mavjudligining tabiiy sharoitlari birligi sifatida ishlatamiz. Bu jihatdan „tabiat“ tushunchasi jamiyatning tarixiy taraqqiyoti jarayoni davomida o‘zgarib borganligining guvohi bo‘lamiz.

Jamiyat rivojlanishi, u bilan birgalikda inson aql-idrokining ham takomillashuvi, ilm-fan taraqqiyoti insonning tabiatga bo‘lgan munosabati — xarakterini ham o‘zgartirib boradi. Natijada, insonning tabiatga munosabati jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida turlicha namoyon bo‘ladi. Masalan, ibtidoiy odam uchun tabiat butunlay g‘ayritabiiy, fantastik narsa sifatida bo‘lganligi bilan xarakterlidir. Bu davrga xos bo‘lgan mifologik dunyoqarash tabiat bilan insonning o‘zaro munosabatlarini, ularni bir-biriga taqqoslash va bir-biridan tub farqlarini aniqlashga yetarli imkon bermaydi.

Tabiat haqidagi qarashlarning rivojlanib borishi insonning tabiatni diniy tushunishining yuzaga kelishiga olib keldi. Din insonni qurshab turgan tabiatni, hatto insonning o‘zini ham Xudo yarat-

gan lekin inson oliy mavjudot sifatida yaratilgan bo'lib, u tabiatdan ustun, uning xo'jayini, degan qarashlarni ilgari suradi. Shu bilan birga, din insonning tabiatga ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo'lishi lozimligiga e'tiborini qaratadi. Biroq uning o'zgarish va rivojlanish qonunlarini izlashga va bilishga undamaydi.

Bugungi kunda biz insonning tabiatga munosabatida, uning faoliyati xarakterining tubdan o'zgarib borayotganligining guvohi bo'lmoqdamiz. Bu insonning tabiatga munosabatida onglilikning roli tobora ortib borishi, inson va tabiat, tabiat va jamiyat o'zaro ta'sirining aqlga muvofiq insonparvarlik jihatlarini izlash, tabiatga oqilona va odilona munosabatda bo'lishga intilish yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Inson tabiat bilan nafaqat jismonan, balki ruhan ham bog'liq ekanligi, tabiat inson jismoniy hayotining asosigina bo'lib qolmasdan, balki inson ruhiy-ma'naviy hayotining ham asosi ekanligi tobora ko'proq anglab borilmoqda. Haqiqatan ham, biz faqat o'zimiz — insonlar yaratgan go'zalliklardangina hayratlanib qolmay, balki tabiat yaratgan „san'at asarlaridan“ ham juda hayratlanamiz.

XXI asrga kelib, tabiat va insonning o'zaro munosabatlarida ma'lum muvozanatga erishish muammosi tobora dolzarb bo'lib qolmoqda. Chunki, ekologiya muammosi hozirgi zamonning keng miqyosdagi keskin ijtimoiy muammolaridan biriga aylandi. „Uni hal etish, barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog'liqdir“¹.

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida tabiat bilan insonning o'zaro munosabatiga oid bir qator muammolarni hal etish butun insoniyatning umumiyligi ishi bo'lib qolmoqda, ular xalqaro hamkorlik asosida hal qilinishi lozim. Bugungi kunda, „tabiatga qo'pol va takabburlarcha munosabatda bo'lishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Biz bu borada achchiq tajribaga egamiz. Bunday munosabatni tabiat kechirmaydi“. Butun insoniyat „inson tabiatning xo'jayini“ degan soxta mafkuraviy da'vodan voz kechishi lozim. Hozirgi vaqtida ekologik muammolarning global xarakteri insondan tabiatga nisbatan butunlay yangicha munosabatda bo'lish tafakkur usulini, ya'ni insonning o'z tabiatini, o'zini anglashidan kelib chiquvchi ekologik ongni shakllantirishni talab qilmoqda.

¹ I. A. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahlid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Asarlar, 6-jild, T., „O'zbekiston“, 1998, 110-bet.

Ekologik ong, bu avvalo, insoniyat tabiatning bir butun ajralmas qismi ekanligini, inson faqat tabiat bilan birga mavjudligini anglashni bildiradi. Tabiat bilan insonning, tabiat bilan jamiyatning o‘zaro muvozanatini va ularning uyg‘unligini saqlashning bиринчи va eng zarur sharti — bu Yer kurrasidagi butun kishilarning o‘zaro oqilona tinch-totuv yashashga intilishlaridir. Jahon xalqlari, ularning ijtimoiy tuzumlari, siyosiy maslaklari, diniy e’tiqodlari, irqi va millati qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, ular ekologik jihatdan umumiyl bo‘lgan, bitta Yer kurrasida yashamoqda. Jahon xalqlarining har biriga xos o‘z intilishlari, manfaatlari va maqsadlari bo‘lishi mumkin. Lekin, ular bu maqsadlarini amalga oshirishlari uchun o‘z kuch-g‘ayratlarini birgalikda butun Yer kurrasi ekologiyasini saqlash muammolarini hal qilishga qaratishlari lozim. Zero, ularda tabiatni yangicha tushunish, tabiat to‘g‘risida yangicha tafakkurni shakllantirish, unga nisbatan oqilona munosabatda bo‘lishni qaror toptirish, tabiatni falsafiy tushunish va tushuntirishning markaziy masalalaridan biridir.

2- §. „Jonli“ va „honsiz“ tabiat, „hayot“ tushunchasi

Atrof-muhitni tashkil etgan predmet va hodisalar jonsiz va jonli narsalardan iborat bo‘ladi. Jonsiz narsalarning majmuasi jonsiz tabiatni tashkil qiladi. Jonli narsalarning majmuyi esa, jonli tabiat, deb ataladi. Jonsiz va jonli tabiatni bir-biridan farqlovchi asosiy narsa, bu — jonli tabiatga xos hayat jarayonidir.

Hayot jarayonini mutafakkirlar, olimlar qadim zamondan boshlab falsafiy tushunishga, tushuntirishga, izohlab berishga harakat qilib kelishgan.

XVII asrga kelib, jonli tabiat haqidagi bilimlar taraqqiy etib, biologiya maxsus fan sifatida falsafadan ajralib chiqdi. Biologiya fani rivojlanishi natijasida, har qanday tirik mavjudot faqat tirik mavjudotdan bonyodga keladi, degan qat’iy xulosa qaror topdi. Bu qarash biologiyada „Tirik zot borki, tirik zotdan bonyodga keladi“ degan qonun bilan ifodalanadi. Lekin, shuni ta’kidlash lozimki, bu qonunning paydo bo‘lishi „Hayot nima, u Yerda qanday paydo bo‘lgan?“ degan savolga javob bermaydi. Shunga qaramasdan, XIX asrning 70-yillariga kelib, „Hayot“ va „jonli tabiat“ kabi tushunchalarga turlichay yondashish, ularga berilgan turli xil ta’riflar paydo bo‘ldi. Bunday ta’riflarning biriga ko‘ra, „Hayot — oqsil tanachalarining yashash usuli bo‘lib, bu yashash usuli o’sha tanacha (jism)lar kimyoviy tarkibining doimo o‘z-o‘zidan yangilanib

turishidan iborat“, deyiladi. Bunda hayot mavjud bo‘lgan hamma joyda, uning, qanday bo‘lmashin, biror oqsil bilan bog‘langanligini va beistisno hayot hodisalarini uchratamiz. Lekin, XX asrda tabiatshunoslik, xususan, biologiya sohalarida yirik ilmiy kashfiyotlar qilindi. Shu munosabat bilan ba’zi olimlar „hayot“ tushunchasiga berilgan yuqoridaq ta’rifni kengaytirish, uni to‘ldirish maqsadga muvofiqligini aytib, jonli jismlarning xossalari haqida o‘z fikrlarini bildirmoqdalar. Ular jonli jismlar ochiq tizimlardan iboratligi, ularga oziq moddalari orqali doimo yangi energiya kirib turishi va o‘zlari iste’mol qilgan narsalarni chiqindilar sifatida tashqi muhitga chiqarib turishi, ana shunday holdagina yashay olishi, ya’ni hayot mavjud bo‘lishini aytishadi.

Jonli jismlar o‘z-o‘zidan boshqarilish xususiyatiga ega bo‘lib, tarkibiy tuzilishi jihatidan oqsillar va nuklein kislotalardan iborat, deb ta’riflandi. Keyingi vaqtarda biolog olim M.V. Volkenshteyn tomonidan jonli jismlarga berilgan quyidagi ta’rif xarakterlidir: „*Yerda mavjud bo‘lgan jonli jismlar o‘z-o‘zini idora etib va o‘z-o‘zini paydo qilib boradigan biopolimerlardan, oqsillar va nuklein kislotalardan tuzilgan ochiq tizimlardir*“.

Shuni aytish kerakki, hozirgi kungacha olimlarimiz hayotning asosi bo‘lgan tabiiy oqsillarni va aminokislotalarni sun’iy yo‘l bilan laboratoriya sharoitida hosil qilish imkoniyatiga ega emaslar. Shunga qaramasdan, Yerda hayotning paydo bo‘lishi to‘g‘risida turli xil hozirgi zamon nazariyalari mavjud.

3- §. Yerda hayotning paydo bo‘lishi to‘g‘risidagi nazariyalar

Fan ma’lumotlariga qaraganda, Yer bir paytlar cho‘g‘ holatida bo‘lganligi sababli unda hayot bo‘lmagan. Yerda hayot bo‘lishi uchun uning ustki qatlamida 50—70°C dan oshmagan issiqlik harorati, namlik, suv va atmosfera mavjud bo‘lishi lozim. Yerda hayot uning uzoq davom etgan evolutsiyasi natijasida, dastlab, jonsiz tabiatdan kelib chiqqan, degan nuqtayi nazar ilgari suriladi. Bu farazni 1924-yili olim A.I. Oparin ilgari surgan bo‘lib, bunga juda ko‘p olimlar, faylasuvlar qo‘shilishdi. Bu farazga ko‘ra, tirik jismlar organizmini tashkil qiluvchi hujayralarning paydo bo‘lishi ham o‘z tarixiga ega. Hujayra paydo bo‘lmashdan avval ancha sodda organik tuzilmalar, ya’ni hujayra tarkibini tashkil qiladigan moddalar: oqsillar, nuklein kislotalar va ATFlar yuzaga kelgan. Bundan biologik evolutsiyadan oldin kimyoviy evolutsiya jarayoni sodir bo‘lgan, degan xulosa kelib chiqadi. Yer evolutsiyasining ma’lum

bosqichida noorganik moddalar o'zaro kimyoviy reaksiyalarga kirishgan. Bu reaksiyalar natijasida juda ko'p gazlar hosil bo'lib, ular Yer atmosferasini paydo qilishgan. Bu atmosfera tarkibida suv bug'i, uglerod (IV) oksid (CO_2), uglerod (II) oksid (CO), vodorod sulfid (H_2S), ammiak (NH_3), metan (CH_4) va boshqalar bo'lgan. Yerning bu birlamchi atmosferasida mavjud bo'lgan organik moddalar tarkibida uglerod birikmalar muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Yer yuzasining harorati 100°C dan pasaygandan keyin, ko'plab yomg'irlar yog'ishi natijasida dengizlar va okeanlar hosil bo'lgan. Ularda yomg'ir suvida erigan ammiak, karbonat angidrid, metan va turli tuzlar, boshqa organik moddalar Quyoshning ultrabinafsha, ionlashtiruvchi nurlari ta'sirida, kimyoviy reaksiyalar natijasida, turli kimyoviy organik birikmalar paydo bo'la boshlagan. Bu jarayon o'z-o'zidan *konsentrlnish* va koatservatlar hosil qilishdek, yuqori molekulali barcha moddalarga xos bo'lgan xususiyat sifatida yuzaga chiqqan. Hosil bo'lgan koatservat tomchilari atrofdagi eritmadan har xil moddalarni yuta olish, ular bilan ma'lum reaksiyaga kirishish xususiyatiga ega bo'ladi. Lekin, bu koatservat tomchilarida jonli organizmning asosiy belgisi — ular tarkibiga kiradigan molekulalarni o'z-o'zidan bunyodga keltirib turuvchi yagona imkoniyat emas.

O'z-o'zini bunyodga keltirib va boshqarib turish layoqatiga ega molekulalarning vujudga kelishi hayot paydo bo'lishidagi eng muhim omil hisoblanadi. Bular, aftidan, eng oddiy *polinukleotidlar* bo'ladi. Polinukleotidlar paydo bo'lishi molekulada tarkibi va tuzilishi jihatidan xuddi shunday boshqa molekulaning tarkib topib borishi kimyoviy sintezning yangi shakli — jonli tizimlarga juda ham xarakterli bo'lgan matritsa sintezi vujudga kelganini bildirar edi.

Shunday qilib, tarkibida polinukleotidlar bo'lgan molekulalardan tashkil topgan ibridoiv tirik organizmlar paydo bo'lgan. Bu ibridoiv tirik organizmlarning oziqlanish usuli geterotroflar bo'lgan, chunki ular tayyor organik moddalardan foydalangan.

Quyosh energiyasidan fotosintez yordamida yoki kimyoviy reaksiyalar jarayonida ajralib chiqadigan energiyadan foydalaniib, anorganik birikmalardan organik moddalar sintezlaydigan tirik organizmlarning paydo bo'lishi hayot evolutsiyasida katta qadam bo'ldi.

Yerda hayotning paydo bo'lishi haqidagi bu qarashni tasdiqlashda dastlabki qadam — anorganik molekulalardan *abiogen yo'lli* (nobiologik yo'lli) bilan organik molekulalarning sintezlanishi bo'ldi.

Amerika olimi S. Miller va sobiq sho'ro olimlari A.G. Pasinskiy hamda T.Y. Pavlovskayalar dastlabki okean suvlarida bo'lishi mumkin bo'lgan organik moddalardan elektr razryadlari va ultrabinafsha nurlar ta'sirida murakkab organik birikmalar hosil bo'lishini tajriba yo'li bilan isbotlab berdilar. Bularidan tashqari, amerika olimlari S.Foks va K.Doze ibtidoiy Yerda mavjud bo'lgan sharoitda oqsillar singari moddalar ham abiotik yo'l bilan sintezlanishi mumkinligini isbotladilar. Shunday qilib, organik moddalar dastlabki okean suvlarida to'planib, eng ibtidoiy tirik mavjudotlar ana shu okean suvlarida paydo bo'lgan, degan ilmiy farazlar vujudga kelgan.

4- §. Tabiat va jamiyat, ularning o'zaro munosabati, tabiiy va sun'iy muhit

Tabiat o'z taraqqiyotida insoniyat jamiyatini keltirib chiqargan. Jamiyat, ma'lum ma'noda, tabiatning bir qismi, uning taraqqiyoti natijasidir. Tabiat, tabiiy muhit bo'lmasa jamiyat bo'lmas edi. Jamiyat: o'zining moddiy hayoti bilan — bevosita, ma'naviy hayoti bilan — bavosita, tabiatga uzviy bog'liqdir.

Tabiatda va jamiyatning moddiy hayotida o'ziga xos obyektiv qonunlar amal qiladi. Bu jihatdan tabiat va jamiyat o'zaro ma'lum umumiylar birlikka egadir. Inson esa o'zining jismoniy va ma'naviy hayoti bilan tabiatdan ajralmas, o'zini qurshab turgan tabiiy muhit bilan chambarchas bog'liqdir. Inson biologik tur — odam sifatida jonli tabiatning bir qismi, uning oliy rivojlangan ko'rinishidir. **Tabiiy muhit — bu inson va jamiyatni qurshab turgan, ular bilan bevosita bog'liq munosabatda bo'ladi**gan tabiatdagি predmet va hodisalar, jonsiz va jonli mavjudotlardan iborat tabiatning bir qismidir.

Tabiiy muhit o'z o'rnida, *abiotik* va *biotik* omillardan iborat bo'ladi. *Abiotik omillar* — iqlimiylar (yorug'lik, harorat, namlik, havo va bosim), tuproq (tuproqning tarkibi, namligi, havo o'tkazuvchanligi, zichligi); relyef (dengiz sathidan balandligi, pastligi, qiyaligi); kimyoviy tarkibi (havoning gaz tarkibi, suvning mineral tarkibi, tuproqning kimyoviy elementlar tarkibi) va shukabilardir. *Biotik omillar* esa viruslar, mikroblar, bakteriyalar, sodda tirik mavjudotlar, o'simliklar, hasharotlar, qushlar, hayvonlar va nihoyat, odamlar (biologik tur sifatida). Tabiiy muhitning bu omillari o'zaro bir-birlari bilan bog'liq, bir-birlariga ta'sir va aks ta'sir qilib, o'zgarib, rivojlanib turadi.

Insoniyat jamiyatni ana shu tabiiy muhitda yashaydi va mavjud bo'ladi. Lekin uning yashashi va mavjud bo'lishida bu tabiiy muhitning o'zi yetarli bo'lmaydi. Shu tufayli inson tabiiy muhit omillaridan faol foydalangan holda, shu tabiiy muhit ichida „sun’iy muhit“ ni ham yaratdi. „Sun’iy muhit“ — **bu insonning o’z yashash sharoitini „insoniylashtirish“, „ijtimoiylashtirish“ uchun tabiiy muhit omillaridan foydalangan holda o’zining jismoniy va aqliy faoliyati bilan tashkil qilgan, yaratgan sharoiti, qulayliklaridan iborat muhitdir.** „Sun’iy muhit“ ga inson yaratgan uy-joylaridan tortib, bog'-rog'lar-u, inshootlar, qurilishlar, hayvonlarni va o’simliklarni xonakilashtirish, o’simlik va hayvonlar, sahro va cho'llar, daryo va okeanlarni o’zlashtirishlarigacha, bir so’z bilan aytsak, butun madaniyatni kiritish mumkin.

„Sun’iy muhit“ ko‘philik adabiyotlarda „ikkinchi tabiat“ deb ham ataladi. „Sun’iy muhit“ tabiiy muhit bilan uzviy bog’liq, u shu tabiiy muhit bag’rida, tabiiy muhit omillari asosida inson tomonidan yaratiladi. Tabiiy muhit omillari bo'lmasa, inson ularga o’z jismoniy va aqliy faoliyati bilan ma'lum „insoniylik“, „insonga xizmat qilishlik“ xususiyatlarini kiritmasa, sun’iy muhit bo'lmaydi.

Inson mehnat faoliyati bilan tabiatga ta’sir ko‘rsatar ekan, u mehnat vositalari, qurollari yordamida tabiiy muhitni o’z ehtiyojlariiga moslashtirib, hayotiy faoliyati uchun zarur narsalarni ishlab chiqaradi. Bunda inson bilan tabiat, tabiat bilan jamiyat o’rtasida inson yaratgan, „insoniylashtirilgan“, „ikkinchi tabiat“ (ya’ni, „sun’iy tabiat“) zuhur qiladi. U inson jismoniy va aqliy mehnati majmuyining tabiiy muhit bilan o’zaro ta’sir mahsulidir. Bu „ikkinchi tabiat“ insonsiz mavjud bo'lmaydi, bo’la olmaydi. Inson bilan tabiat, tabiat bilan jamiyat o’zaro munosabatlarda tabiatda ilgari bo’lmagan, sifat jihatidan yangi tizimni yaratadi va unda tizimlararo bog’lanishlar, aloqadorliklar paydo bo'ladi. Insoniyat jamiyatni taraqqiyoti bilan inson va jamiyatning tabiatga ta’siri, tabiatning ularga aks ta’siri tobora rivojlanib, o’zgarib boradi.

5- §. Inson va jamiyatning tabiat bilan o’zaro munosabatlari evolutsiyasi

Inson va jamiyatning tabiat bilan o’zaro munosabatlari tarixiy taraqqiyot davomida o’zgarib borgan. Olimlarning bu haqda turli qarashlari mavjud. Masalan, ko‘philik olimlarning fikrlariga ko‘ra, inson va jamiyatning tabiat bilan munosabati evolutsiyasi to‘rt davrga bo’linadi. Bular: 1) o’ziniki qilib olish; 2) agrar; 3) industrial; 4) noosfera davrlari.

Boshqa bir guruh olimlar esa, bu davrlarni boshqacharoq tarzda turkumlashtirgan, ya'ni inson jamiyat va tabiat munosabatlarning to'rt bosqichidan birinchi bosqichi — *ibtidoiy javoa* tuzumini o'z ichiga oladi. Bu davrda kishilar oddiy va tayyor mehnat qurollaridan foydalangan, tabiat kishilarning hayot kechirishi uchun zarur ne'matlarni bevosita tayyorlab bergen. Shu sabab dastlab bu ne'matlarni ishlab chiqarishga ularda ehtiyoj bo'lмаган¹.

Ikkinchi bosqich, bu — *quldarlik ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi* bilan bog'liq bo'lib, bu davrda ishlab chiqarish ancha rivojlanib, ishlab chiqarish qurollari va vositalarining takomillashuv natijasida mehnat malakalari, tajriba va ko'nikmalar to'plana borib, ular haqida maxsus bilimlar paydo bo'ladi. Natijada inson tabiatni o'rganishga kirishib, uni bila borib, ba'zi narsalarni ixtiro qila boshlaydi. Shu asosda u tabiatni o'zgartira boshlaydi.

Bu davrda tabiat boyliklariga nisbatan turli xil mulkchilik munosabatlari paydo bo'lib, mehnat vositalari va qurollari takomillashadi. Temirdan yasalgan mehnat qurollari yaratilib, kishilar ular vositasida tabiatga kuchliroq ta'sir etib, o'z ehtiyojlari uchun tabiat boyliklaridan faolroq foydalana boshlaydilar.

Uchinchi bosqich — *feodal ijtimoiy-iqtisodiy tuzum* bilan bog'liq bo'liq, bu davrda ishlab chiqarishning quldarlik shakllari o'rnni feodal munosabatlari olib, ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanadi, kishilarda tabiatni bilish va o'zgartirish uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'ladi.

To'rtinchi bosqichda *mashinalashgan ishlab chiqarish* paydo bo'ladi. Fan va texnika jadal rivojlanadi. Natijada inson va jamiyatning tabiatga ta'siri haddan tashqari kuchayib, hatto jamiyatning tabiatga vahshiyona munosabatlari ham kelib chiqadi. Oqibatda, tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi ziddiyat ma'lum darajada keskinlashib, tabiatda ekologik buhron xavfi yuzaga keladi.

Bulardan tashqari, inson va jamiyatning tabiat bilan munosabatlarini boshqacha davrlarga ajratish ham mavjud. Bular: 1) yovvoyilik; 2) varvarlik va 3) sivilizatsiya. *Yovvoyilik* — bu, asosan, tabiatning tayyor mahsulotlarini o'zlashtirish davridir: inson tomonidan yaratilgan vositalar, asosan, ana shunday o'zlashtirishda yordamchi qurol bo'lib xizmat qilgan. *Varvarlik* — bu chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullana boshlangan davr. Bu davr —

¹ *Qarang: Y. Shodimetov. Ijtimoiy ekologiyaga kirish. T., „O'qituvchi“, 1994, 7—9- betlar.*

inson faoliyati yordamida tabiat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko‘paytirish usullarini egallash davridir. *Sivilizatsiya* — bu tabiat mahsulotlariga ishlov berishni chuqr egallash (takomillashtirish) davridir, asl ma’noda sanoat va mohirlik davridir.

Nihoyat, inson va jamiyat bilan tabiat o‘rtasidagi munosabatlар evolutsiyasini: *neogen*, *biogen* va *texnogen* davrlariga bo‘lib izohlashlar ham mavjud.

Neogen davri Yer yuzida neatrop yoki *Homo sapiens* (aqlli, ongli odam)ning paydo bo‘lishiga to‘g‘ri keladi. Bu davr bundan 30—40 ming yil ilgari sodir bo‘lgan bo‘lib, unda odam dastlabki sun’iy qurollarni yaratib, ular yordamida tabiiy muhitga ta’sir qila boshlagan.

Biogen davri, bu — asosan, odamlarning tabiatga moslashish davri bo‘lib, odamlar tabiatning tayyor ne’matlarini o‘zlash-tirishdan chorvachilik va dehqonchilikka asta-sekin o‘tishi sodir bo‘ladi. Bu davrda odamlar bilan tabiat o‘rtasida paydo bo‘la boshlagan ziddiyatlar texnogen davrining paydo bo‘lishiga olib keldi.

Texnogen davri ishlab chiqarishga texnika, texnologiyaning kirib kelishi bilan boshlanadi. Feodalizm bag‘rida kapitalistik ishlab chiqarish, ya’ni sanoat ishlab chiqarishining paydo bo‘lishi bilan texnogen davrining ikkinchi bosqichiga o‘tildi. Mazkur bosqichda tabiat kuchlari bilan kurash, ularni inson va jamiyat manfaatlariga xizmat qildirish kuchayib, inson va jamiyatning tabiatga yetka-zayotgan zarari jiddiy ortadi.

Texnogen davrida inson jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojining ustun omiliga aylanib, fan taraqqiyoti jadallahshadi, uning ishlab chiqarish doirasida moddiylashuvi, texnika bilan uyg‘unlashuviga, pirovardida, fan-texnika inqilobiga olib keladi. Jamiyat taraqqiyotining bunday holati texnogen davrining industrial bosqichining boshlanishiga sabab bo‘ladi¹. Mazkur bosqich tabiat o‘z-o‘zicha, tabiiy ravishda yaratmaydigan moddalar, mashinalar, mexanizmlar, ashyolarning yaratilishi, ixtiro qilish va ko‘plab ishlab chiqarilishi bilan xarakterlanadi. Bu davrda fan va texnikaning tezkor taraqqiyoti, inson va jamiyatning tabiatga ta’sir ko‘rsatishi doirasi va miqyoslarining kengayishi shunga olib keladiki, antropogen omillarning ta’sirida tabiiy muhitda juda katta o‘zgarishlar ro‘y bera boshlaydi.

¹ *Qarang: Y. Shodimetov. Ijtimoiy ekologiyaga kirish. T., „O‘qituvchi“, 1994, 10-bet.*

6- §. Noosfera to‘g‘risidagi ta’limot

Noosfera — lug‘aviy mazmuniga ko‘ra, insonning tabiatga faol ta’sir etib, o‘z aqli va faoliyati natijasida yaratgan yangi muhitdir.

Noosfera haqidagi ta’limotning asoschisi qomusiy olim **V.I.Vernadskiy**dir. U Yerda hayotning paydo bo‘lishi va rivojlanishini butun koinotda amalga oshadigan boshqa jarayonlar bilan aloqador jarayon deb qaradi. V.I. Vernadskiy hayotni organik moddalarning alohida uyushgan bir butunligi, Yer yuzasidagi barcha jonli organizmlarning majmuyi, deb ta’rifladi. Shuningdek, jonli organizmlarning butun Yer yuzi bo‘ylab tarqalishi va ularning yashash muhitini biosfera, bir butun hayot joylashgan alohida makon, deb ta’rif beradi. Uning ta’kidlashicha, Yerning biosferasi o‘z-o‘zidan rivojlanuvchi, o‘z-o‘zini qayta tiklovchi eng ulkan ekologik tizim sifatida koinotda nodir hodisadir. I.V. Vernadskiy biosfera Yer qobig‘ida ro‘y beradigan barcha jarayonlarga, biokimyoviy jonli organizmlar tarkibiga odamzodni ham kiritadi. Uningcha, odamning biologik mohiyati ekologik jihatdan biosfera bilan chambarchas bog‘langandir, u o‘z tabiiy hayot faoliyatida energiya manbalari va biogeokimyoviy hodisalar doirasiga tortilgan.

Ammo biosfera tizimida odamzodning roli va o‘rni jonli mavjudotlarning boshqa hamma shakllaridan tubdan farq qiladi. U, odamning alohida jonli mavjudot sifatida biokimyoviy tomonlarini o‘rganishda, unda boshqa tirik mavjudotlarda bo‘lmagan yangi omil — ongliligiga duch kelamiz, deydi. Bunda inson o‘z bilimlari va texnikaviy yutuqlar bilan biosferaning faoliyat ko‘rsatishiga, uning uyushganligiga, sifat jihatdan yangi holatiga, ya’ni noosferaga o‘tishiga katta ta’sir ko‘rsatadi, degan xulosaga kelgan.

I.V. Vernadskiyning tushuntirishicha, noosfera biosferaning shunday bir holatidirki, unda ong va ong yo‘naltirib turgan inson faoliyati planetada misli ko‘rilmagan geologik kuch sifatida namoyon bo‘ladi¹.

Insonning paydo bo‘lishi Yerda sodir bo‘ladigan/barcha jarayonlarni tezlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Dastlabki (bundan qariyb 2,5 mln yil avval) paydo bo‘lgan gominidlarda ularning biosferaga ta’siri boshqa yuqori darajada uyushgan

¹ *Qarang: Размышление натуралиста. Кн.2. Научная мысль, как планетарное явление. М., 1997, стр. 67.*

hayvonlar ta'siridan uncha farq qilmagan bo'lsa-da, ilk paleolit (250 ming yil muqaddam)da sodda mehnat qurollari bilan foydalana oladigan *Homo fabehr* (quroldan fodalanuvchi odam)ning paydo bo'lishi bilan insonning tabiatga ta'siri shakllana boradi. Paleolitning nihoyasiga kelganda esa, *Homo sapiens* (ongli, aqli odam)ning yuzaga kelishi inson aqlining rivojlanib borishi bilan uning tabiatga, tabiiy muhitga ta'siri ortib boradi.

I.V. Vernadskiyning ko'rsatishicha, insonning tabiatga ta'siri o'sa borishi odamlar soni ko'payishi bilan emas, balki inson ongi o'sishi, ilmiy tafakkuri rivojlanib borishi bilan yuzaga keladi. Shu tariqa, asta-sekin biosferadan yuqoriroq yangi bosqich — noosfera shakllanishi uchun shart-sharoit yaratiladi. I.V. Vernadskiy noosfera rivoji boshlanishini: dehqonchilik, chorvachilik madaniyatining kelib chiqishi, nihoyat, katta shaharlarning yuzaga kelishi, antik davlatlarning shakllanishi bilan bog'laydi. Olimning isbotlashicha, mana shu ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy negiz odamzod avlodining tez ko'payishiga, „insoniyatning madaniy biogeokimyoiy energiyasi o'sishiga“ va demakki, ijtimoiy hayotda ilmiy tafakkur paydo bo'lishiga olib kelgan. Shu asosda insonning biosfera tizimida tutgan o'rni boshqa barcha jonli mavjudotlardan sifat jihatdan farq qila boshlagan. Insonda yuzaga kelgan ong va ilmiy tafakkur rivojlanishida yuqorida ko'rsatilgan omillar tabiat va jamiyat munosabatlarini muvofiqlashtirishda hal qiluvchi rol o'ynagan.

Insonning ong va tafakkurga tayanib, jamiyat va tabiat munosabatini, insonning tabiatdan foydalanishini oqilona boshqarishning yuzaga kelishi noosferani tashkil qiladi. Noosferada jamiyat va tabiat munosabatlari, inson bilan atrof muhiti o'rtaida yangi ekologik jarayonlar, tizimlar kelib chiqadi. Inson noosfera tufayli biosferaning o'zaro bog'liq barcha bloklari — litosfera, gidrosfera, atmosfera, pedosferani, butun jonsiz va jonli tabiatni, hatto fazodagi o'zining texnogen ta'sirini ham qamrab olishiga erishadi.

I.V. Vernadskiyning ko'rsatishicha, inson ongi va tafakkuri geologik kuch sifatida, biosferaga texnogen ta'sir ko'rsatish va uning noosferaga aylanishidagina namoyon bo'lmay, balki insonning hozirgi zamон bilimlari bilan qurollanishi, yuzaga kelgan atrof muhiti halokatinining oldini olishga qodir bo'lgan imkoniyatlarida ham ifodalanadi. Uningcha, hozirgi zamон olimlari oldida jamiyat va tabiat munosabatlarini noosfera uyg'unligini ongli

ravishda tashkillashtirishning misli ko‘rilmagan vazifalari turibdi. Olimlar bu vazifalardan yuz o‘gira olmaydilar, buning boisi, ilmiy bilishning ijodiy jarayoni shuni taqozo qiladi¹.

Noosfera to‘g‘risidagi ta’limot: tabiat kuchlari va resurslaridan inson manfaatlari yo‘lida oqilona foydalanish va uni yanada rivojlantirish, ijtimoiy mehnat unumdorligini oshirish, aholi salomatligini himoya qilish, bu sohadagi ishlarni yanada rivojlantirish yo‘llarini ko‘rsatib beradi. Bu ta’limot shakllanib, rivojlanib borgan sari insonlarning tabiiy omillarga qaramligi tobora kamayib boradi. Yashash uchun yaratilgan „sun‘iy muhit“ga oid me‘morchilik komplekslari, hozirgi zamon texnologiyasi, noklassik energiya ta‘minotiga asoslangan transport turlari, sintetik kiyim-bosh, polimerlarni sintezlash, yerdagi yaroqsiz muhitda, kosmosda va boshqa joylarda yashash va ishlash uchun apparatlar yaratish borasida zamонавиғи тиббиёт ерішгандың ютуғларында ассоциированы, организм азотарининг sun‘iy о‘xshashliklarini yaratish, gen muhandisligi muvaffaqiyatlari, turli ehtiyojlarni qondirish uchun biotexnologiyaning rivojlanishi va hokazolar, shuningdek, fan-texnika taraqqiyotining erishgan yutuqlari — bularning hammasi noosferaning tobora kengayib borayotganligining isbotidir².

Agar ilgarilari insoniyat va jamiyat ishlab chiqarish jarayoni butunlay tabiatga, tabiiy omillarga qaram bo‘lsa, endilikda noosferaning rivojlanib borishi bilan insoniyat jamiyat ishlab chiqarish jarayonida tabiat boyliklaridan foydalanish qatorida, o‘zi yaratgan „sun‘iy“ tabiat mahsulotlaridan ham foydalana boshladи.

Noosferaning rivojlanishi hozirgi vaqtدا zamонавиғи elektronika va mikroelektronika yutuqlari bilan boyitilmoqda. Bu sohalarda erishilgan yutuqlar ishlab chiqarishga oid texnologik jarayonlarni sifat jihatdan oshirib, axborotlarni to‘plash va ulardan foydalanishni yaxshilab, insonning aqliy, ijodiy imkoniyatlarini yanada ko‘proq ro‘yobga chiqarishga olib kelmoqda.

Bizning mustaqillikka erishishimiz tabiatni falsafiy tushunishda yangi imkoniyatlar ochib berdi. Bugungi kunda milliy ijtimoiy-iqtisodiy muammolar yechimini topishda ekologik vazifalarni hal etish bilan bog‘liq falsafiy masalalar o‘ziga xos ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Qarang: И.В. Вернадский. Живое вещества. М., 1973, стр.16.

² Qarang: Y. Shodimetov. Ijtimoiy ekologiyaga kirish. T., „O‘qituvchi“, 1994, 20 — 21-betlar.

Tabiatni falsafiy tushunishga ko'ra, tabiat, bu — benihoyat xilma-xil shakl va ko'rinishlari bilan bizni qurshab turgan bir butun olam, ya'ni moddiy borliqdir. „Tabiat“ tushunchasi keng ma'noda fazoda cheksiz va vaqtida abadiy moddiy borliqni ifodalaydi. Tabiat jonsiz va jonli tabiatlarning birligidan iborat. Jonsiz tabiatdan jonli tabiatni farqlantiruvchi asosiy omil, bu — jonli tabiatga xos hayot jarayonidir.

Fan insonni jonli tabiatning uzoq evolutsion taraqqiyoti natijasida paydo bo'lgan oliy jonli mavjudot deb tushuntiradi. Jamiyat esa, tabiat taraqqiyotining mahsuli, uning bir qismi. Tabiatda va jamiyatda obyektiv qonunlar amal qiladi. Tabiatni hech kim yaratmagan, u azaliy va abadiy mavjud, makonda cheksiz va vaqtida abadiy, degan xulosa muqobil falsafiy qarashlarning biridir.

II. Jamiyat borlig'i va uning falsafiy tahlili

Hadislarda jamiyat hayotining asosiy mezonlari haqida shunday fikrlar aytilgan: „*Podshohlaringiz odil, boylaringiz saxiy, ishlar-ringiz bamaslahat bo'lsa, sizga yerning ostidan ustti yaxshi*“.

Demak, odamlar o'rtasidagi munosabatlar yuksak ma'naviy omillar: odillik, saxiylik, hamfikrlik, hamjihatlik asosida shakllanishi va rivojlanishi jamiyat hayotida adolat, haqiqat qaror topishining asosiy shartidir.

Jamiyat — kishilar o'rtasidagi manfaatlar va maqsadlarni oqilona mushtaraklashtirishga asoslangan, axloqiy, huquqiy mezonlar, an'ana, marosim, urf-odatlarga tayangan, muayyan boshqarish tizimi orqali yo'naltiriladigan ijtimoiy, ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy munosabatlardir. Jamiyat deb nomlangan munosabatlar tizimi shakllanishi va rivojlanishi odamzodning dastlabki avlodlari paydo bo'lgan davrdan emas, balki ular uzoq vaqtlar davomida amaliy ehtiyoj va zaruriytlardan kelib chiqib, bir-biri bilan birlashib, aniq iqtisodiy, ma'naviy aloqalar tizimiga kirishgan davrdan boshlanadi. Jamiyatning shakllanishi ham, rivojlanishi ham aql, idrok sohibi bo'lgan, tajribaga tayanib, uning saboqlarini umumlashtirib ish ko'radigan insonlar tomonidan amalga oshiriladi.

Shunday qilib, jamiyat hayotining asosini kishilarning oddiy miqdoriy yig'indisi emas, balki bu birlashishga asos bo'lgan maqsadlar, manfaatlar tashkil etadi. Bu maqsadlar oqilona mushtaraklashishi uchun jamiyatni boshqaruvchi kuchlar, shaxslar

adolatparvarlik, insonparvarlik, haqiqatparvarlik e'tiqodiga, insoniy bag'rikenglik tamoyillariga tayanmog'i zarur. Shundagina jamiyat barqaror rivojlanadi, odamlar ma'lum darajada o'z orzu-umidlariga yetishadilar.

Alisher Navoiy aytganidek:

„To hirs-u havas xirmoni barbod o'lmas,
To nafs-u havo qasri barafrod o'lmas,
To zulm-u sitam joniga bedod o'lmas,
El shod o'lmas, mamlakat obod o'lmas“.

Xo'sh, jamiyat borliqning o'ziga xos shakli sifatida qanday mohiyat va rivojlanish imkoniyatlariga ega?

1-§. „Jamiyat“ tushunchasi. Jamiyatni diniy-naturalistik va falsafiy tushunish

„Jamiyat“ tushunchasi arabcha so'z bo'lib, uning lug'aviy ma'nolari o'zbek tilida: „umumiylik“, „birlik“, „majmua“, „jamlangan“ deganidir. Bu tushuncha kishilarning umumiyligi ijtimoiy faoliyatlari va munosabatlarining birligi, ularning muayyan maqsad asosida uyushgan usuli va shaklini ifodalaydi. Bu tushunchaning kundalik ongdagi va ilmiy, falsafiy adabiyotlarda qo'llaniladigan tor va keng ma'nolari mavjud. „Jamiyat“ tushunchasi, tor ma'noda, ma'lum kishilarning biror maqsad yoki faoliyat asosida uyushgan birligini yoki insoniyat hayoti va taraqqiyotining muayyan aniq bosqichini ifodalaydi. Masalan, „O'zbekiston xotin-qizlar jamiyati“, „feodalizm jamiyati“ kabi. „Jamiyat“ tushunchasi, keng ma'noda, falsafiy jihatdan, insonlarning ongli faoliyati jarayonida o'zaro ijtimoiy munosabatlar orqali uyushgan birligini, uning o'ziga xos uyushish usuli va mavjudlik shaklini ifodalaydi. Bu tushuncha ilmiy va falsafiy adabiyotlarda „kishilik jamiyati“ yoki „jamiyat“ shaklida qo'llaniladi. U eng umumiy va mavhum tushunchalardan biridir.

Jamiyat haqidagi qarashlar birdaniga paydo bo'lgan emas. Kishilarda dastlab jamiyat to'g'risida xayoliy-mifologik qarashlar, undan keyin asta-sekin diniy qarashlar paydo bo'lgan. Diniy qarashlarga ko'ra, jamiyat Xudo tomonidan yaratilgan bo'lib, u Xudoning insonlarga bergen in'omidir. Bu ta'limotga ko'ra, jamiyatning mohiyatini, uning mavjudligi va taraqqiyotini ilohiy kuch tanho Xudoning o'zi belgilaydi, jamiyatdagi har qanday hodisa va voqealari Xudoning irodasi bilan sodir bo'ladi.

Jamiyatning rivojlanib borishi, ilm-fanning paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan jamiyat haqidagi qarashlar ham o'zgarib va rivojlanib borgan. Kishilikning buyuk aql egalari, boshqa sohalarda bo'lganidek, jamiyat haqida uning mohiyati, paydo bo'lishi va rivojlanishi qonuniyatlarini bilishga, shu asosda o'z istiqbollarini belgilashga harakat qilishib, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirib borganlar.

Umuman, eng qadimgi davrlardan boshlab, jamiyat haqida mifologik, diniy, tabiiy-ilmiy va nihoyat, falsafiy qarashlar paydo bo'la boshlagan. Buni biz bizgacha yetib kelgan qadimiy yozma yodgorliklardan, xususan, muqaddas diniy kitoblardan bilib olamiz. Chunonchi, O'rta Osiyo xalqlari muqaddas kitobi „Avesto“ da jamiyat, uning mohiyati, mazmuni, jamiyat hodisalari haqida qimmatli qarashlar bayon qilingan. Bulardan tashqari, qadimgi Hindiston, Xitoy va Yunoniston tarixiga oid manbalarda ham adolatli jamiyatni qurish, boshqarish jamiyatning mohiyati va rivojlanishi haqida qarashlar o'z ifodasini topgan. Xususan, qadimgi yunon faylasuflari Aflatun va Arastular takomil topgan, mo'tadil jamiyatni barpo qilish g'oyalalarini ilgari surishgan. Bu mutafakkirlarning jamiyat haqidagi qarashlarini o'rta asrlarda yashagan buyuk vatandoshlarimiz Forobiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqalar yanada rivojlantirganlar. Masalan, Forobiy o'zining „**Fozil odamlar shahri**“ asarida kishilar o'zlarining insoniyliklari asosida birikib, jamiyatni tashkil qilishi va shu insoniyliklaridan kelib chiqib tinchtotuv yashashlari lozimligini ko'rsatgan edi.

Beruniy jamiyat kishilar tomonidan o'z ehtiyojarini tushunib, o'zlariga o'xhash kishilar bilan o'zaro „shartnoma“ asosida birga yashashdan iboratligini, ular birgalikda faoliyat ko'rsatishlari, mehnat qilishlari zarurligini aytgan.

Ibn Sino jamiyat — kishilarning o'zaro kelishuvlari, bir-birligiga yordamlashish asosida tashkil topishi, uning a'zolari esa adolatli qonunlar asosida yashashlari lozimligini yozgan edi.

Jamiyatning rivojlanib borishi davomida jamiyat haqida turli xil qarashlar, ilmiy bilimlar ham rivojlanib, boyib bordi. Natijada, *shu narsa ma'lum bo'ldiki*, jamiyat nihoyatda murakkab va ziddiyatli ijtimoiy organizm bo'lib, uning mohiyatini tarixiy hodisalar va jarayonlar tashkil qiladi. Jamiyat tabiatning ajralmas bir qismi, jamiyat tabiat taraqqiyoti asosida kelib chiqqan, u tabiat taraqqiyotining oliy mahsuli, shu tufayli jamiyatda ham tabiat qonunlari amal qiladi, degan qarash qaror topdi. Bu qarashni Yevro'pada

XVIII asr fransuz mutafakkirlari ilgari surishdi. Ular o‘z asarlarida tabiat qonunlari bilan ijtimoiy, ya’ni jamiyat qonunlarini aynanlashtirib, ular o‘rtasidagi muhim farqni tushunib yetmadilar. Jamiyatni bunday tushunish o‘z mohiyati bilan uni naturalistik izohlash edi.

Nihoyat, jamiyatni bir butun holda olib o‘rganish, uning mohiyatini tushuntirishga qaratilgan turli xil falsafiy nazariyalar vujudga kela boshlaydi. Bu nazariyalarning biri nemis mumtoz falsafasining buyuk vakili **F.V. Xegel** nazariyasidir. Xegel jamiyat mohiyatini va uning taraqqiy etishini o‘zining „mutlaq g‘oya“si bilan bog‘lab, „Mutlaq g‘oya“ o‘z-o‘zidan rivojlanib, avval u tabiatga aylanadi, so‘ng tabiat qiyofasida rivojlanib borib, jamiyat paydo bo‘ladi. Jamiyatda „mutlaq g‘oya“, „mutlaq ruh“ qiyofasini oladi. „Mutlaq ruh“ jamiyatni harakatga keltiruvchi va uni boshqaruvchi kuchdir, deydi. Xegelning fikricha, „mutlaq g‘oya“ insondan oldin mavjud bo‘lib, jamiyatdagi barcha hodisa va voqealar, jarayonlar shu „mutlaq g‘oya“ ning begonalashuvidan boshqa narsa emasdир.

Nemis mumtoz falsafasining so‘nggi vakili **L. Feyyerbax** esa jamiyat mohiyatini din bilan bog‘lab, jamiyatning taraqqiyotini dinning taraqqiyotidan keltirib chiqarib izohladi. Uning qarashicha, jamiyatni rivojlantirish uchun dinni takomillashtirish, yangi din yaratish lozimdir.

XIX asrning o‘rtalariga kelganda, jamiyat to‘g‘risidagi barcha mavjud nazariyalarni o‘rganish va tahlil qilish asosida **K. Marks** va **F. Engelslar** o‘zlarining jamiyatni dialektik-materialistik tushunish haqidagi nazariya — tarixiy materializmni yaratdilar.

Bu nazariyaga ko‘ra, jamiyat o‘z-o‘zidan rivojlanuvchi ijtimoiy tartibot, jonli organizm bo‘lib, uni kishilarning ijtimoiy-tarixiy faoliyatlari yaratadi. Shu bilan birga kishilarning o‘zları ham jamiyatning mahsullaridir. Kishilar bir-birlari bilan o‘zaro muayyan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy, madaniy va ma’naviy munosabatlarda bo‘lishib, moddiy va ma’naviy boyliklar ishlab chiqaradilar. Ular o‘zlarining bu ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyatlari tufayli biologik tur — odamlar (to‘dasi)dan insonlarga aylangan va kishilik jamiyati kelib chiqqan.

Jamiyat to‘g‘risidagi bu nazariyaga ko‘ra, jamiyat har doim ma’lum ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya shaklida mavjud bo‘ladi. „Moddiy ishlab chiqarish jamiyat hayoti va taraqqiyotining asosidir“, „ishlab chiqarish jarayonida kishilar o‘zaro muayyan

ijtimoiy aloqa va munosabatlarda bo‘ladilar“..., „ishlab chiqarish munosabatlarining jami ijtimoiy munosabatlardir“, „ijtimoiy borliq ijtimoiy ongni belgilaydi, uning aksicha bo‘lmaydi...“, „ijtimoiy borliq — birlamchi, ijtimoiy ong ikkilamchi hosiladir...“, „ishlab chiqaruvchi kuchlar ishlab chiqarish munosabatlarini belgilaydi“. „Iqtisodiy bazis siyosiy ustqurmani belgilaydi...“¹.

Bu fikrlar K. Marks va F. Engelsning jamiyat mohiyatini dialektik-materialistik ta’limot asosida tushunishlari edi. Ular o‘z nazariyalari bilan falsafa oldiga jamiyatni bilish, izohlash va tushuntirishni emas, balki uni o‘zgartirish vazifasini qo‘yishadi. Shu sababli ular o‘z nazariyalarda „antagonistik formatsiyalar rivojlanishining manbayi — sinfiy kurashdir“..., „sinfiy kurash sotsialistik revolutsiyaga olib boradi“..., „sotsialistik revolutsiya sinfiy kurashning oliy shaklidir“... degan fikrni ilgari suradilar va shular asosida jamiyatni o‘zgartirish yo‘llari va usullari to‘g‘risidagi siyosiy maqsadlar uchun xizmat qiluvchi qarashlarni ham o‘rtaga tashlaydilar.

K. Marks va F. Engels o‘z nazariyalarining proletarlar sinfi uchun xizmat qilishini aytib, „bu nazariya proletariatda o‘zining moddiy qurolini topdi, proletariat esa bu nazariyada o‘zining ma’naviy qurolini topdi“, deyishdi. Ularning bu nazariyasi o‘z davrida va ayniqsa, XX asrning boshlarida ayrim kishilar tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, uni jamiyatni tushunishda va o‘zgartirishda „birdan-bir revolutsion ta’limot“ deb baholanib, ijtimoiy hayotga tatbiq etishga kirishadilar. Bu ta’limot bilan qurollangan rus bolsheviklari vaziyatdan foydalangan holda, oktabr to‘ntarishidan keyin Rossiya va uning mustamlakalarida hokimiyatni o‘z qo‘liga olib, 70 -yildan ortiqroq muddatda o‘z hukmronligini o‘rnatdilar.

Ochig‘ini aytganda, „revolutsion ta’limot“ deb e’tirof etilgan jamiyat to‘g‘risidagi bu nazariya, mohiyat e’tibori bilan moddiyuncha, bir tomonlama ta’limot edi. Uning jamiyatni inqilobiy asosda zo‘rlik bilan tubdan o‘zgartirish haqidagi qarashlari insoniyat boshiga juda katta fojealarni soldi. Xususan, sobiq Sovet jamiyatni tajribasida bu nazariyaning ko‘pchilik jihatlari tasdiqlanmadni. Ayniqsa, XX asrning so‘ngida bu nazariya jamiyat taraqqiyotining yangi talablariga javob bera olmay qoldi. Natijada, 90- yillarga kelib sotsialistik lager parchalanib, Sovet Ittifoqi yemirildi. Uning o‘rnida

¹ K. Marks, F. Engels. Tanlangan asarlar. 1-jild. T., 1959, 69-bet.

esa, mustaqil davlatlar paydo bo'lib, jamiyat to'g'risidagi o'zini oqlamagan bir tomonlama va cheklangan bu nazariya ham uloqtirib tashlandi. Oqibatda, mustaqillik talablariga mos yangicha falsafiy qarashlarni ishlab chiqish va jamiyat rivojining yangi istiqbollarini belgilab berish zaruriyati tug'ilди. Prezidentimiz I.A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan „O'zbekistonning o'ziga xos va o'ziga mos taraqqiyot yo'li“ va uning besh tamoyili ayni shu zaruriyatni anglab unga berilgan javob bo'ldi. Bugungi kunda O'zbekistonning bozor iqtisodiyoti munosabatlariiga o'tishida bu besh tamoyil jamiyatimiz rivojlanishining yangi istiqbollarini belgilovchi asosiy omillar sifatida xizmat qilmoqda.

2- §. Jamiyatning moddiy va ma'naviy hayoti, ularning birligi va o'zaro bog'liqligi

Jamiyatni falsafiy jihatdan tahlil qilish uchun, avvalo, uning moddiy va ma'naviy hayoti nima ekanligini bilish zarur. Binobarin, bir butun jamiyat hayoti moddiy va ma'naviy jarayonlarning birligidan tashkil topgan bo'ladi. Jamiyatning moddiy va ma'naviy hayoti bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular biri ikkinchisisiz mavjud bo'la olmaydi.

Xo'sh, jamiyatning moddiy hayoti nima?

Jamiyatning moddiy hayoti deyilganda: kishilarning yashashlari, **shaxs** sifatida kamol topishlari va inson sifatida faoliyat ko'rsatishlari uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar joy, yoqilg'i, kommunikatsiya vositalari, moddiy ne'matlar, moddiy shart-sharoitlarning jami tushuniladi. Jamiyatning moddiy hayoti iqtisodiy ishlab chiqarish asosida yuzaga keladi. Moddiy ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida, ularning mehnat predmetlari, mehnat qurollari, ishlab chiqarish vositalari bilan obyektiv ravishda ro'y beradigan munosabatlari ham jamiyatning moddiy hayotiga kiradi.

Moddiy ishlab chiqarish jamiyat hayotining muhim va hal qiluvchi shartidir. Moddiy ne'matlar ishlab chiqarilmasa jamiyat hayoti izdan chiqadi, yashashi mumkin bo'lmay qoladi. Jamiyat moddiy va ma'naviy hayoti birligi falsafada „ijtimoiy borliq“ deb ataladi. Jamiyatning moddiy hayotini ham ifodalovchi ijtimoiy borliq, bir butun borliqning o'ziga xos shakli, turidir. Shu jihatdan ijtimoiy borliqda amal qiladigan qonunlar obyektiv xarakterga ega bo'lib, kishilarning ongi va irodasidan tashqarida, ularga tobe bo'lmagan holda amal qiladi.

Lekin, yuqorida aytib o'tilganidek, jamiyatning moddiy hayoti uning ma'naviy hayotisiz mavjud bo'la olmaydi. Buning uchun biz jamiyatning ma'naviy hayoti nima ekanligini ham bilishimiz zarur.

Xo'sh, jamiyatning ma'naviy hayoti nima?

Jamiyatning ma'naviy hayoti deyilganda, odatda, jamiyatni tashkil etuvchi kishilarning ongi, tafakkuri, dunyoqarashlari, xotirasi, aqli va farosatlari, ma'naviy-ruhiy dunyolaridan tortib ilm-fan, ta'lim-tarbiya, san'at va adabiyot, axloq, din, siyosat va huquq, ilmiy va diniy tashkilotlar, muassasalar, maktablar, litseylar, kolledjlar, oliy o'quv yurtlari, akademiyalar, muzeylar, teatrler, ommaviy axborot vositalari, nashriyotlar va tahririylatlarda xizmat qiladigan xodimlarning aqliy-ijodiy intellektual boyliklarining jami tushuniladi. Jamiyatning ma'naviy hayoti, bir jihatdan, jamiyat moddiy hayotining in'ikosi bo'lsa, boshqa jihatdan, u o'ziga xos qonuniyatlarga, xususiyatlarga, mohiyatga ega bo'lgan nisbiy mustaqil hodisadir. Jamiyatning ma'naviy hayoti moddiy hayotsiz, moddiy hayoti esa ma'naviy hayotsiz mavjud bo'la olmaydi. Ma'naviy hayotning ravnaq topishi yoki inqirozga yuz tutishi moddiy hayotning ravnaq topishi yoki inqirozga yuz tutishiga olib keladi va aksincha.

Jamiyatning ma'naviy hayoti ma'naviy ishlab chiqarish orqali yuzaga keladi. Boshqacha aytganda, u ma'naviy ishlab chiqarishning mahsulidir. Ma'naviy ishlab chiqarish orqali jamiyat ma'naviy hayotini tashkil etuvchi ilm-fan, diniy, axloqiy, siyosiy, huquqiy, badiiy-estetik qadriyatlar, ma'naviy ne'matlar yaratiladi. Keng ma'noda olinganda, jamiyatning ma'naviy hayoti — ma'naviyat va ma'rifatni tashkil qiladi. Jamiyat ma'naviy hayotining ma'lum qismi jamiyat moddiy hayotining in'ikosi sifatida, ularda jamiyat a'zolari: kishilar, etnik va ijtimoiy guruhlar, sinflar va ijtimoiy qatlamlarning tasavvurlari, tushunchalari, qarashlari, g'oyalari, manfaat va maqsadlari ifodalanadi. Shu jihatdan falsafiy adabiyotlarda jamiyatning ma'naviy hayotini „ijtimoiy ong“ tushunchasi bilan atash qabul qilingan bo'lsa ham, aslida, jamiyatning ma'naviy hayoti bilan jamiyatning ijtimoiy ongi bir narsa, ya'ni ekvivalent hodisalar emas. Ular bir nisbatdagina shunday bo'lishi mumkin. Haqiqatda, jamiyatning real hayotiga oid har qanday ijtimoiy hodisa yoki voqeа moddiylik va ma'naviylikning birligidan iborat bo'ladi, ularda moddiylik va ma'naviylikni bir-biridan ajratib bo'lmaydi.

Zero, jamiyatning real ijtimoiy hayotida moddiy hayot ham, ma'naviy hayot ham o'z o'rnila belgilovchi va asosiy rol o'ynaydi.

Bir butun jamiyat hayotining negizi — moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishining birligi asosida, jamiyat moddiy va ma'naviy hayoti vujudga keladi va rivojlanadi. Bunda ishlab chiqarish jarayoni, ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari, mehnatni tashkil etish, ijodiy va oqilona ish yuritish, fan-texnika va texnologiyani amaliyotga joriy etish ma'naviyat va ma'rifatsiz yuzaga kelmaydi. Bundan xulosa qilish mumkinki, jamiyatning moddiy hayoti ma'naviy hayotisiz, ma'naviy hayoti esa, moddiy hayotisiz mavjud bo'lmaydi, ular jamiyat rivojlanishida bir-birlariga ta'sir va aks ta'sir qilishib, nihoyatda murakkab jarayonlarda kechadi.

Shuning uchun jamiyatning moddiy hayotiga „asosiy“ va „belgilovchi“ deb qarash bir tomonlama qarash bo'lib, ma'naviy hayotning jamiyat hayoti va taraqqiyotidagi o'rni va roli kansitilishga va ma'lum darajada unga e'tiborsiz munosabatda bo'lishga olib keldi. Bunga misol qilib sobiq ittifoq davri siyosatini ko'rsatish mumkin.

Respublikamiz tarixinining yaqin kechmishida jamiyat ma'naviy hayoti sohalarida, bu qarashdan kelib chiqqan holda qator kamchiliklarga yo'l qo'yildi: xalqimizning haqiqiy tarixi o'rganilmadi; din, milliy axloq va ma'naviyat butunlay inkor qilindi; milliy an'ana va qadriyatlar poymol etildi. Shukurlar bo'lsinki, mustaqillikka erishishimizning birinchi qadamidan boshlab bunday xatoliklarni tuzatishga, ya'ni dinning umuminsoniy qadriyat, ma'naviyat va madaniyatning muhim tarkibiy qismi ekanligi e'tirof etilib, milliy an'ana va qadriyatlarni tiklashga kirishdik. Prezidentimiz I.A. Karimov o'zlarining birinchi risolalaridayoq jamiyatimizni yangilash va rivojlantirishning ma'naviy negizlarini ko'rsatib berib:

„Ma'naviyat insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat be'lmaydi.“

„Taraqqiyot taqdirini ma'naviy yetuk odamlar hal qiladi“, „Agar iqtisodiy o'sish, taraqqiyot — jamiyatning tanasi bo'lsa, ma'naviyat uning ruhi, aqli va jonidir“, deb jamiyat ma'naviy hayotini rivojlantirishga alohida ahamiyat berdilar.

3- §. Ijtimoiy munosabatlari, ularning turlari va shakllari

Yuqorida aytib o'tilganidek, jamiyat — insonlarning o'zaro ijtimoiy aloqalari, bog'lanishlari, munosabatlari natijasida yuz beradigan ijtimoiy faoliyatlari majmuyidir. Ijtimoiy faoliyat esa jamiyat moddiy va ma'naviy hayoti barcha jihatlarining qaror

topishi, mavjudligi va rivojlanishining asosidir. **Ijtimoiy faoliyat deyilganda, jamiyatni tashkil qiluvchi kishilarning moddiy va ma'naviy ne'matlarni, ularning o'zlarini yuzaga keltirish, jamiyat a'zolarini tarbiyalash, o'qitish, jismonan va ruhan kamolotga yetkazish, jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotini takror hosil qilish, takomillashtirish va rivojlantirishga qaratilgan nazariy va amaliy xatti-harakatlari tushuniladi.** Ijtimoiy faoliyatlarsiz jamiyatning moddiy va ma'naviy hayoti, ulardagi rang-barang tomonlar va jihatlarni tasavvur qilib bo'lmaydi.

Jamiyatdagi ijtimoiy faoliyatlar tarkibini iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, ilmiy, badiiy va hokazo yo'nalishlar tashkil qiladi. Ijtimoiy faoliyatlar jamiyat a'zolarining shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, ular manfaatlariga xizmat qilish maqsadida amalga oshiriladi.

Ehtiyojlar va manfaatlar bunda ijtimoiy faoliyatlarni harakatga keltiruvchi kuch, jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotining tayanchi bo'lib xizmat qiladi. Ularda jamiyat a'zolarining qiziqishlari, maqsadlari, rag'batlari, xohish va irodalari o'z ifodasini topadi. Bu ehtiyojlar va manfaatlar, o'z tabiatlariga ko'ra, moddiy yoki ma'naviy bo'lib, doimo jamiyat a'zolarining niyatlarida aks etib, ular anglanib olingach, kishilar ijtimoiy faoliyatlarining qonuniyatlari sifatida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy ehtiyojlar va manfaatlar jamiyat a'zolarining mehnat jarayonida, ijtimoiy ishlab chiqarishlarga qatnashishlarida, ularning o'zaro bir-birlari bilan munosabatlarida, jamiyat ishlariga faol aralashuvida paydo bo'ladi, jamiyatning rivojlanib borishi bilan o'zgarib, rivojlanib boradi. Ijtimoiy ehtiyojlar va manfaatlar qondirilib borishi kerak, aks holda, jamiyatda nosog'lom, ziddiyatli vaziyatlar vujudga kelishi mumkin. Jamiyat ehtiyojlar va manfaatlari ishlab chiqarish oldiga doimo muayyan vazifalarni qo'yadi, ularni amalga oshirish uchun ma'lum shart-sharoit tug'dirib beradi. Ijtimoiy ehtiyojlarlarsiz va manfaatlarsiz jamiyat ishlab chiqarishi amalga oshmaydi.

Jamiyatda kishilar o'z ehtiyojlarini va manfaatlari uchun mehnat qilishlari, mehnat qurollarini yasashlari, moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratishlari kerak. Ayni shu jarayonda o'z qobiliyatlarini ishga solish, ehtiyojlarini qondirish va manfaatlarini himoya qilish asosida insonning mohiyati ijtimoiy mazmun kasb etadi. Ularning bu jarayonda yuzaga keladigan mehnat malakalari, bilimlari, fikrlari, qarashlari, iroda va ruhiy holatlari jamiyatda yuz beradigan

ijtimoiy munosabatlar natijasida paydo bo‘ladi. Xuddi shu ijtimoiy munosabatlar bizga jamiyatning mohiyatini to‘g‘ri tushunish imkonini beradi. Bu ijtimoiy munosabatlar jamiyat a’zolarining o‘zaro bir-birlari bilan bo‘ladigan munosabatlardan boshqa narsa emas. Jamiyat esa, aslida, jamiyat a’zolarining o‘zaro ijtimoiy ongli munosabatlarda bo‘lishidir.

Jamiyat ijtimoiy munosabatlardan tashqari bo‘limganidek, ijtimoiy munosabatlar ham jamiyatdan tashqarida bo‘lishi mumkin emas. Ijtimoiy munosabatlardan tashqari, alohida olingan jamiyat o‘zining mohiyatini yo‘qotadi, bunday jamiyat hech bir realligi bo‘limgan, quruq abstraksiyadan iborat oddiy so‘z bo‘lib qoladi. Binobarin, jamiyatning nima ekanligini, uning mohiyatini to‘g‘ri tushunib olish uchun ijtimoiy munosabatlar nima ekanligini, ularning qanday turlari va shakllari borligini, ular o‘rtasidagi bog‘lanish va aloqalarni o‘rganish lozim.

Ijtimoiy munosabatlarni, dastlab, moddiy va ma’naviy-mafkuraviy munosabatlarga bo‘lish mumkin.

Moddiy ijtimoiy munosabatlar xilma-xil bo‘lib, ularning eng asosiysi — moddiy ishlab chiqarish munosabatlaridir. Moddiy ishlab chiqarish munosabatlarining xarakteri ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi. Moddiy ishlab chiqarish munosabatlarining negizini iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik, badiiy, ilmiy, mafkuraviy munosabatlar moddiy ijtimoiy munosabatlar asosida yuzaga keladigan ma’naviy-g‘oyaviy munosabatlardir. Moddiy ishlab chiqarish, iqtisodiy munosabatlar majmuasi jamiyatning **bazisini** tashkil qiladi. Siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, mafkuraviy munosabatlar esa jamiyatning **ustqurmasi** hisoblanadi. Umuman, ijtimoiy munosabatlarning turlari va shakllari juda ko‘p va xilma-xildir. Ularni bir-biridan nisbatan mustaqil tarzda turli ijtimoiy fanlar o‘rganadi. Shunday ijtimoiy munosabatlardan biri shaxsiy munosabatlardir. Shaxsiy munosabatlar jamiyatdagi ma’lum konkret shaxslar o‘rtasida bo‘ladigan o‘zaro munosabatlardir. Shaxsiy munosabatlarning o‘zlari ham turli-tuman va xilma-xildir.

Ijtimoiy munosabatlarni, ularning tabiatini va xarakterlariga ko‘ra ham, bir qancha turlarga ajratish mumkin. Masalan: antagonistik va noantagonistik, hukmronlik va tobeklik, o‘zaro tenglik, hamkorlik, hamjihatlik, o‘zaro yordam va boshqalar. Bu munosabatlar jamiyat ijtimoiy hayotida va rivojlanishida o‘ziga xos o‘ringa ega.

Shuni aytish kerakki, jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida eski jamiyat ijtimoiy munosabatlarining qoldiqlari va yangi, kelgusi jamiyat ijtimoiy munosabatlarining kurtaklari bo‘ladi. Bu shuni ko‘rsatadiki, hech bir davrda faqat shu jamiyatning o‘ziga xos „sof“ jamiyat ham, unga xos „sof“ ijtimoiy munosabatlar ham bo‘lmaydi. Jamiyat rivojlanishi jarayonida ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi bilan ijtimoiy munosabatlarning ham eskirganlari asta-sekin „o‘lib“ (yo‘qolib), yangilari paydo bo‘lib, o‘zgarib, rivojlanib boraveradi. Demak, xulosa qilib, ijtimoiy munosabatlarga shunday ta’rif berish mumkin: **Jamiyat a’zolari tomonidan o‘zaro birqalikda ongli ravishda amalga oshiriladigan ijtimoiy faoliyatlar ijtimoiy munosabatlar shakllarida sodir bo‘ladi.**

Ijtimoiy munosabatlar deb jamiyatdagи iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, ilmiy, estetik, ma’naviy-ma’rifiy va mafkuriy faoliyatlar jarayonida ijtimoiy guruuhlar, etnik va ijtimoiy qatlamlar, sinflar, millatlar, xalqlar, davlatlar, mamlakatlar o‘rtasida vujudga kelgan xilma-xil aloqalar va munosabatlarga aytildi. Ijtimoiy munosabatlar ijtimoiy faoliyatlar bilan uzviy va chambarchas bog‘liq. Ijtimoiy munosabatlar orqali jamiyatda ijtimoiy guruuhlar, sinflar, davlatlar, partiylar — barcha ijtimoiy-siyosiy kuchlar o‘zlarining hamma va har qanday faoliyatlarini amalga oshiradi. Ijtimoiy munosabatlar jamiyatda real ijtimoiy kuchlar faoliyatları natijasida paydo bo‘lgach, katta faollikka va barqarorlikka ega bo‘lib, jamiyatga sifat muayyanligini beradi.

Bunda shu narsaga ham e’tibor berish lozimki, jamiyatning o‘zgarishi va rivojlanishi bilan ba’zi ijtimoiy munosabatlar eskirishi, jamiyat rivojlanishiga xizmat qilmay, aksincha, to’sqinlik qila boshlashi mumkin. Bunday hollarda eskirgan ijtimoiy munosabatlardan voz kechib ularni jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan yangi ijtimoiy munosabatlar bilan almashtirish lozim bo‘ladi. Xuddi shunday vaziyat bizda O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritishi bilan ro‘y berdi. O‘zbekiston o‘ziga xos va o‘ziga mos taraqqiyot yo‘lini belgilab olib, kelgusida buyuk huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini qurishni maqsad qilib belgiladi. Bu maqsadga erishishda kuchli rivojlangan davlatlar tajribalarida sinalgan bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o‘tish vositasidan foydalanish va uni amalga oshirish zaruriyati tug‘ildi. Prezidentimiz I.A. Karimov *O‘zbekistonning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o‘tishi modelini va uning asosiy tamoyillarini ishlab chiqib, juda katta ish qildilar.* Bugungi kunda jamiyatimiz bozor iqtisodiyoti munosabatlariga bosqichma-bosqich o‘tib jahon hamjamiatiga kirib bormoqda.

4- §. Jamiyat hayotining asosiy sohalari va ularni boshqarish

Bir butun jamiyat hayoti, undagi ijtimoiy faoliyatlarning amalga oshishiga ko'ra, *iqtisodiy*, *ijtimoiy-siyosiy* va *madaniy-ma'naviy sohalarga* bo'linadi.

Jamiyatning iqtisodiy sohasi qisqacha **iqtisodiyot sohasi** deb ataladi. Iqtisodiyot sohasi, keng ma'noda, jamiyatning moddiy ishlab chiqarishi bilan bog'liq barcha faoliyat turlari, ularga oid ishlab chiqarish, taqsimot, iste'mol va mulkiy munosabatlarning jamini o'z ichiga oladi. Obrazli qilib aytganda, iqtisodiyot jamiyat hayotining „anatomiyasi“ ni tashkil qiladi. Uning asosini insonning buyumlashgan mehnati tashkil etadi. Iqtisodiyot jamiyatning iqtisodiy tizimi sifatida: ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-iqtisodiy, boshqaruv-iqtisodiy munosabatlardan iborat bo'ladi. Iqtisodiy munosabatlarning asosini esa mulkiy munosabatlar tashkil qiladi.

Mulkiy munosabatlarning turli-tumanligi jamiyatda mulkning turli shakllarini vujudga keltirgan. Jamiyatning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, ijtimoiy taraqqiyotning turli bosqichlarida o'rni va vaqtiga ko'ra turli xil mulk shakllari mavjud bo'lgan.

Jamiyatning iqtisodiy sohasi insonning faqat jismoniy mehnati bilangina emas, balki uning ongi, tafakkuri mahsuli — ilm-fan, texnika va texnologiya bilan ham bog'liqdir. Moddiy ishlab chiqarishning asosini hamisha inson intellekti — fan-texnika taraqqiyoti, ilg'or texnologiya tashkil etadi.

Hozirgi davrga kelib, jamiyatning iqtisodiy sohasida fan va texnika — ishlab chiqaruvchi kuchlar sifatida, texnologiya esa insonning mehnat predmetlariga fan va texnika imkoniyatlari, talablari asosida ta'sir etish usuli tarzida namoyon bo'lmoqda.

Bugungi kun — XXI asrda fan-texnika taraqqiyoti tufayli butun jamiyat hayoti, jumladan, uning iqtisodiy sohasi tobora intellektuallashib bormoqda, jamiyat taraqqiyotida iqtisodiyotning o'rni va roli muhim ahamiyat kashf etmoqda. Lekin bundan iqtisodiyot jamiyat taraqqiyotining asosiy hal qiluvchi yagona sohasi degan xulosa chiqarish muammoga bir tomonlama yondashuvga olib keladi. Sababi: jamiyat hayotining boshqa sohalari, xususan, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'naviy sohalari o'z o'rnida jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega, ular biri ikkinchisisiz mavjud bo'lолmaydi. Buni quyidagi ijtimoiy-siyosiy soha misolida ko'rishimiz mumkin.

Jamiyat hayotining siyosiy sohasini jamiyatning siyosiy tizimi, uni tashkil qilgan strukturaviy elementlarning o'zaro munosabatlari tashkil etadi. **Jamiyatning siyosiy tizimi** deyilganda esa uning siyosiy

hokimiyati, tashkilotlari va muassasalari, ularga xos siyosiy munosabatlar va faoliyatlar; siyosat, davlat, davlat hokimiyat organlari, sinflar, partiyalarning faoliyatlari va ular o'rtasidagi munosabatlarning jami tushuniladi. Siyosiy hokimiyat bo'lishi uchun uni amalga oshiruvchi siyosiy kuchlar, guruhlar, partiyalar bo'lishi, hukmronlik va tobelik, bo'ysindiruvchi va bo'ysinuvchilik, majburiylik, ularni mustahkamlovchi qonunlar, huquqiy normalar bo'lishi va jamiyat hayotida joriy etilishi kerak. Siyosiy hokimiyat o'z faoliyatini jamiyatda turli vositalar, usullar orqali amalga oshiradi. Siyosiy hokimiyatning asosiy shakli — davlat hokimiyatidir. Davlat siyosiy hokimiyatning shakli sifatida jamiyatda o'z faoliyatini ma'lum siyosat va mafkura asosida olib boradi.

Siyosat — muayyan davlatning boshqa davlatlar, xalqlar, millatlar, siyosiy guruhlar, partiyalar bilan olib boriladigan siyosiy munosabatlari majmuyidir. Uning negizini davlat hokimiyati va undan foydalanish tashkil qiladi. Siyosat jamiyatning barcha sohalariga faol ta'sir qiladi. Jamiyatning ijtimoiy hayotida siyosat iqtisoddan ustuvor bo'lmasligi kerak. Agar siyosat iqtisodiyotdan ustuvor bo'lsa, u jamiyatning iqtisodiy sohasini buhronga olib keladi.

Bunga sobiq Ittifoq iqtisodiyoti misolida yaqqol guvoh bo'lganmiz. Shuning uchun mustaqillikka erishganimizdan keyin O'zbekistonning o'ziga xos va o'ziga mos taraqqiyot yo'lini ishlab chiqishda O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimovning besh tamoyillarining birinchisi: „*iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi*“, deb belgilandi. Bugungi kunda jamiyatimiz moddiy va ma'naviy hayoti talab va ehtiyojlarini o'zida to'g'ri va to'liq ifodalagan O'zbekiston siyosati iqtisodiy va siyosiy islohotlarni samarali amalga oshirishda muhim rol o'yamoqda.

Jamiyatning siyosiy sohasini falsafiy jihatdan tahlil qilganda siyosatning obyekti va subyektini farqlash, davlatning mohiyati va funksiyalarini bilish muhim ahamiyatga ega.

Siyosatning obyekti butun jamiyat sohasi hisoblanadi. Jamiyatda siyosat o'z ifodasini topmagan birorta ham ijtimoiy hodisa yoki voqeя yo'q. Jamiyat hayoti sohalari ichida iqtisodiyot va siyosat, ular o'rtasida aloqadorlik va munosabatlar g'oyat muhim hisoblanadi.

Siyosatning subyekti esa, siyosiy hokimiyat, ya'ni davlat tashkilotlari va organlari, siyosiy partiyalar, guruhlar yoki alohida shaxslar bo'lib, ular faoliyati markazida siyosiy hokimiyatga intilish yotadi.

Davlat — jamiyat hayotini huquq va qonunlarga asoslangan holda tashkil etishning siyosiy shaklidir. Davlat jamiyat hayoti, siyosiy sohasining muhim elementi sifatida o‘z fuqarolarining haq va huquqlarini himoya qiladi, ularning mulklarini qo‘riqlaydi, mamlakat aholisining tinchligi va osoyishtaligini ta‘minlaydi. Shu bilan birga, boshqa davlatlarning mamlakatni bosib olishlaridan saqlaydi. U boshqa davlatlar, xalqlar bilan o‘zaro iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma’naviy aloqalar, hamkorliklar kabi munosabatlarni amalga oshiradi.

Davlatning asosiy funksiyasi — jamiyat hayoti sohalari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish va ularni boshqarishdan iboratdir.

Davlat va davlatchilik shakllarining rivojlanishi bilan siyosiy boshqaruvning murakkab tizimi maydonga keladi. **Davlat hokimiyatining tuzilishi, shakllari xilma-xildir.** Uning demokratiya, diktatura, monarxiya, aristokratiya, respublika va boshqa shakllari mavjud bo‘lgan.

Demokratiya — xalq hokimiyatining manbayi ekanligi bilan bog‘liq davlat tuzilishining siyosiy shaklidir. Demokratik davlat hokimiyati tuzilishining davlatning boshqa shakllaridan tub farqlari: demokratik davlatlarda qonun ustuvorligi, fuqarolarning tengligi, davlat tashkilotlari rahbarlarining pastdan yuqorigacha saylab qo‘yilishi, nihoyat, saylov va referendumlar orqali muqobililik (alternativ) asosda ko‘pchilikning xohish irodasini hisobga olishdir.

Shuni ta’kidlash kerakki, jamiyat hayotining iqtisodiy va siyosiy sohalari, uni demokratiyalashtirish madaniy-ma’naviy sohasiziz mavjud bo‘lmaydi.

Jamiyat hayotining madaniy-ma’naviy sohasini jamiyatning madaniyati, ma’naviyati va ma’rifati, ijtimoiy ongi, uning darajalari va shakllari; ilm-fan, ma’naviy ishlab chiqarish, intellektual mehnat va ma’naviy qadriyatlar tashkil qiladi.

Ma’naviy ishlab chiqarish asosida jamiyat hayotining madaniy-ma’naviy sohasi yuzaga keladi. Jamiyatda ma’naviy ishlab chiqarish natijasida ijtimoiy ong darajalari va shakllari, ularga oid tasavvurlar va tushunchalar, turli xil qarashlar va fikrlar, g‘oyalar va nazariyalar, xullas, jamiyat ma’naviyati yaratiladi. Ular yordamida jamiyat a’zolari o‘rtasida ma’naviy munosabatlar o‘rnataladi hamda qadriyat maqomiga ega bo‘ladi.

Ma’naviy qadriyatlar jamiyat a’zolarining kamol topishlarida muhim rol o‘ynaydi. Yuksak ma’naviyatlilik jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biridir. Ma’naviyat jamiyat a’zolari aqliy

mehnatlarining samarasidir, unda o'tmish ajdodlar ma'naviy merosidan foydalanish, uni hozirgi zamон talablari asosida qayta ishslash, yangi ma'naviy qadriyatlar bilan boyitish muhim o'rин tutadi.

Prezidentimiz jamiyat ma'naviyatini rivojlantirishni mamlakatimizda izchil o'tkazilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishi deb e'lon qilar ekanlar, „*Erkin fuqaro ma'naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir. Boshqacha aytganda, biz o'z haq-huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofda sodir bo'shayotgan voqeа-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarni mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak*“,— deb ko'rsatgan edilar.

Ma'naviyatning rivojlanishida insonning intellektual mehnati muhim rol o'ynaydi. Intellektual mehnat ma'naviy ishlab chiqarishning eng muhim elementi sifatida **ijod bilan** bevosita bog'liqdir.

Ma'naviyatning asosiy negizini **axloq** tashkil etadi. U jamiyatning barcha a'zolari tomonidan erkin qabul qilinib, ixtiyoriy amalga oshiriladi. Jamiyat hayotining ma'naviy sohasida ijtimoiy ong, uning darajalari va shakllari ham muhim o'rin tutadi. Jamiyat ma'naviy sohasining rivojlanishida ilm-fan, ma'rifat, ta'lif-tarbiya alohida mavqega ega bo'lgan tarmoqlardir. Ular asosida bir butun jamiyat ma'naviyati shakllanadi.

Jamiyat hayoti tarkibida ma'naviy munosabatlar muhim o'rin tutadi. Ular jamiyat a'zolari o'rtasidagi boshqa ijtimoiy munosabatlar bilan birgalikda kishilarning ruhiy-ma'naviy faoliyatlarida, ta'lif-tarbiya, axloq-odob normalarini amalga oshirishlarida namoyon bo'ladi. Xullas, jamiyat hayotining biz ko'rib chiqqan hamma sohalari o'zaro chambarchas bog'liq va aloqador bo'lib, ular biri ikkinchisisiz mavjud bo'lmaydi. Ularning umumiy birligi bir butun jamiyat hayotini tashkil etadi. Bu narsa ularni boshqarishda yaqqol o'z ifodasini topadi.

Endi jamiyat hayotini boshqarish masalasi bilan tanishib chiqsak.

¹ I. A. Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. Asarlar, 7-jild. T., „O'zbekiston“, 1999, 381-bet.

Boshqarish yoki boshqaruv falsafiy tushuncha sifatida juda keng mazmunga ega. Keng ma'noda boshqaruv tabiatga ham, jamiyatga ham mos jarayondir. Jamiyat hayotiga nisbatan boshqaruv jamiyatning sifat muayyanligini ta'minlovchi, jamiyat hayoti sohalarining o'zaro aloqalarini ma'lum maromda ushlab, yanada takomillashtiruvchi, ularga muayyan yo'nalish beruvchi omildir. Garchi jamiyat o'z-o'zidan rivojlanuvchi, takomillashib boruvchi tizim bo'lsa ham, binobarin, boshqaruv jamiyat hayoti va taraqqiyotida muhim shartdir. Boshqaruv jamiyatning eng oddiy yacheykasi — oiladan boshlab, hamma: iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalarga, xullas, bir butun jamiyat hayotiga xos jarayondir.

Jamiyat hayoti va faoliyatini boshqarish ijtimoiy hokimiyat orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy hokimiyat jamiyat hayotining iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'naviy sohalarini ham qamrab oladi va boshqaradi.

Jamiyatni boshqarish jamiyat hayoti sohalariga ko'ra, uchga bo'linadi: iqtisodiy sohani boshqarish, siyosiy sohani boshqarish, madaniy-ma'naviy sohani boshqarish.

Jamiyatning taraqqiy etib borishi bilan uni boshqarish ham mukammallahib, rivojlanib boradi. Jamiyat ishlab chiqarish jarayoni ortib, mehnat taqsimoti rivojlanib borishi bilan jamiyatda zaruriy ravishda faoliyatning alohida turi — boshqaruv paydo bo'ladi. Ana shu boshqaruv organi ijtimoiy hokimiyatdir.

Hokimiyatning jamiyatni boshqarishi uchun unga ijtimoiy informatsiyalar zarur bo'ladi. Ijtimoiy informatsiyalar jamiyat hayoti va taraqqiyoti qonunlari, jamiyat hayoti sohalariga oid bilimlar, dalillar, ma'lumotlar bo'lib, ijtimoiy jarayonlarni boshqarish uchun xizmat qiladi. Ijtimoiy informatsiyalar yetarli bo'lmasa, jamiyat hayotini to'g'ri boshqarib bo'lmaydi. Informatsiyalar yetarli hamda obyektiv bo'lgandagina, boshqarish to'g'ri va muvaffaqiyatli bo'ladi.

Bu o'rinda biz boshqarishning subyekti va obyekti masalasini ham to'g'ri tushunishimiz lozim.

Jamiyatni boshqarish subyekti yoki subyektlari: ijtimoiy hokimiyatga oid muassasalar, tashkilotlar, ishlab chiqarish jamoalari, ijtimoiy mulk egalari, alohida shaxslar bo'lishi mumkin.

Jamiyatni boshqarish obyekti esa, jamiyat hayoti sohalari, ularga xos korxona, tashkilot, muassasalar va nihoyat, bir butun jamiyat, uning yacheykalari, jamiyat hayotining turli tarmoqlari

bo‘lishi mumkin. Jamiyatni boshqarishning subyekti va obyekti o‘zaro bog‘liq, ular bir-birlariga ta’sir va aks ta’sir qilib turishadi. Lekin, jamiyatni boshqarish ko‘p jihatdan subyektga bog‘liqdir. Boshqarish subyekti boshqarish sohasiga oid chuqur bilim, tajriba, malakaga ega, ishbilarmon, tadbirkor, iste’dodli bo‘lsa, samarali va puxta ishlangan qarorlar qabul qilib, ularning ijrosini sifatli amalga oshira olsa, boshqarish samarali bo‘lib, jamiyat ravnay topadi.

Jamiyat taraqqiyotida siyosiy munosabatlar va siyosiy hokimiyatning paydo bo‘lishi bilan jamiyatni boshqarish yangi sifat kasb etadi. Bunda davlat, davlat tashkilotlari, muassasalar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar boshqaruv subyektlari sifatida faoliyat olib boradigan bo‘ladi.

Davlatchilik boshqaruvining rivojlanib borishi bilan boshqarishning murakkab tizimlari shakllanib boradi. Bunda siyosat jamiyatni boshqarishning asosiy elementiga aylanadi. Jamiyatni oqilona boshqarish uzoqni ko‘zlab, puxta o‘ylab, ilmiy jihatdan asoslangan siyosatni ishlab chiqishni talab qiladi. Buning uchun jamiyat moddiy va ma’naviy hayot ehtiyojlarini o‘zida to‘g‘ri ifodalashini, jamiyatdagi real sharoitdan kelib chiqishni talab qiladi. Shunday siyosatgina jamiyatni boshqarishda muvaffaqiyat qozonishi mumkin.

Jamiyat hayotini boshqarish subyektlariga jamiyatdagi siyosiy partiyalar, guruhlar, ijtimoiy-siyosiy harakatlar, ijtimoiy va jamoat tashkilotlarini ham kiritish mumkin. Ular ham jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma’naviy sohalarini boshqarishda muhim o‘rin tutadilar. Ular jamiyatdagi kishilarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy manfaatlarini himoya qilishda, jamiyatdagi madaniy-ma’naviy masalalarni hal etishda, ta’lim-tarbiya sohalaridagi ishlarni amalga oshirishda izchil faoliyat olib boradilar.

Lekin, bularga qaramasdan, davlat jamiyatni boshqarishning asosiy elementi — asosiy subyekti bo‘lib qoladi. Davlat iqtisodiyotni, siyosiy sohani, ma’naviyatni boshqarish, ularni takomillashtirish va rivojlantirishga boshchilik qiladi.

III. Inson borlig‘i va uning falsafiy tahlili

Borliqning eng takomillashgan, eng yetuk va murakkab shakli insondir. Insonning mohiyati nimalardan tashkil topadi, degan savolga javob topmay turib, jamiyat nima, ma’naviyat nima, ijtimoiy taraqqiyot qanday amalga oshadi, singari savollarga ham

javob topib bo'lmaydi. Shu sababli ham qadimgi yunon faylasuflari „inson barcha narsalarning o'lchovidir“, degan fikrni o'rtaqa qo'yan va barcha davrlardagi falsafiy ta'limotlarda inson, uning mohiyati va manfaatlari masalasi markaziy o'rin olib kelgan. Bu insonparvarlik qadriyatlariga tayanish sharq falsafasida, ayniqsa, ochiq ko'zga tashlanadi. Sharq falsafasi asoschilaridan biri Konfutsiy — bilish — insonni bilishdir, degan edi. Insonni bilish — uning mohiyatini, manfaati va maqsadlariga, faoliyatiga asos bo'lgan ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlarni bilishdir. Bilimlar, avval, inson mohiyatini bilishdan boshlanib, so'ngra uni o'rab olgan ijtimoiy, tabiiy muhit sirlarini ochish sari boradi. Buyuk vatandoshimiz Aziziddin Nasafiyning „avval o'zingni angla“, degan so'zlarida shu falsafiy hikmat yotadi.

Sharq falsafasida inson buyuk qadriyat, kamolotning yuksak cho'qqisi deb qaralishi Umar Xayyomning quyidagi falsafiy misralarida o'zining yaqqol ifodasini topgan:

„Dunyoning tilagi, samari ham biz,
Aql ko'zin qorasi — javhari ham biz.
To'garak jahonni uzuk deb bilsak,
Shaksiz uning ko'zi — gavhari ham biz“.

Qur'oni Karimda, hadislarda inson Olloh yaratgan buyuk, yetuk mavjudot, uning oqilona manfaatlarini himoya qilish esa — eng savobli ish sifatida ta'riflangan.

Endi inson muammosining falsafiy tahliliga o'tamiz.

1- §. Inson borlig'i va uning mohiyati

Borliqning tarkibiy qismi, o'ziga xos shakli bo'lgan inson hamma zamonlarda ham o'zini bilishga intilib keldi. Shu sababli turli fanlarda, falsafada ham inson muammosiga bag'ishlangan turli nazariyalar, konsepsiylar, gipotezalar yaratiladi. Lekin, zamonlar o'tishi bilan, inson deb nomlanuvchi mavjudotning ruhiyati va mohiyatida hali bilinmagan, yechilishi zarur bo'lgan muammolar, jumboqlar ko'payib boraveradi.

Antik falsafa namoyandalari, xususan qadimgi Hind va Xitoy faylasuflari, inson ikki yirik qudrat — tana bilan jonning birligidan iborat, jon tanani tark etadi, ruh esa o'lmaydi, deb tushuntirishgan bo'lsalar, qadimgi Eron va Turon faylasuflari bu muammoni inson borlig'ida olam borlig'i o'z ifodasini topadi, olam borlig'i esa to'rt asosiy unsurdan — tuproq, suv, olov, havodan tashkil topgan,

olam borlig‘ining eng murakkab shakllaridan biri bo‘lgan inson tabiat ham, shubhasiz, o‘sha to‘rt unsur bilan bog‘liq bo‘ladi, deb tushuntirishga harakat qildilar.

Qadimgi Yunon falsafasi ta’sirida vujudga kelgan Eron va Turon falsafasining namoyandalari inson kosmosning bo‘lagi, allaqanday o‘ziga xos xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan mikrokosmosdir deb tushuntirishgan edi. Qadimgi Yunon faylasuflari inson bilan olamdagi boshqa tirik mavjudotlar o‘rtasida jiddiy farq borligiga shubha qilmasdilar. Ular inson — „*aqlli ijtimoiy maxluq*“ ekanligini har tomonlama isbotlashga urindilar. Shunday qilib, antik zamon faylasuflari insonning olamdagи tirik mavjudotlar toji, cho‘qqisi ekanligini ta’kidlab, uning mohiyatini o‘rganish masalasini birinchi o‘ringa qo‘ydilar.

O‘rta asr faylasuflari insonning eng muhim xususiyati — uning „*Xudoga o‘xshashligidir*“, deb tushuntirdilar, Xudoni esa koinotdan tashqarida deb bildilar, Xudo butun koinotning, jumladan, insonning Yaratuvchisidir, degan fikrni o‘rtaga qo‘ydilar. Musulmon faylasuflari ham, xristian faylasuflari ham, o‘rta asr sharoitida Xudoda mavjud bo‘lgan jamiki yaxshi fazilatlarni, hislatlarni, xosiyatlarni, karomatlarni o‘rganishga intildilar, Xudoga xos barkamollikni insondan izladilar. Olloh vasliga yetishni orzu qilgan, ruhiy-ma’naviy barkamol inson qiyofasini tasvirlashga urindilar. Islom dinidagi Ollohning nomi sifatida ko‘rsatilgan atamalar ilohiylashtirilgan insoniy fazilatlar ekani ham buni isbotlaydi.

Yangi zamon faylasuflari o‘rta asr mutafakkirlaridan farqli o‘laroq, insonni ijtimoiy mavjudot sifatida tasvirladilar. XVIII—XIX asrlarda Yevropada shakllangan nemis mumtoz falsafasi namoyandalarining bir guruhi inson kamolotida onglilik, aqlilik (ratsionalizm) hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi, deyishsa, boshqa birovleri insonning inson bo‘lib shakllanishida his-tuyg‘u, ongsizlik (irratsionalizm) asosiy rol o‘ynaydi, deb tushuntirdilar. Yana boshqa bir guruh faylasuflar (masalan, marksistlar) insonning inson bo‘lib shakllanishida ijtimoiy muhit, ayniqsa mehnat, hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi, degan fikr-mulohazalarni bayon qildilar.

→ Inson mohiyati to‘g‘risidagi falsafiy ta‘limotlar taraqqiyoti haqidagi fikr-mulohazalarni eslatib o‘tishdan muddao — barcha zamonlarda ham, zaminlarda ham inson muammozi falsafaning asosiy mavzuyi bo‘lganini e’tirof etishdir.

Lekin, inson muammozi faqat falsafaning tadqiqot obyekti bo‘lib qolgani yo‘q, balki u boshqa fanlarning ham diqqat markazida bo‘ldi. Boshqa fanlar insonning ayrim sifatlari, xususiyatlarini

o‘rgangan bo‘lsa, falsafa inson, uning tabiatini va mohiyatini bir butun, yaxlit tarzda o‘rganishga harakat qiladi. Hozirgi zamon fanlari va falsafasida ham inson, uning mohiyati, paydo bo‘lishi, rivojlanishi, insoniyatning istiqboli masalalarini o‘rganish eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Hozirgi zamon ijtimoiy taraqqiyoti, ayniqsa fan va texnika ravnaqi insonning jismoniy va ma’naviy qiyofasiga, ruhiyati va kasbiy malakasiga ta’siri ham uni bir butun, yaxlit o‘rganishni talab qilmoqda. Afsuski, hozirgi zamon fani to‘plagan inson to‘g‘-risidagi ma’lumotlar jahon sivilizatsiyasining bugungi talablariga javob bermaydi.¹ Insonshunos olimlarning guvohlik berishicha, bugungacha to‘plangan barcha bilimlarning 95—98 foizi notirik tabiat muammolariga bag‘ishlangan. Inson tabiatini ifodalovchi ma’lumotlar to‘plangan jami ilmlarning ikki foizidan ham kamroq‘ini tashkil etadi. Bunday keskin farqning vujudga kelishiga jahon dinlari ham sabab bo‘ldi. Chunki, ayrim jahon dinlari uzoq vaqt nafaqat insonning ruhiyati va ma’naviyatini mustaqil, ilmiy asosda o‘rganishga, hatto uning tashqi qiyofasini, suratini chizishga ham qarshilik ko‘rsatdi.

Boz ustiga, totalitar tuzum mafkurasining asosi hisoblangan markscha-lenincha falsafaning eng asosiy kamchiliklaridan biri ham insonning ruhiy-ma’naviy olamini o‘rganishga yetarli e’tibor bermaganligidir.

Hozirgi zamon fanlari ma’lumotlariga qaraganda, odam deb ataluvchi tirik maxluqotni insonga aylanishi uzoq davom etuvchi evolutsion jarayondir. Ushbu jarayon, mutaxassislarning fikriga ko‘ra, uch-uch yarim million yil davom etgan. Boshqacha aytganimizda, odamni dastlabki ajdodlari hisoblangan tirik maxluqot (gomonid)ni insonga aylanishi uzoq davom etgan evolutsion jarayonning natijasidir. Insonning dastlabki ajdodlari O‘rta Osiyonning eng baland Hindiqush, Pomir tog‘lari atroflarida vujudga kelgan. Zamonalr o‘tishi bilan ular Hindiston, Eron va Yevropanning turli hududlariga ko‘chib o‘tishgan¹.

Insonning faoliyati, turmush tarzi, yashash sharoitlari zamonalr o‘tishi bilan asta-sekin o‘zgarib kelgan. Xuddi shu o‘zgarishlar, sharoitlar turli-tumanligi nafaqat konkret odamlarda,

¹ Qarang: Примак А.П. Резервы человеческой психики. М., 1987, стр. 24; Попович Т.А. О языческой вере наших предков. Санкт-Петербург, 1872, стр. 3.

balki ularning ajdod va avlodlarida umumiy va bir-biridan farq qiluvchi sifatlarni, xususiyatlarni keltirib chiqargan. Inson ruhiyati va faoliyatidagi shu turli-tumanlilikning vujudga kelishi masalasi ham faylasuflarning munozaralariga sabab bo'ldi va bo'layotir. Chunonchi, yagona biologik turga mansub bo'lgan insonning ongi va faoliyati nega turlicha bo'ladi, insonning kundalik faoliyati, irlsiy-genetik xususiyatlari tabiiy ijtimoiy muhit ta'siriga bog'liqmi yoki yo'qmi, insonni olamdag'i boshqa tirik mavjudotlardan farq qiluvchi eng muhim xususiyatlari nimalardan iborat, degan savollarga donishmandlar hamisha javob izladilar va hozir ham izlayotirlar. Bu savollarga javob bermoq uchun insonni olamda mavjud bo'lgan turli biologik mavjudotlardan ajratib turuvchi eng muhim xususiyatlarini bilish zarur.

Xo'sh, bular nimalardan iborat?

Ta'kidlash zarurki, eng avvalo, inson olamda mavjud bo'lgan boshqa tirik maxluqotlardan o'zining faoliyati, tafakkuri, tili, ma'naviyat sohibi ekanligi bilan ajralib turadi. Ishlab-chiqarish qurollarini yaratish, takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy mehnat insonni tabiatga butunlay qaramlikdan xalos etdi, til esa uning ajdodlari va avlodlari orasidagi aloqadorlik, vorislik vazifasini bajardi. Inson zotiga xos barcha genetik xususiyatlar, axloqiy normalar, uning faoliyatini boshqaruvchi barcha dasturlar, yo'liyo'riqlar, ko'rgazmalar huddi shu til orqali ajdodlardan avlodlarga uzatiladi.

Hozirgi zamoning turli ijtimoiy, antropologik va etnografik nazariyalarining tushuntirishiga ko'ra, olamdag'i boshqa tirik maxluqotlardan insonning tub sifatiy farqini ifodalovchi xususiyatlardan yana biri, u o'z amaliy faoliyatini tartibga, ya'ni ma'lum bir me'yorga sola bilishidir. Boshqacha aytganimizda, inson o'z faoliyatini amalga oshirish madaniyatiga ega ekanligi bilan ham boshqa tirik maxluqotlardan farq qiladi. Xuddi shu holat insonning insoniyigini belgilovchi eng muhim xususiyati — ma'naviyat sohibi ekanligini isbotlaydi. Ma'naviyat insonlarni ma'lum bir jamiyatga birlashtirib turuvchi, kundalik amaliy faoliyatini muayyan maqsad tomon yo'naltiruvchi ruhiy qudrat ekanligidan ham dalolat beradi.

Inson o'z amaliy faoliyatida ma'lum madaniy-ma'naviy mezon talablariga rioya qilishi va uni amalga oshirishi, kishilarni jamiyat, jamoa atrofida birlashishlarida ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bular kishilik jamiyatini bilan hayvonlar galasi orasidagi tub sifatiy farqning mohiyatini ochib beradi. Kishilarning ma'naviy zamirlar

asosida birlashishi — insonlar jamoasi tirik maxluqotlarning oddiy galasi emas, balki undan ustunroq turuvchi, onglilik asosida shakllangan ijtimoiy birlik ekanligini isbotlaydi.

Insonni hayvondan farq qiladigan eng muhim xususiyatlaridan yana biri — u o‘zining yashashi, turmushi uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma’naviy boyliklarni ishlab chiqarish malakasiga ega ekanligidir. Tarixning guvohlik berishicha, hozirgacha bironta hayvon oddiy ishlab chiqarish qurolini ham yaratgani yo‘q.

Moddiy, ma’naviy ishlab chiqarish faqat insonga xos xususiyat bo‘lib, undagi barcha qobiliyat va malakalarni namoyon qiluvchi ijodiyotdir. Moddiy, ma’naviy ishlab chiqarish jarayonida insonda mavjud bo‘lgan barcha jismoniy va ma’naviy qobiliyatlar yorqin namoyon bo‘ladi. Huddi shu holatni hozirgi zamon falsafasi insonning kundalik „amaliy faoliyati“ tushunchasida mujassamlashtirdi.

2- §. Inson antroposotsiogenez jarayonining mahsuli

Faylasuflar inson muammosini asrlar davomida o‘rganib, „*inson — aqlii mavjudot*“, „*inson — o‘zini-o‘zi anglovchi mavjudot*“, „*inson — ma’naviy va erkin mavjudot*“ degan xulosalarga keldilar. Lekin, shuni alohida ta’kidlash zarurki, insonga xos aql-farosat, o‘zini-o‘zi anglash, ma’naviy erkinlik bordaniga shakllangan emas. Odamning paydo bo‘lishi uzoq yillar davom etgan tadrijiy jarayondir. Odamzodning paydo bo‘lishi (antropogenez) va ma’lum bir jamiyatga birlashish (sotsiogenez) jarayoni, olimlarni guvohlik berishicha, taxminan 3—3,5 million yil davom etgan. Shuning uchun ham antropogenez va sotsiogenez yagona bir jarayonning ajralmas ikki tomonidir.

Antropogenez jarayonida mehnat asosiy rol o‘ynaydi. Mehnat tufayli inson o‘zi yashayotgan tabiiy muhitni o‘zgartiradi, moddiy va ma’naviy boyliklar yaratadi, hatto o‘zini ham o‘zgartiradi. Inson organizmdagi sof fiziologik funksiyalar — qo‘l va oyoqlarning, bosh va barmoqlar, tog‘aylar, paylar, suyak va muskullarning taraqqiy etishi ham bevosita mehnat bilan bog‘liq bo‘lgan. Bundan tashqari, mehnat insonni nafaqat jismoniy, balki ma’naviy, madaniy taraqqiyoti uchun ham asosiy shart-sharoit vazifasini bajardi. Mehnat tufayli inson tabiatga faol ta’sir etdi, mehnat qurollari yasash va ularni takomillashtirish muntazam davom etdi.

Mehnat qurollarini yaratish — inson ijtimoiy faoliyatining o‘q tomiridir. Ma’lumotlarga qaraganda, inson mehnat qurollari yaratishni boshlaganiga bir, bir yarim million yil bo‘lgan. Inson

dastlabki mehnat quollarini ov qilish, boshqacha aytganimizda, turli maxluqotlarni o'ldirish uchun kashf etgan. Keyinroq mehnat quollaridan dehqonchilikda, chorvachilikda, hunarmandchilikda keng foydalanildi. Bu esa taraqqiyot tobora tezlashib borishiga imkon berdi. Inson mehnat qilishni takomillashtirib, asta-sekin olam ichiga kirib boraveradi. Yuqoridagi mulohazalardan shunday xulosaga kelish mumkinki, mehnat — antropogenez va sotsiogenez jarayonlarining markaziy omilidir.

Antroposotsiogenez jarayoni taraqqiyotida, ya'ni inson aql-farosati, insoniy munosabatlар tizimi shakllanishi, amaliy faoliyatni ma'lum bir maqsad tomon yo'naltirishida til eng muhim vosita vazifasini bajaradi. Boshqacha qilib aytganimizda, til tufayli insonlarning amaliy faoliyati ma'lum maqsad tomon yo'naltiriladi. Tor ma'noda til — bu insonlarning bir-biriga xilma xil ma'lumotlarni anglatish manbayi bo'lib, u nutqda o'z ifodasini topadi. Til — moddiy va ma'naviy madaniyatning vujudga kelishida ham ulkan ahamiyatga ega. Til yordamida insonning dastlabki ajdodlari asta-sekin bir-biri bilan fikr almashishni, birga ishslashni, uy-joyli bo'lib, kiyim tikish va kiyinishni, oziq-ovqat pishirish va iste'mol qilishni o'rgandi. Umuman, til vositasisiz odamlar bir jamoaga birlashib, anglanilgan umumiyl maqsad asosida faoliyat ko'rsatishini tasavvur etib ham bo'lmaydi.

Antroposotsiogenez jarayoni taraqqiyotining eng muhim omillaridan yana biri — insonni o'rab olgan ijtimoiy muhitdir, kishilar o'rtasidagi munosabatlardir. Odamning dunyoga kelishigina emas balki inson sifatida kamol topishi ham uning boshqalar bilan munosabatiga bog'liq. Bu insonni inson yaratadi, degan xulosaga olib keladi. Inson insonni yaratadi, deganda, inson insonning faoliyati, dunyoqarashi, aql-farosatini shakllanishiga ta'sir qiladi, uning ongini va faoliyatini asta-sekin o'zgartiradi, deb tushunmoq kerak. Boshqacha aytganimizda, inson insonni qayta ishlab chiqaradigan qobiliyatga, malakaga ega, deb tushunmoq darkor. Yosh bola axloq, odob, yurish-turish, muomala, kasb-hunarni ota-onasidan, jamoadan o'rganadi, uni boyitib, meros sifatida o'z farzandlariga o'tkazadi. Inson inson tufayli vujudga kelganligi uzoq davom etgan jarayon bo'lib, bu holat insonning eng dastlabki ajdodlari orasidagi oilaviy munosabatlар vujudga kelish jarayoniga borib taqaladi. Aniqroq qilib aytganimizda, yosh go'dakni inson sifatida shakllantirishning asosini oilaviy munosabat, undagi ta'limtarbiya tashkil etadi.

Oilaviy munosabatlarning rivojlanib borishi bilan qavm-qarindoshlik, urug'-aymoqchilik munosabatlari, Vatan tushunchasi ham shakllanib, rivojlanib boraveradi. Zero, „...har bir inson uchun, deb ta'kidlagan edi I.A. Karimov, *Vatan tushunchasi, avvalo oiladan boshlanadi. Shu bois, oila va maskura tushunchalari chambarchas bog'liqdir.* Oilaning jamiyatdagi o'rni, tarbiyaviy-axloqiy ahamiyati, qadr-qimmatini anglab yetmasdan, oilaga millat manfaati nuqtayi-nazaridan yondashmasdan turib, xalqchil maskura yarata olmaymiz“¹.

Oilaviy munosabatlarni boshqarishda buva-bubi, ota-onalarning roli, aka-ukalar o'rtasidagi munosabatlarning ahamiyati ham asta-sekin oshib boradi. Xuddi shu munosabatlarni boshqarish odamni inson darajasiga ko'tarishda eng muhim shart-sharoit vazifasini bajaradi. Oilaviy munosabatlarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish, o'z navbatida, axloq-odob me'yorlari vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Boshqacha aytganimizda, insonning ba'zi hayvoniylar qiliqlari, odatlari, axloqiy-ijtimoiy me'yorlar yordamida asta-sekin tartibga solinadi. Shuning uchun ham antroposotsiogenez jarayoni taraqqiyotidagi eng muhim omillardan yana biri, axloqiy-ijtimoiy me'yorlar va o'lchovlarning vujudga kelganligidir. Xuddi shu me'yorlar, o'lchovlar insonni hayvondan farq qiluvchi eng muhim xususiyatlardan birini tashkil etadi.

Dastlabki axloqiy me'yorlar, turgan gapki, hali takomillashmagan, o'ta oddiy edi. Shunga qaramasdan, bunday me'yorlar insoniylikning eng oddiy ko'rinishlari paydo bo'layotganligidan dalolat berardi. Oddiy axloqiy me'yorlar yordamida, ibridoiy jamaoa o'z a'zolarini barchaga maqbul bo'lgan tartib va intizomlarni bajarishga majbur qilgan. Xuddi shu holat insonning hayvondan uzil-kesil ajralib chiqqanligi va endi taraqqiyotda orqaga qaytib bo'lmagidan dalolat beradi. Ushbu jarayon ijtimoiy holatning biologik holat ustidan qilgan buyuk g'alabasi edi. Boshqacha aytganimizda, odam mehnat qilishi, mehnat qurollari yasashni (poleantroplar) o'rganganligi, ma'lum axloqiy me'yor va shartlarga riosa qila boshlaganligi ulkan „Neolitik inqilob“ edi. Neolitik inqilob tufayli odam asta-sekin ijtimoiylashib bordi. Odam bolasining dastlabki ajdodi (poleantrop) ov qilib, terib-termochlab

¹ **I.A. Karimov.** Milliy istiqlol masfurasi — xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. Asarlar, 8-jild, T., „O'zbekiston“, 2000, 502—503-betlar.

yashashga asoslangan faoliyatdan ishlab chiqarishga, yaratuv chanlikka asoslangan (dehqonchilik, chorvachilik, kosibechilik va boshqalar) turmush tarziga o'ta boshladi. Xuddi shu holat odamni ijtimoiy mavjudot bo'lib shakllanayotganligidan, odam o'zida insonga xos ma'naviy fazilatlarni takomillashtirayotganligidan dalolat beradi.

Xullas, inson deb ataluvchi tirik mavjudot bu taraqqiyot jarayonida moddiy va ma'naviy boyliklar yaratish uchun zarur bo'lgan mehnat qurollarini ishlab chiqaradi, yaxshi va yomon,adolat va adolatsizlik, uvol va savobning farqiga boradigan axloqiy me'yorlarga ega bo'ladi, tarixiy taraqqiyotni harakatga keltiruvchi hissiy va aqliy qobiliyatlarga, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarga ega bo'ladi, jamiyatdan tashqarida mavjud bo'la olmaydi, shakllanmaydi, rivojlanmaydi, undagi individual fazilatlar, xislatlar mavjud ijtimoiy munosabatlarning hosilasi bo'lib, o'sha ijtimoiy munosabatlarning tarixiy xiliga kiradi, uning kundalik amaliy faoliyati muayyan maqsadga qaratiladi, ma'lum bir dastur asosida amalga oshiriladi, ongli-erkin xarakterga ega bo'ladi.

Ushbu xususiyatlar insonni olamda mavjud bo'lgan boshqa tirik mavjudotlardan farq qildiruvchi yuksak sifatlar — insoniy fazilatlar hisoblanadi. O'z navbatida, xuddi shu holatlar inson ham tabiiy, ham ijtimoiy mavjudot ekanligidan dalolat beradi.

3- §. Insonda tabiiylik va ijtimoiylik

Inson tabiiy va ijtimoiy mavjudot ekanligini hozirgi zamon fanlari ham tasdiqlamoqda. Shuning uchun ham insondagi tabiiylik bilan ijtimoiylik orasidagi aloqadorlik mexanizmini bilish falsafadagi eng muhim ahamiyatga molik muammolardan biridir. Bu boradagi aloqadorlikni bilish inson mohiyatini chuqurroq o'rghanish uchun real imkoniyat yaratadi.

Insondagi tabiiylik bilan ijtimoiylik orasida bo'lgan dialektik aloqadorlikni to'la tasavvur qilmoq uchun, eng avvalo yagona biologik turga mansub bo'lgan insonni, boshqa biologik maxluqotlardan sifatiy farqini xarakterlovchi eng umumiy va o'ziga xos xususiyatlari va xossalarni bilib olish zarur. Chunki, insondagi biologik o'ziga xos xususiyatlar va xossalarni uning ijtimoiy fazilatlari, individual xislatlariga ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Insonning yagona biologik tur sifatidagi eng muhim xususiyatlaridan biri — uning yoshidir (umri). Hozirgi zamon fani ma'lumotlariga qaraganda, inson bolasi turli-tuman kasalliklar va ijtimoiy

larzalarga giriftor bo'limasa, uning o'rtacha yoshi, ya'ni umr ko'rishi, 80—90 yil atrofida bo'ladi. Afsuski, insonning biologik o'ziga xosligi ijtimoiy muhit ta'sirida o'zgarib turadi. Tarixning guvohlik berishicha, odam bolasi qadim zamonlarda 20—22 yil umr ko'rgan. XVIII asrga kelib insonning o'rtacha umr ko'rishi 30 yoshga yetdi. XX asr boshlarida G'arbiy Yevropa mamlakatlarda o'rtacha 56 yil umr ko'rgan inson, XX asr oxirlariga kelib rivojlangan mamlakatlarda o'rtacha 75—80 yil umr ko'ra boshladи. Iqtisodiy-madaniy jihatdan qoloq mamlakatlarda esa o'rtacha umr 35—45 yoshni tashkil etadi. Demak, insonning umri u yashayotgan konkret ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy vaziyatlar, madaniy-ma'naviy muhit bilan bog'liqidir.

Insonning boshqa biologik mavjudotlardan tub farqini ko'rsatuvchi xususiyatlaridan yana biri, u o'z umrining har bir bosqichini avvaldan rejalashtira olishidir. Inson umri bosqichlarining (bolalik, o'smirlik, yoshlik, yetuklik, keksalik) o'ziga xos biologik, ijtimoiy xususiyatlarga egaligi allaqachonlar aniqlangan. Masalan, ayollarning bola tug'ish davri o'rtacha 15—49 yoshga to'g'ri keladi. Xuddi, shuningdek, inson qaysi yoshda gapirishni boshlashi, qaysi yoshda uylanishi yoki turmushga chiqishi, qaysi yoshda jinsiy aloqa qilishi ham oldindan anglanilgan, ma'naviy, huquqiy, ijtimoiy rejalashtirilgan.

Insondagi biologik xususiyatlar o'zgarmasligi yoki o'zgarib turishi, boshqacha aytganimizda, barqaror va beqaror bo'lishi mumkin. Insondagi irqiy mansublik o'zgarmas biologik xususiyatlarga kirsa, fiziologik xususiyatlar o'zgarib turadi. Masalan, insonning irqiy xususiyatlari uzoq vaqtlardan buyon o'zgarmasdan barqarorligicha turgan bo'lsa, uning gavdasining tuzilishi zamonlar almashishi bilan, u yashayotgan muhitning o'zgarishi bilan o'zgarib turgan.

Insonning biologik xususiyatlari haqida gapirganda uning har bir vakilini, ya'ni har bir kishining o'ziga xos takrorlanmas, ota yoki onasi tufayli vujudga kelgan genetik xususiyatlarga ega bo'lishini ham unutmaslik darkor. Ushbu nodir betakrorlik, tabiiy va ijtimoiy omillar yordamida kuchaytirilishi yoki so'ndirilishi ehtimoldan holi emas.

Inson zotida hali foydalanilmagan cheksiz imkoniyatlar, qobiliyatlar va iste'dodlar mavjud ekanligini tan olish undagi tabiiylik bilan ijtimoiylik orasidagi dialektik aloqadorlikni o'rganish jarayonining eng muhim shartlaridan biridir.

Insondagi tabiiylik bilan ijtimoiylik orasidagi o‘zaro dialektik aloqadorlik mexanizmini o‘rganish jarayonida har bir kishining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud ekanligini ham tan olmaslik, amaliyatda qobiliyatli, iste’dodli, iqtidorli kishilarni kamsitishga olib keladi, ularni jamiyatning oddiy ijrochi „murvatcha“lariga aylantirib qo‘yadi. Qobiliyatli, iste’dodli kishilarni qobiliyatsiz, loqayd kishilar bilan tenglashtirish ijtimoiy adolatning me’yor va shartlariga ziddir.

Inson bir vaqtning o‘zida ham ijtimoiy, ham organik olamga taalluqli ekanligi uning mohiyatini tushunib olishda ham bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu muammolar orasida quyidagi ikki masala ustida to‘xtalib o‘tmoq zarur.

Falsafa tarixidan bizga ma’lumki, Arastu insonning mohiyatida ikki: hayvoniy (biologik) va siyosiy (ijtimoiy) boshlang‘ich asos borligini inobatga olib, uni „siyosiy hayvon“ degan edi. Munozara, bahslarga sabab bo‘lgan masala — shu ikki boshlang‘ich asosning qay biri inson faoliyati, his-tuyg‘ularini belgilashda asosiy rol o‘ynashidir. Yuqorida biz inson bolasining har biri o‘ziga xos takrorlanmas xususiyatlarga ega ekanligi haqida to‘xtalib o‘tgan edik. Qizig‘i shundaki, biz ba’zi kishilarni biologik belgilariga qarab (masalan, yoshi, jinsi) ma’lum guruhlarga birlashtiramiz, boshqa birovlarni esa ijtimoiy belgilariga (masalan, kasbi, mutaxassisligi, ish stoji va boshqalar) qarab, yana allakimlarni insondagi tabiiylik (biologik) va ijtimoiylik orasidagi aloqadorlikka qarab ma’lum tabaqalarga birlashtiramiz.

Shunday ekan, o‘sha belgilarga qarab, tabaqalashtirilgan kishilarning ayrim guruhlarini (masalan, xotin-qizlar) biologik o‘ziga xosligini bilishning jamiyat uchun ahamiyati bormi?

Ushbu muammolar atrofida faylasuflar va boshqa insonshunos olimlar orasida uzoq vaqtlardan buyon munozaralar davom etmoqda. Muammolar yechimiga bag‘ishlangan turli konsepsiylar, ilmiy yo‘nalishlar ham vujudga kelmoqda. Chunonchi, ba’zilar kishilarning irqiy belgilariga qarab insoniy fazilatlarini baholashni taklif etayotirlar. Ayrim irqlarning insoniy fazilatlari yuqori, ayrimlariniki esa past, chunonchi „oliy“ va „past“ tabaqali irqlar bo‘ladi, degan fikr-mulohazalarni bayon etmoqdalar. O‘tgan asrda, hatto bizning asrimizning boshida ham, „*oq irq*“ jahonda mavjud bo‘lgan barcha irqlarning buyugidir, degan uydirmalar tarqatilganligi fikrimizning dalilidir. Turgan gapki, jahon ilmiy jamoatchiligi bunday g‘ayriilmiy fikr-mulohazalarni, irqchilik g‘oyalarini qattiq qoralaydi.

Haqiqat ko‘ziga tik boqadigan bo‘lsak, sayyoramizda yasha-yotgan turli irqlarga mansub insonlarning ongi va faoliyatida, haqiqatan ham ayrim farqlar borligini payqash mumkin. Lekin, ikkinchi haqiqat shundaki, inson ongi va faoliyatida turli tafovutlar mavjudligi faqat uning irqi bilan bog‘liq emas. Nemis biolog olimi **E. Gekkel** (Ch. Davrin ta’limotining mashhur targ‘ibotchisi) 1904-yildayoq ta’kidlab aytganidek, turli irqqa mansub odamlarning aqliy qobiliyatları, madaniy saviyalari orasida ayrim farqlar bo‘lishiga asoslanib, ularning hayotdagi qadr-qimmatlari noto‘g‘ri talqin qilinmoqda. Bu esa inson qadr-qimmatini yerga urishdir.

Shuningdek, erkaklar bilan xotin-qizlar orasidagi biologik farqning ijtimoiy munosabatlarga ta’siri ham turlicha izohlanadi. Chunonchi, erkaklar jamiyat hayotida, aksariyat hollarda, ulug‘-landi, xotin-qizlarni kamsitish holatlari avj olib boraverdi. Boshqacha aytganimizda, ikki jinsni bir-biriga qarama-qarshi qilib qo‘yilishi vujudga keldi. Ikki jins orasidagi farq ijtimoiy munosabatlarda ham o‘z ifodasini topa boshladи. Natijada, erkaklar „oliy“, „yuqori“ tabaqa, xotin-qizlarga esa „quyi“ tabaqa vakili deb qarash asrlar osha davom etaveradi. Erkaklarni kuchli, ayollarni zaif jins deb qarash ham shunga asoslangan. Turgan gapki, bunday tengsizlik xotin-qizlarning erkaklar bilan ijtimoiy tenglikka erishish uchun kurashishi avj olishiga sabab bo‘ldi. Xotin-qizlarning erkaklar bilan tengligi uchun kurashi 100—150 yil oldin boshlandi, xolos. Ilm-fan rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi ishtiroti yildan-yilga oshib borayotgan bo‘lsa-da, hali bu borada yechimini kutib yotgan dolzarb muammolar ko‘p. Xuddi shuning uchun ham jahon xotin-qizlarining o‘z insoniy huquqlari uchun kurashi borgan sari avj olib borayotir. Jahon jamoatchiligi ongida o‘tmishdan ortirilgan jinslar orasidagi sotsial notenglik tushunchasini ularni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish bilan emas, balki ular orasidagi aloqadorlik, bir-biriga ko‘maklashish, hamkorlikni kuchaytirish orqali ta’sir etmoq kerak.

Insonning mohiyatini biologiyalashtiruvchi konsepsiylar jumlasiga irqchilik, sotsial darvinizm oqimlarini misol qilib ko‘rsatish mumkin¹. Bu oqimlar inson mohiyatini to‘g‘ri tushunishga imkon bermaydi.

¹ *Qarang: Дубинин Н.П. Биологические и социальные факторы развития человека. Журнал „Вопросы философии“, 1977, №2, стр. 46—57.*

Ma'lumki, bir vaqtlar angliyalik mashhur iqtisodchi **T. Maltus** (1766—1834-yillar) ijtimoiy hayot yakka kishi yashashi uchun kurash maydoni vazifasini bajaradi, bunday murakkab kurashga moslasha bilgan kishigina yutuqlarni qo'lga kirita oladi, degan fikrni olg'a surgan edi. Maltus aytgan yashash uchun kurash g'oyasini **Ch. Darwin** (1809—1882-yillar) o'zining tabiiy tanlash va evolutsion taraqqiyot haqidagi ta'limoti uchun asos qilib oldi. Ch. Darwin ta'limotidagi yashash uchun kurash g'oyasi sotsial darvinizm tarafдорлари tomonidan jamiyatga tatbiq etildi. Bu g'oyaga ko'ra, jamiyatdagi turli sinflar orasidagi kurashda oliv sinf vakillari yuqori pozitsiyani egallab turishlari lozim, chunki ularning aqliy qobiliyatları boshqalarnikidan ustundir. Boshqacha aytganimizda, sotsial darvinizm tarafдорлари yashash uchun kurash faqat tabiatga taalluqli emas, balki jamiyat hayotida ham bu qonunga bo'ysunish lozim, degan xulosaga keladilar.

Insonning mohiyatini biologiyalashtiruvchi qarashlarga qarshi chiqqan insonshunos olimlar inson kamolotida hal qiluvchi omil ijtimoiy muhitdir, degan g'oyani ilgari surdilar. Ayniqsa, bizning asrimizda hammani tenglashtirishga qaratilgan ijtimoiy g'oyaga asoslangan, yangi ideal jamiyat modelini yaratishga qaratilgan, harakatlar boshlandi.

Ba'zi faylasuflar, ruhshunoslar insonning mohiyatini ruhiy holatlar, istaklar, intilishlar va mayllar belgilaydi, degan g'oyalarni ilgari suradilar. Bunday qarashlarni *Freydizm* ta'limotida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Freydizm ta'limotining asoschisi avstriyalik vrach — psixolog **Zigmund Freyddir** (1835—1939-yillar). U inson ruhiy-ma'naviy olamini chuqur tahlil qildi. Inson ma'naviy olamining shakllanishida onglilik bilan ongsizlik orasidagi o'zaro aloqadorlik mexanizmini har tomonlama o'rgandi. U inson ma'naviyatini chuqur o'rganib, ongsizlik inson ruhiyatining asosini tashkil etadi, degan xulosaga keladi. Uning tushuntirishicha, insonda onglilikka qaraganda ongsizlik tomon intilish kuchliroq bo'ladi. Ongsizlikni belgilovchi va hal qiluvchi muhim omil — jinsiy mayldir. Inson ruhiyati huddi shu jinsiy maylni qondirilishi bilan bevosita bog'liq. Inson ruhiyatining buzilishi ham ana shu jinsiy maylning qondirilmaganligining natijasi ekanligini isbotlab berdi. Lekin, qadim zamonlardan buyon, deb ta'kidlaydi Z. Freyd, insoniyat yaratgan madaniyat insonning ana shunday his-tuyg'ularini

ta'qıqlagan. Oqibatda, bu holat inson ruhiyatining eng chuqur va qorong'i joyida saqlanib qolaverган¹.

Freydning ruhiy tahlil ta'lomitida „psixologik energiya“ tushunchasi talqini alohida ahamiyatga ega. Xuddi shu energiya asosida inson o'z hayotini davom ettiradi, turli-tuman faoliyat ko'rsatadi, shu ruhiy energiya insonni yashashga, faoliyat ko'rsatishga undaydi, deb tushuntiradi.

Zigmund Freydning e'tirof etishicha, insonning ongi va faoliyati, onglilik bilan ongsizlik orasidagi dialektik aloqadorlikka bog'liq. Onglilikni oshirmoq uchun ongsizlikning ham faolligini oshirmoq zarur. Ongsizlik o'zgarmas, tug'ma instinctgina emas, balki u onglilik singari uzlusiz o'zgarib turadi, deb ko'rsatadi. Shuning uchun bilish jarayoni insonning faqat ongli holatini o'z ichiga olmay, balki ongsiz, noratsional faoliyatini ham o'z ichiga mujassamlashtirishini isbotlab berdi.

Zigmund Freyd qarashlarini uning tarafdoirlari **E. Fromm**, **V. Rayx**, **G. Markuze** va boshqalar davom ettirdilar. Ayniqsa, **E. Fromm** Freydning ruhiy tahlil haqidagi ta'lomitini ijtimoiy hayotga tatbiq etdi².

Lekin, E. Fromm „*Ijtimoiy muhitni*“ tahlil etganda, odamlarning manfaatlari turlicha ekanligi, inson ijtimoiy mohiyatini mavhum ruhiy tahlil yordamida tushuntirib bo'lmasligini fahmlay olmadi.

Inson shakllanishida tabiiy (biologik) va ijtimoiy (sotsiologik) omillar dialektikasining tub mohiyatini ochib berishda *ijtimoiylik* rolini bo'rttirib ko'rsatgan, ya'ni ushbu jarayonni sotsiologiyalashtirgan falsafiy ta'lomitlardan biri — *marksizmdir*. Marksizm asoschilarining tushuntirishicha, inson tabiatini belgilashda hal qiluvchi rolni ijtimoiy muhit o'ynaydi. Xuddi ana shunday bir yoqlama yondashuv inson muammosini o'rganuvchi tabiiy fanlarga ham salbiy ta'sirini o'tkazdi. Oqibatda inson biologiyasi haqida bayon etilgan eng ilg'or fikr-mulohazalar haqida lom-mim deyilmadi. Insonning turli ijtimoiy fazilatlari haqida zo'r berib gapirildi, amalda

¹ Qarang: **Фрейд З.** Психология безсознательного. М., 1989; **Фрейд З.** Введение в психоанализ. Лекция. М., 1991; **Фрейд З.** „Я“ и „Оно“ в 2 т. Дайджест. Тбилиси, 1991.

² Qarang: **Фромм Э.** Здоровое общество. Дайджест (психоанализ и культура) М., 1995.

esa inson biologiyasi vulgarashtirildi. Natijada, inson his-tuyg'ulari kamsitildi, oyoqosti qilindi, jismi esa sotsiologiyalashtirilgan o'ziga xos ijtimoiy shaklga aylantirildi. Jamiyat hayotida, kundalik turmushda insoniy ma'naviy ehtiyojlar moddiy ishlab chiqarish ehtiyojlariga nisbatan keyingi o'ringa surib qo'yildi. Insonning ma'naviy ehtiyojlariga „*chap ko'z*“, „*o'gaylik*“ nuqtayi nazaridan yondashish avj olib ketdi. Moddiy sohada ishtirok etayotgan kishilar haddan ortiq ulug'landi, „*hazrati ishchi*“ „*hazrati dehqon*“ degan uydirmalar o'ylab topildi. Ma'naviy ishlab chiqarishda halol va fidoyilik qilayotgan, o'n yillab zahmat tortgan olim, yozuvchi, shoir mehnatini „*ikkinchidarajali*“ deb qarash urf bo'lidi. Inson tani (biologiyasi) bilan ma'naviyati orasidagi aloqadorlik mexanizmi chuqur tahlil etilmadi. Moddiy ishlab chiqarishni uzluksiz kengaytirish, tabiiy resurslarning kamayib ketishiga, tabiat ekologik muvozanatining buzilishiga sabab bo'lidi. Boz ustiga fan-texnika yutuqlarini xalq xo'jaligiga tatbiq etish, chunonchi turli zaharli ximikatlarni qishloq xo'jaligida qo'lllashning ortib borishi odamlar salomatligini yemirdi. Odamlar, ayniqsa, onalar salomatligining zaiflashishi bilan jismonan majruh tug'ilgan bolalarning soni ko'payaverdi. Tabiiyki, jismi zaif kishining ma'naviyati ham majruh bo'ladi.

Shunday qilib, inson uchta buyuk qudrat: *tana — ruhiyat* — *ma'naviyatning yig'indisidir*. Insonning biologik holati deganda, uning tanasida, ya'ni jismida sodir bo'ladigan morfofiziologik, genetik, asab-miyasida ro'y bergen va berayotgan elektrokimyoviy o'zgarishlar, yoshi, irqi, jinsini xarakterlovchi alomatlar tushuniladi. Insonning ruhiy holati haqida fikr-mulohaza yuritganda, uning his-tuyg'ulari, kayfiyati, xarakteri, irodasi, temperamenti tushuniladi.

Insonning ma'naviyati, jamiyatda mavjud bo'lgan obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillar, ayniqsa, barcha ijtimoiy institutlar amalga oshirgan tarbiyaviy-mafkuraviy ta'sir natijasida shakllangan fazilatlar, xislatlar, qobiliyatlar, malakalarning yig'indisidir. Ma'naviyat insonning ijtimoiy qiyofasini vujudga keltiruvchi generator vazifasini bajaradi. Ma'naviyatning shakllanishida inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi ishtirok etadi, bisotida mavjud bo'lgan butun bilimi, tajribasi, iste'dodi namoyon bo'ladi. Xuddi shuning uchun ham inson ijtimoiy qiyofasini xarakterlovchi eng muhim ko'rsatkich — ma'naviyatdir.

4- §. Inson hayotining mazmuni va ma’nosи

Inson deb nomlanuvchi biosotsial mavjudot o‘z hayotining cheklanganligini tushunib olishi bilan olamdagи boshqa tirik mavjudotlardan tubdan farq qiladi. Boshqacha aytganimizda, olamdagи tirik mavjudotlar ichida faqat inson o‘z umrining chegarasi, muddati borligini tushunib yetadi. Inson bugunmi, ertami o‘zining o‘lishini, ya’ni o‘limning muqarrarligini tushunib yetgani uchun ham uning oldini olish, o‘z hayotini uzaytirish, mazmunliroq bo‘lishiga intiladi. U hamisha yangi-yangi orzu-istiklar ummonida yashaydi va o‘zining barcha orzu-umidlarini to‘liq ushalmasligini ham tushunib yetadi.

Xo‘sh, olamdagи tirik mavjudotlar ichida o‘z umrining qisqaligini tushunib yetgan o‘sha odam bolasida nega yaxshilik bilan yomonlik, to‘g‘rilik bilan yolg‘onchilik, adolatpeshalik bilan adolatsizlik kabi xususiyatlar bo‘ladi?

Inson o‘zining ma’naviy qiyofasidagi ushbu ziddiyatlarni bartaraf etish uchun asrlar osha kurashdi. Bunday muammolar yechimini ba’zan dindan, ba’zan fandan qidirdi, ya’ni inson hayotga va o‘limga hamisha o‘zining munosabatini bildiradi.

Jahon madaniyati tarixinining guvohlik berishicha, inson o‘z umrini cho‘zish, hayotini yanada sermazmun qilish, uni har tomonlama boyitish uchun uzlusiz intilib keldi. Mabodo, jismongan abadiy yashash uchun imkoniyat bo‘lmasa, ruhan yashash, axloqiy jihatdan o‘limni yengish yo‘llarini, uslublarini qidirdi. Aniqroq qilib gapiradigan bo‘lsak, inson hamisha hayotdan qoniqmaslik tuyg‘usi bilan yashadi. Bu holat hozir ham davom etayotir.

Hayotdan qoniqmaslik, barcha insoniy orzu-umidlarning to‘la ushalmasligini bilish, bir tomondan, yashashi uchun, ijodiy faoliyat ko‘rsatishi uchun qudratli qo‘zg‘atgich vazifasini ham bajarsa, ikkinchi tomondan, bu holat insonning turli qobiliyat, malakalarini, iste’dodlarini har tomonlama rivojlantirishga yordam beradi. Har bir kishi hayotining mazmunini xuddi shu holat tashkil etadi.

Inson o‘zining barcha orzu-umidlarini jamiyat orqali ro‘yobga chiqarmoqchi bo‘ladi. Lekin, jamiyat zamonlar o‘tishi bilan o‘zgarib turdi. Boshqacha aytganimizda, jamiyat hayoti turli tarixiy sharoitlarga qarab turlicha bo‘ladi. Tarixiy sharoit o‘zgarib turishidan qat’iy nazar, insonning hayoti, turmush tarzi jamiyat bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Ushbu aloqadorlik mexanizmida shaxsiylik

bilan ijtimoiylik, ya’ni yakka shaxs manfaati bilan jamiyat manfaati uyg‘unligi, bir-biriga, mos bo‘lishi katta ahamiyatga ega. Inson manfaati jamiyat manfaatiga mos tushmasa, shaxs bilan jamiyat orasidagi ziddiyat keskinlashib boraveradi. Bunday ziddiyatlarning keskinlashib borishi insonning jamiyatdan begonalashib borishiga sabab bo‘ladi. Boshqacha aytganimizda, jamiyat bilan shaxs orasidagi ziddiyatning keskinlashishi insonda begonalashuvning boshlanishidan dalolat beradi. Xuddi shuning uchun ham insonlar jamiyatda ijtimoiy adolat me’yorlari qaror topishini, demokratik prinsiplar hukmronlik qilishini, shaxs bilan jamiyat orasidagi ziddiyatlar bartaraf etilishi zarurligini asrlar osha orzu qildi.

Inson hayotining mazmuni, faqat bir o‘zining orzu-umidlari, istaklarini ro‘yobga chiqarish, ehtiyojlarini qondirish u faqat o‘zi uchun, o‘zining manfaati uchun yashashi kerak, degan ma’noni bildirmaydi. Chinakam inson darajasiga ko‘tarilgan biosotsial mavjudot hamisha el-yurt, millat manfaati haqida ham bosh qotiradi. El-yurt, millat manfaati haqida o‘ylamaydigan, erta-yu kech o‘z manfaati haqida o‘ylaydigan kimsalarni mashhur rus yozuvchisi Lev Tolstoy „*shaxsning hayvonlashuvi*“ deb atagan edi¹.

O‘zbekiston bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan hozirgi sharoitda ma’naviy omillarga e’tibor berilmasa, faqat o‘z qornini o‘ylaydigan, diyonat, aql-farosat, iyomon, insof nidosiga qulq solmaydigan „*hayvonlashgan shaxslar*“ soni ko‘payib ketishi mumkin. Bunday kimsalar o‘z manfaatlari yo‘lida har qanday pastkashliklarni amalgalashirishdan qaytmasligi, o‘z manfaatlari uchun og‘ir jinoyatlar yo‘liga kirib borishi turgan gap. Shuning uchun ham insonparvar, demokratik jamiyat qurish uchun ommaviy harakat avj olib ketgan bir paytda, mamlakatimizda jinoyatchilikka qarshi, ayniqsa, uyushgan jinoyatchilikka qarshi harakatlarning yuzaga kelishi, inson tabiatida noinsoniy xususiyatlar qoldig‘iga qarshi kurash kuchayayotganining alomatidir.

Inson hayotining mazmuni va ma’nosи, ayniqsa, uning o‘lishi yoki o‘lmasligi muammosi hamisha falsafaиг oqimlar diqqat markazida bo‘ldi. Ilm-teknika yutuqlari inson turmush tarzining barcha jabhalariga jadallik bilan kirib borayotgan hozirgi zamonda gerontologiya² fani muammolariga tayaniб ~~hujjatish~~ mumkinki,

¹ Л.Н. Толстой. Полн. Собр. соч. том 26, М., 1936, стр. 369.

² Gerontologiya — inson organizmining tuzilishi va umrini uzaytirish masalalari bilan shug‘ullanuvchi fan.

bugun inson hayotini sermazmun qilish, uning umrini uzaytirish borasida radikal o'zgarishlar sodir bo'layotir, odamlar ongi har kuni, har soatda yangi-yangi ma'lumotlar bilan boyib bormoqda. Insonning fazilatlari va xislatlari, u yashayotgan jamiyat a'zolarining, butun insoniyatning orzu-umidlari, his-tuyg'ulari bir-biri bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy muhit o'zgarishi bilan inson orzu-umidlari, istaklari ham o'zgaradi. Zero, shu o'zgarish inson hayoti mazmunining asosini tashkil etadi.

Shunday ekan, inson qancha yashashi kerak, qanday yashashi lozim, nima uchun yashashi darkor? Ushbu savollarga ham, insoniyat hamisha javob qidiradi.

Tarixiy taraqqiyot tajribasi inson qancha yashashi, nima uchun yashashi uning tabiatida insonparvarlik g'oyalari mavjudligi, milliy va umummilliy (umuminsoniy) qadriyatlarga amal qiliш qobiliyatlar, malakalari shakllanganligi bilan bog'liq ekanligidan dalolat beradi. Inson tabiatiga xos ushbu fazilatlar, u yashayotgan ijtimoiy muhit, ayniqsa, uning ma'naviy qiyofasi biologik, fiziologik holatlari bilan ham bog'liq. Boshqacha aytganimizda, insonning ma'naviy qiyofasi, uning jismoniy holati bilan ham taqozolanadi. Shuning uchun ham inson hayoti mazmuni undagi optimistik, realistik kayfiyat bilan bog'liqdir.

Inson o'limi masalasi ham hozirgi zamon faylasuflari orasida turli tortishuvvlarga, munozaralarga sabab bo'layotgan muammolardan biridir. Ayniqsa, „*inson o'lish huquqiga egami?*“, degan muammo ilmiy jamoatchilik orasida turli bahslashuvvlarga sabab bo'layotir. Insonni o'z ixtiyori bilan hayotdan ketishi („o'zini o'zi o'ldirish“) masalasida ham turlicha fikr-mulohazalar mavjud. Chunonchi, diniy dunyoqarash insonni o'z ixtiyori asosida hayot bilan xayrlashuvini qattiq qoralaydi. Islom dini qoidalariga muvofiq o'z-o'zini o'ldirgan kishiga, hatto janoza o'qitilmaydi. Xristian dini talablariga ko'ra bunday kishilarning jasadini mozorga ko'mish taqiqlanadi.

Fan-teknika jadallik bilan rivojlanayotgan hozirgi sharoitda inson o'limi tibbiy tomondan qattiq nazorat ostiga olinishi ushbu muammoning dolzarbligini yanada oshirib yubordi. Chunki, hozirgi *evtanaziya* (yunoncha so'z — og'riqsiz ma'nosini bildiradi), ya'ni og'riqsiz o'lim masalasida ham turli bahslashuvalar, munozaralar ko'payib bormoqda.

Evtanaziya tarafдорлари — *antipaternalistlar* deb yuritiladi. Antipaternalistlarning fikr-mulohazalariga muvofiq, inson o'lish huquqiga ega bo'lmog'i, uning bunday huquqi maxsus qonun

yordamida rasmiylashtirilishi darkor. Ushbu qonunga muvosiq, o'limni o'ziga ravo ko'rgan kishining hayot bilan xayrlashuvi boshqalarga zarar keltirmasligi lozim. Insonning o'z ixtiyori bilan o'lishi boshqalarga zarar keltirsa, bunday holat axloq me'yorlariga zid bo'ladi. *Paternalizm* tarafдорлари esa, insonning o'zini o'zi o'ldirishi umuminsoniy axloq me'yorlariga zid deb tushuntiradilar. Inson hayoti *muqaddasdir* deb qaraydilar.

Yuqorida munozaralardan insonda o'limni anglash mada-niyati bo'lishi ham tarixiy zaruriyat ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Bu „*madaniyat*“ning asosida optimizm — umidvorlik yoki pessimizm — umidsizlik yotishi mumkin. Boshqacha aytadigan bo'lsak, inson hayoti, uning aql-zakovati, ma'naviy qiyofasidagi insonparvarlik, *realizm* bilan bevosita bog'liq.

Olamda abadiy *yashab* qoladigan inson yo'q. O'lim — muqarrardir. *Abadiylik esa* insonlarning odamlarga qilgan yaxshiligidir, yaxshi nom goldirishidir.

Jomiy aytganidek,

«*Hayot sahifalar — inson umrin daftari,*
Shundayin so 'zni aytmish, o'yga to 'lgan bir dono:
,„Kim bu yorug' olamda xayrli ishlar qilib,
Elning ko 'nglini olsa — o'shaning umri a'lo „.»

IV. Ijtimoiy ong — borliqning o'ziga xos shakli sifatida

Borliqning yana bir shakli haqida so'z yuritilganida, ko'plab adabiyotlarda „*ma'naviy borliq*“, degan tushuncha qo'llaniladi. Bu — masalaga biroz torroq yondashishdir. Bu o'rinda gap borliqning inson ongida aks etishi, ya'ni ijtimoiy ong ustida ketmoqda. Ijtimoiy ong esa, mohiyati jihatidan keng bo'lib, ma'naviyatni ham o'z ichiga oladi. Ijtimoiy ong borliqni bilish asosida inson miyasida yuzaga kelgan bilimlar, tushunchalar, tasavvurlardir. Ular o'z mohiyati jihatidan turli-tuman va bir-biriga qarama-qarshi bo'lishi mumkin. Ijtimoiy ong tarkibiga: jamiyat taraqqiyotiga, inson kamolotiga ijobjiy ta'sir etuvchi, ilmiy asoslangan g'oyalar, bilimlar, axloqiy, huquqiy qadriyatlar bilan birga soxta g'oyalar, reaksiyon mafkuralar, xurofiy tasavvurlar va qarashlar ham kiradi. Bular inson miyasida aks etayotgan predmet (narsa)lar, hodisalar, voqealar, jarayonlarni turli e'tiqodlar, maqsadlar, manfaatlar bilan bog'liq ravishda anglanilishi natijasidir. Ma'naviyat esa borliqning inson ongidagi har qanday in'ikosini

emas, balki inson kamolotiga, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadigan axloq, huquqiy maron; me'yorlar, bilimlar, e'tiqodlar, g'oyalar, mafkuralar tizimini o'z ichiga oladi. Shu ma'noda, ma'naviyat — borliqning muayyan shakli bo'lgan ijtimoiy ongning tarkibiy qismidir.

Jamiyatning ma'naviyat sohalarini esa: ta'lim-tarbiya, ma'naviyat va ma'rifat, ma'naviy madaniyat va ma'naviy meros, ilm-fan, axloq-odob, san'at va huquq, din va shu kabilar tashkil qiladi. Jamiyat ma'naviy hayoti tarkibiga intelektual — aqliy mehnat, ma'naviy qadriyatlar kiradi. Ijtimoiy ong jamiyat ma'naviy hayotining asosini tashkil etadi. Shu sababli *onglilik* degan tushunchani *ma'naviyatlilik* tushunchasi bilan aynan tenglash-tirish mumkin emas. „*Olim bo'lishdan ko'ra, odam bo'lish qiyin*“, degan so'zda ham shu ma'no bor.

1- §. Ongning mohiyati

Ong muammosi doimo faylasuflarning diqqat-e'tiborini o'ziga jalb qilib kelgan. Buning boisi insonning dunyodagi o'z o'rni va rolini anglab borishi, atrof muhit, tabiat va jamiyatga, boshqa odamlarga munosabatini belgilashidir.

Ong o'z tabiatni va mohiyatiga ko'ra juda murakkab bo'lib, uni qator fanlar o'rganadi. Masalan, *falsafa*, *sotsiologiya*, *fiziologiya*, *psixologiya*, *tilshunoslik*, *pedagogika* kabi fanlar shular jumlasiga kiradi. Falsafadan boshqa fanlar ongning alohida ma'lum bir tomonini o'z predmeti doirasida o'rgansa, falsafa ongni bir butun holda, har tomonlama olib o'rganish asosida uning umumiyligi mohiyati, kelib chiqishi va rivojlanishini umumnazariy jihatdan tahlil qiladi. Falsafada „ong“ kategoriyasi insonning butun moddiy va ma'naviy faoliyatini tahlil qilish va tushunishning markaziy tushunchasidir. Inson o'zining ongli faoliyati bilan o'zi mavjud bo'lgan tabiatdan farq qiluvchi „*ikkilamchi tabiatni*“ va, ayni chog'da, „*ijtimoiy muhit*“ni, ya'ni jamiyatni yaratadi.

Falsafada inson ongi yuksak darajada tashkil topgan materiya — inson miyasining xossasi, inson miyasidagi vogelik in'ikosining oliy ruhiy shakli, ijtimoiy taraqqiyot mahsuli, deb qaraladi. Ong muammosini bunday tushunish borliq evolutsiyasi natijasida noorganik tabiatdan organik tabiatning kelib chiqishi, organik tabiat taraqqiyotida unga mos in'ikos shakllarining rivojlanib, o'zgarib, oddiy turlardan murakkab turlarga o'tib borishi asosida shakllangan,

degan qarashdan kelib chiqqan. Bu qarash ongning shakllanishida muhim rol o'ynagan mehnat, nutq (til)ning o'rnini to'g'ri e'tirof etish bilan ham bog'liq.

Ongning shakllanishi odamlarning paydo bo'lishi, so'ng oziq-ovqat topish uchun mehnat qilishga o'ta boshlashi, tabiat ashyolaridan foydalanib, mehnat qilishga, borgan sayin ijtimoiylasha borib, jamoa, jamiyat bo'lib uyushish jarayoni bilan bog'liq. Ong, aslida, yarim yovvoyi kishilarning o'zлari tayyorlagan mehnat qurollari yordamida moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish jarayonida, miyalarda tug'ilgan fikrlarini bir-biriga nutq orqali yetkazishga harakat qilishdan boshlab shakllanadi.

Odam obyektiv olamdagи narsa va hodisalarni idrok etganda, ularni abstraktlashtirib, umumlashtirib ifodalaydigan bo'ladi. Endi narsa va hodisalarning muhim belgi va xususiyatlari, ular o'rtasidagi turli xil munosabatlar odam miyasida *tushuncha*, *hukm* va *xulosa* shakllarida, xullas, *fikr* shaklida in'ikos eta boshlaydi.

Natijada, odama abstrakt tafakkur qaror topadi. Abstrakt tafakkur obyektiv olamdagи narsa va hodisalarning odam miyasidagi mavhumlashgan, umumlashgan va, ayni vaqtida, konkretlashgan tushuncha, hukm va xulosa shakllaridagi fikriy in'ikosidir. Shunday qilib, odam va jamiyatning rivojlanib borishi bilan ong ham rivojlanib, til bilan birga taraqqiy etib, ijtimoiylashib boradi. Ong inson miyasida sodir bo'lsa ham o'z mohiyati jihatidan ijtimoiy hodisadir. Ijtimoiy ongning muayyan qadriyatlarga tayangan, inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan shakllari *ma'naviyat* deb ataladi. Ong va ma'naviyat borliqning o'ziga xos shaklidir.

2- §. Ijtimoiy ong va ma'naviyat

Falsafaning o'ziga xos jihatlaridan kelib chiqqan holda ma'naviy botliq masalasini „*ijtimoiy ong*“ tushunchasi orqali tahlil etamiz. Ijtimoiy ong mazmuni jihatidan keng, ma'naviyat esa uning qadriyat darajasiga ko'tarilgan shaklidir. Ijtimoiy ong shakllari ma'naviyat darajasiga ko'tarilgandagina jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadi.

Ijtimoiy ong jamiyat ongi sifatida ijtimoiy borliqning in'ikosidan iboratdir. Bir butun jamiyat ana shu ijtimoiy borliq va ijtimoiy ongning birligidan iborat. Ijtimoiy borliq jamiyatning moddiy hayotini, ijtimoiy ong esa uning ma'naviy hayoti asosini tashkil qiladi. Jamiyatning moddiy hayoti moddiy ishlab chiqarishning,

ma'naviy hayoti esa ma'naviy ishlab chiqarishning mahsulidir. Jamiyat moddiy hayotining asosida moddiy ishlab chiqarish yotganidek, jamiyat ma'naviy hayotining asosida jamiyatning ma'naviy ishlab chiqarishi yotadi. Ijtimoiy ong va uning shakllari ayni shu ma'naviy ishlab chiqarish tufayli yuzaga keladi.

Jamiyatning ma'naviy ishlab chiqarishi deganida nimani tushunamiz?

Ma'naviy ishlab chiqarish bir butun ijtimoiy ishlab chiqarishning tarkibiy qismi bo'lgan moddiy ishlab chiqarish bilan chambarchas bog'liq jamiyat ma'naviy hayotini ham ishlab chiqarishini tushunamiz.

Ma'naviy ishlab chiqarish — bu jamiyatni shakllantirishning maxsus yo'nalishi bo'lib, jamiyatda yangi tasavvurlarni, tushunchalarni, g'oyalar va qarashlarni, bilimlar va nazariyalarni, muammolar va gipoteza (faraz)larni, ta'limotlarni vujudga keltirish, xullas jamiyat ijtimoiy ongi va uni tashkil etgan: *mifologik, diniy, falsafiy, ilmiy, badiiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy* va shu kabi ma'naviy qadriyatlarni yaratishdir.

Ma'naviy ishlab chiqarish jamiyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida moddiy ishlab chiqarishda ishtirok qiluvchi kishilar ma'naviy faoliyatlarining shakllari sifatida yuzaga keladi, ya'ni ma'naviy ishlab chiqarish ham tarixiy xarakterga ega. Shuningdek, ma'naviy ishlab chiqarish kishilarning bevosita aqliy-ijodiy faoliyatları bilan bog'liq holda o'ziga xos vorislikka ham ega. Ma'naviy ishlab chiqarishda ijodkor o'zidan oldin yaratilgan ma'lum ma'naviy boyliklarni o'zlashtirib, ularni qayta ishlab, o'zicha baholab, egallab olgandan so'ng, o'zi ham muayyan sohalarda yangi ma'naviy boyliklar yaratadi.

Ma'naviy taraqqiyot asosida muayyan talablar va ehtiyojlar yotadi. Ma'naviy ehtiyojlar va talablar jamiyat ma'naviy ishlab chiqarishini yuzaga keltiruvchi, uning ma'naviy hayotini harakatlantiruvchi kuchlar sifatida jamiyat a'zolarining qiziqishlari, maqsadlari, orzu-umidlari, rag'batlari, xohish va istaklari hamda irodalarida o'z ifodasini topadi.

Insonning ma'naviy ehtiyojlari va talablari doimo jamiyat ma'naviy ishlab chiqarishi oldiga muayyan yangi vazifalarni va muammolarni hal qilishni qo'yadi. Shu jihatdan, har bir ijtimoiy davrning o'z ma'naviy ehtiyojlari va talablari mavjud bo'lib, ular jamiyatning o'zgarib va rivojlanib borishi bilan o'zgarib va rivojlanib, eskilari o'rniga yangilari paydo bo'lib boradi. Jamiyatda bu vazifalar

va muammolarning hal bo‘lishi uchun ma’lum obyektiv ya subyektiv shart-sharoitlarning yuzaga kelishi bilan ular jamiyat a’zolari tomonidan anglab olinib, amalga oshirishga kirishiladi.

Prezidentimiz I. A. Karimov ta’kidlaganidek, „*Erkin fuqaro ma’naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir. Boshqacha aytganda, biz o‘z haq-huquqlarini taniydigan, o‘z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo‘layotgan voqeа-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda, shaxsiy manfaatlarni mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg‘un holda ko‘radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak*“¹.

Ma’naviy ishlab chiqarish, odatda, individual va ijtimoiy ong tadriji asosida amalga oshadi. Jamiyat ma’naviy ishlab chiqarishi tufayli vujudga kelgan hamma tasavvur va tushunchalar, turlituman qarashlar, e’tiqodlar, ishonchlar, maqsadlar, niyatlar, g‘oyalilar, nazariya va ta’limotlar, xullas, barcha ma’naviy qadriyatlar ana shu individual va ijtimoiy onglarga mansubdir.

Individual va ijtimoiy onglar birlikda bir butun jamiyat ongini tashkil qiladi. Bunda individual ong bir kishi yoki alohida shaxs ongi bo‘lib, ijtimoiy ong esa, jamiyatdagi ma’lum *ijtimoiy guruuhlar, sinflar, elatlar, xalqlar, millatlar, ijtimoiy qatlamlar* onglaridir. Individual ong ijtimoiy ong bilan bog‘liq bo‘lib, u ijtimoiy ongning umumiyligi va asosiy elementlarini o‘zida mujassamlashtirgan bo‘ladi. Jamiyatdagi har qanday yangi tasavvur, fikr, g‘oya, qarashlar, dastlab, ana shu individual ongda paydo bo‘lib, so‘ng ijtimoiy ongda obyektivlashadi. Individual ong, shu bilan birga, o‘zida ijtimoiy ongda mavjud bo‘lмаган tomonlarga, xususiyatlarga ham ega bo‘ladi. Ijtimoiy ong bir butun ijtimoiy borliq asosida shakllansa, individual ong ma’lum konkret davrdagi ijtimoiy guruuh, ma’lum jamoa, oilada, konkret kishilar ta’sirida, ta’limi va tarbiyasida shakllanadi. Bunda jamiyatdagi ma’lum ijtimoiy guruuhlar, ijtimoiy qatlamlar, elat va millat, xalqlarga xos bo‘lgan ijtimoiy ong individual onglarning o‘ziga xos xususiyatlarini inkor etmaydi, aksincha, individual onglarning hammasi uchun umumiyligi bo‘lgan tomonlari va xususiyatlarinigina ifodalaydi, xolos. Individual ongda ijtimoiy ong shakllari bo‘lмаган rang-barang xususiyatlar ham mavjud bo‘ladi. Buning sababi, ijtimoiy ongni bir butun ijtimoiy

¹ **I. A. Karimov.** O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda, Asarlar, 7-jild, T., „O‘zbekiston“, 1999. 381-bet.

borliq belgilasa, individual ongni yakka kishining yoki shaxsning ijtimoiy turmush sharoiti, uning qaysi ijtimoiy guruh yoki jamoaga, ijtimoiy qatlamlarga mansubligi, u tug‘ilib o‘sgan va tarbiyalangan oila sharoiti va, nihoyat, o‘zining genetik hamda ruhiy tomonlari belgilaydi.

Individ (yakka kishi) jamiyat bilan o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lgani kabi, individual ong ham ijtimoiy ong bilan o‘zaro dialektik asosda bog‘liq bo‘ladi. Bu bog‘liqlik shundaki, ular o‘zaro bir-birlariga ta’sir va aks ta’sir qiladi, bir-birlariga o‘tadi va bir-birlarini boyitib boradi. Ularning birini ikkinchisisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shaxs va jamiyat ma’naviy kamolotining dialektik birligi shu bilan taqozo etiladi.

3- §. Ijtimoiy ongning tarkibi

Ijtimoiy ong o‘z tarkibiga ko‘ra: *oddiy va nazariy ong, ommaviy ong, ijtimoiy ruhiyat va mafkura hamda ijtimoiy ongning turli shakllaridan iborat bo‘ladi*. Ular ijtimoiy ong tuzilishi va tarkibida o‘zlarining tutgan o‘rinlariga, ijtimoiy ong rivojlanishining darajasiga ko‘ra, ijtimoiy ongning quyi va yuqori bosqichlarini tashkil qilishlari jihatidan bir-birlaridan farq qiladilar. Shu bilan birga, ular o‘zaro bir-birlariga ta’sir va aks ta’sir qilib turuvchi, bir-birlari bilan chambarchas bog‘liq va aloqador, lekin, har biri o‘ziga xos xususiyatlariga ega bo‘lgan ijtimoiy ongning turli ko‘rinishlaridan iboratdir. Shu sababli ular bilan alohida-alohida tanishib chiqamiz.

a) Oddiy va nazariy ong

Ijtimoiy ong rivojlanishining darajasiga ko‘ra: *oddiy* (kundalik) *ong* va *nazariy onglar* bir-birlaridan farq qilinadi. Ular ijtimoiy borliqni oddiy, kundalik, odatdagи bilishimiz darajasiga borib taqaladi. Oddiy ong bizning har kungi amaliy ishlarimiz jarayonida stixiyali holda, o‘z-o‘zidan, o‘zaro bog‘liq predmet va hodisalar tashqi tomonlarining empirik in’ikosi sifatida hosil bo‘ladigan bilimlar va tasavvurlardir. Nazariy ong esa, borliqdagi predmet va hodisalarning ichki muhim aloqadorliklari va qonuniyatlarining nazariy tafakkur darajasidagi in’ikosidan iborat bo‘lib, ular odatda, falsafada hamda ijtimoiy ongning boshqa turli shakllarida o‘z ifodasini topadi. Ijtimoiy ong rivojlanishi darajasidagi oddiy ong va nazariy ongning bunday ajratilishi bola ongida kunadlik oddiy tasavvur va qarashlar vujudga kelishi bilan unda ilmiy tushunchalar va qarashlarning paydo bo‘lishi misolida yaqqol o‘z ifodasini

topadi. Bola ongida kundalik hayot haqidagi oddiy tasavvurlar, uning har kungi oddiy hayoti faoliyatida o‘z-o‘zidan paydo bo‘la boradi. Lekin, bola ongida ilmiy tushunchalarining, ya’ni nazariy ongning paydo bo‘lishi uchun u bilan maxsus o‘qish-o‘qitish, ta’lim-tarbiya ishlari olib borish lozim bo‘ladi. Unda nazariy ong: turli fanlarni o‘rganish va mutaxassislar bilan bo‘lgan o‘zaro munosabatlar, muloqotlar asosida shakllanadi. Ijtimoiy hayotda har bir kishi uchun oddiy ong ham, nazariy ong ham o‘z o‘rnida juda zarur.

Real ijtimoiy hayotda oddiy ong nazariy ong bilan shu qadar chirmashib ketgan bo‘ladiki, ularni bir-birlaridan ma’lum chegara bilan ajratish qiyin, ular o‘zaro birlikda, doimo bir-biriga ta’sir va aks ta’sirda bo‘ladi. Bunda nazariy ong oddiy ongga ta’sir qilib, uni kengaytirishi, chuqurlashtirishi, o‘zlashtirishi va natijada, uni „madaniylashtirishi“ mumkin. Ammo, ayni vaqtida, nazariy ong qancha yuqori rivojlansa ham, oddiy ong kishilarning kundalik oddiy hayotiy faoliyati uchun juda zarur. Oddiy ong, odatda, oddiy kundalik „sog‘lom fikr“da o‘z ifodasini topadi. Biz bu „sog‘lom fikr“ bilan prinsip jihatidan obyektiv borliqdagi har qanday voqeа-hodisalarni qarab chiqishimiz, ularni baholashimiz va izohlashimiz mumkin. Biroq bu „sog‘lom fikr“ bilan qilingan xulosalarimiz hamma vaqt ham to‘g‘ri bo‘lavermaydi. Chunki, bu hulosalar, odatda, empirik umumlashmalar bilan cheklangan, bir tomonlama, to‘liq bo‘lmaydi.

b) Ommaviy ong

Ommaviy ong oddiy va nazariy onglardan farqli o‘laroq, ijtimoiy ongning jamiyatdagi ko‘pchilik kishilarga — xalq ommasiga xos bo‘lgan, ularning kundalik hayot ehtiyojlari va manfaatlarini aks ettiruvchi shaklidir. Ommaviy ong jamiyatdagi turli kasbdagi kishilar o‘rtasida keng tarqalgan tasavvurlar va tushunchalarni, turli g‘oyalar va qarashlarni, xomxayollarni, hissiyotlarni ham o‘z ichiga oladi. Unda, odatda, ijtimoiy ongning turli shakllari va darajalarining hammasi birgalikda, bir-biri bilan qorishib ketgan holda mavjud bo‘ladi. Ommaviy ong, ko‘pincha, muyyan omma ma’naviy saviyasining pastligi yoki yetukligi bilan bog‘liq bo‘ladi. Ommaviy ongning holati esa shu davrga xos jamoatchilik fikri, ommaning kayfiyati va faoliyatlarida ifodalanadi.

Antagonistik jamiyatlarda ommaviy ong iqtisodiy va siyosiy jihatdan hukmron guruqlar va sinflarning mafkurasi, barcha ma’naviy ta’sir vositalari tazyiqi ostida, mavjud shart-sharoitlar

natijasida ham shakllanishi mumkin. Demokratik jamiyatlarda esa, ommaviy ongning shakllanishi turli mafkuralar ta'sirida, turli xil g'oyaviy-tarbiyaviy ishlar olib borilishi natijasida yuzaga keladi. Ommaviy ong ommaning xulq-atvori, jamoatchilik fikri, ommaviy axborot va targ'ibot vositalari faoliyati bilan bog'liq. Ommaviy ong, shu bilan birga, jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlari va ilmiy-texnika taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Jamiyat ma'naviy hayotiga oid qadriyatlar va axloqiy me'yollar, an'analar, ehtiyojlar, intilish va istaklar, siyosiy qarashlar, ijtimoiy ideallar, har xil obyektiv va subyektiv vaziyatlarga bo'lgan reaksiyalar — bular bari ommaviy ong sohasiga ham tegishlidir. Ommaviy ong, bular bilan birga, o'z tarkibiga omma orasiga keng yoyilgan har xil tasavvurlarni, umumiy bilimlar va me'yirlarni, ma'lum e'tiqod element(unsur)larini ham qamrab oladi. Xullas, ommaviy ong shu qadar „chegarasiz“ki, u ma'lum ma'noda ijtimoiy ong shakllarining hammasiga oid elementlarni o'z ichiga oladi. Chunki ommaviy ong o'z hajmi va mazmuni jihatdan ijtimoiy ong shakllari tarkibiga to'liq kirmaydi. Ommaviy ongning subyekti omma, keng xalq ommasidir. „*Omma, xalq ommasi*“ tushunchalari esa, o'z mazmuniga ko'ra, „*olomon*“ tushunchasidan tubdan farq qiladi. Omma, xalq ommasi ma'lum faoliyat va kayfiyati jihatidan bir-biri bilan bog'langan ijtimoiy birliklardir. Olomon esa, hech qanday umumiy birlikka ega bo'lmagan kishilarning yagona maqsad asosida uyushmagan guruhlaridir.

Ommanning olomondan farqi quyidagilar:

- a) omma ma'lum barqaror tabiatga ega bo'lgan birlik;
- b) nihoyat, omma har bir tarixiy sharoitda, har bir konkret faoliyatda o'zgarib boruvchi birlik.

Demak, yuqorida aytilganlardan shunday xulosa qilish mumkinki, har bir tarixiy davrning o'ziga xos ommaviy ongi mayjud. Bu ommaviy ong ijtimoiy ongning boshqa ko'rinishlari va shakllari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Bular *ijtimoiy ruhiyat* va *mafkuradir*.

4-§. Ijtimoiy ruhiyat va mafkura

Ijtimoiy ong tarkibiga kiruvchi, uning navbatdagi ko'rinishlari ijtimoiy ruhiyat va mafkuradir.

Ijtimoiy ruhiyat va mafkura ijtimoiy ongning bosqichlariga oid turli darajalarni tashkil qiladi. Xususan, ijtimoiy ruhiyat ijtimoiy ongning dastlabki bosqichi, quyi darjasini bo'lib, kishilar kundalik

hayot sharoitlari ta'sirida, ularning bevosita turmush tajribalari va shaxsiy kundalik hayotlari asosida shakllanadigan ijtimoiy tasavvurlari, muayyan tartibga ega bo'limgan fikrlari, his-tuyg'ulari, kayfiyat va hayajonlari, xurofiy va xayoliy qarashlari, taammul va an'analaridir. Ommaviy ongga xos jamoatchilik fikri, jamoaviy iroda, jamoaviy ijod va shu kabilar ham ijtimoiy ruhiyat tarkibiga kiradi. Ijtimoiy ruhiyatni tashkil qilgan bu hodisalarning jami kishilarning bevosita kundalik hayotidagi ma'lum ijtimoiy munosabatlar asosida paydo bo'ladi.

Har bir kishining ruhiy dunyosiga oid individual xususiyatlari: tabiat, jo'shqinligi, qobiliyati, iste'dodi, xayollari va kayfiyati, tasavvuri va tushunchalari bo'lgani kabi, bir butun jamiyatdagi kishilarning ham ma'lum bir guruhiga, ma'lum ijtimoiy qatlamlariga, muayyan sinf yoki millatga xos xususiyatlari bo'lgan *ruhiyat* ham mavjuddir. Shunga ko'ra, biz bir guruh yoki biror millatning boshqa guruh yoki millatga nisbatan boshqacha ruhiyatga ega ekanligini farqlaymiz. Lekin, *ijtimoiy ruhiyat* — bu barcha kishilarning ruhiy dunyosiga xos xislatlarining oddiy mexanik yig'indisi emas, balki ularning murakkab dialektik birligidan iborat.

Ijtimoiy ruhiyatning individ (kishi, shaxs) ruhiyatiga nisbati ijtimoiy ongning individual ongga nisbati kabitdir. Ijtimoiy ruhiyat individual kishilar ruhiyatlarining umumiyligi, zarur va muhim tomonlarini o'z ichiga oladi. Ijtimoiy ruhiyat kishilarning kundalik oddiy amaliy faoliyatlarini jarayonida shakllanganligi tufayli, u oddiy ongga juda yaqin turadi. Lekin, ijtimoiy ruhiyatni oddiy ongdan farq qildiradigan narsa konkret inson erishgan bilim emas, balki shu bilimga munosabat, unda boriqliqning baholanishi, kishilarning ijtimoiy hayotidagi u yoki bu hodisalarga turli xil emotsional munosabatlaridir. Ijtimoiy ruhiyat o'zining emotsional jihatlari bilan ijtimoiy jarayonlarda kishilarini turli faoliyatlarga qo'zg'ovchi omil sifatida muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun, odatda, biror siyosiy yo'lni ishlab chiqish va uni amalga oshirishda ijtimoiy ruhiyatni, ya'ni jamiyat kishilarining kayfiyatlarini, his-tuyg'ularini o'rghanish, u yoki bu siyosat ta'siriga ularning qanday aks sado berishini, unga nisbatan qanday munosabatda bo'layotganini aniqlash, hisobga olish juda muhimdir.

Jamiyat ma'lum guruhlarga, sinflarga bo'linishi bilan ijtimoiy ruhiyat ham guruhiy (sinfiy) mazmun kasb etadi. Chunki, ijtimoiy guruhlarning paydo bo'lishi bilan jamiyatda kishilarning ishlab chiqarish tizimida tutgan o'rni, roli, mavqeysi va manfaatlari o'zga-

radi. Natijada, ularning his-tuyg'ulari, tasavvur va tushunchalari, fikrlash tarzi har xil bo'la boshlaydi. Shunday qilib, bir-biridan farq qiluvchi yoki bir-biriga qarama-qarshi ruhiyatlar kelib chiqadi. Ijtimoiy guruhlar ruhiyatida ularning orzu-umidlari, his-tuyg'ulari, qat'iylik yoki ikkilanish kabi kayfiyatlari ham ifodalanadi. Shuning uchun o'tmish jamiyatlariga oid biron guruhning hayotini, qarashlarini o'rganish, ijtimoiy ongini tushunish, bu guruhning ijtimoiy qiyofasini o'rganish uchun yetarli emas. Tadqiqotchi, shu bilan birga, ijtimoiy guruh ruhiyatini ham o'rganishi va bilishi zarur.

Mafkura — nazariy jihatdan asoslangan, ma'lum ijtimoiy guruh, sinf, partiya, ijtimoiy qatlam va tabaqalarning bir butun millat, yoki xalqning, yoki bir butun jamiyatning moddiy va ma'naviy manfaatlarini ifodalovchi, aks ettiruvchi ijtimoiy ongning yuqori bosqichi, oliy darajasidir. U muayyan jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining to'g'ri yoki noto'g'ri in'ikosi, nazariy ifodasi, jamiyatdagi ma'lum ijtimoiy guruh — siyosiy partiyalar, davlat yoki jamiyatning ijtimoiy ahvolini, manfaatlarini va maqsadlarini o'zida ifodalaydigan hamda mavjud tuzumni ijtimoiy tartiblarni saqlashga, mustahkamlashga qaratilgan bo'ladi. Shu sababli u muayyan ijtimoiy guruhlar va siyosiy kuchlarning harakat dasturi va yo'l-yo'riqlarini omma ichiga yoyishga, ularning ongiga singdirishga qaratilgan nazariy g'oyalar, qarashlar va tamoyillardan iborat bo'ladi. Mafkura, ijtimoiy ruhiyatdan farqli o'laroq, kishilarning oddiy kundalik hayotiy faoliyatları jarayonida paydo bo'lmaydi, balki u ma'lum ijtimoiy guruh, millat, xalq, partiya, davlat yoki jamiyatning g'oyaviy jihatdan yetuk nazariyachilari, rahbarlari tomonidan ishlab chiqiladi.

Shu tufayli mafkurada ana shu ijtimoiy guruh, partiya, millat yoki davlatning jamiyatda o'z-o'zini, o'zining q'rni va rolini anglab, boshqa ijtimoiy guruh, tabaqa, millat yoki davlatlarga munosabatlari belgilab berilgan bo'ladi. Jamiyatda har bir ijtimoiy guruh, tabaqa, millat, siyosiy partiya yoki ijtimoiy kuchlar o'z mafkurasini bilan g'oyaviy jihatdan qurollanib, o'z faoliyatini amalga oshiradi.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, jamiyatda yagona mafkuraning yakka hukmronligi ham salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli bizda mustaqil O'zbekiston davlatchiligining qaror topishi bilan bir mafkuraning yakka hokimligidan qat'ian voz kechib, siyosiy tashkilotlar, mafkuralar xilma-xilligini tan olishga o'tildi. Prezidentimiz I. A. Karimov o'z asarlarida: „**birorta**

mafkura mutlaq haqiqatni bilishga da'vo qilishi mumkin emas“, degan fikrini aytib, u *O'zbekistonning o'ziga xos milliy mustaqillik g'oyasi va mafkurasini ishlab chiqishni* olg'a surdi.

Xususan, I. A. Karimov 2000-yil 6-aprelda Milliy istiqlol mafkurasi konsepsiyasining asosiy tamoyillarini yaratish masalasiga bag'ishlab ilmiy va ijodiy jamoatchilik vakillari bilan o'tkazilgan uchrashuvda so'zlagan nutqida: „**Binobarin, mana shu o'zimiz tanlagan mustaqil taraqqiyot yo'lida aniq marralarni ko'zlab yashashimizda, pirovard maqsadimiz bo'lgan ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish borasidagi intilishlarimizda biz uchun ruhiy-ma'naviy kuch-quvvat manbayi, ilmiy asos — bu milliy g'oya, milliy mafkuradir...** ...milliy g'oya oldiga qo'yiladigan asosiy talablar haqida gapirmoqchi bo'lsak, avvalo uning ikki suyangan tog'i-tayanchi haqida fikr yuritishimiz zarur. **Birinchi navbatda, milliy mafkuramiz xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga, bir so'z bilan aytganda, o'z milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning dunyoqarashi va tafakkuriga asoslanib, shu bilan birga, zamonaviy, umumbashariy, umuminsoniy yutuqlardan oziqlangan, ularni o'ziga qamrab olgan holda, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq manfaati va farovonligi yo'lida xizmat qilmog'i darkor**“¹, deb ta'kidlagan edi.

Bu mafkura O'zbekiston mustaqilligini siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan mustahkamlashga, uning kelgusi taraqqiyot yo'llarini belgilashga, mamlakatning bozor iqtisodiga o'tishini g'oyaviy jihatdan ta'minlashga, Respublikada demokratik, insonparvar va adolatli huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatni qaror topishiga, yaqin yillarda jahonning rivojlangan davlatlari safidan munosib o'rinn olishimizga qaratilgandir.

Mafkura shu sababli ijtimoiy ongning hamma shakllari bilan chambarchas va bevosita bog'liqdir. Buni biz ijtimoiy ong shakllari bilan tanishib chiqish jarayonida yaqqol ko'ramiz.

5- §. Ijtimoiy ong shakllari

Ijtimoiy ong bir qancha shakllardan iborat bo'lib, ular: ijtimoiy munosabatlarning yo'nalishlariga mos siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy, falsafiy, va milliy ong tarzida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy

¹ **I. A. Karimov.** Milliy mafkura — davlatimiz va jamiyatimiz qurilishida biz uchun ruhiy-ma'naviy kuch-quvvat manbayi. / Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot — pirovard maqsadimiz. Asarlar, 8-jild. T., „O'zbekiston“, 2000, 463–466-betlar.

ong shakllarining bunday xilma-xilligi, ularning manbayi va vujudga keltiruvchi ijtimoiy borliqning ko'p tomonlamaligi va ko'p qirraliligidir. Ijtimoiy borliqning mavjudlik holatlari ijtimoiy ongning turli shakllarida turlichcha in'ikos etadi. Ijtimoiy ong shakllarini, alohida-alohida olib turli konkret fanlar ham o'rganadi. Falsafa esa, ijtimoiy ongni borliqning in'ikosi sifatida yaxlit, bir-biri bilan bog'langan holda o'rganadi.

Ijtimoiy ongning shakllari bir-birlari bilan chambarchas bog'liq ravishda bir-birlariga va butun ijtimoiy hayotga, uning taraqqiyotiga turlichcha ta'sir ko'rsatadilar. Ularning bir-birlariga va ijtimoiy taraqqiyotga qiladigan ta'sirlari turli tarixiy davrlarda turlichcha namoyon bo'ladi. Ijtimoiy ongning shakllari jamiyat moddiy va ma'naviy ehtiyojlari, moddiy va ma'naviy munosabatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular o'ziga xos ma'naviy qadriyatlarni tashkil qiladi.

O'z mohiyatiga ko'ra, jamiyat hayoti va taraqqiyotida ijtimoiy ongning siyosiy ong shakli bиринчи о'rinda turadi. Shuning uchun ijtimoiy ong shakllari bilan tanishishni biz siyosiy ong va uning xususiyatlarini o'rganishdan boshlaymiz.

a) Siyosiy ong va uning xususiyatlari

Siyosiy ong ijtimoiy ong shakli sifatida jamiyatda siyosat va siyosiy munosabatlarning davlat va davlat hokimiyatining qaror topishi bilan paydo bo'ladi. Chunki, jamiyat taraqqiyoti bilan paydo bo'lgan ijtimoiy guruhlar o'rtasida ularning o'zaro va davlat hokimiyatiga oid siyosiy munosabatlari shunga olib keladi. Siyosiy ong siyosat, siyosiy guruhlar, davlatlar, millatlar, xalqlar o'rtasidagi, ularning bir-birlariga, fuqarolarning davlat hokimiyatiga va aksincha, davlat hokimiyatining fuqarolariga bo'lgan siyosiy munosabatlari in'ikosi sifatida paydo bo'ladi. Shu sababli siyosiy ongni qisqacha shunday ta'riflash mumkin: **Siyosiy ong — siyosiy guruhlar, davlatlar, xalqlar, millatlar va elatlarning o'zaro bir-birlariga bo'lgan siyosiy munosabatlarini aks ettiruvchi siyosiy tasavvur va tushunchalar, g'oyalar va qarashlarning umumlashgan tizimidir.** Siyosiy ongda, eng avvalo, siyosiy guruhlar, kuchlar, davlatlar, xalqlar va millatlarning siyosiy manfaatlari, kishilarning davlat tizimiga, davlatning boshqa davlatlarga va o'z fuqarolariga bo'lgan munosabatlari ifodalanadi.

Shu jihatdan, siyosiy ongning muhim xususiyati — uning siyosiy guruhlar, partiyalar, davlatlar, xalqlar va millatlarning siyosiy manfaatlari bilan uzviy bog'liq bo'lishidir. Siyosiy ong o'z

tabiatiga ko'ra, ikki bosqichdan iborat bo'lib, uning birinchi bosqichi ijtimoiy ruhiyat ko'rinishida, ikkinchi bosqichi esa, siyosiy mafkura ko'rinishida sodir bo'ladi. Siyosiy ongning ijtimoiy ruhiyat bosqichi stixiyali, o'z-o'zicha rivojlanishi orqali yuzaga keladi. Uning siyosiy mafkura bosqichi ma'lum guruhlar yoki davlat tomonidan muayyan maqsadni amalga oshirish uchun ishlab chiqish bilan ifodalanadi.

Siyosiy mafkura davlat siyosati bilan bog'langan bo'ladi. Jamiyatda yuzaga kelgan har bir davlat hokimiyati o'zining mustaqil siyosiy mafkurasiga ega bo'lib, bu mafkura orqali o'z oldidagi maqsad va vazifalarini amalga oshiradi. Har bir ishlab chiqilgan siyosiy mafkura o'ziga xos g'oyalar, qarashlar, konsepsiyalardan iborat bo'ladi. Ular mazkur davlat yoki partiya hujjalarda, konstitutsiyasida, qabul qilingan dasturlar va bayonotnomalar, deklaratsiyalarida o'z ifodasini topadi.

Siyosiy mafkura jamiyat hayotida juda katta rol o'ynaydi, ya'ni jamiyat taraqqiyotiga, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotga ko'rsatadigan ta'siri yo progressiv yoki reaksiyon, yo ijobjiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Shuning uchun amaliy, kundalik faoliyatda siyosiy mafkuraning reaksiyon rolini sobiq Sovet jamiyati tarixi misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Masalan, Ikkinchi jahon urushi yillarda, urushning sobiq Ittifoq foydasiga g'alaba bilan tugashida partiya va davlat tomonidan olib borilgan siyosatda, uning ijobjiy rolini ko'rsak, *stalinizm* va *turg'unlik* yillarda olib borilgan siyosatda siyosiy mafkuraning reaksiyon roli yaqqol ko'zga tashlanadi.

Siyosiy mafkura g'oyalar, qarashlar, konsepsiyalardan tashqari, ma'lum guruhlar, partiyalar va davlatlarning siyosiy maqsadlarini va baholarini ham o'z ichiga oladi. Siyosiy mafkura, shu bilan ma'lum ma'muriy hokimiyat kuchiga ham ega bo'ladi. Siyosiy mafkura ijtimoiy ongning barcha huquqiy, axloqiy, falsafiy, diniy, estetik va boshqa shakllariga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Uning bu ta'sirini biz, avvalo, huquqiy ong misolida yaqqol ko'ramiz.

b) Huquqiy ong va uning xususiyatlari

Huquqiy ong — bu o'zida davlat qonunlari va huquqiy normalari to'g'risidagi bilimlarni ifodalovchi tasavvurlar, tushunchalar, g'oyalar, qarashlar, nazariyalar tizimidir. Huquqiy ong — ijtimoiy munosabatlar tizimidagi huquqiy munosabatlarni aks ettiruvchi ijtimoiy ong shaklidir.

Huquqiy ong, siyosiy ong bilan birgalikda, jamiyat hayotida va rivojlanishida katta rol o'ynaydi va o'ziga xos muhim ahamiyatga ega. Huquqiy ong jamiyat ijtimoiy tuzumi bilan bevosita bog'liq bo'lib, uning mazmunini real bazis belgilaydi. Huquqiy ong ijtimoiy guruhlar, ijtimoiy tabaqa va qatlamlarning ijtimoiy-siyosiy tuzumga, davlat hokimiyatiga, jamiyatning siyosiy tashkilotlariga, umuman siyosiy tizimiga nisbatan munosabatlarini, kishilarning o'z shaxsiy va ijtimoiy maqsadlari hamda manfaatlarini himoya qilishi, ularni ro'yobga chiqarishi, fuqarolarning jamiyatda tutgan o'rni va imtiyozlarini belgilaydigan majburiy tartiblar, qonunlar, normalar va qoidalarida ifodalanadi.

Huquqiy ong ham siyosiy ong kabi tarixiy kategoriyadir. U ham jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida kishilarning jamiyatdagi tutgan o'rni, roli va ega bo'lgan mavqeyini anglay boshlashlari bilan paydo bo'ladi. Huquqiy ongning muhim xususiyatlaridan biri — iqtisodiy tuzumni, real bazisni bevosita aks ettirish bilan chegaralanib qolmay, balki uni davlat hokimiyatiga xos huquqiy tartiblar, qonunlar va qoidalar orqali ifodalaydi.

Huquqiy ongning muhim elementi — huquqiy qarashlardir. Huquqiy qarashlarda jamiyatdagi ma'lum guruh, tabaqa va qatlamning iqtisodiy va siyosiy hukmronligi, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, huquqiy aktlar, normalar bilan mustahkamlash yo'llari hamda siyosiy hokimiyatni tashkil qilishning usullari va shakllari, kishilarning jamiyatdagi fuqarolik huquqiy munosabatlari aks etadi. Bu jihatdan huquqiy munosabatlar va huquqiy qarashlar bir-biridan farq qiladi.

Huquqiy munosabatlar jamiyat ijtimoiy munosabatlarining bir turi bo'lib, ular moddiy va ma'naviy munosabatlardir. Huquqiy qarashlar esa, huquqiy ongning muhim elementi sifatida o'zlarida ana shu munosabatlarni aks ettiradi. Boshqacha aystsak, huquqiy qarashlar huquqiy munosabatlarning in'ikosidir, ya'ni ular ma'naviy hodisalardir. Shuning uchun huquqiy munosabatlarni huquqiy qarashlar bilan aynan bir xil hodisalar, deb qarash noto'g'ridir. Huquqiy ong, huquqiy munosabatlarni, jamiyatda yuzaga kelgan huquqiy tartiblarni, huquqiy normalar va qonun-qoidalarni anglash, ularga bo'lgan kishilarning munosabatlarini bilish, huquqiy hodisalarni baholash asosida paydo bo'ladi. Jamiyatda yashovchi kishilarning moddiy va ma'naviy turmush sharoitlari va ularning jamiyatda egallagan mavqeyi turlicha bo'lganligidan huquqiy ongi ham turli darajada bo'ladi.

Jamiyatda huquqiy ong huquqiy madaniyat darajasiga ko‘tarilishi zarur. Huquqiy ong insonning jamiyatdagi qonunlarni bilishidir. Huquqiy madaniyat esa, kishilarning o‘z faoliyatida bu qonunlarga amal qilishidir.

Buning uchun, Prezidentimiz ta’kidlab aytganlaridek, „**Eng avvalo, qonunchilik, faoliyatimizdagi kamchiliklarni tanqidiy baholab, bartaraf etish, qonunlarimizning mukammal va izchil bo‘lishiga erishmog‘imiz va, eng muhimi, barcha huquqiy davlatlar qatorida qonun asosida yashashni o‘rganishimiz zarur**“!

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, o‘z Konstitutsiyasini qabul qildi, insonparvar, demokratik, adolatli huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishni maqsad qilib belgiladi.

Huquqiy davlatda qonun bilan taqiqlanmagan hamma turdag'i faoliyat amal qiladi. Hozirgi kunda, respublikamizda ishlab chiqarish aloqalari tobora ko‘proq shartnoma munosabatlari asosiga quriladigan xo‘jalik hisobi va o‘zini o‘zi boshqarish, o‘z-o‘zini mablag‘ bilan ta‘minlash, bozor iqtisodiga o‘tish sharoitlarida huquqiy xizmatning puxta ishlanishi, fuqarolarning huquqlari to‘la kafolotlanishida huquqiy ong va madaniyatning yuksak darajada rivojlangan bo‘lishi muhim ahamiyatga ega.

Insonparvar, demokratik, huquqiy davlat sharoitida sudlarning mustaqilligi, ularning faqat qonunga bo‘ysunishi shartligi qaror topadi; xalq maslahatchilarining roli oshadi, prokuratura xodimlarining asosiy ishi — fuqarolarning va davlat hokimiyati organlarning qonunlarga rioya qilishi ustidan nazorat qilish vazifasidan iborat bo‘ladi; fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilish kuchayadi.

Xullas, insonparvar, demokratik, huquqiy davlatning va fuqarolar jamiyatining qaror topishi bilan hokimiyatni zo‘rlik asosida qo‘lga kiritishga, suiiste‘mol qilishga, byurokratizm va rasmiyatchillika chek qo‘yiladi, jamiyatda qonunchilik va huquq-tartibot tubdan mustahkamlanadi. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyat rolining ustuvorlashuvi qonuniyat maqomiga ega bo‘ladi.

d) Axloqiy ong

Axloqiy ong — jamiyatdagi axloqiy munosabatlarning in’ikosi sifatida: kishilarning yurish-turish normalari, ularning xulq-atvorlari, odob va axloqlari to‘g‘risidagi tasavvur va tushunchalar,

¹ I. A. Karimov. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. Asarlar, 7-jild. T., „O‘zbekiston“, 1999, 383- bet.

g‘oyalar va qarashlar, tamoyillar va nazariyalar tizimidir. Axloqiy ong, dastlab, kishilik jamiyatining qaror topishi, kishilar o‘rtasida axloqiy munosabatlarning paydo bo‘lishi va ularni kishilar anglay boshlashi bilan vujudga kela boshlaydi. Axloqiy ongning ildizlari kishilarning kundalik **amaliy** faoliyatlarida sinalib, ular va jamiyat uchun foydali **bo‘lgan**, har ikkisining ehtiyoj va manfaatlariga mos kelgan dastlabki rasm-rusumlar, urf-odatlarga borib taqaladi. Axloqiy ongning o‘zagini axloqiy qarashlar va normalar tashkil qiladi. Axloqiy ong **bular-**dan tashqari, yana axloqiy baholashlar hamda axloqiy **qadriyat-**larni ham o‘z ichiga oladi.

Hozirgi zamон fanida axloqiy ongning ikki darajasi: 1) kundalik amaliy axloqiy ong va 2) nazariy axloqiy ong farq qilinadi. Odatda, kundalik amaliy axloqiy ong deganda, jamiyatda va kishilar o‘rtasida keng tarqalgan odob normalari: kishining o‘zini tuta bilishi, kattalarga hurmat va kichiklarga izzat, ularni oddiy ong darajasida baholashlar tushuniladi. Nazariy axloqiy ongda esa muayyan ijtimoiy birliklar, mutaxassislar, muassasalar, buyuk shaxslar tomonidan ishlab chiqilgan axloqiy normalar, qarashlar, nazariyalar, axloqiy ideallar o‘z ifodasini topadi. Axloq — inson ma’naviyatining asosiy negizidir. Xitoy faylasufi Konfutsiy aytganidek, „*axloq nima degan savolga javob topmay turib, inson nima degan savolga javob berib bo‘lmaydi*“.

Axloqiy ongning nazariy darajasi *yaxshilik* va *yomonlik*, *shonsharaf* va *badnomlik*, *vijdonlilik* va *vijdonsizlik*, *nomus* va *benomuslik*, *olijanoblik* va *tubanlik*, *baxt* va *baxtsizlik*, *qadr-qimmat* va *beqadrlilik*, *burch* va *burchsizlik* va shular kabi axloq, odob kategoriylarida ifodalananadi. Ular jamiyat va har bir kishi tomonidan hech bir nazoratsiz va majbur qilishsiz erkin, o‘z xohishi va irodasi, o‘z imkoniyati darajasida amalga oshiriladi. Bu shundan dalolat beradiki, axloqiy ongning eng muhim xususiyati — uni axloq bilan bevosita va chambarchas bog‘liqligidadir.

Axloqiy ong axloqning muhim elementini tashkil qiladi. Axloq shunday ijtimoiy hodisaki, u inson qiyofasini belgilab beradi. Axloq, shu bilan birga, tarixiy hodisa hamdir, chunki u jamiyat bilan birga paydo bo‘lgan. Axloq insonni inson qilgan, insoniyat taraqqiyotining zarur sharti, uni hayvonot dunyosidan ajratuvchi asosiy omillardan biridir. Konfutsiy aytganidek, „*insonning har bir ishida, so‘zida, xatti-harakatida boshqalar oldidagi o‘z burchi va mas‘uliyatini bilishi — axloqdir*“.

Umuman, axloqiy ong va axloqning jamiyatda, inson faoliyatidagi roli juda buyukdir. Zero, ular jamiyat va inson faoliyatini tartibga solib turuvchi asosiy omillardir.

Axloqning muhim xususiyati — uning inson ichki ruhiy dunyosiga oidligidir. Axloq kishining jamoat joyida *o'zini tutishi*, *yurish-turishi*, *muomalasi*, *xulqi*, *odobidan tortib*, jamiyatdagi kishilarning bir-birlariga, ularning jamiyatga munosabatlari hamda jamiyatning o'z a'zolariga nisbatan qo'yadigan ma'lum axloqiy talab va normalarini o'z ichiga oladi.

„Axloq“ tushunchasidan „axloqiylik“ tushunchasi farq qiladi. Masalan, „axloq“ tushunchasi jamiyatdagi kishilarning yurish-turishi, xulq-atvori, xatti-harakatlari kabi munosabatlari va ularga oid axloqiy normalar, axloqiy talablar va axloqiy qoidalarni o'z ichiga olsa, „axloqiylik“ esa jamiyat va shaxs manfaatlariga mos keluvchi ish yoki faoliyatga nisbatan aytildi. *Axloqiylik*, shu bilan birga, boshqa kishilar manfaati bilan hisoblashib, o'z manfaatiga munosabatida ham ifodalanadi. *Axloqiylik*, „yaxshilik“ va „vijdon“ tushunchalarini ham o'z ichiga oladi. *Yaxshilik* — o'zgalarga beg'araz, betama, beminnat ko'rsatiladigan yordam, og'irini yengil qilish kabi fazilatdir. *Vijdon* esa kishilar faoliyatini belgilab beradigan, ular hayotining to'g'ri rahnamosi, yomon yo'llardan qaytaruvchi, mudhish ishlardan saqlovchi ruhiy jilovdir. Kishida shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarning bir-biriga mos kela borishi, uning axloqiy sifatlarining shakllanishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bunda uning shaxs sifatida kamol topishida axloq va axloqiy ong muhim rol o'ynaydi. Bu narsa axloqiy tarbiya asosida amalga oshiriladi. Insonda axloqni, axloqiylikni, *burch*, *vijdon*, *shon-sharaf*, *yaxshilik*, *adolatlilik*, *insonparvarlik*, *xayr-ehson* va shu kabi oljanob tuyg'u va qarashlarni faqat mashaqqatli axloqiy tarbiya yo'li bilan shakllantirish mumkin, xolos. Bunda so'z bilan ish birligi, ijtimoiy burchga ongli va halol munosabatda bo'lish, shaxsiy namuna ko'rsatish muhim ahamiyatga ega.

e) Diniy ong va uning o'ziga xos xususiyatlari

Jamiyat ma'naviy hayotida muhim o'rın tutadigan ijtimoiy ongning yana bir shakli — diniy ongdir.

Diniy ong ijtimoiy ongning shunday shakli, u tabiiy va ijtimoiy borliqning ilohiylashtirilgan, xayoliy in'ikosidir. U kishilarning tabiat va jamiyat hodisalariga, o'zlariga va o'zaro bir-birlariga munosabatlarini ilohiy kuchlarga bog'lab, ularning irodasi, xohishi,

karami, saxovati yoki qahri, g‘azabi, nafrati, jazosi sifatida ifodalaydi. Diniy ong: diniy tushunchalar, qarashlar, nazariyalar, ta’limotlar, qadriyatlar, e’tiqodlardan iborat bo‘ladi.

Diniy ongning dastlabki elementi — *diniy tuyg‘udir*. Kishi-larning diniy tasavvurlari diniy g‘oyalar bilan qo‘silib, ma’lum diniy yo‘nalish, diniy ma’no va ahamiyat kasb etgan ruhiy kechinma *diniy tuyg‘u* deyiladi.

Diniy ongning yana bir elementi — *diniy aqidalardir*. Diniy aqidalar o‘z mazmuni bilan dunyo va undagi voqeal-hodisalarni ilohiy tushunishdan hosil bo‘lgan tasavvurlar va tushunchalardan iborat bo‘ladi. *Diniy e’tiqod* esa diniy ongning asosiy elementi sifatida diniy aqidalarga, yo‘l-yo‘riq va ko‘rsatmalarga shak-shubhasiz ishonish hamda ularga amal qilishdir. Diniy e’tiqod ilohiy kuchlarga ishonuvchi kishilar ongida mavjud bo‘lgan diniy tasavvurlar, obrazlar majmuyidir. Har qanday diniy ongning negizida diniy e’tiqod yotadi.

Diniy ongning muhim elementi — *diniy normalardir*. Diniy normalar kishilar ongiga ta’sir etib, ularning xulq-atvorini belgilaydi. Diniy ong diniy normalarni o‘z ichiga olib, ular yordamida ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Diniy normalar xulq-atvor haqidagi, ularning notabiiy, ilohiy ravishda vujudga kelganligini asoslovchi qoidalardan iborat bo‘lib, odatda, muqaddas kitoblarda bayon etilgandir. Diniy normalarga biz misol qilib Islom diniga oid „hadislar“ni olishimiz mumkin.

O‘tmish jamiyatlarida diniy ong o‘ziga xos mafkuradan iborat bo‘lib, izchil diniy ta’limot sifatida: *ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, axloqiy, estetik, huquqiy* g‘oyalar va nazariyalarini o‘z ichiga olgan.

Diniy ongning yuqori darajasi — *diniy mafkuradir*. Diniy mafkura—kishilarning borliq, olam, tabiat, jamiyat va inson haqidagi tartibga solingan diniy g‘oyalar va diniy qarashlar majmuyidir.

Diniy ongning asosini din tashkil qiladi.

Din — ijtimoiy hodisalardan biri sifatida o‘z tarkibiy elementlariga ega. Rivojlangan dinlarda quyidagi elementlarni ajratib ko‘rsatish mumkin: 1) *diniy ong*; 2) *diniy faoliyat*; 3) *diniy munosabat*; 4) *diniy urf - odatlar va marosimlar*, 5) *diniy tashkilotlar*.

Hozirgi kunda, barcha dinlarda bo‘layotgani kabi, Islom dinida, uning turli mazhablarida ham o‘zgarish, sharoitlarga moslashish jarayoni bormoqda. Keng xalq ommasi ongida, ma’lum darajada diniy tasavvurlar, his-tuyg‘ular, qarashlar, urf-odatlar jonlanmoqda. Jumladan, o‘zining mustaqil taraqqiyot yo‘liga kirgan O‘zbekistonda ham aholi o‘rtasida dinga e’tiqod qilish, ma’lum

darajada jonlanganligini ko'ramiz. Ayniqsa, dinga berilish qishloq aholisi o'rtasida, xotin-qizlar va yoshlar orasida kuchaymoqda. Bu hodisaga jamiyatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tish davridagi iqtisodiy va ma'naviy tanglik sabab bo'lmoqda. Vaqt kelib, bizda ham dinga bunday munosabatlar o'zgarib, eng rivojlangan davlatlardagi kabi munosabat qaror topishi muqarrar. Lekin buning uchun, birinchi navbatda, xalqning moddiy va ma'naviy turmush darjasini yuksalishi, ikkinchidan, jamiyatda fan va ma'rifatning roli ortishi, kishilarda ilmiy dunyoqarash qaror topgan bo'lishi zarur. Bu ishlarni amalga oshirish uchun esa jamiyatda siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy shart-sharoitlarni vujudga keltirish, kishilar ongini umuminsoniy va milliy-ma'naviy qadriyatlar bilan boyitib borish shart. Lekin dinga qarshi ma'muriy choralar qo'llash, zo'rlik ishlatalish, dindorlarni va dinni ta'qib va taqiq qilish kabi yo'l tutmaslik kerak. Agar shunday yo'l tutilsa jamiyat barqarorligiga putur yetadi.

Umuman, din o'z mohiyati jihatidan umuminsoniy madaniyatning bir shakli sifatida paydo bo'lib, o'ziga madaniyat, ma'naviyat va umuminsoniy qadriyatlarni singdirib olganligi bilan jamiyat hayotida, madaniyat va ma'naviyatning rivojlanishida, insonni axloqli, ma'naviy jihatidan tarbiyalashda ijobiy rol o'yaydi. Shu bilan birga, muayyan siyosiy maqsadlarini amalga oshirish uchun dinni bayroq qilib olgan ekstremistik, fundamentalistik, terroristik harakatlarning haqiqiy din va diniy ma'naviyat bilan hech qanday umumiyligi yo'qligini alohida ta'kidlash lozim.

I. A. Karimov „Hushyorlikka da'vat“ asarida O'zbekistonga qarshi qaratilgan asosiy g'oyaviy, siyosiy kuchlarga to'xtalib, shunday deydi: „*Bulardan birinchisi — mamlakatimiz tashqarisidagi tajovuzkor, aqidaparast kuchlar bo'lib, ular islam dini xalqimiz uchun muqaddas qadriyat ekanidan foydalanib, ota-bobolarimiz dinini niqob qilib, O'zbekistonni demokratik ma'rifiy taraqqiyot yo'lidan og'dirishga, uni orqaga qaytarishga urinmoqdalar*“.¹ Bu fikrning tasdig'ini O'zbekistonda so'nggi yillarda paydo bo'lgan, bizning dinimizga yot turli aqidaparastlik oqimiga mansub — vahhobiylilik deysizmi, „*Hizbut-tahrir*“ deysizmi, „*Musulmon birodarlari*“ deysizmi, harkatlar misolida yaqqol ko'rish mumkin.¹

Bularni hisobga olgan holda mustaqil O'zbekistonda fuqarolarining „**Vijdon erkinligi to'g'risida**“ qabul qilingan Qonunida davlatning dinga munosabati eng demokratik prinsiplar asosida belgilab berilgan.

¹ I. A. Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot — pirovard maqsadimiz. Asarlar, 8- jild. T., „O'zbekiston“, 2000, 21- bet.

Prezidentimiz I. A. Karimov islom dini haqida: „*Islom dini — bu ota-bobolarimiz dini, u biz uchun ham iymon, ham axloq, ham diyonat, ham ma'rifat ekanligini unutmaylik...*“ degan edi.

Hozir davlatimiz va Prezidentimiz tomonidan amalga oshirilayotgan buyuk ishlar: umuminsoniy, milliy, diniy qadriyatlar kishilarimiz ruhiyati va mafkurasini o'zgartirishga qaratilgan bo'lib, jamiyatda insof va diyonatni, rahm va shafqatni, mehr va oqibatni, qadr-qimmatni, vijdon va imon kabi ulug' tamoyillarni tiklashdan iboratdir.

Diniy ong milliy ong tarkibida yanada oydinlashadi.

f) Milliy ong va uning xususiyatlari

Xo'sh, milliy ong o'zi nima? Biz „Milliy ong“ deganda nimani tushunamiz?

Milliy ong — har bir millat, xalqning uzoq tarixiy taraqqiyotida milliy turmush va fikrlash tarzi, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy va ma'naviy munosabatlar asosida shakllangan, uning manfaatlari va maqsadlari mujassamlangan milliy hist tuyg'ulari, idrok va tasavvurlari, tushuncha va qarashlari, g'oyalari va ideallarini ifodalovchi ijtimoiy ongning o'ziga xos jihatidir.

Milliy ong muayyan millat va xalq milliy ruhiyatining obyektlashgan yuqori bosqichidir. U o'zida millat tabiatini, ijtimoiy xususiyatlari va fazilatlarini, urf-odatlari, udumlari, turmush va fikrlash tarzini ifodalaydi va aks ettiradi.

Milliy ong ijtimoiy ongning shakllaridan ajralgan emas, balki ular bi'an uzviy, chambarchas bog'liq umumiy birlikda mavjud bo'ladi.

Milliy ong ham o'z tarkibi va tuzilishiga ko'ra quyi va yuqori bosqichlardan tashkil topadi. Milliy ongning **quyi bosqichi: milliy his-tuyg'u, idrok va tasavvurlar, ruhiyat va xotiralarni; yuqori bosqichi esa milliy ma'naviyatni: goya va ideallarni, tafakkurlarni, mafkurani va nihoyat, g'urur va iftixorni o'z ichiga oladi.**

Milliy ong shakllanishi va rivojlanishi har doim muayyan ijtimoiy-ma'naviy muhitda sodir bo'ladi. Milliy ong shakllanishing birinchi manbayi — millatning, xalqning o'z tarixini o'rganishi, bilishi, o'zlashtirishi, ya'ni milliy o'zligini anglashidir. Milliy ong „*O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi*“¹.

¹ **I. A. Karimov.** Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., „Sharq“, 1998, 5- bet.

Milliy ongning shakllanishi va rivojlanishida millat va xalqning haqiqiy tarixi haqidagi bilimlari: *tili, dini, axloq-odobi, badiiy adabiyoti, san'at* va *madaniyati, ma'naviyati* va *ma'rifati* muhim o‘rin tutadi. Millatning o‘z-o‘zini anglashida umuminsoniy qadriyatlarni egallah, jamiyatda yuzaga kelgan diniy va dunyoviy bilimlar, siyosiy, axloqiy, badiiy, ilmiy va falsafiy qarashlar, nazariyalar, g‘oyalar, ta’limotlar, bir so‘z bilan aytganda, butun ijtimoiy ong muhim rol o‘ynaydi.

Milliy ong o‘z taraqqiyotida har doim mazkur millat va xalqning tarixiy tajribasini, oldin o‘tgan ajdodlar tomonidan yaratilgan ma’naviy merosini, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni mush-taraklikda o‘rganib, qayta ko‘rib chiqib, ijodiy rivojlantirib, ularni o‘zlashtirib boradi. Shu asosda milliy ong millat ehtiyoji va manfa-atlaridan kelib chiqib, uning tub maqsadlariga oid muhim vazifalarni o‘rtaga qo‘yadi, millat hayoti va taraqqiyotining real va ehtimoliy loyihalarini o‘zida ifodalab, faoliyatini belgilovchi ma’naviy omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli milliy ong millat taraqqiyotiga maqsad va yo‘nalish beruvchi e’tiqod va g‘oyalardan iborat bo‘ladi. Milliy ong yetuk milliy ma’naviyat negizida shakllanadi.

Millatning *siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy* va *ma'naviy* jihatdan erkin, mustaqil bo‘lishi milliy ong rivojlanishining muhim shartidir. Millat, xalq va milliy ong muayyan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sharoitlarda turg‘unlikka, ma’naviy tanazzulga yuz tutishi ham mumkin. Milliy ong tanazzuli — millat va mamlakat hayotidagi barcha siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy-ma’naviy buhronlarga ham bevosita va chuqur ta’sir etadi.

Ayniqsa, millatning, xalqning mustamlakaga aylantirilishi, qaramlikka solinishi bilan, istibdod davrida milliy ong tubanlashuvi, zaiflashuvi mumkin. Bu holat tarixda juda ko‘p xalqlar hayotida kuzatilgan. Xususan, Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyoni istilo qilishi bilan, o‘lka xalqlari mustamlakachilik asoratiga tushganidan keyin, bu holat ochiq va ravshan namoyon bo‘lgan edi. Sobiq Ittifoq tuzumi davrida ham millatlar va ularning milliy ongi, taraqqiyoti totalitar davlatning kommunistik mafkuraga asoslangan milliy siyosati tufayli cheklanib, ta’qib qilindi. Bu davrda millat va milliy ongning rivojlanishiga, yuksalishga salbiy munosabatda bo‘linib, milliy ongning rivojlanishi milliy mahdudlikka, xudbinlikka, millatchilikka olib keladi deb qaraldi. Sho‘ro hokimiyati-

ning milliy siyosatiga ko‘ra, keljakda millatlar o‘zaro qo‘silib ketib yagona bir „sovet xalqi“ paydo bo‘lishi zarur edi. Shu tufayli milliy ongni rivojlantirish, milliy ruhni mustahkamlash va ravnaq toptirish kerak deb maydonga chiqqan ziyolilar „xalq dushmani“ sifatida qoralanib, ularning ko‘pchiligi qatag‘on qilindi, ta‘qib va ta‘ziqlarga uchradi. Milliy ong yuksalishiga, shu asosda millatlar birlashishi va rivojlanishiga yo‘l qo‘ymaslik sho‘ro davlati olib borgan milliy siyosatining asosiy yo‘nalishi edi. Tarixni soxtalashtirish, milliy meros va qadriyatlarning mohiyati va ahamiyatini xaspo‘splash, yoshlar o‘rtasida manqurtlik kayfiyatini kuchaytirishga qaratilgan siyosat yuqoridaagi maqsadlar bilan belgilangan edi.

Milliy mahdudlik, xudbinlik, ashaddiy millatchilik, diniy ekstremizm kabi salbiy xususiyatlar ham milliy ongning yo‘qligi yoki pastligi, kishilar dunyoqarashining torligi, ma’naviy yetuk bo‘limganligining natijasidir.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, birinchi qadamlardan boshlab Prezident Islom Karimov boshchiligidagi milliy tilimizga „Davlat tili“ maqomi berilib, xalqimizning ma’naviy merosini, madaniyati va ma’naviyatini, milliy ongini tiklash, ularni rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanib, *xalqning milliy g‘ururini uyg‘otish, vatanparvarlik, yurtparvarlik, millatparvarlik* g‘oyalarini keng targ‘ib etish vazifalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirildi. Bugungi kunda o‘zbek xalqi milliy ongining tiklanishi va rivojlanishi mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlashning muhim va samarali omilidir. Mustaqillikka erishgan har bir millat o‘z vazifalarini umummilliy g‘oya va mafkura sifatida qanchalik chuqur va har tomonlama to‘g‘ri aniqlab olsa, bu g‘oya va mafkuraning moddiy kuchga, bunyodkorlik omiliga aylanishi shunchalik darajada samarali bo‘ladi.

Shuning uchun biz hozir milliy ongni mustaqillik talabi darajasiga ko‘tarishda, birinchi navbatda, kishilarimiz ongidagi *qaramlik, tobelik, qullik, boqibeg‘amlik, boqimandalik, befarglik* kayfiyatlari va qarashlarini bartaraf qilishimiz; ikkinchidan, o‘z mavqeylimizni to‘g‘ri belgilab, xalqaro hamjamiyatda munosib o‘rinni egallashimiz; uchinchidan, haqiqiy tariximizni yaratib, madaniyatimiz va ma’naviyatimizni chuqur anglab olgan holda ularni yanada rivojlantirishimiz lozim.

O‘zbekistonda o‘zbek xalqining milliy ongini yuksaltirish bilan bir qatorda, mamlakatimizda yashayotgan boshqa millat va elatlarning madaniyati, tili, dini, urf-odatlari, ma’naviyatlari, bir so‘z bilan aytganda, milliy ongi o‘sishiga ham keng sharoitlar va imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Bugungi kunda Toshkentda 120 dan ortiq millat va xalqlarning „Milliy madaniy markazlari“ tashkil qilinib, ular faol ish olib bormoqda. Tarix shundan guvohlik beradiki, bir mamlakatda yashovchi barcha millat va xalqlarning milliy ongi bir-biri bilan o‘zaro mushtarak bo‘lib, bir-birini boyitib, to‘ldirib, rivojlanib borishi *tinchlik, osoyishtalik, barqaror taraqqiyotning muhim shartidir.*

Biz yuqoridagilardan kelib chiqib mulohaza yuritadigan bo‘lsak, Prezidentimiz I. A. Karimovning nutq va maqolalarida, risola va asarlarida xalqimizning milliy ongini yuksaltirish, milliy g‘ururini shakllantirish va rivojlantirish zarurligini qayta-qayta ta’kidlab, fuqarolarimizni, ayniqsa, yoshlарimizni shunga da’vat etayotganligining sababi o‘zi-o‘zidan ayon bo‘lib qoladi.

Biz yuqorida falsafa inson bilimlari, kundalik amaliy faoliyati yakunlarini umumlashtirib, ulardan borliqning mohiyatini, umumiylarini ifodalaydigan metodologik xulosalar chiqarishga imkon beradigan fan ekanini ko'rsatib o'tgan edik. Lekin bunday umumlashmalarni, yakuniy xulosalarni har kim o'zi xohlaganicha chiqara bermaydi. Har bir faylasuv o'z davriga oid bo'lgan bilimlar tizimini o'rganish va umumlashtirishda oldingi avlodlar yaratgan ijtimoiy, ilmiy, ma'naviy qadriyatlarga tayanadi. Bu *umuminsoniy, milliy, diniy qadriyatlar, e'tiqodlar, madaniyatlarda* namoyon bo'ladi va falsafiy tafakkur madaniyatining **aksilogik** asosini tashkil etadi. Falsafaning aksiologik asosi har bir faylasufdan yetuk ma'naviy kamolot sohibi bo'lishni talab qiladi. IX asrda yashagan mashhur faylasuf **Roziy Abu Bakir Muhammad ibn Zakariy** aytganidek: „*Kimki falsafani o'rganish bilan mashg'ul bo'lsa va bunga zo'r berayotgan bo'lsa, u haqiqat yo'lidan borishga loyiqdir. Haqiqatan ham, kishilarning ruhi bu dunyoning chirkinliklari, qorong'uliklaridan musaffo bo'lishi va farog'atga yetishishi faqat falsafadan o'rganish orqali bo'ladi. Agar inson uni (falsafani) o'rgansa, biz tasavvur qilishimiz mumkin bo'lgan darajada oz qismini bo'lsa ham egallay olsa, u o'z ruhini chirkinlik va zulmatlar ta'siridan tozalaydi*“.

Forobiy ham bu masala ustida to'xtab shunday degan edi: „*Falsafani o'rganishdan avval o'zingizni hirs-havaslardan shunday tozalashingiz lozimki, sizda maishat va shahvoniyat kabi noto'g'ri tuyg'ularga emas, balki kamolotga bo'lgan hirs-havas qolsin*“.

Demak, yetuk ma'naviyat sohibi bo'lgan, hayoti, turmush tarzi, fikrlash madaniyatida muayyan qadriyatlarga tayangan insonlar teran, falsafiy fikrlarni aytish imkoniga ega bo'ladilar. Zero, falsafaning aksiologik masalalari madaniyat va sivilizatsiyaning tarkibiy qismidir.

1-§. Madaniyat va sivilizatsiya

a) Madaniyatni falsafiy tushunish

Madaniyat murakkab va serqirra hodisadir. Uni arxeologiya va etnografiya, tarix va sotsiologiya kabi turli fanlar ham o'rganadi. Bu fanlarning har biri *madaniyat* deb atalmish ulkan ijtimoiy

hodisani o'ziga xos tarzda, o'z vazifa va maqsadlaridan kelib chiqqan holda turli tomonlarini tadqiq etadi. |

Falsafa madaniyatni alohida, yakka-yakka ko'rinishlarida emas, balki yaxlit, bir butun ijtimoiy hodisa sifatida o'rganadi. Masalaning bu tartibda qo'yilishi falsafaga „*Xususiy holatlardan xoli bo'lgan holda madaniyatning o'zi nima?*“¹, degan savolga javob berishga imkoniyat yaratadi.

Ijtimoiy falsafada, mohiyat e'tibori bilan, madaniyatni aynan ma'naviy faoliyat sohasi sifatida tushunish ustuvor bo'lib keldi. Faqat XIX asr o'rtalariga kelib, „*madaniyat*“ tushunchasi kengroq ma'noda — inson faoliyati natijasida yuzaga kelgan barcha narsalarga nisbatan ishlatila boshlandi. Bunday holatda madaniyat inson tomonidan yaratilgan, bokira tabiat ustiga qurilgan „*ikkinchi tabiat*“ ma'nosini kasb etadi. Lekin madaniyatni „*inson faoliyati natijasida yuzaga kelgan barcha narsalar*“, deb tushunish ham yetarli va to'liq emas. Chunki, birinchidan, bunday yondashuv madaniyatni insondon tashqarida mavjud bo'lgan qandaydir hodisa sifatida tushunishga olib keladi. *Ikkinchidan*, madaniyat va jamiyat tushunchalarining nisbati oydinlashmaydi. „*Madaniyat*“ va „*jamiyat*“ tushunchalarining farqi madaniyatni „*inson tomonidan yaratilgan qadriyatlar majmuasi*“ deb tushunilganda ochiq ko'rindi. Haqiqatan ham, madaniyat insoniy mazmun va ma'no bilan sug'orilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar dunyosidir. Albatta, madaniyatni faqat qadriyatlar majmuasi sifatida tushunish ham to'g'ri va to'liq emas. *Birinchidan*, bunda yuqoridagi kabi madaniyat tayyor natijalar tizimi sifatida qaraladi, uning yaratilish jarayoni, dinamikasi e'tibordan chetda qoladi. *Ikkinchidan*, inson tomonidan yaratilgan hamma normalar ham foydali emas, demakki, uning taraqqiyotiga xizmat qilmaydi. *Uchinchidan*, u yoki bu hodisani ijobiy yoki salbiy deb qabul qilish tarixan belgilangan — davrning, jamiyatning, ijtimoiy guruhlarning qadriyat mo'ljallariga bog'liq bo'ladi.

Demak, madaniyatga ta'rif berayotganda madaniyat insonning ijtimoiy mavjudot sifatidagi kamolotining, insonda insoniylik xususiyatlari rivojlanishining me'yorini tavsiflovchi hodisa ekanligidan ham kelib chiqmoq lozim.

Madaniyatning yuqoridagi sifatiy xususiyatlari tahlilidan kelib chiqqan holda unga quyidagicha ta'rif berish mumkin. **Madaniyat insonning faoliyati jarayoni, uning oqibatida yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar bo'lib, inson kamolotida muhim omil bo'lgan ijtimoiy hodisadir.**

„Madaniyat“ tushunchasi inson faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bir qatorda, bu faoliyat tarixiy taraqqiyotning ma’lum bosqichlarida milliy va etnik rivojlanishdagi sifatiy o‘ziga xoslik ham o‘z iffodasini topadi. Masalan, biz „*qadimgi davr madaniyati*“, „*o‘zbek madaniyati*“ kabi tushunchalarni yuqoridagi ma’nolarda ishlatalimiz. Ayni paytda, biz „*mehnat madaniyati*“, „*muomala madaniyati*“, „*nutq madaniyati*“, „*siyosiy madaniyat*“ kabi iboralarni ham qo‘llaymizki, bunday hollarda madaniyat kishilarning ongi, xulqi va faoliyatining ma’lum sohalaridagi xususiyatini ifodalab keladi. Bulardan tashqari, „madaniyat“ tushunchasi alohida kishining, ijtimoiy guruhning hayotiy faoliyatining o‘ziga xosligini ham ifodalashi mumkin. Bunga „*shaxs madaniyati*“, „*milliy madaniyat*“ kabi tushunchalar misol bo‘la oladi.

Ilmiy adabiyottlarda madaniyatni *moddiy* va *ma’naviy* madaniyatga bo‘lish rasm bo‘lgan. Madaniyatni moddiy va ma’naviy madaniyatga bo‘lish inson faoliyatining ikki asosiy sohasi — moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish bilan bevosita bog‘liqdir.

Moddiy madaniyat moddiy faoliyatning barcha sohalarini va natijalarini o‘z ichiga oladi. Moddiy madaniyatning muhim elementlari: ishlab chiqarish, transport, aloqa vositalaridir. Moddiy madaniyatga uy-joy, kiyim-bosh, uy-ro‘zg‘or buyumlari, iste’mol vositalari deb ataladigan hodisalar ham kiradi. Bularsiz ma’lum bir xalq madaniyati, uning tarixiy taraqqiyotining turli bosqichlarida o‘ziga xoslik haqida to‘g‘ri fikr yuritish mumkin emas.

Ma’naviy madaniyat esa — ma’naviy ishlab chiqarish, ijtimoiy ong shakllarini yaratish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatning barcha sohalarini qamrab oladi. Ma’naviy madaniyat namoyon bo‘lishining turli shakllari har xil tasavvurlar va g‘oyalar, nazariyalar va ta’limotlar, ilmiy bilimlar va san’at asarlari, axloqiy va huquqiy normalar, falsafiy, siyosiy qarashlar, mifologiya, din va hokazlardan iborat. Bularning barchasi o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, balki, tarixiy taraqqiyotning ma’lum bosqichida turgan va o‘zaro muayyan munosabatlarga kirishgan kishilar tomonidan yaratiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, ma’naviy madaniyat ma’naviy faoliyat natijasi sifatida kelib chiqayotgan hodisalarnigina emas, balki ularni yaratish jarayonida kishilar o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni ifodalash uchun ham xizmat qiladi.

Moddiy va ma’naviy madaniyat bir-biri bilan uzviy bog‘liq, ularning o‘rtasidagi farqlar nisbiydir. *Birinchidan*, har ikkalasi ham madaniyat ekanligini unutmaslik kerak. *Ikkinchidan*, inson

faoliyatining mahsuli bo‘lgan ko‘pgina narsalar ham aqliy, ma’naviy, ham jismoniy mehnatning natijasi sifatida paydo bo‘ladi. Boshqacha aytganda, moddiy madaniyat insonning muayyan g‘oyalari, bilimlari, maqsadlarining namoyon bo‘lishidir. Ayni paytda, har qanday ma’naviy madaniyat mahsuli ham obyektivlashuvi, o‘zining moddiy (yozuv, nutq, rasm, haykal va h.k. shakllarda) ifodasini topmog‘i lozim.

Har bir avlod madaniy rivojlanishini bo‘s sh joydan emas, balki, o‘zidan oldingi ajdodlar yaratgan qadriyatlarni o‘zlashtirishdan boshlaydi. Boshqa tomondan, bu o‘zlashtirish o‘ziga xos bir „xomashyo“, yangi qadriyatlar yaratish, madaniyatni yangi bosqichga ko‘tarish yo‘lidagi tayanch vazifasini o‘taydi. Agar mana shu ikki jarayon bo‘lmas ekan, madaniyat rivojlanishi haqida gapirish mumkin emas. Ikki jarayon — eskilik bilan yangilik o‘rtasidagi obyektiv zaruriy bog‘lanish vorislik deb ataladi.

Madaniyat rivojlanishidagi **vorislik** oldin erishilgan natijalarni saqlab qolish va ijodiy rivojlantirishning dialektik birligi sifatida namoyon bo‘ladi. Ana shu jarayon natijasi o‘laroq, madaniyatning barqaror elementlari yuzaga keladiki, odatda, ularni ifodalash uchun „an’ana“ tushunchasi ishlatiladi. Tarixiy jarayonda madaniy an’analarning roli beqiyosdir. Madaniy an’analar tufayli kishilarning tajribasi to‘planib, ajdoddlardan — avlodlarga o‘tib boradi. **Madaniy an’analar kishilar birligining muayyanligini, o‘zligini saqlab qolish imkonini beradi. An’analarsiz madaniyat bo‘lishi mumkin emas.**

Madaniy an’analalar avloddan-avlodga o‘tib boradigan, tarixan qaror topgan va ijtimoiy ongning tarkibiy qismiga aylangan g‘oyalari va bilimlar, qadriyatlar, qarashlar va tasavvurlar, xulq va did normalari va h.k. kabi jarayonlarni ham o‘z ichiga oladi.

Madaniyatning har bir sohasida an’ana o‘ziga xos ko‘rinishga ega bo‘ladi. Masalan, ishlab chiqarish, fan, san’at sohalaridagi an’analalar bir-biridan o‘zining takrorlanmas xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Agar madaniyatda faqat o‘tmish natijalarini o‘zlashtirish va takrorlashdan nariga o‘tilmaganda edi, insoniyatning madaniy rivojlanishi haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas edi. Har bir avlod o‘zidan oldingi natijalarga tayanib, ularni ijodiy rivojlantiradi, boyitadi, yangi, yuqoriqoq bosqichga ko‘taradi.

Jahon tarixiga murojaat qiladigan bo‘lsak, madaniy merosga munosabat doimo ziddiyatli bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Avvalo, shuni ta’kidlamoq lozimki, sinflar paydo bo‘lishi bilan

madaniy merosga nisbatan *sinfiy munosabat* shakllandi. Buning natijasi o'laroq, madaniy meros ma'lum bir sinf manfaatlari, qiziqishlaridan kelib chiqib baholanadigan bo'ldi. Bunday baholashning oqibatida ko'plab tarixiy obidalar, yodgorliklar, badiiy va san'at asarlari, ilmiy manbalar aksariyat hollarda sinf manfaatiga zid hodisalar sifatida vayron qilindi, yoqib yuborildi yoki ahamiyatsiz narsalar sifatida e'tiborsiz qoldirilib, asta-sekin yo'q bo'lib ketdi. Tarix madaniy merosga *diniy munosabat* shaklini ham yaratdi.

Dinlarning yuzaga kelishi, rivojlanishi nuqtayi nazaridan madaniyat tarixini shartli ravishda, jahon dinlari — *buddizm*, *xristianlik*, *islom* yuzaga kelgungacha va undan keyingi davrlarga bo'lish mumkin. Birinchi davrda insoniyat erishgan yutuqlar deyarli yo'qolib ketgan. Negaki, yuqorida uch jahon dini o'z hukmonligini o'rnatish yo'lida xalqlarning tarixiy va madaniy yodgorliklarini ma'jusiy hodisalar sifatida quvg'in qildilar. Zero, madaniy an'analari saqlanib qolgan xalqni bo'ysundirish, e'tiqodini o'zgartirish ancha qiyin kechardi.

Shuningdek, bu uch jahon dinlari uzoq vaqt o'zaro kurash olib bordi. Bu dinlarning tarqalgan hududiy barqarorligi yuzaga kelguncha bir necha yuz yil o'tdi va, natijada, ko'plab madaniyat durdonalari izsiz yo'qolib ketdi, hamda madaniyatdagi vorislik jarayonida ma'lum uzilish sodir bo'ldi. Sovet tuzumi davrida ham madaniyatga sinfiy yondashuv tufayli madaniy merosni xolisona o'rganish imkonidan mahrum bo'lib qoldik.

Respublikamizda mustaqillik tufayli bu sohada yo'l qo'yilgan kamchiliklar, xatolarga tom ma'noda barham berilmoxda, asrlarga tengdosh milliy qadriyatlarimiz, an'analarimiz tiklanmoqda, boy madaniy merosimiz o'zining ruhi va salobati bilan xalqimiz ma'naviy dunyosining tarkibiy qismiga aylanib bormoqda.

Hozirgi paytda butun dunyoda madaniyatga umuminsoniy qadriyatlar nuqtayi nazaridan baho berish, har bir madaniyatga, madaniy hodisaga, uning diniy, sinfiy, milliy, mintaqaviy va h.k. mansubligidan qat'iy nazar, inson ruhiy, ma'naviy izlanishining mevasi, insonning o'z-o'zini anglashi, kamolotga intilishining bir bosqichi, ko'rinishi sifatida qarash ustuvor bo'lib bormoqda.

b) Madaniyat va sivilizatsiya

„Sivilizatsiya“ so'zi lotincha bo'lib, *grajdanlik*, *grajdanlikka oid*, *davlatga oid*, degan ma'nolarni anglatadi. „Sivilizatsiya“ tushunchasini shotland tarixchisi va faylasufi **A.Fergusson** (1723—

1816-yillar) jahon tarixiy jarayonining ma'lum bir bosqichini ifodalash uchun ishlatgan bo'lsa, fransuz ma'rifatparvarlari *aqlidrok* va *adolatga* asoslangan jamiyat, degan ma'noda ishlatgan edilar.

Ayrim olimlar uni madaniyatning, ba'zan faqat moddiy madaniyatning sinonimi sifatida ishlatgan bo'lsalar-da, nemis faylasufi **O.Shpengler** aksincha, uni madaniyatning halok bo'lish jarayoni, bosqichini xarakterlash uchun, ingliz sotsiologi va tarixchisi **A.Toynbi** esa, o'ziga xos va nisbatan yopiq bo'lgan jamiyatlarni ifodalash uchun ishlatdi. Shuni ta'kidlash kerakki, „sivilizatsiya“ tushunchasining mazmuni va hajmini belgilashda turfa, xilma-xillik hanuzgacha mavjud ekanligini qayd etmoq lozim.

Bu tushunchani: 1) ijtimoiy rivojlanishning yovvoyilik va varvarlikdan keyin keladigan bosqichini; 2) umuman, kishilik jamiyati rivojlanishining ma'lum bir bosqichini (masalan, neolit, kapitalistik, yoki hozirgi zamon sivilizatsiyasi); 3) ma'lum bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyani (masalan, quldorlik yoki kapitalistik sivilizatsiyalar); 4) geografik jihatdan farqlanuvchi birlıklarni (Osiyo yoki Yaqin Sharq sivilizatsiyasi); 5) diniy mansubligi bilan farqlanuvchi madaniy birlıklarni (xristian yoki islom sivilizatsiyasi); 6) kelib chiqishi va planetar mansubligiga ko'ra ajratiluvchi birlıklarni (masalan, yer sivilizatsiyasi va yerdan tashqari sivilizatsiyalar); 7) etnik mansubligiga ko'ra farqlanuvchi ijtimoiy-madaniy birlıklarni (masalan, arab yoki hind sivilizatsiyasi); 8) makon va zamonda cheklangan jamiyatlarni (masalan, Qadimgi Misr yoki Vavilon sivilizatsiyasi) va shu kabi ma'nolarni ifodalash uchun qo'llanib kelinayotganligiga ham ko'p marta duch kelganimiz.

Sivilizatsiya mazmunini belgilashdagi bunday yondashuvlarning barchasiga bitta umumiylig xos — ular tarixiy jarayondagi ma'lum o'ziga xosliklarni ifodalab kelmoqda.

Har qanday ilmiy tushuncha, ma'lum mazmunni ifodalagan holda, muayyan ijtimoiy hodisa, jarayonni tushuntirishga xizmat qilmog'i, demakki metodologik ahamiyatga ega bo'lmog'i lozim. Aynan shu nuqtayi nazardan kelib chiqadigan bo'lsak, „sivilizatsiya“ tushunchasini yuqorida ma'nolarda ishlatishning hammasi ham to'g'ri emasligiga ishonch hosil qilish mumkin.

„Sivilizatsiya“ tushunchasini ijtimoiy rivojlanishning yovvoyilik va varvarlikdan keyin keladigan bosqichini ifodalash uchun ishlatish ma'lum ma'noda o'rinli. Chunki, bunday ma'noda ishlatilganda, „sivilizatsiya“ tushunchasi kishilik jamiyati rivojlanishining ibtidoiy

holatidan keyingi davrdagi butun holatini to‘laligicha qamrab oladi. Varvarlikdan sivilizatsiyaga o‘tish hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralishi, tovar ishlab chiqarishning yuzaga kelishi, savdosotiqning paydo bo‘lishi va uni kasb qilib olgan savdogarlar qatlaming shakllanishi, metall pulning muomalaga kiritilishi, yozuvning paydo bo‘lishi, aqliy va jismoniy mehnatning bir-biridan ajralishi, siyosiy hokimiyatning qaror topishi kabi xususiyatlar bilan xarakterlanadi. Bunday yondashuvda „sivilizatsiya“ tushunchasi ijtimoiy-iqtisodiy „formatsiya“ tushunchasiga nisbatan kengroq mazmun kasb etadi.

„Sivilizatsiya“ tushunchasi tarixning, jamiyatning sifatiy o‘ziga xosligini, u yoki bu mamlakat doirasida amal qiladigan ishlab chiqarish kuchlari (texnologiya), inson faoliyati, madaniyati tomonidan belgilanadigan umumiy ijtimoiy qonuniyatlarning spetsifikasini ifodalaydi.

Har qanday sivilizatsiya: 1) muayyan ijtimoiy ishlab chiqarish texnologiyasiga; 2) takrorlanmas madaniyati, qadriyati, falsafiy qarashlari, odob-axloq normalariga; 3) o‘z hayotiy tamoyillariga ega bo‘ladi. Bularning barchasi sivilizatsiyani yaxlit birlik sifatida mavjud bo‘lishi uchun imkon yaratadi. Bu sifatiy xususiyatlarning yo‘qolishi sivilizatsiyaning halok bo‘lishiga olib keladi.

Yuqorida mulohazalardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, „sivilizatsiya“ tushunchasi muayyan xalq, mamlakat (jamiyat)ga, yoki uning rivojlanishining sifatiy jihatdan farqlanuvchi ayrim bosqichlariga nisbatan ishlatilgandagina u aniq ilmiy mazmunga, binobarin metodologik ahamiyatga ega bo‘ladi. Aynan etnik birliklar, mamlakatlar sivilizatsiyaning o‘ziga xosligi, asosiy xarakteristikalarini o‘zida yaqqol namoyon qiladi.

Sivilizatsiyaning mohiyatini tushunishda unga mansub bo‘lgan madaniyatning rolini anglash muhimdir. Agar ishlab chiqarish kuchlari sivilizatsiyaning moddiy asosini tashkil qilsa, madaniyat ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab oladi, uning qiyofasini, o‘ziga xos rangini belgilab beradi, hatto ishlab chiqarish kuchlariga ham o‘ziga xos xarakterli ahamiyat beradi. Bu bilan madaniyat ijtimoiy hayotning tashkillashuvini, ya’ni sivilizatsiyaning shakllanishi, mavjud bo‘lishi va rivojlanishini belgilab beruvchi o‘ziga xos negiz vazifasini o‘taydi.

Sivilizatsiyani madaniyatsiz, madaniyatni sivilizatsiyasiz, undan tashqarida mavjud bo‘lishi mumkin emas.

d) Madaniyat va jamiyat

Madaniyat rivojlanishi har bir tarixiy bosqichda hal qilinishi lozim bo‘lgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ilmiy-texnik muammolar ta’sirisiz sodir bo‘lishi mumkin emas.

Avvalo, jamiyat iqtisodiyoti, xalq moddiy farovonligi va turmush darajasining madaniyat rivojlanishida roli katta ekanligini ta’kidlash joiz.

Jamiyat iqtisodiyotidagi o‘zgarishlar hamma vaqt madaniyat taraqqiyoti uchun keng imkoniyatlar yaratadiki, buni quyidagilarda ko‘rish mumkin. *Birinchidan*, bunday yuksalish ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun turtki beradi. *Ikkinchidan*, iqtisodiy yuksalishlar madaniyat, uning rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qilishning moddiy-moliyaviy asoslari kengayishiga olib keladi. Iqtisodiy inqirozlar esa madaniyatning rivojlanishiga salbiy ta’sir qiladi: madaniy dasturlarning qisqarishiga, ilm-fan, adabiyot va san’atning ahvolining og‘irlashishiga olib keladi.

Madaniyat rivojlanishiga siyosatning ta’siri kattadir va u, ayniqsa, hozirgi davrda jiddiy ahamiyat kasb etmoqda. Siyosatning madaniyatga ta’siri ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin. Masalan, „Millatlarning yaqin kelajakda qo‘shilib ketishi“ to‘g‘risidagi g‘oyalarga asoslangan siyosatning yuritilishi, sobiq Ittifoqda ko‘pgina xalqlarning madaniy o‘zligini yo‘qotish darajasiga keltirib qo‘ydi.

Jamiyat bilan madaniyatning o‘zaro munosabati haqida gap ketganda, madaniyatning jamiyat rivojlanishiga ta’siri masalasiga kengroq to‘xtalmoq lozim. Bu jarayonni **madaniyatning ijtimoiy vazifalari (funksiyalarini yoritish orqali tushunib** olish mumkin.

Birinchi navbatda, madaniyatning **bilish funksiyasini** alohida ko‘rsatib o‘tish ayni muddao bo‘lur edi. Odatda, ma’lum bir davr madaniyatini shu davrda olamni anglash, bilish darajasidan kelib chiqqan holda baholaymiz.

Madaniyat nafaqat tevarak olamni, balki insonni o‘rab turgan ijtimoiy voqelikni bilishga intilish natijasi hamdir. Shu jihatdan olganda, madaniyat — shaxs, millat, jamiyatning o‘z-o‘zini anglashi ham demakdir. Chunki, madaniyatda ijtimoiy birliklarning ehtiyojlari va manfaatlari, o‘ziga xosliklari, ~~janub~~ tarixida tutgan o‘rni, turli ijtimoiy sistemalarga bo‘lgan munosabati o‘z ifodasini topadi.

Madaniyatning bilish funksiyasi bilan **axborot (informativ) funksiyasi** uzviy bog‘liqdir. Madaniyat — axborot funksiyasining mazmuni, to‘plangan ijtimoiy tajriba, bilim, malakani uzatishda

ko'rinadi. Bu — tajriba, bilim, ma'lum rivoyatlar, fan, adabiyot, san'at asarlari orqali yangi avlod tomonidan qabul qilib olinadi, o'zlashtiriladi. Bunday uzatish „vertikal“, ya'ni o'tmish avlodlardan yangi avlodlarga va „gorizontal“, ya'ni ayni bir tarixiy davrda kishilardan kishilarga, bir xalqdan ikkinchi xalqqa uzatish ko'ri-nishida ham bo'lishi mumkin.

Madaniyatning axborot funksiyasi mazmuni to'plangan tajribani „gorizontal“ shaklda uzatishning mohiyati tushunib olinganda yanada yorqin ochiladi. Madaniyatning axborot funksiyasi kishilar o'rtasida muomala, muloqot, o'zaro ta'sir bo'lgandagina yuzaga chiqadi. Shuning uchun madaniyatning axborot funksiyasi uning **aloqa (kommunikativ) funksiyasi** bilan uzviy bog'liq.

Madaniyat muloqot orqali mavjuddir. Ayni paytda, madaniyat inson muloqoti sohasining kengayishiga xizmat qiladi; kishilar o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri, bevosita muloqot o'tmish ajdodlarga mansub kishilar, shuningdek, bizga tanish ham, qarindosh ham bo'lmagan zamondoshlarimiz bilan bevosita muloqot uchun imkon yaratadi. Biz Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino falsafiy risolalarini, Lutfiy va Alisher Navoiy g'azallarini, A.Qodiriy va A.Cho'lpionning roman va, ayniqsa, she'rлarini, Abdulla Oripov va Erkin Vohidovning go'zal she'r va dostonlarini o'qib, ularning dunyoqarashi, fikrlash tarzi bilan oshno bo'lamiz, fikran so'zlashamiz.

Shuni ta'kidlash lozimki, bevosita muloqot ham, bilvosita muloqot ham, shaxs rivojlanishiga hamma vaqt ham birday ta'sir ko'rsatavermaydi. Ayrim holda muloqot shaxs rivojlanishiga salbiy ta'sir qilib, unda zararli odatlar, xususiyatlarni keltirib chiqarsa, boshqa hollarda shaxsning ma'naviy kamoloti uchun xizmat qilishi mumkin. Ayni paytda, muloqot shaxs rivojlanishida hech qanday iz qoldirmasligi ham mumkin.

Hozirgi ilmiy-texnika inqilobi asrida ommaviy axborot vositalari — matbuot, radio, televideniye ta'sirida bilvosita muloqotning doirasi nihoyatda kengayib bormoqda. Demak, shaxs rivojlanishida bilvosita muloqotning roli ham o'smoqda.

Kishilar o'rtasidagi muloqot turli vositalar yordamida amalgalashiriladi. Har bir millatning o'z tili bor. Ayni paytda, har bir millat muloqotning rang-barangligini, mazmundorligini ta'minlaydigan, o'ziga xos imo-ishoralar, raqs, musiqa, xulq-odob normalari va h.k. „tiliga“ ham ega. „Shashmaqom“ni, „Munojot“ni, „Tanovar“ni tinglab, tomosha qilib xalqimiz his-tuyg'ulari, dardi,

umidlarini dil-dildan his qilamiz. Xalqimizning odob-axloq normalaridagi noziklik, insoniy mehr-muhabbat, hurmat va ulug'vorlikni qalbdan sezamiz.

Milliy ma'naviyatni aks ettiruvchi milliy til bilan bir qatorda ko'pchilik uchun barobar va tushunarli bo'lgan, millatlararo muloqotda va ilm-fan yutuqlarining tez tarqalishida muhim rol o'ynaydigan baynalmilal til — fan tili, uning tushunchalar va formulalar tili ham borligini unutmaslik kerak. Ayni paytda, XX—XXI asrda qo'llanilish doirasi tor bo'lsa-da, elektron hisoblash mashinalarining „algol“, „beysik“, „fortran“ kabi „tillar“i yaratildi. Ular ham muloqot vositasidir.

Madaniyat kishilarning faoliyatini va ular o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga ham xizmat qiladi. Bunda madaniyatning **tartibga solish (regulyativ) funksiyasi** namoyon bo'ladi. Madaniyatning regulyativ funksiyasi kishilarning jamiyatdagi sharoitlarga muvaffaqiyatli ko'nikishi uchun xizmat qiladigan turli normalarda ifodalanadi. Siyosiy, axloqiy, estetik, huquqiy, diniy normalar ana shular jumlasidandir. Madaniyatning tartibga solish vazifasi marosimlar, urf-odatlarda ham yorqin ko'rindi. Albatta, har qanday madaniyat normasi kishining ichki e'tiqodiga aylangan paytdagina, uning faoliyatini tartibga soluvchi omil bo'la oladi. Shuning uchun ham biz kishilarning madaniyat normalarini qaydarajada o'zlashtirganliklarini, ularning turli sharoitlarda o'zlarini qanday tutishlariga karab bilib olamiz.

Demak, inson faoliyatini tartibga solish, hayot tarzini shakllantirish madaniyatning muhim funksiyalaridan biridir. Bu funksiyasi tufayli madaniyat kishilarning muloqotini, ishlab chiqarish va turmushdagi munosabatlarni ma'lum normalarga bo'yundiradi.

Va, nihoyat, madaniyatga **baholash (aksiologik) funksiyasi ham** xos. Har bir yangi madaniy qadriyatga ijobiy yoki salbiy, chirolyi yoki xunuk, adolatli yoki adolatsiz deb baho beramiz. Kundalik hayotda har birimiz ko'pgina bizga manzur yoki nomanzur bo'lgan jarayon, voqealarga duch kelamiz, adapiyot, san'at, kino asarlarini yaxshi yoki yomon hodisalar sifatida baholaymiz. Bunday baholash paytda, albatta, har bir shaxsning o'z qarashlari, qadriyatlar tizimi muhim rol o'ynaydi. Lekin, aksariyat hollarda, bunday paytda, ayniqsa, baholanilayotgan hodisa o'zga madaniyatga tegishli bo'lsa, o'zimiz mansub bo'lgan madaniyat ruhimizga singdirgan qadriyatlar tizimi ustuvor bo'ladi va butun bo'y-basti bilan o'zini namoyon qiladi.

Madaniyatning falsafiy tahlili madaniyat va jamiyat munosabatining yana bir tomoni — jahon madaniyatining xilma-xilligi, undagi milliy, etnik farqlar, o‘ziga xosliklarining mavjudligi masalasini chetlab o‘tolmaydi.

Bu kabi o‘ziga xosliklarning manbayini madaniyatlar shakllanishining tarixiy shart-sharoitlaridan, bosib o‘tgan yo‘lidan qidirmoq kerak. Bu o‘ziga xosliklarda, ma’lum ma’noda, madaniyatlar shakllangan hududdagi **jug‘rofiy muhitning ta’siri** katta bo‘lishini ham nazardan qochirmaslik kerak.

Ayni paytda, **turli urug‘, qabilalar, elatlari, xalqlar, millatlar madaniyati hech qachon bir-biridan mutlaq ajralgan holda mavjud bo‘lmaganligini ham unutib bo‘lmaydi**. Madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayonida har bir milliy madaniyatga o‘zga madaniyat elementlari ham kirib keladi. Odatta, madaniyatlarning bunday o‘zaro boyishi, ulardagi umumiy tomonlarning yuzaga kelish jarayoniga baynalmilallahuv (internatsionallashuv) deb ataladi. Bunday o‘zaro ta’sir va o‘zaro boyish, jamiyat rivojlanishi tezlashishi bilan unga mos ravishda o‘sib boradi. Ayniqsa, XX asrda sanoat, transport va aloqa vositalarida ro‘y bergen buyuk inqilobiy o‘zgarishlar bu jarayonning yanada tezlashuviga olib keldi va madaniyatning deyarli barcha sohalarini qamrab oldi. Ammo bu jarayonlarning ziddiyatli ekanligi nisbatan kuchli taraqqiy qilgan madaniyatlar boshqa milliy madaniyatlarni siqib chiqarganligida ko‘rindi. Bunday ziddiyat nafaqat ayrim milliy madaniyatlar o‘rtasida, balki jahoning ikki madaniy qutbiga mansub bo‘lgan Sharq va G‘arb madaniyati o‘rtasida ham kelib chiqdidi.

Milliy madaniyatdagi o‘ziga xosliklar obyektiv reallikdir. Bu o‘ziga xosliklar milliy mazmunning boyishi demakdir. Shu bilan birga, madaniyatlarning baynalmilallahuvi ham shunchalik obyektiv, zaruriy, qonuniy va tabiiydir.

2-§. Qadriyatlar, ularning jamiyat hayoti va taraqqiyotidagi o‘rni

a) „Qadriyat“ tushunchasi va uning mohiyati

O‘tmishdagi barcha falsafiy ta’limotlarda qadriyatlarning mohiyati va ularning jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni masalasiga katta e’tibor berilib, ular ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning mahsuli, jamiyat ma’naviy kamolotining muhim omili ekanligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Faylasuflar qadriyatlar va ularning jamiyat hayoti va taraqqiyotida tutgan o'rni masalasiga *ontologik*, *gnoseologik*, *evristik* va *dunyoqarashlik* nuqtayi nazaridan yondashib, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatini o'z davri talablari va imkoniyatlari doirasida ochib berishga uringanlar.

Qadriyatlar jamiyat taraqqiyotining moddiy va ma'naviy boyliklari rivojining yakuni, inson kamolotining kelajak uchun ham katta ahamiyat kasb etadigan ijobiy mahsulidir.

Insonning obyektiv olamga nisbatan bo'lgan aktiv faoliyati, moddiy va ma'naviy muhit, yashash shart-sharoitlarining rivojlanishi vorislik yoki butkul yangilanishlar asosida sodir bo'lib, yangi-yangi qadriyatlarning shakllanishiga, o'tmishdan meros bo'lib qolganlari esa davr ruhi, yangi ijtimoiy ehtiyoj talablari asosida rivojlanishiga olib keladi. Buning natijasida ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy taraqqiyotning imkoniyatlari ham kengayadi. **Jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan har qanday hodisa o'tmishda ijobiy ahamiyat kasb etgani uchungina emas, balki kelajak istiqboli uchun yangi imkoniyatlar yaratib berishga qodir bo'lganligi sababli ham qadriyat deb ataladi.**

Qadriyatlar olamni bilish va uni amaliy o'zgartirish uchun muhim omildir. Har bir qadriyatning mohiyati va ahamiyati tabiat, jamiyat va ruhiy olam hodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotga ta'sir etish imkoniyatlari asosida belgilanadi. Qadriyatlarning ko'pligi, mazmuni, ularni aniqlash va e'tiqod qilish — insonning bilish qobiliyati va amaliy imkoniyatlari takomillashib, chuqurlashib, kengayib borayotganini ifodalaydi. Yangi qadriyatlar yuzaga kelishi — insonning olam, ma'naviyat borasida bilimlari vorislik asosida davom etayotganining ifodasıdir.

Qadriyatlar inson ma'naviy kamolotining muhim omili hamdir. Har bir millat rivojlanishidagi tarixiy voqealar, unga ijobiy hissa qo'shgan shaxslar ham milliy g'urur va qadriyatlar jumlasiga kiradi. Qadriatlarda ular yuzaga kelgan davrning ruhi, imkoniyatlari, talab va ehtiyojlari o'zining yaqqol ifodasini topadi. Har bir qadriyat ma'lum konkret davr, sharoit va ehtiyojlarning mahsuligina emas, balki uning ko'zgusi hamdir. Tarixiy taraqqiyot jarayonida davrlar o'tishi, sharoit va imkoniyatlar o'zgarib turishi ham qadriyatlarning mazmunida, ularga munosabatda o'z ifodasini topadi.

Qadriatlarga baho berishdan oldin ular yuzaga kelgan konkret tarixiy sharoitlar, o'sha davrlarga xos bo'lgan imkoniyatlari va ehtiyojlarni ham bilmoq kerak. Kechagi voqealarni bugungi talab

bilan o'lchash mumkin bo'lmaganidek, har bir qadriyatning ijtimoiy ahamiyatini baholashga muayyan tarixiy sharoitlarni hisobga olib yondashmoq kerak.

Moddiy ishlab chiqarish, ma'naviy taraqqiyot ehtiyojlari qadriyatlar shakllanishining asosiy omillaridir. Har bir qadriyat qaysi zamin, ehtiyoj asosida yuzaga kelmasin, yuqoridagi omillar bilan bevosita, yoki bilvosita aloqada bo'ladi. Qadriyatlar taraqqiyotidagi vorislik shu tariqa uzuksiz davom etaveradi.

Qadriyatlarning shakllanishi, ularga amal qilish imkoniyatlari kishilar yashagan muhit, tabiiy sharoitlar, ishlab chiqarish usuli, kasb malakalari, mehnat faoliyatining asosiy yo'naliishlari, yoshi, jinsiy jihatlari, turmush tarzi bilan ham bog'liqdir.

Umuman olganda, **qadriyatlар jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllangan va rivojlangan, o'tmishda, hozirgi kunda va kelajakda ham ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir etadigan, kishilar ongiga singib, ijtimoiy ahamiyat kasb etgan moddiy va ma'naviy boyliklardir.**

Qadriyatlarning *obyektiv* va *subyektiv* tomonlari mavjud.

Qadriyatlар kishilarning moddiy turmush darajasi, sharoiti, imkoniyatlari asosida shakllanadi va rivojlanadi. Bu — qadriyatlarning obyektiv zaminidir. Qadriyatlар ijtimoiy, moddiy, ma'naviy hodisa bo'lsa ham ularning ahamiyati va mohiyati kishilarning ularga nisbatan bo'lgan munosabati asosida belgilanadi. Qadriyat degan tushunchaning o'zi ham qadr-qimmat, degan ma'noni bildiradi. Har bir ijtimoiy hodisaga kishilar o'z dunyoqarashi, taraqqiyot va istiqbol muammolarini hisobga olib yondashadilar va baho beradilar.

Qadriyatlarni belgilash turli xildagi manfaatlar bilan **ham bog'liqdir**. Muayyan qadriyatlarga amal qilishiga, ularni baholashga shaxsiy, guruhiy, milliy, umuminsoniy manfaatlar ham bevosita ta'sir etishi shubhasizdir. Bular — qadriyatlarga baho berishning subyektiv omili hisoblanadi. Qadriyatlarga baho berishda jamiyat a'zolarining umumiy ma'naviy kamoloti, ijtimoiy, milliy ongning yetukligi ham katta ahamiyatga ega. Ma'naviy jihatdan yetuk *shaxs, jamiyat, milliy, umuminsoniy* qadriyatlarning mazmuni va mohiyatini to'g'ri baholash imkoniga egadir.

Qadriyatlarning ijtimoiy ahamiyatini anglash, kishilarning istiqbol vazifalarini to'g'ri tasavvur qila bilish imkoniyati bilan ham bog'liq. Jamiyat a'zolarida yetuk ijtimoiy milliy ong bo'lishi,

ma’naviy kamolotning yuksakligi — qadriyatlarning rivojlanish imkoniyatlarini kuchaytiruvchi, ijtimoiy va tarbiyaviy samaradorligini oshiruvchi omildir.

„Qadriyat“ va „meros“ tushunchalari o‘zaro yaqin bo‘lsa ham ular bir xil ma’noni bildirmaydi. Boshqacha aytganda, qadriyat va meros bir-biriga uzviy bog‘liq bo‘lishiga qaramay, har qanday meros qadriyat bo‘la olmaydi. „Meros“ tushunchasining mohiyati qadriyatga nisbatan kengdir. Bundan tashqari, qadriyat faqat o‘tmishdan qolgan merosgina emas. Hozirgi kun talablari, yangi sharoit va imkoniyatlar asosida shakllanayotgan ijtimoiy, ma’naviy, siyosiy hodisalar ham qadriyat hisoblanadi.

Hozir O‘zbekistonda milliy istiqlol mafkurasini rivojlantirish uchun katta ishlar olib borilmoqda. Taraqqiyotning hozirgi vazifalari va millat manfaatlariga mos keluvchi mafkura yaratilmoqda. Bu mafkurani yaratishda o‘tmish merosidan unumli foydalansha ham u yangi davrda shakllangan qadriyat sifatida yuzaga kelmoqda.

Meros — o‘tgan avlodlar tomonidan yaratilgan, bizgacha yetib kelgan ijtimoiy-ma’naviy, moddiy hodisalar, madaniy boyliklar, urf-u odatlar, marosimlar, axloq me’yorlaridir. Meros — taraqqiyot uchun zarur omil bo‘lgandagina, qadriyat darajasiga ko‘tarila oladi.

Meros bilan qadriyatlarni baholash mezonlari bir-biridan farq qiladi. Moddiy va ma’naviy merosni baholashda, uning tarixiy shakllanishi sharoitlari va imkoniyatlarini o‘rganishga katta e’tibor beriladi. Merosning hozirgi kun uchun ahamiyatini bilish uni qadriyatlar jumlasiga kiritishdir.

Ijtimoiy taraqqiyot doim yangilanib, takomillashib turadigan uzluksiz jarayon ekan buning negizida qadriyatlar ham, ularni baholash mezonlari ham o‘zgarib boradi.

b) Qadriyat turlari

Qadriyatlar mohiyati jihatidan *moddiy* va *ma’naviy* qadriyatlarga bo‘linadi. Shuning uchun madaniyat tushunchasiga yaqin, lekin bir ma’noda emas. Inson kuchi, aqli-zakovati bilan yaratilgan *tabiat go‘zalliklari*, *me’morlik*, *san’at* va *madaniyat asarlari* — barchasi moddiy qadriyatlar jumlasiga kiradi. *Axloq, odob, bilim, ilm, malaka, iymon, insof, e’tiqod* va boshqalar ma’naviy qadriyatlar hisoblanadi. Moddiy va ma’naviy qadriyatlar bir-biri bilan bog‘liqidir. *Ular, o‘z navbatida, quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi:*

1. Inson yashab turgan moddiy muhit bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyatlar.

Qadriyatlarning bu turiga iqlim sharoiti, tabiat go'zalliklari, miiliy, davlat ahamiyatiga molik bo'lgan qo'riqxonalar, tabiatning inson yashashi, mehnat qilishi uchun zarur bo'lgan sharoit va imkoniyatlari kiradi. Tabiiy muhit sharoiti va imkoniyatlari, inson ehtiyojlari, yashash imkoniyatlari bilan taqozolangan taqdirdagina *qadriyat* deb baholanadi. Shu ma'noda olib qaraganda, tabiat sharoitlarini qadriyat deb qarash, unga ma'lum maqsad va manfaat asosida yondashayotgan inson tomonidan berilgan bahodir. Tabiatning inson manfaati asosida o'zgartirilgan, o'zlashtirilgan qismi ham qadriyatdir.

2. An'analar, urf-odatlar va marosimlarda namoyon bo'ladigan qadriyatlar.

Bu qadriyatlar, asosan, obyektiv taraqqiyot va subyektiv ruhiyatning ifodasi bo'lib, kishilarning o'zaro munosabatlarida, turmush tarzi va faoliyatida, yurish-turishida, axloqi va odobida ko'zga tashlanadi. Axloq insonning ichki ruhiy e'tiqodi, odob esa uning amalda namoyon bo'lishidir. Turli urf-odatlar, marosimlar kishilarning kundalik turmush tarzida, axloqiy qadriyatlar esa, ularning yurish-turishi, o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi. Ma'naviy kamolotni o'zida mujassamlashtirgan inson ham oliy qadriyat hisoblanadi.

3. Insonning aql-idroki va amaliy faoliyati zaminida shakllangan mehnat malakalari va ko'nikmalari, bilim va tajribalari, qobiliyat va iste'dodlarida namoyon bo'ladigan qadriyatlar.

Bu qadriyatlar insonning mehnat malakalari, ijtimoiy qiziqishlari, mehnat mahsuloti turlarini yaratish sohasidagi amaliy imkoniyatlari, bilimi, iste'dodi va qobiliyatlaridir. Rassom qo'lida qalam ushlagani uchun emas, balki tajribada shakllangan bilim va iste'dod egasi bo'lgani uchun ham buyuk san'at asarlarini yarata oladi.

4. Odamlar o'rtasidagi jamoatchilik, hamkorlik, xayrixohlik, hamjixatlilikka asoslangan munosabatlarda namoyon bo'layotgan qadriyatlar.

Inson tirik mavjudot sifatida tabiatning mahsulidir. Lekin, inson sifatida u faqat jamiyatda, odamlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy munosabatlar ta'sirida shakllanadi. Jamoadan ajralib qolish kishilarda xudbinlik, jamiyatdagi huquqiy, axloqiy munosabatlarni mensimaslik singari xislatlarni kuchaytiradi. Binobarin, odamlar jamoasi o'rtasidagi insonparvarlikka asoslangan munosabatlarning kamol topishi ham jamiyat va shaxs kamolotining eng muhim omillaridandir. O'zbeklardagi mahalla-kuychilik, qo'ni-

qo'shnichilik, qarindosh-urug'chilik, do'st-birodarlik odatlarida odamlar o'rtasidagi munosabatlarni yuksak insonparvarlik mezonlari asosida tashkil etishga imkon beradigan jihatlar ko'pdir. Bunday munosabatlarda namoyon bo'ladigan qadriyatlar dunyodagi barcha xalqlarda ham bor. Lekin, ular mazmun jihatidan bir-biriga yaqin bo'lsa ham, shakl borasida turli-tumandir.

5. Kishilarning yoshi, kasbi, jinsi va irqiy xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar.

Inson hayotining turli davrlari, faoliyat sohalariga nazar tashlar ekanmiz, bu sohalarda ham e'tiborga sazovor bo'lgan qadriyatlar va ularning mezonlari borligini ko'ramiz.

Chorvador bepoyon dalalarni, dehqon esa sug'orish mumkin bo'lgan yerlarni ko'proq qadrlaydi. Kishilar biror ijtimoiy, tabiiy narsa va hodisaga, ko'pincha, o'z kasb-hunarlarini, manfaatlaridan kelib chiqib baho beradilar. Qadrlangan narsagina qadriyat bo'lganidek, qadrlashning o'zi ham qator ijtimoiy, iqtisodiy, tabiiy omillar bilan belgilanadi. O'zbek ayollari asrlar davomida atlas ko'yakni qadrlaganidek, erkaklar ko'k, qora, yo'l-yo'l beqasam va satindan tikilgan choponlarni qadrlab kelganlar. Yoshlarning modalarga, musiqa va ashulaning sho'x turlariga havas qilishlari ham qadriyatlarga nisbatan bo'lgan mezonlarning yosh, kayfiyat bilan bog'liq bo'lgan o'tkinchi jihatlaridir. Keksa kishilar, ko'pincha, nasihat bilan bog'langan, chuqur falsafiy g'oyalarni bildiradigan kuy va ashulalarni yoqtiradilar, yoshlarni esa ko'proq o'yinkulgu bilan bog'liq bo'lgan ashulalar o'ziga jalb etadi. Lekin, yosh o'tishi bilan milliy ruhiyat yoshlarning qalbi va e'tiqodida katta o'rin ola boshlaydi.

Yuqorida bayon etilgan qadriyatlar, o'z navbatida, *umuminsoniy, mintaqaviy, milliy, diniy* qadriyatlarga bo'linadi.

Umuminsoniy qadriyatlar jahon sivilizatsiyasining yaxlitligi, uning barcha bosqichlari bir-biri bilan uзвiy bog'langanligining ifodasıdir. Kishilarning turmush sharoitlarida, kasb-hunarlarida, milliy, diniy mansubligida, faoliyatida, yoshida farq bo'lsa ham, ularning hammasida bir-biri bilan bog'liq bo'lgan tub mohiyatli jihatlar ham bor. Har bir inson yaxshi yashashga, oila qurishga, farzand ko'rishga, boshqalar bilan yaqin do'st, qadrdon bo'lishga intiladi, farovon turmush qurishga, madaniyat, fan, texnika yutuqlarini egallashga, baxtli bo'lishga harakat qiladi. Umuminsoniy qadriyatlarning ildizlari barcha davrlar, jamiyatlar, mamlakatlarda mavjud bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy munosabatlar, kishi-

larning mehnati, turmush sharoiti va uning darajasi, niyat va intilishlari, maqsad va manfaatlaridagi birlikdir. **Umuminsoniy qadriyatlar deb barcha insonlarning tarixi, merosi, istiqlol, istiqboli va manfaatlarida mavjud bo'lgan tutash, umumiy zaminlar va manfaatlar asosida tashkil topgan, taraqqiyotning yangi bosqichida ham barchaning manfaatiga mos keladigan ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy hodisalar va boyliklarga aytildi.**

Umuminsoniy qadriyatlar qandaydir o'zgarmas, aqidaviy tushunchalar emas. Davrlar o'tishi, sharoit, talab va ehtiyojlarning o'zgarishi bilan ularning mazmuni, baholash mezonlari ham o'zgarib boradi. Lekin, bu o'zgarishlardan qat'iy nazar, umuminsoniy qadriyatlar odamlarni jipslashtiruvchi, ma'lum maqsadlar, ijtimoiy, ma'naviy kamolotning muayyan maqsadlari uchun birgalashib kurashishga, harakat qilishga chorlovchi ijtimoiy hodisalardir.

Umuminsoniy qadriyatlar milliy va mintaqaviy qadriyatlarning umumlashgan ifodasıdır. Umuminsoniy qadriyatlar butun insoniyatga xos qadriyatlar asosida tashkil topadi va rivojlanadi, ular, ayni vaqtدا, barcha milliy qadriyatlarning bir-biriga yaqinlashishi va rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Insonparvarlik g'oyalariga sadoqat, demokratiya, ijtimoiy adolat hamma yerda barqaror bo'lishiga intilish, inson huquqlari poymol etilishiga yo'l qo'ymaslik, hamma xalqlarning milliy mustaqillik uchun bo'lgan kurashlarini himoya qilish, kishilarni do'stlik, hamkorlik va hamdardlikka chorlash, hamma yerda tinchlik, osoyishtalik qaror topishiga harakat qilish, atrof muhitni toza saqlash umuminsoniy qadriyatlarning hozirgi kunda katta ahamiyat kasb etayotgan jihatlaridir.

Mintaqaviy qadriyatlar ham umuminsoniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'langan.

Qadriyatlarning bu turkumi bir-biriga yaqin bo'lgan sharoitlarda yashagan va mehnat qilgan, tarixi tutash bo'lgan mamlakatlar va xalqlarda uchraydi. Bu qadriyatlar hozirgi kunda ham katta ahamiyat kasb etmoqda.

O'rta Osiyo xalqlari ming yillar davomida bir-biri bilan yaqindan iqtisodiy va siyosiy aloqalar o'rnatganlar. Ularning turmush sharoitlari, tili, madaniyati, dini, urf-odatlari bir-biriga yaqin bo'lishi ko'plab umummintaqaviy qadriyatlar shakllanishiga olib kelgan. Bu qadriyatlar turli joylarda bir-biridan biroz farq qilsa-da, mohiyat jihatidan yaqindir.

Ota-onaga bo‘lgan hurmat dunyodagi barcha xalqlarda uchraydi. Lekin, bizning mintaqamizda bu qadriyatni e’zozlash boshqa hamma joylardagiga nisbatan ustunroq turadi. *Hashar* yo‘li bilan uy-joy qurishda, uy-joylarni ta’mirlashda bir-biriga yordam ko‘rsatish, yetim-yesirlarning, beva-bechoralarning peshonasini silash, ularni qarindosh-urug‘lar o‘z himoyasiga olib, xor-u zor bo‘lib qolishiga yo‘l qo‘ymasligi ham mintaqamiz xalqlarining barchasiga xos qadriyatdir.

Katta ijtimoiy va tarbiyaviy ahamiyatga eg‘al bo‘lgan mintaqaviy qadriyatlardan yana biri — *jamoatchilik fikridir*. Jamoatchilik fikri odamlar o‘rtasidagi bir-biriga yaqinlik, o‘zaro hurmatning ifodasi bo‘lib, keng foydalanish mumkin bo‘lgan qadriyatdir.

Qadriyatning eng muhim turlaridan yana biri — *milliy qadriyatlardir*.

Milliy qadriyatlar umuminsoniy va mintaqaviy qadriyatlar bilan birlikda mavjud bo‘ladi. Umuminsoniy va mintaqaviy qadriyatlar milliy qadriyatlarning ko‘p tomonlarini o‘z ichiga oladi. Milliy qadriyatlar umuminsoniy va mintaqaviy qadriyatlar ta’sirida keng rivojlanish, takomillashish imkoniga ega bo‘ladi. Ular o‘rtasidagi muntazam davom etib boradigan dialektik munosabat jahon sivilizatsiyasi rivojlanishining muhim omillaridan biridir.

Milliy qadriyatlarning shakllanishi va rivojlanishi har bir millatning o‘ziga xos tarixi, tili, madaniyati, axloqiy va psixologik fazilatlari, yashash sharoiti, turmush tarzi, ishlab chiqarish faoliyati bilan bog‘langandir. Milliy qadriyatlarning har bir ko‘rinishini uzoq tarixiy taraqqiyotning o‘ziga xos xususiyatlarini chuqur o‘rganish orqaligina to‘g‘ri tushunib olish mumkin.

Millat mavjud ekan milliy qadriyatlarning ahamiyati aslo kamaymaydi. Millatlarning ma’naviyat jihatidan bir-biriga yaqinlashib borishi ham milliy qadriyatlarning rivojlanishi va amal qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Har bir millat o‘z qadriyatlarini rivojlantirishi va ularga amal qilishida milliy ong, milliy birdamlik tuyg‘usining ahamiyati kattadir. Milliy ruhiyat va ma’naviyatdan mahrum bo‘lgan kishilargina o‘z tili, tarixi, an’analariga nigilik munosabatda bo‘lishi mumkin. Agar shunday ahvol ma’lum siyosat ta’sirida kengayib borsa, millat birligi va kamoloti uchun nihoyatda xatarli hol yuzaga keladi.

Albatta, har bir xalq o‘z milliy qadriyatlari qobig‘ida o‘ralib qolmasligi kerak. Bunday yo‘ldan borilganida millatning taraqqiyoti sur’atlari pasayadi. Millat uchun mahdudlik va milliy kalondimog‘lik

hech vaqt ma'naviy, ijtimoiy kamolot omili bo'lgan emas. Boshqa millatlarning qadriyatlarini o'rganish, hamma vaqt ham taraqqiyotning omillaridan biri bo'lib kelgan.

Qadriyatlar qanchalik bir-biriga yaqinlashib, ta'sir ko'rsatmasin, har bir millat uchun ma'naviy kamolotning asosiy yo'li va me'zoni milliy qadriyatlar bo'lib qoladi. Biron millatning yaxshi urf-odatlari, marosimlari qachonki boshqa millat ruhiga, milliy-ma'naviy ehtiyoji va talablariga mos kelgandagina shu millat hayotida chuqur tomir otish imkoniga ega bo'ladi.

So'nggi bir asrga yaqin davr davomida o'zbek raqlarida, kuylarida, ashulalarida juda katta o'zgarishlar bo'lganini inkor etib bo'lmaydi. Bu o'rinda Yevropa, Hindiston, Yaqin Sharq mamlakatlari madaniyatining ta'siri ham katta bo'ldi. Hozirgi o'zbek raqlari, kuylari, qo'shiqlarining ayrimlari mumtoz madaniy merosning aynan o'zi emas. Raqlarda Yevropa, Osiyo raqs madaniyatlarining ko'p jihatlari sezilib turadi. Bu jihatdan o'zbek xalqining raqs madaniyati borasidagi qadriyatlar anchagini boyidi. Lekin, mohiyat jihatidan raqlarimiz, asosan, milliylik ruhini saqlab qoldi.

Millatning ruhiyati, tarixiy an'analari, ma'naviy ehtiyojiga mos kelmaydigan begona qadriyatlarni unga zo'r lab singdirish mumkin emas. Ayniqsa, boy tarixiy merosga ega bo'lgan xalqlar ma'naviy hayot borasidagi zo'ravonlikni ruhan qabul qilmaydilar.

Har bir xalq qadrlagan narsa yoki hodisa, birinchi navbatda, uning milliy ma'naviyati bilan bog'liq bo'ladi.

Milliy qadriyatlar ham qandaydir o'zgarmas hodisa emas. Millat taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotning takomillashib borishi, yashash va mehnat qilish sharoitlari o'zgarishi bilan milliy qadriyatlar ham rivojlanib borishiga imkon yaratiladi.

Umuminsoniy, mintaqaviy, milliy qadriyatlar bilan bir qatorda, diniy qadriyatlar ham mavjuddir.

Diniy qadriyatlar ham jamiyatning ma'lum tarixiy davr va sharoitlardagi talablari, ehtiyojlari asosida shakllanadi.

Diniy qadriyatlar umuminsoniy, mintaqaviy qadriyatlarning qandaydir alohida, boshqalardan keskin ajralib turuvchi sohasi emas. Zero, har qanday din hayot talablari, turmush sharoiti va ehtiyojlaridan ajralgan holda paydo bo'lмаган. Barcha dinlarning kelib chiqishiga ma'lum tarixiy davrlardagi ijtimoiy,

siyosiy, g'oyaviy sharoitlar, ular bilan bog'langan ehtiyojlar sabab bo'lgan. Dirlarning kelib chiqishiga asos bo'lgan sabablarni ijtimoiy hayotning o'zidan izlamoq kerak. Real hayot voqealarini, ehtiyojlari ilohiylashtirilganida, mohiyati, sodir bo'lishi sabablari ilohiy kuchlarning irodasi bilan bog'langandagina diniy tus oladi.

Islom dini shakllanayotgan davrda Muhammad sallallohu alayhi vasalam arab qabilalari orasida keng tarqalgan ko'plab urfatlar, marosimlar, axloqiy va huquqiy me'yorlarga ilohiy tus berib, ularni yangi dinning ajralmas qismiga aylantirdi. Arablarning yurish-turishi, odobi va axloqi, oilaviy va qabilaviy munosabatlar borasidagi ko'plab qadriyatlar Islom dinining tarkibiy qismi bo'lib goldi.

Umuminsoniy, milliy, diniy qadriyatlarning ko'plari Qur'oni Karimda, Hadislarda ham katta o'rinni olgan. Hadislarda bayon qilingan axloqiy me'yorlar inson kamolotiga katta ijobjiy ta'sir ko'rsatishi shubhasizdir.

Sobiq Ittifoq davrida diniy qadriyatlarning barcha tomonlarini to'la inkor etish yo'lliga o'tib olib, jamiyat ma'naviy kamolotini ta'minlashning ko'pgina imkoniyatlardan mahrum bo'lib qoldik. Diniy qadriyatlarning mazmunida milliy, mintaqaviy va umuminsoniy qadriyatlarning ko'pgina jihatlari borligini bilmaslik, ma'naviy johillik botqog'iga botish — jamiyatimiz boshidan kechirgan ko'pchilik yo'qotishlarga sabab bo'ldi.

Qadriyatlarga baho berishning bosh mezoni — tarix saboqlari, tajriba, hozirgi davr va istiqlolning talablari, ehtiyojlaridir. Shuning uchun qadriyatlarga aqidaparastlik, qiroatxonlik, ko'r-ko'rona sig'inish yo'li bilan emas, balki sog'lom aql, fan yutuqlari, ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot talablari va imkoniyatlariga asoslanib yondashmoq kerak.

O'zbekiston mustaqil davlat bo'lishi, totalitar buyruqbozlik tuzumining mafkuraviy hukmronligiga barham berilishi — diniy qadriyatlarga nisbatan yangicha yondashishga imkon yaratdi. Ko'pgina diniy marosimlar tiklandi, fuqarolar o'zlarining diniy e'tiqodlari bilan bog'liq bo'lgan marosimlar, urf-u odatlarni to'siqlarsiz amalga oshира boshladilar. Shahar va qishloqlarda ko'plab yangi maschitlar qurildi, eskilari ta'mirlandi. „*Ramazon hayit*“, „*Qurban hayit*“ singari marosimlar hamma yerda amalga oshiriladigan ommaviy bayramlarga aylandi. O'zbek xalqining hozirgi milliy qadriyatlari tizimini bularsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

d) Qadriyatlarning tarbiyaviy ahamiyati

Qadriyatlarning mohiyatini bilish, ularga e'tiqod, ixlos qo'yish — yoshlarda milliy g'urur, vatanparvarlik, milliy birdamlilik va hamjihatlik tuyg'usini shakllantirishda, insonparvarlik, halollik, mehnatsevarlik, axloqiy poklik fazilatlarini kamol toptirishda katta ahamiyatga ega. O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tgan hozirgi sharoitda vatanparvarlik tarbiyasi katta ahamiyat kasb etmoqda.

Vatanparvarlik — o'z vatanini vijdonan sevish, uning mustaqil taraqqiyot yo'li va istiqlolining mohiyatini anglab olish va o'z e'tiqodiga aylantirish, milliy manfaatlarini hamma sohalarda sitqidildan himoya qilishda fidoyilik namunalarini ko'rsatishdir.

Bu borada o'lkamiz tarixidan namuna oladigan, katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ko'plab qadriyatlар bor. Otabobolarimiz Vatanimizni ajnabi bosqinchilardan himoya qilish uchun asrlar mobaynida mardlik va qahramonlik namunalarini ko'rsatganlar.

Vatanparvarlik faqat qo'liga qurol olib vatan uchun kurashish emas. Fan, madaniyat, amaliy mehnat malakalarini chuqur egallab, Ona yurt dovrug'ini olamga yoyish ham vatanparvarlikdir. Ko'plab buyuk vatandoshlarimiz fan, madaniyat, yuksak amaliy san'at malakalarini egallab, rivojlantirib o'z Vatanlarining obro'-sini olamga yoyganlar.

Milliy iftixon ham milliy qadriyatlarni to'la anglash, ular bilan faxrlanishdir. Vatanparvarlik va milliy iftixon bir-biri bilan bog'langan qadriyatlardir. Yuksak milliy iftixon zaminidagina vatanparvarlik bo'lishi mumkin.

Mustaqil O'zbekiston uchun haqiqiy vatanparvar, fidoyi yoshlari kerak. Shunday yoshlarni tarbiyalashga zamin bo'ladigan milliy qadriyatlarni nihoyatda ko'p. Ulardan keng foydalanish katta ahamiyatga egadir.

Mustaqillik bilan bog'liq bo'lgan vatanparvarlik faqat tarixiy o'tmishni chuqur anglashdan iborat emas. Bu o'rinda Vatanimiz oldida turgan hozirgi vazifalar va ularni bajarish imkoniyatlarini bilishda jonbozlik, fidoyilik namunalarini ko'rsatish ham kerak. Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish kishilarda shaxsiy intilish, tashabbuskorlik, manfaatdorlik xislatlarini ham kuchaytirdi. „*O'zing uchun o'l yetim*“, degan g'oya asosida faoliyat ko'rsatish hollari kuchayib bormoqda. Lekin, hozirgidek mas'uliyatlari, tarixiy burilish pallasida shaxsiy manfaatdorlik kayfiyati qancha

kuchaymasin, Vatan, Istiqlol masalalarini soyada qoldirib bo'l-maydi. Ona-Vatan ozod rivojlanib, jahon taraqqiyotining yuksak bosqichlariga ko'tarilgan taqdirdagina inson o'z manfaati bilan bog'liq bo'lgan ishlarni ham tez amalga oshirishi mumkin.

Axloqiy tarbiya borasida ham milliy qadriyatlarimiz nihoyatda katta ahamiyat kasb etishi shubhasizdir.

O'zbeklarda oilada, jamoatchilik o'rtasida bola tarbiyasini amalga oshirishda katta tajriba bor. Bu tajriba asrlar davomida sinovdan o'tib, milliy qadriyatga aylanib ketdi. Bu qadriyatlar bolalarda mehnatsevarlik, insonparvarlik, halollik, ota-onani, kattalarni hurmat qilish, kichiklarni izzat qilish, kamtarlik kabi xislatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Milliy pedagogikaning bu boradagi merosi ham buyuk qadriyatdir. Shu sababli ham o'zbek yoshlari o'zining tarbiyasi, mehnatsevarligi, kattalarga hurmat-e'tibori, kamtarligi, andishaliligi, halolligi bilan ajralib turadilar.

Ekologik madaniyatni shakllantirishda milliy tarbiya an'analariga oid qadriyatlarning ahamiyati nihoyatda kattadir. O'zbek oilalarida bolalar yoshligidanoq ko'cha supurish, hovli tozalash, suv sepish, daraxt ekish va parvarish qilishga o'rgatilar edi. Suvni iflos qilmaslik, ahlatni hamma joyga tashlamaslik ham ulkan milliy qadriyatga aylanib ketgan. O'lkamizdagagi ekologik vaziyat ancha og'irlashib qolgan hozirgi sharoitda bu qadriyatlar ham katta tarbiyaviy omil bo'lishi mumkin.

O'zbek qizlarini mehnatsevarlik, kamtarlik ruhida tarbiyalash borasida ham katta tarixiy an'analarimiz bor. Nomus, iymon, qizlik iffatini yuksak tutish odati ham ulkan milliy qadriyatdir.

Qadriyatlarga xolisona yondashish, ulardan ijtimoiy, tarbiyaviy masalalarni hal etishda samarali foydalanish — hozirgi kundagi ko'plab dolzarb muammolarni hal etishning muhim shartidir.

1-§. Global muammolarning mohiyati va xillari

Insoniyat jamiyatining taraqqiyoti hech qachon va hech qayerda oson, beto'siq kechmagan. Har doim **va** hamma davrlarda jamiyat oldida muayyan muammolar ko'ndalang bo'lib turgan. Bular, bir tomondan, tabiat ofatlarining natijasi o'laroq namoyon bo'ladigan yer silkinishlari, suv toshqinlari, qurg'oqchilik, quyosh radiatsiyasi o'zgarishi bilan bog'liq turli epidemik kasalliklar va hokazolar bo'lsa, ikkinchi tomondan, inson faoliyati natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy hayotga oid bo'lgan antropogen muammolardir.

Jahon miqyosida yuz bergen jarayonlar tahlili shuni ko'rsatadi, hozirgi vaqtدا, insoniyat uchun o'tkir, dolzarb bo'lib turgan global muammolar quyidagilardan iborat:

- a) Yer yuzida tinchlikni ta'minlash va yalpi qirg'in urushlarining oldini olish (urush va tinchlik muammosi);
- b) atrof- muhitni samarali muhofaza qilish (ekologik muammo);
- d) aholi sonining orta borishi bilan ishlab chiqarish rivojlanishi mutanosibligiga erishish (demografik muammo);
- e) Yer yuzi aholisini zarur oziq-ovqat va energiya manbalari bilan ishonchli ta'minlash;
- f) ochlik, qashshoqlik va qolqollikni tugatish uchun yuksak rivojlangan va ulardan keyinda qolgan mamlkatlar o'rtasidagi keskin farqni bartaraf etish;
- g) xavfli kasallikkarni tugatish;
- h) inson ma'naviy-axloqiy muhiti sofligini ta'minlash (etikologiya muammosi) va boshqalar.

Bu muammolarning har biri u yoki bu darajada ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy nuqtayi nazaridan ilmiy tahlil etilgan. Ayni vaqtda, davrimizning umumbashariy muammolarining falsafiy talqini ham ilmiy adabiyotlarda o'z ifodasini topmoqda.

Global muammolarni falsafa nuqtayi nazaridan o'rganishda, dastavval ularning mohiyati, kelib chiqish sabablari, bartaraf etish yo'llarini, umummetodologik jihatlarini tadqiq etishga e'tibor berilmoqda. Buning uchun bu muammolarni tahlil qilishda

falsafaning tarixiylik, mantiqiylik, tizimiylik kabi tamoyillariga suyanilmoqda. Global muammolar insoniyat rivojlanishining natijasi hisoblansa-da, hozirgi zamon sharoitida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning ham oqibatidir.

Kelib chiqishi, chuqurlashib borishi, ko'lami va hal etilishining murakkabligi jihatlariga ko'ra, ularni uch guruhga ajratish mumkin:

Birinchisi, mavjud ijtimoiy tuzumning tabiat, turli mintaqalarda davlatlarining xilma-xil manfaatlari bilan taqozo etilgan muammolar.

Ikkinci guruhi, „inson-jamiyat“ tizimi doirasidagi munosabatlardan kelib chiqadigan muammolar.

Uchinchi, „jamiyat-tabiat“ tizimi doirasidagi munosabatlardan kelib chiqadigan muammolar.

Global muammolarning turlari o'zaro qanchalik farqlansada, bu sohalardagi umumiylig, dastavval, butun insoniyatning hayoti shart-sharoitlari, imkoniyatlari va istiqboli masalalaridir. Ikkinchi tomondan, ular u yoki bu darajada hozirgi davrning bosh omili — fan-texnika inqilobi bilan aloqadordir, ya'ni uning oqibatidir. Bizning davrimizda fanning rivojlanish sur'atlari g'oyat kattadir. Fanda erishilgan kashfiyotlar tezda yangi texnika vositalari yaratishni ta'minlasa, o'z navbatida, texnika rivojlanishi ham fanda yangi o'zgarishlar sodir etishga jiddiy turtki bermoqda. Bularning natijasi o'laroq, erishilgan kashfiyotlar muayyan maqsadlarga xizmat qilmoqda. Bu esa global muammolarning yanada o'tkir, dolzarb bo'lib turishiga olib kelmoqda.

2-§. Jamiyat ichki ziddiyatlari tug'dirgan global muammolar

Insoniyat o'zining bir hayot tarzidan ikkinchisiga, masalan, ko'chmanchi chorvachilikdan dehqonchilikka o'tishi jarayonida tayyor mahsulotlarni iste'mol qilishdan, ularni qayta tayyorlash va ekin ekib, yetishtirishga o'tishi bilan ijtimoiy munosabatlarni rivojlanib ketdi. Xususiy mulkchilik munosabatlarining qaror topishi bilan kishiliq jamiyatida hukm surgan sodda ko'rinishdagi ijtimoiy tenglik barham topib, uning o'rniga mahsulot olish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni yuzaga keladi. Kishilar ijtimoiy hayotining tashkil etilganligi jamiyat ilgarilama harakatida notejislik va mayjud muammolarni hal etishda urushlardan vosita sifatida foydalanish zaruriyatini keltirib chiqardi. Hozirgi vaqtida eng katta global muammo bo'lgan urush va tinchlik muammosini ana shu tarzda jamiyat ichki rivojlanishi jarayonlari maydonga keltirgan.

Ma'lumki, urush va tinchlik muammosi mamlakat ichida yoki uning tashqarisida, mamlakatlar o'rtasidagi munozarali masalalarini hal etishda siyosiy zo'ravonlik ishlatalish, yoxud uni istisno etishni bildiradi. Tinchlik — xalqlarning xohish-irodasi, orzu-umidi bo'lsa, urush esa, aksincha, hukmron kuchlarning siyosati oqibatidir. Yozma yodgorliklarning guvohlik berishicha, so'nggi 6 ming yil davomida, yer yuzida 15 mingdan ziyod urushlar sodir bo'lgan. Shu davr ichida atigi 300 yilgina urushsiz kechgan.

Amerikalik olim R. Klarkning „Urush ilmi va tinchlik“ kitobida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, turli davrlarda yuz bergan urushlar tahlili shuni ko'rsatdiki, 1820—1859-yillarda yer yuzida 1 mlrd aholi yashagan, 92 urushda 800 ming kishi halok bo'lgan, 1860—1899-yillarda 106 urushda 1,3 mln., 1900—1949-yillarda esa 117 ta urushda 142,5mln odam qirilib ketgan.

Bizning davrimizda ham mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlardan sohalarida zo'ravonlikka intilish, buning uchun yalpi qirg'in qurollarini ko'plab ishlab chiqish bilan harbiy ustunlikka erishish u yoki bu davlatlar tashqi siyosatining muhim yo'nalishi bo'lib qolmoqda. Shunday bir vaziyatda, termoyadro urushiga yo'l qo'yilgudek bo'lsa, jahon miqyosida shunday halokat yuz beradiki, uning natijasini hisob-kitob qiladigan mavjudotning o'zi bo'lmay qoladi. 1945-yil 6- va 9- avgustida ikkita kam quvvatli atom bombasining amerikaliklar tomonidan Yaponianing Xirosima va Nagasaki shaharlari ustida portlatilganligi oqibatlari ham buni yaqqol ko'rsatgan edi.

Insoniyatga 50 yildan ko'proq vaqtidan beri xavf solib turgan atom dahshati oqibatlarini matematikaning hozirgi yutuqlari asosida modellashtirish shuni ko'rsatdiki, bizning davrimizda to'plangan 50 mingdan ortiq yadro zaryadlarini 100—150 megatonna (Xirosimaga tashlanganidan 10—15 marta katta) quvvatga ega bo'lgan qismi (bitta atom suv osti kemasidagi portlovchi modda 200 megatonna) portlatilsa, Amerika, Yevropa va Osiyodagi asosiy shaharlar yong'in ostida qolib ketishi, bir oydan so'ng yer ustidagi atmosfera harorati 15—20°C, ayrim mintaqalarda esa 40—45°C pasayib, uning aylanishi (sirkulatsiyasi) mutlaqo o'zgarishi, Shimoliy yarim shardan janubga qarab tarqalgan nur o'tkazmaydigan qora qatlama butun sayyorani qoplab olishi yuz beradi. Chuchuk suvning barcha manbalari muzlaydi, barcha ekologik aloqalar uziladi, hosil nobud bo'ladi. Yer ustidagi hayot tugaydi.

Global muammo sifatida tinchlikni ta'minlash harbiy xarajatlarni keskin kamaytirishni ham taqozo etadi. Negaki, 1900-yildan beri harbiy ishga ajratilgan mablag'lar 30 martadan ko'proq oshib, 90-yillar boshida 500 mlrd dollardan ham yuqori bo'ldi. Harbiy yoki u bilan bog'liq ishlab chiqarish sohalarida 60 mln kishi faoliyat ko'rsatgan. Jumladan, muntazam qo'shinlarda 25 mln dan ortiq shaxsiy tarkib, 10 mln yarim harbiy qo'shilma, harbiy muassasalarda ishlovchi 5 mln fuqaroyiv kasb egasi bor.

Hozirgi vaqtda oddiy quroq-yarog'larning vayronlik keltiruvchi kuchi ham yadro quroli darajasiga yaqinlashib qolmoqda.

Global muammolardan yana biri — ochlik, qashshoqlik va savodsizlikning oldini olish uchun rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi ziddiyatlarning oldini olishdan iborat.

Rivojlanayotgan mamlakatlar turlicha tarzda va turlicha muddatlarda kechgan kurashlardan so'ng siyosiy mustaqillikka erishgach, yangidan yaratilgan siyosiy tizimlar asosida o'z iqtisodiyotini, davlat tizimini barpo etishga kirishdilar. Ularning ichidagi bir qancha mamlakatlar sobiq sotsialistik tuzum davlatlari bilan g'oyaviy, savdo-iqtisodiy va harbiy-siyosiy sohalarda keng hamkorlik qilgan edi. Lekin, bularda ham, boshqalarida ham iqtisodiyotda, uning bilan taqozo etilgan ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qoloqlik davom etaverdi. Buning eng asosiy sabablari va umumiyy jihatlari tashqi va ichki omillarga borib taqaladi.

Tashqi omil — ilgari mustamlaka yoki qaram bo'lgan xalqlarning o'tmishi bilan bog'liqdir. O'tmishda ularning xo'jalik hayoti zo'rlik bilan o'zgartirilgan, ko'pincha turg'un holda bo'lgan qoloq siyosiy munosabatlar saqlab qolingga edi. Milliy mustaqillik qo'liga kiritilgandan keyin ham sobiq mustamlakalarda metropoliyalar yirik markazlarining iqtisodiy ta'siri saqlab qolindi. Ijtimoiy-iqtisodiy qoloqlikning davom etishi, ularning xo'jalik taraqqiyoti yo'nalishi ustuvor darajada sobiq metropoliya bilan mavjud aloqalarni davom ettirishga qaratildi. Natijada, xalqaro monopolistik guruhlarning qoloq mamlakatlar ustidan xo'jayinlik qilishi davom etaverdi. Rivojlanayotgan mamlakatlardan olinayotgan foyda zayom va qarzlarni foizli qaytarish hamda keltirilgan mahsulotlarga belgilangan monopol bahodan foy-dalanish tufayli, ularning iqtisodiyotiga sarf etilgan kapital mablag'lardan bir necha marta ko'p bo'lmoqda. Masalan, Yer yuzida eng kam rivojlangan mintaqa bo'lgan Afrikada (Janubiy Afrika Respublikasini qo'shmaganda) o'lim, umrning qisqaligi, savod-

sizlik, qashshoqlik dunyo bo'yicha birinchi o'rindaligiga qaramay, bu yerdan faqatgina AQSH olgan daromad 1950-yildan 1975-yilgacha 5436 mln dollar bo'ldi (foyda 200 % dan ortiq). Keyingi 15 yilda ham bu ko'rsatkich saqlab qolindi.

Aksariyat rivojlangan davlatlar „uchinchini dunyo“ mamlakatlari xomashyo manbayi, sarmoya bozoriga kapital chiqarish uchun qulay soha sifatida qaraydilar. Pirovardida, rivojlanayotgan mamlakatlarning ijtimoiy rivojlanishi tashqi omillarga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Ichki omil — sobiq mustamlaka mamlakatlari iqtisodiyotining ko'p ukladliligi, uning ichida belgilovchi mavqeyi — mayda tovar ishlab chiqarishga asoslanganligidadir. Ma'lumki, bu uklad ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishga xizmat qilsa ham raqobatga bardoshi nuqtayi nazaridan nochor hisoblanadi.

Iqtisodiyotning ko'p ukladliligidan jiddiy ijtimoiy oqibatlar kelib chiqadi. Jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlarda shunday ijtimoiy-madaniy muhit mavjudki, unda turli-tuman ijtimoiy kuchlar, guruhrar, qatlamlar va hokazolar o'zaro juda murakkab munosabatda bo'lib, ularni boshqarish qiyin.

Rivojlanayotgan mamlakatlar o'z ilgarilama harakatida keyinda qolishning ijtimoiy sabablaridan yana biri — bu sobiq metropoliyada tayyorlangan mutaxassislarning o'z mamlakatlaridan ketishidir. Buning sababi muayyan darajada ishsizlik bilan bog'liq bo'lsa-da, lekin, asosan, metropoliya madaniyati va hokazolar tufaylidir. Yuksak rivojlangan mamlakatlar sobiq mustamlakalardan kelayotgan mutaxassislar hisobiga salmoqli foyda olmoqda. Masalan, AQSH da bulardan foydalanish natijasida yangidan mutaxassislar tayyorlashda ancha mablag' tejamoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlar ijtimoiy qoloqligining ko'lami keng, uning omillari shunday tabiatga egaki, bu qoloqlik hech qachon o'z-o'zidan bartaraf etilmaydi, aksincha, chuqurlashib borish mayliga ega. Aholining ko'pchilik qismi qashshoqligi ortib borayotganligi ijtimoiy ofatga aylanib qolmoqda. Mamlakat miqyosidagi iqtisodiy qiyinchiliklar u yoki bu tarzdagi umum davlat dasturini amalga oshirish imkonini bermayotir.

Bunday katta xavfning mavjudligi taraqqiy parvar kuchlarni o'ylantirib qo'ymasligi mumkin emas. Ularning tashabbusi bilan rivojlanayotgan mamlakatlarning muammolari BMT darajasida bir necha marta muhokama obyekti bo'ldi. Bu muammolar hozir ham bu tashkilot diqqat markazidadir.

Hozirgi vaqtida insoniyat ma'naviyati sofligini saqlab, uni ma'naviy tanazzuldan asrash ham umumbashariy muammoga aylanib bormoqda. Gap shundaki, zo'ravonlik va nafrat kishilar o'rtasidagi munosabatlarda chuqur ildiz otib, ma'naviy muhitni tobora zaharlarloqda. Buni to'xtatib qolish va keskin kamaytirishga erishish vazifalari insoniyatning dunyo miqyosida kuch-g'ayratlarini birlashtirishni taqozo etmoqda. Albatta, „etikoxavf“, „etikofalokat“ nomi bilan qayd etilayotgan hodisalar, u yoki bu darajada, insoniyat rivojlanishining o'tmishida ham uchragan va sivilizatsiyaning yo'ldoshi bo'lib kelgan. Bir tomondan, madaniyat rivojlanib, boyib, tobora umuminsoniy tus olib borsa, ikkinchi tomondan, turli-tuman manfurlik va og'u timsoli bo'lgan jinoyatchilik, bangilik, fahsh, terrorchilik, ichkililikbozlik kabi illatlar ham kuchayib bordi.

Yaqin vaqtlargacha ma'naviy muhitni global darajada buzuvchi yuqoridagi illatlarning tabiatini izohlashda marksistik va „burjuacha“ deb atalgan qarashlar mavjud edi. Chunonchi, birinchi nuqtayi nazarga ko'ra, bularni faqat antagonistik jamiyatlar tug'diradi. Bu jamiyatlar o'rniga sotsializmni barpo etish bilan ularning ijtimoiy ildizlari yo'qotiladi, deb hisoblanilardi. Lekin, ijtimoiy amaliyot bunday qarashlarning xayoliy ekanligini ko'rsatdi. Dunyoning barcha qismida, shu jumladan, sobiq sotsialistik tizim mamlakatlarda, etikoxavfning, mohiyatiga ko'ra, umumiyligi ekanligi ma'lum bo'ldi. Bundagi asosiy farq esa, xavfli illatlarning namoyon bo'lishi, turlari va tarqalganligi darajasini ifodalaydi, xolos. Chunonchi, AQSH bo'yicha shunday ma'lumotlar ma'lum: mamlakatda (1970—1980-yillarda) jinoyatchilik 3 marta, uning o'sish sur'atlari esa 10 baravar ortdi. Bundan o'n yilcha oldin AQSH Prezidenti R. Reygan shunday degan edi: „Mamlakatda har 30 soniyada qasddan odam o'ldirish, har 10 soniyada — nomusga tegish, har 10 soniyada — hayotga xavf soladigan hujum, har 30 soniyada — avtomobil o'g'irlash va hokazolar sodir bo'lmogda“¹.

Bunga o'xshagan ahvolni boshqa ko'pgina mamlakatlarda ham ko'rish mumkin. Jahondagi ko'pgina mamlakatlarda iqtisodiy jinoyatchilik soni oshib bormoqda.

Etikologik muammolar tizimida korrupsiya — amaldor shaxslarni sotib olish orqasida yuz berayotgan jinoyatlar salmog'i tobora ortib bormoqda. Bunday jinoyatning subyekti ishlab

¹ Qarang: Р. Рейген. Откровенно говоря. М., 1988, 136-бет.

chiqaruvchilar bilan siyosatchilar, harbiylar, parlament a'zolari, ma'muriy va boshqa boshqaruvin bo'g'inlaridagi ko'pgina amaldorlardir.

Jinoyatning bu ko'rinishi jamiyat rivojlanishining o'tish davri, deb atalgan bosqichlarida, ayniqsa, yalpi tus oladi. Chunonchi, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga kirgan mamlakatlar hozirgi sharoitda bu hodisa bilan to'qnash kelib turibdi¹.

Ma'naviy muhitni bulg'ashda keyingi vaqtarda, ayniqsa, ichkilikbozlik va bangilikning o'tni katta bo'lmoqda. Ko'pgina mamlakatlarda (masalan, Eron Islom Respublikasida, O'zbekiston, Fransiyada, AQSH va boshqa mamlakatlarda) narkotik moddalarni tarqatganlik uchun og'ir jazo choralar belgilangan. BMT darajasida ham zarur tashkilotlar tuzilib, bu ijtimoiy illatga qarshi kurashilmoxda. Lekin, bangivor moddalar tayyorlash va sotishdan g'oyat katta foyda olayotgan korchalonlar bu og'udan o'layotganlar soni yildan yilga oshib borayotganligiga qaramay, barcha imkoniyatlardan foydalanmoqdalar.

Etikologiyaviy muammo tarkibida terrorchilikning o'mi alohidadir. Terrorchilik ijtimoiy antagonizm bilan bir vaqtida, uning shakllaridan biri sifatida kelib chiqqan. Uning xillari tobora ko'payib bormoqda. Hozirgi vaqtida siyosiy terrorchilikdan tashqari, iqtisodiyot bilan bog'liq terrorchilik ham kuchayib bormoqda. Chunonchi, havo qaroqchiligi yo'li bilan tayyoralarni olib qochish, odamlarni garovga olish va evaziga pul olishga urinishlar tez-tez ro'y berishini axborot vositalari tarqatib turibdi. Terrorchilik o'zining bir qator belgilariga ko'ra uyushgan tus olmoqda. Pornografiya, islovatxonalar, so'ngra bangivor moddalarni tarqatish maqsadida davlat tizimidagi amaldorlarni sotib olishga erishib, o'z faoliyatini davom ettirayotgan mafiya buning yaqqol timsolidir.

Yuqoridagilardan ko'rindan, Yerdagi hayotni saqlab qolishning asosiy sharti — yalpi qirg'in urushlarining oldini olish hamda sayyoramizning bir qancha mintaqalari xalqlari qoloqligini tugatib, insoniyat jamiyatni mutanosib rivojlanishiga erishish va ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish uchun insoniyat kuch-g'ayratlarini birlashtirish lozim bo'ladi.

¹ **I. A. Karimov.** O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., „O'zbekiston“, 1997, 85—99-betlar.

3-§. „Inson — jamiyat“ tizimidagi global muammolar

Rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy qoloqlik bilan bog‘liq bo‘lgan yana bir global muammo — aholining hozirgi o’sishidir. Agar iqtisodiy ahvol jamiyat rivojlanishi ichki qonuniyatları bilan taqozolangan bo‘lsa, „demografiyaviy portlash“ insonning xohish-irodasi, mavjud an’analarga sodiqligi, madaniy darajasi, turmush mezonlari va hokazolar bilan belgilanadigan jarayondir.

Yer sathida ilk paleolit davri boshida 100—200 ming, so‘ng paleolit boshida — 1 mln, neolit boshida — 10 mln, oxirida 50 mln, eramiz boshlarida — 230 mln odam yashagan. Sayyoramizdagi aholining soni hozirgi vaqtida, 6,5 mlrd dan ortdi. Bu raqamlarda aholining soni o‘sib borganligi qayd qilingani ko‘rinadi. Aslida esa, bu raqamlar odamlarni tegishli moddiy vositalar (oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar joy va h.k.) bilan ta’minlash, zarur ma’lumot darajasi, tibbiy va huquqiy xizmat, tegishli ijtimoiy muhofaza, yosh avlod tarbiyasi masalasini ham kun tartibiga qo‘yadi.

Olimlar aholining o‘sishi bilan bog‘liq masalalarga XVIII asrdayoq e’tibor berishgan. Xususan, ingliz iqtisodchisi **R.T.Maltus** bundan 200 yil avval shunday yozgan edi: „Agar past tabaqa sinflar nodonligi va buzuqligiga qaramasdan ko‘payib boraversa, u holda ma’rifatli sinflar o‘zlarining yaqinlariga bo‘lgan nasroniyarcha muhabbat bilan hech nima qila olmaydilar“. „Ota-onasi farzandining yashashini ta’minlash uchun zarur kapitalga ega bo‘lmasa, bu farzandning yashashga qanday haqqi bor? Bunday farzand faqat xayr-ehsonga ko‘z tikishi mumkin“. „Boshqa kishilar tomonidan egallangan dunyoga kelgan odam... bu dunyoda mutlaqo ortiqchadir“.

Maltusning bu qarashlari bilan hozirgi davrda ilgari surilgan nuqtayi nazarlar umumiyyat ko‘rinadi. Masalan, Rim klubining taniqli vakili, matematik J.Forreyster modeli bo‘yicha va Massachusetts texnologiya instituti (AQSH professori Denis Medouz va uning xodimlari tomonidan tayyorlangan „O‘sish chegaralari“ kitobida insoniyat rivojlanishining beshta parametrlaridan biri bo‘lgan „demografik portlash“ haqida gap boradi. Uning fikricha, agar aholining o‘sishi hozirgi sur’atlar bilan borsa, 2000-yilga kelib, tez orada hamma unumdar yerlar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi doirasiga tortilib bo‘ladi. Nounumdar, sahro yerkarni o‘zlashtirish, dengiz suvini chuchuklashtirish, sun’iy oziq-ovqat yaratish va hokazolar esa juda katta xarajatni talab etadi. 2100-yilga kelib esa, bu resurslar tugaydi, ishlab chiqarish qisqaradi, o‘lim ko‘payadi

va h.k. Natijada, falokat ro'y beradi. Shuning uchun mualliflar aholining ko'payishi masalasida mamlakatlар o'rtasidagi mavjud munosabatlarni o'zgartirish kerak, deb ta'kidlaydilar.

Aholi o'sishi mintaqaviy xususiyatga ega. Mutlaq o'sishda Osiyo qit'asi birinchi o'rinda tursa, Afrika yillik o'sish sur'atlarida oldindadir. Ijtimoiy-iqtisodiy tahlillarga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda aholi yillik o'sishi juda past bo'lsa-da, aholi uzoq umr ko'rishi eng yuqoridir. Bu holat ham demografik o'sish global muammolarning yangi jihatlarini o'rtaga qo'yamoqda. Masalan, odamlarning ko'payishi bilan shaharlardagi vaziyat og'irlashmoqda, ishsizlik, qashshoqlik, shahar chetlarida eng oddiy talablarga ham javob bermaydigan „yo'ldosh shaharcha“larning tez paydo bo'lib borishi shular jumlasidandir.

Umuman, „demografik portlash“ni izohlashda aholining qaysi joyni manzil qilganligiga ham ahamiyat berish lozim. Negaki, rivojlanayotgan mamlakatlarda asosiy aholi qishloqlarda, rivojlangan mintaqalarda esa shaharlarda yashaydi. Keyingi 20 yilda „uchinchi dunyo“ qishloq aholisi 16 % o'sdi (2,47 mlrd kishi). Ma'lumki, qishloq shaharga qaraganda qolooq ishlab chiqarish, o'tmish an'analari saqlanib qolgan, ilgaridan qashshoqlik va ochlik hukm surib kelgan joydir. Aholining ko'payishi asosida zarur jamg'armalar va kapital mablag'larning yetishmasligidan rivojlanayotgan mamlakatlarda yalpi qashshoqlik vujudga kelmoqda.

Dunyo bo'yicha shaharlar va ularda yashovchi aholi tobora ko'payib bormoqda. Bu sohadagi o'sish 1974-yildan 1994-yilgacha 47 % bo'ldi. Asr oxiriga borib, bu raqam 48 % ga (3 mlrd kishiga) yetdi. Tabiiyki, tartibsiz kechayotgan bu jarayonda yechilishi zarur bo'lgan muammolar ham ko'payadi.

Aholining ko'payishi bilan birga, uning tarkibida muhim o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda nafaqaxo'rlarning soni aholining ko'pchiligini tashkil etadi va ularning miqdori 60% ga yetib qoldi.

Demografik o'sish mavjud resurslarni taqsimalashga ham ta'sir etadi. Chunki, insonning muhim ehtiyojlarini qondirish uchun zarur hajmdagi tabiiy resurslar bo'lishi talab qilinadi. Bundan tashqari, aholi zich joylashgan mintaqalarda (insoniyat oldini ola olmayotgan, aksincha, ehtimolligini kuchaytirayotgan) oddiy falokatlar ancha ko'p qurbanlar keltiradi.

„Inson va jamiyat“ tizimiga borib taqaladigan jiddiy global muammolardan yana biri, xavfli kasalliklarni tugatish vazifasidir.

Bu kasalliklar, birinchi navbatda, aholi ko'payishini boshqarish va tashkil etish yo'lga qo'yilmagan mamlakatlardagi ochlik, oziq-ovqatlar tarkibida oqsillarning kamligidan ham kelib chiqmoqda.

Ma'lumki, jahon miqyosida ochlik xavfi mavjudligi birinchi marta BMT tomonidan 1950-yilda tan olingan. O'shanda insoniyatning qariyb yarmi yetarli miqdorda kaloriyalı oqsil iste'mol qila olmayotgani aytigan edi. Xalqaro tashkilotning ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda 60-yillarda 60 % aholi u yoki bu darajada ochlikdan azob ko'rgan bo'lsa, 20 % aholi muntazam ochlikdan qiynalgan. 70—80-yillarda bu sohada xalqaro miqyosda ancha ish qilinganiga qaramay, muayyan darajada ochlikka duchor bo'lgan aholining mutlaq miqdori 0,8 mlrd ni tashkil etgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarga (yetarli miqdordagi mablag'ning ajratilmasligi, malakali mutaxassislar yetishmasligi va h.k.) ko'ra, jahon aholisining 40 % vodoprovod suvi, kanalizatsiya va sanitariya xizmatidan foydalanmaydi. Bunday ahvol rivojlanayotgan mamlakatlarda ko'plab uchramoqda. O'z-o'zidan ravshanki, bularning hammasi epidemiyalar tarqalishiga olib keladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda sil, bezgak kabi kasalliklar keng tarqalgan. Hozirgi vaqtda, bularning qatoriga OITZ ham qo'shilmoqda. Shuningdek, yurak, ruhiy-asab kasalliklari, rak va shu kabilarning ko'payayotganligi ham tashvishlidir.

4-§. „Jamiyat va tabiat“ tizimidagi global muammolar

Kishilik jamiyatining tabiat bilan munosabatlari va ularning ifodasi bo'lgan faoliyat turlari g'oyat xilma-xildir. Ular ichida belgilovchisi moddiy ishlab chiqarish faoliyati hisoblanadi. Bu faoliyat tufayli sayyora qiyofasi shunday o'zgardiki, oqibatda bir qator jiddiy muammolar kelib chiqdi. Ular — *ekologik muammolar* deb atalmoqda.

Ekologik muammolarning birinchisi — biosfera tabiiy jaryonlari uchun xosdir. Masalan, vulqonlar otilishidan hosil bo'ladigan o'zgarishlar natijasida global miqyosda zararlar kelib turadi. Ekotizimda muvozanat tezroq tiklansa-da, lekin ularning oqibatlari hiyla vaqt bilinib turishi mumkin. Ekologik falokatlarning ikkinchi shakli — tabiiy hodisalar bo'lib, u inson faoliyati ta'sirida yuz beradi.

XX asr boshlaridan, ayniqsa, uning ikkinchi yarmi davomida ekologik falokatlar soni ko'payib bormoqda. Agar 60-yillarda inson va atrof muhit uchun xavfli oqibatlar keltirgan 45 ta yirik ekologik

falomat yuz bergen bo'lsa, 80-yillarda bularning soni 80 ga yetdi. Ekologik muammolar rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda birday uchraydi. Ayni vaqtida Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasi mintaqalarida birinchi turkumdag'i ekologik muammolar uchrasa, sanoati rivojlangan Yevropa, Shimoliy Amerika kabi mintaqalarda ikkinchi turkumdag'i, ya'ni texnologik falokatlar oqibatlari uchraydi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ham bu turkum muammolar astasekin paydo bo'lib bormoqda. Chunki, texnikaviy ravnaq bu mamlakatlar hayotiga qanchalik tez kirib borsa, undan oqilona foydalanish talabi shunchalik o'tkir bo'lib bormoqda.

Inson ishlab chiqarish faoliyatining umumbashariy xarakteri bilan bog'liq quyidagi ekologik o'zgarishlar sodir bo'lmoqda:

1. Yer yuzidagi o'rmonlar hajmi har yili 11 mln getktarga qisqarib bormoqda. Osiyo va Lotin Amerikasi tropik mintaqalaridagi o'rmonlarda esa, yangilanib turadigan o'simlik resurslarining asosiy zaxiralari to'plangan. Bundan tashqari, Sayyoramizning boyligini tashkil etgan bu o'rmonlar biosfera an'anaviy „Planeta o'pkasi“ funksiyalarini saqlab qolishda katta ahamiyatga ega. O'rmon zaxiralari faqatgina xomashyo manbayi emas, balki ular tabiiy suv aylanishini ham ta'minlaydiki, o'rmonlardagi suv bug'lanishi hisobiga yog'ingarchilikning 1/2 qismidan ko'prog'i to'g'ri keladi. Bu esa, tuproq yuzasiga ma'tadiril ta'sir ko'rsatadi, oziqa bo'ladigan mineral moddalarning tiklanib turishi ta'minlanadi.

2. Rivojlangan mamlakatlardagi 31 mln getktarga yaqin yerlar „kislotali yomg'ir“lardan zararlangan va bug'langan. Bu „yomg'irlar“ biosferada tez tarqalib, o'rmonlarga salbiy ta'sir etadi, barglari sarg'ayib tushib ketgan daraxt oqibatda halok bo'ladi. Zararlangan daraxtlarning fiziologik kuchsizlanganligi natijasida o'simlikxo'r hasharotlar ko'payishi uchun qulay sharoit yaratiladi. Kislotali yog'ingarchilik havo va suvni zaharlashi tufayli kishilarda yurak, o'pka, oshqozon-ichak kasalliklari avj oladi va allergiyaga moyillik kuchayadi.

Tuproq eroziyasi tufayli ishlanadigan yer maydonining 26 mln gettarida har yili hosildorlik pasayib bormoqda. Suv va havo eroziyasidan AQSHda har yili 3,1 mlrd tonnagacha unumdar tuproq ishdan chiqmoqda. Bu — yetishtirilgan bir tonna bug'doy hisobiga 6 tonna tuproq yo'qotilishini bildiradi. Shuning uchun AQSHda dehqonchilik ixtiyoriy qisqartirilib, yer zaxiralariini saqlaydigan fermerlarga har yili har bir akr (0,4 ga) yer uchun 48 dollar to'lanishi to'g'risida qonun qabul qilingan.

3. XX asrning ikkinchi yarmida „katta qurg‘oqchilik“ larning tez-tez bo‘lib turishi natijasida cho‘llar maydoni yiliga 6 mln gektarga kengaydi. Natijada, o‘simlik va hayvonot olamida salbiy o‘zgarishlar yuz bermoqda. Ilgari cho‘llar hosil bo‘lishi faqat tabiiy yo‘l bilan yuz bergen bo‘lsa, endilikda insonning o‘rmonzorlarga o‘tkazayotgan ta’siri, o‘rmon va qishloq xo‘jaligiga yaroqli yerlar nisbatining buzilishi, aholining tinimsiz ko‘payishi natijasida sun’iy tarzda sodir bo‘lmoqda.

4. Sanoatlashgan mamlakatlardagi minglab ko‘llar biologiyaviy o‘lik holga kelib qolmoqda. Har yili jahon suv havzalariga 32 kub km tozalanmagan sanoat oqava suvlari kelib tushmoqda. Turli maqsadlar uchun suvga bo‘lgan ehtiyoj tobora oshib borishi natijasida, suv sarfi ham shunga yarasha ko‘payib bormoqda. Afrika, Shimoliy Amerika va boshqa qator mintaqalarda yer osti suvi manbalari kamayib, sifati keskin yomonlashib bormoqda.

5. Atrof muhitga antropogen ta’sir etish, uni texnogen bulg‘ash oqibatida hayvonot va o‘simlik olami uchun jiddiy xavf yuzaga keldi. Har yili ko‘plab hayvon va o‘simlik turi yo‘qolishi oqibatida 20 yildan so‘ng mayjud turlarning beshdan bir qismi batamom barham topishi mumkin. Bu esa, hayvonot va o‘simlik olami genofondining qisqarishigagina olib kelmay, Yer biosferasida oqibati jiddiy bo‘lgan o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi.

6. Yer yuzidagi ekologik o‘zgarishlar oqibatida 2050-yilga borib atmosferadagi o‘rtacha harorat 1,5—4,5 darajagacha ko‘tarilishi kutilayotir. Atmosfera yuqori qismlarida ozon qatlami siyraklanib, Antarktida va Arktika ustidagi „tuynuklar“ kengayib bormoqda. Ozon qatlamining yemirilishi natijasida, barcha jonli mavjudotlarga halokatli ta’sir etadigan quyosh radiatsiyasi nurlari uchun yo‘l ochilib, ekologik falokatlar (o‘simliklarda fotosintez jarayonining qisqarishi, konserogen moddalar ta’sirida kelib chiqadigan kasalliklarning ko‘payishi va h.k.) ro‘y berishi mumkin.

7. Tabiatda inson sog‘ligi uchun xavfli bo‘lgan metallar va ular birikmalarining yig‘ilib qolishi tufayli zamondoshlarimiz tanasida, ibridoiy odamlardagiga qaraganda, kadmiy (yurak kasalliklarining sababchisi) 70 marta, qo‘rg‘oshin (ateroskleroz va buyrak kasalliklari sababchisi) — 10, simob (asab kasalliklarini chaqiruvchisi va gepatik o‘zgarishlar sababchisi) — 19 marta ko‘p to‘plangan. Havoni bulg‘ovchi moddalarning soni 100 dan ortadi, ularning ko‘pi zaharli, ba’zilari esa, konserogen xususiyatlarga egadir.

Atrof muhitning bulg'anishi bilan birga, insoniyat uchun zarur bo'lgan tabiiy zaxiralar, birinchi navbatda, oziq-ovqat manbalari muammosi og'irlashib bormoqda. Ijtimoiy rivojlanish davomida oziq-ovqat ishlab chiqarish to'xtovsiz o'sib borgan bo'lsada, hozirgi vaqtida uni ekstensiv ko'paytirish imkoniyati qariyb tugab bormoqda. Global muammolar tizimida jahonning barcha mamlakatlarida energiyaning yangi manbalarini topish zaruriyati ham tobora birinchi o'ringa chiqmoqda.

Ma'lumki, energiya zaxiralari ikki xil — qayta tiklanmaydigan (neft, gaz, ko'mir) va tiklanadigan (suv, shamol quvvati va h.k.) bo'ladi. Shuningdek, quvvat manbalarini tashqi (Quyosh) va ichki zaxiralari (masalan, atom yadrosi) tarzida ham tasnif etish mumkin.

Hozir atom reaktorlaridan olingan energiya elektr quvvati ishlab chiqarishning 15 % ga to'g'ri kelmoqda. Keyingi paytlarda atom quvvatidan foydalanish xususida xilma-xil va qarama-qarshi fikrlar oldinga surilmoqda. Chernobil fojiasi bu boradagi tashvishlar o'rinni ekanini ko'rsatmoqda.

Jahon okeani zaxiralarini o'zlashtirish masalasi ham XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab insoniyat oldida turibdi. Ummumani olganda, sivilizatsiyaning butun tarixi davomida okean zaxiralarini va imkoniyatlaridan oqilona foydalanish masalasi insoniyat uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan. Okean kislorod yetkazib beradi, g'oyat katta miqdordagi ma'dan xomashyosi zaxiralariga ega, oqsil xomashyosi olish uchun zarur bo'lgan biomoddalarni salmoqli hajmda hosil etadi, iqlimni tartibga solib turadi va muhim transport yo'li hisoblanadi. Bir so'z bilan aytganda, hozirgi vaqtida jahon okeani jamiyat mavjudligi va rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan omillardandir.

Jahon okeani boyliklarini o'zlashtirish jamiyat va tabiat aloqadorligining muhim ko'rinishlaridan biridir. Hozirgi vaqtga kelib, insoniyat quruqlik boyliklarini, asosan, o'zlashtirib bo'ldi. Okean suvlariidan ilgari baliq ovlangan, tuz, magniy, brom, yod, fosfor, natriy, kaliy olingan bo'lsa, endilikda uning tagidan neft, gaz, ko'mir, temir, oltin, platina va boshqa nodir metallar qazib olinmoqda. Dengiz akvatoriyalari ostidagi neft va gaz zaxiralarini 1990-yilda qilingan hisob-kitoblarga ko'ra 450 mlrd tonna (neftga aylantirilganda), metallar — quruqlikdagi zaxiralarini hajmiga teng ekanligi ma'lum bo'ldi. Jahon okeani hududida ko'mirning umumiyligi quruqlikdagiga qaraganda 250 martadan ko'proq, hozir


qazib olinayotgan hajmdan esa 200 martadan ortiqdir. 30 ga yaqin unsurdan iborat temir, marganes qorishmalari chuqur suv osti maydonining qariyb 35 mln km² ni tashkil etadi.

Okeandan foydalanishning an'anaviy obyektlari baliqchilik, suvo'tlaridan foydalanish va hokazolar hozirgi vaqtida muhim bo'lib qolmoqda. Masalan, 1975-yilda dunyo bo'yicha 70 mln tonna baliq ovlangan edi. Hozir esa ancha oshib ketdi. Dengiz mahsulotlarining soni ham ko'payib bormoqda. 2000-yilda ularning hajmi 130—135 mln tonnaga yetkazilishi kutilgan edi.

Dunyo okeani zaxiralaridan foydalanish kabi koinotni o'zlashtirish masalalari ham insoniyat oldidagi global muammolardan hisoblanadi. Bu *birinchidan*, koinotiy tadqiqotlarning qimmatlashuvi bo'lsa, *ikkinchidan*, koinot butun insoniyatning mulki deb tan olinganidir. Kishilarning koinotga kirib borishi, uni o'rGANISHI ham XX asrdagi fan va texnika taraqqiyoti asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib qoldi.

Koinotni o'zlashtirish muammolari global bo'lgani uchun barcha mamlakatlarning kuch-g'ayratlarini birlashtirib, undan butun insoniyat manfaatlari yo'lida foydalanishi lozim. Koinotiy nazariyalar sohasida ham dunyo olimlari o'rtasida bir-birini istisno qiladigan turli qarashlar mavjud. Ular o'rtaga qo'ygan fikrlarga ko'ra, koinotni o'zlashtirish uchun sarflanadigan mablag'lardan okean va quruqlikdagi og'ir ekologik vaziyatni bartaraf etish, yuraktomir va rak kasalliklarini davolash kabi masalalarni hal etishda foydalanish lozim. Bu nuqtayi nazar tarafдорлари koinotni tadqiq etish xarajatlarining yuqoriligidiga e'tibor beradilar. Shuningdek, koinotdan harbiy maqsadlarda foydalanish xavfi ham bu qarashlarda hisobga olingan.

Ikkinchi xil qarashlarga ko'ra, koinotni o'zlashtirish zarur, chunki uning yordamida tarixiy taraqqiyotning borishi bilan yuzaga kelgan vazifa va muammolarni yechish mumkin. Bu qarashlar sirdan qaraganda, sof ilmiy munozaralardek bo'lib ko'rindi. Lekin ularning zaminida koinotni o'zlashtirishda yetakchilik qilayotgan davlatlarning siyosiy, iqtisodiy manfaatlari yotadi. Hozirgi asosiy vazifa — koinotni o'zlashtirishni butun insoniyatning manfaatlari, imkoniyatlari va ehtiyojlari bilan uzviy bog'lashdadir. Boshqa barcha global muammolarni o'rGANISHDA ham shu maqsadlardan kelib chiqmoq kerak.



VII BO'LIM

FALSAFANING GNOSEOLOGIK MUAMMOLARI

Faylasuflar barcha davrlarda ham olamni bilish nihoyatda murakkab jarayon ekanini, uning har bir bosqichi kishilarning hayotiy ehtiyojlari, davr imkoniyatlari bilan bog'liq bo'lganini ko'rsatib kelganlar. Bilish obyektiv olam hodisalarini ma'lum ehtiyoj va manfaatlardan kelib chiqib: *aqliy tahlil qilish, fikrda umumlashtirib muayyan, amaliy ahamiyatga ega bo'lgan xulosalarga kelishdir.* Shu sababli bilish jarayonini amaliyotdan, inson va jamiyatning har bir davrdagi manfaatlardan ajratib bo'lmaydi. VIII—IX asrlarda yashagan buyuk vatandoshimiz Abu Abdulloh Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy o'zining mashhur „Aljabr va al-muqobala..“ kitobi yozilishining sabablari ustida to'xtalib, bu asar meros taqsim qilish, vasiyatnama yozish, mol taqsimlash, adliya ishlarini yuritish, yer o'lchash, turli bitimlar tuzish bilan bog'liq masalalarni hal etish zaruriyati bilan izohlanishini ko'rsatgan edi.

Olamni bilish, barcha bilimlardan amaliy faoliyatda foydalaniш inson ijtimoiy, ma'naviy kamolotining negizidir. Roziy Abu Baš ir Muhammad Zakariy aytganidek, „*foydali bo'lgan ishlarda o'zimiz xulosa chiqarishimiz uchun bizga hayvonlarga nisbatan ustunlik - aql berilgan. Aql orqali biz o'zimizni ulug'lovchi, ziynatlovchi va hayotimizni xayrli qiluvchi hamma narsani bila olamiz. Aql bilan o'z xohish, istaklarimizga yetamiz. Darhaqiqat, biz aql bilan kemasozlik fanini bilib olamiz. Aql yordamida o'z tanalarimizge juda ko'p xayrli va shunga o'xshash foydali san'atni o'zida mujassam qilgan tabobatni o'rjanamiz. Aql yordamida Yerning shakli, Quyosh va Oyning kattaligi, yulduzlar harakati, ularning uzoqligi va yo'nalishini bilamiz.*“

Forobiy esa aqlli deb fazilatli, o'tkir muhokamali, yaxshi, ezgu ishlarga berilgan, zarur va foydali narsalarni ixtiro eta oladigan, yomon ishlardan o'zini chetga olib yuradigan kishilarni aytgan edi.

Xo'sh, aql vositasi, kuchi bilan olamni bilish qanday amalgaloshadi?

1-§. Bilish jarayonining falsafiy tahlili

Insonning o'zini anglashi, atrofini qurshagan dunyoga munosabatlardan biri — bilishdir.

Falsafa paydo bo'lgan paytdan boshlab, inson bilishning tabiatini **va mohiyatini** nima tashkil qiladi, uning eng umumiy qonuniyatları **va xususiyatlari** nimalardan iborat, degan savollarga javob qidirib **va imkon** doirasida izohlab keldi. Shu sababli, inson bilishining falsafiy **muammolari** bilan shug'ullanmagan birorta ham oqim, birorta ham **faylasuf** yo'q.

Bir guruh faylasuflar insondan, uning ongidan tashqari **dunyo** mavjud emas, u faqat bizning ongimizda, bizning sezgi va **idrok**larimiz yig'indisi (kompleksi yoki kombinatsiyalari)dan iborat, **xolos**, binobarin, biz o'z sezgi va idroklarimiznigina bila olamiz, **degan** fikrlarni bildirishganlari ma'lum.

Boshqa bir guruh faylasuflar esa insonning dunyoni va o'zini **bilishiga** shubha bilan qaraydilar, inson dunyoni to'liq bilolmaydi **deyishib**, inson bilishini cheklaydilar yoki dunyoni bilishni butunlay **inkor** qiladilar. „*Skeptitsizm*“ ta'limoti vakillari inson bilishining **nisbiyligi**, uning turli sharoitlar va vaziyatlar bilan bog'liq ekanligini **aytishib**, hamma e'tirof qiluvchi, isbot talab qilinmaydigan inson bilimlarining bo'lishi mumkinligiga shubhalanadilar.

Dunyoni bilishni qisman yoki butunlay inkor qiluvchi falsafiy **ta'limot** bo'lgan *agnostitsizm* vakillari inson dunyoni bilishga qodir **emas**, degan g'oyani ilgari suradilar. Xususan, nemis faylasufi **I. Kant** esa, insondan va uning ongidan tashqarida obyektiv borliqning mavjudligini e'tirof qilgan holda, undagi predmet va hodisalarini „*narsalar biz uchun*“ va „*narsalar o'zida*“ga bo'ladi. Uning qarashicha, „narsalar biz uchun“ni inson bila oladi, „narsalar o'zida“ni esa inson bila olmaydi. Kantning „narsalar biz uchun“i, bu — insonni qurshab turgan predmetlar va hodisalar, shu jumladan, tabiat ham. „Narsalar o'zida“ esa: erkinlik, o'lmashlik, Xudo va shu kabilardir. Ularni inson hech qachon to'liq bila olmaydi.

Ilm va fan yutuqlariga asoslangan faylasuflar esa, insonning dunyoni va o'zini bilishini doimo e'tirof etib kelganlar. Qadimgi yunon faylasuflari inson dunyoni va o'zini bilishi, haqiqatga erishishi mumkin, deyishgan. Ular hissiy va aqliy bilishning roli haqida ham qimmatli fikrlar aytishgan.

O'rta Osiyo mutafakkirlari Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Navoiylar ham insonning dunyoni va o'zini bilish masalasi haqida to'xtalib, inson tabiat va jamiyatni hamda o'zini bilishga qodir, inson bilishi sezgi va idroklardan boshlanib, tafakkurga tomon rivojlanib boradi, inson aqli—faol, u bilishning asosiy quroolidir, deyishadi. Ular inson bilishi ma'lum narsalardan noma'lum narsalar tomon rivojlanib boradi, deb ko'rsatishgan.

Tasavvuf falsafasi vakillari o‘z qarashlarida insonning **hissiy** bilishi tashqi bilishni, aqliy bilish esa ichki bilishni tashkil **qilishini** aytishib, ularning o‘zaro bog‘liqligini ham uqtirganlar. Shu **bilan** birga, ular inson dunyoni va o‘zini bilishi uchun ma’naviy kamolotga erishish quruq intilish bilan emas, balki o‘qish, o‘rganish, bilmirlarni va hunarlarni egallash, jamiyatda boshqa kishilar bilan o‘zaro **mulo-** qotda va munosabatda bo‘lish orqali yuzaga keladi, deyishadi.

XVII—XVIII asr Yevropa faylasuflari ham insonning **dunyoni** va o‘zini bilishi haqida qimmatli fikrlarni bildirishadi. **Masalan**, ingliz faylasufi **F.Bekon**, inson bilishi sezgilardan boshlanadi, bilishning manbayi *tajribadir*, sezgilar orqali olingan dalillarni inson tafakkur yordamida qayta ishlab chiqadi, deydi. U inson bilish jarayoni fan va amaliyot bilan bog‘liq ekanligini, ularga **xizmat** qilishi lozimligini aytadi. Fransuz faylasufi **Dekart** esa, insonning dunyoni va o‘zini bilishi masalasi haqida to‘xtalib, birdan-bir to‘g‘**‘** bilish — *tafakkurdir*, deydi. U inson bilish jarayoni fan va amaliyot bilan bog‘liq ekanligini, ularga xizmat qilishi lozimligini ham aytadi.

Didro, Golbax, Gelvetsiy, Volter va **Lammetriylar** esa, insonning borliqni bilishi masalasida fikr yuritishib, sezgilar tafakkurning asosi ekanligini, ular inson bilishining quyi, **boshlang‘ich bosqichi**, tafakkur esa eng yuqori, murakkab **bosqichi** ekanligini aytishadi.

Nemis klassik falsafasining vakili **Gegel**, inson bilishini mutlaq ruhning inson qiyofasida o‘z-o‘zini anglashidir, deydi. Uning so‘nggi vakili L.Feyyerbax esa insonning dunyoni bilishini e’tirof etib, dunyo insondan va uning ongidan tashqarida mavjud, inson bilishi tabiatning, uning sezgilari va tafakkuridagi to‘g‘ri in’ikosi ekanligini aytadi. *Insonda*, deydi u, *dunyoni bilish uchun qancha sezgi a’zosi kerak bo‘lsa, shuncha sezgi a’zolari bor*.

Bulardan tashqari, XVII—XIX asrlarda *intuitiv*¹ bilish **haqidagi** ta’limotlar ham kelib chiqdi.

Xullas, XIX asrning o‘rtalarida yashab o‘tgan faylasuflar insonning dunyoni va o‘zini bilishini turlicha tushunib va tushuntirib keldilar. ularning deyarli ko‘pchiligi „*Inson bilishi nima?*“ degan savolga aniq javob bera olmay, inson „*bilish jarayoni*“ni bir tomonlama tushuntirdilar.

¹ *Intuitsiya* (lot. *Intuiri* — so‘zidan olingan bo‘lib, bevosita bilish, bevosita payqash, degani) — mantiqiy muhokama qilmasdan, to‘satdan sodir bo‘luvchi g‘ayriaqliy bilishni ifodalovchi tushuncha.

XIX asr o‘rtalarida fan va amaliyot taraqqiyoti asosida „*bilish*“ jarayonini ilmiy tahlil etishning yalpi imkoniyatlari yuzaga keldi. Bu davrlarda yuzaga kelgan falsafiy ta’limotlarning ayrim vakillariga ko‘ra, ijtimoiy amaliyot bilishning asosi, maqsadi, harakat-lantiruvchi kuchi va haqiqatning mezonidir, deb qaraladi.

Bilishning yalpi falsafiy nazariyalariga ko‘ra, insonning dunyoni va o‘zini bilish imkoniyati va darajasi, avvalo, ijtimoiy sharoitga, ishlab chiqaruvchi kuchlar va ularning ehtiyojlariga, ishlab chiqarish munosabatlarning darajasiga bog‘liqdir. Turli ijtimoiy-iqtisodiy davrlardagi kishilarning bilish darajasi fan taraqqiyoti, texnika rivojining darajasi va ko‘lami, jamiyat ishlab chiqarish usuli qo‘yan vazifalari bilan belgilanadi. Inson dunyoni va o‘zini bilish bilan cheklanmaydi, balki bu bilish natijasida hosil qilgan bilimlari orqali tabiat va jamiyatni, dastavval, o‘zini, o‘z ongini, o‘z ma’naviy dunyosini o‘zlashtiradi va o‘zgartiradi.

Insonning bilish qobiliyati, imkoniyatlari, umuman olganda, cheklanmagan. Uning bilish imkoniyatlari fanlarning va amaliyotning rivojlanishi bilan yanada ortib boradi. Insonning bilishi faqat konkret avlod hayoti uchungina cheklangan, xolos. Lekin butun insoniyat hayoti uchun cheksizdir, inson cheksiz dunyoni cheksiz bila boradi. Dunyoda inson bilib olgan va hali bilib ulgurmagan narsalar va hodisalarning tomonlari, xususiyatlari bor, xolos.

2-§. Bilishning subyekti va obyekti. Bilishning turlari

Xo‘s, inson bilishining subyekti va obyekti nima? Ularning o‘zaro munosabatlari qanday?

Bilishning subyektini borliqdagi predmet va hodisalar bilan bevosita yoki bavosita, muayyan tabiiy va ijtimoiy munosabatlarda bo‘luvchi, jamiyatning aniq bosqichiga xos, ijtimoiy mohiyatga ega bo‘lgan aniq bir kishi yoki kishilar guruhi tashkil qiladi. Bilishning obyektini esa, subyektning bilish doirasiga kirgan, uning bilishi qaratilgan borliqdagi aniq predmetlar, hodisa va jarayonlar tashkil etadi.

Bilishning subyekti va obyekti bilan bir qatorda, bilishning predmeti ham mavjuddir. Bilishning predmeti — bilish obyekti, subyektining bilish faoliyati doirasiga kirgan tomonlari, xususiyatlari va munosabatlardir.

Bilishning subyekti, obyekti va predmeti o‘zgarmas, qotib qolgan narsalar emas, balki bilish jarayonida ular doimo o‘zgarib boradi. Shu bilan birga, ma’lum bir vaqtdagi va muayyan bir

makondagi subyekt va obyekt boshqa vaqt va boshqa makonda subyekt va obyekt munosabatida bo‘lmasligi mumkin. Insonning bilishi jarayonida subyekt bilishi zarur bo‘lgan obyektni **bilib** olgach, bu obyekt subyektning bilish doirasidan chiqariladi va u endi bilishning obyekti bo‘lmay qoladi. Insonning bilishi ana **shu** „subyekt—obyekt—predmet“ munosabatlari asosida yuzaga keluvchi ijtimoiy-tarixiy jarayondir. Inson bilishining tabiatini ayni shu „subyekt—obyekt—predmet“lar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish asosida to‘g‘ri tushunish mumkin. Bunda **doime** subyektning faolligi muhim rol o‘ynaydi. Bilishda subyektning faolligi, uning muayyan maqsadga qaratilgan amaliy-ijtimoiy bilish faoliyatida namoyon bo‘ladi. Chunki, inson borliqni **faqat** bilib olish uchungina o‘rganmaydi, balki borliq va **uning** qonunlarini bilib olishi bilan tabiatga va jamiyatga hamda o‘ziga faol ta’sir ko‘rsatib, tabiatni, jamiyatni va o‘zini o‘zgartirib **boradi**. Bu — inson bilishining amaliyot bilan chambarchas **bog‘liq**-ligini ko‘rsatadi. Aslida, inson bilishi uning hayoti jarayonidagi amaliy faoliyati asosida vujudga keladi. Inson o‘z amaliy va **nazariy** faoliyati jarayonida borliq va uning qonunlarini hamda o‘zini **bilib** boradi.

Inson bilishini shartli ravishda bir necha turlarga **bo‘lib** o‘rganish mumkin: dastlab, inson bilishini unda borliq **qanday** holda in’ikos etganligiga qarab, oddiy (kundalik) va ilmiy bilishlarga ajratish mumkin.

Oddiy (kundalik) bilish kishilarning kundalik hayotlarida borliqdagi predmet va hodisalarini bevosita o‘z sezgi a’zołari va tafakkurlari orqali bilishdir. U kishilarning kundalik hayotiy tajribalari, malakalari va amaliy ishlari orqali hosil bo‘lib, **odatda**, „sog‘lom fikrlar“da o‘z ifodasini topgan bo‘ladi. Oddiy bilish hamma kishilarga xos bilishdir.

Ilmiy bilish esa, oddiy (kundalik) bilishdan farqlanib, **borliq**-dagi predmet va hodisalarning qonuniyatlarini, ularning **mohiyatini** bilishdir. Ilmiy bilish, odatda maxsus ilmiy tadqiqotlar olib **borish** asosida amalga oshadi, ya’ni bu ish bilan hamma kishilar emas, balki bir guruh yoki alohida kishilar: tadqiqotchilar, olimlargina shug‘ullanadilar. Bundan tashqari, ilmiy bilish uzoq davom etadigan, muayyan usullar va yo’llar bilan amalga oshiriladigan murakkab, ziddiyatli jarayondir.

Bilishni *hissiy, mantiqiy intuitiv, g‘oyibona* kabi ko‘rinishlarga ajratish maqsadga muvofiqdir.

Hissiy bilish deyilganda, odatda, insonning his qilishi, sezgi a'zolari orqali predmet va hodisalarni, ularning tashqi tomonlarini, tashqi belgi va xususiyatlarini bevosita bilish tushuniladi. Insonning bu bilishi, deyarli hayvonlarga ham xos, lekin ular tub farqlarga ham ega.

Mantiqiy bilish esa insonning predmet va hodisalarni tafakkur orqali umumlashtirib, mavhumlashtirib va konkretlashtirib, ularni fikrda bilishidir.

Intuitiv bilish esa, odatda kishi biror narsa yoki hodisa haqida muayyan tasavvurlar va bilimlarga ega bo'lgan, uning fikri ma'lum muammo yoki masalani yechishga yo'naltirilgan, shu asosda o'z fikrini rivojlantirayotgan bir paytda ro'y beradi. Intuitiv bilish inson bilish jarayonining muhim jihatini tashkil qiladi va uning borliqni bilishida muhim rol o'ynaydi. Intuitiv bilish hissiy va mantiqiy bilishlardan farq qilib, o'z tabiatiga ko'ra, hech bir bevosita hissiy idroksiz va mantiqiy muhokamasiz yangi tasavvur yoki yangi fikrning birdaniga, kutilmaganda tug'ilishidir.

Fanda uzoq davr intuitiv bilishning mexanizmi ma'lum bo'lmay keldi. Shu sababli intuitiv bilish haqida har xil qarashlar, har xil yondashishlar, turli-tuman ta'limotlar paydo bo'ldi. Ba'zilar intuitiv bilishni ilohiylashtirib, uni **faqat** buyuk va mumtoz kishilargagina xos, degan fikrni bildirgan bo'lsalar, boshqalari faqat ijodiy jarayonga, ya'ni ilmiy kashfiyotlar, ixtiolar va badiiy ijod jarayoniga xos, degan qarashlarni ilgari surdilar. Ularning nuqtayi nazaricha, intuitiv bilish, bu — ijodiy jarayonda fikrning rivojlanishida eski fikrdan yangi fikrga o'tish, ya'ni sakrashdan iboratdir. Yana bir guruh tadqiqotchilarning fikricha, intuitiv bilish — badiiy ijod bilan bog'liq, yangi g'oyaning tug'ilishidir. Haqiqatan ham, intuitiv bilish insonning ijodiy faoliyatini bilan bog'liq bo'lib, bunda tadqiqotchi yoki ijodkorning butun fikri-zikri biron narsa bilan qattiq band bo'lgan paytda, uning miyasiga hech kutilmaganda biror yangi fikr, yangi g'oya birdan, to'satdan kelib qolishi mumkin.

Intuitiv bilish, aslida inson bilish jarayonining bir jihat sifatida, faqat ijodiy jarayonga xos bo'lmasdan, balki insonning oddiy kundalik amaliy bilish faoliyatiga ham xosdir. Intuitiv bilish inson bilishining boshqa shakllari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularni to'ldiradi.

Qadimdan *g'oyibona bilish* haqida ham turli fikrlar mavjud. G'oyibona bilish inson bilishining shunday turiki, bunda kishi uzoq masofadan turib sodir bo'lgan yoki bo'ladigan hodisa va

voqeani bilish, his qilish, bu hodisa va voqeaning qanday sodir bo‘lishi unga ayon bo‘ladi. Kishilar biron ishni qilmoqchi bo‘lsalar, bu ishning natijasi haqida oldindan „shunday bo‘lishi kerak, bunga men qat’iy ishonaman“, „shunday bo‘ladi, deb o‘ylayman“ yoki „oldindan yuragim sezgandi“, „oyog‘im tortmagandi“, „negadir ko‘nglim g‘ash“ degan fikr-mulohazalarni aytishadi.

G‘oyibona bilishning hozircha mexanizmi fanga ma’lum emas. Shu sababli, ko‘pincha, g‘oyibona bilishni kishilar ilohiylashtirib, bunday bilish faqat aziz-avliyolarga, alohida, g‘ayritabiyy xususiyatlarga ega kishilarga xos, deb qarab kelishmoqda.

Inson bilishini ijtimoiy hodisalar bilan bog‘lanishiga ko‘ra: *mifologik, diniy, falsafiy, badiiy-estetik* bilishlarga ajratish ham mumkin, ular bilish sohalarining turli tomonlarini tashkil qiladi.

3-§. Bilishning asosiy bosqichlari: hissiy va mantiqiyl bilish

Inson bilishi hissiy bilishdan — aqliy bilishga, jonli musho-hadalardan — abstrakt tafakkurga tomon va, aksincha, yo‘nalishlardan iborat dialektik jarayon hisoblanadi. Bundagi hissiy va aqliy bilish bir-birlari bilan chambarchas bog‘liq ikki: „quyi“ va „yuqori“ bosqichlaridir.

Hissiy bilish — inson bilishining dastlabki birinchi bosqichi bo‘lib, inson bilish jarayoni ayni shu bilishdan boshlanadi. Natijada, miyada predmet va hodisalarning belgilari, signallari va hissiy obrazlari hosil bo‘ladi.

Hissiy bilish bosqichi: *sezgi, idrok va tasavvur* kabi shakllarda sodir bo‘ladi.

Sezgi — hissiy bilishning dastlabki shakllaridan bo‘lib, borliqni bilishning o‘ziga xos ko‘rinishidir. **Sezgi va sezgilar insonning sezgi a’zolarida borliqdagi predmet va hodisalarning bevosita yoki bilvosita ta’siri natijasida yuzaga keladigan hissiy obrazlardir.** Sezgilarni hosil qiluvchi sezgi a’zolari insonda tashqi va ichki holatlarda joylashgan bo‘lib, ular: ko‘rish, ta’m bilish, teri sezgisi va eshitish sezgi a’zolaridir, qolganlari ichki sezgi a’zolari hisoblanadi. Bu sezgi a’zolari insonning borliqni bilishida o‘ziga xos vosita bo‘lib, ular orqali predmet va hodisalar haqidagi dastlabki ma’lumotlar inson miyasiga qabul qilinadi. Inson sezgi a’zolari orqali borliqdagi predmet va hodisalarning tashqi belgi va xususiyatlarini bilib oladi.

Biroq, his qilish va sezgilar insonning borliqni bilishi uchun yetarli emas. Buning uchun inson o‘zining hissiy bilishida his

qilish va sezgilar shakllarida hosil qilgan ma'lumotlarini to'plab, umumlashtirib, ularni bir butun holda in'ikos ettirishi lozim. Hissiy bilishning bunday yangi shakli *idrokdir*.

Idrok — borliqdagi predmet va hodisalarini yaxlit holda, bir butun ko'rinishda, ularning hamma asosiy tashqi belgi va xususiyatlarini umumlashtirgan holda in'ikos ettiruvchi hissiy bilishning nisbatan yuqoriq shaklidir. Idrok — predmet va hodisalarining bir butun yaxlit hissiy obrazdir. U his qilish va sezgilar shakllaridagi obrazlarni jamlab ifodalovchi xususiyatga ega. Biroq, insonning hissiy bilishi idroklar shakllarida yuzaga kelgan hissiy ma'lumotlar inson miyasida qayta ishlanib, hissiy bilishning yangi, yuksak shaklini hosil qiladi. Bu — *tasavvurdir*.

Tasavvur — ilgari idrok etilgan, ammo, ayni vaqtida, bevosita idrok etilmayotgan predmet va hodisalarning inson miyasidagi qayta ishlanib, tiklangan hissiy obrazdir. Tasavvurning o'ziga xos xususiyati shundaki, u borliqdagi predmet va hodisalar bilan, ayni vaqtida, bevosita bog'lanishda bo'limgan holda ularning ilgarigi paydo bo'lган obrazlari asosida qayta tiklanishidir. Ammo inson o'z tasavvurida, shu bilan birga, oldin idrok etilgan predmet yoki hodisaga, ularga o'xshash yangi predmet va hodisalarning hissiy obrazlarini ham hosil qilishi mumkin.

Hissiy bilishning tasavvur shaklida predmet va hodisalarning ikkinchi darajali, muhim bo'limgan xususiyatlari tashlab yuborilib, faqat ayrim muhim xususiyatlarigina in'ikos etgan bo'ladi. Shu tufayli, tasavvur predmet va hodisalarini umumlashtirgan, mavhumlashtirgan darajada aniq hissiy shaklida in'ikos ettiradi. Bu jihatdan tasavvurda, hech shubhasiz, tafakkurning ba'zi elementlari paydo bo'ladi. Lekin, u hali hissiy bilish chegarasidan chiqib ketmagan bo'ladi.

Umuman olganda, insonning hissiy bilishi, ma'lum darajada, cheklangan, bir tomonlama, to'liq bo'limgan bilishdir. Inson borliqdagi predmet va hodisalarning ichki tomonlarini, ularning o'zgarish va rivojlanish qonunlarini, bir so'z bilan aytganda, ularning mohiyatini faqat *mantiqiy bilish* orqaligina bila oladi.

Mantiqiy bilish — predmet va hodisalarning mohiyatini bilishdir. Insonning borliqni aqliy bilishi — bu uning tafakkuri orqali borliqdagi predmet va hodisalarini fikr shakllarida bilishdir. Aqliy bilish — borliqdagi predmet va hodisalarning inson miyasidagi umumlashgan, mavhumlashgan va konkretlashgan fikriy ifodalanishidir.

Mantiqiy bilishda inson tafakkuri borliqdagi predmet va hodisalarining ichki bog'lanishlari va aloqadorliklarini, ularning harakat, o'zgarish va rivojlanish qonunlarining ma'lum fikr shakllari — *hukm*, *tushuncha* va *xulosalarda* ifodalaydi. Bunda hissiy bilish obrazlari tafakkur uchun material bo'lib xizmat qiladi. Tafakkur o'zida hissiy bilish bergan ma'lumotlarni qayta ishlab, ularni umumlashtirib, mavhumlashtirib, ayni bir vaqtda, aniqlashtirib, analiz va sintez qilib, aniqlikdan mavhumlikka va yana undan aniqlikka keltirib, ma'lum hukmlar, tushunchalar va xulosalarni hosil qiladi. Tafakkur hosil qilgan aqliy bilishning bu fikriy shakllari tilda so'zlar va gaplarda ifodalanadi.

Aqliy bilishning dastlabki shakli hukmlardir.

Hukm — mantiqiy bilishning shunday fikriy shakli, unda borliqdagi muayyan predmet va hodisalar, ular o'rtasidagi bog'lanish va aloqadorliklar haqida tasdiq yoki inkor fikr ifoda lanadi-yu, inson o'z tafakkurida bir yoki bir necha hukmlarni mantiqiy o'zaro bog'lab, turli usullar asosida ularning eng muhim xususiyatlarini ajratib olib, biror tushuncha hosil qiladi. Mantiqiy bilishning navbatdagi shakli *tushunchadir*.

Tushuncha — predmet va hodisalar, ularning muhim va zaruriy belgi va xususiyatlarining umumlashtirilgan, mavhumlashtirilgan va, ayni choqda, aniqlashtirilgan fikriy obrazidir. Masalan, „Inson“ tushunchasini olaylik. Bu tushuncha hamma kishilik jamiyatiga xos bo'lgan, mehnat qiluvchi, mehnat qurollari va mehnat vositalarini yaratuvchi hamda ular asosida moddiy va ma'naviy ne'matlarni ishlab chiquvchi, ong, tafakkur, til va nutq kabi muhim va zarur belgi va xususiyatlarga ega bo'lgan bioruhiy ijtimoiy mavjudotning fikriy ifodasidir.

Xulosa chiqarish esa, mantiqiy bilishning shunday shakli, unda bir yoki bir necha hukmlar asosida yangi hukm — yangi fikr hosil bo'ladi.

Shunday qilib, insonning bilish jarayoni hissiy bilish shakllari: his etish, sezgi, idrok va tasavvurlardan boshlanib, aqliy bilish shakllari: *hukm*, *tushuncha* va *xulosa chiqarish* shakllarida tafakkurda qayta ishlanib, bilishning „quyi“ bosqichidan „yuqori“ bosqichi tomon ko'tarilib boradi.

4-§. Haqiqat to'g'risidagi falsafiy ta'limotlar.

Haqiqatning mezoni

Insonning borliqni bilishidan asosiy maqsadlaridan biri — haqiqatni bilishdir.

Xo'sh, haqiqat nima? Haqiqat to'g'risidagi falsafiy ta'lifot nimadan iborat?

Haqiqat masalasini ilmiy asosda hal qilishning yagona yo'li — bu inson bilimlari bilan obyektiv borliqdagi real predmet va hodisalar o'rtaqidagi munosabatlarni ilmiy asosda yoritib berishdir.

Haqiqat — inson bilimlarida borliqning to'g'ri in'ikos etishi, predmet va hodisalar asli qanday bo'lsa, ularni inson o'z miyasida xuddi shunday in'ikos ettirgan bilimlardir. Haqiqat — borliqdagi predmet va hodisalar yoki belgi va xususiyatlarning o'zi emas, balki ular haqidagi inson bilimlarining o'sha predmet va hodisalarga, ularning belgi va xususiyatlariga mos kelishidir. Bu jihatdan haqiqat o'zi ifodalangan bilimlarning mazmuniga ko'ra subyektga, ya'ni biluvchi inson va insoniyatga bog'liq bo'lmasada, lekin u o'z ifodalanish shakli jihatdan subyektga bog'liq bo'ladi.

Haqiqatni bilish—murakkab jarayon. Bizning borliq haqidagi bilimlarimiz birdaniga, tayyor holda yuzaga kelmaydi. Biz predmet va hodisalarning avval tashqi tomonlarini, so'ngra esa ichki tomonlarini bilib boramiz. Bunda bizning bilimlarimiz nisbiy haqiqatlardan mutlaq haqiqatga tomon boradi.

Nisbiy haqiqat — bizning borliqdagi predmet va hodisalar to'g'risidagi taxminan to'g'ri, lekin to'liq bo'lmasan, bilish jarayonimizda tuzatilib, to'ldirilib borishi lozim bo'lgan bilimlarimizdir.

Mutlaq haqiqat esa — borliqdagi predmet va hodisalar haqidagi to'liq, aniq, mukammal bilimlardir. Bunday bilimlar inson tafakkurining obyektiga cheksiz yaqinlashib borishi asosida, cheksiz nisbiy haqiqatlarning jami sifatida qaror topadi. Bu jihatdan nisbiy va mutlaq haqiqatlar o'zaro chambarchas bog'liqdir, ular bir-birlaridan ajralmasdir. Har qanday mutlaq haqiqat nisbiy haqiqatlarning cheksiz birligidan yuzaga keladi. Har bir nisbiy haqiqatda esa, mutlaq haqiqatning zarrasi, ulushi mavjud bo'ladi. Shu asosda inson bilishi nisbiy haqiqatlardan mutlaq haqiqatga cheksiz yaqinlashib boradi. Bilimlar taraqqiyotida mutlaq haqiqat konkretlashadi. Ilm-fan taraqqiyotida har bir yangi bosqich, nisbiy haqiqatlar sifatida, mutlaq haqiqatning mazmuniga yangi-yangi zarralar qo'shib boradi. Borliq bepoyon va cheksiz bo'lgani kabi, insonning uni bilishi ham cheksizdir. Nisbiy haqiqatlarning mutlaq haqiqatga cheksiz yaqinlashib boruvchi chegaralari tarixan shartli bo'lsa ham, lekin bu mutlaq haqiqatning mavjudligi shubhasizdir.

Inson bilimlarining rivojlanishi hamma vaqt silliq va oson kechavermaydi. Bilishda haqiqat sari qo'yilgan har bir qadam fikrlar va qarashlarning keskin kurashlari jarayonida ro'y berib, unda avvalgi erishilgan bilimlar va qarashlar har doim cheklangan topilib, ularning o'rnini to'laroq, mukammalroq bilimlar va qarashlar egallaydi.

Shu bilan birga, haqiqat mavhum ham emas, balki aniq bilimlardir. O'zgarmas, qotib qolgan bilimlar yo'q, inson bilimlari doimo o'zgarib boradi. Ayni bir vaqtida, ayni bir nisbatda haqiqat bo'lgan bilim boshqa bir vaqtida va boshqa bir nisbatda haqiqat bo'Imasligi mumkin. Bu shuni ko'rsatadiki, bilimlarimizning haqiqatligi, ular ifodalagan mazmunning o'zgarishi bilan o'zgarib boradi. Har bir bilimning haqiqatligi ma'lum joyga, o'ringa, vaqt va vaziyatga, kishi bilishining imkoniyatiga va darajasiga bog'liq bo'ladi. Bilimning haqiqatligini aniqlashda, unga ma'lum aloqadorlik va bog'lanishlardan kelib chiqib, aniq sharoit, joy, vaqt va ma'lum vaziyatni hisobga olgan holda yondashmoq kerak.

Hamma zamonlar, makonlar, davr va har qanday sharoitda ham to'g'ri bo'ladigan, o'zgarmaydigan haqiqatlar yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Shuning uchun haqiqatning aniqligini hisobga olish, inson faoliyatining hamma sohalarida juda katta ahamiyatga ega. Bilish jarayonida nisbiy va mutlaq haqiqatlar dialektikasini to'g'ri tushunmaslik, haqiqatning aniqligini hisobga olmaslik, bilish nazariyasi sohasida ikkita yanglish qarashga, ya'ni dogmatizm va relyativizmga olib keladi.

Dogmatizm — insonning borliqni bilishida bilimlarning mutlaq tomonlarini bo'rttirib, ularning nisbiy tomonlarini inkor etishdir. U faqat mutlaq haqiqatni e'tirof etib, bilimlarga o'zgarmas, qotib qolgan deb qaraydi. Bunday qarash insonning borliqni bilishiga, uni amaliy va nazariy o'zlashtirish va o'zgartirishiga to'sqinlik qiladi.

Relyativizm esa, bilimlarning nisbiy tomonlarini mutlaqlashdirib, inson bilimlari faqat nisbiy haqiqatlardan iborat, deb qarashdir. U mutlaq haqiqatni butunlay inkor qiladi.

Inson qadimdan boshlab o'z bilimlarining haqiqatligini, ularning xatolardan farqini ajratuvchi mezonnei topishga harakat qilib kelgan. Shu sababli falsafada bilimlarning haqiqatlik mezoni muammosiga doir turlicha qarashlar paydo bo'lgan. Bunday qarashlarning dastlabkisi bu — haqiqatning formal *mantiq mezonidir*. Bu mezonga ko'ra, bilim haqiqat bo'lishi uchun bu bilimni ifodalovchi fikr ikkinchi biror fikrga muvofiq kelishi yoki bu bilim boshqa bilimdan zaruran mantiqiy kelib chiqishi lozim.

Bilimlarning haqiqatligi yoki xatoligi kishilarning amaliy faoliyatida ma'lum bo'ladi. Haqiqat bo'lmagan bilimlar inson faoliyatini muvaffaqiyatsizlikka olib keladi. Shuning uchun har qanday yangi bilimning haqiqat ekanligi amaliyotda tekshirib ko'rildi. Amaliyot insonning bilish jarayonida hosil bo'lgan har bir bilimning haqiqatligini tasdiqlash bilan birga, bu bilimning cheklanganligini, bir tomonlamaligini, xato yoki g'ayriilmiyligini ham aniqlab beradi. Amaliyot ham inson bilimlarining haqiqatligi mezoni sifatida mutlaq emas. Sababi: inson bilimlarining haqiqatligi yoki xatoligi amaliyotda tasdiqlanishi to'liq bo'lmaydi. Shuning uchun barcha davrlarda inson bilimlarining sohalarida hali haqiqatligi to'la tasdiqlanmagan yoki xatoligi to'la aniqlanmagan ko'pgina gi potezalar mavjud bo'ladi, ular kelgusi avlodlar tomonidan tuzatilib, to'ldirilib, tasdiqlanib yoki rad qilinib boriladi. Shu boisdan, ma'lum sharoitlarda inson erishgan bilimlarning haqiqatligi amaliyotda tasdiqlanishi yoki xatoligi isbotlanishi mumkin. Bu muddat bir necha o'n yil, bir necha yuz, hatto minglab yillarni o'z ichiga olishi ham mumkin.

Lekin, shunga qaramasdan, amaliyot haqiqat mezoni sifatida insonning to'g'ri bilimlarini xato bilimlaridan farq qilishda katta ahamiyatga ega.

5-§. Ilmiy bilish va uning usullari

Fanlar ilmiy bilishning shakllaridir. Fanlar borliq va uning turli ko'rinishlari: tabiat, jamiyat, inson tafakkuri to'g'risidagi ilmiy bilish jarayonida yuzaga kelgan bilimlar tizimlaridan iboratdir. Ular insonning borliqni bilishi, o'rganishi va o'zlashtirishining o'ziga xos nazariy shakllari bo'lib, o'zlarida moddiy va ma'naviy omillarni birlashtiruvchi ko'p qirrali ijtimoiy hodisalar.

Fanlarning predmeti, keng ma'noda, insonni qurshab turgan borliq va uning shakllaridir. Shu jihatdan fanlarni ularning predmetlariga ko'ra, shartli ravishda: *tabiatshunoslik*, *jamiyatshunoslik* va ularning o'rtasidagi *texnika fanlariga* bo'lish mumkin.

Tabiatshunoslik fanlari tabiatni bilish, o'zlashtirish va o'zgartirish qonunlarini o'rganadi.

Jamiyatshunoslik fanlari esa, ijtimoiy munosabatlarni, insonni va uning jamiyatda tutgan o'rmini, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotini o'rganadi.

Texnika fanlari bo'lsa, inson tomonidan ixtiro qilingan mashina va mexanizmlar, ularning tuzilishi, qurilishi va ish faoliyatining qonuniyatlarini o'rganuvchi fanlardir. Texnik fanlar-

ning vazifasi insonni texnika qurilmalari haqidagi bilimlar bilan qurollantirib, yangi texnika vositalarini yaratishga yordam berishdan iboratdir.

Fanlarni yana amaliy va fundamental fanlarga ham bo'lishadi. Bunda ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan, erishilgan har bir yangi natijasi ishlab chiqarishga bevosita tatbiq etilib boradigan fanlar *amaliy fanlar*, deyiladi. Fundamental fanlar esa tabiat, jamiyat, inson va inson tafakkuri taraqqiyotining umumiyligini qonuniyatlarini nazariy jihatdan o'rganuvchi fanlardir. Amaliy va fundamental fanlar o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, fundamental fanlar borliqning turli sohalari qonuniyatlarini ishlab chiqarishga joriy etib, ijtimoiy-amaliy masalalarni ham hal qilishga tatbiq etadi.

Tabiatshunoslik, jamiyatshunoslik va texnika fanlaridan farqli, falsafa insonning borliq haqidagi eng umumiyligini bilimlari tizimidan iborat bo'lib, boshqa barcha fanlarga metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Barcha fanlarning o'ziga xos tadqiqot usullari (metodlari) bor. Ularning metodologiyasi esa, barcha fanlarning yutuqlarini umumlashtirishdan kelib chiqqan falsafiy xulosalardir.

a) Ilmiy metodlar va metodologiya.

Ma'lumki, har bir fan sohasida ilmiy izlanishlar olib boruvchi tadqiqotchi obyektni o'rganishga kirishar ekan, o'rganayotgan predmet yoki hodisa haqidagi bilimlarga birdaniga ega bo'lmaydi. Buning uchun u predmet yoki hodisa ustida ma'lum davr ichida tinmay turli xil izlanish va tadqiqotlar olib borib, o'z tadqiqot jarayonida turli xil yo'llar, usullar va vositalardan foydalanadi, ruhiy va aqliy jarayonlarni kechiradi. Shundan keyingina o'zi tadqiqot olib borayotgan predmet yoki hodisa yuzasidan ma'lum yangi bilimlarni hosil qilishi mumkin.

Tadqiqotchining o'z tadqiqoti jarayonida yangi bilimlarga erishish uchun qo'llaydigan turli xil usullari, yo'llari va vositalari ilmiy bilishning metodlari deyiladi.

Ilmiy bilishning metodlari tadqiqotchining tadqiqot obyektini bilishi uchun qo'llagan amaliy va nazariy faoliyat usullaridir. Bu metodlarning ilmiy bilishdagi vazifasi: tadqiqotchiga o'rganayotgan predmet yoki hodisa haqida, uning tabiatini va mohiyatini, ularni ifodalaydigan qonun va qonuniyatlarini ochishda yordam berishdan, shu asosda tadqiqotning muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlashdan iboratdir.

Ilmiy tadqiqot ishlarida tadqiqotning xarakteri va uning natijasida hosil bo'lgan yangi bilimlar tadqiqotchining o'z faoliyatida qanday metodlarni tanlaganiga, ulardan qanday foydalanganiga bog'-liq. Tadqiqotchi tomonidan to'g'ri tanlangan metodlar tadqiqotning muvaffaqiyatli yakunlanishiga olib keladi. Aksincha, noto'g'ri tanlangan yoki noto'g'ri qo'llangan metodlar tadqiqotchini o'z izlanishlarida boshi berk ko'chaga kiritib qo'yib, tadqiqotining muvaffaqiyatsiz, samarasiz bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Ilmiy bilishda to'g'ri tanlangan metod shu metod yordamida qilingan ilmiy kashfiyotga nisbatan qimmatliroq ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Bunday metod bilan tadqiqotchi bir emas, balki bir necha ilmiy kashfiyotlar qilishi mumkin.

Ilmiy bilish metodlarini o'rganish falsafada metodologiyaning paydo bo'lishiga olib keldi; Metodologiya ilmiy bilish metodlari haqidagi falsafiy ta'limot sifatida o'zida kishilar dunyoqarashi prinsiplarini, ularning bir butun amaliy va nazariy faoliyatlariga tadbiq etishni o'rganadi.

Ular quyidagilar:

1. Ilmiy bilishning eng umumiylar.
2. Ilmiy bilishning empirik darajasiga oid umumiylar.
3. Ilmiy bilishning nazariy darajasiga oid umumiylar.

Ilmiy bilishning eng umumiylar ilmiy metodining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u tadqiqotchilarning har qanday ongli amaliy va nazariy faoliyatida, hamma va har qanday ilmiy tadqiqot sohasida qo'llaniladi.

Ilmiy bilishning empirik darajasiga oid umumiylar ilmiy metodlari — bular ko'pchilik yoki bir guruh fan sohalarida qo'llaniladigan, ilmiy bilishning empirik bosqichiga oid bo'lgan metodlardir.

Ilmiy bilishning nazariy darajasiga oid umumiylar ilmiy metodlar esa, ilmiy tadqiqotlarning nazariy bosqichda qo'llanadigan metodlardir.

Ilmiy bilish ko'plab umumiylar, xususiy va alohida konkret ilmiy metodlar yordamida vujudga keladi. Ilmiy bilishda metodlarning xilmoxil va ko'p bo'lishi insonning dunyoni bilib olish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi va uni chuqurroq bilishga imkon beradi.

Hozirgi zamon fanlarida ilmiy bilishning quyidagi metodlari mavjud: *kuzatish* va *eksperiment*, *analiz* va *sintez*, *induksiya* va *deduksiya*, *umumlashtirish*, *abstraktlashtirish* va *konkretlashtirish*, *tarixiylik* va *mantiqiylik*, *ideallashtirish*, *modelllashtirish* va shu kabilalar. Ilmiy bilishning bu metodlari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ular bilishning qaysi bosqichi va qaysi darajasida qo'llanishi, o'zlarining tabiatini va xarakterlari bilan bir-birlaridan farq qiladi.

b) Kuzatish va eksperiment metodlari.

Kuzatish harakat, o'zgarish va rivojlanishdagi ma'lum obyektni tabiiy sharoitda u qanday bo'lsa, shu holicha diqqat bilan, belgilangan vaqt ichida, ma'lum maqsad asosida hissiy qabullashdir.

Eksperiment esa, sun'iy yaratilgan sharoitda olib boriladigan kuzatishdir. Eksperimentda o'rganilayotgan predmet yoki hodisa o'z holida, lekin sun'iy yaratilgan sharoitda ko'zdan kechirib boriladi. Eksperimentda tadqiqotchi o'z o'rganish obyektiga aktiv ta'sir qilishi, kuzatishning borishida, kuzatilayotgan jarayonni o'zi xohlagan yo'nalishga qarab o'zgartirishi mumkin.

Eksperiment kuzatish bilan bevosita bog'liq bo'lib, kuzatishsiz mavjud bo'lmaydi, ular bir-birlarini to'ldiradi. Kuzatish va eksperiment metodlari asosida to'plangan dalillar, ma'lumotlar ilmiy bilishning empirik darajasini hosil qiladi.

Kuzatish va eksperiment asosida hosil qilingan dalil va ma'lumotlar esa, o'z navbatida, tadqiqotchidan ularni analiz va sintez qilishini taqozo qiladi.

d) Analiz va sintez metodlari.

Analiz — **bir butunni qismlarga, bo'laklarga, tomonlarga, elementlarga ajratib, ularning har biri nima, qanday vazifani bajarishini bilishdir.** Analiz usuli natijasida butunni tashkil etgan qismlar, tomonlar, bo'laklar, elementlar, ularning butun tarkibidagi o'rni aniqlanadi. Analiz orqali predmet va hodisalarning strukturasi, tuzilishi bilinadi.

Sintez — **analiz tufayli ajratilgan bo'laklar, tomonlar, qismlar, elementlarni o'zaro biriktirib, ularni bir butun holiga keltirishdir.** Sintez orqali tadqiqotchi butunning bo'laklari, qismlari, tomonlari, elementlari o'rtasidagi va ularning butun bilan bo'lgan aloqa va bog'lanishlarini bilib oladi.

Analiz bilan sintez bilish jarayonidagi bir moddiy yoki mantiqiy amalning ikki tomonidir, ularni bir-biridan ajratib qo'llab bo'lmaydi, chunki tabiatda va jamiyatda hamma jarayonlar ko'p tomonlamadir.

Tadqiqotchi o'rganayotgan predmet yoki hodisalar ustida olib borgan kuzatish va eksperimentlar, analiz va sintezlar asosida hosil bo'lgan empirik faktlar va ma'lumotlarni o'z tafakkurida umumlashtiradi, abstraktlashtiradi va konkretlashtiradi. Tafakkur jarayonida yuz beradigan bu amallar ham ilmiy bilishning umumiy ilmiy metodlarini tashkil etadi.

e) Umumlashtirish, abstraktlashtirish va konkretlashtirish metodlari.

Ilmiy bilishning bu metodlari faqat tafakkur jarayoniga oid bo'lib, ular ilmiy bilishning nazariy darajasiga xosdir.

Umumlashtirish — barcha narsa va hodisalarga xos bo'lgan muayyan belgi, xususiyat hamda xossalari o'rtaсидagi bog'lanish, aloqadorlik jihatlarini aniqlashdan iborat.

Abstraktlashtirish — tadqiqot olib borilayotgan bir qancha predmet yoki hodisalarga xos bo'lgan tomonlari, xususiyatlari va xossalari fikrda e'tibordan soqit qilib, tadqiqot uchun zarur bo'lgan birorta belgi yoki xususiyatni mavhum holatga keltirishdir. Ilmiy bilish jarayoni umumlashtirish va abstraktlashtirish bilan tugamaydi.

Konkretlashtirish — umumlashtirish va abstraktlashtirish jarayonida ajratib olingen, e'tibordan soqit qilingan oldingi belgi va xususiyatlarni yana predmet yoki hodisalar bilan bog'lab, shu predmet yoki hodisa haqida aniq bir fikr hosil qilishdir.

Umumlashtirish, abstraktlashtirish va konkretlashtirish tafakkurdagi yaxlit mantiqiy amalning turli tomonlaridir, xolos. Tadqiqotchi umumlashtirish va konkretlashtirish usullari asosida tafakkur jarayonida yangi nazariy bilimlarni hosil qiladi. Bu usullarning har uchalasi tafakkur jarayonida doimo birlikda qo'llanib, bir-birlarini to'ldirib keladi.

Umumlashtirishdan abstraktlikka va undan konkretlikka hamda konkretlikdan umumlashtirish orqali yana abstraktlikka tomon borish — bilishning umumiyligi usullaridir.

Ilmiy bilishning bu usullari fanlar taraqqiyotining turli davrlarida turlicha rol o'ynab kelgan. Konkretlikdan abstraktlikka borish usuli fanlarning shakllanish davrida, ularga oid turli ilmiy tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqishda muhim rol o'ynagan edi. Keyinchalik, fanlar jadal rivojlanib borgan sari, predmet yoki hodisalarni chuqur bilish talabi abstraktlikdan konkretlikka ko'tarilish usulining ahamiyatini orttiradi. Shunga qaramay, ilmiy bilish jarayonida bu ikki usul doimo birlikda va o'zaro bog'liqlikda qo'llaniladi. Bu usullar nazariy bilishning induktiv va deduktiv metodlari bilan ham chambarchas bog'-liqidir.

f) Induktiv va deduktiv metodlar.

Induktiv metod yoki induksiya — bilishning shunday usuliki, bunda tadqiqotchi o‘z tafakkurida tekshirayotgan predmet yoki hodisalar to‘g‘risidagi bir qancha juz’iy faktlardan, ular haqidagi ayrim bilimlardan umumiyroq bilimlarni hosil qiladi.

Ilmiy bilishda induktiv usul bilan hosil qilingan bilimlar doimo deduktiv usul yordamida tekshiriladi.

Deduktiv metod yoki deduksiya — bu bilish jarayonida fikrda umumiy bilimlardan juz’iy, qisman bilimlarga kelishdir. Deduktiv usul vositasida tadqiqotchi bir sinf, bir jins, bir guruh predmet yoki hodisa to‘g‘risidagi umumiy bilimlardan, ularning har biri haqida alohida bilimlarni hosil qiladi. Insonning bilish tajribasidan shu narsa ma’lumki, agar biron xususiyat bir sinf yoki bir jinsdagi hamma predmet yoki hodisalarga xos bo‘lsa, bu xususiyat shu sinf yoki jinsga oid har bir predmet yoki hodisaga ham xos bo‘ladi.

Ilmiy bilishning bu usullari o‘z navbatida, tarixiylik va mantiqiylilik metodlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

g) Tarixiylik va mantiqiylilik metodlari.

Tarixiylik — bu o‘rganilayotgan predmet yoki hodisaning paydo bo‘lish, rivojlanish va yemirilish jarayonlari birligini, uning tarixiy taraqqiyot jarayonida boshqa voqealar bilan aloqadorligini nazariy bilishga oid usuldir. Tarixiylik deganda, tadqiq etilayotgan predmet yoki hodisaning konkret sharoitda paydo bo‘lishi, yashashi, rivojlanish va yemirilish yoki yo‘q bo‘lishidan iborat jarayonning tafakkurda ifodalanishi tushuniladi.

Mantiqiylilik esa, tarixiylikning tadqiqotchi fikridagi umumlashtirilgan, abstraktlashtirilgan, konkretlashtirilgan, qisqargan, tasodiflardan tozalangan abstraktlikning konkretlik shaklida ifodalanishidir.

Mantiqiylilikda tarixiylikning eng zarur va eng asosiy tomonlari, xususiyatlari, qonuniyatları ifodalanadi. Tarixiylik va mantiqiylilik o‘zaro chambarchas bog‘liq. Lekin tarixiylik — birlamchi, mantiqiylilik ikkilamchidir. Buning mazmuni shundaki, avval mavjud bo‘lgan tarixiy hodisalar mantiqiy bilish obyekti sifatida namoyon bo‘lishidadir.

Tadqiqotchi biron bir obyekt ustida izlanishlar olib borganida, ilmiy bilishning bu usullarini to‘g‘ri qo‘llashi lozim. Haqiqatan ham, tadqiq etilayotgan predmet yoki hodisaning real tarixini to‘g‘ri o‘rganib chiqmay turib, uning mohiyatini, istiqboldagi holatini to‘g‘ri ifodalab berib bo‘lmaydi.

h) Formallashtirish va modellashtirish metodlari.

Keyingi vaqtida EHMLar va kompyuterlarning yaratilishi, ularning ishlab chiqarishga keng joriy etilishi, matematik usullarning konkret fanlar sohalarida samarali qo'llanishi, modellashtirish va formallashtirish kabi yangi usullarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Formallashtirish — tekshirilayotgan predmet yoki hodisalarning ma'lum konkret tomonlari, xossa va xususiyatlarining mazmunini mavhumlashtirib, uni ma'lum abstrakt ifoda, formula yoki chizmalar bilan ifodalashdir. Bu metod yordamida tadqiq etilayotgan obyektlarning o'rtasidagi aloqadorlik, ularning munosabatlari ma'lum ifodalarda belgilanadi. Masalan, algebradagi matematik ifodalar: $a+b$, ab , a^2-ab+b^2 kabilar miqdoriy munosabatning formallashtirilgan ko'rinishidir.

Formallashtirish usuli matematika, fizika, ximiya, matematik mantiq, muhandislik va texnika sohalarida olib boriladigan tadqiqotlarda ko'p qo'llaniladi. Formallashtirish usuli, o'z navbatida, modellashtirish usuli bilan chambarchas bog'liq.

Modellashtirish usuli — o'rganilayotgan obyektga tuzilishi yoki funksiyasiga ko'ra o'xhash sun'iy nusxasini yaratib, shu nusxa orqali haqiqiy obyektning tegishli xossa va xususiyatlarini o'rganishdir. Ilmiy bilishda bu usulning vazifasi, odatda, tekshirilayotgan predmet yoki hodisani bevosita o'rganish iloji bo'Imagan paytda uning asliga o'xhash, unga mos moddiy yoki fikriy nusxasini, ya'ni modelini yasab, shu model asosida originalni o'rganishdan iboratdir. Modellashtirish usuli o'rganilayotgan obyektda yuz beradigan jarayonlarni, uning nusxasida bevosita tadqiq qilish imkonini berishi bilan alohida ahamiyatga egadir. Modellashtirish va modelning o'ziga misol qilib biz globusni olishimiz mumkin.

Modellashtirish ko'p bosqichli jarayondir. Uning birinchi bosqichi modelni qurishdir. Qurilgan modelning original bilan mosligini aniqlash, modellashtirishning ikkinchi bosqichidir. Modellashtirishning uchinchi bosqichi — model asosida hosil qilingan bilimni originalga tatbiq qilishdir. Modellashtirishning oxirgi bosqichi esa, model orqali ega bo'lgan yangi bilimning haqiqatligini aniqlashdir.

Ilmiy bilish jarayonida turli fanlar sohasidagi tadqiqotlarda har xil modellar qo'llanadi. O'z tabiatiga ko'ra, bu modellarni ikki gruppaga bo'lish mumkin. Ular: 1) *moddiy modellar*; 2) *fikriy modellar*.

Moddiy modellar moddiy jismlardan qilingan modellardir. *Fikriy modellar* esa til belgilari, tildagi simvollar, har xil kodlar, EHM dasturlari va shu kabilardir.

Modellashtirishning cheklangan tomonlari ham bor. Masalan, hech bir model originalning xususiyatlarini to'la ifodalay olmaydi.

Biz yuqorida ko'rib o'tgan metodlardan tashqari, ilmiy bilishda xususiy, alohida metodlar ham ilmiy bilishda muhim ahamiyatga ega. Ular bir yoki bir necha fan sohalarida olib boriladigan tadqiqotlarda qo'llanishi bilan umumiy ilmiy metodlardan farqlanadi, xolos. Bu metodlar aniq fanlarda keng qo'llaniladi.

✓ 6-§. Ilmiy bilishning asosiy shakllari

Tadqiqotchi o'zi tadqiq etayotgan predmet yoki hodisalarni o'rghanishda, bilishning turli ilmiy metodlaridan foydalanishi asosida ma'lum yangi bilimlarni hosil qiladi. Bu yangi bilimlar o'zlarining paydo bo'lishidan to insoniyatning nazariy bilimlari tizimlari — fanlarga kirib kelishigacha, har xil ko'rinishlarda bir qancha taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tadi. Ilmiy tadqiqot asosida paydo bo'lgan yangi bilimlarning rivojlanishidagi bu bosqichlar *ilmiy bilishning shakllari* deyiladi. Ilmiy bilish shakllarining asosiylarini: *ilmiy g'oya, muammo, gipoteza, nazariya va ilmiy oldindan ko'rishlar* tashkil qiladi.

Ilmiy g'oya — ilmiy bilishning birinchi shaklidir.

✓ **G'oya — tadqiqot maqsadini, uning yo'nalishi va mohiyatini ifodalaydigan ilmiy bilish shaklidir.** G'oya o'z tabiatiga ko'ra — fikrdir, u tadqiqotchi miyasida uning amaliy va nazariy faoliyatini asosida paydo bo'lib, borliqning to'g'ri yoki xato in'ikosidir.

Ilmiy bilishda g'oya muhim rol o'ynaydi. Aniq g'oya tug'ilmaguncha, biror sohada tadqiqot olib borish mumkin emas. Har bir g'oya ma'lum tayyorgarlik, mushohada asosida, muayyan sohada fikr yuritish natijasida paydo bo'lib, unda tadqiqotchining amaliy va nazariy tajribalari umumlashgan bo'ladi.

G'oyalarni tabiatiga ko'ra: a) ilmiy g'oyalar; b) badiiy g'oyalarga bo'lish mumkin. *Ilmiy g'oyalar* fan-texnika sohalarida tug'ilgan g'oyalardir. *Badiiy g'oyalar* esa, asosan, badiiy ijodga oid bo'lib, ular yozuvchi yoki shoirning „niyati“ deb ataladi. G'oyalarni xarakteriga ko'ra: a) borliqning to'g'ri, real in'ikosidan iborat g'oyalar; b) borliqning xato yoki fantastik in'ikoslardan iborat g'oyalar; d) taraqqiyparvarlik g'oyalari; e) reaksiyon g'oyalarga bo'linadi. Taraqqiyparvarlik g'oyalari ilmiy bilishni

rivojlantirishga xizmat qilsa, reaksiyon g'oyalar unga to'sqinlik qiladi. Ilmiy bilishda taraqqiyat parvarlik va reaksiyon g'oyalar o'tasida doimo kurash ketadi. Ilmiy bilishda bir qancha g'oyalar birikib, biror ilmiy muammoni paydo qilishi mumkin.

Muammo — ilmiy bilishning hali bilib olinmagan va hal qilinmagan, lekin bilinishi va hal qilinishi lozim bo'lgan bilim shaklidir.

Muammo, odatda, tadqiqotchining biror bilish obyektiga oid yangi dalillarni to'plagan, lekin bu dalillarni mavjud bilimlari bilan izohlashi mumkin bo'lmaganda, bu dalillar eski bilimlar tizimiga sig'may, o'zlarining yangicha bayonini talab qila boshlaganda tug'iladi. Muammoning tug'ilishi va qo'yilishi ilmiy bilish jarayonining eng muhim momentlaridan biridir. Muammoni aniqlash — ilmiy bilishda ishning yarmini hal qilish demakdir.

Kundalik hayotda muammoni, ko'pincha, savol yoki biror masala bilan aralashtirib qo'llashadi. Ilmiy bilishning shakli sifatida, muammo savol va masaladan farq qiladi. Xususan, savolga javob berish yoki masalani yechish doimo oldingi bilim asosida amalga oshadi. Muammoni esa oldingi hosil qilingan bilimlar doirasida turib hal qilib bo'lmaydi. Buning uchun yangi dalillar, ma'lumotlar to'plash, ularni yangicha izohlash, shu paytgacha mavjud bo'lgan eski bilim doirasidan chiqish talab qilinadi.

Muammolar ham g'oyalar kabi, haqiqiy va soxta (yolg'on) muammolardan iborat bo'ladi. Haqiqiy muammolar ilmiy dalil va fanlarning qonunlaridan kelib chiqsa, soxta muammolar ilmiy dalillar va fan qonunlariga zid keladi.

Ilmiy bilish jarayonida muammolarni hal qilishda ko'plab gipoteza (faraz)larning paydo bo'lishi mumkin.

✓ **Gipoteza — tekshirilayotgan predmet yoki hodisa to'g'risida ilgari surilgan, ilmiy jihatdan asoslangan, ilmiy dalil va ma'lumotlarga zid bo'lmagan, lekin haqiqatligi hali isbotlanmagan ilmiy bilish shaklidir.**

Ilmiy bilish jarayonida vujudga kelgan gipotezalar bir-birini to'ldiruvchi, bir-biriga zid, bir-biriga qarama-qarshi, bir-birini inkor qiluvchi gipotezalar bo'lishi mumkin. Umuman olganda, ilmiy bilishning rivojlanishi — gipotezalarning paydo bo'lishi, ularning isbotlanishi yoki rad qilinishi va yana yangi gipotezalarning paydo bo'lishi asosida sodir bo'ladi.

Gipotezalar tadqiqotchini doimo ma'lum izlanishga yo'naltiradi, uning e'tiborini nimaga qaratishini, izlashini aniqlab beradi, unga o'z sohasida biron yangilik qilish yoki yaratishda yordam

beradi. Gipotezalar, obrazli qilib aytganda, tadqiqotchining doimiy ish qurolidir. Ilmiy bilishda paydo bo‘lgan gipotezalar keyingi tadqiqotlarda tekshirilib, ularning haqiqatligi yo tasdiqlanadi yoki xatoligi isbotlanib, rad qilinadi. Gipotezani rad etish uchun, uning xatoligini isbotlovchi birgina ilmiy dalil kifoyadir. Gipotezaning haqiqatligi isbotlansa, bunday gipoteza nazariyaga aylanadi.

Nazariya — ilmiy bilishning eng yuqori shaklidir.

✓ **Nazariya deylganda haqiqatligi amaliy yoki nazariy jihatdan isbotlangan, borliqning biror sohasiga oid g‘oyalar, qarashlar, qonunlar va prinsiplarning muayyan tizimi tushuniladi.** Nazariya fan sohasiga oid bo‘lib, ma’lum bilimlarning umumlashtirilishi asosida paydo bo‘ladi. Ilmiy bilishda nazariyaning asosiy vazifasi amaliyot bergen yangi dalillarni izohlash, o‘rganilayotgan predmet yoki hodisalarning mohiyatiga chuqurroq kirish, ro‘y beradigan voqeа va hodisalarni oldindan ko‘ra olishdan iboratdir.

Har qanday nazariya ma’lum sohadagi ilmiy bilimlarning so‘nggi natijasi, lekin uni hech qachon tugallangan, o‘zgarmas, absolut bilim, deb qaramaslik kerak. Chunki, har bir nazariya faqat u yoki bu gipotezaning akti asosidagi isboti bo‘lmay, balki uzlusiz o‘rin almashib, chinligi aniqlanib boruvchi juda ko‘p va cheksiz gipotezalarning natijasidir. Shu sababli nazariya ham doimo rivojlanib borib, uning mazmuni *mutlaq* va *nisbiy* haqiqatlarning birligidan iborat bo‘ladi.

Insonning kundalik amaliy faoliyati hamisha ma’lum rejaga, mo‘ljalga asoslangani kabi, tadqiqotchining ilmiy izlanish va tadqiqotlari ham doimo ilmiy bashorat bilan bog‘liq bo‘ladi.

Bashorat — insonning kelgusida tabiat va jamiyatda nimalar sodir bo‘lishi, qanday hodisa va voqealar yuz berishini bilishi bo‘lib, inson miyasining borliq voqeа va hodisalar istiqbolini oldindan aks ettirish qobiliyati bilan bog‘liq jarayondir. Inson biror faoliyatini boshlar ekan, buni qanday qilib amalga oshirish, qay tarzda va qanday tartibda qilish kerakligi ustida fikrlaydi. Shu asosda o‘z faoliyatining qanday natijalarga olib kelishini fikran belgilab oladi. Inson doimo o‘zining oldin orttirgan bilimlariga, tajriba, ko‘nikma va malakalariga tayanadi. Shular asosida oldindan ko‘rish sodir bo‘ladi.

Ilmiy bashorat — tadqiqotchi yoki olimning tabiat, jamiyat va inson tafakkuri taraqqiyoti qonunlariga asoslanib, kelgusida yuz beradigan hodisa, voqeа yoki jarayonni oldindan aytishidir.

Tadqiqotchi o'zi o'rganayotgan predmet yoki hodisaning paydo bo'lishi va rivojlanishi, undagi ichki zaruriy aloqadorlik va bog'lanishlarni o'rgana borib, bu predmet yoki hodisaning qachon, qay sharoitda, qay tartibda, nimalar sababli, qanday qonuniyatlar asosida yuz berishi hamda qanday holatda muqarrar takrorlanishini bilishi natijasida, shu predmet yoki hodisaning kelgusidagi holatini ilmiy bashorat qila oladi.

Ilmiy bashorat diniy karomat qilish, folbinlik qilish, kishilar taqdirini osmon jismalari — yulduzlar va sayyoralar harakatiga qarab belgilashlardan farq qiladi.

Ma'lumki, o'tmishda kishilar o'rtasida kelajakni, inson taqdirini, jamiyatda sodir bo'ladigan voqeа va hodisalarni osmon sayyoralarining **harakat holatiga** bog'lab, oldindan aytib beruvchi astrologlar (munajjimlar) faoliyat ko'rsatib kelganlar. Ularning ta'limoti *astrologiya*, deb atalib, boshqa yerlarda bo'lgani kabi, O'rta Osiyo xalqlari o'rtasida ham keng tarqalgan edi.

Astrologlar nuqtayi nazaricha, jamiyatda kelgusida bo'ladigan voqeа va hodisalarni, kishilarning taqdirini yulduzlar va sayyora-larning holatiga, **harakatiga** qarab oldindan aytib berish mumkin.

Lekin, shuni **aytish lozimki**, astrologiyaning ilmiy ekanligi shu kungacha asoslanmagan, astroglarning bashoratlari esa, ko'pincha ilmiy jihatdan tasdiqlanmagan. Ammo, ayrim astroglarning bashoratlari sodir bo'lgan voqeа va hodisalarga tasodifiy mos kelishi tufayli, ularga ishonish kishilar o'rtasida shu paytgacha davom etib kelmoqda. Ilmiy bashoratlarning astrologik bashoratlardan tub farqi shundaki, ularning haqiqatligi doimo ilm-fan yutuqlari bilan, tabiat, jamiyat va inson tafakkuri qonunlari bilan ilmiy asoslangan bo'ladi.

Fanlar taraqqiyoti, kishilarning jamiyatdagи faoliyatları uchun tabiat va jamiyat hodisalarining ro'y berishini ilmiy oldindan ko'rish juda muhim ahamiyatga ega.

Tabiat va jamiyat hodisalarini ilmiy bashorat qilish bizning mustaqil O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan hozirgi sharoitda davlat va xalqning kelgusida mamlakat hayotida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan hodisa va voqealarga har tomonlama tayyor bo'lishi, bu hodisalarning ijobiy oqibatlarini kuchaytirish, salbiy oqibatlarning esa oldini olish, muhim ahamiyatga ega. Lekin, shuni aytish kerakki, millionlab kishilar faoliyati bilan bog'liq holda sodir bo'ladigan ijtimoiy hodisalarni ilmiy bashorat qilish ancha murakkab jarayondir. Shunga qaramay, biz mustaqil O'zbekiston

— kelajagi buyuk davlat deganda, bu xulosaga ilmiy asoslangan holda, har tomonlama o'ylab, barcha imkoniyat va ehtiyojlarimizni to'liq hisobga olib, ijtimoiy jarayonlarning tarixiy rivojlanish qonuniyatlariga tayangan holda ilmiy oldindan aytilganligining guvohi bo'lmoqdamiz.

7-§. Ijtimoiy bilish va uning o'ziga xos xususiyatlari

Ijtimoiy bilish — jamiyatdagi, ijtimoiy hodisalarining mohiyatini, ularning kelib chiqishi, yashashi va rivojlanish qonunlarini bilishdir. Ijtimoiy bilish keng ma'noda, ijtimoiy borliq va ijtimoiy ongning in'ikosidir. Ijtimoiy bilish jamiyat paydo bo'lishi bilan birga paydo bo'lgan va uning o'zgarib, rivojlanib borishi bilan ham rivojlanib borgan.

Ijtimoiy bilishning o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat, u tabiatni bilishdan nima bilan farq qiladi? Tabiatni bilish qulaymi yoki jamiyatni bilish o'ng'aymi. Albatta, tabiatni bilish jamiyatni bilishdan ancha oson. Chunki, tabiat bilishga qarshilik qilmaydi. Shuning uchun oldin tabiiy fanlar paydo bo'lganligini hamma biladi.

Ijtimoiy bilish insonning ijtimoiy borliqni ma'lum maqsad asosida o'zlashtirilishidir. U tabiatni bilishdan farqli o'laroq, faqat jamiyatdagi moddiy ijtimoiy faoliyat va munosabat qonuniyatlarini bilishdan iborat bo'lmasdan, ma'naviy, mafkuraviy faoliyatlar va munosabatlarni, ularning qonuniyatlarini bilishni ham o'z ichiga oladi. Shu asosda ijtimoiy bilishning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatish mumkin:

1. Tabiatni bilishda inson faqat bilishning subyekti bo'lib hisoblanadi. Jamiyatni bilishda esa inson ham, obyekt ham subyektdir. Inson o'z tarixini yaratadi va uni biladigan ham o'zi.

Jamiyatni bilishda inson manfaatlari rol o'ynaganligi uchun biluvchi subyektning xohish-irodasi katta ahamiyatga ega. Binobarin, ijtimoiy bilishda tasodiflarning roli ham ortib ketadi. Ijtimoiy harakat tepasida kim turgani, u qanday shaxs ekanligining xarakteriga, katta ta'sir qiladi.

2. Ijtimoiy bilishda subyektning, subyektiv omilning roli juda katta. Chunki, qarama-qarshi maqsad, intilish va boshqalar belgilovchi ahamiyatga egadir. Shuning uchun dalillar, voqealarga baho berganda alohida olingan shaxs faoliyatini emas, balki sinflarning, ijtimoiy guruhlarning manfaatlari nuqtayi nazaridan kelib chiqmoq zarur.

Bu ma'noda ijtimoiy bilish o'z ichiga falsafaning faqat gnoseologik, mantiqiy vazifasinigina emas, balki dunyoqarash vazifasini ham qamrab oladi.

3. Ijtimoiy bilishda subyektning ruhiy holati, ehtirosi, kayfiyat, dunyoqarashi, tarbiyasi, ma'lumoti ham katta rol o'ynaydi. Moddiy hayot sharoitlari, moddiy ishlab chiqarishning qanday rivojlanganligi ham bu yerda muhim ahamiyatga ega.

4. Tabiatni bilishda faqat moddiy munosabatlar tekshiriladi. Jamiyatni bilishda esa, moddiy munosabatlar bilan bir qatorda ma'naviy, mafkuraviy munosabatlar ham bilishning obyekti bo'lib hisoblanadi. Ma'lumki, hech bir inson o'zini yomon demaganidek, hech qaysi jamiyat ham o'zini yomonlamaydi.

5. Ijtimoiy fanlar tabiiy fanlardan keyin kelib chiqqan, dedik. Buning sababi shundaki, ijtimoiy voqealar juda murakkab va chigal jarayon bo'lib, uning qonuniyatlarini ochish ancha qiyin. Buning uchun jamiyat taraqqiyoti ham ma'lum bosqichgacha rivojlanib, uning qonuniy tartibotlari aniqroq namoyon bo'lishi kerak edi.

6. Tabiatshunos olim o'zi tekshirayotgan narsani amalda sinab, tekshirib ko'rish imkoniyatiga ega. Ijtimoiy bilishda bunday imkoniyat yo'q darajada, tarixchi olim bunday imkoniyatga ega emas.

Yuqoridagi xususiyatlar asosida ijtimoiy bilish uchun narsa va hodisalarni bir-biri bilan aloqador va bog'lanishda olib tekshirib, tarixiylik tamoyiliga amal qilish, haqiqatning konkretligidan kelib chiqib ish yuritish muhim ahamiyatga egadir.

Ijtimoiy bilish — insonning ijtimoiy borliqni ma'lum maqsad asosida o'zlashtirishidir. U, tabiatni bilishdan farqli o'laroq, faqat jamiyatdagi moddiy, ijtimoiy faoliyatlar va munosabatlarni hamda ularning qonunlarini bilishdan iborat bo'lmasdan, ma'naviy, mafkuraviy va munosabat qonuniyatlarini bilishni ham o'z ichiga oladi. Ijtimoiy bilish, shu bilan birga, insonning o'zini ham, uning tabiatini va jamiyatdagi o'rnini, taqdirlari, hayotining ma'nosini va mazmuunu bilishdan ham iboratdir.

Ijtimoiy bilishning har bir yangi bosqichi oldingi avlodlarning amaliy tajribalari va nazariy bilimlariga tayangan holda yuzaga keladi. Ijtimoiy bilishni yuzaga keltiradigan asosiy omillardan biri — ijtimoiy ehtiyojlar va manfaatlardir. Har qanday ijtimoiy bilish jamiyat ijtimoiy ehtiyojlari bilan, kishilarning moddiy va ma'naviy manfaatlari bilan uzviy bog'liq holda yuzaga keladi.



1-§. Mustaqillik—jamiyat taraqqiyotining muhim omili

„Milliy mustaqillik“ va „davlat mustaqilligi“ tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Lekin, „davlat mustaqilligi“ tushunchasi mazmun va mohiyati jihatidan kengroqdir. Biz bu o‘rinda muammoning milliy mustaqillik bilan bog‘liq tomonlarini qarab chiqamiz.

Mustaqil davlat o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqiga ega. U boshqa davlatlar huquqlarini, xalqaro ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy manfaatlar nuqtayi nazaridan qabul qilingan me’yorlarni buzmagان holda ish ko‘radi.

Mustaqil milliy davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar teng huquqlilik, bir-birlarining ichki ishlariga aralashmaslik, boshqa davlatlarga hujum qilmaslik, ularning hududiy daxlsizligini hurmat qilish, siyosiy, iqtisodiy va milliy manfaatlariga putur yetkazmaslik bilan bog‘liqdir. Mustaqillikning asosiy mezonlari mavjud bo‘lib, ular har bir davlat o‘z konstitutsiyasiga ega bo‘lishi, hududiy barqarorligini, daxlsizligini, hududiy-ma’muriy tizimini belgilay olishi, fuqarolarni qabul qilish huquqiga ega bo‘lishi, o‘z taraqqiyot yo‘lini tanlay olishi, hokimiyat va boshqarish organlarini belgilashi, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlari mavjudligi, davlat tili va o‘z harbiy tuzilmalariga egaligi, milliy xavfsizligining tashkil bo‘lganligi, xorijiy davlatlar bilan teng huquqli aloqalar o‘rnatishi, o‘z budgetiga egaligi, gerbi, bayrog‘i, madhiyasi, poytaxti borligi, mustaqil qonunlar va farmon chiqara olishi va shu kabilar bilan belgilanadi. Mustaqil davlat xalq, mamlakat barqaror rivojlanishi, o‘z imkoniyatlaridan to‘la foydalanishining asosiy omilidir.

Milliy mustaqillikka erishish har qanday davrlarda ham og‘ir, ziddiyatli sharoitlarda amalga oshgan. Bu murakkab vaziyatlarda mustaqillikka erishgan davlat mustamlakachilik davridan qolgan og‘ir merosni tezda bartaraf etishi, ulkan istiqbol rejalarini o‘z oldiga qo‘yishi, ommani asta-sekin tarbiyalab, ijtimoiy, siyosiy faolligi va milliy ongini oshirib borishi, yangi ulkan rejalarни bajarishga safarbar etishi kerak. Milliy mustaqillik ulkan siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy o‘zgarishlarni amalga oshirishning asosiy shartlaridan biri bo‘lgan milliy uyg‘onishni ham o‘z ichiga oladi.

Mustaqil davlat o‘z taraqqiyoti yo‘lini belgilashi — uch muhim omilni hisobga olish bilan bog‘liqdir. Bular quyidagilar:

1. Mamlakatning mustaqil taraqqiyotiga asos bo‘ladigan, unga sharoit yaratib beradigan siyosiy, iqtisodiy imkoniyatlar, tabiiy boyliklarning mavjudligi, ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi.

2. Xalqning milliy ongi, birdamligi, hamjihatligi, milliy g‘ururi, vatanzarvarlik tuyg‘ulari kuchli bo‘lishi, o‘z tarixi, an’analari, qadriyatlarini chuqur bilishi, davlatning, mamlakatdagi ijtimoiy, siyosiy kuchlarning asoslangan, uzoqqa mo‘ljallangan, mustaqil taraqqiyot manfaatlari bilan belgilangan rejalarining bo‘lishi.

3. Xalqaro vaziyat mo‘tadilligi, qo‘shti davlatlar, ulardagi ijtimoiy, siyosiy kuchlarning mustaqil taraqqiyot yo‘liga o‘tayotgan davlatga nisbatan bo‘lgan adolatli munosabati.

Mustaqil taraqqiyot yo‘lining bu omillari bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Mustaqillikka erishgan davlatning yetarli ijtimoiy, ma’naviy, iqtisodiy imkoniyatlari bo‘lmasa, uning rivojlanish zaminlari ham mustahkam va barqaror bo‘lmaydi. Xalq ommasi, mamlakatdagi turli siyosiy kuchlar mustaqillika erishgan davlat oldida turgan vazifalarni to‘g‘ri, to‘la tushunmasalar, ularni amalga oshirishga ongli ravishda intilmasalar mustaqillikni mustahkamlash qiyin kechadi. Ijtimoiy-siyosiy faolligi yetarli bo‘lman, milliy ongi o‘smagan, milliy g‘ururi past bo‘lgan xalqni mustaqillik yo‘liga qo‘lidan yetaklab, zo‘rlik bilan olib kirib bo‘lmaydi. Har qanday katta iqtisodiy, siyosiy islohotlar keng tarbiyaviy, ma’rifiy-mafkuraviy ishlar bilan bog‘lab olib borilgan taqdirdagina samara beradi.

Milliy mustaqillik insoniyat tarixining hamma davrlarida ham jamiyat taraqqiyotini tezlatishning muhim omillaridan biri bo‘lib kelgan.

Milliy mustaqillik progressiv tarixiy jarayonining zaruriy tarkibiy qismi bo‘lganligi sababli ham muhim ilmiy, nazariy, amaliy muammo sifatida turli fanlar tomonidan o‘rganiladi.

Lekin, alohida fanlar mustaqillik muammosini yaxlit jarayon sifatida o‘rganish, uning tarixiy tajribasini umumlashtirish va nazariyasini yaratish imkoniga ega emas. Mustaqil taraqqiyot yo‘lidan muvaffaqiyatli borish uchun bu jarayonlarning umumiyligini qonuniyatlarini ochish, istiqlol uchun kurash yo‘lida qo‘llanma bo‘la oladigan nazariy xulosalar chiqarish ham nihoyatda katta ahamiyatga egadir. Bu vazifani inson tafakkurining umumlashtiruvchi xususiyatini o‘zida kengroq va to‘laroq ifoda etuvchi falsafa fanigina bajara olishi mumkin.

Mustaqillik nazariyasini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan falsafiy muammolar quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi:

1) mustaqillik progressiv yo'lidan borayotgan jamiyat taraqqiyotining muayyan shakli ekanini ko'rsatish, uning ichki qonuni va qonuniyatlarini ochib berish;

2) mustaqillik uchun kurashga sabab bo'lgan barcha siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy zaminlarni jamiyat hayotining boshqa sohalarida mavjud bo'lgan imkoniyatlar, shart-sharoitlar bilan bog'lash;

3) mustaqillikka erishish — jamiyat hayotidagi keskinlashgan ziddiyatlarni hal etishning muayyan yo'li ekanini ko'rsatish;

4)mustaqillikka erishish uchun olib borilgan kurashlar davrida hal etilishi kun tartibida turgan siyosiy, ijtimoiy ziddiyatlar ichida milliy munosabatlar bilan bog'liq ziddiyatlar hal etuvchi ahamiyat kasb etganini isbotlash, mustaqillik sharoitida milliy manfaatlar mushtaraklashishini o'rganish;

5) mustaqil taraqqiyot yo'lidan borishning turli konkret sharoitlarda o'ziga xos xususiyatlari, yo'llari va umumiy qonuniyatlar o'rtasidagi bog'lanishlarni tadqiq etish.

Bu masalalarni bir-biri bilan bog'liq holda o'rganish mustaqillikning falsafiy muammolarini yoritishda katta ahamiyatga egadir.

Ma'lumki, mustaqillik uchun kurash mustamlakachilik tuzumi yaratgan qarama-qarshi manfaatlar va ularning zaminida yotgan ziddiyatlar keskinlashishi asosida yuzaga keladi. Hukmron va tobe mamlakatlar, xalqlar o'rtasidagi kurashning boshlanishi va keskinlashuviga olib keluvchi omillar bir-biriga zid bo'lgan siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy manfaatlardir. Manfaatlar borasidagi munosabatlar ziddiyatlarga aylanishi va ularning keskinlashuvi milliy ozodlik uchun kurashish masalasini asosiy maqsad qilib qo'ygan kuchlarning shakllanishiga olib keladi.

Milliy ozodlik kurashi milliy zulm va tengsizlik bor joyda sodir bo'ladi. Bu yerda kurash, asosan, ikki siyosiy guruh yoki bir mamlakat fuqarolari o'rtasida emas, balki o'z erkinligi, haq-huquqini himoya qilayotgan millat tomonidan olib boriladi. Binobarin, mustaqillik uchun kurash zaminida har doim ham ezilgan,tahqir va ta'qib etilgan millatning manfaatlari uchun kurashish vazifasi yotadi.

Turli sharoitlarda qo'lga kiritiladigan mustaqillikning bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan uch muhim jihatlari bor. Bular — *Konstitutsiyaviy va hududiy iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy mustaqillikka* erishishdir. Agar shu jihatlardan biri bo'lmasa, to'la barqaror

mustaqillik to‘g‘risida so‘z ham bo‘lishi mumkin emas. Bu boradagi ilmiy, nazariy muammolar ham falsafa fani tomonidan yaxlit holatda o‘rganiladi.

Mustaqil iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlari siyosiy mustaqillik qaror topganidan keyingina yuzaga keladi va, o‘z navbatida, siyosiy mustaqillikning barqaror bo‘lishiga xizmat qiladi. Agar siyosiy mustaqillikni qo‘lga kiritgan mamlakat iqtisodiy munosabatlarni tezda, samarali izga solołmasa, bu boradagi barcha yutuqlar, xalqning orzu-umidlari barbod bo‘lishi muqarrardir. Mustaqil davlat iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo‘llarini, pirovard maqsadlarini belgilab beradi. Lekin, murakkab sharoitlarda amalga oshayotgan iqtisodiy rivojlanish faqat oldindan belgilab qo‘yilgan mezonlar, qoidalar doirasidagina qolib ketishi mumkin emas. Iqtisodiy rivojlanish yo‘llariga konkret sharoitdagи ehtiyoj, talab va imkoniyatlar, bozor munosabatlarining holati, xalqaro munosabatlardagi o‘zgarishlar, fan va texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarishni oqilonqa tashkil etish borasidagi yangi qadamlar ham bevosita ta’sir etadi. Shu sababli iqtisodiy islohotlar borasidagi davlat siyosati ham jamiyat taraqqiyotining yangi sharoitlari va imkoniyatlari ta’sirida takomillashib turishi zarur.

Siyosiy va iqtisodiy taraqqiyot borasidagi o‘zaro bog‘liqlik jamiyat rivojlanishining obyektiv qonunidir. Rivojlanishning barcha davrlarida iqtisodning siyosatga ta’siri kuchli bo‘ladi. *Siyosat* — bu aqidabozlik emas, balki, muayyan sharoitlar ta’siri ostida o‘zgarib boruvchi jarayondir.

Mafkuraviy mustaqillikka erishish ham taraqqiyotning muhim omillaridandir. Mustamlakachilik davrlarida davlat mafkuraviy siyosati ezilgan xalqlarni ma’naviy qaramlik holatida saqlab qolishga qaratilgan bo‘ladi. Masalan, 130 yildan ortiq davr davomida chor Rossiyasi va sobiq Ittifoq tomonidan mazlum xalqlarning milliy ongi, milliy iftixor tuyg‘usi kuchayishiga yo‘l bermaslik uchun qilingan harakatlar ham shu maqsadlar bilan bog‘langan edi. Mustamlaka va qaram mamlakatlar xalqlari o‘rtasida hukmron millat tili va madaniyatini keng targ‘ib etish ham ma’naviy qaramlik holatini kuchaytirishga qaratilgan bo‘ladi.

Mustaqillik mafkurasi, milliy uyg‘onish millatning o‘z tarixi va taqdirini chuqur tushunishi, milliy ongi o‘sishi, milliy qadr-qimmatini asrashi, milliy g‘urur, vatanparvarlik tuyg‘usi kuchayishi bilan bog‘liqdir. Yuksak milliy ong bo‘lmagan joyda to‘laqonli milliy mustaqillik ham, milliy mafkura ham bo‘lmaydi.

Milliy istiqlol mafkurasi mustaqillik qo‘lga kiritilganidan keyin emas, balki, ungacha bo‘lgan uzoq kurashlar jarayonida shakllanadi. Bu mafkura o‘z ozodligi, haq-huquqi, qadr-qimmati uchun kurashayotgan xalqlarning orzu-umidlari bilan bog‘liqdir. Mustaqillik qo‘lga kiritilgach, bu kurashda ishtirok etgan kuchlar oldinga surgan ilg‘or g‘oyalar yaxlitlanib, milliy mafkura holatiga keladi. „*Istiqlol mafkurasi*, — deb ta’kidlagan edi Islom Karimov, — *ko‘p millatli O‘zbekiston xalqining ezgu g‘oya — ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo‘lidagi asriy orzu — intilishlari, hayotiy ideallarini o‘zida aks ettiradi*“¹.

Milliy istiqlol mafkurasi mustaqillikka erishgan davlat, xalq tanlab olgan iqtisodiy, siyosiy taraqqiyot, ma’naviy kamolot yo‘li, xalq orzu-istiklarining ilmiy umumlashgan, muayyan maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan nazariy ifodasidir. Bu mafkuraning bosh maqsadi — xalqning umummilliyl manfaatlarini amalga oshirish yo‘lida birlashtirish, uning kuchi va imkoniyatini belgilangan, tobora aniqlashib borayotgan vazifalarini bajarishga safarbar etishdir. Istiqlol mafkurasining mamlakat ijtimoiy taraqqiyotidagi kuchi va imkoniyati ham u ommaning ongiga qanchalik chuqr singishi, faoliyatiga asos bo‘lishi bilan belgilanadi.

Xalqdan ajralgan, uning manfaatlariga mos kelmaydigan mafkura zo‘ravonlik yo‘li bilan ommalashtirilganida ham uzoq samara bermaydi. Agar jamiyat a’zolari siyosiy qatag‘onlik va tazyiqdan qo‘rqib biror mafkurani „qabul qilishga“ majbur bo‘lsalar, lekin, ular dil amri, e’tiqod bilan ish qilmasalar, natijada mafkuraviy bo‘shliq holati yuzaga keladi. **Mafkuraviy bo‘shliq — muayyan mafkura xalqning qalbidan chuqr o‘rin olmaganligining ifodasidir.** Yangi mafkura ommaning ongiga chuqr singishi, ijtimoiy ahamiyat kasb etishi uchun xalq manfaatlarini ifodalashi lozim. Shu bilan birga, xalq ham, o‘z navbatida, ma’lum ma’naviy kamolot darajasiga ko‘tarilgan bo‘lishi zarur. Mafkuraviy barkamollik ma’naviy yetuklik bor joydagina mavjud bo‘ladi. Ma’naviy kamoloti yuksalib borayotgan xalq va millatgina o‘z mafkurasini yaratish, unga asoslanib faoliyat ko‘rsatish imkoniga ega. Xullas, siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy mustaqillikning zaminlarini birgalikda mustahkamlash va rivojlantirish mustaqil davlat taraqqiyotining asosiy shartlaridandir.

¹ I.A.Karimov. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., 2000, 6-bet.

*Mustaqillik uchun kurash turli shakllarda bo'lishi mumkin.
Bular quyidagilardan iborat:*

a) ko'plab mamlakatlar va xalqlarning o'z ozodligi uchun xalqaro imperializm, buyuk davlat shovinizmi va kommunizm hukmronligiga qarshi birgalikda kurashi;

b) har bir mamlakat, millat o'zining mustaqilligi uchun kurashi.

Xalqaro imperializm, sovet totalitar tuzumining jahondagi ko'plab mamlakatlarda o'rnatgan zulmi milliy ozodlik harakatlarining, bir-biri bilan bog'langan jarayon sifatida, kuchayishiga sabab bo'ldi. Bunday kurashlar dunyoning turli joylarida, turli sharoitlarda, turli davrlarda bo'lishidan qat'iy nazar, ular mustamlakalar bilan metropoliyalar o'rtasidagi ziddiyatlar keskinlashishining oqibati edi. Bu kurash natijasida xalqaro imperializm va sovet totalitar tuzumining tomirlariga bolta urildi, ko'plab mamlakatlar, xalqlar o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi uchun imkoniyat yaratildi.

Milliy mustaqillik uchun kurash har bir mamlakatning maqsad va manfaatlari bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Milliy mustaqillik ayrim mamlakatni boshqa davlat asoratidan qutqazish, o'z taraqqiyoti yo'llarini mustaqil hal eta olishiga imkon yaratishdir. Bu o'rinda mustaqillikka intilayotgan davlatning, unda yashayotgan barcha aholining manfaatlari birinchi o'rinda turadi va shu maqsadlar asosida kurash olib borilmog'i lozim.

Ko'p millatli mamlakatlarda davlat mustaqilligini bir millat mustaqilligi bilangina tenglashtirish nazariy xatoliklarga, amaliy chalkashliklarga, ixtilosflarga olib kelishi mumkin. Mustaqil davlat asosiy yerli millatnigina emas, balki, shu mamlakatda yashayotgan boshqa millatlarning manfaatlarini ham himoya etmog'i zarur.

Umuman olganda, milliy mustaqillikning jamiyat taraqqiyoti tezlashishiga ko'rsatadigan ijobiy ta'siri quyidagilardir:

1) mustaqillik tufayli har bir mamlakat va millat o'z iqtisodiy imkoniyatlaridan, ishlab chiqaruvchi kuchlaridan ularning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik oqibatlarini to'la hisobga olgan holda, oqilona foydalana oladi;

2) fan-texnika taraqqiyoti borasidagi yutuqlar ayrim davlatlarning monopoliyasi bo'lib qolmay, barcha mamlakatlarda ularning keng qo'llanishiga imkon yaratiladi;

3) barcha mustaqil mamlakatlar o'rtasida tenglik, teng huquqlilik va hamkorlikka asoslangan yangi iqtisodiy, siyosiy munosabatlar o'rnatilishi mumkin bo'ladi;

4) jahoning tabiiy resurslaridan butun insoniyat va kelajak avlodlar manfaatlarini ko'zlab, oqilona foydalanish yo'liga o'tish mumkin bo'ladi;

5) milliy va irqiy munosabatlardagi barcha adolatsizliklarga, tengsizliklarga chek qo'yilib, har bir xalq ma'naviyati, milliy xususiyatlari, qadriyatlarini erkin rivojlantira olishiga sharoit yaratiladi, milliy, umuminsoniy qadriyatlar birgalikda, uzviy bog'liq ravishda rivojlanishiga imkoniyat yuzaga keladi;

6) jahondagi xalqlar, mamlakatlarning iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotini muvofiqlashtiruvchi xalqaro tashkilotlar faoliyatini har tomonlama rivojlantirishga sharoit tug'iladi.

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida bu tadbirlarni bir-biri bilan bog'liq ravishda amalga oshirish jamiyat rivojlanishini tezlashtirishning muhim shartidir. Hozir O'zbekistonda izchil amalga oshirilayotgan islohotlarning dastlabki natijalari bu fikrning isbotidir.

2-§. Mustaqil O'zbekiston rivojining ijtimoiy-falsafiy jihatlari

1991-yilning 31-avgustidan e'tiboran, ona-Vatanimiz ko'hna tarixi solnomasida yangi sahifa — O'zbekistonning milliy davlat mustaqilligi davri boshlandi. Qariyb bir yarim asr davomida hukm surgan mustamlakachilik, mustabidchilik tuzumlari barham topdi. Xalqimizning azaliy orzu-umidlariga erishishi, armonlarini ushalishining debochasi bo'lmish ushbu taqdirilomon vaziyatda jamiyatimiz oldida qator murakkab masalalar, muammolar ko'ndalang bo'ldi. Mustaqillik nima o'zi, biz endilikda qaysi yo'ldan va qayoqqa qarab yuramiz, uzoq hamda yaqin o'tmishdan nimalarni o'zimiz bilan kelajak uchun olamiz va ularning nimalaridan voz kechamiz kabi savollar butun ijtimoiy ongimizni qamrab oldi. Iqtisodiyotdan siyosatgacha, moddiylikdan ma'naviyatgacha, ijtimoiylikdan inson shaxsigacha, davlatchilikdan fuqarolikkacha, uzoq tariximizdan hozirgi kunimiz va ertangi taqdirimizgacha taalluqli bo'lgan barcha jabhalar, voqeja, hodisa hamda narsalarni aql-zakovatning xolis tarozisiga qo'yish zarurati tug'ildi.

Siyosiy jihatdan e'lon qilingan mustaqilligimizni hayotiy voqelikka aylantirishning tubida yotgan muammolarning jiddiyligiga mamlakatimiz fuqarolarining diqqat-e'tiborini qaratib, davlatimiz rahbari quyidagi fikrni alohida ta'kidladi: „*Markazlashtirilgan tartibda rejalashtirish va boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik*

uslubidan bozor iqtisodiyotiga o'tish — bu mavjud xo'jalik yuritish usulini yangilash yoki takomillashtirish emas, balki tamoman yangicha xo'jalik yuritish tizimini joriy etishdir. Bu bir sifat holatidan ikkinchisiga, o'tishdir. Bu odamlar uchun mutlaqo yangi hayot falsafasidir¹.

Hech qanday sog'lom jamiyatni sog'lom ma'naviyatsiz, uning muhim tarkibiy qismi — sog'lom falsafasiz tasavvur etish aslo mumkin emas. Chunki, inson, jamiyat hayoti muammolari aql, tafakkur tomonidan teran tahlil qilinmas, puxta qamrab olinmas ekan, ijtimoiy jarayonlar hali odamlar izmiga bo'ysunmagan bo'ladi, demakki, ularning kishilar manfaatlariga xizmat qilayotganligiga hech qanday jiddiy kafolat yo'q.

Xilma-xil, rang-barang olamning tabiiy-tarixiy jarayonlaridagi umumiylikni, o'zaro aloqadorlikni, qonuniyatlarni kashf etmay, butun insoniyat, jumladan muayyan jamiyat, xalq, millat, shaxs hayotiga daxldor masalalarни hal etish mumkin emas. Ma'lumki, faqat falsafagina jamiyatga, kishilarga yakka narsa, voqeа va hodisalar tizimi tubida yotgan umumiylikni, tasodifiyliklar ortidagi qonuniylikni ko'ra bilish negizida ularga o'z turmushlarini anglash, ijtimoiy-siyosiy boshqarish, yo'naltirish imkoniyatini beradi.

3-§. Islohotlarning falsafiy asoslari

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar quyidagi falsafiy asoslarga tayanadi:

a) milliy ma'naviyat va ijodiv tafakkur— jamiatit iitimoiv vangilanishining bosh omillari.

Mustaqil O'zbekistonning ijtimoiy rivoji ehtiyojlari jamiyatda milliy ma'naviyatni, mamlakatning har bir fuqarosida ijodiy fikr qila olish qobiliyatini shakllantirish vazifasini kun tartibiga qo'ydi.

Agar istibdod tuzumi davrida ma'naviyat moddiy, iqtisodiy rivojlanishning hosilasi, natijasi, deb qaralgan bo'lsa, bugunga kelib, biz ma'naviyatni iqtisodiy ravnaqning nafaqat hosilasi, balki uning dastlabki sharti sifatida ham idrok etmoqdamiz. Zero, biron-bir binoni qurmoqchi bo'lган kishi, avvalambor, uning loyihasini (g'oyasini) pishirib oladi.

Ma'naviy imkoniyatlar darajasi qancha yuqori bo'lsa, amalga oshirilajak ishlarning ko'lami shuncha keng va ularning samarasini ham yuksak bo'ladi.

¹ I. A. Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, maskura. 1-jild. T., „O'zbekiston“, 1996, 315-bet.

Shu boisdan ham mamlakatimiz yo'lboshchisi, istiqolga erishilgan dastlabki kunlardayoq, ko'zlanayotgan olivjanob ezgu niyatlarga erishishimizning asosiy sharti — Vatanimiz fuqarolari dunyoqarashini tubdan o'zgartirishda, uni mutelik, boqimandalik kayfiyatlar kabi nuqsonlardan xoli etishda ekanligini alohida ta'kidladi. Zero, „Bozor munosabatlariga o'tishning o'z yo'lini tanlab olish aholining tafakkur va milliy-tarixiy turmush tarzini; xalq an'analarini va urf-odatlarini har tomonlama e'tiborga olishga hal qiluvchi darajada bog'liqdir“.

Mazkur masalalarni biz uchun o'ta dolzarb muammolarga aylantirgan yana bir holat bor. U ham bo'lsa — bizning mustaqillikka jamiyatni ma'naviy inqiroz qamrab olgan, boy madaniy mero-simiz, urf-odatlarimiz, azaliy qadriyatlarimiz, jumladan, ona tilimiz toptalgan, oyoq-osti qilingan bir paytda erishganligimizdir.

Ushbu ehtiyojni qondirishga da'vat etilgan ma'naviyat zamonaviylikning yuksak ruhi bilan chuqur sug'orilgan va milliy-ligimiz, tilimiz, dinimiz, urf-odatlarimiz, qadimiyan'analarimizga tayangan bo'lmosg'i zarur. Shunday ma'naviyatgina xalqimiz, millatimiz, mamlakatimizni ilg'or jahon hamjamiyatidan munosib o'rinnishiga imkon yaratadi.

Ma'naviyat, tafakkur deganda, avvalambor:

— har bir insonni o'z shaxsiy iqtidori, iste'dodi, qobiliyati, ijodiy imkoniyatlarini mumkin qadar to'la ishga solish, namoyon qilish, rivojlantirishga undovchi mehnat, ishlab chiqarish madaniyatini;

— bozor munosabatlarining raqobatga asoslangan murakkab sharoitlarida to'g'ri yo'l tutishning iqtisodiy madaniyatini;

— moddiy va ma'naviy iste'moli yuksak darajasining muhim ko'rsatkichi — turmush madaniyatini;

— mehnat jamoalari, aholi istiqomat qiladigan joylarda, kishilar o'rtasida tarkib topadigan, o'zaro yordam, hamkorlik, hamdardlik hamda insonga hurmat kabi, muhim fazilatlarni taqozo etuvchi, insoniy munosabatlar madaniyatini;

— hamma sohada ezgulikni qaror toptiruvchi axloqiy madaniyatni;

— har bir kishi tomonidan o'z huquqi hamda majburiyatlarini puxta bilishni, ularni o'zi va boshqalar farovonligi yo'lida amalda qo'llay olishni uddasidan chiqishning jiddiy omili — siyosiy madaniyat va hokazolarni nazarda tutamiz.

¹ I. A. Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. T., „O'zbekiston“, 1996, 293-bet.

Mustaqil O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar siyosatining mohiyati, uning hayot mantig'i milliy mafkura talablarini har tomonlama hisobga olgan teran falsafaga qay darajada tayanganligi bilan belgilanadi. Ayni shunday falsafaga tayanib, mamlakatimizda yuz berayotgan tub islohiy o'zgarishlarning asosiy tamoyillari, ustuvor yo'naliishlari aniqlangan va aniqlanmoqda;

b) tub islohotlarning asosiy tamoyillari va ustuvor yo'naliishlari.

O'zbekistonda jamiyatni tub isloh qilishning asosiy tamoyillari mamlakat Prezidenti I.A.Karimov tomonidan olg'a surilgan beshta falsafiy-siyosiy qoida timsolida ifoda etilgan¹. Ularning mohiyati quyidagicha:

Birinchidan, iqtisodiy islohotlar siyosiy-mafkuraviy mayllar manfaatiga bo'ysundirilmasligi kerak. Ya'ni, iqtisod siyosat uchun emas, balki, siyosat iqtisod uchundir. Iqtisodning siyosatdan ustunligi haqidagi fikrning ma'nosi mana shunda. Bundan tashqari, iqtisod mafkurani sinash maydoniga aylanmasligi, o'zining ichki qonuniyatlari asosida, erkin rivojlanmog'i darkor. Bu ham ichki, ham tashqi iqtisodiy munosabatlarga biday taalluqlidir.

Ikkinchidan, islohotlarning bosh rahnamosi davlat bo'lmosi i'lmog'i lozim. Davlatning islohotlar bosh yo'naliishlarini belgilashdagi, tub o'zgarishlar siyosatini ishlab chiqish va uni amalga oshirishdagi faoliyatining susayishi jamiyatda boshboshdoqlikka, yangiliklardan manfaatdor bo'limgan aksilislohotchilarining buzg'unchilik sa'y-harakatlarining kuchayishiga olib keladi. Islohotlarni faqatgina demokratik tamoyillarga asoslangan qonunning ustuvorligini ta'minlagan davlatgina amalga oshirishi mumkin.

Uchinchidan, jamiyatda qonunlarga rioya etishning ustuvorlik darajasi ta'minlanmog'i darkor. Kishilarda mustabidchilik davrida shakllangan, qonunlarga bepisandlik bilan qarash kabi kayfiyatlarga barham berish, ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, fuqarolarda, mansabdor shaxslarda Konstitutsiya, qonunlarga hurmat, ularga so'zsiz itoat etish fazilatlarini ildiz ottirish.

To'rtinchidan, aholining nufusiy (demografik) tarkibini, xususan uning ehtiyojmand qatlamlarini aniq hisobga oluvchi kuchli, samarali ijtimoiy muhofaza siyosatini amalga oshirish. Bu siyosat bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida jamiyatni ehtimoliy larzalardan, portlashlardan saqlaydi, umummiliy barqarorlikni ta'minlaydi.

¹ **I. A. Karimov.** O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. T., „O'zbekiston“, 1996, 301-bet.

Beshinchidan, bir ijtimoiy tuzumdan ikkinchisiga, jumladan, bozor iqtisodiyotiga o'tish „inqilobiy to'ntarishlarsiz“, tadrijiylik yo'li bilan, bosqichma-bosqich yuz beradi. Mazkur tamoyil xalqimizning tarixan tarkib topgan hayot tarzi, an'analari va udumlariga tamomila mosdir.

Mustaqil O'zbekiston mazkur tamoyillarga tayanib, tub islohotlar ko'lамини bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan ustuvor yo'naliшhlarini muayyan falsafiy yondashuvlar negizida belgiladi va ularni qadam-baqadam aniqlashtirib bormoqda.

Mana shundan kelib chiqib, mustaqil O'zbekistonda yuz berayotgan barcha islohiy o'zgarishlardan ko'zlanayotgan maqsad — mamlakat aholisi, har bir fuqaro, oila uchun insonga munosib hayot va faoliyat sharoitlarini yaratish ekanligi e'lon qilingan.

Ushbu maqsadga erishishning falsafiy asoslangan yo'llari quyidagilardan iborat:

- xalqning ma'naviy yetukligini, axloqiy barkamolligini ta'minlash, uning ongidagi xurofiy aqidaparastlik mayllariga barham berish, iqtisodiy hayotni chuqur, har tomonlama isloh qilish, mulkchilikning xilma-xilligini joriy etish;
- ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlarni qaror toptirish;
- islohotlarning huquqiy negizlarini yaratish;
- ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, fuqarolar osoyishtaligi, umummilliyl totuvlikni ta'minlash;
- kuchli fuqarolik jamiyati hamda davlat boshqaruvinga unga monand tizimini barpo etish;
- iqtisodiyotni boshqarishning bozor munosabatlari talablari tabiatiga mos yangi tashkilotlari, muassasalarini vujudga keltirish, uning ma'muriy-buyruqbozlik tizimini barham toptirish va hokazolar.

Mustaqil O'zbekistonda amalga oshirilgan islohotlarning dastlabki bosqichida ikkita taqdirshumul vazifani birdaniga hal qilishga to'g'ri keldi. Ular, *bir tomonidan*, bizga mustabid tuzumdan meros bo'lib o'tgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi asoratlarini yengish, u keltirib chiqargan tanglikka barham berish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish va *ikkinci tomonidan*, respublikaning o'ziga xos sharoitlari hamda xususiyatlarini hisobga olgan holda, bozor munosabatlariga o'tishning huquqiy negizlarini shakllantirishdan iborat bo'ldi. Mamlakatning Asosiy Qonuni — mustaqil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qator qonunlar qabul qilindi. Ular iqtisodiyotda, jumladan qishloq xo'jaligidagi, davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimida, narxlarni erkinlashtirish, bozor infratuzilmasini shakllantirish, tashqi iqtisodiy faoliyat, ijtimoiy kafolatlarni

ishonchli ta'minlash, xalqning ma'naviy-ruhiy tiklanishi, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlash sohalarida tub o'zgarishlarni amalga oshirishning qonuniy zaminini tashkil etdilar.

Islohotlarning dastlabki bosqichida erishilgan natijalar, ularning yangi bosqichi ustuvor yo'nalishlari hamda vazifalarini aniqlash imkoniyatini berdi. Mulkning aksariyat qismini davlat tasarrufidan chiqarish, uni xususiy lashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish, makroiqtisodiyotni barqarorlashtirishga erishish, milliy pulimiz — so'mning qadrini oshirish, iqtisodiyotda, xususan qishloqda, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ijtimoiy kafolatlarning ishonchli tizimini ta'minlay olishga qodir fuqarolik jamiyatni va demokratik huquqiy davlatni qurish — mazkur ustuvor yo'nalish hamda vazifalar jumlasiga kiradi.

Ko'zlanayotgan maqsadga erishish va unga olib boruvchi yo'ltagi amaliy vazifalarni ado etishga qaratilgan sa'y-harakatlarning muvaffaqiyatini ta'minlovchi manbalar xususiga kelsak, ularni quyidagilar tashkil qiladi:

Birinchidan, kishilarning sermahsul mehnat qilishlarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirishning ta'sirchan, baquvvat tizimini shakllantirish, har bir kishining samarali mehnat qilishdan shaxsiy manfaatdor bo'lishini ta'minlashning ijtimoiy kafolatlarini yaratish. Bu — har bir fuqaroning mulkka egalik huquqi, iqtisodiy faoliyatda to'la erkin, ya'ni bozor munosabatlарining to'laqonli sohibi bo'lishi demakdir.

Ikkinchidan, aholining yuqori darajadagi zamonaviy savodxonligiga, yuksak madaniyatli bo'lishiga erishish. Chunki, faqat yuqori saviyali, ma'lumotli, madaniyatli va kasbiy tayyorgarligi jihatidan yetuk bo'lgan fuqaroviy shaxsgina iqtisodiy erkin, demokratik hamda ma'naviy o'zgarishlarning ishonchli tayanchi bo'la olishi mumkin.

d) fuqarolik jamiyatini aaror toptirish va demokratik huquqiy davlatni barpo etish — O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashning hal qiluvchi sharti.

Demokratiya, — hozirgi zamon jahon ijtimoiy taraqqiyotining bosh tamoyili sifatida o'zini tobora yaqqol namoyon qilmoqda. Uning ijtimoiy va milliy ravnaqni, mamlakatlar, xalqlar, davlatlar mustaqilligini ta'minlash, mustahkamlash, ular o'rtaсидаги o'zarо manfaatli munosabatlarni vujudga keltirishdagi beqiyos ahamiyati fuqarolik jamiyatini qaror toptirish, rivojlantirish masalasini davrimiz ilg'or ijtimoiy-siyosiy fikrining dolzarb mavzusiga aylantirdi. Zero, fuqarolik jamiyatjisiz demokratiyaning bo'lishi mumkin emas, usiz esa demokratik huquqiy davlatni barpo etib bo'lmaydi.

Mustaqil O'zbekiston demokratiyani o'z taraqqiyotining bosh yo'li sifatida tanladi. Demakki, fuqarolik jamiyatni va demokratik huquqiy davlatni qurish — bizning istiqboldagi vazifamizdir. I.A.Karimov, ushbuni nazarda tutib, aytganidek: „*Biz fuqarolik jamiyatini qurishga intilmoqdamiz. Buning ma'nosi shuki, davlat-chiligimiz rivojlana borgan sari boshqaruvning turli xil vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya'ni o'zini o'zi boshqarish organlarini yanada rivojlantirish demakdir*“¹.

„Fuqarolik jamiyat“ tushunchasining xilma-xil talqinlari mavjud. Ammo, mazkur ijtimoiy hodisaning bugungi kunda tushunilishini quyidagi jihatlarda ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, u:

- davlat hokimiyyati tizimining ijtimoiy negizi;
- jamiyat a'zolari ijtimoiy faolligini shakllantirish, ta'minlash makoni;
- jamiyatni demokratiyalashning ijtimoiy-siyosiy zamini;
- davlat hokimiyyati idoralari tizimi vakolatlari, ta'sir doirasini oqilona chegaralash va uning ustidan jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish vositasi;
- kishilar o'rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy munosabatlarning siyosiy lashmagan tomonlari;
- siyosiy tizim — davlat hokimiyyati shakllanishining dastlabki negizi.

O'z navbatida, umuminsoniy tamoyillar va me'yorlarni, butun ilg'or dunyoda chuqur ildiz otgan demokratik qadriyatlarni o'rjanmasdan, ulardan ijodiy foydalanmasdan yurtimizda samarali faoliyat ko'rsatishga qodir siyosiy institutlarni, fuqarolik jamiyatni va demokratik huquqiy davlat asoslarini shakllantirib bo'lmaydi.

Mustaqil O'zbekistonda ushbu muammolarni hal etishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil ko'rib borilmoqda. Zotan, fuqarolik jamiyatni va demokratik huquqiy davlat — O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashning hal qiluvchi shartidir. Mazkur yo'nalishidagi istiqbolimizni ta'minlash uchun zarur bo'lgan barcha asoslarga egamiz.

4-§. Mustaqil O'zbekiston davlati islohotchilik siyosatining bosh tamoyillari va asosiy yo'nalishlarining falsafiy tahlili

Demokratiyani butun ijtimoiy rivojimizning asosiy yo'li sifatida e'tirof etish, erkin insoniy yo'naltirilgan bozor munosabatlarini shakllantirish, yuksak ma'naviy madaniyatga erishish, milliy

¹ I. A. Karimov. Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir. 3-jild. T., „O'zbekiston“, 1996, 11-bet.

xavfsizligimizni ta'minlash maqsadlari — mustaqil O'zbekiston davlati islohotchilik siyosatining bosh tamoyillarini tashkil qiladi. Mazkur tamoyillarga tayangan islohotlar yo'lining asosiy yo'naliishlari doirasida quyidagi natijalarga erishildi va vazifalarni bajarish ko'zda tutiladi:

Siyosiy sohada. Mustaqillik yillarda O'zbekistonning siyosiy tizimida taqdirshumul o'zgarishlar ro'y berdi. Milliy davlat-chiligidimizning huquqiy poydevori yaratildi. Jahondagi eng demokratik siyosiy tuzumning muhim tarmog'i — davlat hokimiyatining vakillik tizimi vujudga keldi. Mamlakat parlamenti — Oliy Majlis, davlat hokimiyati mahalliy vakillik idoralariga ilk bor ko'p partiya-viylilik asosidagi saylovlar o'tkazildi. Davlat hokimiyati bo'linishining Konstitutsiyaviy tamoyillari asosida, uning ijroiya va sud tarmoqlari qaror topdi.

Yangi tarixiy vaziyatda an'anaviy boshqaruvning o'tmishimizda sinalgan shakli — hokimliklar tiklandi.

Chinakam milliy ravnaqqa biz faqat davlat hokimiyati bilan fuqarolik jamiyatni vakolatlarini o'zaro oqilona muvozanatlashushi orqali erishamiz. Fuqarolik jamiyatida davlat hokimiyati, asosan umummilliyl manfaatlarni ifoda etadi, butun mamlakat ijtimoiy taraqqiyotining istiqbolini belgilaydi, unga erishishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlaydi. Qonunchilik, talq ta'limi, sog'liqni saqlash, negiziy (fundamental) ilm-fan, mudofaa, davlat xavfsizligi, tashqi siyosat, pul-moliya, soliq tizimi sohalari shular sirasiga kiradi.

Zamonaviy davlat, jamiyat qurishning mazkur yo'lini ta'minlashga qaratilgan qonunlar majmuasini yaratish ustuvor vazifa hisoblanadi. Kishilar o'rtasidagi ijtimoiy, siyosiy va millatlararo tenglikni ta'minlashga xizmat qiluvchi barcha darajalardagi davlat hokimiyati idoralarining ularga bevosita daxldor vakolatlarini aniqlab beruvchi, davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimi vazifalarini bosqichma-bosqich markazdan quyiga — ularning viloyat, shahar, tuman bo'g'indan hamda mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv darajalariga o'tishiga huquqiy zamin bo'lib xizmat qilish mazkur qonunlar majmuasining zimmasiga tushadi.

Ta'lim, kadrlar tayyorlash sohalarini isloh qilish vazifasi butun ijtimoiy taraqqiyotimizni rivojlantirishning muhim zaruriy shartiga aylandi. Zero, davr zamonaviy ilg'or texnologiyalarda ishlay oladigan, bozor munosabatlari qonuniyatlariga monand tarzda fikr qila biladigan yetuk mutaxassislarni tayyorlashni taqozo etmoqda.

Ushbu ehtiyojga javoban, Oliy Majlisning IX sessiyasi, 1997-yilda, I.A.Karimov tashabbusi bilan, „**Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi**“ni O‘zbekiston Respublikasining „Ta’lim to‘g‘risida“gi Qonunini qabul qildi.

Mustaqil O‘zbekistonda inson shaxsi erkinligi, uning huquqlari muhofazasi butun bir qonunlar tizimi bilan ta’min qilingan. Inson huquqlari bo‘yicha Oliy Majlis vakili, Inson huquqlari respublika milliy markazi, Oliy Majlisning amaldagi qonunchilik monitoringi instituti kabi muassasalarning tashkil etilishi ham shular jumlasiga kiradi. Albatta, I.A.Karimov aytganidek, „*Hokimiyat tuzilmalarining demokratik mazmuni ko‘p jihatdan davlatni boshqarishda fuqarolarning ishtirok etishi masalasi qanchalik hal qilinganligi bilan belgilanishi ma’lum. O‘zbekistonda ushbu huquqning amal qilishi uchun qonun asoslari yaratilgan*“⁴. Biroq, mamlakatimiz yo‘lboshchisining fikricha, hali jamiyat va fuqarolar davlatni boshqarishda ishtirok etish, o‘zlarining qanday boshqarilayotganliklari to‘g‘risida axborot olish huquqini anglashiga hamda mazkur huquqdan amaliy hayotda foydalana oladigan bo‘lishlariga erishmoq zarur. Shundagina davlat hokimiyati idoralari, ulardagи mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldidagi o‘z mas’uliyatlarini his etadigan bo‘ladilar.

Buning uchun fuqarolarning siyosiy faolligini oshirish talab etiladi. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakat aholisi, har bir kishi tafakkurini chuqur o‘zgartirishni, ularning ma’naviy, jumladan huquqiy madaniyati darajasini yuksak saviyada bo‘lishini ta’milashni o‘ta jiddiy hayotiy zaruratga aylantirmoqda, Shu bois, Oliy Majlisning IX sessiyasi „**Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi**“ni qabul qildi. Uni ro‘yobga chqarishga qaratilgan jiddiy chora-tadbirlarni amalga oshirish ko‘zda tutilmoqda.

Inson manfaatlari shaxs va davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosa-batlarda ustuvor bo‘lishi kerak. Davlat hokimiyati tizimining uchala — qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud tarmoqlari o‘z faoliyatlarini inson huquqlarini muhofaza qilish bilan bog‘lamoqlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o‘rinda respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan Konstitutsiyaviy, Oliy va Oliy xo‘jalik sudlarining o‘rni alohidadir.

⁴ I. A. Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdidi barqarorlik shartlari va taraqqivot kafolatlari. Asarlar, 6-jild. T., „O‘zbekiston“, 1997 (15)-ber.

Respublika parlamenti — Oliy Majlis sobiq Oliy Kengashdan o‘zining butun mazmun-mohiyati bilan tubdan farq qiladi.

Bu nimalarda o‘z ifodasini topmoqda?

Avvalambor, Oliy Majlis deputatlari ko‘ppartiyalilik tamoyili asosida saylandilar. Ko‘ppartiyalilik tamoyili, endilikda, parlamentchilik ishiga ham joriy etildi va u tobora takomillashib bormoqda. 1994-yilning 25-dekabrida davlat hokimiyati vakillik idoralariga, jumladan Oliy Majlisga, o‘tkazilgan saylovlarda sinfiy yondashuv, nodemokratik tamoyil sifatida, barham top-tirildi.

O‘zbekiston mustaqilligi sharoitida o‘tgan ilk saylovlarda deputatlar turli partiya va siyosiy kuchlarning vakillaridan iborat nomzodlar orasidan, muqobillik asosida, saylandilar. Lekin, I.Karimov ta‘kidlagani kabi, jamiyatni yanada demokratlashtirish va fuqarolik institutlarini shakllantirishda ,*birinchi galda mamlakatimizdagi mavjud siyosiy partiya va harakatlar — buni tan olib aytishimiz kerak — hozirgi zaif va mo‘rt holatdan chiqib, o‘z faoliyatini jonlashtirishi, taraqqiy topgan demokratik davlatlar tajribasi asosida yurtimizda haqiqiy ko‘ppartiyaviylik, demokratik parlamentarizm tizimi, ijobjiy siyosiy raqobat muhitini qaror toptirishga va jamiyatimiz siyosiy maydonida tan olingan oppozitsiya paydo bo‘lishiga hissa qo‘sishni lozim*⁴¹.

Mustaqil O‘zbekistonda davlat hokimiyati va boshqaruvining prezidentlik tizimi joriy etildi va u muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatib, ijtimoiy-siyosiy ongimizda chuqur ildiz otdi. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning serqirra, samarali, fidokorona nazariy, siyosiy, amaliy faoliyati uni jahonning mashhur davlat arboblari qatoriga olib chiqdi, davlat hokimiyati tizimi prezidentlik idorasi nufuzini, mamlakatimiz fuqarolari nigohida, beqiyos oshirib yubordi.

Iqtisodiy sohada. O‘z mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq bozor munosabatlariaga o‘tishni iqtisodiy sohani demokratiyalashtirishning birdan-bir imkoniy yo‘li, deb hisoblagan O‘zbekiston davlati sobiq Ittifoqdan qabul qilib olgan merosni chuqur tahlil qildi. U ham bo‘lsa — xomashyo ishlab chiqarishga mos-lashtirilgan, markazdan turib, ma’muriy-buyruqbozlik usullari asosida boshqariladigan, o‘sha kunlarga kelib, asosan, buzilgan xo‘jalik tizimini tubdan yangilash edi.

⁴¹ „Xalq so‘zi“ gazetasi. 2002-yil 30-avgust.

Mazkur hol jiddiy, puxta o'ylangan siyosiy yo'lni ishlab chiqishni taqozo etdi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning huquqiy negizlarini yaratish ushbu siyosiy yo'lning dastlabki bosqichi bo'ldi. Aholini, xususan uning nochor qatlamlarini, ijtimoiy muhofaza qilishning ta'sirchan choralarini ko'rildi.

Mulkiy munosabatlarni isloh qilishga, ya'ni uni davlat tasarrufidan chiqarish, xususiy lashtirish, ishbilarmonlik, tadbirkorlikni yo'lga qo'yishga qaratilgan qonunlar majmuasi qabul qilindi.

Mustaqil O'zbekiston davlati iqtisodiyotni ma'muriy-buyruqbozlik asosida boshqarish usuli negizida qurilgan tizimga barham bermoqda. Nazorat-taftish idoralari keskin kamaytirilmoqda. Ularning o'rnida bozor munosabatlari mohiyatiga mos tuzilmalar — hissadorlik kompaniyalari, uyushmalar, konsernlar va hokazolar tashkil etilmoqda. Bozor infratuzilmasining boshqa muassasalari ham qaror topdi. Ma'lum muddatga qadar, maxsus mablag' ajratish yo'li bilan, asosiy oziq-ovqat muhsulotlari narxini cheklab turish maqsadida, davlat korxonalariga moliyaviy yordam ko'rsatildi.

Shular bilan bir vaqtning o'zida mulkiy munosabatlarni churqur isloh qilish ishlari amalga oshirildi. Uning tegishli sohalar bo'yicha ustuvor yo'naliishlari belgilandi. 1994-yilning 1-avgustidan milliy valuta — so'm joriy etildi va u muomalaga kiritildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni yo'lga qo'yish bo'yicha jiddiy tadbirlar ko'rildi, chetdan mol keltirish uni o'zimizda ishlab chiqarishni tashkil etish orqali kamaytirildi. Chetga mahsulot chiqarish imkoniyatini ishga solgan korxonalarini rag'batlanirish choralarini amalga oshirildi.

Iqtisodiy sohada erishilgan yutuqlar Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari ichida O'zbekistonning alohida nufuzini vujudga keltirdi. Yurtimiz ijtimoiy barqarorlik, mustahkam tinchlik va maftunkor osoyishtalik diyoriga aylandi. Keyingi yillarning ijobjiy yakunlari makroiqtisodiy barqarorlikka erishish siyosatini amalga oshirish ishlarni dadil boshlab yuborish imkoniyatini berdi. Mustaqil mamlakatimiz makroiqtisodiy barqarorlikdan yuksalish tomon burilish yasadi. Neft va don mustaqilligi qo'lga kiritildi, boshqa ko'plab ehtiyoj mollarini chetdan olib kelish keskin kamaytirildi. Xorijiy sarmoyalarni mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etish uchun keng imkoniyat va shart-sharoitlar yaratildi.

Ma'lumki, O'zbekiston — qishloq xo'jaligi mamlakati. Aholining aksariyat qismi qishloqda istiqomat qiladi. Qishloqda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirmsandan, bu yerda band bo'l-

magan ishchi kuchini jiddiy kamaytirmsandan, mahsulotlarni qayta ishlash, ularni tayyor holga keltiradigan sanoat korxonalarini yaqinlashtirmsandan, yerning egasini topish va unga topshirmsandan mamlakat xalq xo‘jaligining ushbu yetakchi tarmog‘ida to‘planib qolgan o‘tkir iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy-siyosiy ahamiyatga molik muammolarni joyidan siljitish aslo mumkin emas.

Mustaqil O‘zbekiston — katta imkoniyatlar mamlakati. Ajdodlarimizning boy madaniy merosi, hozirgi zamon sivilizatsiyasi yutuqlarini o‘zida mujassamlashtirgan aql-zakovat salohiyati bularning muhim jihatlarini tashkil etadi. Paxta yetishtirish bo‘yicha jahonda to‘rtinchi, uning tolasini eksport qilish bo‘yicha esa ikkinchi o‘rindamiz. Oltin zaxiralari bo‘yicha dunyoda beshinchi, uni qazib chiqarish bo‘yicha esa yettinchi o‘rindamiz. Yana boshqa ko‘plab strategik materiallar, jumladan mis, uran va boshqa nodir metallar to‘g‘risida ham shunday manzarani yaqqol tasavvur etish mumkin.

Endilikda, hamma gap ushbu imkoniyatlardan samarali foydalana bilishdadir. Mustaqillik sharofati bilan amalga oshirilayotgan hamda bundan mamlakatning har bir fuqarosini shaxsan manfaatdor qilishga da‘vat etilgan islohotlar allaqachon pishib yetilgan imkoniyatlarimizni zudlik bilan ishga solinishining jiddiy garovi, kafolatidirlar.

Shunga qaramay, mustaqil O‘zbekiston, mamlakat Prezidenti I.A.Karimov uqtirganidek, istiqlol yillari davomida ...*shu qadar yuksaldikki, endi jahon bozoriga integratsiyalashuv (uyg‘unlashuv) to‘g‘risida gapirish mumkin*¹.

Shubhasiz, o‘zini mustaqil hisoblagan, jahon xo‘jalik tizimida o‘ziga munosib o‘rinni egallashga harakat qilayotgan har qanday mamlakatning quyidagi savollarga amaliy javob topa biladigan bo‘lishi tabiiydir:

— *mamlakat iqtisodiyoti rivojini ta‘minlay oladigan ustuvor soha va tarmoqlar nimalardan iborat?*

— *jahon bozorida xaridorgir mahsulotlarni qanday qilib va nima hisobidan ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish mumkin?*

Bu savollarga javob topmasdan, jahon iqtisodiy hamjamiyatida nufuzli o‘rinni egallamasdan mamlakat rivojini, xalq farovonligini ta‘minlab bo‘lmaydi. Dunyoda biz tanho yurt, yakka-yu yagona

¹ *Qarang: I. A. Karimov. O‘zbekiston suzib yuradigan muztog‘ emas. „Xalq so‘zi“ gazetasi, 1997-yil 12-noyabr.*

xalq emasmiz. Iqtisodiy mustaqillikni qanchalik qo'lga kiritmaylik, o'zimiz uchun zarur barcha narsalarni faqat o'zimiz ishlab chiqara olishimiz mumkin emas. Boshqa mamlakatlar ham shunday sharoitda yashashadi. Shuning uchun ham jahon bozorida, xalqaro mehnat taqsimoti bor. Jahonning rivojlangan mamlakatlari bilan „teng tilda“ gapira olishni yo'lga qo'yish, ular bilan xuddi shunday teng darajada rivojlangan bo'lishni taqozo etadi. Aks holda, mamlakat mustaqilligi asoslanmagan, mustahkamlanmagan, demakki, istiqbolsiz bo'ladi. Boshqacha aytganda, u rasman mustaqil bo'lgan holda, boshqa rivojlangan mamlakatlarga iqtisodiy, demakki, siyosiy jihatdan ham qaramligicha qolaveradi.

Ijtimoiy sohada. Odam o'z tabiatiga ko'ra ijtimoiy hodisa ekanligi to'g'risidagi falsafiy ta'limot mustaqil O'zbekiston davlati butun ichki va tashqi siyosatining nazariy-uslubiy negizini tashkil etadi. Bu — odam faqat jamiyatda shakllanadi, rivoj topadi, uning barcha muhim xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi, degan ma'no ni bildiradi.

Odamni o'zgartirish, uni kamol toptirish uchun jamiyatni, undagi iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy munosabatlarni tegishli tarzda, ya'ni insoniylik negizida o'zgartirmoq zarur. Modomiki, odam jamiyatning mahsuli ekan, demak, jamiyat shunday asoslarga qurilmog'i lozimki, uning sharoitida yashayotgan har bir kishining asl odam, chinakam inson, yetuk shaxs bo'lib shakllanishi va kamol topishidan o'zga iloji qolmasin. Ammo, mazkur vazifani birdaniga, ya'ni dab-durustdan, tegishli moddiy, ma'naviy, siyosiy zaminsiz ado etib bo'lmaydi.

Jamiyatning pirovard maqsadi — zaminimizda yashayotgan odamlarning istiqbolda insonga munosib turmush kechirishlarini ta'minlashga qaratilgan bo'lsa-da, ayni paytda, mamlakatimiz aholisi muayyan qatlamlari moddiy ahvolining yomonlashuviga yo'l qo'ymaslik, ularni ijtimoiy himoyalash choralarini ko'rish ham o'tish davrida katta ahamiyatga ega.

Mana shulardan kelib chiqib, mustaqil O'zbekiston davlati o'zining aniq mo'ljallangan ijtimoiy himoya siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgiladi. Ular quyidagilardan iborat:

Birinchidan, ijtimoiy himoya, avvalambor, barcha uchun imkoniyatlar tengligini ta'minlashdir. Toki, har bir fuqaro iqtisodiy faoliyat, mehnat qilish, kasb-korni erkin tanlash, o'z oilasini boqish, ma'lumot olish, tibbiy xizmatdan foydalanishda boshqalar bilan teng huquqlarga ega bo'lsin.

Ikkinchidan, mamlakat har bir fuqarosining mulk sohibi bo‘lishini ta’minlash yuqoridagi maqsadga erishish imkoniyatini beradi. Mulk egasigina sermahsul, fidokorona mehnat qila olishi mumkin.

Uchinchidan, mustabid jamiyatda olomonga aylangan aholini faqat mulkdorlar sinfini vujudga keltirish orqaligina xalq sifatida qayta shakllanishiga erishish mumkin. Iqtisodiy manfaatlar negizida tarkib topgan mulkdorlargina fuqarolik jamiyatining tayinli ijtimoiy negizini, demokratik huquqiy davlatning „umurtqa suyagini“, uning mustahkam tayanchini tashkil eta oladi.

To’rtinchidan, shundan kelib chiqib, aholining muhtoj qismlari — ko‘p bolali oilalar, yoshlar, nogironlar, nafaqaxo‘rlar, mehnat va urush faxriylari, vaqtincha ishsiz qolganlar va boshqa ehtiyojmandlarni qo’llab-quvvatlash davlatimiz ijtimoiy siyosatining muhim yo‘nalishi bo‘lib qolaveradi.

Beshinchidan, sog‘liqni saqlash, ta’lim, madaniyat, san’at, ilm-fanning bozor munosabatlariga o‘tish davrida tushib qoladigan mushkul ahvolini yaxshilash ham mazkur yo‘nalishdagi siyosatning uzviy tarkibiy qismidir.

Ayni kuchli ijtimoiy himoya davlat siyosatini izchil amalga oshirish, pirovard natijada, kishillardagi boqimandalik kayfiyatlarining payini qirqadi, fuqarolarni sermahsul mehnat qilishga undaydi, ijtimoiy faolligini oshiradi, davlat qudratini, uning mustaqilligini mustahkamlaydi, jamiyat a’zolari turmushining farovonligini ta’minlaydi.

Ma’naviy sohada. Mustaqil O’zbekiston davlatining ma’naviyat sohasidagi siyosati mazkur jabhaning mamlakatimizda ko‘zlanayotgan barcha insoniy maqsadlarga erishishning, uning bozor iqtisodiyotiga tayanuvchi demokratik jamiyatga ma’rifatli yo‘l bilan kirishning ruhiy assosi hamda jamiyatdagi ijtimoiy kafolatlarni mustahkamlashni xalqimizning madaniy saviyasi rivojiga uzviy bog‘liq ekanligini e’tirof etish bilan tavsiflanadi.

Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan va ro‘yobga chiqarilajak sa‘yi harakatlarning mohiyati, mazmuni hamda ahamiyatini ta’kidlab, I.A.Karimov tomonidan aytilgan fikrlarning o‘zagini quyidagi falsafiy qoidalar tashkil etadi: *islohotlar, xususan qishloq xo‘jaligini isloh qilish, butun hayotimizni o‘zgartiradi; odamlar tafakkurini esa faqat turmush, hayot tarzигина о‘зgartира олади; turmush, hayot tarzi ongni belgilaydi; odamlarning turmushini, hayot tarzini qanchalik ko‘p o‘zgartirsak, eski tuzum asoratlарини qay darajada barham toptirsak, kishilarning tafakkur tarzi ham shuncha tez o‘zgaradi.*

Mustaqil O'zbekistonda, mamlakat Prezidenti I.A.Karimov rahbarligida amalga oshirilayotgan siyosat ma'naviyatning ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rni va ahamiyatini aynan mana shu mazmunda tushunishga asoslangan falsafiy qoidalar negizida qurilgan.

Mamlakatimiz yo'lboschchisining fikricha: „*Xalqning ma'naviyat va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o'ziga xosligi qayta tiklanayotganligi jamiyatimizni yangilash va taraqqiy ettirish yo'lida muvaffaqiyatli ravishda olg'a siljitimda hal qiluvchi, ta'bir joiz bo'lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir*“¹.

Shu bilan birga, ayni mustaqillik yillarda ma'naviy sohada o'z ifodasini topgan aniq-ravshan yutuqlarni jamiyatni yangilash jarayoni ilk bosqichining ulkan muvaffaqiyati deb, hisoblamoq kerak.

Lo'nda qilib aytganda, mustaqillik yillari mobaynida bosib o'tgan yo'limiz bizni, insoniylik ruhi bilan sug'orilgan, bozor munosabatlariga asoslangan fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlatni faqat ilg'or ma'naviyatning mustahkam poydevori negizida qurish mumkinligi haqidagi xulosaga olib keldi. Zero, I.A.Karimovning mutlaqo haqli ravishda uqtirishicha: „*Faqat bilimli, ma'rifatli jamiyatgina demokratik taraqqiyotning barcha afzalliklarini qadrlay olishini va, aksincha, bilimi kam, omi odamlar avtoritarizmni va totalitar tuzumni ma'qul ko'rishini hayotning o'zi ishonarli tarzda isbotlamoqda*“².

Shu bois ham, bizning jamiyatimiz o'z kelajagini faqat fuqarolar ongida mustahkam ildiz otgan yuksak ma'naviy qadriyatlar orqaligina tasavvur qilmoqda. Agar mustaqillik aql doiramizni kengaytirgan bo'lsa, o'z navbatida, aql-zakovat, ma'naviyatimiz mustaqilligimizni mustahkamlash ishiga to'la safarbar etilgandir.

Hayot o'z-o'zidan kishilarni baxt-saodatli qilish darajasiga ko'tarila olmaydi. Buning uchun odamlardan tegishli yo'nalishdagi sa'yi harakatlarni amalga oshirish talab etiladi. Har qanday ezgu, oliyjanob maqsadga yetishishning birdan-bir yo'li — „aqlni

¹ I. A. Karimov. Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir. 3-jild. T., „O'zbekiston“, 1996, 274-bet.

² I. A. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Asarlar, 6-jild. T., „O'zbekiston“, 1998, 134-bet.

peshlab“ ish ko‘rishdir. „Aqlni peshlab“ ish ko‘rishning asosini ayni falsafiy savodxonlik, madaniyat tashkil qiladi. Zero, biz qurishga bel bog‘lagan va barpo etayotgan jamiyat, bu — iqtisoddan tortib, to ma’naviyatgacha bo‘lgan sohalarda demokratik tartibotlarni qaror toptirishdan iborat. Demokratiya esa, o‘z navbatida, bu — kishilar, ijtimoiy guruhlari, tabaqalar, xalqlar, millatlar, davlatlar o‘rtasidagi murosa-yu madoradan boshqa narsa emas. Bunga faqat aqlii kishilar, ma’naviyati yuksak ijtimoiy birliklar, davlatlar, mamlakatlarga qodirdirlar. Bundan shunday xulosa kelib chiqadi: demokratiyanı faqat jamiyat a’zolari — fuqarolarning yuksak ma’naviyati negizidagina qurish mumkin. Faqat shu taxlidagi chinakam demokratiya orqali mintaqaviy harbiy mojarolar va fuqarolar urushlari, diniy ekstremizm va fundamentalizm, buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik, etnik va millatlararo ziddiyatlar, korrupsiya va jino-yatchilikning boshqa ko‘rinishlari, mahalliychilik va urug‘-aymoqchilik illatlarining barham topishi, ekologik muammolarning hal etilishi, umuminsoniy hamda milliy xavfsizlik ta’milanishiga erishishning mustahkam zamini yaratilgan bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **I.A. Karimov.** O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T., „O'zbekiston“, 1992.
2. **I.A. Karimov.** Iстиqlol va ma'naviyat. T., „O'zbekiston“, 1994.
3. **I.A. Karimov.** O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'lida. T., „O'zbekiston“, 1994.
4. **I.A. Karimov.** Biz qurish, yaratish yo'lidan boraveramiz. T., „O'zbekiston“, 1995.
5. **I.A. Karimov.** O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T., „O'zbekiston“, 1995.
6. **I.A. Karimov.** Amir Temur — faxrimiz, g'ururimiz. T., „O'zbekiston“, 1996.
7. **I.A. Karimov.** Xalqimizning yo'li mustaqillik, ozodlik va tub islohotlar yo'lidir. T., „O'zbekiston“, 1996.
8. **I.A. Karimov.** O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T., „O'zbekiston“, 1996.
9. **I.A. Karimov.** Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir. T., „O'zbekiston“, 1996.
10. **I.A. Karimov.** O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., „O'zbekiston“, 1997.
11. **I.A. Karimov.** Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., „Sharq“, 1998.
12. **I.A. Karimov.** O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., „O'zbekiston“, 1998.
13. **I.A. Karimov.** O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., „O'zbekiston“, 1999.
14. **I.A. Karimov.** Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T., „O'zbekiston“, 2000.
15. **I.A. Karimov.** Milliy istiqlol mafkurasi — xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T., „O'zbekiston“, 2000.
16. **Amir Temur o'gitlari.** T., 1992.
17. **Ahmad Yassaviy** (hikmatlar). T., 1991.
18. **Abu Rayhon Beruniy.** Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. T., 1968.
19. **Abu Rayhon Beruniy.** Tanlangan asarlar. 1-jild. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. T., 1968.
20. **Асьус В.Ф.** Античная философия. 1999.
21. **Boynazarov F.** Antik dunyo. T., 1990.
22. **Бучило Н.Ф., Чумаков А.Н.** Философия. 1998.
23. Buyuk siymolar, allomalar. (O'rta Osiyolik mashhur mutafakkir va donishmandlar). 1—3-kitoblar. T., „Sharq“, 1998.
24. Введение в современную философию. 2001.
25. **Вундт В.** Введение в философию. 1998.
26. **Гегел.** Философия права. М., „Мысль“, 1997.

27. Гобозов И.А. Философия политики. 1998.
28. Горбачов В.Г. История философии. 1998.
29. Горохов В.Г. Введение в философию. М., 1998.
30. Грядовой Д.И. Философия. 1999.
31. Гуревич П.С. Философская антропология. 1997.
32. Гурина М. Философия. М., 1998.
33. Губин В.Д. Основы философии. „Форум“, 2003.
34. Davronov Z. Materialistik dialektika va ilmiy dunyoqarash. Т., „O‘zbekiston“, 1997.
35. Дид Ж. Философский словарь. 1997.
36. Jalolov A. Mustaqillik mas’uliyati. Т., 1994.
37. Jumaboyev Y.J. Insonning hayot mazmuni. „Fan va turmush“ jurnali, 1996-yil, 3-son.
38. Jumaboyev Y.J. Hayot mazmuni va komil inson muammosi. Т., 1997.
39. Зотов А.Ф. Современная западная философия. 2001.
40. Zohidov A. Turkistonda O‘rta astr arab musulmon madaniyati. Т., 1993.
41. Ибн Сино. Избранные философские произведения. М., „Наука“, 1980.
42. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo‘rayev N. Vatan tuyg‘usi. Т., „O‘zbekiston“, 1996.
43. История философии. М., 1997.
44. Ивин А.А. Философия истории. 2000.
45. Yo‘ldoshev S. Antik falsafa. Т., 2001.
46. Yo‘ldoshev S. Qadimgi va O‘rta astr G‘arbiy Yevropa falsafasi. Т., „Sharq“, 2003.
47. Yo‘ldoshev S. Yangi va eng yangi davr G‘arbiy Yevropa falsafasi. Т., „Sharq“ 2002.
48. Komilov N. Tasavvuf. Т., 1996.
49. Конфуций. Уроки мудрости. М., „Наука“, 1998.
50. Крапивинский С.Э. Социальная философия. 2001.
51. Кохановский В.П. и др. Философия для аспирантов. „Феникс“, 2003.
52. Лосев А.Ф. Античная философия истории. М., „Мысль“, 1998.
53. Mamashokirov S. Ekologiyaning ijtimoiy-falsafiy muammolari. Т., 1992.
54. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Т., „Ma’naviyat“, 1996.
55. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Т., „O‘zbekiston“, 2000.
56. Мир философии. II часть. Соавторы. М., 2001.
57. Mo‘minov I.M. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rnini va roli. Т., „Fan“, 1993.
58. Ницше Ф. Волк к власти. М., 2000.

59. **Nazarov Q.** Qadriyatlar falsafasi. Т., 2004.
60. Основы философии. Учебное пособие для ВУЗов. Под ред. Ахмедова М.А. и Хан В.С. Т., „O'zbekiston“, 1998.
61. **Otamuradov S., Bahronov J.** Milliy o'zlikni anglash — o'tish davri siyosatining ustuvor yo'naliishi. „Xalq so'zi“ gazetasi, 1995-yil 6-may.
62. **Панарин А.С.** Философия политики. М., „Высш. шк.“, 1996.
63. **Rahimov I.** Falsafa. Т., 1998.
64. **Rahimov I.** Fanlarning falsafiy masalalari. Т., „Universitet“, 2002.
65. **Рассел Вертиги.** История Западной философии. 2002.
66. **Руткевич А.М.** От Фрейда Хайдегеру. М., 1991.
67. **Соколов С.В.** Социальная философия. ЮНИТИ, 2003.
68. **Спиркин А.Г.** Философия. Гардарики. 2003.
69. **Skirbekk G., Gile I.** Falsafa tarixi. Т., „Sharq“, 2002.
70. **Sulaymonova F.** Sharq va G'arb. Т., 1997.
71. **Tulenov J., G'afurov Z.** Falsafa. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun. Т., „O'qituvchi“, 1997.
72. **Tulenov J.T.** Hayot falsafasi. Т., 1997.
73. **Tulenov J.T.** Dialektika nazariysi. Т., „O'zbekiston“, 2001.
74. **To'uchiyev B.** Huquq falsafasi. Т., O'zMU, 2003.
75. **Тураев Б.О.** Пространство, время, развитие. Т., 1992.
76. **Тойнби Н.** Постижение истории. М., „Наука“, 1992.
77. Falsafa. O'quv qo'llanma (E.Y.Yusupov tahriri ostida). Т., „Sharq“, 1999.
78. Falsafa. Ma'ruza matnlari (O'quv-uslubiy qo'llanma). Т., „Kamalak“, 1995.
79. Falsafa. Ma'ruzalar matni. Т., 2000.
80. **Forobiy.** Fozil odamlar shahri. Т., 1995.
81. **Hayrullayev M.** Uyg'onish davri va Sharq mutafakkirlari. Т., „O'zbekiston“, 1991.
82. **Shayxova X.O., Nazarov K.** Umuminsoniy qadriyatlar va ma'naviy kamolot. Т., 1992.
83. **Шленглер О.** Закат Европы. Т. 2. „Айрис-пресс“, 2003.
84. **Choriyev A.** Inson falsafasi. Т., 2002.
85. **Шермухаммедова Н.** Философия и методология наук. Т., „Университет“, 2003.
86. **Ergashev I.** Taraqqiyot falsafasi. Т., „Akademiya“, 2000.
87. **Yusupov E.Y.** Ma'naviyat mezonlariga yangicha yondashuv. „O'zbekiston ovozi“ gazetasi, 1995-yil 22-aprel.
88. **Yusupov E.Y.** Yoshlarning ma'naviy kamoloti. Т., „O'zbekiston“, 1995.
89. **Yusupov E.Y.** Inson kamolotining ma'naviy asoslari. Т., „Universitet“, 1999.
90. **Yusupov E.Y.** Falsafa. Т., 1999.

MUNDARIJA

Kirish	3
--------------	---

I BO'LIM

FALSAFANING MOHIYATI, JAMIYAT HAYOTI VA INSON MA'NAVITY KAMOLOTIDAGI O'RNI

1-§. „Dunyoqarash“ tushunchasi, uning mohiyati	11
2-§. Falsafaning „bahs“ mavzusi, mohiyati va muammolari	16
3-§. Falsafaning jamiyat hayoti, inson ma'naviy kamoloti, fan taraqqiyotidagi roli	25

II BO'LIM

FALSAFIY QARASHLAR RIVOJLANISHINING ASOSIY BOSQICHLARI

1-§. Qadimgi Hindiston, Xitoy va Yunonistondagi falsafiy ta'lilotlar	37
2-§. Qadimgi Turon, Turkistonda ilk diniy - falsafiy ta'lilotlarning vujudga kelishi va rivojlanishi	42
3-§. O'rta asr Islom falsafasidagi asosiy oqimlar	46
4-§. VIII—XII asrlarda O'rta Osiyoda fan va falsafaning rivojlanishi	52
5-§. Tasavvuf va uning falsafiy mohiyati	63
6-§. XIV—XVI asrlarda Amir Temur va Temuriylar davri falsafasi	71
7-§. Yevropada O'rta asr, Uyg'onish davri va yangi davr falsafasi ..	83
8-§. Turkistonda XIX asr oxiri, XX asr boshlarida ijtimoiy-falsafiy, ma'rifiy fikrlarning rivojlanishi	89
9-§. Hozirgi davrning asosiy falsafiy ta'lilotlari (XX—XXI asrlar)	95

III BO'LIM

BORLIQNING FALSAFIY TAHLILI

1-§. Borliq muammosining falsafiy mazmuni. Borliq kategoriyasi	108
2-§. Falsafada substansiya muammosi	110
3-§. Materiya va uning mavjudlik shakkleri	111
4-§. Borliqdagi narsa va hodisalarning o'zaro bog'liqligi, rivojlanishi	118

5-§. Borliqdagi bog'lanish va alaqadorlikni ifodalovchi ✓ falsafiy kategoriylar	124
6-§ Borliqdagi harakat va rivojlanishning mohiyati, asosiy ✓ qonunlari	135

IV BO'LIM

BORLIQNING SHAKLLARI VA ULARNING FALSAFIY TAHLILI

I. Tabiiy borliq — falsafiy tahlil obyekti sifatida

1-§. „Tabiat“ tushunchasi. Tabiatni falsafiy tushunishning tarixiy taraqqiyot jarayonida o'zgarib borishi	147
2-§. „Jonli“ va „jonsiz“ tabiat, „hayot“ tushunchasi	149
3-§. Yerda hayotning paydo bo'lishi to'g'risidagi nazariyalar	150
4-§. Tabiat va jamiyat, ularning o'zaro munosabati, tabiiy va sun'iy muhit	152
5-§. Inson va jamiyatning tabiat bilan o'zaro munosabatlari evolutsiyasi	153
6-§. Noosfera to'g'risidagi ta'lilot	156

II. Jamiyat borlig'i va uning falsafiy tahlili

1-§. „Jamiyat“ tushunchasi. Jamiyatni diniy-naturalistik va falsafiy tushunish	160
2-§. Jamiyatning moddiy va ma'naviy hayoti, ularning birligi va o'zaro bog'liqligi	164
3-§. Ijtimoiy munosabatlar, ularning turlari va shakllari	166
4-§. Jamiyat hayotining assosiy sohalari va ularni boshqarish	170

III. Inson borlig'i va uning falsafiy tahlili

1-§. Inson borlig'i va uning mohiyati	176
2-§. Inson antroposotsiogenez jarayonining mahsuli	180
3-§. Insonda tabiiylik va ijtimoiylik	183
4-§. Inson hayotining mazmuni va ma'nosi	190

IV. Ijtimoiy ong — borliqning o'ziga xos shakli sifatida

1-§. Ongning mohiyati	194
2-§. Ijtimoiy ong va ma'naviyat	195
3-§. Ijtimoiy ongning tarkibi	198
4-§. Ijtimoiy ruhiyat va mafkura	200
5-§. Ijtimoiy ong shakllari	203

V BO'LIM

FALSAFANING AKSIOLOGIK MUAMMOLARI

1-§. Madaniyat va sivilizatsiya	216
2-§. Qadi'yatlar, ularning jamiyat hayoti va taraqqiyotidagi o'rni	226

VI BO'LIM

HOZIRGI DAVRNING GLOBAL MUAMMOLARI

1- §. Global muammolarning mohiyati va xillari	238
2- §. Jamiyat ichki ziddiyatlari tug'dirgan global muammolar	239
3- §. „Inson va jamiyat“ tizimidagi global muammolar	245
4- §. „Jamiyat va tabiat“ tizimidagi global muammolar	247

VII BO'LIM

FALSAFANING GNOSEOLOGIK MUAMMOLARI

1- §. Bilish jarayonining falsafiy tahlili	252
2- §. Bilishning subyekti va obyekti. Bilishning turlari	255
3- §. Bilishning asosiy bosqichlari: hissiy va mantiqiy bilish	258
4- §. Haqiqat to'g'risidagi falsafiy ta'limotlar. Haqiqatning mezoni	260
5- §. Ilmiy bilish va uning usullari	263
6- §. Ilmiy bilishning asosiy shakllari	270
7- §. Ijtimoiy bilish va uning o'ziga xos xususiyatlari	274

VIII BO'LIM

MUSTAQILLIKNING IJTIMOIY-FALSAFIY MUAMMOLARI

1- ■. Mustaqillik — jamiyat taraqqiyotining muhim omili	276
2- ■. Mustaqil O'zbekiston rivojining ijtimoiy-falsafiy jihatlari	282
3- ■. Islohotlarning falsafiy asoslari	283
4- ■. Mustaqil O'zbekiston davlati islohotchilik siyosatining bosh tamoyillari va asosiy yo'nalishlarining falsafiy tahlili	288
Foydalilanilgan adabiyotlar	298

F22

Falsafa: Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma / E.Y.Yusupov, S.Sh.Shermuhamedov, A.T.Ayupov va boshq. to‘ldirilgan 2- nashri. — T.: „Oqituvchi“ NMIU. 2005. — 304 b.

BBK 87ya7

FALSAFA

Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma

To‘ldirilagan ikkinchi nashri

„O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2005

Muharrir *S.Mirzaxo‘jayev*
Badiiy muharrir *Sh.Xo‘jayev*
Texnik muharrir *S.Tursunova*
Musahhih *A.Ibrohimov*
Kompyuterda sahifalovchi *Q.Kuzayeva*

IB № 8285

2005-yil 31-yanvarda original-maketdan chop etishga ruxsat berildi.
Bichimi 60x90^{1/16}. Ofset bosma usulida chop etildi. Bosma t. 19,0.
Nashr t. 18,2. 2000 nusxada bosildi. Buyurtma №8.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining „O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent —129, Navoiy ko‘chasi, 30-uy. // Toshkent, Yunusobod dahasi, Murodov ko‘chasi, 1-uy. Sharhnomalar № 07-163-04.

FALSAFA



„O'QITUVCHI“